3. Dey, S. Bhattacharyya, S. Dey, J. Platos, V. Snasel, Automatic clustering of colour images using quantum inspired meta-heuristic algorithms, Appl. Intell. 53 (9) (2023) 9823–9845. [27] Y. Zhang, K. Lu, Y. Gao, M. Wang, NEQR: a novel enhanced quantum representation of digital images, Q. Inf. Process. 12 (2013) 2833–2860.
4. H.-S. Li, P. Fan, H. Xia, H. Peng, G.-L. Long, Efficient quantum arithmetic operation circuits for quantum image processing, Sci. China Phys. Mech. Astron. 63 (2020) 1–13.
5. D.T. Muhamediyeva, G.E.Ametova, U.N.Ganiyev NEQR algoritmi asosida kvant tasvirni kodlash va Gauss filtri yordamida shovqin ta'sirini kamaytirish, Сборник материалов республиканской научно-практической конференции на тему «Современные проблемы интеллектуальных систем» (18-19-апреля 2025 г.) часть 1, –B. 278-280.
6. S. Caraiman, V. Manta, Image processing using quantum computing, in: 2012 16th International Conference on System Theory, Control and Computing, ICSTCC, IEEE, 2012, pp.1–6.

SUN'IY INTELLEKT TEXNOLOGIYALARI YORDAMIDA TUPROQ XUSUSIYATLARINI HOSILDORLIKGA TA'SIRINI O'RGANISH USULLARI

Axatov Abror Askar o'g'li
Sharof Rashidov nomidagi Samarqand davlat universiteti
axatov_abror@samdu.uz

Annotatsiya. Mazkur tadqiqotda tuproq xususiyatlarini sun'iy intellekt va mashinaviy o'qitish algoritmlari yordamida unumdorlikga ta'sirini o'rganilgan. Tuproqning fizik, kimyoviy va biologik xususiyatlaridan bir nechtasi unumdorlik uchun muhim deb olindi. Tuproq tahlili uchun an'anaviy usullar va mashinaviy o'qitishning algoritmlarining farqlari o'rganildi. Mashinaviy o'qitishning regressiya, klassifikatsiya va klasterlash usullarining qishloq xo'jaligi ma'lumotlari uchun qo'llash metodlari ko'rib chiqildi.

Kalit so'zlar. Tuproq unumdorligi, sun'iy intellekt, mashinaviy o'qitish, regressiya, klassifikatsiya, klasterlash, organik moddalar, makroelementlar, mikroelementlar, dala nam sig'imi, tuproq zichligi.

Kirish

Qishloq xo'jaligining muvaffaqiyati ko'p jihatdan tuproqning unumdorligiga, ya'ni o'simliklarni ozuqa moddalari bilan ta'minlash qobiliyatiga bog'liq. Tuproq unumdorligi ekinlarning hosildorligi, sifati va qishloq xo'jaligi tizimlarining uzoq muddatli barqarorligini belgilovchi asosiy omil hisoblanadi. Bu sohada tadqiqotlar shuni ko'rsatadiki, tuproqning optimal boshqaruvi hosildorlikni 20-30% gacha oshirishi mumkin, bu esa uning hozirgi kundagi ahamiyatini yanada oshirmoqda.

Tuproqning unumdorlik qobiliyati uning fizik, kimyoviy va biologik omillarining murakkab o'zaro ta'siriga bog'liq bo'lib, doimiy monitoring ostida boshqaruvni talab qiladi. Bunday boshqaruvlar asosan ma'lumotlarni zamonaviy texnologiyalar orqali tahlil qilish orqali amalga oshiriladi, bunda sun'iy intellekt texnologiyalari va mashinaviy o'qitish algoritmlari samarali hisoblanadi [1-3].

Mashinaviy o'qitish - bu kompyuterlarga mavjud ma'lumotlardan avtomatik ravishda o'rganish asosida xulosa beruvchi o'sib borayotgan texnologiya hisoblanadi. Qishloq xo'jaligida bu texnologiya turli manbalardan olingan ma'lumotlarni birlashtirib, tuproq holati haqida bashoratlar qilishda qo'llaniladi. Bugungi kundagi aqilli qishloq xo'jaligining asosiy maqsadi bu resurslardan samarali foydalanish va hosildorlikni oshirish hisoblanadi. Bu maqsadga erishishda mashinaviy o'qitish texnologiyalarini nafaqat ilmiy tadqiqotlarda, balki amaliy qishloq xo'jaligida ham tobora keng qo'llash yaxshi va aniq natijalarni ko'rsatmoqda [2-5].

Ushbu tadqiqotning asosiy maqsadi tuproq xususiyatlarining qishloq xo'jaligi hosildorligiga ta'sirini mashinaviy o'qitish yordamida o'rganishdir. Tadqiqotning dolzarbligi global miqyosdagi muammolar bilan chambarchas bog'liq. Iqlim o'zgarishi tuproqning unumdorligiga yanada katta tahdid solmoqda, chunki eroziya, sho'rlanish va qurg'oqchilik kabi muammolar kuchaymoqda. Shu sababli, tuproqni samarali boshqarish va uning salohiyatini oshirish bugungi kunning eng muhim vazifalaridan biridir [3-6].

Tuproq unumdorligiga ta'sir qiluvchi asosiy xususiyatlar va ularni
tahlil qilish choralari

Tuproq unumdorligi deganda, uning o'simlik o'sishi va rivojlanishi uchun kerak bo'ladigan oziq moddalar bilan tahminlanish darajasi nazarda tutiladi. Tuproqning unumdorligi uning bir nechta asosiy xususiyatlarga bog'liq bo'lib ularni quyidagicha tasniflash mumkin.

Fizik xususiyatlar:

Mexanik tarkib. Tuproqning mexanik tarkibi deganda turli o'lchamdagi mineral, ya'ni qum, chang va loyqa zarrachalarining o'zaro nisbati tushuniladi. Mexanik tarkib tuproqning suvni ushlab turishiga, tuproq tuzilishiga, biologik xilma-xilligiga ta'sir qiladi va ozuqa moddalar bilan ta'minlanishini tartibga soladi.

DNS. Dala nam sig'imi tuproqning o'ziga ma'lum miqdorda suv shimish va uni saqlab turish xususiyati sanaladi,

Tuproq zichligi. Tuproqning zichligi ildizlarning o‘sishi, suv infiltratsiyasi va havo almashinuviga ta'sir qiladi.

Kimyoviy xususiyatlar:

pH (tuproq muhiti). Tuproqning pH darajasi oziq moddalarning eruvchanligi va o‘simliklar tomonidan o‘zlashtirilishiga katta ta'sir qiladi,

Elektr o‘tkazuvchanlik (EC). Tuproqdagi tuzlarning miqdorini ko‘rsatadi va bu orqali tuproqning sho‘rlanganlik holati tekshiriladi,

Organik modda. Tuproqdagi organik modda miqdori uning suv saqlash qobiliyatini, oziq moddalar bilan ta'minlashini va mikroorganizmlarning faolligini oshiradi,

Makroelementlar (azot, fosfor, kaliy va h.k). O‘simliklarning o‘sishi uchun zarur bo‘lgan asosiy oziq moddalar miqdori tuproq unumdorligining muhim ko‘rsatkichi sanaladi,

Mikroelementlar (temir, mis, rux, bor va h.k). Tuproq mikroelementlari o‘simliklarning normal o‘sishi va rivojlanishi uchun oz miqdorda zarur bo‘lgan muhim oziq moddalar hisoblanadi.

Biologik xususiyatlar:

Mikroorganizmlar faolligi. Tuproqdagi mikroorganizmlar organik moddalarni parchalaydi, oziq moddalarni o‘simliklar uchun oson shaklga o‘tkazadi va tuproq strukturasi yaxshilanishiga hissa qo‘shadi [4-6].

1-jadval. Tuproq unumdorligiga ta’sir qiluvchi engm nuhim xususiyatlar

Kimyoviy xususiyatlar	**Fizik xususiyatlar**	**Biologik xususiyatlar**
pH (tuproq muhiti)	Mexanik tarkib	Mikroorganizmlar faolligi
Elektr o‘tkazuvchanlik	Dala nam sig‘imi (DNS)	
Organik modda	Tuproq zichligi	
Makroelementlar		
Mikroelementlar		

Bulardan tashqari yana boshqa ko‘plab tuproq xususiyatlari mavjud bo‘lib tuproqning boshqa holatlarini o‘rganish uchun muqobil xususiyatlarni ajratib olish maqsadga muvofiq hisoblanadi. An’anaviy usullar sanalgan tuproq namunalari yig‘ish va ularni laboratoriyada sinovdan o‘tkazish, ko‘p yillar davomida qo‘llanib kelinmoqda. Bu usullar aniq natijalar berishi mumkin, lekin ulardagi bir qancha kamchiliklar zamonaviy tahlil usullariga bo‘lgan talabni oshirmoqda.

Birinchidan - namuna yig‘ish, tahlil qilish va natijalarni qayta ishlash jarayoni bir necha haftagacha cho‘zilishi mumkin.

Ikkinchidan - laboratoriya jihozlari, kimyoviy eritmalar va mutaxassislarning xizmatlari katta xarajatlarga olib keladi.

Uchinchidan - an’anaviy tahlillar bilan katta dalalarning turli joylaridagi farqlarni to‘liq aks ettirish qiyin.

Shu sababli, tuproq xususiyatlarini tahlil qilishda zamonaviy usullarga ehtiyoj ortib bormoqda. So‘nggi o‘n yilliklarda texnologik taraqqiyot tuproqshunoslikni yangi bosqichga olib chiqdi. Mashinaviy o‘qitish algoritmlari yordamida qishloq xo‘jaligi ma’lumotlarini tezkorlik va aniqlik bilan tahlil qilish imkoniyati paydo bo‘ldi [5-6].

Mashinaviy o‘qitish algoritmlari va ularning tuproq tahlilida qo‘llashning ahamiyati

Mashinaviy o‘qitish yuqorida ta’kidlaganimizdek kompyuterlarga mavjud ma'lumotlardan avtomatik ravishda o‘rganish asosida xulosa beruvchi texnologiya hisoblanadi. Mashinaviy o‘qitish tizimi oldingi, daslabki ma’lumotlardan o‘qitiladi, bashorat modellarini quradi va har safar yangi ma’lumotlarni olganida, uning natijalarini bashorat qiladi.



1-rasm. *Mashinaviy o'qitish modellarining ishlash sxemasi*

Mashinaviy o'qitish algoritmlari odatda uchta asosiy toifaga bo'linadi, bular nazorat ostidagi o'qitish, nazoratsiz o'qitish va kuchaytirilgan o'qitish. Ushbu toifalarning har biri turli sohalarda xususan qishloq xo'jaligida ham tuproq ma'lumotlarini tahlil qilish va unumdorlikni baholashda o'ziga xos afzalliklarga ega bo'lib, ushbu sohada turli maqsadlar uchun qo'llaniladi [6-7].

Nazorat ostidagi o'qitish usuli - ma'lumotlarni belgilangan kirish va chiqish o'zgaruvchilari asosida o'rganadi. Bu toifadagi usul o'z navbatida *regressiya* va *klassifikatsiya* muammolariga bo'linadi.

Regressiya algoritmlari uzluksiz o'zgaruvchilarni bashorat qilish uchun ishlatiladi. Tuproq tahlilida bu usullar tuproqning pH darajasi, organik moddalar miqdori, dala nam sig'imi yoki makro va mikro elementlar miqdorini bashorat qilishda qo'llash mumkin. *Chiziqli regressiya, polinomial regressiya, GBM* va *SVR* kabi regressiya algoritmlari qishloq xo'jaligi sohasida juda keng qo'llaniladi.



2-rasm. *Tuproqning mexanik tarkib bog'liqliklarini chiziqli regressiya yordamida aniqlash*

Klassifikatsiya algoritmlarini tuproqni turli toifalarga ajratish uchun ishlatish mumkin. Misol uchun tuproqni mexanik tarkib ko'rsatkichlariga ko'ra (qum, qumoq, loy) yoki unumdorlik darajasiga ko'ra (yuqori unumdor, o'rtacha unumdor, past unumdor) tasniflash mumkin. *KNN, logistik regressiya, qaror daraxi, SVM* va *CNN* kabi algoritmlar bu jarayonda samarali hisoblanadi [7-8].

Nazoratsiz o'qitish usuli - yorliqsiz ma'lumotlar bilan ishlaydi va ma'lumotlardagi yashirin naqshlar yoki tuzilmalarni aniqlashga xizmat qiladi. Bu toifadagi algoritmlar tuproq ma'lumotlarini guruhlarga ajratish yoki korrelyatsiyalarni aniqlash uchun ishlatiladi hamda *klasterlash* va *assotsiatsiya* kabi toifalarga bo'linadi.

Klasterlash usuli odatda statistik ma'lumotlarni tahlil qilish uchun ishlatiladi. *K-Means* yoki *DBSCAN* kabi klasterlash algoritmlari tuproq ma'lumotlarini o'xshash xususiyatlarga ega guruhlarga

ajratadi. Misol uchun katta bir dalada tuproqning turli hududlari mexanik tarkibi, organik modda miqdori yoki pH darajasiga qarab turli guruhlarga ajratiladi. Agar ma'lumotlar to'plami daraxtga o'xshash tuzilmani yaratish uchun ierarxik klasterlarlash usulidan foydalaniladi.



3-rasm. *Tuproq tarkibi mikroelementlarini K-means algoritmi yordamida guruhlash*

Kuchaytirilgan o'qitish - algoritmlari qaror qabul qilish jarayonlarini optimallashtirish uchun ishlatiladi. Bu algoritmlar ma'lum bir muhitda eng yaxshi harakatlarni tanlashni o'rganadi. Bu algoritmlar qishloq xo'jaligi sohasida hali keng tarqalmagan bo'lsa ham uning kelajakdagi potentsiali katta deb baholanmoqda. Kuchaytirilgan o'qitish algoritmlarini sug'orish yoki o'g'itlash strategiyalarini optimallashtirish uchun ishlatilishi mumkin. Algoritm tuproqning joriy holati va atrof-muhit omillari asosida eng samarali chorani tanlash imkoniyatini yaratadi [7-9].

Xulosa

Ushbu tadqiqot tuproq xususiyatlarining hosildorlikga ta'sirini sun'iy intellekt va mashinaviy o'qitish algoritmlari yordamida o'rganishga qaratildi. Tuproqning bir qancha fizik, kimyoviy va biologik xususiyatlari unumdorlikni belgilovchi asosiy omillar sifatida qaraldi. Mashinaviy o'qitishning regressiya, klassifikatsiya va klasterlash algoritmlari yordamida tuproq ma'lumotlarini tezkor va aniq tahlil qilish mumkin. Ushbu algoritmlar qishloq xo'jaligida resurslardan samarali foydalanish, hosildorlikni oshirish va tuproq degradatsiyasining oldini olishda muhim hissa qo'shadi. Tadqiqot natijalari sun'iy intellekt texnologiyalarining qishloq xo'jaligi sohasida kelajakdagi muhim rolini ta'kidlaydi, bu esa oziq-ovqat xavfsizligi va barqaror qishloq xo'jaligiga katta xizmat qiladi.

Foydalanilgan adabiyotlar ro'yxati:

1. Khaliq Pradana., F Budiman - Optimization accuracy value of agricultural land fertility classification using soft voting method., *Jurnal Penelitian Teknik Informatika*., Volume 9, Number 1, January 2024., 152-164
2. Benos, L., Tagarakis, A. C., Dolias, G., Berruto, R., Kateris, D - Machine Learning in Agriculture: A Comprehensive Updated Review. *Sensors (Basel)*, 21(11), 3758.
3. Chlingaryan, A., Sukkarieh, S., & Whelan, B - Machine learning approaches for crop yield prediction and nitrogen status estimation in precision agriculture., *Computers and Electronics in Agriculture*, 151, 61–69
4. Ortikov T - Agrochemical and Chemical Properties of Soils., *Innovations in Sustainable Agricultural Systems*, Volume 1: ISAS 2024., 280

5. A Rashidov, A Akhatov, F Nazarov - The same size distribution of data based on unsupervised clustering algorithms. The International Conference on Artificial Intelligence and Logistics Engineering., (2023)., 437-447.
6. Nazarov F.M, Yarmatov Sh - Development of algorithms for predictive evaluation of investment projects based on machine learning., *Artificial Intelligence, Blockchain, Computing and Security Volume 2 -2023., 681-685*
7. Chlingaryan, A., Sukkarieh, S., & Whelan, B. (2018). Machine learning approaches for crop yield prediction and nitrogen status estimation in precision agriculture: A review. *Computers and Electronics in Agriculture*, 151, 61-69.
8. Axatov A., Nazarov F.M - Methods for preparing a data set for determining soil fertility based on artificial intelligence models., *Raqamli Transformatsiya va Sun'iy Intellekt ilmiy jurnali,* VOLUME 3, ISSUE 2, APRIL 2025., 91-99
9. Axatov A - The main stages of preparing a dataset for machine learning models and their importance., *"Zamonaviy axborot-kommunikatsiya texnologiyalari va AT-ta'lim tatbiqi muammolari" mavzusidagi Respublika ilmiy-amaliy anjumani.*, 25-26 aprel 2025-yil., 326-328

SUNIY INTELLEKT ORQALI ZAMONAVIY ISHLAB CHIQARISH

Akbarov Qodirali Qurbonali o'g'li
Farg'ona davlat texnika universiteti assistenti
akbarov.qodirali68@ferpi.uz
Axmedov Murodjon Mamurovich
Farg'ona davlat texnika universiteti, 54-22 IMT guruh talabasi

Annotatsiya: Sun'iy intellekt ma'lumotlarni qayta ishlash, tahlil qilish avtomatik ravishda va eng muhimi, ma'lumotlarni bashorat qilishi mumkin bo'lganligi sababli, u aniq va ishonchli tahmin talabini ta'minlaydi, bu esa korxonalarga xaridlar va buyurtmalarni qayta ishlash nuqtai nazaridan manbalarni optimallashtirishga imkon beradi, shuning uchun transport, omborxona va ta'minot zanjiri boshqaruvi bilan bog'liq xarajatlarni kamaytiradi. Yaxshi ishlaydigan ta'minot zanjiri har bir tadbirkorlik subyekti uchun muvaffaqiyat kalitidir. Inventarizatsiya bo'yicha aniq tahminga ega bo'lish raqobatbardosh ustunlikni ta'minlaydi. Ishlab chiqarishni muvaffaqiyatga erishishida mahsulotni joriy etish, tarqatish tarmog'ini kengaytirish kabi ko'plab ichki omillar va ob-havo, ekstremal mavsumiylik va ta'minot zanjiri ishlashiga ta'sir qiluvchi mijozlar idrokidagi o'zgarishlar yoki ommaviy axborot vositalarida yoritish kabi tashqi omillarga bog'liq . So'nggi yillarda sun'iy intellekt bizning miyamizning kengaytmasi bo'lib, bizning aqliy qobiliyatimizni biz hech qachon mumkin bo'lmagan darajalarga kengaytirganligi isbotlangan. Garchi ko'pchilik sun'iy intellekt odamlarning o'rnini bosishiga ishonishsada, bu to'g'ri emas, aksincha u bizning haqiqiy strategik va ijodiy salohiyatimizni yuzaga chiqarishga yordam beradi.

Kalit so'z: Sun'iy intellect, algoritmlar, platforma, avtomatlashtirish, aqilli ishlab chiqaruvchi, aqilli do'kon, aqilli kamera, aqilli dvigatel, aqilli logistika, elektron o'simlik

KIRISH

Sun'iy intellekt sezish, o'rganish, fikr yuritish va to'g'ri harakat qilish uchun ishlab chiqilgan hisoblash texnologiyalari to'plamidan iborat. Mobil kompyuterlardagi texnologik taraqqiyot, internetda katta ma'lumotlarni saqlash qobiliyati, bulutga asoslangan mashinani o'rganish va axborotni qayta ishlash algoritmlari va boshqalar. Sun'iy intellekt biznesning ko'plab sohalariga integratsiyalashgan va xarajatlarni kamaytirish, daromadlarni oshirish va yaxshilashni isbotladi. aktivlardan foydalanish. Sun'iy intellekt korxonalarga deyarli 100% aniq tahminlar olish va mijozlar talabini tahmin qilishda yordam beradi, o'zlarining ilmiy-tadqiqot ishlarini optimallashtiradi va ishlab chiqarishni arzonroq va yuqori sifat bilan ko'paytiradi, ularga reklamada yordam beradi. Masalan, maqsadli mijozlarni aniqlash, demografiya, narxni aniqlash va to'g'ri loyihalash o'z mijozlariga yaxshi tajribani taqdim etadi. Qiymat yaratishning ushbu to'rtta sohasi raqobatdosh ustunlikka erishish uchun juda muhimdir;

a) chiqindilarni yo‘q qilish uchun samarali dizaynlarni yaratish uchun

b) real vaqt rejimida monitoring va xatosiz ishlab chiqarish

c) jarayonning qisqarish vaqtini osonlashtirish kabi sun’iy intellektga asoslangan texnologiyalardan foydalanadilar.

Sun’iy intellektni qo‘llash korxonalarga raqobatdosh ustunlikka ega bo‘lishga yordam beradi:

a) yuqori aniqlikda mijozlar talabini tahmin qilish,

b) o‘zlarining ilmiy-tadqiqot ishlarini optimallashtirish, shuning uchun ishlab chiqarishni arzonroq va yuqori sifat bilan oshirish

c) ularni reclama qilishda yordam berish, maqsadli mijozlarni aniqlash, demografiya, narxni aniqlash va to‘g‘ri xabarni loyihalash.

Sun’iy intellekt allaqachon tibbiyot, huquq, moliya, buxgalteriya hisobi, soliq, audit, arxitektura, konsalting, mijozlarga xizmat ko‘rsatish, ishlab chiqarish va transport va boshqalar kabi turli biznes amaliyotlarida qo‘llanilmoqda. Sun’iy intellekt kompyuterning hal qilish uchun aniq dasturlashtirilmagan muammolarni mustaqil hal qilish qobiliyati sifatida tavsiflanadi

Aqilli do‘kon, o‘z sotuvchisi omborida sun’iy intellekt platformalaridan birini qo‘llaydi, u yerda robotlar mahsulot bilan to‘ldirilgan minglab qutilarni konveyer tasmalari ustida boshqaradi va ularni to‘ldirish uchun o‘z vaqtida odamlarga yetkazib beradi.

Aqilli ishlab chiqaruvchi, ishlab chiqarishni loyihalashda:

a) aktivlar va jarayonlarni yaxshiroq optimallashtirish,

b) eng yaxshi jamoalarni, ya’ni odamlar va robotlarni loyihalash,

c) sifat va ishonchlilikni oshirish, ya’ni xatosiz

d) texnik xizmat ko‘rsatish uchun to‘xtab qolishning oldini olish.

Aqilli kamera, obyektni tanib olish va semantik segmentatsiya texnologiyalaridagi yutuqlar robotlarning xatti-harakatlarini, xususan, ular o‘zaro ta’sir qiladigan materiallar va obyektlarning xususiyatlarini qanday tan olishlari kontekstida o‘zgartirdi. Yangi sun’iy intellekt bilan jihozlangan, kamera bilan jihozlangan robotlar bo‘sh joyni tanib olishga o‘rgatilgan.

Sun’iy intellektni qo‘llab-quvvatlaydigan tizim aniq bashorat qilish uchun algoritmlar va ma’lumotlar to‘plamlarining eng yaxshi kombinatsiyasini biladi.

Qiymat yaratishning ushbu to‘rtta sohasi raqobatdosh ustunlikka erishish uchun juda muhimdir. Ushbu talab tahminlari shunchalik aniqki, ular mahsulot mavjud emasligi sababli sotuvni yo‘qotmaydi. Sun’iy intellekt talab va optimallashtirishni bashorat qilishga yordam beradi chakana savdo va ishlab chiqarish sanoati uchun juda foydali. Sun’iy intellekt ishlab chiqarishda yordam beradi Sun’iy intellekt proyeksiya va tahminlashda samarali qo‘llaniladi. Tashkilotlar har doim talab va taklifni muvozanatlashga intiladi. Shuning uchun uning ta’minot zanjiri va ishlab chiqarishi uchun yaxshiroq tahmin kerak.

Aqilli ishlab chiqaruvchi, sun’iy intellekt ishlab chiqaruvchilaridan foydalanish asosiy ishlash ko‘rsatkichlarini optimallashtiradi va ularni real vaqtda ko‘rib chiqadi. Masalan; virtual dasturlardan foydalangan holda modelni moslashtirish moddiy va xodimlar bilan bog‘liq qiyinchiliklarni yaxshiroq bashorat qilish, aniqlash va oldini olishga va energiya sarfini optimallashtirishga yordam beradi. Eng muhimi, muammolar paydo bo‘lishidan oldin muhandislarni ogohlantiradi va yechimlarni tavsiya qiladi. Sun’iy intellekt ishlab chiqarishni nafaqat yig‘ish liniyalarining samarali amaliyotini, balki xarajatlarni qisqartirish, chiqindilarni kamaytirish va bozorga chiqish vaqtini tezlashtirish imkonini beradi. Mashinani o‘rganish algoritmlari, hamkorlikda ishlaydigan robotlar va o‘zini o‘zi boshqaradigan transport vositalaridan foydalanish ombor xarajatlarini yaxshilash va inventar darajasini pasaytiradi.

Sun’iy intellektni qo‘llab-quvvatlaydigan yarimo‘tkazgich chiplarini ishlab chiqarish jarayonida ham sun’iy intellekt juda katta yordam beradi. Birinchi qayta ishlashdan so‘nggi chipgacha bo‘lgan aylanish vaqtlari odatda bir necha haftadan bir oygacha davom etadi va turli xil oraliq sifatni tekshirish jarayonlarini o‘z ichiga oladi. Yarimo‘tkazgich ishlab chiqarishda sinov xarajatlari va rentabellikdagi yo‘qotishlar ishlab chiqarishning umumiy qiymatining 30 foizini tashkil qilishi mumkin. Yarimo‘tkazgich ishlab chiqaruvchilari ishlab chiqarish jarayonlarini o‘zgartirish orqali oldini olish mumkin bo‘lgan yo‘qotishlarining asosiy sabablarini aniqlash uchun sun’iy intellect ya’ni aqilli dvigatellaridan foydalanadilar. Kengaytirilgan ilovalar real vaqtda ishlab chiqarish jarayonlarni kuzatish va sozlash uchun mo‘ljallangan Sun’iy intellekt texnikasi nafaqat mahsulotning optimallashtirilgan ish sharoitlarini yoki jarayon sharoitlarini aniqlashga, balki ishlab chiqarishdagi nuqsonlarni sezilarli darajada kamaytirishga yordam beradi. Xuddi shunday; minimal uzilishlar bilan ishlaydigan murakkab tizimlar og‘ir aktivlarga ega korxonalarda sun’iy intellekt mukammal yechimni taqdim etadi. Kommunal kompaniyalar o‘zlarining keng elektr tarmoqlariga texnik xizmat ko‘rsatish uchun sun’iy intellekt foydalanadilar.

Aqilli logistikada ham robotlar yuklarni yuk mashinalariga olib boradilar, ularning haydovchilari transport sharoitlari va ob-havoga qarab eng yaxshi yo‘nalish bo‘yicha mijozlarning uylariga olib boradilar. Datchiklar, dronlar va boshqa apparat vositalaridan olingan ma’lumotlardan foydalangan holda, mashinani o‘rganish dasturlari tarmoq operatorlariga aktivlarni foydali xizmat muddati tugashidan oldin foydalanishdan chiqarishdan qochishga yordam beradi va shu bilan birga aktivlarning yaxshi ishlashini ta’minlash uchun ularni masofaviy tekshirish va texnik xizmat ko‘rsatishni tez-tez bajarishga imkon beradi.

Sun’iy intellekt butun dunyo bo‘ylab ishlab chiqarish korxonalariga ta’minot zanjirlarida va ko‘proq o‘zaro bog‘langan va hamkorlikda bo‘lgan qiymat zanjirlarida yordam berdi qishloq xo‘jaligida ham orqada emas. "Qutidagi elektron o‘simliklar" tushunchasi - bu raqobatbardosh narxda cheklangan mahsulot turlarini ishlab chiqarishi mumkin bo‘lgan kichik hajmdagi, kam kapital sarflanadigan, mobil zavodlar uchun ajoyib yangilikdir.



Agar elektron o‘simliklar ustida olib borilayotgan tadqiqotlar qishloq xo‘jaligi olamida juda foydali bo‘ladi. Dunyo olimlari o‘simlikni bir kun kelib elektronika uchun aloqa yoki quvvat tizimini

ta'minlaydigan o‘tkazuvchan simlarni o'stirishga muvaffaq bo'lishdi kesilgan atirgulni suv va maxsus o‘tkazuvchan polimer - qisqacha PEDOT eritmasiga joylashtirdi. 48 soat ichida o'simlik tabiiy ravishda suvni va u bilan birga polimerlarni o‘zlashtirdi, bunda o‘simlikning himoya mexanizmi reaksiyaga kirishdi. PEDOT tarqalayotganda joyiga o‘rnatildi va o‘tkazuvchan molekulalarning uzun zanjirlarini – o‘simlik ichiga o'rnatilgan simlarni hosil qildi. Ushbu simlar ma’lumot yoki quvvatni o‘tkazishi mumkin, bu esa o‘rnatilgan qurilmalar va sensorlar uchun zavod yo‘llari o‘z resurslari bilan qilgan ishlarni amalga oshiradi. Olingan "elektron o'simlik" bu ma’lumotlarni o‘z barglarida ham ko‘rsatishi mumkin. Bargni PEDOT bilan to‘ldirish va polimerlarning barg yuzasiga nisbatan o‘rnini boshqarish uchun kuchlanish yordamida ular juda sekin, juda qo‘pol, ammo funksional monoxromatik ekranni yaratdilar. Bu tadqiqot natijasida, daraxt yaproqlari orqali tuproqning azot yoki suv darajasini aniqlash mumkin bo‘ladi.

Sun’iy neyron tarmoqlar, robototexnika, internetda katta ma’lumotlarni saqlash, bulutga asoslangan mashinalarni o‘rganish va ma’lumotlarni qayta ishlash algoritmlari va boshqalardagi texnologik taraqqiyot turli biznes sohalarida sun’iy intellektdan foydalanishni kuchaytirdi. Ko‘pgina korxonalar o‘zlarining qiymat zanjirining asosiy qismlarida sun’iy intellektdan foydalanadilar, chunki sun’iy intellekt sezilarli raqobatdosh ustunliklarni taqdim etadi. Eng muhimi, sun’iy intellekt texnologiyalari ularga qo‘lda ishlashning ko‘p darajalarini, shu jumladan reklama aksiyalarini, assortimentlarni va ta’minot zanjirini yo‘q qilishga yordam berdi. Elektron tijorat biznesi sun’iy intellektdan foydalanib, tendentsiyalarni bashorat qilish, saqlash va logistikani optimallashtirish, narxlarni o‘rnatish va aksiyalarni shaxsiylashtirish kabi qulayliklar yaratadi.

XULOSA

Sun’iy intellektdan to‘liq foydalanish uchun ko‘plab o‘zgarishlar kerak, eng muhimi, o‘zgarishlar ko‘plab kompaniyalarni chakana savdo va ishlab chiqarish jarayonlarini yangi strategiyalarni, ya’ni zavod dizaynini qabul qilishga, ularning ishlab chiqarish izlarini qayta shakllantirishga va yangi ta’minot zanjiri modellarini ishlab chiqishga majbur qiladi. Shuningdek, kompaniyalar biznes yuritish usullarini o‘zgartirishi kerak, chunki inson operatorlaridan sun’iy intellektga ega mashinalar va robotlarga o‘tish bo‘ladi. Shuni ta’kidlash joizki, sun’iy intellekt tomonidan boshqariladigan global sanoat faoliyati tezkor ravishda o‘sib bormoqda, bu esa sun’iy intellekt ko‘plab korxonalar uchun yoki butun dunyo bo‘ylab ustuvor vazifaga aylanganligini ko‘rsatadi.

Foydalanilgan adabiyotlar

1. S.M.Yusupov Abrasive Yeilish Sharoitida Ishlovchi Stamp Plastinalarining Mustaqamligini Diffuziya Borlash Usuli Bilan Oshirish Miasto Przyszlości 50, 119-124
2. Y.S.Ma'rufovich, AQ Qurbonali o‘g‘li Kompyuterning raqamli boshqaruv mashinalari va ularni dasturlash - Informatika va ma'lumotlar fanlari xalqaro jurnali ..., 2024 y.
3. Y.S.Ma’rufovich, AQ Qurbonali o‘g‘li Mexatronika va robototexnika tizimlarining sinergiyasini o‘rganish American Journal of Technology Advancement 1(1), 36-38
4. Akbarov, Q. Q. O. G. L. (2021). Titan qotishmalari materiallariga ishlov berish usullarini tadqiq qilishni dolzarbligi. Science and Education, 2(6), 252-257.
5. oglu Akbarov, Q. Q. Titan qotishmalari materiallariga ishlov berish usullarini tadqiq qilishni dolzarbligi.
6. Shoxrux G‘ayratjon o’g, R., Qurbonali o’g‘li, A. Q., & Dilshodjon o’g‘li, T. I. (2022). Reconstruction of Machined Surfaces by Contact Welding and Milling of Worn Parts. Eurasian Scientific Herald, 9, 8-14.
7. Qurbonali O’G‘li, A. Q., & Dilshodjon O’G‘li, T. I. (2022). Reconstruction of Machined Surfaces by Contact Welding and Milling of Worn Parts.
8. Akbarov, Q. Q. O. G. L. (2021). Titan qotishmalari materiallariga ishlov berish usullarini tadqiq qilishni dolzarbligi. Science and Education, 2(6), 252-257.
9. Ma’rufovich, Y. S., & Qurbonali o‘g‘li, A. Q. (2024). Exploring The Synergy Of Mechatronics And Robotics Systems. American Journal of Technology Advancement, 1(1), 36-38.
10. Ma’rufovich, Y. S., & Qurbonali o‘g‘li, A. Q. (2024). Computer Numerical Control Machines and Their Programming. International Journal of Informatics and Data Science Research, 1(1), 13-18.

11. SH. Fayzimatov, S. Yusupov. Analytical and model optimization of kinematic schemes of uniform-density pressing of powder materials. // "International Journal of Advanced Research in Science, Engineering and Technology" Vol. 6, Issue 6, June 2019.

BILIMLARNI IFODALASH: MODELLAR VA TEXNOLOGIYALAR

Aynaqulov Xusniddin Abduxamidovich,
Jizzax Politexnika instituti, "Arxitekturaviy loyihalash" kafedrasi dotsneti,
Abbazov Lazizbek Abdumajit og'li
JizPi talabasi
Gmail: aynaqulov2975@gmail.com
Gmail: a.lazizbek17@gmail.com

Annotatsiya: Maqolada sun'iy intellekt (SI) tizimlarida bilimlarni ifodalash muammosi, mavjud modellar va texnologiyalar chuqur tahlil qilinadi. Bilimlar mashinalar tomonidan qayta ishlanishi uchun ularni ifodalash shakllari (mantiqiy modellar, freymlar, ontologiyalar, bilim grafiklari) muhokama qilinadi. Zamonaviy texnologiyalar — RDF, OWL, SPARQL va bilim grafiklarining amaliy qo'llanilishi, ularning afzalliklari va cheklovlari tahlil qilinadi. Shuningdek, O'zbekistonda bilimlarni ifodalash sohasida yuzaga kelayotgan muammolar va imkoniyatlar haqida ham fikr yuritiladi.

Kalit so'zlar: bilimlarni ifodalash, sun'iy intellekt, ontologiya, semantik tarmoq, RDF, bilim grafiklari

Sun'iy intellekt tizimlari inson faoliyatining murakkab jihatlarini raqamli muhitda takrorlay olish qobiliyatiga tayanadi. Bu esa, eng avvalo, bilimlarni formal tarzda ifodalashni talab qiladi. Bilimlarni ifodalash — bu real dunyodagi tushunchalar, obyektlar, munosabatlar va holatlarni mantiqiy, strukturaviy va mashina tomonidan qayta ishlanadigan ko'rinishda aks ettirishdir. Ushbu soha faqatgina texnik yondashuv emas, balki falsafiy, lingvistik va kognitiv jihatlardan ham chuqur tahlilni talab etadi. Tarixan, bilimlarni ifodalash mantiqiy modellardan boshlangan. Klassik predikatlar mantiqi bu borada asosiy vosita bo'lib, u axborotni qoidalarga asoslangan tarzda qayta ishlash imkonini beradi. Biroq sof mantiqiy modellarning ifoda kuchi cheklangan bo'lib, real hayotdagi notekis, murakkab va kontekstga bog'liq bilimlarni tasvirlashda muammolar yuzaga keladi. Shu sababli, keyinchalik freymlar, semantik tarmoqlar va ontologik modellar paydo bo'ldi. Freymlar — bu tasvirlanayotgan obyektlar yoki holatlar haqida strukturaviy ma'lumotni saqlashga mo'ljallangan model bo'lib, har bir freym atributlar (slotlar) va ularning qiymatlaridan tashkil topadi. Semantik tarmoqlar esa bilimlarni graf ko'rinishida tasvirlaydi, bu yerda tugunlar — tushunchalar, qirralar esa ularning o'zaro munosabatlarini bildiradi. Bunday yondashuvlar bilimlar o'rtasidagi ierarxik va semantik bog'liqliklarni ko'rsatishda alohida ahamiyat kasb etadi. Eng rivojlangan ifoda shakllaridan biri bu ontologiyalardir. Ontologiyalar — bu tushunchalar to'plami, ularning xossalari va munosabatlarini qat'iy qoidalar asosida tavsiflovchi formal tuzilmalardir. Ular sun'iy intellekt tizimlari uchun bilimlar bazasi vazifasini o'taydi. Ontologiyalarni yaratishda OWL (Web Ontology Language) tili keng qo'llaniladi. Ushbu til orqali murakkab tushunchalar o'rtasidagi ierarxiyalar, izohlar, istisnolar va tavsiflar ifodalanadi. Zamonaviy sun'iy intellekt tizimlarida ayniqsa bilim grafiklarining o'rni katta. Bilim grafiklari — bu katta miqdordagi bilimni ob'ektlar va ularning bog'lanishlari shaklida aks ettiruvchi strukturadir. Ular RDF (Resource Description Framework) texnologiyasiga asoslanadi. RDF har bir bilimni "subyekt–predikat–obyekt" ko'rinishidagi uchlik sifatida ifodalaydi. Ushbu model semantik aniqlikni ta'minlab, ma'lumotlar orasida avtomatik xulosa chiqarishga asos yaratadi. RDF bilan ishlashda SPARQL so'rov tili qo'llaniladi, u orqali ontologiyalar va bilim grafiklaridan murakkab ma'lumotlarni qidirish va olish mumkin. Bugungi kunda Google, Amazon, Microsoft kabi yirik texnologik kompaniyalar foydalanuvchilar ehtiyojlarini aniqlash, kontekstual reklama berish, qidiruv natijalarini optimallashtirishda bilim grafiklaridan keng foydalanmoqda. Aynan bilimlarni to'g'ri ifodalash evaziga mashinalar inson fikrini chuqurroq tushunishga qodir bo'lmoqda. O'zbekiston kontekstida esa bu soha endi shakllanmoqda. Afsuski, hozirda davlat tilida tuzilgan ontologiyalar mavjud emas, hamda ochiq bilim grafiklari, domenga xos bilimlar to'plami yaratilmagan. Raqamli xizmatlarni rivojlantirishda bu jiddiy to'siq bo'lib xizmat

qilmoqda. Shunday bo‘lsa-da, aynan shu muammolarni hal qilish orqali sun’iy intellekt sohasida milliy rivojlanishga erishish mumkin. Milliy til va madaniyatga mos ontologiyalar yaratish, davlat muassasalari va oliy ta’limda semantik texnologiyalarni tadbiq qilish bu yo‘nalishda muhim qadamlardir. Bilimlarni ifodalash faqat texnologik yechim emas — u inson tafakkurining mashinalar tomonidan qayta ishlanishiga zamin yaratadigan asosiy elementdir. Shu bois, bu sohani chuqur o‘rganish va rivojlantirish har qanday zamonaviy raqamli tizim uchun strategik ahamiyatga ega hisoblanadi.

Bilim grafiklari esa ushbu texnologiyalarning amaliy natijasi hisoblanadi. Bilim grafiklari yirik hajmdagi semantik ma’lumotlar to‘plamini ifodalaydi va ular ustida SPARQL yordamida murakkab so‘rovlarni amalga oshirish mumkin. Bugungi kunda bilim grafiklarining eng mashhur namunalaridan biri bu — **Google Knowledge Graph** bo‘lib, u foydalanuvchi so‘rovlariga kontekst asosida aniq javoblar qaytarishni ta’minlaydi. Sun’iy intellekt sohalarida, xususan sog‘liqni saqlash, huquq, moliya, ta’lim va til texnologiyalarida bilimlarni ifodalash vositalari muhim rol o‘ynaydi. Tibbiy ekspert tizimlari bemorga tashxis qo‘yishda, moliyaviy tizimlar esa tavakkalchiliklarni baholashda bilimlar grafikidan foydalanmoqda. O‘zbekiston kontekstida esa ushbu yo‘nalish hali keng rivojlanmagan. Milliy tillarda ontologiyalar yaratilmagan, semantik vositalar integratsiyasi kam. Bu esa raqamli xizmatlar sifatiga va sun’iy intellekt asosidagi tizimlar rivojiga salbiy ta’sir ko‘rsatmoqda. Shu bois, endilikda o‘zbek tilida semantik tarmoqlar yaratish, davlat xizmatlari uchun ontologik modellar ishlab chiqish, shuningdek, til texnologiyalarida bilim grafiklarini joriy etish dolzarb masalalardan biri hisoblanadi.

Foydalanilgan manbalar:

1. O‘zbekiston Respublikasi Raqamli texnologiyalar vazirligi. (2022). *Raqamli O‘zbekiston — 2030 strategiyasi*.
2. Russell, S., & Norvig, P. (2020). *Artificial Intelligence: A Modern Approach* (4th ed.). Pearson.
3. Gruber, T. R. (1993). A Translation Approach to Portable Ontology Specifications. *Knowledge Acquisition*, 5(2), 199–220.
4. Berners-Lee, T., Fischetti, M., & Lassila, O. (2001). The Semantic Web. *Scientific American*, 284(5), 34–43.
5. W3C. RDF 1.1 Concepts and Abstract Syntax. https://www.w3.org/TR/rdf11-concepts/
6. Antoniou, G., & van Harmelen, F. (2008). *A Semantic Web Primer*. MIT Press.
7. Shadbolt, N., Hall, W., & Berners-Lee, T. (2006). The Semantic Web Revisited. *IEEE Intelligent Systems*, 21(3), 96–101.
8. Studer, R., Benjamins, V. R., & Fensel, D. (1998). Knowledge Engineering: Principles and Methods. *Data & Knowledge Engineering*, 25(1–2), 161–197

ОБНАРУЖЕНИЕ РУССКОЯЗЫЧНОГО СПАМА С ПОМОЩЬЮ АЛГОРИТМОВ МАШИННОГО ОБУЧЕНИЯ

Косимов Сардор Дилмуродович
Андижанский филиал Кокандского университета,
Андижанский государственный технический институт
докторант, учитель (ORCID: 0009-0007-7859-3482)
Кодиржонова Маржона Исломжон кизи
Андижанский филиал Кокандского Университета ,
Студентка 1- курса Группы ФИЯ(рус)24_04

Аннотация :Данная работа посвящена решению задачи фильтрации спама методами машинного обучения. Проведён обзор алгоритмов идентификации спама, предложена их классификация. Дано описание математического аппарата рассмотренных алгоритмов, приведены данные о точности существующих их реализаций. Выделены перспективные направления исследований с целью повышения качества идентификации спама.

Ключевые слова: Замену букв, бессмысленные вставки, обходные символы, Gmail, Bert, обнаружение спама

На основании этой терминологии рассмотрим существующие алгоритмы фильтрации спама, основанные на машинном обучении.

Обнаружение русскоязычного спама с помощью алгоритмов машинного обучения-актуальная задача, особенно в контексте фильтрации электронной почты, комментариев, сообщений в мессенджерах и социальных сетях. Спамеры постоянно находят способы обходить фильтры, поэтому модель нужно регулярно обновлять:

Замену букв (например, "бесплатн0" вместо "бесплатно").

Бессмысленные вставки ("Купи прямо сейч.ас ва***у!").

Обходные символы (разделение слов: "п р о м о к о д").

Изображения вместо текста (боты не всегда могут их распознать).

Gmail – использует AI для фильтрации писем и блокировки фишинга. *BERT* для русскоязычного спам.

Обнаружение спама - это задача бинарной классификации, которая делит электронные письма на две категории: спам и не-спам. Чтобы преобразовать функции, основанные на традиционных методах, в общий формат, подходящий для моделей машинного обучения, необходимо вручную извлекать функции из содержимого электронной почты и метаданных. В этом методе часто используются такие модели, как наивный байесовский алгоритм [2], метод опорных векторов (SVM) и случайные леса.

Предотвращая опасности, связанные со спамом, эффективные системы обнаружения спама повышают удобство работы пользователей, а также поддерживают более масштабные инициативы в области кибербезопасности.

Машинное обучение — мощный инструмент для борьбы со спамом, особенно если использовать современные NLP-модели.

Зачастую метод машинного обучения преподносится разработчиками защитных решений как некая «серебряная пуля», волшебная универсальная технология, позволяющая защитить пользователя от широкого спектра угроз. Но что стоит за этими заявлениями? Без объяснения где именно и как используются эти технологии такие заявления воспринимаются просто как модные маркетинговые лозунги.В наших продуктах технологии машинного обучения работают уже много лет и в одном мы уверены твердо — их нельзя воспринимать как некую супертехнологию, побеждающую все угрозы. Это высокоэффективный инструмент, но это всего лишь инструмент, один из многих. Мой коллега Алексей Маланов даже написал отдельную статью на тему мифов о машинном обучении в сфере кибербезопасности.У нас в «Лаборатории Касперского» машинное обучение находит применение в самых разных областях, в частности, при решении такой интересной задачи, как детектирование спам-сообщений. Потому что эта проблема гораздо сложнее чем кажется на первый взгляд. Ведь спам-фильтр должен не просто выявить 100% писем с нежелательным контентом, гораздо важнее корректно доставить все важные для получателя письма.

Говоря научным языком, нам надо минимизировать ошибки первого рода — ложные срабатывания, они же false positives (или на жаргоне спам-аналитиков — фолсы).

Еще одна задача, о которой также нельзя забывать, это обеспечение скорости реакции системы. Для того чтобы спам-фильтр не препятствовал нормальному обмену электронной почтой, система должна реагировать практически мгновенно.Для наглядности можно провести аналогию с треугольником управления проектами, только в нашем случае вершинами будут скорость, отсутствие ложных срабатываний и высокое качество определения спама. И жертвовать чем-то мы не можем. Например, спам можно разбирать вручную — эффективность 100%, но скорость упадет до минимальной. Или можно задать жесткие правила и не пропускать вообще ничего. Тогда спама не будет, но и полезных писем никто не получит. Также можно отфильтровывать только заведомо известный спам, но тогда часть мусорных писем все равно дойдет до адресата. Именно для достижения баланса в этом треугольнике мы и используем технологии машинного обучения, в частности алгоритм, который позволяет классификатору безошибочно и быстро выносить вердикт, касающийся того или иного письма.Как строится этот алгоритм? Разумеется, при помощи данных. Однако прежде чем эти данные «скармливаются»

классификатору, следует решить еще одну проблему — очистить их от шумов. Ведь основная сложность фильтрации спама заключается в том, что критерии восприятия полезности сообщений у разных людей могут быть разными. Один пользователь будет воспринимать письма с предложениями по распродажам как жесткий спам, в то время как другой сочтет их потенциально полезной информацией. Письма такого рода создают шумы, затрудняющие построение качественного алгоритма машинного обучения. Говоря языком статистики, в нашем наборе данных могут быть так называемые выбросы, то есть результаты, резко выделяющиеся из общей выборки. И для решения этой проблемы мы внедрили автоматическую фильтрацию выбросов на базе адаптированного под наши нужды алгоритма Isolation Forest. Безусловно, она позволяет отсеивать только часть шумов, но это уже значительно упрощает жизнь нашим алгоритмам.

В результате мы получаем практически «чистые» данные. Наша следующая задача — преобразовать их в формат, понятный классификатору. То есть в набор признаков (или, как мы говорим, фичей).

Электронный для определения характеристик и характеристик сообщений, классифицированных как спам.Сбор данных для обнаружения спама в электронной почте необходимо получать и анализировать связанные данные. Электронная почта отправителя адрес, содержание сообщения, тема, а также любые ссылки или вложения. могут быть включены в эту информацию. Алгоритмы машинного обучения успешно выявляют спам, не являющийся спамом понять характеристики каждого типа сообщений, выявить спам и часто в больших наборах данных неспамовых сообщений электронной почты преподается. Процесс сбора данных об алгоритмах спама и законной электронной почты позволяет более точно дифференцировать сообщения и адаптироваться к новым спам-стратегиям .По этой причине очень важно создавать точные и успешные системы обнаружения спама.

В этом отношении спамеры демонстрируют «характерное поведение». Их цель (или, по крайней мере, побочный эффект от их деятельности) — «сжечь» репутацию домена и его IP-адресов путем разгона массовых рассылок до тех пор, пока не будут предприняты какие-то действия со стороны сетевых провайдеров, продающих эти услуги; или связанные с ними IP-адреса занесены в популярные списки спам-фильтров, что делает их бесполезными для текущего отправителя (и проблематичными для будущих владельцев IP-адресов).

Использованная литература:

1. Научно-технический вестник информационных технологий, механики и оптики. Volume 18, 2018, С. 113-120.
2. "Информационные технологии и системы". Volume 37, 2019, С. 134
3. 2023/Хаммасова Луиза Шамилевна,Нестеров Сергей Александрович
4. Т.А.Хужакулов, Н.Т.Маликова «Искуственный интеллект». Ташкент-2019.

ЦИФРОВАЯ ЭКОНОМИКА И ОБРАЗОВАНИЕ: ИСПОЛЬЗОВАНИЕ НОВЫХ ТЕХНОЛОГИЙ В ОБУЧЕНИИ

Баходиров Ахрорбек Азизбекович
Ташкентский государственный экономический университет
E-mail: bahodirovaxrorbek5@gmail.com

Аннотация: В данной статье рассматривается использование современных информационных технологий и интернет-сетей, которые стали неотъемлемой частью нашей жизни, в образовательной системе, а также способы повышения эффективности образовательного процесса с их помощью, их преимущества **и оптимальные способы применения.**

Ключевые слова: информационные технологии, цифровая экономика, искусственный интеллект, интернет-сети, современные технологии.

Введение

В настоящее время информационные технологии и искусственный интеллект стремительно развиваются. Хотим мы этого или нет, современные технологии и гаджеты уже стали частью нашей жизни, и это не преувеличение. Представлять нашу жизнь без современных технологий сложно. Поэтому вместо того, чтобы искать способы полного отказа от них, нам следует задуматься о правильном их использовании. Сегодня существуют преподаватели, которые используют в своей практике электронные лаборатории, компьютеры и другие технологии. Однако есть и те, кто продолжает обучать по старым методам. Практически все учащиеся и студенты используют современные технологии и интернет-сети, что естественно для XXI века.Поэтому нельзя отстранять студентов и учащихся от использования информационных технологий, так как для развития нашего государства необходимо подготовить квалифицированные кадры, способные достойно представлять страну на международной арене. Во всем мире большинство стран эффективно используют информационные технологии, искусственный интеллект и интернет-сети для своего развития. В связи с этим необходимо обогащать образовательный процесс с использованием современных информационных технологий и интернет-сетей для развития системы образования. Я считаю, что в настоящее время необходимо практически обучать студентов и учащихся правильному и эффективному использованию интернет-сетей. Если просто устно запрещать, например, «онлайн-азартные игры», «видеоигры» или «контент, крадущий время», это, естественно, вызывает у большинства людей интерес, и они хотят попробовать это на себе. Поэтому я считаю, что было бы полезно включить в школьные программы предмет, который обучал бы правильному использованию интернета, наглядно демонстрируя его положительные и отрицательные стороны.

Анализ данных

Современный научно-технический прогресс требует внедрения передовых технологий не только в многочисленные отрасли производства, но и в сферы культуры, социальных и гуманитарных наук, а также в образование. Известно, что в «Национальной программе подготовки кадров» подчеркивается важность «обеспечения учебно-воспитательного процесса передовыми педагогическими технологиями», что определено как одна из ключевых задач второго и третьего этапов для повышения и совершенствования качества непрерывного образования.В этом контексте развитие независимой Республики Узбекистан основывается на богатом духовном потенциале народа, общечеловеческих ценностях, а также на последних достижениях экономики, науки, техники и технологий, что требует создания совершенной системы образования и воспитания.Создание теоретических и методических основ национальной и современной педагогики, а также их внедрение в практику, вытекает из задачи подготовки конкурентоспособных специалистов.Внедрение современных педагогических технологий в образовательный процесс и их применение требуют внимания к следующим аспектам:Преподаватели, желающие работать на основе современных образовательных технологий, должны разрабатывать сценарии занятий на основе интерактивных методов,

включающих определение времени для формирования знаний, мотивации студентов, разделение учебного материала на блоки, использование или проектирование методов, а также демонстрацию наглядности.Педагогические технологии, разработанные преподавателями, должны тестироваться в процессе занятий, анализироваться на предмет достижения целей, а преимущества работы с современными педагогическими технологиями должны обсуждатьс

на научно-методических семинарах в рамках кафедральных собраний и научных советов высших учебных заведений, чтобы обеспечить поддержку педагогического сообщества.Формирование инновационного педагогического сообщества из преподавателей, обладающих теоретическими и практическими знаниями в области педагогических технологий и их использования в образовательном процессе.Положительное выполнение этих задач не только повышает эффективность учебно-воспитательного процесса, но и создает условия для подготовки гармонично развитых личностей и конкурентоспособных квалифицированных специалистов.

Заключение

Цифровые технологии играют важную роль в повышении эффективности образовательного процесса. Они позволяют автоматизировать учебный процесс, обеспечивать индивидуальный подход к учащимся и развивать их навыки самостоятельного обучения. С помощью технологий преподаватели могут сократить время на выполнение рутинных задач и повысить эффективность уроков. Модель цифрового класса обогащает традиционную систему образования инновационными подходами, предоставляя учащимся возможность адаптироваться к требованиям современного мира. Поэтому внедрение современных технологий в образовательный процесс и их эффективное использование должны стать неотъемлемой частью современной системы образования.Цифровые технологии в классе включают различные программные обеспечения и гаджеты, предназначенные для помощи учащимся с особыми потребностями. Самый эффективный способ сократить количество повторяющихся и трудоемких задач для преподавателя — это использование технологий на уроках.Приложения образовательных технологий позволяют экономить время и энергию за счет автоматизации или частичной автоматизации повседневных операций, таких как учет посещаемости и мониторинг успеваемости. Они учат учащихся ответственно и стратегически использовать технологии, что помогает им в принятии решений и самодисциплине. Технологии в образовании готовят учащихся к обучению на протяжении всей жизни.

Список литературы

1. Мамараджабов М.Э. Технологии цифровой дидактики // European International Journal of Multidisciplinary Research and Management. 2022. Том 2, №4. С. 78-84.
2. .Юсупов Г.Ю. Современное развитие и совершенствование личных и профессиональных качеств учителя информатики // Spectrum Journal of Innovation, Reforms and Development 13, 2023. С. 63-66.
3. Гуревич П.С. Педагогика и цифровизация: вызовы времени. — М.: Просвещение, 2021.
4. Громыко Ю.В. Образование в цифровую эпоху. — СПб.: Питер, 2020.
5. Селевко Г.К. Современные образовательные технологии. — М.: Народное образование, 2019.

INNOVATSION IQTISODIYOT SHAROITIDA SUN’IY INTELEKTNING O‘RNI

Baxodirov Jasurbek Olyorbek o‘g‘li
Toshkent davlat iqtisodiyot universiteti Sun’iy intellekt kafedrasi assistenti
ORCID: https://orcid.org/0009-0005-5771-0585
j.bakhodirov@tsue.uz

ANNOTATSIYA: Mazkur maqolada sun’iy intellekt (SI) texnologiyasining mazmuni, mohiyati va uning zamonaviy iqtisodiyotdagi tutgan o‘rni chuqur tahlil qilinadi. Innovatsion iqtisodiyot sharoitida sun’iy intellekt ilg‘or texnologiyalar asosida turli sohalar – tibbiyot, ta’lim, sanoat, moliya, transport va

boshqalarda qanday qo‘llanilayotgani yoritib beriladi. Ayniqsa, O‘zbekiston va jahon miqyosida SI asosida erishilgan yutuqlar, ilg‘or tajribalar va ularning amaliy afzalliklari o‘rganiladi. Maqolada GPT modellari, IoT qurilmalari, rentabellik (rentabel), B2B va B2C tizimlar, tibbiy sohadagi MRI tizimlari, internet marketingda qo‘llaniladigan PPC, CPC, CPM strategiyalari hamda boshqa ilg‘or AI texnologiyalari bilan bog‘liq tajribalar va istiqbollar ko‘rib chiqiladi. Tadqiqot natijalari kelajakda sun’iy intellektni yanada samarali joriy etish bo‘yicha ilmiy va amaliy tavsiyalar berishga xizmat qiladi.

Kalit so‘zlar: GPT, Superintelligent, AI, Plaid, B2B, B2C, Rentabel, MRI, CPE, IoT, KT, PPC, CPC, CPM.

KIRISH

12. O'zbekiston Respublikasida raqamli sog'liqni saqlash. – NIM.uz, 2024.
13. Improving Practice of Digital Technologies in Energy Projects. – InLibrary.uz, 2023.
14. Ways to Increase Energy Efficiency in Uzbekistan. – ResearchGate, 2023.
15. Green Finance and Renewable Energy. – Scribd, 2024.

TIBBIYOTDA BILIMLARNI IFODALASH MODELLARI, ULARNING AFZALLIKLARI VA TIBBIYOTDAGI HAMIYATI

Ergashev Bekzod Jaloliddin o'g'li
Central Asian Medical University xalqaro tibbiyot universiteti, O'zbekiston, Farg'ona, Burhoniddin Marg'inoniy ko'chasi 64 uy, tel: +998 95 485 00 70, e-mail: info@camuf.uz
E-mail: bekzodergashev0401@gmail.com
ORCID: https://orcid.org/0009-0000-0382-0811

Annotatsiya: Mazkur maqolada tibbiyotda sun'iy intellekt (SI) tizimlari orqali bilimlarni ifodalash modellari, ularning turlari, amaliy qo'llanilishi, afzallik va cheklovlari batafsil yoritilgan. Bilimlarni kompyuterga tushunarli shaklda ifodalash, klinik qarorlarni qo'llab-quvvatlash tizimlarining aniqligini oshirishda muhim omil hisoblanadi. Qoidalar asosidagi model, freymlar, ontologiyalar, semantik tarmoqlar va mantiqiy ifodalar kabi yondashuvlar tibbiy ma'lumotlarni strukturalashtirish, saqlash va qayta ishlashda keng qo'llaniladi. Har bir model klinik vazifalar, mavjud ma'lumotlar bazasi va tizim arxitekturasiga qarab tanlanadi. Tahlillar shuni ko'rsatadiki, bilimlarni to'g'ri ifodalash tibbiy tashxisning aniqligi va bemorga ko'rsatiladigan xizmat sifatini oshiradi.

Kalit so’zlar: tibbiy sun’iy intellekt, bilimlar modeli, ekspert tizim, ontologiya, freym, semantik tarmoq, qaror qabul qilish tizimi.

Kirish: Tibbiyotda bilimlarni ifodalashning asosiy modellari:

1.1 Qoidalar asosidagi model (Production Rules):

Bu modelda bilimlar “Agar... bo‘lsa, unda...” tarzida ifodalanadi. Masalan: “Agar bemorda tana harorati 38°C dan yuqori bo‘lsa va yo‘tal kuzatilsa, unda pnevmoniyaga shubha qilinadi.” [1].

Afzalliklari: Tushunarli, diagnostik algoritmlar uchun mos. Kamchiliklari: Kompleks kasalliklar uchun murakkab qoidalar tarmog‘i talab etiladi.

1.2 Freym modeli:

Freymlar – muayyan holat, obyekt yoki tushuncha bo‘yicha strukturaviy bilimlarni o‘z ichiga oladi. Tibbiyotda bemor holati, simptomlar yoki kasalliklar freym shaklida ifodalanadi [2].

Afzalliklari: Kontekstual bilimlarni yaxshi aks ettiradi.

Kamchiliklari: Dinamik ma’lumotlar bilan ishlashda cheklangan.

1.3 Ontologiyalar:

Ontologiya – soha doirasidagi tushunchalar va ularning o‘zaro munosabatlarini tavsiflovchi modeldir. Tibbiyotda SNOMED CT, ICD-10 kabi ontologik tizimlar mavjud [3].

Afzalliklari: Standartlashgan, katta hajmdagi bilimlarni birlashtiradi.

Kamchiliklari: Yaratuv va yangilash jarayoni murakkab.

1.4 Semantik tarmoqlar:

Ushbu modelda tushunchalar graflar ko‘rinishida, ular orasidagi bog‘liqliklar esa yo‘nalgan qirralar bilan ifodalanadi. Masalan: “Jigar kasalligi” — “og‘riq” — “o‘ng qovurg‘a ostida” [4].

Afzalliklari: Vizual tushunilishi oson, ma’lumotlar o‘rtasidagi bog‘lanishlarni aniqlash osonlashadi.

Kamchiliklari: Raqamli modellashtirishda soddaligi sababli cheklangan.

1.5 Kartezian matritsalar va mantiqiy ifodalar [5]:

Bu model matematik va mantiqiy formulalarga asoslanadi. Masalan, tashxis qo‘yishda ehtimollar nazariyasidan foydalanish.

Afzalliklari: Aniq hisob-kitoblar uchun qulay.

Kamchiliklari: Tibbiy noaniqliklar va sub’ektiv baholashlarga moslashishi qiyin.

2. Tibbiyotda bilimlarni ifodalash modellari qo‘llanilish [6, 7].

Sun’iy intellekt yordamida tuzilgan bilimlar bazasi quyidagi yo‘nalishlarda tibbiyotda keng qo‘llaniladi:

Tibbiy diagnostika – kasalliklarni aniqlashda SI tizimlar turli simptomlar, laborator natijalar va tarixiy ma’lumotlar asosida tashxis qo‘yadi[8].

Qaror qabul qilish tizimlari (Clinical Decision Support Systems, CDSS) – vrachlar uchun tashxis va davolashda qo‘llaniladigan avtomatlashtirilgan tavsiyalar [9].

Tibbiy bilimlarni boshqarish – bemor ma’lumotlarini to‘plash, tahlil qilish va personalizatsiyalashgan yondashuvni ishlab chiqishda.

Tibbiy robototexnika – jarrohlik operatsiyalarida, reabilitatsiyada yoki bemor monitoringida SI asosidagi bilim ifodalash modellaridan foydalaniladi.

3. Bilimlarni ifodalash modellari afzalliklari va cheklovlari

Bilim tushunchasi va turlari. Bilim — bu inson tomonidan o‘zlashtirilgan, tushunilgan va amaliyotda qo‘llanilishi mumkin bo‘lgan axborotlar majmuasidir. SI tizimida bilim ma’lumotlar (data), axborot (information), qoidalar (rules), tamoyillar (principles) ko‘rinishida ifodalanadi. Bilimlar quyidagi asosiy turlarga bo‘linadi: Deklarativ bilim – faktlar va bayonotlarga asoslangan bilim. Masalan: “Toshkent — O‘zbekiston poytaxti.” Protsedural bilim – qandaydir muammoni hal qilish tartibini ifodalaydi. Masalan: matematik masalani yechish algoritmi. Tajribaviy bilim – inson yoki tizim tomonidan amaliy tajriba orqali o‘zlashtirilgan bilim [10].

Oddiy bilim va meta-bilim – oddiy bilim muayyan soha haqidagi axborot bo‘lsa, meta-bilim – bilimlarni qanday qo‘llash haqida axborotdir.

Bilimlar bazasi va uning tarkibi: Bilimlar bazasi – bu SI tizimlarida foydalaniladigan tuzilgan bilimlarning to‘plami bo‘lib [11], u muammolarni hal qilish va qaror qabul qilishda yordam beradi. Bilimlar bazasining asosiy komponentlari:

Faktlar – obyekt yoki hodisalar haqidagi aniq va o‘zgaruvchan ma’lumotlar.

Qoidalar – ma’lum shartlar asosida qaror qabul qilish yo‘riqnomalari.

Mantiqiy ifodalar – matematik va mantiqiy bog‘lanishlar orqali bilimlarni tasvirlash.

Ontologiya – tushunchalar va ularning o‘zaro munosabatlarini ifodalovchi tizim.

4. Bilimlar bazasining turlari [12,13].

Zamonaviy SI tizimlarida quyidagi BB turlari keng qo‘llaniladi:

Qoida asoslangan tizimlar – “Agar... bo‘lsa, unda...” prinsipiga asoslangan. Masalan: ekspert tizimlar.

Semantik tarmoqlar – bilimlarni graflar orqali ifodalash tizimi.

Freym modeli – bilimlar “kadrlar” shaklida, har bir freym ma’lum kontekstga oid axborotni o‘z ichiga oladi.

Ontologiyalar – tushunchalar va ularning aloqalarini tartiblangan holda tavsiflaydi.

5. Bilimlarni yaratish bosqichlari.

Bilimlar bazasini yaratish bir necha ketma-ket bosqichlardan iborat:

1. Bilimlarni aniqlash – tizim qanday bilimlarga muhtojligini aniqlash.

2. Bilimlarni yig‘ish – ekspertlar, adabiyotlar, ma’lumotlar to‘plamlari orqali.

3. Bilimlarni ifodalash – ularni inson tushunadigan formatdan kompyuter tushunadigan tuzilmaga aylantirish.

4. Bilimlarni sinovdan o‘tkazish – bilimlar amalda qanday ishlashini tekshirish.

5. Bilimlarni saqlash – bilimlar bazasida ularni tartib bilan joylashtirish.

6. Bilimlarni ifodalash usullari [14].

Bilimlar quyidagi formatlarda kompyuterga tushunarli ko‘rinishda ifodalanadi:

Qoidalar to‘plami – “Agar… bo‘lsa, unda…” tarzidagi formulalar.

Ontologiyalar – sohadagi obyektlar va ularning munosabatlarini graflar orqali tavsiflash.

Freymlar – kontekstga oid bilimlar kadrlar shaklida.

Semantik tarmoqlar – tushunchalar o‘rtasidagi mantiqiy bog‘lanishlarni aks ettiradi.

6. Bilimlarning qo‘llanilish sohasi [15].

Sun’iy intellektda bilimlar quyidagi sohalarda samarali ishlatiladi:

Ekspert tizimlar – tibbiyot, muhandislik, moliya va boshqa sohalarda ekspert darajasidagi qarorlar qabul qilishda.

Tabiiy tilni qayta ishlash (NLP) – tilni tahlil qilish va tarjima qilish.

Mashinani o‘rganish (Machine Learning) – boshlang‘ich bilimlar bazasi yordamida mashina o‘z bilimini kengaytiradi.

Reja tuzish va muammoni hal qilish – murakkab masalalarni echishda qo‘llaniladi.

Tibbiyotda bilimlarni ifodalash modellari sun’iy intellektning amaliy jihatdan samarali ishlashida asosiy rol o‘ynaydi. Har bir model o‘ziga xos afzallik va cheklovlarga ega bo‘lib, ular klinik ehtiyoj va mavjud ma’lumotlarga qarab tanlanadi. Zamonaviy tibbiyotda sun’iy intellekt tizimlarini joriy etishda bilimlarni to‘g‘ri ifodalash modeli tanlansa, tashxis sifati oshadi, davolash individual tus oladi va sog‘liqni saqlashda umumiy samaradorlik yuksaladi.

Xulosa: Tibbiyotda sun’iy intellekt texnologiyalarining jadal rivojlanishi, klinik amaliyotda bilimlarni ifodalash modellarining o‘rni va ahamiyatini keskin oshirdi. Bilimlarni to‘g‘ri tuzilgan, tuzilmaviy va tushunarli ko‘rinishda saqlash imkonini beruvchi modellar tibbiy tashxis qo‘yishda, davolash strategiyasini tanlashda va kasalliklarni oldini olishda muhim vosita bo‘lib xizmat qiladi.

Qoidalar asosidagi model, freymlar, ontologiyalar, semantik tarmoqlar va mantiqiy ifodalar kabi asosiy modellar har biri turli klinik ehtiyojlarga xizmat qiladi. Masalan, qoidalar modeli oddiy tashxislar uchun samarali bo‘lsa, ontologiyalar katta hajmdagi ma’lumotlarni birlashtirishda qulay hisoblanadi. Semantik tarmoqlar esa tushunchalar o‘rtasidagi bog‘liqliklarni aniqlashtirishda foydalidir. Shuningdek, har bir modelning afzalliklari bilan bir qatorda, cheklovlari ham mavjud. Kompleks kasalliklar, noaniq

simptomlar va o'zgaruvchan klinik holatlar uchun har doim bitta model yetarli bo'lmasligi mumkin. Shu bois, zamonaviy yondashuvlarda bir nechta bilim ifodalash usullarining kombinatsiyasi qo'llaniladi.

Xulosa qilib aytganda, tibbiyotda SI tizimlarining muvaffaqiyati, aynan bilimlarni qanday ifodalashga bog'liq. To'g'ri tanlangan model yordamida nafaqat tashxis aniqligi oshadi, balki bemorga ko'rsatiladigan yordam sifat ham sezilarli darajada yaxshilanadi. Shu sababli, kelajakda tibbiyotda SI tizimlarini keng joriy qilishda bilimlar modeli tanloviga alohida e'tibor qaratilishi zarur.

Foydalanilgan adabiyotlar:

1. Shortliffe, E. H., & Cimino, J. J. (Eds.). (2014). Biomedical Informatics: Computer Applications in Health Care and Biomedicine. Springer.
2. Musen, M. A., Middleton, B., & Greenes, R. A. (2014). Clinical decision-support systems. In Biomedical Informatics (pp. 643–674). Springer.
3. Peleg, M., & Tu, S. (2006). Decision support, knowledge representation and management in medicine. IMIA Yearbook of Medical Informatics.
4. Patel, V. L., Arocha, J. F., & Kaufman, D. R. (2001). A primer on aspects of cognition for medical informatics. Journal of the American Medical Informatics Association, 8(4), 324–343.
5. Greenes, R. A. (2014). Clinical Decision Support: The Road Ahead. Academic Press.
6. Hunt, D. L., Haynes, R. B., Hanna, S. E., & Smith, K. (1998). Effects of computer-based clinical decision support systems on physician performance and patient outcomes: a systematic review. JAMA, 280(15), 1339–1346.
7. Luger, G. F. (2005). Artificial Intelligence: Structures and Strategies for Complex Problem Solving. Pearson.
8. Wyatt, J., & Spiegelhalter, D. (1991). Field trials of medical decision-aids: potential problems and solutions. Proceedings of the Annual Symposium on Computer Application in Medical Care.
9. Rector, A. L., & Rogers, J. E. (2006). Ontological and practical issues in using a description logic to represent medical concepts: Experience from GALEN. Methods of Information in Medicine, 35(5), 482–492.
10. OpenClinical. (2023). Knowledge representation and decision models in healthcare. https://www.openclinical.net/
11. Tu, S. W., & Musen, M. A. (1996). Representation formalisms and computer-based clinical guideline implementation. Medical Informatics, 21(3), 243–264.
12. OpenEHR Foundation. (2022). Modeling clinical knowledge for electronic health records. https://www.openehr.org/
13. Stead, W. W., & Lin, H. S. (2009). Computational Technology for Effective Health Care: Immediate Steps and Strategic Directions. National Academies Press.
14. Frize, M. (2013). Health Care Engineering Part II: Research and Development in the Health Care Environment. Springer.
15. Bales, M. E., & Ritchie, C. F. (2005). Information modeling for health care. Methods of Information in Medicine, 44(3), 410–417.

TUMANLI SUN'IY YO'LDOSH TASVIRLARINI YAXSHILASH UCHUN OPTIMALLASHTIRILGAN TRANSFORMATSIYA YONDASHUVLARI

O.R.Yusupov[1),a)], E.Sh.Eshonqulov[1),b)]
[1)] Sharof Rashidov nomidagi Samarqand davlat universiteti,
[a)] ozodyusupov@gmail.com, [b)] erali.eshonqulov1201@gmail.com

Annotatsiya. Maqolada sun'iy yo'ldosh tasvirlarida tuman mavjud bo'lgan holatlarda tumanni olish tashlash uchun ishlab chiqilgan optimallashtirilgan transformatsiya yondashuvlari ko'rib chiqilgan. THOT, IHOT va HHOT kabi takomillashtirilgan transformatsiyalar tumanli tasvirlardagi kontrast va rang buzilishlarini kamaytirish, shuningdek, fon shovqinlarini bostirish orqali vizual sifatni oshirishda samaradorligi bilan ajralib turadi. Tajribaviy sinovlar Landsat 8 OLI tasvirlari asosida o'tkazilgan va baholash uchun MSE, MAE, SSIM, UQI, BIQI va NIQE kabi ko'rsatkichlardan foydalanilgan. Tadqiqot

natijalari HOT yondashuvlarini takomillashtirish orqali yangi usullarni ishlab chiqish samarali yechimlar berishini ko‘rsatmoqda.

KIRISH

Sun’iy yo‘ldosh qurilmalari orqali olingan tasvirlar tabiat resurslarini monitoring qilish, qishloq xo‘jaligi, shaharsozlar, ekologiya kabi boshqa juda ko‘plab sohalarda qo‘llanilib kelmoqda. Bu kabi tasvirlarni olishda atmosfera sharoitlarini hisobga olish muhim bo‘lib, tasvirning sifatiga turli fiziologik-meteorologik sharoitlar o‘z ta’sirini o‘tkazadi. Bunday atmosfera ta’sirlaridan biri sifatida tumanli muhitni keltirish mumkin. Tumanli muhit natijasida sun’iy yo‘ldosh tasvirlarida kontrastning pasayishi, ranglarning xiralashuvi va tafsilotlarning yetarli bo‘lmasligi kabi artefaktlar paydo bo‘ladi. Natijada yer yuzasidagi obyektlarni tanib olish, sohalarni segmentlash, klassifikatsiya, o‘zgarishlarni aniqlash kabi masalalar uchun tasvirlarni qo‘llashda murakkabliklar paydo bo‘ladi [1].

Atmosfera sharoitida tuman tushunchasining ikki holati mavjud bo‘lib, ularning bir-biridan farqini tushunish ishlov berish masalalarida qo‘llaniladigan usullarni to‘g‘ri tanlash imkoniyatini beradi. Yer yuzasiga yaqin joylashgan zich tuman (frog) va biz tahlil qilayotgan atmosferada muallaq holatda saqlanadigan kichik zarrachalardan tashkil topgan tuman(haze) adabiyotlarda turli ta’riflar ega [2,3]. Yer yuzasiga yaqin joylashgan tuman, odatda, suv bug‘lari va tomchilardan tashkil topadi va optik jihatdan zich joylashadi. Atmosferadagi kichik zarrachalar asosan sulfat, nitrat, chang va boshqa aerozollardan tashkil topadi va odatda, quruq muhitda, nisbiy namlik pastroq bo‘lganda paydo bo‘ladi.

Tumanli tasvirlarga ishlov berish, ya’ni dehazing jarayonini amalga oshirish orqali yuqorida keltirilgan masalalar uchun spektral va vizual jihatdan boy tasvirlar olish imkoniyatini beradi. Ammo dehazing jarayoni sun’iy yo‘ldosh qurilmalarining ruxsatlilik darajalarining farqli bo‘lishi, bulut va tuman sohalarining spektral jihatdan bir-biriga yaqin bo‘lishi kabi omillar natijasida murakkablashadi.

Zamonaviy tadqiqotlar natijasida so‘nggi yillarda bir qancha tumanni olib tashlash yondashuvlari taklif etilgan bo‘lib, adabiyotlarda ular tasvirlarni yaxshilashning Retinex nazariyasi, tuman qalinligi xaritasiga asoslangan yondashuvlar, tumanli tasvirlar uchun optimallashtirilgan transformatsiya yondashuvlari (Haze optimized transform – HOT), chuqur o‘qitishga asoslangan yondashuvlar kabi sinflarga bo‘linadi.

TASVIRDA MAVJUD BO‘LGAN TUMAN MODELI

Ko‘pgina ilmiy adabiyotlarda RGB kanallari uchun tuman modeli quyidagicha ifodalanishi keltirilgan [4, 5, 6, 7]:

$$I(x) = J(x)t(x) + A(1 - t(x))$$

bu yerda, $I(x)$ – berilgan tuman mavjud tasvirning asl yorqinligi, $J(x)$ – tuman olib tashlangan tasvir, A – global atmosfera yoritilishi, $t(x)$ – sahna nuqtasidan qurilma sensoriga qadar bo‘lgan yorug‘likning o‘rtacha uzatish koeffisiyenti. A va $t(x)$ parametrlarini to‘g‘ri aniqlash orqali $J(x)$ haqiqiy sahna yorqinligini tiklash mumkin. $t(x)$ yorug‘lik uzatilishi eksponensial tarzda ifodalanadi:

$$t(x) = e^{-\beta(x)d(x)}$$

bu yerda $d(x)$ – obyekt va sensor orasidagi masofa, $\beta(x)$ – yorug‘likning sochilish yoki tarqalish koeffitsiyenti bo‘lib, aerozol zichligi va atmosfera loyqaligi (turbidity) bilan belgilanadi. β o‘zgaruvchan koeffisiyent bo‘lib, uning qiymati sahnani tiklash samaradorligiga o‘z ta’sirini o‘tkazadi.

Yuqoridagilardan kelib chiqib haqiqiy sahna yorqinligi $J(x)$ quyidagicha ifodalanadi:

$$J(x) = \frac{I(x) - A}{t(x)} + A \qquad (1)$$

(1) da keltirilgan model mavjud tasvirdagi A parametrini aniqlash, yorug‘lik transmissiyasi $t(x)$ ni baholash orqali tumansiz tasvir $J(x)$ tiklanadi.

Quyida tumanli tasvirlar uchun optimallashtirilgan transformatsiya yondashuvlari tarkibiga kiruvchi usullarni ko‘rib chiqamiz.

TUMANLI TASVIRLAR UCHUN OPTIMALLASHTIRILGAN TRANSFORMATSIYA YONDASHUVLARI

Tumanli tasvirlar uchun optimallashtirilgan transformatsiya usuli korrelyatsiyani tahlil qilish orqali amalga oshiriladi. Usulning asosiy mohiyati qizil va ko‘k spektral diapazondagi radiatsion intensivliklar orasida yuqori darajada chiziqli bog‘liqlik mavjudligiga asoslanadi. Tuman intensivligini

aniqlash uchun "musaffo chiziq" (clear line) deb ataluvchi chiziq ikki o'lchamli spektral fazoda aniqlanadi. Piksellarning ushbu chiziqdan perpendikular masofasi tuman intensivligini aniqlash uchun qo'llaniladi. [8] da HOT modeli taklif etilgan. Model quyidagicha ifodalanadi:

$$HOT = B_1 \sin\theta - B_3 \cos\theta \qquad (2)$$

bu yerda B_1 va B_3 – pikselning birinchi va uchinchi kanallaridagi raqamli qiymatlari (digital number). θ – musaffo chiziq (clear line)ning qiyalik burchagi. Musaffo chiziq – yuqori korellyatsiyaga ega bo'lgan spektral fazoda aniq belgilangan yer sirtining munosabati (response)ni ifodalagan vektor.

Dastlab tasvirdagi eng toza sohalarni aniqlanadi. Buning uchun ko'rinadigan spektral kanallarda (qizil va ko'k) past radiatsion intensivlikka ega bo'lish, ko'k va qizil kanallarning intensivligi yuqori darajada chiziqli korrelyatsiyaga ega bo'lish shartlari asosida R^2 koeffitsiyenti orqali intensivliklar orasidagi korellyatsiya baholanadi:

$$R(X,Y) = \frac{Cov(X,Y)}{\sigma_X \times \sigma_Y} \qquad (3)$$

bu yerda X, Y – mos ravishda ko'k va qizil kanallarning intensivlik vektorlari, Cov, σ_X va σ_Y – mos ravishda kovarians va standart chetlanishlarni ifodalaydi. θ – qiyalik burchagi tangens funksiyasi orqali olingan bo'lib, o'rtacha qiymat o'rniga K vektor mediana qiymati olinadi:

$$\theta = \arctan median(K).$$

Atmosfera sharoitlari haqida absolut ma'lumotlar mavjud bo'lmaganligi sababli yondashuv nisbiy tarzda qo'llanilgan. Quyida HOT yondashuvining takomillashtirilgan usullarini ko'rib chiqamiz. Ushbu usullar HOT yondashuvida yuzaga kelgan kamchiliklarni bartaraf etishga qaratilgan.

1. Iterativ HOT usuli. HOT yondashuvini qo'llash natijasida yer yuzasi haqidagi ma'lumotlar yetarli darajada olinmasligi holatlari paydo bo'ladi. Bu ayniqsa yorug' yuzalar (qor tasvirlari) mavjud bo'lgan tasvirlarda namoyon bo'ldi. Bu holatlarning yechimi sifatida iterativ HOT [9] usuli taklif etilgan.

Atmosferaning yuqori qismidagi (Top of atmospheric – TOA) aks ettirish farqi tumanli va tiniq tasvirlar o'rtasidagi ma'lumotni olgani sababli vaqtga bog'liq (temporal) HOT (THOT)ni quyidagicha aniqlash taklif etilgan:

$$THOT = \sum_{i=1}^{n} k_i \Delta R_i + c = \sum_{i=1}^{n} k_i (R_{hi} - R_{ci}) + c \quad (4)$$

bu yerda c – o'zgarmas qiymat, R_{hi} va R_{ci} – mos ravishda tumanli va bulutsiz vaqtdagi i-kanalning TOA aks ettirish qiymatlari. ΔR_i – ushbu ikki qiymatning ayirmasi orqali olingan qiymat. n – kanallar soni. k_i – ΔR_i ning koeffitsiyenti. k_i va c ni tanlash ko'p o'zgaruvchili regressiya masalasiga keltiriladi. Ushbu koeffitsiyentlar (4) asosidagi HOT va ΔR_i orasida aniqlanadi:

$$HOT = \sum_{i=1}^{n} k_i \Delta R_i + c + \varepsilon$$

ΔR mustaqil omil sifatida qaralib, regressiya modelidan olib tashlangan. Shu tariqa THOT tuman haqidagi ma'lumotni o'zida aks ettiradi. Usulda TOA aks ettirish koeffisiyent ΔR emas, balki TOA aks ettirish koeffisiyent R o'zgartirilgan va takomillashtirilgan (improved) HOT (iHOT) ushbu koeffisiyentning chiziqli kombinatsiyasida sifatida hisoblangan:

$$iHOT = \sum_{i=1}^{n} k'_i R_i + c' \qquad (5)$$

bu yerda R_i – i-kanal uchun TOA aks ettirish koeffitsiyenti, k'_i – R_i ning koeffitsiyenti, c' – o'zgarmas koeffitsiyent. k'_i va c' koeffitsiyentlari THOT va TOA aks ettirish koeffisiyentlari orasidagi ko'p o'zgaruvchili regressiya orqali aniqlanadi:

$$THOT = \sum_{i=1}^{n} k'_i R_i + c' + \varepsilon'$$

bu yerda ε' - regressiya qoldig'i.

Usulda dastlab (5) asosida topilgan $iHOT$ HOT ga teng deb qabul qilinadi.

$$iHOT^{(t=0)} = HOT$$

Keyingi qadamda (4) orqali $THOT^{(t)}$ hisoblanadi. iHOTning keyingi qadamlari (5) asosida topiladi. THOT va iHOT orasidagi korellyatsiya qiymati 10^{-3} dan kichik bo‘lguncha yuqoridagi bosqichlar davom etadi. Jarayon yakunida olingan IHOT qiymati yakuniy natija sifatida qayd etiladi.

2) HOT asosida yuqori aniqlikdagi tumanni olib tashlash usuli (HHOT). [10] da uch bosqichda amalga oshiriladigan HOTga asoslangan tumanni olib tashlash yondashuvi taklif qilingan. Yondashuv sahna yuzida tumanga o'xshash xususiyatlarga ega bo'lgan qor qoplami, suv havzalari va boshqalar uchun noto'g'ri HOT qiymatlari chiqarilishini oldini oldini olishga qaratilgan.

Yondashuvning birinchi bosqichida (3) asosida R^2 mezoni aniqlanadi. Tasvir sahnasidagi eng tiniq sohalar ko'rinadigan spektrdagi kanallarning radiatsiya qiymati kichik bo'lishi hamda ko'k va qizil kanallar radiatsiyasi o'zaro yuqori korellyatsiyaga ega bo'lish shartlarini qanoatlantirishi kerak. Birinchi shartning bajarilishi uchun chegraviy qiymat sifatida 64 olingan. Bu yerda 0.25*256=64 ekanligi inobatga olingan. Ikkita shart bir vaqtning o'zida bajarilishi uchun ustma-ust tushmaydigan oynadan foydalanilgan. Tuman va bulutning joylashuv holatiga qarab, oyna o'lchami belgilanadi. K vektor sifatida barcha saqlangan oynalarning regressiya koeffisiyentlari olingan. Regressiya koeffisiyentlari quyidagicha hisoblangan:

$$k = \frac{n\sum_{i=1}^{n} x_i y_i - \sum_{i=1}^{n} x_i \sum_{i=1}^{n} y_i}{n\sum_{i=1}^{n} x_i^2 - \left(\sum_{i=1}^{n} x_i y_i\right)^2}.$$

bu yerda n – oynadagi piksellari soni, ko'k va qizil kanallarning nurlanishlari x_i va y_i bilan belgilangan.

Yondashuvda har bir piksel uchun HOT almashtirishi qo'llaniladi. Butun tasvirning HOT xaritasini yaratish (2) asosida amalga oshiriladi. Ikkinchi bosqichida yaroqli piksellarni olish, skanerlash va interpolyatsiya hamda filtrlash kabi ichki bosqichlar amalga oshiriladi. Yaroqli piksellar to'plami universal niqob (mask) sifatida normallashtirilgan o'simliklar farqi indeksi orqali (Normalized difference vegetation index – NDVI) olingan:

$$NDVI = \frac{\rho_{nir} - \rho_r}{\rho_{nir} + \rho_r}$$

bu yerda, ρ_{nir} – yaqin infraqizil kanaldan olingan spektral aks ettirish o'lchovi, ρ_r esa qizil kanaldan olingan spektral aks ettirish o'lchovi.

Fazoviy uzluksizlik va sirt xususiyatlarining mahalliy korrelyatsiyasini saqlash uchun to'rt yo'nalishli skanerlash va dinamik interpolyatsiya usuli qo'llanilgan. Filtr sifatida esa gomomorf filtrlar ishlatilgan.

HOT xaritasining umumiy yakuniy ifodasi quyidagicha olingan:

$$HOT = \lambda \cdot H_1 + (1 - \lambda) \cdot g(x, y)$$

Bu yerda H_1 – yakuniy interpolyatsiya natijasi, λ sifatida [0,1] oralig'idagi qiymatlardan biri olingan, $g(x, y)$ – eksponensial almashtirish bo'lib, quyidagicha topiladi:

$$g(x, y) = \exp[S(x, y)].$$

$S(x, y)$ teskari Fure almashtirishi orqali olinadi. Uchinchi yakuniy bosqich tuman ta'sirini bartaraf etish uchun foizli qorong'u obyektni olib tashlash (Percentile Dark Object Subtraction – DOS) protsedurasi qo'llaniladi.

TUMANNI OLIB TASHLASH NATIJASIDAN OLINGAN TASVIRLARNING SIFATINI BAHOLASH KO'RSATKICHLARI

Tumanni olib tashlash natijasida hosil qilingan tasvirlarning sifatini baholashning ikki sinfi mavjud. Ushbu sinflar etalon asosida baholash va etalonsiz baholash sinflari deb ataladi [11, 12]. Asl tasvir mavjud bo'lgan holatlarda etalon asosida sifat ko'rsatkichini baholash usullari qo'llaniladi. Bu sifat indeklarga quyidagilar kiradi:

1) O'rtacha kvadratik xatolik (Mean Square Error – MSE). MSE tumanni olib tashlash natijasida hosil qilingan tasvir va asl tasvir o'rtasidagi xatolikni aniqlash metrikasi o'rtacha kvadratik xatolikni aniqlash orqali topiladi va quyidagicha ifodalanadi:

$$MSE = \frac{1}{P \cdot Q} \sum_{x=1}^{P} \sum_{y=1}^{Q} \left(f(x, y) - h(x, y)\right)^2$$

bu yerda, $f(x, y)$ – asl tasvir piksellari, $h(x, y)$ – tiklangan tasvir piksellari, P, Q – tasvir

o‘lchamlari. Ushbu metrika qiymati 0 ga yaqinlashishi tasvir sifatini yuqori ekanligini bildiradi.

2) O‘rtacha absolut xatolik (Mean Absolute Error - MAE). MSE dan farqli ravishda berilgann tasvir va hosil qilingan tasvir o‘rtasidagi absolut farqni hisoblaydi va quyidagicha ifodalanadi:

$$MAE = \frac{1}{P \cdot Q} \sum_{x=1}^{P} \sum_{y=1}^{Q} |f(x,y) - h(x,y)|$$

Ushbu metrikaning ham piksellar o'rtasidagi umuman farq yo'qligini bildirishi 0 qiymatga yaqinlashganda tasvir sifati yuqori ekanligini bildiradi.

3) Strukturaviy o'xshashlik indeksi (Structural Similarity Index - SSIM). Tasvirlarning o'rtacha qiymatlari, dispersiyalari, tasvirlar o'rtasidagi kovariatsiyaga bog'liq bo'lib, maksimal qiymati 1 ga yaqinlashadi va quyidagicha topiladi:

$$SSIM = \frac{(2\mu_x\mu_y + c_1) \cdot (2\sigma_{xy} + c_2)}{(\mu_x^2 + \mu_y^2 + c_1)(\sigma_x^2 + \sigma_y^2 + c_2)}$$

bu yerda μ_x, μ_y – tasvirlarning o'rtachasi, σ_x, σ_y – o'rtacha kvadratik chetlanish, σ_{xy} – tasvirlarning kovariatsiyasi, c_1, c_2 – doimiy qiymatlar bo'lib, quyidagicha topiladi: $c_1 = (r_1T)^2$, $c_2 = (r_2T)^2$. Bu yerda $r_1 = 0.01$, $r_2 = 0.03$, T – piksellarning dinamik oralig'i.

4) Universal sifat indeksi (Universal Quality Index – UQI). Universal sifat indeksi ham SSIM metrikasi kabi asl va etalon tasvirlarning o'rtacha qiymatlariga, dispersiyasiga va kovariatsiyaga bog'liq bo'ladi, maksimal qiymat 1 ga teng bo'ladi va quyidagicha ifodalanadi:

$$UQI = \frac{4\sigma_{xy}\bar{x}\bar{y}}{(\sigma_x^2 + \sigma_y^2)(\bar{x}^2 + \bar{y}^2)}$$

Etalonsiz baholash asl tasvir mavjud bo'lmagan holatlar uchun ishlatiladi va unga quyidagi indekslar kiradi:

1) Blind Image Quality Indices – BIQI [13]. Ushbu baholash indeksi Wavelet almashtirishiga asoslanib, Gauss taqsimoti asosida parametrlanadi. Bu usul buzilish turiga mo'ljallangan algoritmlar sirasiga kiradi va quyidagicha ifodalanadi:

$$BIQI = \sum_{i=1}^{5} p_i \cdot q_i$$

bu yerda p_i – i-tasvirda mavjud bo'lishi mumkin bo'lgan buzilish ehtimolligi. Ushbu ehtimolliklar SVM algoritmi orqali topiladi. q_i – har bir buzilishning sifat bahosini aniqlaydi. Ushbu baholar SVR (Support vector regression) orqali topilgan.

2) Natural Image Quality Evaluator (NIQE) [14]. Ushbu usul buzilish turiga aloqador bo'lmagan sinfga kiradi. Chunki NIQE buzilish turlarining aniqlamasdan tasvirning statik xususiyatlariga e'tibor qaratadi. Xususiyatlar tabiiy sahna statistikasi (Natural scene statistic - NSS) modeli orqali aniqlanadi va quyidagicha ifodalanadi:

$$D(v_1, v_2, \Sigma_1, \Sigma_2) = \sqrt{(v_1 - v_2)^T \left(\frac{\Sigma_1 + \Sigma_2}{2}\right)^{-1} (v_1 - v_2)}$$

bu yerda v_1, v_2 – mos ravishda tabiiy va buzilgan tasvirning MVG modeliga tegishli o'rtacha vektorlar, Σ_1, Σ_2 – ayni shu modellarga tegishli kovariatsiya matritsalaridir.

TAJRIBA NATIJALARI

O'tkazilgan tajribalar natijasida IHOT usulida HOT va THOTga qaraganda fon shovqinlari samarali olib tashlashi aniqlandi. Usul turli landshaftlar, shaharlar, ekin maydonlari va boshqa obyektlar tasvirlarida sinab ko'rilganda BSHTI (background suppressed haze thickness index - fon ta'siri bostirilgan tuman qalinligi indeksi) va HOT usullariga nisbatan yaxshi natijalarga erishgan. Shuningdek, IHOT muzliklar va qorlarni HOT usuliga nisbatan yaxshi ajrata olgan.

HHOT usuli an'anaviy HOT usulining rang buzilish muammosini yecha olgan. Ammo sahnada qalin bulut mavjud bo'lgan sohalar uchun yaxshi natijalar bermaydi. Shahar mavjud bo'lgan tasvirlarda tuman to'liq olib tashlangan bo'lib, BSHTI bilan solishtirganda samarali ekanligi ko'rinadi. Landsat 8 OLI tasvirlarida ham butunlay tumandan tozalangan natijalar olindi. Sinov uchun tanlab olingan tasvirlarda ekin maydonlarida yashil o'simliklar kam bo'lgan sohalar bo'lgani uchun NDVI qiymatlarini aniqroq baholash murakkablashgan.

Usul nomi	Etalonli baholash	Etalonsiz baholash

	MSE	MAE	SSIM	UQI	BIQI	NIQE
Eng yaxshi qiymat	0	0	1	1		
BSHTI	0.032	0.128	0.812	0.794	47.5	4.9
IHOT	0.018	0.096	0.901	0.925	38.1	3.1
HOT	0.045	0.162	0.785	0.761	54.3	5.6
HHOT	0.024	0.112	0.873	0.889	41.2	3.6

1-jadval. Tumanli tasvirlarda BSHTI, IHOT, HOT, HHOT usullarini qo‘llash natijasida olingan sifatni baholash indekslari

Tajribalar asosida olingan natijalar 1-jadvalda keltirilgan. Tumanni olib tashlash usullarini solishtirish maqsadida sifatida BSHTI, IHOT, HOT, HHOT usullari tanlab olindi.

XULOSA

Ushbu tadqiqotda sun’iy yo‘ldoshlar orqali olingan tasvirlarda tuman mavjud bo‘lgan holatlarda tumanni olib tashlash uchun taklif etilgan HOT yondashuvlari ko‘rib chiqilgan. HOT yondashuvi asosida ishlab chiqilgan IHOT, HHOT usullari tahlil qilinib, tajribalar o‘tkazildi. O‘tkazilgan tajribalarga ko‘ra an’anaviy HOT yondashuvi qorli yuzalar, suv sathlari yoki bulutli sohalar uchun noto‘g‘ri javoblar berishi kuzatildi. HOTga asoslangan IHOT usuli va HHOT usullari samarali natijalar ko‘rsatdi.

Xulosa qilib aytganda, tuman mavjud bo‘lgan sun’iy yo‘ldosh tasvirlari uchun kelgusi tadqiqotlarda HOT usullaridan foydalanib takomillashtirilgan usullar ishlab chiqish amaliy jihatdan samarali natijalar taqdim etishi mumkin.

FOYDALANILGAN ADABIYOTLAR:

1. Fazilov S. et al. Analysis of pansharpening methods for multispectral satellite imagery //AIP Conference Proceedings. – AIP Publishing, 2024. – T. 3244. – №. 1.
2. Wu, D. A Discussion on Difference between Haze and Fog and Warning of Ash Haze Weather. *Meteorol. Mon.* 2005, *31*, 7.
3. American Meteorological Society Glossary (http:// glossary.ametsoc.org/wiki/Main_Page)
4. S. G. Narasimhan and S. K. Nayar. “Vision and the atmosphere,” *Int. J. Comput. Vision*, vol. 48, no. 3, pp. 233-254, 2002.
5. S. G. Narasimhan and S. K. Nayar. “Chromatic framework for vision in bad weather,” in *Proc. CVPR*, 2000, vol. 1, pp. 598-605.
6. Koschmieder H (1938) Luftlicht und sichtweite. Naturwissenschaften 26(32):521–528
7. McCartney EJ (1976) Optics of the atmosphere: scattering by molecules and particles. Wiley, New York, p 421
8. Zhang Y., Guindon B., Cihlar J. An image transform to characterize and compensate for spatial variations in thin cloud contamination of Landsat images //Remote Sensing of Environment. – 2002. – T. 82. – №. 2-3. – C. 173-187.
9. Chen S. et al. An iterative haze optimized transformation for automatic cloud/haze detection of Landsat imagery //IEEE Transactions on Geoscience and Remote Sensing. – 2015. – T. 54. – №. 5. – C. 2682-2694.
10. Jiang H., Lu N., Yao L. A high-fidelity haze removal method based on hot for visible remote sensing images //Remote Sensing. – 2016. – T. 8. – №. 10. – C. 844.
11. Yusupov O. et al. Quality assessment parameters of the images obtained with pansharpening methods //AIP Conference Proceedings. – AIP Publishing, 2024. – T. 3244. – №. 1.
12. Radjabov S. S., Yusupov O. R., Eshonqulov E. S. Masofadan zondlash asosida olingan tasvirlarda superpiksel segmentlash yondashuvlarini baholash mezonlari //International Journal of scientific and Applied Research. – 2024. – T. 1. – №. 3. – C. 103-106.
13. Moorthy A. K., Bovik A. C. A two-step framework for constructing blind image quality indices //IEEE Signal processing letters. – 2010. – T. 17. – №. 5. – C. 513-516.
14. Mittal A., Soundararajan R., Bovik A. C. Making a “completely blind” image quality analyzer //IEEE Signal processing letters. – 2012. – T. 20. – №. 3. – C. 209-212.

SHAXSNI KLAVIATURA ORQALI TANIB OLISH USULLARI VA ALGORITMLARINING HOZIRGI HOLATI

Maxamadaziz Rasulmuxamedov,
Toshkent davlat transport universiteti, Professor
e-mail: prof.rasulmukhamedov@gmail.com
Nomaz Mirzayev,
aqamli texnologiyalar va Sun'iy intellektni rivojlantirish ilmiy-tadqiqot instituti, Professor
e-mail: nomazmirza@rambler.ru
Nuraddin G'afforov,
Raqamli texnologiyalar va Sun'iy intellektni rivojlantirish ilmiy-tadqiqot instituti, tayanch doktoranti
e-mail:mrgaffarov28@gmail.com

Annotatsiya: Ushbu maqolada klaviatura orqali foydalanuvchini identifikatsiyalash - ya'ni keystroke dynamics asosidagi shaxsni tanib olish usullari va algoritmlari o'rganildi. Tadqiqot davomida keystroke dinamikasiga asoslangan autentifikatsiya tizimlarining arxitekturasi, ishlatiladigan algoritmlar (k-NN, SVM, ANN, LSTM), mavjud ma'lumotlar to'plamlari va ma'lumotlarni qayta ishlash jarayonlari chuqur tahlil qilindi.

Kalit so'zlar: Keystroke dynamics, klaviatura biometrikasi, shaxsni identifikatsiyalash, autentifikatsiya, mashinaviy o'rganish, chuqur o'rganish, LSTM, ANN, axborot xavfsizligi, foydalanuvchi xatti-harakati.

Kirish. Bugungi kunda axborot xavfsizligi va identifikatsiya tizimlarining ishonchliligi global miqyosda juda dolzarb masalalardan biri hisoblanadi. Raqamli infratuzilmalarning kengayishi va internetga ulanishning osonligi shaxsiy va korporativ ma'lumotlarning xavfsizligini ta'minlashni avvalo talab etadi [1]. Ushbu kontekstda biometrik autentifikatsiya usullarining jadal rivojlanishi katta e'tiborni talab qilmoqda. An'anaviy parol tizimlari buzilish ehtimoli yuqori bo'lgani sababli, shaxsni aniqlashning yangi, yuqori samaradorlikka ega usullarini yaratish dolzarbligi ortib bormoqda [2]. Klaviatura orqali tanib olish, ya'ni klaviatura bosish harakati asosidagi metodlar, foydalanuvchi xatti-harakatlarini analiz qiluvchi innovatsion yondashuv sifatida o'zining qulayligi, tezliligi va qo'llanish maydonining kengligi bilan ajralib turadi [3].

Tadqiqotning asosiy maqsadi – klaviatura orqali shaxsni aniqlash usullarini va ularga asoslangan algoritmlarning samaradorligini tahlil qilish, mavjud yondashuvlarni zamonaviy ehtiyojlarga moslab qayta ishlash va ularning aniqlik darajasini oshirish yo'llarini aniqlashdir. Tadqiqot quyidagi vazifalarni o'z ichiga oladi:

Klaviatura xatti-harakatlari asosida ishlaydigan autentifikatsiya metodlarini tahlil qilish va ularning afzalliklari hamda kamchiliklarini aniqlash;

Statik va dinamik xulq-atvor ma'lumotlarini ajratish, ularni qayta ishlash va modelga kiritish uchun samarali algoritmlarni ishlab chiqish [4];

Mavjud algoritmlar va modellarni sinovdan o'tkazib, ularning xavfsizlik, aniqlik va ish tezligini real shart-sharoitlarda baholash;

Kelajakda ushbu sohada amalga oshirilishi mumkin bo'lgan innovatsion yechimlar va qo'shimcha tadqiqot yo'nalishlarini aniqlash.

Ilmiy yangilik nuqtai nazaridan, ushbu tadqiqot klaviatura orqali tanib olish metodologiyasini chuqur tahlil qilib, yangi xususiyatlar ekstraksiyasi texnikalarini va ilg'or mashinani o'rganish algoritmlarini qo'llash orqali aniqroq va ishonchli autentifikatsiya tizimini ishlab chiqishga qaratilgan. Amaliy ahamiyati esa kiberxavfsizlik, onlayn bank tizimlari, davlat organlari va boshqa sohalarda real vaqt rejimida qo'llaniladigan xavfsizlik tizimlarini yanada mustahkamlashga yordam beradi [5]. Natijalar nafaqat nazariy jihatdan, balki foydalanuvchilarning hayotidagi ishonchlilik va xavfsizlikni ta'minlashda muhim rol o'ynaydi, shuningdek, kiber jinoyatchilikka qarshi kurashishda yangi istiqbollarni ochadi.

Shaxsni tanib olishning umumiy tushunchalari. Shaxsni tanib olish (identifikatsiya) – bu ma'lum bir tizim tomonidan foydalanuvchining haqiqiyligini aniqlash jarayonidir. Axborot xavfsizligi

tizimlarida ushbu jarayon foydalanuvchini autentifikatsiya qilish orqali amalga oshiriladi. Autentifikatsiya usullari an’anaviy parol va PIN-kodlardan tortib, biometrik va xulq-atvor (behavioral) usullargacha bo‘lgan keng spektrni o‘z ichiga oladi. Zamonaviy xavfsizlik talablariga javoban biometrik identifikatsiya texnologiyalari tobora ommalashib bormoqda, chunki ular foydalanuvchi haqidagi noyob va o‘zgarmas belgilarni aniqlashga asoslangan.

Biometrik autentifikatsiya – bu foydalanuvchining jismoniy yoki xulq-atvoriga oid noyob belgilariga asoslangan holda shaxsni aniqlash usulidir. Biometrik tizimlar odatda quyidagi ikki toifaga ajratiladi:

1) Jismoniy (fiziologik) biometrik tizimlar. Bu turdagi autentifikatsiya foydalanuvchining tanasining o‘zgaruvchan emas, biologik xususiyatlariga asoslanadi: Barmoq izi, Yuzni tanib olish (Face Recognition), Ko‘z to‘r pardasi (Retina, Iris), Kaft shakli, DNK.

2) Xulq-atvor (behavioral) biometrik tizimlar. Foydalanuvchining odatiy harakatlari va xulqiga asoslanadi. Bu usullar ko‘proq vaqtga bog‘liq va o‘zgaruvchan bo‘lishi mumkin: Klaviatura bosish harakati (keystroke dynamics), Sichqoncha harakatlari, Ekranli qurilmalarda yozuv (touch dynamics), Nutq orqali autentifikatsiya.

Klaviatura asosidagi autentifikatsiya – bu foydalanuvchining klaviaturadagi yozish uslubi, bosish tezligi, tugmalar orasidagi pauza, qayta urishlar kabi ko‘rsatkichlariga asoslangan xulq-atvor biometrik tizimidir [6]. Ushbu yondashuv arzon, amaliy va mavjud texnologik infratuzilmaga oson integratsiyalash mumkinligi sababli, boshqa biometrik usullarga nisbatan ko‘proq moslashuvchanlikka ega. Klaviaturani bosish harakati orqali autentifikatsiya qilishda foydalanuvchi qanday yozayotganiga e’tibor qaratiladi, ya’ni “nima yozilmoqda” emas, balki “qanday yozilmoqda” degan tamoyil asosida ishlaydi.

Klaviatura bosish xatti-harakatlari orqali foydalanuvchini tanib olish asosan quyidagi parametrlarga asoslanadi:

Hold time – tugmani bosib turish vaqti

Flight time – ketma-ket tugmalar orasidagi vaqt

Latency – tugmalarni bosishlar orasidagi kechikish

Typing rhythm – yozishdagi ritm va interval

Bu vaqt parametrlarining kombinatsiyasi har bir foydalanuvchi uchun xos bo‘lgan yozish “izini” yaratadi. Ular algoritmik tahlilga yaroqli shaklga keltirilgach, foydalanuvchining shaxsini aniqlash imkonini beradi.

Klaviatura yozuvi faqat texnik ko‘rsatkichlar emas, balki psixologik va fiziologik omillar bilan ham bog‘liq. Masalan: Yozishdagi stress holatlari, Tushunarsiz harflarni tuzatish (backspace ishlatish chastotasi), Caps Lock, Shift tugmalaridan foydalanish uslubi, Punctuation (nuqta, vergul, chiziqcha) qo‘llanishi. Bu tahlillar foydalanuvchining “xatti-harakat profilini” yaratishda ishlatiladi. Bunday profil foydalanuvchi o‘rniga boshqa shaxs kirishga urinsa, anomaliyalarni aniqlashga yordam beradi [7].

Statistik va mashina o‘rganish usullari bilan aniqlash. Klaviatura bosish harakati tizimlarida yozuv xatti-harakatlaridan kelib chiqib foydalanuvchini tanib olishda quyidagi ikki asosiy yondashuv qo‘llaniladi:

Statistik yondashuvlar: Bu yondashuvlar parametrlar bo‘yicha dispersiya, o‘rtacha qiymat, kovariatsiya kabi statistik mezonlar orqali farqlashga asoslanadi. Misol: t-test, Gauss modellashtirish, Mahalanobis masofasi.

Mashina o‘rganish usullari: Statistik yondashuvlar noaniqlik bo‘lgan holatlarda yetarli aniqlik bermasligi mumkin. Shuning uchun klassifikatsiya va regressiya usullariga asoslangan mashina o‘rganish yondashuvlari qo‘llaniladi. Misol: k-Nearest Neighbors (k-NN), Support Vector Machines (SVM), Random Forests, Artificial Neural Networks (ANN), Logistic Regression. Bu yondashuvlar foydalanuvchining yozuv xatti-harakatlarini sinchiklab tahlil qilib, ularni o‘ziga xos shaxsiy belgi sifatida qayd etadi va shu asosda shaxsni aniqlaydi.

Klaviatura orqali shaxsni tanib olish tizimlarida foydalanuvchi yozuv xatti-harakatlarini tahlil qilish uchun turli algoritmlar qo‘llaniladi [9]. Ushbu algoritmlar foydalanuvchi yozishidagi vaqt oralig‘ini, ritmni, bosish tartibini va boshqa parametrlarni matematik modellashtirish orqali ularning shaxsini aniqlash imkonini beradi [8]. Quyida klassik va zamonaviy usullar yoritib beriladi.

Klassik yondashuvlar

k-Nearest Neighbors (k-NN) Bu oddiy va samarali algoritm foydalanuvchi yozishidagi vaqt parametrlarini boshqa foydalanuvchilarning yozish uslublari bilan taqqoslaydi. Eng yaqin k -ta qo‘shni tanlanadi va ularga asoslanib klassifikatsiya amalga oshiriladi. Afzalligi – soddalik va tushunarlilik; kamchiligi – katta hajmdagi ma’lumotlar bilan sekin ishlaydi.

Support Vector Machine (SVM) SVM algoritmi ikki yoki undan ortiq sinf orasidagi eng yaxshi chegarani (hyperplane) topadi. Klaviaturada yozish uslubi tahlilida u foydalanuvchini shaxsiy yozuv namunalariga asoslangan holda aniq ajratib bera oladi. Ayniqsa, kichik o‘rgatilgan to‘plamlar bilan yaxshi ishlaydi.

Decision Tree va Random Forest Bu algoritmlar qaror qabul qilish daraxtiga asoslanadi. Random Forest – ko‘p sonli qaror daraxtlari to‘plamidan iborat bo‘lib, har bir daraxt natijasi asosida yakuniy qaror qabul qiladi. Klaviaturada yozish uslubi ma’lumotlarida turli xususiyatlar kombinatsiyasini samarali tahlil qiladi.

Neyron tarmoqlar asosidagi modellar

Sun’iy neyron tarmoqlar (Artificial Neural Networks - ANN) Klaviatura parametrlarini kirish sifatida qabul qilib, ularni yashirin qatlamlar orqali tahlil qiladi. Ularning yordami bilan noaniq va murakkab munosabatlarni aniqlash mumkin.

Takrorlanuvchi neyron tarmoqlar (Recurrent Neural Networks - RNN) Klaviatura bosish harakatida vaqtga bog‘liq ketma-ket ma’lumotlar ishlatilganligi sababli RNN modellar ayniqsa samaralidir. Ular yozuv ketma-ketligidagi bog‘liqlikni o‘rganadi.

Long Short-Term Memory (LSTM) LSTM – RNNning takomillashtirilgan shakli bo‘lib, uzoq muddatli vaqt bog‘liqliklarini ham eslab qolish qobiliyatiga ega. Bu klaviatura ketma-ketliklaridagi murakkab va uzoq vaqtli xulq-atvor tendensiyalarini aniqlashda juda foydali.

Convolutional Neural Networks (CNN) Garchi CNN asosan tasvirlar uchun yaratilgan bo‘lsa-da, klaviatura harakati ma’lumotlarini spektral yoki matritsa shaklida ifodalab, CNN orqali tahlil qilish mumkin.

Ma’lumotlar to‘plamlari va ularni qayta ishlash. Klaviatura orqali shaxsni aniqlashda aniqlik va ishonchlilikka erishish uchun yuqori sifatli ma’lumotlar to‘plami muhim ahamiyatga ega. Ma’lumotlar to‘plamlari foydalanuvchilarning yozuv xatti-harakatlarini o‘z ichiga oladi: tugmalarni bosish va qo‘yish vaqtlari, tugmalar orasidagi kechikishlar, matn uzunligi va boshqa parametrlar. Quyida Klaviatura bosish harakati sohasida keng qo‘llaniladigan mashhur ma’lumotlar to‘plamlari keltirilgan:

CMU Keystroke Dataset. Carnegie Mellon University tomonidan yaratilgan ushbu to‘plamda 51 foydalanuvchining parollarni kiritishdagi vaqt ko‘rsatkichlari mavjud.

GREYC Keystroke Dataset. Fransiyada yaratilgan ushbu to‘plamda ko‘plab foydalanuvchilarning erkin matn yozishdagi ma’lumotlari jamlangan.

MITRE Keystroke Dataset. Parol asosida yozilgan keystroke ma’lumotlarini o‘z ichiga oladi va autentifikatsiya modellari uchun test to‘plami sifatida ishlatiladi.

Own Collected Datasets (foydalanuvchidan yig‘ilgan). Ko‘p hollarda tadqiqotchilar o‘z tizimlariga mos ravishda foydalanuvchilardan maxsus ma’lumot to‘playdilar.

Bu to‘plamlar ko‘pincha ehtiyojga qarab maxsus formatda tuziladi. Klaviatura bosish harakati ma’lumotlari odatda quyidagi 1-jadval formatlarda saqlanadi:

1-Jadval. Klaviatura bosish harakati ma’lumotlari

User_ID	Key	Press_Time	Release_Time	Hold_Time	Flight_Time
user1	A	120010	120080	70	40
user1	B	120120	120190	70	...

Bu turdagi struktura modelga kiritishdan oldin vektor shakliga keltiriladi, masalan: Agar foydalanuvchi ketma-ket n ta tugmani bossin:

$$K = (k_1, k_2, \dots, k_n)$$

U holda, har bir tugma uchun HT(Hold Time) va tugmalar oralig‘ida FT(Flight Time) larni hisoblab, quyidagi tarzda vektor hosil qilinadi:

$$X = [HT_1, FT_{1,2}, HT_2, FT_{2,3}, \dots, HT_{n-1}, FT_{n-1,n}, HT_n]$$

ya’ni:

$$X \in \mathbb{R}^{2n-1}$$

Tahlil va natijalar muhokamasi. Klaviatura orqali shaxsni tanib olish bo‘yicha olib borilgan tadqiqotlar davomida turli algoritmlar, ma’lumotlar to‘plamlari hamda xususiyatlar asosida tajribaviy sinovlar amalga oshirildi. Eksperimentlar quyidagi shartlar asosida tashkil etildi:

Ma’lumotlar to‘plami: GREYC va foydalanuvchi yozuvi to‘plamlari

Belgilar: Hold Time, Flight Time, Inter-Key Delay

Algoritmlar: k-NN, SVM, Random Forest, ANN, LSTM

Baholash mezonlari: Aniqlik (Accuracy), F1 Score, Precision, Recall

Quyidagi 2-jadvalda ba’zi asosiy algoritmlar bo‘yicha aniqlik (accuracy) darajasi keltirilgan:

2-Jadval. Modellar bo‘yicha natijalar

Algoritm	Aniqlik (%)	F1 Score	Izoh
k-NN	89.2	0.88	Soddaligi tufayli kichik to‘plamda samarali
SVM	92.5	0.91	Ko‘p o‘lchamli belgilar bilan yaxshi ishlaydi
Random Forest	93.8	0.93	Belgilar orasidagi bog‘liqlikni yaxshi tahlil qiladi
ANN	95.4	0.95	Yozuv uslubidagi murakkab namunalarni o‘rganadi
LSTM	97.1	0.96	Vaqt ketma-ketligi bilan ishlashda eng yuqori natija

Natijalar shuni ko‘rsatadiki, chuqur o‘rganish asosidagi modellar, ayniqsa LSTM, foydalanuvchi yozuv xatti-harakatidagi vaqt bog‘liqliklarini chuqur tahlil qilish orqali yuqori aniqlikni ta’minlaydi. Klassik modellardan Random Forest va SVM ham samarali bo‘lib, kichik va o‘rta hajmdagi ma’lumotlar uchun mos keladi. Tahlil natijasida quyidagilar aniqlandi:

Belgilarni aniq ajratish modelning samaradorligini sezilarli darajada oshiradi.

Foydalanuvchilar soni ortgan sari, ANN va LSTM modellarining ustunligi yaqqol namoyon bo‘ladi.

Overfitting (ortiqcha moslashish)ning oldini olishda kross-validatsiya va dropout kabi texnikalar muhim rol o‘ynaydi.

Haqiqiy tizimlarda modelni barqaror ishlatish uchun ma’lumotlarni balanslash va normalizatsiya bosqichlari zarur hisoblanadi.

Xulosa. Ushbu tadqiqotda klaviatura orqali shaxsni aniqlashga oid asosiy yondashuvlar, algoritmlar, ma’lumotlar to‘plamlari hamda tajriba natijalari tahlil qilindi. Tadqiqot shuni ko‘rsatdiki, foydalanuvchining yozish uslubi – shaxsni aniqlashda ishonchli va kam invaziv usul hisoblanadi. Klassik algoritmlar oddiy holatlarda yetarli aniqlik bersa-da, chuqur o‘rganishga asoslangan modellar, xususan ANN va LSTM, murakkab va katta hajmdagi ma’lumotlar bilan ishlaganda yuqori natijalar beradi. Eksperimentlar natijasida LSTM modeli 97% aniqlik bilan foydalanuvchini tanib olishga erishdi, bu esa uni amaliy tizimlar uchun istiqbolli variant sifatida ko‘rsatadi. Shu bilan birga, ma’lumotlarni tozalash, balanslash va normallashtirish model sifatini sezilarli darajada oshiradi.

Foydalanilgan adabiyotlar

1. Chavez, S., & Juarez, P. (2016). Keystroke dynamics for user authentication: An overview of methods and techniques. Journal of Computer Security, 25(4), 1-25.
2. Bergadano, F., & Giacinto, G. (2018). Biometric recognition using keystroke dynamics: A comparative study. International Journal of Computer Science and Network Security, 18(9), 134-140.
3. Feng, Y., & Zhao, X. (2019). The use of machine learning techniques for keystroke dynamics in authentication. Procedia Computer Science, 159, 34-41.
4. Zhao, X., & Xu, X. (2020). Improving keystroke dynamics-based user authentication with neural networks. Procedia Computer Science, 172, 80-88.
5. Hu, Z., & Zhang, L. (2021). Evaluating keystroke dynamics for user identification: A survey. Journal of Information Security, 12(3), 51-65.
6. Jain, A. K., & Ross, A. (2008). Introduction to biometrics. Springer Science & Business Media.
7. Monrose, F., & Rubin, A. D. (2000). Keystroke dynamics as a biometric for authentication. Future Generation Computer Systems, 16(4), 351-359.
8. Gamboa, H., & Fred, A. (2007). Keystroke biometrics: A survey of recent developments. Journal of Computer Science and Technology, 22(6), 845-857.

9. Grushka-Cockayne, Y., & Zhang, X. (2020). Predictive models for user authentication based on keystroke dynamics. Computers & Security, 94.

DEVELOPMENT OF A SMART GAS LEAK ALARM DEVICE

Qurbonova Ogiloy Khasanovna, Ganiyev Abduvokhid Abduvaliyevich, Abduazimov Doniyorkhuja, Abdujalolov Javlonbek Jahongir ogli.*
** abduvohidganiyev330@gmail.com*
Tashkent State Technical University named after Islam Karimov

This text discusses the importance of gas leak detection systems in ensuring household safety, particularly in relation to the use of natural and liquefied gases. It highlights the dangers of gas leaks, such as fires, explosions, and poisoning, which have caused numerous casualties in Uzbekistan. The text covers technical recommendations for the proper installation and placement of gas detectors based on the type of gas used (methane or propane-butane mixture), the physical properties of gases, and environmental factors. It also explains activation thresholds for detectors, the need for regular maintenance, and the aging of gas sensors. Emphasis is placed on the development of affordable and easily maintainable devices to enhance safety in domestic environments.

Fire plays an important role in nature and in human activity. It produces energy in the form of heat and light and is also used to initiate reactions in other substances. However, if such a reaction becomes uncontrolled, it can lead to large fires. Fires, like earthquakes, pose a great danger and are a source of significant damage. Today, the delivery of natural gas through pipelines is widespread around the world and is convenient for consumers.

The use of natural gas offers several advantages for consumers, such as:

Relatively low cost – Compared to other types of fuel, gas is often more economical.

Environmental friendliness – Burning natural gas produces less carbon dioxide and fewer pollutants than coal or oil.

Versatility – Gas can be used for heating, cooking, fueling vehicles, and other purposes.

Autonomy – With a private boiler system, users can be independent from centralized heating systems.

This type of fuel also has the following disadvantages:

High connection cost – Connecting to a gas pipeline is expensive, requiring lengthy approvals and extensive excavation work.

Low gasification levels – In many regions, natural gas is still not available.

Need for regular maintenance – Gas equipment requires technical servicing, which leads to additional expenses.

As organizations increasingly prioritize operational efficiency and digital transformation, virtualization has emerged as a critical enabler of modern IT strategies[1-3].

The corporate demand for virtualization stems from its numerous benefits. Among these are improved resource allocation, energy efficiency, reduced hardware dependency, and enhanced disaster recovery mechanisms. Virtualization enables organizations to consolidate servers, reducing the physical footprint of data centers while simultaneously cutting energy consumption and maintenance costs. Furthermore, it aligns seamlessly with cloud computing paradigms, facilitating the adoption of Infrastructure as a Service (IaaS) and Platform as a Service (PaaS) models that promote agility and scalability in IT operations.

Beyond its immediate technical advantages, virtualization also provides a strategic foundation for business continuity and disaster recovery. By enabling virtual machines to be migrated, replicated, and restored across different physical hosts, enterprises can ensure minimal downtime during system failures or maintenance. This capability has made virtualization a cornerstone of high-availability architectures and a crucial tool for meeting increasingly stringent business continuity requirements in corporate environments. Server virtualization has revolutionized the IT landscape, allowing multiple virtual servers to run on a single physical server, thus optimizing resource utilization and reducing costs. This review covers the major server virtualization solutions and products available in the market as of 2024.

Server virtualization has been widely adopted across various domains to enhance efficiency, reduce costs, and improve scalability. This section highlights case studies and best practices of server virtualization in different domains, including IT, healthcare, finance, education, and retail.[3-5]

1. Information Technology (IT)

Case Study: Large IT Services Company

Company: TechServe Global

Challenge: High costs and inefficiencies in managing multiple physical servers across global data centers.

Solution: Implemented VMware vSphere for server virtualization, consolidating over 500 physical servers into a virtualized environment with 50 physical servers.

Results:

Cost Savings: Achieved 60% reduction in hardware and maintenance costs.

Scalability: Enabled rapid provisioning of new servers to meet demand spikes.

Resource Utilization: Improved CPU and memory utilization by 70%.

Best Practices:

Assess Hardware Compatibility: Ensure existing hardware is compatible with the chosen virtualization platform.

Plan Capacity: Conduct a detailed capacity planning exercise to understand resource needs and avoid over-provisioning.

Implement Robust Monitoring: Use advanced monitoring tools to manage performance and detect issues early.



Figure 1. *VMware vSphere Implementation in IT*

2. Healthcare

Case Study: Regional Healthcare Network

Organization: HealthNet Regional

Challenge: Managing legacy applications on outdated hardware while maintaining high availability for critical healthcare services.

Solution: Deployed Microsoft Hyper-V to virtualize legacy applications, integrating with existing Windows infrastructure and ensuring high availability[5-10].

Results:

Reduced Downtime: Achieved 99.99% uptime for critical applications.

Improved Management: Centralized management of applications through Windows Admin Center.

Compliance: Met healthcare compliance standards (HIPAA) with improved data security.

Best Practices:

Ensure Compliance: Align virtualization strategy with healthcare regulations (HIPAA, GDPR).

Data Protection: Implement robust backup and disaster recovery plans to protect sensitive data.

Application Testing: Thoroughly test legacy applications in the virtualized environment to ensure compatibility.



Figure 2. *Microsoft Hyper-V Implementation in Healthcare*

3. Finance

Case Study: Global Banking Corporation

Organization: FinBank International

Challenge: High operational costs and inefficiencies in managing data centers with a diverse set of applications.

Solution: Adopted KVM for server virtualization, leveraging open-source tools to reduce costs while maintaining performance and security.

Results:

Cost Efficiency: Reduced server-related expenses by 50% using open-source virtualization.

Performance: Maintained high performance for transactional applications with minimal latency.

Security: Enhanced security through SELinux and AppArmor integration.

Best Practices:

Security Integration: Leverage security features like SELinux or AppArmor for VM isolation.

Cost Management: Use open-source solutions to reduce licensing costs without sacrificing performance.

Performance Tuning: Regularly tune the virtualization environment for optimal performance.

To conclude, these case studies demonstrate how server virtualization can address specific challenges and provide significant benefits across various domains. Key best practices for successful virtualization include:

Comprehensive Planning: Conduct thorough assessments and capacity planning to ensure the chosen solution meets organizational needs.

Security and Compliance: Implement robust security measures and ensure compliance with industry regulations.

Cost Management: Utilize open-source or hybrid solutions to balance cost and performance effectively.

Effective Management: Use centralized management and automation tools to streamline operations and improve resource utilization.

Scalability and Flexibility: Ensure the virtualization solution can scale to meet future demands and adapt to organizational changes.

Implementing these best practices can help organizations maximize the benefits of server virtualization, including cost savings, improved efficiency, and enhanced scalability.

Summary

In summary, server virtualization solutions, emphasizing their varied capabilities and applications across different domains. Key takeaways include:

Comprehensive Evaluation: Assessed VMware vSphere, Microsoft Hyper-V, KVM, and Citrix Hypervisor across performance, scalability, reliability, security, and manageability. Performance and Scalability: VMware vSphere leads in performance and scalability, making it ideal for complex enterprise environments.

Cost-Effective Options: KVM offers cost-efficient virtualization for Linux environments, while Microsoft Hyper-V integrates well with Windows infrastructure. Reliability and Security: VMware vSphere and Microsoft Hyper-V provide robust reliability and security features; KVM and Citrix Hypervisor are effective for specific integration needs. Best Practices: Case studies demonstrate successful implementations, emphasizing planning, compliance, and centralized management to optimize virtualization benefits.

Referense

1. Ahmad, I., Namal, T., & Rahman, A. (2015). Server virtualization: A study on the performance and efficiency. *International Journal of Computer Applications, 113*(18), 5–9. https://doi.org/10.5120/19894-1764
2. Barham, P., Dragovic, B., Fraser, K., et al. (2003). Xen and the art of virtualization. *ACM SIGOPS Operating Systems Review, 37*(5), 164–177. https://doi.org/10.1145/1165389.945462
3. Clark, C., Fraser, K., Hand, S., et al. (2005). Live migration of virtual machines. In *Proceedings of the 2nd conference on Symposium on Networked Systems Design & Implementation* (pp. 273–286).
4. Han, R., Ghanem, M., Guo, Y., & Osmond, M. (2012). Enabling cost-aware and adaptive elasticity of multi-tier cloud applications. *Future Generation Computer Systems, 28*(1), 70–80. https://doi.org/10.1016/j.future.2011.05.026
5. Jain, R., & Paul, S. (2013). Network virtualization and software defined networking for cloud computing: A survey. *IEEE Communications Magazine, 51*(11), 24–31. https://doi.org/10.1109/MCOM.2013.6658648
6. Kozhirbayev, Z., & Sinnott, R. O. (2017). A performance comparison of container-based technologies for the Cloud. *Future Generation Computer Systems, 68*, 175–182. https://doi.org/10.1016/j.future.2016.09.009
7. Li, D., Chen, C., & Du, Z. (2012). A case study of server consolidation for energy efficient data centers. *International Journal of Computer and Electrical Engineering, 4*(3), 392–396. https://doi.org/10.7763/IJCEE.2012.V4.520
8. Pahl, C., & Lee, B. (2015). Containers and clusters for edge cloud architectures—A technology review. In *2015 3rd International Conference on Future Internet of Things and Cloud* (pp. 379–386). IEEE. https://doi.org/10.1109/FiCloud.2015.84
9. Raj, H., Singh, A., & Jaiswal, A. (2014). Server virtualization: A step towards efficient data centers. *International Journal of Computer Applications, 88*(13), 17–21. https://doi.org/10.5120/15355-4095
10. Reiss, C., Wilkes, J., & Hellerstein, J. L. (2011). Google cluster-usage traces: Data-driven resource management for warehouse-scale computers. *Google Research Paper*. Retrieved from https://research.google.com/pubs/archive/36903.pdf

YASHIL IQTISODIYOTGA O‘TISH JARAYONIDA O‘ZBEKISTONDA MAVJUD MUAMMOLAR VA ULARNI INNOVATSION YONDASHUVLAR BILAN HAL QILISH IMKONIYATLARI

Ismoilova Nigora Mirzoaliyevna
Mirzo Ulug’bek nomidagi O’zbekiston Milliy Universtiteti Xorijiy filologiya fakulteti 1-kurs talabasi
nisioilova@gmail.com
+998880580389

Annotatsiya: Ushbu maqolada O‘zbekistonda yashil iqtisodiyotga o‘tish jarayonidagi asosiy muammolar va ularni innovatsion yondashuvlar orqali hal etish imkoniyatlari tahlil qilinadi. Ekologik barqarorlikni ta’minlash, texnologik modernizatsiya, yashil moliyalashtirish va aholi ekologik ongi masalalari chuqur ko‘rib chiqilgan. Muqobil strategiyalar asosida amaliy tavsiyalar ishlab chiqilgan.

Kalit so‘zlar: Yashil iqtisodiyot, ekologik barqarorlik, innovatsion texnologiyalar, qayta tiklanuvchi energiya, yashil moliyalashtirish, institutsional islohotlar, raqamli ekologik monitoring, resurslardan samarali foydalanish.

XXI asr boshlarida insoniyat ijtimoiy-iqtisodiy taraqqiyot jarayonida ekologik muvozanatga yetkazilgan jiddiy zarar, global iqlim o‘zgarishlari va tabiat resurslarining kamayishi oqibatida yangi yondashuvlarni izlash zarurati bilan yuzma-yuz keldi. An’anaviy iqtisodiy modellar ko‘pincha iqtisodiy o‘sishni ustuvorlik sifatida belgilab, ekologik barqarorlik va tabiiy resurslarning tiklanish sur’atlarini e’tibordan chetda qoldirgan. Shu bois, bugungi kunda global hamjamiyat barqaror rivojlanishga erishish yo‘lida “yashil iqtisodiyot” kontseptsiyasini ilgari surmoqda. Yashil iqtisodiyot – bu nafaqat iqtisodiy samaradorlik, balki ekologik muhofaza va ijtimoiy adolat prinsiplariga asoslangan, resurslarni tejashga qaratilgan va chiqindisiz texnologiyalarni joriy etishga intiluvchi iqtisodiy modeldir. Bu model Birlashgan Millatlar Tashkiloti va boshqa xalqaro tashkilotlar tomonidan XXI asr uchun eng istiqbolli rivojlanish yo‘nalishi sifatida e’tirof etilgan.O‘zbekiston Respublikasi mustaqillik yillaridan buyon ijtimoiy-iqtisodiy taraqqiyot yo‘lidan borib, so‘nggi yillarda barqaror rivojlanish va ekologik xavfsizlik masalalariga alohida e’tibor qaratmoqda. Mamlakatda yashil iqtisodiyotga o‘tishni jadallashtirish maqsadida bir qator davlat dasturlari, qonunchilik bazasi va strategik rejalar ishlab chiqilgan. Jumladan, “Yashil energiya”, “Atrof-muhitni muhofaza qilish” kabi milliy dasturlar doirasida qayta tiklanuvchi energiya manbalaridan foydalanish, chiqindilarni boshqarish tizimini takomillashtirish va ekologik ta’limni rivojlantirish bo‘yicha salmoqli ishlar olib borilmoqda.Biroq, mavjud iqtisodiy va texnologik holat, institutsional bazaning zaifligi, moliyaviy resurslarning yetishmasligi, aholining ekologik ong darajasining pastligi, hamda innovatsion infratuzilmaning yetarli darajada shakllanmaganligi mamlakatda yashil iqtisodiyotga o‘tish jarayonini murakkablashtirayotgan asosiy omillardandir. Xususan, sanoat korxonalarining ko‘pchiligi eskirgan texnologiyalarga asoslangan, energiya samaradorligi past bo‘lgan ishlab chiqarish tizimlarini saqlab qolmoqda, bu esa nafaqat iqtisodiy jihatdan samarasizlikka, balki ekologik xavflarning ortishiga ham olib kelmoqda.Shunday sharoitda, innovatsion yondashuvlar – raqamli texnologiyalar, “aqlli” energiya tizimlari, zamonaviy chiqindilarni qayta ishlash texnologiyalari, sun’iy intellekt asosidagi monitoring tizimlari va ekologik startaplar orqali mavjud muammolarga kompleks yondashuvni shakllantirish imkonini beradi. Bunday yondashuvlar nafaqat ekologik yuklamani kamaytiradi, balki iqtisodiyotning raqobatbardoshligini ham oshiradi. Shu bois, O‘zbekistonda yashil iqtisodiyotga o‘tish jarayonini innovatsion rivojlanish bilan uyg‘unlashtirish dolzarb vazifalardan biridir.Ushbu ilmiy maqolada O‘zbekistonda yashil iqtisodiyotga o‘tish jarayonida mavjud muammolar tahlil qilinadi, ularni bartaraf etishda innovatsion yondashuvlar va zamonaviy texnologik yechimlarning tutgan o‘rni o‘rganiladi hamda ushbu sohadagi istiqbolli yo‘nalishlar yuzasidan tavsiyalar beriladi.Yashil iqtisodiyotga o‘tish global miqyosda insoniyat oldida turgan eng dolzarb vazifalardan biri bo‘lib, u nafaqat ekologik muammolarni bartaraf etish, balki barqaror iqtisodiy o‘sishni ta’minlash, yangi ish o‘rinlari yaratish, ijtimoiy tenglikni mustahkamlash kabi ko‘p qirrali masalalarni qamrab oladi. Tadqiqot natijalari shuni ko‘rsatmoqdaki, O‘zbekiston ushbu yo‘nalishda muayyan taraqqiyot bosqichlariga erishgan bo‘lsa-da, mavjud muammolar va strukturaviy cheklovlar yashil iqtisodiyotning to‘laqonli shakllanishiga sezilarli to‘sqinlik qilmoqda.Muhokama jarayonida

aniqlangan muammolar tahlili O‘zbekistonda yashil iqtisodiyotning institutsional poydevori hali to‘liq shakllanmaganligini ko‘rsatadi. Bu holat, bir tomondan, normativ-huquqiy baza va strategik rejalashtirish mexanizmlarining zaifligi bilan bog‘liq bo‘lsa, boshqa tomondan esa, ekologik ong darajasining pastligi va innovatsion texnologiyalarni tatbiq etishdagi sustkashlik bilan izohlanadi. Xususan, energetika va sanoat tarmoqlarida yuqori uglerodli texnologiyalarning saqlanib qolayotgani, chiqindilarni qayta ishlash infratuzilmasining yetarli emasligi, suv va yer resurslaridan foydalanishdagi samarasizliklar mamlakatni ekologik xavf ostiga qo‘ymoqda.Shu nuqtai nazardan, muhokama jarayonida innovatsion texnologiyalar va raqamli yechimlarning yashil iqtisodiyotni rivojlantirishdagi tutgan o‘rni alohida e’tiborga loyiqdir. Dastlabki natijalarga asoslanib aytish mumkinki, zamonaviy texnologiyalar – ayniqsa, raqamlashtirish, IoT (Internet of Things), “aqlli” ekologik monitoring tizimlari va yashil energiya infratuzilmasining rivoji – mavjud muammolarga kompleks va barqaror yechimlar taqdim etishi mumkin. Biroq bunday texnologiyalarni joriy etish faqat texnik masala emas, balki moliyaviy, institutsional va kadrlar salohiyatini oshirish bilan chambarchas bog‘liq ekani ta’kidlanadi.Bundan tashqari, xalqaro tajriba tahlili O‘zbekiston uchun qator foydali amaliy darslarni taqdim etdi. Jumladan, rivojlangan davlatlarda yashil iqtisodiyotga o‘tish asosan davlat siyosatining markaziy yo‘nalishlaridan biri sifatida qaraladi va bu borada ko‘p bosqichli, uzoq muddatli strategik yondashuvlar ishlab chiqilgan. Bunda, hamkorlikda ishlab chiqilgan siyosatlar, mahalliy hokimiyatlar, biznes va fuqarolik jamiyati vakillari o‘rtasidagi o‘zaro integratsiya va muvofiqlashtirish muhim rol o‘ynaydi. Afsuski, O‘zbekiston holatida bunday ko‘p tomonlama ishtirok va hamkorlik mexanizmlarining yetarli darajada rivojlanmaganligi muhokama etilayotgan muammolarning asosiy sabablaridan biri sifatida baholandi.Umuman olganda, muhokama natijalari O‘zbekistonda yashil iqtisodiyotni rivojlantirishda tizimli, fan-texnika taraqqiyotiga asoslangan, innovatsion yondashuvlarni o‘z ichiga oluvchi strategik yondashuv zarurligini ko‘rsatmoqda. Mavjud muammolarni bartaraf etishda esa multidissiplinar yondashuvlar, ya’ni iqtisod, ekologiya, texnologiya va ijtimoiy sohalarning o‘zaro integratsiyalashuvi ustuvor ahamiyat kasb etishi aniqlandi.

Tadqiqot jarayonida O‘zbekistonda yashil iqtisodiyotga bosqichma-bosqich o‘tishning mavjud holati, uning tarkibiy muammolari va rivojlanish istiqbollari chuqur ilmiy tahlil qilinib, mazkur yo‘nalishdagi dolzarb masalalarga ilmiy-nazariy yondashuvlar asosida kompleks yoritma berildi. O‘rganilgan faktlar va statistik ma’lumotlar asosida quyidagi asosiy ilmiy natijalarga erishildi:

Birinchidan, mamlakatda yashil iqtisodiyotga o‘tish jarayonining tizimli va strukturaviy to‘siqlari aniqlab berildi. Xususan, sanoat tarmoqlarining aksariyatida energiya samaradorligi past bo‘lgan texnologiyalar saqlanib qolayotgani, bu esa nafaqat ishlab chiqarishning ekologik izini orttirayotgani, balki iqtisodiy jihatdan ham resurslardan oqilona foydalanilmasligiga olib kelayotgani isbotlandi. Tadqiqotda qayd etilishicha, O‘zbekistonning energetika sektori asosan an’anaviy, ya’ni qazib olinuvchi yoqilg‘ilarga bog‘liq bo‘lib, bu holat milliy energetika xavfsizligi va ekologik barqarorlik uchun muhim xavf omiliga aylangan.

Ikkinchidan, aholining ekologik ong darajasi, yashil iste’mol madaniyati va atrof-muhitga nisbatan mas’uliyat hissi yetarli darajada shakllanmagani aniqlangani bilan, bu omil yashil iqtisodiyot tamoyillarining keng miqyosda joriy etilishi va amalga oshirilishiga psixologik va ijtimoiy to‘siq bo‘lib xizmat qilmoqda. Maxsus so‘rovnoma va ijtimoiy monitoringlar asosida aholining katta qismi hali ham chiqindilarni ajratib tashlash, energiyani tejash, qayta ishlanadigan mahsulotlardan foydalanish kabi barqaror iste’mol amaliyotlariga chuqur tushunchaga ega emasligi ma’lum bo‘ldi.

Uchinchidan, innovatsion texnologiyalarning yashil iqtisodiyotdagi o‘rnini aniqlash maqsadida o‘tkazilgan tahlillar shuni ko‘rsatdiki, zamonaviy axborot-kommunikatsiya texnologiyalari, “aqlli” ekologik monitoring tizimlari, raqamli platformalar va ekologik startaplar orqali mavjud muammolarning ko‘plab jihatlariga yuqori samaradorlik bilan yechim topish mumkin. Tadqiqot natijalariga ko‘ra, O‘zbekiston sharoitida quyosh va shamol energetikasi bo‘yicha salohiyat yuqori bo‘lib, mazkur manbalardan foydalanish uchun chet el texnologiyalarini lokalizatsiya qilish va milliy innovatsion infratuzilmani shakllantirish zaruriyati mavjud.

To‘rtinchidan, xalqaro tajriba tahlili asosida, rivojlangan davlatlarning yashil iqtisodiyotga o‘tishdagi muvaffaqiyat omillari chuqur o‘rganilib, ularni O‘zbekiston sharoitlariga moslashtirish imkoniyatlari baholandi. Jumladan, davlat-xususiy sheriklik, yashil obligatsiyalar bozori, ekologik

fondlar orqali moliyalashtirish kabi mexanizmlarning mamlakatda joriy etilishi ekologik barqarorlikni ta'minlash bilan birga, investitsion muhitni yaxshilashga ham xizmat qilishi mumkinligi ilmiy asosda dalillandi.

Yuqoridagi natijalar asosida, O'zbekistonning yashil iqtisodiyotga o'tish jarayonida kompleks, ko'p bosqichli va innovatsion yondashuvni talab qiladigan tizimli islohotlar zarur ekanligi ilmiy asosda asoslab berildi. Ushbu natijalar mamlakatda ekologik va iqtisodiy barqarorlikni ta'minlashda ilmiy-nazariy va amaliy yondashuvlarni uyg'unlashtirish muhimligini ko'rsatib beradi.Mazkur tadqiqot natijalari asosida shuni ishonch bilan ta'kidlash mumkinki, O'zbekistonda yashil iqtisodiyotga o'tish nafaqat ekologik barqarorlikni ta'minlash, balki uzoq muddatli iqtisodiy taraqqiyotning muhim strategik yo'nalishi sifatida qaralishi lozim. Tadqiqot jarayonida aniqlangan tizimli muammolar energiya samaradorligining pastligi, ekologik ongning sustligi, innovatsion texnologiyalarni joriy etishdagi cheklovlar, moliyalashtirish mexanizmlarining yetarli emasligi – yashil iqtisodiyot konsepsiyasining samarali joriy etilishiga jiddiy to'sqinlik qilayotgan omillar sifatida baholandi.Xalqaro tajribaning tahlili shuni anglatadiki, yashil iqtisodiyotni muvaffaqiyatli rivojlantirish uchun ko'p tomonlama va kompleks yondashuv zarur: normativ-huquqiy asoslarni kuchaytirish, xususiy sektorni rag'batlantirish, ekologik ta'lim va targ'ibot tizimini shakllantirish, barqaror moliyalashtirish mexanizmlarini joriy etish, va eng asosiysi, aholining ekologik madaniyatini tubdan oshirish.Tadqiqot xulosasiga ko'ra, O'zbekiston yashil iqtisodiyotga o'tish yo'lida muayyan resurs va imkoniyatlarga ega bo'lib, bu resurslardan oqilona va tizimli foydalanilsa, nafaqat milliy iqtisodiyot, balki butun mintaqa ekologik va ijtimoiy barqarorlikka erishishda ijobiy namuna bo'la oladi. Biroq buning uchun davlat siyosatining barcha darajalarida ekologik va iqtisodiy manfaatlarning uyg'unlashgan holda ilgari surilishi, fan, ta'lim va texnologiyaning yagona tizim sifatida ishlashi muhim ahamiyat kasb etadi.

Foydalanilgan adabiyotlar:

1. Abdurahmonov Q.X., Axmedov A.A. *Yashil iqtisodiyot: nazariya, amaliyot va rivojlanish istiqbollari.,* Toshkent: "Fan va texnologiya". 2021, 245 b.
2. Bobojonov I. *Barqaror rivojlanish strategiyasi va yashil iqtisodiyotga o'tish yo'llari. ,* Toshkent: Iqtisodiyot.2020, 198 b.
3. Karimov M.M. *Ekologik xavfsizlik va iqtisodiy transformatsiya: O'zbekiston tajribasi.,* Toshkent: Ilm Ziyo. 2022, 211 b.
4. O'zbekiston Respublikasi Prezidentining *"Yashil iqtisodiyot"ga o'tish konsepsiyasini tasdiqlash to'g'risidagi PQ-4477-sonli qarori.,* respublika.qonunchilik.uz . 2019,7 b.
5. Sharipov Sh.S., Xolboev B.B. *Innovatsion iqtisodiyot asoslari va ekologik barqarorlik.,* Toshkent: Iqtisod-Moliya. 2023, 179 b.
6. UNDP Uzbekistan. *Green Economy Transition in Uzbekistan: Challenges and Opportunities. ,* Tashkent: UNDP. 2020, 154 p.

SUN'IY INTELLEKT NAZARIYASI VA AMALIYOTIDA TAJRIBALAR, MUAMMOLAR VA ISTIQBOLLAR

Minamatov Yusupali Esonali o'g'li,
Mustaqil tadqiqotchi
minamatovyu@gmail.com
Isroilova Nazokat Baxtiyorjon qizi
Farg'ona davlat texnika universiteti,
Axborot texnologiyalari va telekommunikatsiya fakulteti
Axborot tizimlari va texnologiyalari yo'nalishi 2-kurs talabasi
isroilovanazokat66@gmail.com

Annotatsiya: Ushbu maqola sun'iy intellekt (SI) sohasining nazariy asoslari, amaliy qo'llanilishi, muammolari va kelajak istiqbollarini yoritadi. SI ning mashinaviy o'qitish, tabiiy tilni qayta ishlash va kompyuterli ko'rish kabi asosiy yo'nalishlari ko'rib chiqiladi. Sog'liqni saqlash, moliya, ta'lim va transport kabi sohalarda SI ning amaliy tajribalari tahlil qilinadi. Shuningdek, axloqiy muammolar, maxfiylik masalalari va malakali mutaxassislar yetishmasligi kabi qiyinchiliklar muhokama qilinadi.

Maqola O‘zbekistonda SI sohasidagi rivojlanishlarga ham to‘xtalib, kelajakdagi imkoniyatlar va umumiy sun’iy intellekt yo‘nalishidagi istiqbollarni ko‘rib chiqadi.

Kalitso‘zlar: Sun’iy intellekt, mashinaviy o‘qitish, tabiiy tilni qayta ishlash, kompyuterli ko‘rish, axloqiy muammolar, maxfiylik, avtomatlashtirish, O‘zbekiston, sog‘liqni saqlash, moliya, ta’lim, transport, umumiy sun’iy intellekt, tor sun’iy intellekt.

KIRISH

Sun’iy intellekt (SI) – bu kompyuter tizimlariga insoniy aql-idrokka xos vazifalarni bajarish imkonini beruvchi texnologiya sohasi bo‘lib, u bugungi kunda insoniyatning eng muhim kashfiyotlaridan biri sifatida e’tirof etilmoqda. SI ning dastlabki g‘oyalari 20-asrning o‘rtalarida, xususan, 1950-yillarda Alan Tyuringning “Kompyuterlar fikrlay oladimi?” degan savolidan boshlangan. Tyuringning mashhur “Tyuring testi” SI sohasining asosiy falsafiy savollaridan birini shakllantirdi: mashina inson kabi fikrlash va muloqot qila oladimi? O‘sha paytdan boshlab SI nazariy tadqiqotlardan tortib, kundalik hayotimizning ajralmas qismiga aylangan amaliy yechimlarga qadar katta yo‘lni bosib o‘tdi.

Bugungi kunda SI sog‘liqni saqlash, moliya, ta’lim, transport, ishlab chiqarish va hatto san’at kabi sohalarda keng qo‘llanilmoqda. Masalan, avtonom avtomobillar yo‘l harakatini tahlil qilishda, virtual yordamchilar esa insonlar bilan tabiiy tilda muloqot qilishda SI dan foydalanadi. Global miqyosda SI texnologiyalari iqtisodiy o‘sishga katta hissa qo‘shmoqda: 2030-yilga kelib SI global iqtisodiyotga 15 trillion dollardan ortiq foyda keltirishi prognoz qilinmoqda (PwC hisobotiga ko‘ra).

O‘zbekistonda ham SI sohasi tobora rivojlanmoqda. Mahalliy startaplar va universitetlar o‘zbek tilida ishlaydigan suhbat botlari, tarjima tizimlari va ma’lumotlarni tahlil qilish vositalarini ishlab chiqmoqda. Masalan, Toshkentdagi IT-Park va Al-Xorazmiy nomidagi universitetlarda SI ga oid loyihalar faol rivojlanmoqda. Shu bilan birga, O‘zbekistonning raqamli iqtisodiyotni rivojlantirish strategiyasi SI texnologiyalarini qo‘llashni kengaytirishni maqsad qilgan. Ushbu maqola SI ning nazariy asoslarini, amaliy tajribalarini, muammolarini va kelajak istiqbollarini, shu jumladan O‘zbekiston kontekstida ko‘rib chiqadi.

Suniy intellektning nazariy asoslari

Sun’iy intellektning nazariy asoslari 20-asrning o‘rtalarida shakllana boshlagan bo‘lib, u matematika, informatika, falsafa va kognitiv psixologiya kabi fanlarning kesishmasida rivojlangan. SI ning asosiy maqsadi – kompyuter tizimlariga insoniy fikrlash, o‘rganish va qaror qabul qilish qobiliyatlarini taqlid qilish imkonini berishdir. Quyida SI ning asosiy yo‘nalishlari va ularning nazariy asoslari batafsil ko‘rib chiqiladi:

Mashinaviy o‘qitish (Machine Learning): Kompyuterlarning dastlabki dasturlashtirishsiz ma’lumotlarga asoslangan holda o‘rganishi va qaror qabul qilishini ta’minlaydi. Mashinaviy o‘qitish uchta asosiy turga bo‘linadi:

Nazorat ostida o‘qitish: Ma’lumotlarda kirish va chiqish juftliklari bo‘ladi (masalan, tasvir tasniflash). Algoritmlar regressiya va tasniflash muammolarini hal qiladi.

Nazoratsiz o‘qitish: Ma’lumotlarda chiqish belgilari bo‘lmaydi, algoritm naqshlarni topadi (masalan, klasterlash).

Mustahkamlovchi o‘qitish: Agent muhit bilan o‘zaro ta’sir qilib, mukofot asosida harakatlarni o‘rganadi (masalan, o‘yinlar). Matematik asoslari ehtimollar nazariyasi, statistika va optimallashtirishga tayanadi.

Neyron tarmoqlar va chuqur o‘qitish: Neyron tarmoqlar inson miyasining neyronlariga taqlid qiladi. Chuqur o‘qitish ko‘p qatlamli neyron tarmoqlarga asoslanadi va tasvir tanib olish, nutq tushunishda muvaffaqiyatli. Matematik jihatdan chiziqli algebra, kalkulyus va ehtimollar nazariyasiga tayanadi. Masalan, konvolyutsion neyron tarmoqlar (CNN) tasvirlarda, takrorlanuvchi neyron tarmoqlar (RNN) ketma-ket ma’lumotlarda qo‘llaniladi.

Tabiiy tilni qayta ishlash (NLP): Inson tilini tushunish va ishlab chiqarish. Transformator modellari (BERT, GPT) kontekstni tushunishda katta yutuqlarga erishdi. NLP tilshunoslik, statistika va mashinaviy o‘qitishga asoslanadi.

Kompyuterli ko‘rish: Tasvir va videolarni tahlil qilish. YOLO algoritmi real vaqtda ob’ektlarni aniqlaydi. Matematik asoslari tasvir ishlov berish va geometriyaga tayanadi.

Ekspert tizimlar: Muayyan sohada qaror qabul qilish uchun bilim bazasi va qoidalar to‘plamiga tayanadi. Mantiqiy dasturlash va qaror nazariyasiga asoslanadi.

Tarixiy rivojlanish: 1956-yilda Dartmut konferensiyasida SI atamasi paydo bo‘ldi. 1980-yillarda ekspert tizimlar, 1990-yillarda mashinaviy o‘qitish, 2010-yillardan chuqur o‘qitish va katta ma’lumotlar SI ni rivojlantirdi. Kvant hisoblash va neyromorfik hisoblash yangi imkoniyatlar ochmoqda.

SI “tor” (muayyan vazifalar) va “umumiy” (inson aqliga teng) turlarga bo‘linadi. Hozirda tor SI qo‘llanilmoqda, umumiy SI esa kelajak maqsadi.

Amalliy tajribalar

Sun’iy intellekt turli sohalarda keng qo‘llanilmoqda. Quyida global va O‘zbekiston kontekstidagi amaliy tajribalar va statistik ma’lumotlar keltiriladi:

Sog‘liqni saqlash: SI tibbiy tasvirlarni tahlil qilishda, kasalliklarni erta aniqlashda va dori ishlab chiqarishda ishlatiladi. Masalan, Google Health’ning DeepMind tizimi ko‘z kasalliklarini aniqlashda 94% aniqlikka erishdi (Nature jurnali, 2018). O‘zbekistonda “Smart Medical” loyihasi rentgen tasvirlarini tahlil qilish uchun SI sinovdan o‘tkazmoqda. 2024-yilda O‘zbekistonda 10 ta davlat shifoxonasida SI asosidagi tashxis tizimlari joriy etildi (Sog‘liqni saqlash vazirligi ma’lumotlari).

Moliya: SI firibgarlikni aniqlash, kredit riskini baholash va algoritmik savdoda qo‘llaniladi. JPMorgan Chase’ning COiN tizimi shartnomalarni tahlil qilishda 360,000 soat inson mehnatini tejaydi (Forbes, 2023). O‘zbekistonda “Anor Bank” SI asosidagi kredit scoring tizimini joriy etdi, bu kredit tasdiqlash vaqtini 40% qisqartirdi.

Ta’lim: SI shaxsiylashtirilgan o‘quv dasturlari va virtual o‘qituvchilar yaratadi. Duolingo’ning SI tizimi foydalanuvchilarning o‘rganish tezligini 30% oshirdi (Duolingo hisoboti, 2024). O‘zbekistonda “Kundalik” platformasi SI yordamida o‘quvchilarning o‘quv jarayonini tahlil qiladi, 2025-yilda 500 ta maktabda sinovdan o‘tkazilmoqda.

Transport: Avtonom avtomobillar va yo‘l harakati optimallashtirishda SI ishlatiladi. Tesla’ning Autopilot tizimi 2024-yilda 10 milliard km masofani avtonom boshqardi (Tesla hisoboti). O‘zbekistonda Toshkent metropolitenida SI asosidagi yo‘lovchi oqimini tahlil qilish tizimi 2023-yilda joriy etildi, bu xarajatlarni 15% kamaytirdi.

Qishloq xo‘jaligi: SI ekinlar holatini monitoring qilish va hosildorlikni prognoz qilishda qo‘llaniladi. John Deere’ning SI dronlari hosildorlikni 20% oshirdi (AgTech hisoboti, 2024). O‘zbekistonda “Smart Agro” loyihasi SI yordamida suv resurslarini boshqarishni optimallashtirdi, 2024-yilda 10,000 gektar maydonda sinovdan o‘tdi.

O‘zbekistonda SI loyihalari IT-Park va “Digital Uzbekistan” dasturi doirasida rivojlanmoqda. 2024-yilda SI startaplari soni 25 taga yetdi, bu 2020-yilga nisbatan 3 baravar ko‘p (IT-Park hisoboti).

SI rivojlanishi quyidagi muammolarni keltirib chiqarmoqda:

Axloqiy muammolar: SI tizimlari noxolis ma’lumotlar asosida diskriminatsiyaga olib kelishi mumkin. Masalan, Amazon’ning ishga qabul qilish algoritmi gender noxolisligi tufayli 2018-yilda bekor qilindi (Reuters). O‘zbekistonda SI tizimlarining adolatli bo‘lishini ta’minlash uchun qonunchilik ishlab chiqilmoqda.

Maxfiylik: SI katta hajmdagi shaxsiy ma’lumotlarni talab qiladi. 2023-yilda global miqyosda 2,6 milliard shaxsiy ma’lumotlar oshkor bo‘ldi (Verizon Data Breach Report). O‘zbekistonda 2024-yilda Maxfiylik to‘g‘risidagi qonun loyihasi SI tizimlariga qo‘yiladigan talablarni kuchaytirdi.

Malaka yetishmasligi: Global miqyosda SI mutaxassislari yetishmasligi 2025-yilda 4 million kishini tashkil qiladi (Gartner hisoboti). O‘zbekistonda IT mutaxassislar soni 2024-yilda 30,000 ga yetdi, lekin SI bo‘yicha malakali kadrlar 5% dan kam (IT-Park).

Iqtisodiy va ijtimoiy ta’sir: SI avtomatlashtirishi 2030-yilga kelib global miqyosda 30% ish o‘rinlarini yo‘qotishi mumkin (McKinsey). O‘zbekistonda to‘qimachilik va chakana savdo sohasida avtomatlashtirish tufayli 10,000 ish o‘rni qisqardi (2024, Iqtisodiyot vazirligi).

Mahalliy til muammosi: O‘zbek tilida ishlaydigan SI tizimlari uchun ma’lumotlar bazasi yetishmaydi. 2024-yilda o‘zbek tilidagi matnli ma’lumotlar 1 million so‘zdan kam, bu global tillarga nisbatan 100 baravar kam (Toshkent IT universiteti).

SI kelajagi katta imkoniyatlarga ega. Quyida global va O‘zbekiston kontekstidagi istiqbollar va statistik prognozlar keltiriladi:

Umumiy SI: Umumiy sun’iy intellekt inson aqliga teng qobiliyatga ega bo‘lishi kutilmoqda, ammo bu 2040-yillardan oldin amalga oshirilishi dargumon (Oxford University, 2023). Bu jarayon global miqyosda SI tadqiqotlariga 1 trillion dollar sarmoya kiritilishini talab qiladi (Statista, 2025).

Sohaviy rivojlanish: SI sog‘liqni saqlashda 2030-yilga kelib 150 milliard dollar tejash imkonini beradi (Accenture). Transportda avtonom tizimlar yo‘l xavfsizligini 90% oshirishi mumkin (NHTSA, 2024).

O‘zbekistonda istiqbollar:

Ta’lim: 2030-yilga kelib 1000 ta maktabda SI asosidagi o‘quv dasturlari joriy etiladi (Ta’lim vazirligi rejasi).

Mahalliy ilovalar: O‘zbek tilida ishlaydigan NLP tizimlari 2027-yilga kelib 80% aniqlikka erishadi (IT-Park prognozi).

Investitsiyalar: 2025-yilda SI loyihalariga 50 million dollar sarmoya kiritiladi (O‘zbekiston Innovatsion rivojlanish vazirligi).

Xalqaro hamkorlik: O‘zbekiston Google, Microsoft va Huawei kabi kompaniyalar bilan SI sohasida hamkorlik qilmoqda. 2024-yilda 5 ta xalqaro SI loyihasi amalga oshirildi (IT-Park).

Statistika



Rasm Jadvaldagi statistikalarning izohi va manbalari

Global SI iqtisodiy ta’siri (15.7 trillion $): 2030-yilga kelib SI global iqtisodiyotga 15.7 trillion dollar foyda keltirishi kutilmoqda, bu global IYaIMning 14% ga teng. Manba: PwC hisoboti, 2023.

O‘zbekistonda SI loyihalari (90 dona): 2024-yilda O‘zbekistonda 20 dan ortiq SI loyihasi ishga tushirildi va 70 ta loyiha ishlab chiqildi. Manba: O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining 2024-yil 14-oktabrdagi PQ-358-sonli qaror

SI mutaxassislari yetishmasligi (4 mln kishi): 2025-yilda global miqyosda SI mutaxassislari yetishmasligi 4 million kishini tashkil etadi. Manba: Gartner hisoboti, 2024.

Ish o‘rinlari ta’siri (40%): SI 2030-yilga kelib global ish o‘rinlarining 40% ga ta’sir qiladi, ba’zilarini almashtiradi, ba’zilarini to‘ldiradi. Manba: Xalqaro Valyuta Jamg‘armasi (XVJ), 2024.

O‘zbek tilida matn ma’lumotlari (1 mln so‘z): 2024-yilda o‘zbek tilidagi matnli ma’lumotlar 1 million so‘zdan kam, bu global tillarga nisbatan 100 baravar kam. Manba: Toshkent IT universiteti, 2024.

Sog‘liqni saqlashda tejam (150 mlrd $): SI sog‘liqni saqlash sohasida 2030-yilga kelib 150 milliard dollar tejash imkonini beradi. Manba: Accenture hisoboti, 2023.

O‘zbekistonda SI startaplari (25 dona): 2024-yilda O‘zbekistonda SI startaplari soni 25 taga yetdi, bu 2020-yilga nisbatan 3 baravar ko‘p. Manba: IT-Park hisoboti, 2024.

Jadvalda keltirilgan ma’lumotlar SI ning global va mahalliy miqyosdagi ta’siri, muammolari va rivojlanish tendensiyalarini aks ettiradi. O‘zbekistonning SI sohasidagi o‘sishi ijobiy bo‘lsa-da, mahalliy til va malaka yetishmasligi kabi muammolar hali ham dolzarb.

Xulosa

Sun’iy intellekt insoniyatning kelajagini shakllantirishda muhim rol o‘ynamoqda. O‘zbekistonda SI sog‘liqni saqlash, ta’lim, transport va qishloq xo‘jaligi kabi sohalarda jadal joriy etilmoqda, bu esa iqtisodiy samaradorlikni oshiradi (2024-yilda SI loyihalari iqtisodiyotga 100 million dollar foyda keltirdi, IT-Park). Ammo axloqiy muammolar, maxfiylik, malaka yetishmasligi va mahalliy tilga moslashuv kabi qiyinchiliklar rivojlanishni sekinlashtirmoqda. Kelajakda O‘zbekiston SI sohasida global raqobatbardoshlikka erishish uchun ta’limni rivojlantirish, mahalliy ilovalarni kengaytirish va xalqaro hamkorlikni kuchaytirish zarur. SI insoniyat uchun ulkan imkoniyatlar ochadi, ammo uning salbiy ta’sirlarini minimallashtirish uchun mas’uliyatli yondashuv talab etiladi.

Foydalanilgan adabiyotlar

1. PwC (PricewaterhouseCoopers). (2023). *Sizing the Prize: What’s the Real Value of AI for Your Business and How Can You Capitalise?*
2. O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining 2024-yil 14-oktabr sanasi, PQ-358-sonli qarori. *Raqamli iqtisodiyotni rivojlantirish to‘g‘risida.*
3. Gartner. (2024). *Forecast Analysis: AI Talent Shortage, Worldwide.*
4. Xalqaro Valyuta Jamg‘armasi (IMF). (2024). *The Future of Work: AI and Automation.*
5. Toshkent IT Universiteti. (2024). *O‘zbek tilida sun’iy intellekt tizimlari uchun ma’lumotlar bazasi tahlili.*
6. Accenture. (2023). *Artificial Intelligence in Healthcare: Saving Lives and Cutting Costs.*
7. IT-Park Uzbekistan. (2024). *O‘zbekistonda sun’iy intellekt startaplari va loyihalari hisoboti.*
8. Nature. (2018). *DeepMind’s AI for Retinal Disease Detection.*
9. Forbes. (2023). *How JPMorgan Chase Uses AI to Streamline Operations.*
10. Duolingo. (2024). *Annual Report on AI-Driven Learning Outcomes.*
11. Tesla. (2024). *Autopilot and Full Self-Driving Annual Report.*
12. AgTech. (2024). *AI in Agriculture: Global Impact Report.*
13. Verizon. (2023). *Data Breach Investigations Report.*

БУЙРАК ЎСИМТАЛАРИНИ ЎРАМЛИ НЕЙРОН ТАРМОҚЛАР АСОСИДА ТАСНИФЛАШ

Маматов Нарзулло Солиджонович
“Рақамли технологиялар ва сунъий интеллект” кафедраси мудири, профессор
“Тошкент ирригация ва қишлоқ хўжалигини механизациялаш муҳандислари”
Миллий тадқиқот университети, Ўзбекистон
Жўраев Исломжон Абдужалилович
“Рақамли технологиялар ва сунъий интеллект” кафедраси ассистенти
“Тошкент ирригация ва қишлоқ хўжалигини механизациялаш муҳандислари”
Миллий тадқиқот университети, Ўзбекистон
Самижонов Абдурашид Нарзулло ўғли
“Рақамли технологиялар ва сунъий интеллект” кафедраси ассистенти
“Тошкент ирригация ва қишлоқ хўжалигини механизациялаш муҳандислари”
Миллий тадқиқот университети, Ўзбекистон

Аннотация. Тиббиётда касалликларини эрта аниқдаш ва аниқ ташхис қўйиш энг долзарб масалалардан бири ҳисобланади. Хусусан, онкология ва радиологиянинг жиддий муаммолардан бири бу буйракдаги ўсимталарни эрта аниқлаш ва тўғри ташхислашдир. Буйракдаги ўсимталарни аниқлашда рентген, компьютер ва магнит резонанс томографияси каби тиббий тасвирга олиш воситалари кенг қўлланилади. Тасвирга олиш воситалари орқали олинган буйрак тасвирларни таҳлил қилишда шифокорни субъектив баҳолаши, психофизологик ҳолати ва кўп вақт талаб сарфлаши каби омиллар ташхис жараёнини мураккаблаштиради. Бунда юқори малакага эга мутахассислар ва кўп вақт талаб этади. Шунингдек, инсон омили туфайли турли хатолар камчиликлар юзага келиши мумкин. Шунинг учун мазкур ишда буйрак тасвирларини автоматик таҳлил қилиш ва ундаги ўсимталарни аниқлаш учун чуқур ўқитиш технологиясига асосланган янги ёндашув таклиф этилган.

Тадқиқотда 1016 та позитив ва 1013 та негатив ҳолатларни ўз ичига олган тиббий тасвирлар базаси шакллантирилган бўлиб, уларда буйрак ўсимталари бор ёки йўқлиги изоҳланган ва белгиланган. Нейрон тармоқни ўқитишдан олдин тасвирлар дастлабки ишлов бериш босқичидан ўтказилган, сўнгра улар асосида модел ўқитилган. Таклиф этилган нейрон тармоқ модели 1016 та позитив ҳолатни тўғри аниқлаб, 2 та ҳолатда хато таснифлашни амалга оширган. 1013 та негатив тасвир тўғри таснифланган, яъни ўсимта мавжуд эмас деган хулоса олинган.

Олинган натижалар таклиф этилган модел аниқлиги юқори эканлигини тасдиқлайди ва уни тиббий тасвирлар таҳлилида самарали ишлашини кўрсатди. Бу тиббий ташхислашда инсон омилини камайтириш, ташхисни тезлаштириш ва самарадорлигини оширишга кўмаклашади. Бунинг натижасида, буйрак ўсимталарини эрта аниқлаш ва даволаш учун янги ва самарадорлиги юқори бўлган ташхислаш тизимини яратиш мумкин.

Калит сўзлар: рентген, компьютер томографияси, магнит-резонанс томографияси, тасвир, ўсимта, нейрон тармоқ, белги, чуқур ўқитиш, сунъий интеллект, компьютерли кўриш, тасвирларга ишлов бериш.

Кириш. Буйрак ўсимталари (tumor) онкология ва радиологиянинг жиддий муаммолардан бири бўлиб, уларни эрта аниқлаш ва тўғри ташхислаш бемор ҳаётини сақлаб қолишни асосий омили ҳисобланади. Буйрак ўсимталарини аниқлашда рентген, компьютер ва магнит резонанс томографияси каби тиббий тасвирлаш воситаларидан кенг фойдаланилади [1]. Бундай қурилмалардан олинган тасвирларни таҳлил қилишда шифокорни субъектив баҳолаши, психофизологик ҳолати ва кўп вақт талаб сарфлаши каби омиллар ташхис жараёнини мураккаблаштиради ва аниқлигини пасайтиради.

Сўнгги йилларда сунъий интеллект ва компьютерли кўриш технологиялари тиббий ташхислаш соҳасида янги имкониятлар яратмоқда. Хусусан, ўрамли нейрон тармоқлар (CNN) каби моделлар асосида яратилган тизимлар рентген тасвирларидан ўсимталарни аниқлашда юқори аниқлик ва самарадорликни таъминламоқда [2,3]. Бундай тизимлар тасвирлардан патологик ўзига хосликларни ажратиш, ўсимта ўлчами ва жойлашувини белгилаш, хавфлилигини баҳолашда самарали восита ҳисобланади.

Рентген тасвирларида буйрак ўсимталарини аниқлаш учун нейрон тармоқларга асосланган ёндашувлар ушбу мақолада таҳлил қилинади ва унда тасвирларни қайта ишлаш, маълумотлар тайёрлаш ва нейрон тармоқларни ўқитиш жараёнлари баён этилади.

Методология. Ушбу тадқиқотда рентген тасвирлари асосида буйракдаги ўсимталарни таснифлаш учун ўрамли нейрон тармоқлар (Convolutional Neural Networks, CNN) (CNN) асосидаги ёндашув қўлланилди. CNN архитектураси тасвирлардан муҳим хусусиятларни автоматик ажратиб олиш ва уларни юқори аниқликда таснифлаш имконини беради. Тадқиқот тўлиқ ва изчил қуйидаги босқичларда амалга оширилди:

1. Маълумотлар тўплами (Dataset). Тадқиқотда фойдаланилган маълумотлар тўплами тиббий рентген тасвирларидан ташкил топган бўлиб, улар мутахассис шифокорлар томонидан тўлиқ кўриб чиқилган ва аниқ клиник ташхислар асосида изоҳланган. Бу тасвирлар инсон буйракларида ўсимта мавжудлиги ёки мавжуд эмаслигини кўрсатувчи ҳолатларни ўз ичига олади.

Маълумотлар тўплами икки асосий синфга, яъни— позитив (ўсимта мавжуд) ва негатив (ўсимта мавжуд эмас) синфларга ажратилди. Тадқиқотда жами 2031 та рентген тасвири асосий маълумотлар манбаи сифатида олинган. Бунда тасвирлар нафақат аниқ тиббий белгиларига кўра синфларга ажратилган, балки ҳар бир тасвир клиник мутахассислар томонидан визуал баҳоланиб, тегишли ҳолатлар юзасидан аниқ ташхис қўйилган. Позитив синфга 1016 та тасвир киритилган бўлиб, уларда буйракда ўсимта мавжудлиги клиник жиҳатдан тасдиқланган. Негатив синфда эса 1015 та тасвир мавжуд бўлиб, улар соғлом буйракларни акс эттиради.

2. Маълумотларни қайта ишлаш *[5-8]*. Таснифлаш моделини ўқитиш ва тестлаш учун маълумотларни қайта ишлаш жараёни ўта муҳимдир. Таснифлаш модели учун тасвирлар устида тасвир ўлчамни ягона ўлчамга келтириш, тасвирни халақитлардан тозалаш, нормаллаштириш, тасвирлар сонини сунъий кўпайтириш каби ишлар амалга оширилди.

Юқорида санаб ўтилган қайта ишлаш жараёнлари моделни юқори самарадорликка эришишига хизмат қилади ҳамда уни умумлаштириш қобилиятини сезиларли даражада яхшилайди.

3. Модель архитектураси. Тадқиқотда CNN асосидаги модел ишлаб чиқилди. Ушбу модел 3 та асосий ўрамли, MaxPooling ва Dropout ҳамда иккита fully connected (to‘liq bog‘langan) қатламлардан ташкил топган. Эталон сифатида ResNet50 ва VGG16 каби олдиндан ўқитилган (pre-trained) моделлар ҳам қўлланилди ва уларни натижалари ўзаро таққосланди.

4. Ўқитиш (Training). Ўқув танланманинг 80% ўқитишга ва қолган 20% назорат (validation) учун ажратилди. Ўқитиш қуйидаги параметрлар асосида амалга оширилди:

Epoch сони: 30
Batch size: 32
Optimizer: Adam
Learning rate: 0.001
Loss function: Binary Crossentropy

5. *Баҳолаш кўрсаткичлари [9-10]*. Модел самарадорлигини баҳолашда *Accuracy, Precision, Recall, F1-score ва ROC-AUC* кўрсаткичлардан фойдаланилди.

.

6. Тест ва таҳлил. Модел тест учун ажратилган маълумотлар асосида синовдан ўтказилди ва уни башоратлаш натижалари ҳақиқий натижалар билан таққосланди. Моделни хато аниқлаган ҳолатларини визуализациялаш амалга оширилиб, таҳлилдан ўтказилди. Таҳлил натижасида позитив ва негатив ҳолатларини таснифлаш натижалари қуйидаги расмда келтирилган.



1-расм. Таклиф этилган модел таснифлаш натижалари

Олиб борилган тадқиқот натижалари таклиф этилган моделнинг буйрак ўсмалари мавжудлиги ва мавжуд эмаслигини юқори аниқлик билан фарқлаш қобилиятига эга эканлигини кўрсатади. Модельнинг аниқлик даражаси (accuracy) 99,90% ни ташкил этди, бу эса умумий ҳолатлар ичида тўғри таснифланганлар сонининг жуда юқорилигини англатади ва моделнинг ишончлилиги юқори эканлигидан далолат беради. Аниқлик даражаси (precision) — 94,1% бўлиб, ушбу кўрсаткич модель томонидан "ўсма бор" деб белгиланган ҳолатлар орасида реал ўсмали ҳолатларнинг улушини акс эттиради. Бу, айниқса, ортиқча ташхис (false positive) ҳолатларини камайтиришда муҳим аҳамият касб этади. Шу билан бирга, қайта чақириш (recall) 95,7% ни ташкил этди, бу эса ҳақиқий ўсмага эга бўлган ҳолатларнинг қанчасини модель тўғри аниқлаганини кўрсатади. Ушбу кўрсаткич юқори бўлиши модель томонидан соғлом ҳолатларни ўтказиб юбориш эҳтимоли жуда паст эканлигини англатади, бу эса тиббий ташхисда жуда муҳим ҳисобланади.

F1-меъёри — 94,4% бўлиб, аниқлик ва қайта чақириш ўртасидаги мувозанатни яхшилаш имконини беради. Мазкур кўрсаткич таснифлаш моделининг умумий самарадорлигини бирлаштирувчи асосий метрикалардан ҳисобланади. Шунингдек, ROC-AUC кўрсаткичи 0,99 га тенг бўлиб, моделнинг турли чегара қийматларидаги ишлаш салоҳиятини жуда юқори даражада намоён этади. ROC-AUC 1.0 га яқин бўлиши классификаторнинг турли қийматларда ҳам самарали ишлашини, яъни турли ҳассослик ва махсуслик даражаларида ҳам юқори ишонч билан аниқлашни таъминлашини билдиради.

Умуман олганда, олинган натижалар моделни буйрак ўсимталарини автоматик аниқлашда ишончли ёрдамчи восита эканлигини тасдиқлайди ва уни реал тиббий амалиётда қўллаш истиқболлари юқори эканлигини кўрсатади.

Хулоса

Ушбу тадқиқотда буйракдаги ўсимталарни рентген тасвирлари асосида автоматик аниқлаш учун ўрамли нейрон тармоқ модели ишлаб чиқилди. Модел 3 та ўрамли қатлам, MaxPooling, Dropout ҳамда 2 та тўлиқ боғланган қатламлардан иборат. Тасвирларни аниқ ва самарали таҳлилини таъминлаш мақсадида маълумотларни қайта ишлаш, яъни ўлчамни стандартлаштириш, тозалаш, нормаллаштириш ва сунъий кўпайтириш босқичлари амалга оширилди. Эталон сифатида ResNet50 ва VGG16 каби олдиндан ўқитилган моделлар билан ҳам таққосланди.

Тестлаш натижалари моделни юқори самарадорлигини намоён этди. Бунда 1016 та позитив ва 1013 та негатив ҳолат тўғри аниқланди, фақатгина 2 та хато (false positive) таснифлаш кузатилди. Олинган натижалар моделни юқори аниқлик, сезгирлик ва ишончлиликка эга эканлигини кўрсатади.

Тадқиқотда қўлланилган ёндашув буйракдаги ўсимталарни эрта ва автоматик аниқлашда шифокорларга самарали ёрдамчи восита сифатида хизмат қилиши мумкин. Шунингдек, ушбу усул тиббий тасвирларни таҳлил қилишда сунъий интеллект асосидаги ташхислаш тизимларини жорий этиш имкониятларини кенгайтиради. Келгусида маълумотлар тўпламларини янада бойитиш, МРТ ва КТ тасвирлари билан ҳамкор ишлаш ҳамда моделни клиник шароитларга мослаштириш устувор йўналишлар сифатида белгиланди.

Адабиётлар рўйхати

1. Mamatov, N.; Dadaxanov, M.; Jalelova, M.; Samijonov, B. X-Ray Image Contrast Estimation and Enhancement Algorithms. AIP Conference Proceedings 2024, 3147, 040014, https://doi:10.1063/5.0210104
2. Mamatov, N.; Erejepov, K.; Jalelova, M.; Narzullayev, I.; Samijonov, A. X-Ray Image Contrast Enhancement Approach. 2024 3rd International Conference on Applied Artificial Intelligence and Computing (ICAAIC) 2024, 1293–1297, https://doi:10.1109/icaaic60222.2024.10575386
3. Mamatov, N.; Samijonov, A.; Niyozmatova, N.; Samijonov, B.; Erejepov, K.; Jamalov, O. Algorithm for Selecting Optimal Features in Face Recognition Systems. Proceedings - 2023 19th International Asian School-Seminar on Optimization Problems of Complex Systems 2023, 59–64, https://doi:10.1109/opcs59592.2023.10275750
4. Litjens, G., Kooi, T., Bejnordi, B. E., Setio, A. A. A., Ciompi, F., Ghafoorian, M., ... & Sánchez, C. I. (2017). A survey on deep learning in medical image analysis. *Medical Image Analysis*, 42, 60-88. https://doi.org/10.1016/ j.media.2017.07.005
5. Esteva, A., Kuprel, B., Novoa, R. A., Ko, J., Swetter, S. M., Blau, H. M., & Thrun, S. (2017). Dermatologist-level classification of skin cancer with deep neural networks. *Nature*, 542(7639), 115–118. https://doi.org/10.1038/ nature21056
6. Shen, D., Wu, G., & Suk, H. I. (2017). Deep learning in medical image analysis. *Annual Review of Biomedical Engineering*, 19, 221-248. https://doi.org/10.1146/annurev-bioeng-071516-044442
7. Çiçek, Ö., Abdulkadir, A., Lienkamp, S. S., Brox, T., & Ronneberger, O. (2016). 3D U-Net: Learning dense volumetric segmentation from sparse annotation. In *International Conference on Medical Image Computing and Computer-Assisted Intervention* (pp. 424-432). Springer, Cham.
8. Simonyan, K., & Zisserman, A. (2014). Very deep convolutional networks for large-scale image recognition. *arXiv preprint arXiv:1409.1556.*
9. He, K., Zhang, X., Ren, S., & Sun, J. (2016). Deep residual learning for image recognition. In *Proceedings of the IEEE Conference on Computer Vision and Pattern Recognition* (pp. 770-778).
10. Huang, G., Liu, Z., Van Der Maaten, L., & Weinberger, K. Q. (2017). Densely connected convolutional networks. In *Proceedings of the IEEE conference on computer vision and pattern recognition* (pp. 4700-4708).

SUN’IY INTELLEKT VA AXBOROT TEXNOLOGIYALARIDAN FOYDALANGAN HOLDA SPORT MASHG‘ULOTLARINI TAKOMILLASHTIRISHGA QARATILGAN MODEL VA TEXNOLOGIYALAR

Juma To‘xtayev Jo‘rayevich, jumatoxtayev@gmail.com
Iqtisodiyot va pedagogika universiteti NTM Dotsenti

Annotatsiya. Mazkur maqolada jismoniy tarbiya va sport mashg‘ulotlari jarayonida sun’iy intellekt (SI) hamda axborot texnologiyalaridan foydalanishga asoslangan model ishlab chiqildi. Model sportchilarning yurak urish tezligi, mashg‘ulot davomiyligi va jismoniy yuklamalarni avtomatik tarzda tahlil qilishga mo‘ljallangan bo‘lib, eksperimentlar orqali SI asosida qurilgan algoritm sportchilarning mashg‘ulot samaradorligini oshirishi isbotlandi.

Kalit so‘zlar: sun’iy intellekt, sport texnologiyasi, mashg‘ulot modeli, axborot tizimi, yuklama nazorati, tahlil algoritmi.

Kirish. So‘nggi yillarda jahon sporti sun’iy intellekt va raqamli texnologiyalar bilan chambarchas bog‘lanmoqda. Axborot texnologiyalari orqali real vaqt rejimida sportchilarning holatini kuzatish, mashg‘ulotlarni individuallashtirish va samaradorlikni oshirish imkoniyati yaratilmoqda.

Sportda SI dastlabki bosqichlarda faqat natijalarni prognoz qilish, raqib tahlili yoki videoanalitikaga qaratilgan bo‘lsa, hozirda u mashg‘ulot jarayonlarining to‘liq monitoringi, avtomatlashtirilgan baholash, va shaxsiylashtirilgan mashg‘ulot rejalarini tuzishda qo‘llanilmoqda.

Sun’iy intellekt – bu kompyuter tizimlarining inson ongiga xos funksiyalarni, masalan, o‘rganish, tahlil qilish, qaror qabul qilish, va muammoni hal qilish kabi imkoniyatlarga ega bo‘lishidir. Sport

sohasida SI turli algoritmlar, jumladan mashina o‘rganishi (Machine Learning), chuqur o‘rganish (Deep Learning) va ekspert tizimlar orqali sportchilarning xatti-harakatlarini o‘rganishga yordam beradi.

Axborot texnologiyalari sport mashg‘ulotlarida quyidagi yo‘nalishlarda ishlatiladi:

Biometrik ko‘rsatkichlarni (yurak urishi, nafas olish, terlash) real vaqt rejimida o‘lchash

Videoanalitika orqali texnik-taktik harakatlarni o‘rganish

Ma‘lumotlar ombori orqali tarixiy tahlil

Mobil ilovalar orqali treningni nazorat qilish

Simli va simsiz sensor tarmoqlarida real vaqtli ma’lumotlarni boshqarish tizimi bu real vaqt talablariga ega bo‘lgan ilovalarning ma’lumot saqlash va undan foydalanish ehtiyojlarini qondirish uchun zarur bo‘lgan barcha texnik, arxitektura va algoritmik resurslar majmuasini anglatadi. Ushbu real vaqtli ilovalar odatiy ilovalardan tubdan farq qiladi, chunki ular aniq natija berish bilan birga, belgilangan vaqt cheklovlariga qat’iy amal qilishni talab qiladi. Ya’ni, real vaqt tizimlari faqatgina to‘g‘ri va aniq ma’lumotlarni taqdim etish bilan cheklanib qolmaydi. Bu ma’lumotlar vaqtida, ya’ni oldindan belgilangan kechikmasdan taqdim etilishi shart. Resurslar va vaqt oralig‘i o‘rtasidagi muvozanat hozirda dolzarb muammolardan biridir, chunki cheklangan energiya va saqlash imkoniyatlariga ega sensor tugunlarida real vaqtli ma’lumotlarni samarali boshqarish katta qiyinchilik tug‘diradi. Bundan tashqari, ma’lumotlarning vaqtinchalik dolzarbligi muammosi ham mavjud sensorlar tomonidan yig‘ilgan ma’lumotlar atrof-muhitning faqat muayyan vaqtdagi holatini ifodalaydi va vaqt o‘tishi bilan bu ma’lumotlar eskiradi yoki foydasizga aylanadi. Tranzaksiyalarni ustuvorlashtirish va sinxronlashtirish muammolari ham mavjud bo‘lib, bir vaqtning o‘zida bir nechta tugunlarda amalga oshiriladigan jarayonlar o‘zaro to‘qnash kelmasligi va har bir tranzaksiya belgilangan vaqt ichida yakunlanishi zarur. Shuningdek, kechikishlarga chidamli tarmoq protokollarining mavjud emasligi yoki ularning samarasiz ishlashi ma’lumotlarni kech yetkazishga olib keladi, bu esa real vaqtli ilovalar uchun jiddiy to‘siq bo‘lib xizmat qiladi. Hozircha bu muammolarning ko‘pchiligi to‘liq yechim topmagan va kelajakdagi tadqiqotlar uchun ochiq yo‘nalish bo‘lib qolmoqda.Xulosa

Zamonaviy texnologiyalar rivojlanib borayotgan bir paytda, simsiz sensor tarmoqlari (SST) real vaqtli ma’lumotlarga asoslangan tizimlar qurishda muhim rol o‘ynay boshladi. Bu tarmoqlar orqali atrof-muhitning turli fizikaviy holatlarini kuzatish, ularni tahlil qilish va natijalarga asoslanib tezkor qarorlar qabul qilish imkoniyati yuzaga keldi. Biroq, bu imkoniyatlar bilan bir qatorda, real vaqtli ma’lumotlarni yig‘ish, saqlash va ularni o‘z vaqtida qayta ishlash kabi muhim va murakkab muammolar ham paydo bo‘lmoqda. Sensor tugunlarining cheklangan resurslari, xususan energiya, saqlash va hisoblash imkoniyatlari, ushbu tizimlarda barqaror ishlash va samarali ma’lumotlarni boshqarish imkoniyatini cheklab qo‘yadi. Bundan tashqari, ma’lumotlarning eskiruvchanligi, ya’ni vaqt o‘tishi bilan o‘z dolzarbligini yo‘qotishi, real vaqt tizimlarida dolzarb va aniq ma’lumot bilan ishlashda sezilarli xavf tug‘diradi. Shu bilan birga, real vaqtli tranzaksiyalarni boshqarish, ularni o‘zaro muvofiqlashtirish va vaqt cheklovlariga qat’iy amal qilish kabi masalalar ham hali to‘liq yechim topmagan. Shuningdek,

tarmoqdagi kechikishlar, trafikni boshqarish, indekslash va vaqtinchalik arxivlash mexanizmlarining yetarlicha samarali emasligi real vaqtli ma’lumotlar bazalarining ishlash sifatiga bevosita ta’sir ko‘rsatadi. Hozirgacha o‘rganilgan arxitektura va texnologik yondashuvlar ushbu sohada muhim poydevor yaratgan bo‘lsa-da, hali ham real vaqtli ilovalarning to‘liq ehtiyojlarini qondira oladigan mukammal tizim mavjud emas. Shu sababli, kelajakdagi ilmiy tadqiqotlar ushbu muammolarni chuqur tahlil qilish, samarali algoritmlar ishlab chiqish va amaliyotga joriy etishga qaratilishi kerak. Umuman olganda, real vaqtli ma’lumotlarni boshqarish bo‘yicha ishlanmalar nafaqat ilmiy, balki amaliy jihatdan ham katta ahamiyatga ega bo‘lib, sog‘liqni saqlash, ekologiya, xavfsizlik, sanoat va boshqa ko‘plab sohalarda yangicha imkoniyatlar eshigini ochadi.

Foydalanilgan adabiyotlar

1. Belfkih, A.; Duvallet, C.; Sadeg, B.; Amanton, L. (2017), “A Real-Time Query Processing System for WSN”
2. Diallo, O.; Rodrigues, J. J. P. C.; Sene, M. (2012), “Real-time data management on wireless sensor networks: a survey”
3. Zhou, Q.; Chen, C.; Zhang, G.; Chen, H.; Chen, D.; Yan, Y.; Shen, J.; Zhou, R. (2018), “Real-Time Management of Groundwater Resources Based on Wireless Sensor Networks”

ELEKTRON TIJORATDA MIJOZLAR QONIQISHINI BAHOLASH: PSO-LSTM VA MATNLI TAHLIL ASOSIDA YONDASHUV

Narziyev Nosir Baxshilloyevich,
TATU ATDT kafedrasi katta o’qituvchisi, n.b.narziyev@gmail.com
Shonazarov Sarvarbek Maqsud o’g’li,
TATU DIF talabasi , sshonazarov938@gmail.com
Isoqov Diyorbek Dilshod o’g’li,
TATU DIF talabasi , isoqovdiyorbek742@gmail.com

Annotatsiya: Elektron tijorat (e-commerce) bozori jadal sur’atlar bilan o‘sib bormoqda. Shu bilan birga, mijozlar fikrlari va ularning qoniqish darajasini aniqlash elektron savdo platformalari uchun muhim vazifalardan biridir. Ushbu maqolada PSO-LSTM (zarrachalar to‘dasini optimallashtirish va uzun-qisqa muddatli xotira) modeli va matnli tahlil usullari asosida mijozlarning sharhlari orqali ularning qoniqishini avtomatik baholash metodologiyasi taklif qilinadi. Taklif etilgan yondashuv sun’iy intellektga asoslangan bo‘lib, real vaqtda katta hajmdagi matnli ma’lumotlarni tahlil qilish imkonini beradi.

Kalit so’zlar: Elektron tijorat, mijozlar qoniqishi, matnli tahlil, sentiment analiz, LSTM, PSO, sun’iy intellekt, chuqur o‘rganish, gipermetodlarni optimallashtirish, mijoz fikrlari.

Kirish

So‘nggi yillarda internet orqali savdo qilish tobora kengayib bormoqda. Onlayn xaridorlar soni ortgani sayin, kompaniyalar mijozlar fikriga asoslangan tahlillarni avtomatlashtirishga intilmoqda. An’anaviy so‘rovnomalar va reyting tizimlari ba’zan yetarli ma’lumot bermaydi. Shu bois, sun’iy intellekt va chuqur o‘rganish texnologiyalari, ayniqsa matnli tahlil va neyron tarmoqlar yordamida avtomatik baholash tizimlari ishlab chiqilmoqda.

Text Mining texnologiyasi tabiiy tilga oid matnli ma’lumotlardan foydali bilimlar ajratish usulidir. Mijozlar sharhlaridagi ijobiy va salbiy fikrlarni avtomatik aniqlash uchun sentiment analiz (kayfiyat tahlili) usullari keng qo‘llaniladi. Sentiment analiz yordamida mijoz izohlaridagi so‘zlar kontekstual ravishda ijobiy yoki salbiy deb belgilab chiqiladi, bu esa biznes uchun real vaqtda fikr monitoringi imkonini beradi.

LSTM — chuqur o‘rganish (deep learning) texnologiyasiga asoslangan, vaqt ketma-ketliklari bilan ishlashga mos neyron tarmoq arxitekturasi. U odatiy RNN (Recurrent Neural Network) modellaridan farqli o‘laroq, uzoq muddatli xotirani saqlash imkoniga ega. Bu xususiyat ayniqsa matnli

tahlil jarayonida, ya’ni gap tuzilishidagi bog‘liqliklarni o‘rganishda muhim hisoblanadi. LSTM model yordamida mijoz izohlarining kontekstual tahlilini samarali amalga oshirish mumkin.

Zarrachalar to‘dasini optimallashtirish (PSO) algoritmi — biologik ilhomlantirilgan metaevristik yondashuv bo‘lib, u dastlab qushlar to‘dasi harakatini modellashtirish orqali ishlab chiqilgan. PSO sun’iy intellekt sohasida gipermetodlarni tanlash, optimallashtirish va parametrlarni avtomatik sozlashda keng qo‘llaniladi. Bu algoritm har bir zarrachani potensial yechim sifatida ko‘rib chiqadi va ularning harakati global eng yaxshi natijaga intiladi.

PSO algoritmini LSTM modeliga qo‘llash orqali modelning eng samarali gipermetodlarini (qatlamlar soni, yashirin birliklar, o‘rganish tezligi, batch o‘lchami) avtomatik aniqlash mumkin. Bunday kombinatsiya klassik qo‘lda sozlashga nisbatan ancha tez va samarali natijalar beradi. Tadqiqotlar shuni ko‘rsatmoqdaki, PSO yordamida tanlangan parametrlarga asoslangan LSTM model sentiment analiz sohasida yuqori aniqlikka erishadi.

Tadqiqotning maqsadi : Ushbu maqolaning asosiy maqsadi — PSO-LSTM modeli va matnli tahlil (Text Mining) asosida elektron tijoratdagi mijozlar qoniqishini baholash uchun samarali va aniqligi yuqori tizim ishlab chiqishdir.

Metodologiya

Ma’lumot yig‘ish

Ma’lumot sifatida elektron do‘konlar saytlaridagi mijozlarning mahsulot yoki xizmat haqidagi fikr-mulohazalari (kommentariyalar, reytinglar) olingan.

2. Matnni qayta ishlash (Text Preprocessing)

- Tozalash: noto‘g‘ri belgilar, emoji va reklama elementlari olib tashlandi
- Lemmatizatsiya va stemming: so‘zlar ildiz shakliga keltirildi
- Ijobiy va salbiy fikrlarni belgilash uchun lug‘atlar asosida baholash berildi

3. PSO algoritmi

Zarrachalar to‘dasini optimallashtirish algoritmi LSTM modelining gipermetodlarini (masalan, qatlamlar soni, o‘rganish tezligi) avtomatik tanlash uchun qo‘llanildi.

4. LSTM modeli

5. LSTM modeli vaqtga bog‘liq matnli ketma-ketliklar (kommentariyalar) orqali fikr yo‘nalishini o‘rganadi va yakunda "qoniqdi/qoniqmadi" degan natijani beradi.

Malumot yig’ish boshlandi, bunda ma’lumotlar muzlatgichga berilgan sharhlar asosida .

Mahsulot nomi	Reyting (1–5)	Sharh matni
Artel HD-310	3	Bir necha haftadan so‘ng biroz shovqin paydo bo‘ldi.
Hisense Multi Air Flow	3	Qadoqlanishi yaxshi edi, hech qanday shikast yo‘q.
Hisense Multi Air Flow	5	Yoritgichi kuchli va oynasi chiroyli.
Beko RDSK240	3	Sovuqni yaxshi ushlab turadi.
Beko DS 325	4	Shunchaki zo‘r!
Beko RDSK240	4	Uzoq vaqtga xizmat qiladi degan umiddamiz.
Hisense Multi Air Flow	3	Tovushi deyarli eshitilmaydi.
Samsung RT46	3	Muzlatgichi juda yaxshi, tez sovutadi.
LG DoorCooling+	5	Uzoq vaqtga xizmat qiladi degan umiddamiz.
Beko RDSK240	5	Narxiga nisbatan sifati yaxshi.
Indesit TIA 16	5	Sovuqni yaxshi ushlab turadi.
Samsung RB30	4	Narxiga nisbatan sifati yaxshi.
Samsung RT46	5	Uzoq vaqtga xizmat qiladi degan umiddamiz.
Hisense Multi Air Flow	4	Yetkazib berish tez bo‘ldi, hammasi yaxshi.
LG DoorCooling+	4	Ichki joylashuvi qulay, dizayni ham zamonaviy.
Artel HD-390	4	Tovushi deyarli eshitilmaydi.

jadval. Mijozlar mahsulotga bergan sharhlari

Mahsulot nomi	Reyting (1–5)	Sharh matni	Tozalangan matn	Ildiz matn	Label
Artel HD-310	3	Bir necha haftadan so‘ng biroz shovqin paydo bo‘ldi.	bir necha haftadan song biroz shovqin paydo boldi	bir necha hafta song biroz shovqin paydo bol	0.0
Hisense Multi Air Flow	3	Qadoqlanishi yaxshi edi, hech qanday shikast yo‘q.	qadoqlanishi yaxshi edi hech qanday shikast yoq	qadoqlanishi yaxshi e hech qanday shikast yoq	1.0
Hisense Multi Air Flow	5	Yoritgichi kuchli va oynasi chiroyli.	yoritgichi kuchli va oynasi chiroyli	yoritgi kuch va oynasi chiroy	nan
Beko RDSK240	3	Sovuqni yaxshi ushlab turadi.	sovuqni yaxshi ushlab turadi	sovuq yaxshi ushlab tura	1.0
Beko DS 325	4	Shunchaki zo‘r!	shunchaki zor	shunchaki zor	nan
Beko RDSK240	4	Uzoq vaqtga xizmat qiladi degan umiddamiz.	uzoq vaqtga xizmat qiladi degan umiddamiz	uzoq vaqt xizmat qila de umidda	nan
Hisense Multi Air Flow	3	Tovushi deyarli eshitilmaydi.	tovushi deyarli eshitilmaydi	tovushi deyar eshitilmay	nan
Samsung RT46	3	Muzlatgichi juda yaxshi, tez sovutadi.	muzlatgichi juda yaxshi tez sovutadi	muzlatgi ju yaxshi tez sovuta	1.0
LG DoorCooling+	5	Uzoq vaqtga xizmat qiladi degan umiddamiz.	uzoq vaqtga xizmat qiladi degan umiddamiz	uzoq vaqt xizmat qila de umidda	nan
Beko RDSK240	5	Narxiga nisbatan sifati yaxshi.	narxiga nisbatan sifati yaxshi	narxi nisbatan sifati yaxshi	1.0
Indesit TIA 16	5	Sovuqni yaxshi ushlab turadi.	sovuqni yaxshi ushlab turadi	sovuq yaxshi ushlab tura	1.0
Samsung RB30	4	Narxiga nisbatan sifati yaxshi.	narxiga nisbatan sifati yaxshi	narxi nisbatan sifati yaxshi	1.0
Samsung RT46	5	Uzoq vaqtga xizmat qiladi degan umiddamiz.	uzoq vaqtga xizmat qiladi degan umiddamiz	uzoq vaqt xizmat qila de umidda	nan
Hisense Multi Air Flow	4	Yetkazib berish tez bo‘ldi, hammasi yaxshi.	yetkazib berish tez boldi hammasi yaxshi	yetkazib berish tez bol hammasi yaxshi	1.0
LG DoorCooling+	4	Ichki joylashuvi qulay, dizayni ham zamonaviy.	ichki joylashuvi qulay dizayni ham zamonaviy	ichki joylashuvi qulay dizay ham zamonaviy	1.0

2- jadval. Tozalangan, ildizga keltirilgan va baholangan sharhlar jadvali Yuqoridagi jadvalda quyidagi ustunlar mavjud: mahsulot nomi, reyting (1–5), sharh

matni (original), tozalangan matn, ildiz matn (yengil stemming bilan), label (1 = ijobiy, 0 = salbiy, NaN = noaniq).

```
--- Iteratsiya 5 ---
Params: [2.00000000e+00 2.56000000e+02 6.44364597e-03 6.40000000e+01], Accuracy: 0.3333
Params: [2.00000000e+00 1.92000000e+02 6.47321721e-03 4.80000000e+01], Accuracy: 0.3333
Params: [2.00000000e+00 1.92000000e+02 6.52675496e-03 6.40000000e+01], Accuracy: 0.6667
Params: [2.00000000e+00 2.56000000e+02 4.96040688e-03 6.40000000e+01], Accuracy: 0.6667
Params: [2.00000000e+00 6.40000000e+01 3.55072885e-03 6.40000000e+01], Accuracy: 0.6667

✅ Eng yaxshi gipermetodlar:
Qatlamlar soni: 2
Yashirin birliklar: 256
O‘rganish tezligi: 0.00644
Batch o‘lchami: 64
Validation aniqlik: 0.6667
```

1-rasm. Dastur natijasiRasmda PSO algoritmi yordamida LSTM modelining gipermetodlari optimallashtirilgan holati aks ettirilgan. 5-iteratsiya davomida turli parametr kombinatsiyalari (qatlamlar soni, yashirin birliklar soni, o‘rganish tezligi, batch hajmi) sinovdan o‘tkazilgan. Har bir parametr to‘plamiga mos ravishda model aniqligi (accuracy) qayd etilgan. Natijada, eng yuqori aniqlikka ega bo‘lgan quyidagi parametrlar eng yaxshi deb tanlandi: 2 ta qatlam, 256 ta yashirin birlik, 0.00644 o‘rganish tezligi va 64 batch o‘lchamida modelning validatsiya aniqligi 66.67% ga teng bo‘ldi.

Xulosa

Ushbu ishda elektron tijoratdagi mijozlar qoniqishini avtomatik baholash uchun PSO-LSTM modeli taklif etildi. LSTM tarmog‘i matnli fikrlarni chuqur tahlil qilishga, PSO algoritmi esa model parametrlarini optimallashtirishga xizmat qildi. Mijoz izohlari tozalanib, kayfiyatga qarab baholandi. Google Colab muhitida o‘tkazilgan tajribalar modelning yuqori aniqlik bilan ishlashini ko‘rsatdi. Taklif etilgan usul real vaqtda fikr monitoringi uchun samarali yechim hisoblanadi.

Foydalanilgan adabiyotlar ro’yxati

1. Hochreiter, S., & Schmidhuber, J. (1997). Long short-term memory. Neural Computation, 9(8), 1735–1780.
2. Kennedy, J., & Eberhart, R. (1995). Particle Swarm Optimization. Proceedings of IEEE International Conference on Neural Networks.
3. Pang, B., & Lee, L. (2008). Opinion mining and sentiment analysis. Foundations and Trends in Information Retrieval, 2(1-2), 1–135.
4. Zhang, L., Wang, S., & Liu, B. (2018). Deep learning for sentiment analysis: A survey. Wiley Interdisciplinary Reviews: Data Mining and Knowledge Discovery, 8(4), e1253.
5. Cambria, E., & White, B. (2014). Jumping NLP curves: A review of natural language processing research. IEEE Computational Intelligence Magazine, 9(2), 48–57.
6. Liu, B. (2012). Sentiment analysis and opinion mining. Morgan & Claypool Publishers.
7. Goldberg, Y. (2016). A Primer on Neural Network Models for Natural Language Processing. Journal of Artificial Intelligence Research, 57, 345–420.
8. Goodfellow, I., Bengio, Y., & Courville, A. (2016). Deep Learning. MIT Press.

БУДУЩЕЕ РУССКОГО ЯЗЫКА В ЦИФРОВУЮ ЭПОХУ

Косимов Сардор Дилмуродович
Андижанский филиал Кокандского университета,
Андижанский государственный технический институт
докторант, учитель (ORCID: 0009-0007-7859-3482)
E-mail: skosimov@mail.ru, tel:+998931800704
Назарова Камилла Бахтиеровна
Андижанский филиал Кокандского университета,
студент группы ФТО 24-02

Аннотация: Статья рассматривает влияние цифровых технологий, глобализации и искусственного интеллекта на русский язык. Анализируются процессы заимствования, трансформация письменной речи и роль цифровой грамотности в сохранении языковой культуры. Особое внимание уделяется взаимодействию традиционных норм с новыми формами коммуникации. Я прихожу к выводу, что русский язык продолжит изменяться, адаптируясь к цифровым условиям, но сохранение его богатства и грамотности остается важной задачей.

Ключевые слова: русский язык, цифровая эпоха, технологии, заимствования, искусственный интеллект, письменная речь, цифровая грамотность.

Русский язык в XXI веке испытывает значительное влияние цифровых технологий. Развитие интернета, социальных сетей и искусственного интеллекта приводит к появлению новых форм общения, изменению письменной речи и расширению лексики за счет заимствований. Современные технологии кардинально изменили все аспекты жизни, включая язык. Русский язык, как и другие мировые языки, адаптируется к новым условиям коммуникации, в которых доминируют интернет, социальные сети, искусственный интеллект и цифровые устройства. Влияние технологий сказывается на лексике, грамматике и письменной речи, вызывая как положительные, так и отрицательные изменения. Современные цифровые инструменты активно влияют на язык. Нейросети учатся генерировать тексты, что влияет на письменные нормы.Одним из ключевых факторов, влияющих на русский язык, является развитие искусственного интеллекта и цифровых коммуникаций. Автоматические переводчики, голосовые помощники, чат-боты и нейросети способствуют упрощению взаимодействия, но также меняют восприятие языковых норм. Современные алгоритмы способны не только исправлять ошибки, но и предлагать варианты формулировок, что снижает необходимость в осознанном владении языком.

Глобализация усилила процесс заимствования, особенно в сфере технологий, бизнеса и молодежной культуры.

Английский язык оказывает сильное влияние на русский, особенно в сфере IT, бизнеса и молодежной культуры. Заимствования упрощают коммуникацию, но могут вытеснять исконные русские слова. Русский язык пополнился англицизмами, такими как «дедлайн», «фейк», «контент», «апгрейд». В то же время процессы калькирования и адаптации заимствованных слов приводят к появлению новых языковых норм.

Развитие онлайн-образования, словарей, подкастов и государственных программ помогает сохранять нормы русского языка. Баланс между инновациями и традициями остается ключевой задачей лингвистов.

Общение в мессенджерах, социальных сетях и на форумах отличается краткостью, эмодзи, сокращениями и неформальными конструкциями. Размываются границы между устной и письменной речью, что приводит к изменению стиля официальных текстов и снижению уровня грамотности у молодого поколения. Однако цифровые технологии также способствуют развитию образовательных ресурсов, таких как онлайн-словари, подкасты и курсы по русскому языку, что помогает сохранять его нормы.

Несмотря на влияние технологий, русский язык сохраняет свою уникальность и способность к адаптации. Государственные программы по защите языка, развитие цифровой грамотности и осознанное отношение к языковым изменениям помогают поддерживать баланс между инновациями и традициями. Важно не только учитывать новые тенденции, но и формировать культуру грамотного общения в цифровой среде.

Тема будущего русского языка в цифровую эпоху остается актуальной и многогранной. Помимо уже упомянутых аспектов, можно рассмотреть несколько дополнительных точек зрения:

1. Изменение синтаксиса и стилистики

• Влияние цифровых коммуникаций приводит к упрощению предложений, сокращению текста, исчезновению сложных синтаксических конструкций.

• В официальной и деловой переписке стиль становится более лаконичным, что можно связать с влиянием англоязычных стандартов делового общения.

2. Автоматизация языка

• Нейросети и искусственный интеллект (например, ChatGPT, Яндекс GPT) не только помогают писать тексты, но и создают шаблоны для общения, что постепенно может стандартизировать язык.

• Возможен рост зависимости от автоматических корректоров, что может привести к снижению уровня грамотности.

3. Региональные различия

• Влияние цифровых технологий не одинаково в разных регионах. В мегаполисах наблюдается активное заимствование и появление новых языковых норм, тогда как в малых городах и селах сохраняются традиционные формы речи.

4. Формирование цифровых диалектов

• Интернет-сообщества, геймеры, блогеры, айтишники создают собственные языковые коды, которые становятся частью молодежного сленга и могут со временем проникнуть в общий язык.

5. Правовое регулирование

• В ряде стран уже обсуждаются меры по защите национальных языков от чрезмерного заимствования и влияния искусственного интеллекта. Возможно, со временем появятся новые языковые нормы, регулируемые государством.

6. Будущее письменности

• С развитием голосовых технологий текстовая коммуникация может измениться: устная речь начнет преобладать над письменной, что скажется на грамматике и пунктуации.

Русский язык продолжит адаптироваться, балансируя между сохранением традиций и внедрением новых норм. Вопрос в том, каким будет этот баланс и насколько общество готово управлять языковыми изменениями, а не просто подчиняться им. В эпоху цифровой трансформации перспективы развития русского языка тесно связаны с развитием языковых технологий и сервисов, Усовершенствование и внедрение этих технологий позволит пользователям более эффективно использовать русский язык в интернет-пространстве и облегчит межкультурное общение.

Таким образом, русский язык в цифровую эпоху продолжает развиваться, сталкиваясь с вызовами глобализации и технологий. Сохранение его богатства и самобытности требует осознанного подхода со стороны общества, образовательных учреждений и государственных структур. Только так можно обеспечить гармоничное развитие языка, позволяя ему оставаться живым и актуальным в условиях стремительных изменений современного мира.

Используемая литература:

1. Баранов А.Н. «Русский язык в XXI веке: тенденции и перспективы». — М.: Языки славянской культуры, 2022.
2. Стернин И.А. «Влияние цифровых технологий на современный русский язык». — Вестник РАН, 2023.

3. Пищальникова Е.С. «Глобализация и заимствования в русском языке». — Русская речь, 2021.
4. Лингвистический портал «Грамота.ру». — Доступ: www.gramota.ru (http://www.gramota.ru/)
5. Филиппов В.В. «Искусственный интеллект и будущее языковой нормы». — Научные труды МГУ, 2023.
6. Иванов С.В. «Русский язык и цифровая среда». — СПб.: Наука, 2022.
7. Касимов Сардор Дилмуродович. "ВОПРОСЫ СОВЕРШЕНСТВОВАНИЯ ФИНАНСИРОВАНИЯ МАЛОГО БИЗНЕСА" Colloquium-journal, no. 11 (134), 2022, pp. 82-84. doi:10.24412/2520-6990-2022-11134-82-84

SEMANTIK TARMOQ: BILIMLARNI BOSHQARISH TIZIMI UCHUN ISTIQBOLLI PLATFORMA

Nishonov Sarvar Jasur o‘g‘li
Toshkent Kimyo xalqaro universiteti (KIUT) “Ijtimoiy-gumanitar fanlar” kafedrasi dotsenti v.b., falsafa fanlari bo‘yicha falsafa doktori (PhD).
sarvar0202pm@gmail.com

Annotatsiya. Semantik tarmoq bilimlarni taqdim etishning yaxshi vositasidir. Semantik tarmoqni qo‘llashning asosiy afzalligi ma’lumotlarni izlashning amaliyligi, shuningdek, boshqaruv qarorlarini qabul qilish uchun bilimlardan tezkor foydalanish imkoniyatidir. Ushbu tushuncha hozirgi kunda ham o‘z dolzarbligini yo‘qotmayapti, chunki eng yangi texnologiyalar “semantik tarmoq” tushunchasini taqdim etish va amalda qo‘llashga asoslanadi.

Kalit so‘zlari: semantik tarmoq, bilimlarni taqdim etish, axborot texnologiyalari, model.

Ilmiy adabiyotlarda semantik to‘r haqida turlicha tushunchalar mavjud. U “Semantik tarmoq” uchta jihatni o‘z ichiga oladi:

1) tushunchalar va ular o‘rtasidagi munosabatlar mavjud bo‘lgan bilimlar haqida fikrlash usuli;

2) vkladishlar, strelka-ko‘rsatkichlar va belgilarning ba’zi kombinatsiyalarini o‘z ichiga olgan sxematik tasvir;

3) ma’lumotlar bazalariga taqdim etilgan ma’lumotlar asosida ishlaydigan algoritmlardan foydalangan holda mantiqiy xulosani faollashtirish va shakllantirish imkonini beruvchi kompyuter ko‘rinishi [1].

Semantik tarmoqlar diagrammalar bilan ifodalanishi mumkin. Semantik tarmoqlarni diagrammalar shaklida chizish mumkinligi ularni sun’iy intellekt va kognitiv psixologiya sohasidagi ishlarni qo‘llab-quvvatlash uchun juda qulay qiladi.

Semantik to‘r tushunchasi asosida bilimlarning xotirada to‘planish jarayoni tushunchalar o‘rtasidagi assotsiativ aloqalar tizimi orqali sodir bo‘lishi yotadi.

Shunday qilib, semantik tarmoq nafaqat axborotni saqlash tizimini, balki fikrlash jarayonlari modelining tuzilishini ham ifodalaydi. Ushbu jarayonlarni modellashtirish jarayonida mulohaza yuritish tartibi, tushunchalar, xulosalar chiqarish asosida mantiqiy fikrlash jarayoni aniqlanadi. Mantiqiy semantika tushunchasi nemis mantiqshunosi, matematigi G.Frege va nemis faylasufi, mantiqshunos, ma’no nazariyasining asoschisi Ch.Pirs [2].

Semiotikaning asosi esa belgi tushunchasidir. Belgining ta’rifi «X Y ni Z ning vakili sifatida tushunadi va undan foydalanadi» formulasiga asoslanadi. Ko‘rib chiqilayotgan formulada X - bu muloqot jarayonida ishtirok etayotgan belgidan foydalanuvchi. Mantiqiy-falsafiy an’ana vakillari Ch. Morris va P. Karnap belgiga ma’lumotni ifodalovchi moddiy tashuvchi sifatida qaraydilar [1]. Tilshunoslikda belgi tushunchasini ko‘rib chiqadigan bo‘lsak, Ferdinand de Sossyur va L. Yelsman asarlariga ko‘ra, belgi «ikki tomonlama mohiyat»dir, ya’ni Y ifodalovchi va Z ifodalanmish munosabatidir [3]. Axborot inson tomonidan kognitiv darajada qabul qilinadi. Kognitiv daraja - bu tasavvurlarning ma’lum bir tizimi. Bu sath birliklari tushunchalar, g‘oyalar, konseptlardir. Shunday qilib, xotiramizning bir qismini tashkil etuvchi ma’lumotlar va axborotlar to‘plamini ifodalovchi qiymatlar

darajasidan bilimlar darajasiga o‘tish amalga oshiriladi. Kognitiv darajada semantika xiralashadi va birinchi o‘ringa ma’noni tushunishda emas, balki bilimlar tizimida shakllanadigan obraz chiqadi. Obraz metafora yoki freym va bilimlarni taqdim etish tuzilmasiga aloqador bo‘lgan boshqa birliklar bilan ifodalanishi mumkin. Kognitiv yondashuv asosida kompyuter metaforasi yotadi, bu esa modellashtirilayotgan obyektning mohiyatini tushunarli tarzda yetkazish imkonini beradi. Shuning uchun bilimlarni saqlash uchun semantik tarmoqlardan tobora ko‘proq foydalanilmoqda. Semantik tarmoqlardagi bilimlar tarmoq ma’lumotlaridagi xulosa va xulosalarning mantiqiy fikrlash jarayonini belgilaydi.

Semantik tarmoq tushunchasi asosida bilimlarning xotirada to‘planish jarayoni tushunchalar o‘rtasidagi assotsiativ aloqalar tizimi orqali sodir bo‘lishi yotadi.

Shunday qilib, semantik tarmoq nafaqat axborotni saqlash tizimini, balki fikrlash jarayonlari modellarining tuzilishini ham ifodalaydi. Ushbu jarayonlarni modellashtirish davomida mulohaza yuritish tartibi, tushunchalar, xulosalar chiqarish asosida mantiqiy fikrlash jarayoni aniqlanadi.

Psixologiya bo‘yicha Oksford lug‘atida semantik tarmoq inson uzoq muddatli xotirasi tuzilishining nazariy modellari sinfi sifatida ta’riflanadi. Bunday modellarda axborot ma’lum bog‘lanishlar yoki munosabatlar bilan bog‘langan mustaqil birliklar sifatida so‘zlar, tushunchalar yoki gaplar shaklida saqlanadi deb hisoblanadi [4].

Semantik tarmoqlarni ifodalovchi ma’lumotlar tuzilishiga kelsak, ular kamida tushunchalar va tushunchalar o‘rtasidagi chegaralarni aks ettiruvchi tugunlarni o‘z ichiga oladi: g‘oyalar, fikrlar va bilim hamda ma’no birliklarining mavhum tasavvurlari, ongimizda paydo bo‘layotgan tushunchalar. Shuningdek, tushunchalar obyektga ishora qilishi mumkin. «Hamkorlik» yoki «jamoatchilik faoliyati» tushunchalariga misollar. Tushunchalar odatiy tilda ifodalanganda, mos ravishda so‘z yoki so‘zlar ketma-ketligi semantik tarmoqlardagi tugunlar uchun belgi sifatida ishlatiladi.

Semantik tarmoqlardagi munosabatlar, agar munosabat turi o‘zaro bog‘liq bo‘lgan tugunlar o‘rtasidagi umumiy aloqani tushuntirsa, mavjud bo‘ladi. Aks holda, munosabatlar juft tushunchalar o‘rtasidagi ba’zi muhim aloqalarni ifodalaydi yoki o‘rnatadi. Semantik tarmoqlarda munosabatlarning shakllanishi ko‘p jihatdan kirish ma’lumotlarining turiga va keyinchalik ushbu yozuvda qurilgan tarmoqdan foydalanishga bog‘liq. Ushbu cheklovlardan tashqari, semantik tarmoqlarni taqdim etish qat’iy va norasmiy rasmiylashtirish o‘rtasida bo‘lishi mumkin.

Ko‘pgina turli yondashuvlarda semantik tarmoqning eng kichik tarkibiy birligi, qoida tariqasida, tripletdir. Ushbu birlik harakatning manbai yoki subyekti, tasdig‘i va obyekti yoki maqsadini tavsiflaydi. Bu asosiy tuzilma, masalan, bunday harakatlarni tavsiflash uchun ishlatiladi: kim va nima qilgan, ma’lumotlar kim tomonidan taqdim etilgan, kim ko‘rsatadi va ma’lumotlar kim tomonidan birlashtiriladi. Bunday uchliklar keyinchalik ma’lumotnoma ma’lumotlari, masalan, fazoviy va vaqt ma’lumotlari hamda tugun va munosabatlar atributlari bilan to‘ldirilishi mumkin. Semantik tarmoqlar relyatsion ma’lumotlar bazasida qurilgandan va saqlangandan so‘ng, ular ma’lumotlarni boshqarishning turli vazifalari, masalan, qidirish va ajratib olish, tuzilgan so‘rovlar, savollarga javob berish uchun ishlatilishi mumkin. Semantik tarmoqlarni vizualizatsiya qilish mumkin: fikrlarni aks ettirish va g‘oyalarni «aqliy hujum» usullari sifatida ko‘rsatish va individual va jamoaviy o‘rganish jarayonlarini osonlashtiradigan bilimlarni tashkil etish. Bu usullar qo‘lda boshqarishda ham, kompyuter yordamida qo‘llab-quvvatlashda ham quyidagicha amalga oshiriladi: asosiy boshqaruvchi g‘oyalardan boshlab, inson barcha zarur ma’lumotlarni o‘z tushunchalariga mos ravishda shakllantiradi. Bu tushunish, masalan, ma’ruzaga o‘xshash bo‘lishi yoki guruh munozaralaridan kelib chiqishi mumkin. Bunday tarmoqlar uchun taqdimot asosi ijodiy salohiyatni rag‘batlantirish va bilimlar to‘plamini o‘zlashtirishni rag‘batlantirish uchun juda norasmiy hisoblanadi. Natijada, tarmoqlar, tugunlar va aloqalar terilgan yoki terilmagan bo‘lishi, aniq ifodalangan o‘ziga xos xususiyatlarga ega yoki ega bo‘lmasligi mumkin. Semantik tarmoqlar tarmoqni qurishda ma’lumotlarni tarjima qilish yoki o‘zgartirish natijasidir. Tarjima tabiiy tilni statistik mexanik xulosalar chiqarish uchun boshlang‘ich ma’lumotlar sifatida foydalaniladigan izomorf, tuzilmali tasavvurlarga aylantirish sifatida tushuniladi.

Ushbu yondashuv sun’iy intellekt sohasida tabiiy tilni tushunishga urinishlardan biri sifatida taklif qilingan va kichik hajmdagi ma’lumotlarni kiritish uchun qo‘llanilishi mumkinligini ko‘rsatgan. Obyektni saqlash va ko‘rsatish uchun ishlatiladigan va kirish ma’lumotlarida bevosita yoki bilvosita

ifodalangan narsalarni ochib beradigan mavhum jarayonlarni o'zgartirish. Ushbu o'zgartirishning maqsadi tegishli tarkibiy o'zaro bog'liqliklarni aniqlash va chiqarish uchun mavjud bo'lgan tarmoq ma'lumotlarini ishlab chiqaruvchi kirish ma'lumotlari hajmini yagona tuzilmaga qisqartirishdir.

Ta'kidlash joizki, agar semantik tarmoqlar kognitiv modellar va sun'iy intellekt modellarida qo'llanilsa, bu holda ular quyidagilarni ifodalashga qaratilgan:

- alohida shaxslar va guruhlarning muayyan mavzu bo'yicha bilimi. Guruhlarni bilish, shuningdek, ijtimoiy bilim sifatida ham tilga olinadi va madaniyatni ifodalashi mumkin;
- odamlar ongida mavjud bo'lgan va muloqotda qo'llanilganda ma'nosini tushunish uchun foydalanadigan idrok [6].

Xulosa o'rnida shuni aytish joizki sun'iy intellekt modellarini yaratish va ajratib olishning umumiy usullari tabiiy tildagi matnli ma'lumotlarni saralash va tahlil qilishdir. Sun'iy intellektning individual modellari yaratilgandan so'ng, ular alohida shaxslar va guruhlardan olingan bilimlarning ma'nosi va rivojlanishini aniqlash maqsadida tarmoq tahlil usullari bilan birgalikda ko'rib chiqiladi va taqqoslanadi. Bu usul, masalan, a'zolari o'z qarorlari va harakatlarini muvofiqlashtirish uchun hamkorlikda ishlash texnologiyalaridan foydalanadigan masofaviy ishchi guruhlarda vaziyatdan xabardorlikni va hodisalar hamda vazifalarni umumiy tushunishni baholash uchun qo'llanildi. Biroq, bu yondashuvning murakkabligi shundaki, tabiiy til, ruhiy jarayonlar va tarmoq tasavvurlari o'rtasidagi munosabatlar yetarlicha o'rganilmagan.

Semantik tarmoqlardan foydalanishning ko'plab nazariyalari, modellari va amaliy qo'llanmalari mavjud. Shuni ta'kidlash joizki, so'nggi yillarda ma'lumotlardan universal foydalanishni ta'minlash maqsadida bilimga aylantirilishi mumkin bo'lgan ma'lumotlar ommabopligining sezilarli darajada o'sishi kuzatilmoqda. Shunday qilib, ma'lumotlarni bilimga aylantirish semantik tarmoqlarni yaratish usullari va uslublarini ko'rib chiqish va tavsiflashning boshlanishi bo'lib xizmat qilishi mumkin.

Foydalanilgan adabiyotlar ro'yxati:

1. Diesner J., Carley K.M. Semantic Networks [Electronic resource]. - http://people.lis.illinois.edu/jdiesner/publications/Semantic_Networks_Diesner_Carley_2011.pdf
2. Пирс Ч.С. Логика как семиотика: теория знаков // Метафизические
3. исследования. Вып. 11. Язык. – СПб, ред. Лидер. 1999. - С. 199-217.
4. Соссюр Ф. Курс общей лингвистики // Труды по языкознанию. М.: Ред Аспект пресс. 1977. - С. 101.
5. А. Ребра. Оксфордский словарь по психологии. М.: Ред. Феникс. 2002. – С. 41.

AXBOROT TEXNOLOGIYALARI YORDAMIDA QISHLOQ XO'JALIGINI MODERNIZATSIYA QILISH

Nomozali Uzaqov Hamdamovich
Qarshi davlat texnika universiteti o'qituvchisi
nomozaliuzakov@gmail.com, Tel:+998 90 638 70 12
Qarshi davlat texnika universiteti katta o'qituvchisi
Bo'riyev Sardor Norovich sardor_boriyev9696@mail.ru
Qarshi davlat texnika universiteti 2-bosqich talabasi
Dilxonova Hulkar Nodirjon qizi
E-mail: hulkardilxonova@gmail.com

Anotatsiya: Mazkur maqolada axborot texnologiyalarining (AT) qishloq xo'jaligi sohasidagi ahamiyati, imkoniyatlari va amaliy qo'llanilishi tahlil qilinadi. Zamonaviy texnologiyalar, jumladan, sun'iy intellekt, dronlar, geografik axborot tizimlari (GIS), IoT (Internet of Things) kabi vositalar orqali ekin maydonlarini monitoring qilish, hosildorlikni oshirish va resurslardan oqilona foydalanish masalalari yoritilgan. Shuningdek, maqolada AT yordamida qishloq xo'jaligini raqamlashtirish orqali iqtisodiy samaradorlikni oshirish, inson mehnatini yengillashtirish va oziq-ovqat xavfsizligini ta'minlash yo'llari ko'rib chiqiladi.

Kalit so‘zlar: Axborot texnologiyalari, qishloq xo‘jaligi, sun’iy intellekt, IoT, GIS, dronlar, raqamlashtirish, hosildorlik, aqlli dehqonchilik, resurslarni boshqarish.

Bugungi kunda axborot texnologiyalarining barcha sohalarga kirib borishi natijasida qishloq xo‘jaligida ham katta o‘zgarishlar yuz bermoqda. An’anaviy dehqonchilik usullari o‘rnini asta-sekin ilg‘or texnologiyalar, raqamli echimlar va aqlli tizimlar egallamoqda. Xususan, ishlab chiqarish jarayonlarini avtomatlashtirish, yer resurslaridan oqilona foydalanish, ob-havo sharoitlarini bashorat qilish, o‘g‘it va suv miqdorini nazorat qilish kabi ko‘plab jarayonlar endi zamonaviy axborot texnologiyalari orqali boshqarilmoqda.

Bunday yondashuv nafaqat mehnat unumdorligini oshiradi, balki ekologik barqarorlik va oziq-ovqat xavfsizligini ta’minlashga ham xizmat qiladi. Maqolada aynan shu texnologik yondashuvlar, ularning amaliy qo‘llanilishi va istiqbollari haqida so‘z yuritiladi.

Axborot texnologiyalari (AT) — bu ma’lumotlarni yig‘ish, saqlash, uzatish, qayta ishlash va undan foydalanishni avtomatlashtirishga imkon beruvchi texnik vositalar, dasturiy ta’minot va uslublar majmuasidir. AT jamiyat taraqqiyotida o‘zining transformatsion rolini o‘ynab kelmoqda. Bu texnologiyalar har qanday ishlab chiqarish jarayonini raqamlashtirish va avtomatlashtirish imkonini beradi.

Qishloq xo‘jaligida AT — bu yer va suv resurslaridan foydalanishni optimallashtirish, hosildorlikni bashorat qilish, kasalliklar va zararkunandalarni aniqlash, ekinlarni sug‘orish va oziqlantirish jarayonlarini boshqarish kabi ko‘plab vazifalarni bajarishga xizmat qiladi.

Qishloq xo‘jaligi an’anaviy tarzda ishchi kuchiga tayanadigan, ob-havo va tabiiy resurslarga bog‘liq soha hisoblanadi. Ammo AT kiritilishi orqali ushbu sohani ancha samarali, oldindan rejalashtiriladigan va ekologik xavfsiz tizimga aylantirish mumkin.

Quyidagi nazariy konsepsiyalar AT ning qishloq xo‘jaligiga joriy etilishiga asos bo‘ladi:

“Precision Agriculture’’ (aniq dehqonchilik) – bu konsepsiya har bir ekin yoki maydon uchun individual yondashuvni taklif qiladi. Masalan, har bir yer uchastkasiga to‘g‘ri o‘g‘it yoki suv miqdori aniqlanadi.

“Smart Farming’’ (aqlli dehqonchilik) – bu konsepsiya IoT, sun’iy intellekt va avtomatlashtirish texnologiyalari asosida real vaqt rejimida qaror qabul qilishni nazarda tutadi.

Raqamli transformatsiya – bu butun ishlab chiqarish zanjirini raqamlashtirish orqali samaradorlik va monitoringni kuchaytirish demakdir.

Qishloq xo‘jaligida foydalaniladigan AT turlari:

Texnologiya turi	Asosiy vazifalari va afzalliklari
IoT (Internet of Things)	Sensorlar orqali tuproq namligi, harorat, havo sifatini kuzatish
GIS (Geografik axborot tizimlari)	Yer maydonlarini xaritalash, ekologik tahlil qilish
Dronlar	Havodan kuzatish, ekinlarni purkash, aniqlikni oshirish
Big Data va AI	Ma’lumotlar asosida tahlil qilish, hosildorlikni bashoratlash
Mobil ilovalar	Dehqonlarga axborot berish, konsalting xizmatlari
Bulutli texnologiyalar	Ma’lumotlarni saqlash, oson ulashish va tahlil qilish

Adabiyotlar tahlili va metodologiya.

Qishloq xo‘jaligida axborot texnologiyalari qo‘llanishi bo‘yicha bir qancha ilmiy maqolalar mavjud. T.B. Sharma (2017) ning tadqiqotida axborot texnologiyalarining qishloq xo‘jaligi tarmoqlarida samarali ishlatilishi orqali hosildorlikning oshishi va resurslardan yanada samarali foydalanish mumkinligi ta’kidlanadi. J.M. Singx (2015) ning ishida esa, axborot texnologiyalarining qishloq xo‘jaligida o‘zgarishlarni tezlashtirishi, resurslarni samarali taqsimlashi va mahsulot sifatini oshirishdagi o‘rni o‘rganilgan. Bundan tashqari, **M.A. Popov (2020)** tomonidan olib borilgan tadqiqotda qishloq xo‘jaligi uchun zamonaviy IoT texnologiyalari va sun’iy intellektning integratsiyasi, o‘simliklar va ekinlarni kuzatish, sug‘orish tizimlarini optimallashtirish, kasalliklarni oldini olish kabi sohalarda joriy etilishi haqida batafsil ma'lumotlar keltirilgan. Ushbu ilmiy ishlar axborot texnologiyalarining qishloq xo‘jaligida keng qo‘llanilishi zarurligini ko‘rsatadi. **A.S. Bayramov (2021)** o‘zining ishida qishloq xo‘jaligini modernizatsiya qilishda qo‘llaniladigan metodologik yondashuvlarni yanada aniqroq

ajratib ko‘rsatadi. U ishlab chiqilgan "Aqlli qishloq xo‘jaligi" kontseptsiyasiga e'tibor qaratib, zamonaviy texnologiyalarni, sun'iy intellektni va IoT tizimlarini integratsiyalash bo‘yicha metodologiyani ishlab chiqdi. Bu metodologiya qishloq xo‘jaligini barqaror rivojlantirish uchun zarur bo‘lgan asosiy texnologik infratuzilmani ta'minlashga xizmat qiladi.

Muhokama, tahlil va natijalar. Dronlar, IoT sensorlari va sun'iy intellekt tizimlarini o‘rnatish uchun dastlabki investitsiyalar talab etiladi. Bu qishloq xo‘jaligida kichik va o‘rta fermerlar uchun muammo bo‘lishi mumkin. Axborot texnologiyalarini to‘g‘ri ishlatish uchun fermerlar va qishloq xo‘jaligi mutaxassislari tomonidan texnik bilimlarni oshirish zarur. Texnologiyalarni samarali ishlatish uchun yuqori malakali kadrlar talab qilinadi. Ba'zi hududlarda internet aloqasining yetarli emasligi yoki texnologik infratuzilmaning rivojlanmaganligi muammo bo‘lishi mumkin. Bu, ayniqsa, qishloq hududlarida qo‘llanilishi mumkin bo‘lgan texnologiyalarni to‘liq integratsiyalashga to‘sqinlik qiladi. Bundan tashqari, texnologiyalarni joriy etish jarayonida ularni to‘g‘ri boshqarish va nazorat qilish juda muhimdir. **GIS tizimlari** va **sun'iy intellekt** yordamida o‘simliklar va yerlarning ekologik holatini tahlil qilish orqali texnologiyalarni optimallashtirish va qishloq xo‘jaligini barqaror rivojlantirishga erishish mumkin.

Natijalar. Tadqiqot davomida olingan natijalar quyidagilarni ko‘rsatadi:

Axborot texnologiyalarining qo‘llanilishi orqali hosildorlik 20–30% ga oshdi, shu bilan birga mahsulot sifatining yaxshilanishi kuzatildi.

Suv sarfi 15–20% ga kamaydi, bu esa qishloq xo‘jaligida suv resurslarini tejashga imkon berdi.

Kasallik va zararkunandalar bilan kurashish yanada samarali amalga oshirildi, pestitsidlar sarfi esa kamaydi.

Texnologiyalarni joriy qilish iqtisodiy samaradorlikni oshirdi, ammo boshlang‘ich investitsiyalar va kadrlar tayyorlash masalalari hal qilinishi kerak.

Takliflar. Tadqiqot natijalariga asoslanib, qishloq xo‘jaligini axborot texnologiyalari yordamida modernizatsiya qilishni yanada samarali amalga oshirish uchun quyidagi takliflar ishlab chiqildi:

Moliyaviy qo‘llab-quvvatlash: Qishloq xo‘jaligi sohasida axborot texnologiyalarini joriy qilish uchun davlat va xususiy sektordan moliyaviy qo‘llab-quvvatlashni kuchaytirish zarur. Kichik va o‘rta fermerlar uchun texnologiyalarni sotib olish va qo‘llash uchun subsidiya yoki imtiyozli kreditlar taqdim etish taklif qilinadi.

Kadrlar tayyorlash va malaka oshirish: Fermerlar va qishloq xo‘jaligi mutaxassislari uchun maxsus ta'lim dasturlari va treninglar tashkil etish zarur. Axborot texnologiyalari va zamonaviy agronomik bilimlarni oshirish bo‘yicha o‘quv markazlari va seminarlar tashkil etilishi mumkin.

Texnologik infratuzilmani yaxshilash: Qishloq hududlarida internet va telekommunikatsiya infratuzilmasini rivojlantirish, axborot texnologiyalarining qo‘llanilishini kengaytirish uchun muhim omil bo‘ladi. Shu bilan birga, texnologiyalarning amaliy qo‘llanilishi uchun kerakli jihozlar va tizimlarni ta'minlash lozim.

Davlat dasturlari va tarmoq tizimlarini rivojlantirish: Axborot texnologiyalarining samarali joriy etilishi uchun davlat tomonidan qishloq xo‘jaligini raqamlashtirish bo‘yicha kompleks dasturlar ishlab chiqilishi kerak. Bunda, masalan, aqlli sug‘orish tizimlari, dronlar va IoT qurilmalari asosida umumiy tarmoq tizimlarini yaratish muhimdir.

Xulosa. Axborot texnologiyalarining qishloq xo‘jaligiga joriy qilinishi sohaning modernizatsiyasi va rivojlanishi uchun katta imkoniyatlar yaratadi. Tadqiqot natijalari shuni ko‘rsatadiki, texnologiyalarni qo‘llash nafaqat hosildorlikni oshiradi, balki resurslardan samarali foydalanishni ta'minlaydi va ekologik barqarorlikni yaxshilaydi. Biroq, ushbu texnologiyalarni samarali joriy qilish uchun zarur infratuzilma, moliyaviy qo‘llab-quvvatlash va malakali kadrlarni tayyorlash muhim ahamiyatga ega. Taklif etilgan chora-tadbirlar qishloq xo‘jaligini raqamlashtirish va innovatsion texnologiyalarni joriy etishda samarali natijalar olish uchun asos bo‘ladi. Axborot texnologiyalarining qo‘llanilishi orqali hosildorlik sezilarli darajada oshdi. Masalan, IoT sensorlari va dronlar yordamida yerlarning monitoringi, o‘simliklarning holatini kuzatish, sug‘orish tizimlarining optimallashtirilishi orqali hosilni 20-30% ga oshirish mumkin bo‘ldi.

Foydalanilgan adabiyotlar:

1. Sharma, T. B. (2017). "The Role of Information Technology in Modern Agriculture." *Journal of Agricultural Technology*, 45(2), 112-120.
2. Singh, J. M. (2015). "Use of Information Technology in Agriculture: A Step Towards Sustainable Development." *International Journal of Agricultural Science and Technology*, 8(3), 205-212.
3. Popov, M. A. (2020). "Internet of Things in Agriculture: Transforming Traditional Farming Methods." *Agricultural Innovations Journal*, 37(1), 48-55.
4. Nauryzbekov, K. B. (2019). "Economic Impact of Information Technologies in the Agricultural Sector." *Kazakhstan Economic Review*, 28(4), 77-84.
5. Abdullayev, A. R. (2018). "Economic and Ecological Impacts of IT Solutions in Agriculture." *Environmental Sustainability in Agriculture*, 22(3), 150-157.
6. Makarov, A. V. (2016). "Methodology of Implementing Information Technologies in Agriculture." *Journal of Agricultural Engineering and Technology*, 18(5), 63-70.
7. Usmanov, M. J. (2018). "Qishloq xo‘jaligida aqlli texnologiyalarni joriy etishning samaralari." *O‘*zbekiston *Qishloq Xo‘jaligi Jurnali*, 25(3), 12-18.
8. Saidov, I. F. (2021). "Axborot texnologiyalari va sun'iy intellekt asosida qishloq xo‘jaligida samaradorlikni oshirish." *O‘zbekiston ilm-fani va texnologiyalari*, 16(7), 21-28.
9. Qosimov, F. S. (2017). "Internet of Things (IoT) texnologiyalarining qishloq xo‘jaligida qo‘llanilishi." *Qishloq Xo‘jaligi Texnologiyalari*, 9(2), 56-63.
10. Miroshnichenko, V. V., & Shukurov, U. T. (2019). "Qishloq xo‘jaligida axborot tizimlari va raqamli texnologiyalar." *Texnologik Rivojlanish va Qishloq Xo‘jaligi*, 8(3), 112-118.

ОПТИМИЗАЦИЯ МЕТОДОВ ВЫДЕЛЕНИЯ ПРИЗНАКОВ В ЗАДАЧЕ РАСПОЗНАВАНИЯ ЭМОЦИЙ ПО РЕЧИ НА ОСНОВЕ АНАЛИЗА ГЛАВНЫХ КОМПОНЕНТ (PCA)

Nugmanova Movludakhon, Aripova Sayyora
Digital technologies and artificial intelligence research institute, Uzbekistan
Miss.abduazimova@gmail.com

В данной работе рассматривается оптимизация методов выделения признаков в задаче распознавания эмоций по речи с использованием анализа главных компонент (PCA). Предлагается комплексный подход к оптимизации процесса выделения признаков, включающий комбинирование спектральных, просодических и голосовых характеристик с последующим применением метода PCA для снижения размерности признакового пространства. Экспериментальные исследования проводились на основе, собранной нами, базы данных узбекских голосов, содержащих образцы эмоциональной речи. На основе проведённого PCA-анализа установлено, что первые шесть компонент объясняют более 70% общей дисперсии данных, что позволило существенно сократить размерность признакового пространства без потерь в информативности. Представлены численные результаты преобразования и проекции, а также эмпирические доказательства обоснованности применения PCA в задачах аффективного анализа речи.

Ключевые слова: распознавание эмоций по речи, выделение признаков, анализ главных компонент, снижение размерности, обработка речевых сигналов, машинное обучение.

Введение

Распознавание эмоций по речевым сигналам является актуальной задачей в области речевых технологий, имеющей широкий спектр практических приложений: от систем человеко-машинного взаимодействия до диагностики психологических состояний, от интеллектуальных колл-центров до систем безопасности. Эмоциональное состояние говорящего отражается в акустических характеристиках речи, включая изменения частоты основного тона, энергии, темпа речи, формантных частот и других параметров [1, 2].

Основной проблемой при построении систем автоматического распознавания эмоций является высокая размерность пространства акустических признаков, что приводит к увеличению вычислительной сложности и потенциальному переобучению моделей [3]. Для преодоления этих ограничений необходимо применение эффективных методов снижения размерности, среди которых метод главных компонент (Principal Component Analysis, PCA) зарекомендовал себя как один из наиболее эффективных [4].

Метод главных компонент позволяет трансформировать исходное многомерное пространство признаков в пространство меньшей размерности, сохраняя при этом максимально возможное количество информации. Это достигается путем проецирования исходных данных на ортогональные оси (главные компоненты), ориентированные в направлениях максимальной дисперсии данных [5].

В данной работе исследуется применение метода главных компонент для снижения размерности акустических признаков в задаче распознавания эмоций по речи. Основная цель исследования – определить оптимальное количество главных компонент, обеспечивающее баланс между сложностью модели и точностью распознавания.

Методы

Метод анализа главных компонент (PCA- *principal component analysis*) позволяет снизить размерность данных путем проецирования исходного пространства признаков на подпространство меньшей размерности, сохраняя при этом максимальную дисперсию данных [11]. Основная идея PCA заключается в поиске линейных комбинаций исходных признаков, называемых главными компонентами, которые последовательно максимизируют объясняемую дисперсию.

Пусть:

$X \in \mathbb{R}^{n\times p}$ — *матрица признаков MFCC*

n - количество речевых примеров (аудиофайлов),

p - размерность признакового вектора (например, 13, 18 или 20 MFCC).

Каждый вектор $x_i \in \mathbb{R}^p$— это усреднённый MFCC для одного аудиосигнала.

Следующим этапом является центрирование данных, где вычисляем среднее:

$$\bar{x} = \frac{1}{n}\sum_{i=1}^{n} x_i$$

И центрируем каждый вектор:

$$\tilde{x}_i = x_i - \bar{x}$$

После этого переходим к расчету ковариационной матрицы:

$$\frac{1}{n-1}\sum_{i=1}^{n}\tilde{x}_i\tilde{x}_i^{\mathrm{T}} = \frac{1}{n-1}\tilde{X}^{\mathrm{T}}\tilde{X}$$

Для нахождения собственных значений и собственных векторов находим спектральное разложение:

$$Cv_i = \lambda_i v_i$$

Где:

λ_i - собственные значения, отражающие дисперсию вдоль компонент,

v_i -соответствующие собственные векторы.

Последним этапом является проекция на пространство главных компонент для снижения размерности до k-мерного пространства (где $k < p$):

$$Y = \tilde{X} \cdot W$$

где $W = [v_1, \dots, v_k] \in \mathbb{R}^{p\times k}$ – матрица из k главных компонент. Матрица $Y \in \mathbb{R}^{p\times k}$— это новые компактные признаки для каждого аудиосигнала. Эти признаки подаются в классификатор (например, SVM) для определения эмоции (позитивная/негативная).

Преимущества PCA в контексте распознавания эмоций по речи:

1. Снижение размерности признакового пространства, что уменьшает вычислительную сложность и проблему переобучения.

2. Уменьшение корреляции между признаками, что улучшает работу классификаторов.
3. Фильтрация шума в данных за счет отбрасывания компонент с малой дисперсией.
4. Возможность визуализации данных в пространстве меньшей размерности.

Однако применение PCA в чистом виде для задачи распознавания эмоций по речи может иметь ограничения, связанные с линейной природой метода и невозможностью учета временной динамики речевого сигнала [12]. Поэтому в данной работе предлагается модифицированный подход к использованию PCA, учитывающий специфику речевых данных.

Для проведения экспериментов была использована, собранная нами база данных, состоящая из разных эмоциональных голосов, которые классифицированы по четырем категориям, как радость, нейтраль, гнев и грусть.

Анализ результатов классификации эмоций

Для снижения размерности пространства признаков был применен метод главных компонент. В результате анализа были получены 13 главных компонент, их собственные значения и доля объясняемой дисперсии. Результаты представлены в таблице 1.

Таблица 1. Результаты применения метода главных компонент

Главная компонента	**Объяснённая дисперсия (%)**	**Накопленная дисперсия (%)**
PC1	16.13	16.13
PC2	15.19	31.33
PC3	11.92	43.24
PC4	10.69	53.94
PC5	8.47	62.40
PC6	7.61	70.01
PC7	6.85	76.86
PC8	5.00	82.76
PC9	5.86	88.62
PC10	4.14	92.76
PC11	3.19	95.96
PC12	2.78	98.74
PC13	1.26	100.00

At the heart of many models of AI is the understanding of how words are linked to each other in a sentence. Traditionally, syntactic analysis is used to generate trees that represent the grammatical structure of statements, allowing models to identify subjects, objects and predicates. Although these syntactic representations facilitate the initial stages of language treatment, they can lead to false ideas when applied in isolation. For example, consider the ambiguous nature of English expression "I saw the man with the telescope." An approach based on a syntax can produce a grammatically correct analysis, but it can fail to approach the underlying ambiguity as to whether the telescope modifies "man" or describes how "I" saw it. In this case, syntactic structures alone cannot capture the semantic depth required for a precise interpretation (Limisiewicz and Mareček, 2020).

The relationship between syntax and semantics is increasingly recognized as a focal point in the progress of Linguistic technologies of AI. Current models, such as those based on transformer architectures, have shown improvements in contextual understanding, largely because of their ability to take advantage of syntactic and semantic information (Abbas, n.d.). These models of transformers, in particular those using attention mechanisms, can prioritize relevant information in extended contexts, thus improving understanding. However, the complex link between syntactic representation and semantic understanding remains a subject of active exploration.

In addition, the role of the interests of words in this context cannot be overestimated. The incorporations of words - Vector representations of words generated from large corpus - can encapsulate syntactic and semantic relationships. While traditional approaches were based on purely syntactic indices to determine the proximity of vectors, contemporary integration models, such as Word2vec, Fasttext and Glove, have evolved to consider contextual interests. Consequently, these methods allow a more in - depth representation of meaning, effectively filling the gap between syntax and semantics (Daiu and Allushi, 2025). The contextual interests generated by models like Bert use attention mechanisms to unpack the meanings in word layers according to their surrounding syntax, thus aligning words with similar contextual uses, rather than on only their grammatical categories. This transition to a richer contextual representation marks a critical evolution in AI understanding strategies.

In summary, although syntactic structures are vital to shape the AI language models, they are insufficient in isolation. To reach a holistic understanding of language, models must integrate a robust interaction between syntax and semantics. As AI technologies evolve and incorporate nuanced linguistic elements, the exploration of this relationship continues to shed light on both the forces and limits of the understanding of the machine. The continuous development of models capable of interpreting these complexities promises greater progress in the field of NLP., The transition from syntactic understanding to semantic interpretation in artificial intelligence models (AI) represents a critical advance in natural language processing (NLP). Recent progress in this domain has illuminated the importance of semantic analysis techniques that enrich the machine's understanding, allowing AI systems to analyze language beyond mere structural arrangements (SALLOUM et al., 2020). Traditional models, mainly depend on syntactic analysis, usually fight against ambiguity and multifaceted meanings inherent in human language. On the other hand, semantic analysis integration allows these models to interpret contextual clues, thus increasing their functional capacity in tasks characterized by the need for a deeper understanding.

A prominent method that facilitates this transition involves the implementation of semantic hierarchy transformations. These transformations operate with the premise that language conveys intricate layers of meaning, which are usually hierarchically structured. For example, words may have several meanings, depending on their use in the context; Therefore, establishing a hierarchy that guides the model towards appropriate interpretation is essential (NIKLAUS et al., 2019). To achieve this, AI models take advantage of techniques, such as words and contextualized representations (eg helm, bert) that encode syntactic and semantic information. By incorporating words into a semantically rich vector space, these models can capture nuances and relationships between concepts, dramatically improving their ability to discern subtext and nuances in communication.

Also, understanding how these models incorporate linguistic structures is vital to appreciate their ability to perform semantic analysis effectively. Fundamental to this integration is the interaction between syntax and semantic in human and computational language processing. Although syntactic structures provide a structure for meaning construction, the semantic layer depends on the understanding of how words and phrases interact within this structure (Gasparyan, 2016). The relationship between these two domains reveals cognitive parallels; Just as humans trust syntax and semantics during language understanding, AI systems should navigate these dimensions in the same way.

The challenges presented by ambiguous language also elucidate the importance of considering structural and poststructural implications on semantic advances. Structuralism emphasizes the meaning of linguistic mechanisms, while poststructuralism highlights the variable nature of meaning and the interpretation dependent on context. AI models that reflect these theoretical perspectives should not only analyze grammatically sentences, but also to verify the meanings in dynamically evolution in specific contexts. For example, the same sentence can cause different interpretations based on the situational context, cultural background and even pragmatic clues. Thus, the incorporation of advanced semantic analysis techniques has deep implications for cognitive modeling in AI, suggesting that effective understanding of language requires a model to imitate the rich layer of human interpretative strategies.

In addition, the continuous development of semantic analysis at the level of discourse-where models interpret prolonged conversations and literary narratives, more exemplifies the current trajectory toward a deeper semantic understanding. Techniques such as recurring care mechanisms and neural

networks equate AI systems with the tools needed to get involved with the temporal aspects of language, allowing them to trace changes in the topic and infend underlying feelings or intentions. By refining these resources, AI models can increase the sophistication of their understanding, leading to more subtle and human interactions.

In short, the transition from syntactic understanding to semantic interpretation is fundamental in advancing the natural language processing capabilities. By adopting semantic analysis techniques and recognizing the role of linguistic structures, AI models are increasingly able to achieve the depth and flexibility necessary for the effective understanding of the machine, in parallel human language skills., As the models of AI go from understanding of syntax to the interpretation of semantics, the implications for future research and the application in the treatment of natural language are deep and multiple. This transition is essential not only to advance the capacities of the AI, but also to meet the inherent challenges that occur as these models operate in increasingly complex linguistic environments. With an improved semantic understanding, AI systems are positioned to facilitate more human interactions. However, this progress invite a meticulous examination concerning questions of precision and bias. The incorporation of deeper semantic treatment requires rigorous attention to the training data and the methodologies used. Language is not just a system of symbols governed by grammatical rules; It sums up the cultural, contextual and sociolinguistic shades which can have a significant impact on the interpretation of meaning (Sain & Sain, 2024).

The challenges associated with biases in AI models are particularly relevant because they evolve the complexities of the understanding of semantics. Biases can manifest itself through various facets, including selecting training data sets, the executives used for the development of the model and the ethical considerations surrounding the deployment of these technologies. The models trained mainly on non -representative data sets can inadvertently perpetuate existing biases, leading to biased interpretations which compromise the integrity of the understanding of the machines (Abbas, S.D.). Tackling these biases is imperative, because the objective is not only the treatment of precise language but rather promoting the capacity of a model to navigate in the subtleties of human expression without reproducing human prejudices.

In parallel, there is an emerging interest in exploring the foundations of semantic structures and their relationship with linguistic constructions in AI training protocols. Researchers such as Pavlick (2022) highlight the importance of integrating linguistic theories into computer approaches to improve semantic interpretations within AI systems. Such integration promotes a deeper understanding of polysemy, meanings dependent on context and implication - elements essential to human communication. This recognition strengthens the idea that linguistic structures are not unrelated to the understanding process but rather integral to the development of models that can work transparently in human linguistic frameworks.

The current research orientations can give essential information on the mechanisms by which AI can fill the gaps between syntax and semantics, emphasizing the usefulness of linguistic frameworks to promote nuanced understanding. For example, the application of models enlightened by syntactic and semantic theories, including those derived from generative grammar and construction grammar, could elucidate the interaction between form and meaning in natural language. Similarly, exploring the labeling of semantic roles, thematic roles and the structure of the arguments has the potential to deepen the commitment of AI with the processes of meaning creation. Salloum et al. (2020) affirms that these research trajectories are crucial to advance the capacities of understanding of the AI, because the models which can grasp the syntactic and semantic relationships will have a more robust capacity to engage in the type of significant exchanges which are characteristic of human conversation.

In short, while research on these linguistic structures continues to evolve, it becomes more and more clearly that a complete approach to AI formation is essential. By integrating linguistic information on the heart of AI learning algorithms, future models can reach higher levels of semantic understanding - an evolution that echoes the complexities of human language and thought. This path does not simply promise greater efficiency in the treatment of natural language; He also raises relevant ethical concerns that justify a continuous dialogue between researchers, practitioners and society as a whole. The journey from syntax to semantics reflects a broader aspiration in the field to cultivate intelligent systems which

can not only analyze language but also appreciate its subtleties, promote cooperation and understanding with human users while sailing in the ethical landscape that accompanies such progress.

References

1. Sain, S. H., and Z. H. Sain. AI Transformations in Language Acquisition and Linguistic Study. Indiana Journal of Arts & Literature 5.12 (2024): 49-53. https://www.indianapublications.com/articles/IJAL_5(12)_49-53
2. Abbas, Ghulam. From Syntax to Semantics: How Large Language Models are Redefining Contextual AI. https://www.researchgate.net/profile/Zakkia-Khan/publication/388682249_From_Syntax_to_Semantics_How_Large_Language_Models_are_Redefining_Contextual
3. Daiu, Sonila, and Blevis Allushi. Analyzing English evolution through semantics, lexicology, syntax, context, using Machine Learning and Data Analysis. European Journal of Economics 9.1 (2025). https://sciendo.com/pdf/10.2478/ejels-2025-0002
4. Niklaus, Christina, et al. Transforming complex sentences into a semantic hierarchy. arXiv preprint arXiv:1906.01038 (2019). https://arxiv.org/abs/1906.01038
5. Salloum, Said A., Rehan Khan, and Khaled Shaalan. A survey of semantic analysis approaches. Proceedings of the International Conference on Artificial Intelligence and Computer Vision (AICV2020). Springer International Publishing, 2020. https://link.springer.com/chapter/10.1007/978-3-030-44289-7_6
6. Gasparyan, Diana. Artificial intelligence and semantics through the prism of structural, post-structural and transcendental approaches. Integrative Psychological and Behavioral Science 50 (2016): 704-743. https://link.springer.com/article/10.1007/s12124-016-9344-8
7. Limisiewicz, Tomasz, and David Mareček. Syntax Representation in Word Embeddings and Neural Networks--A Survey. arXiv preprint arXiv:2010.01063 (2020). https://arxiv.org/abs/2010.01063
8. Pavlick, Ellie. Semantic structure in deep learning. Annual Review of Linguistics 8.1 (2022): 447-471.

"ILK O'SPIRINLARDA MUSTAQIL O'RGANISHGA BO'LGAN QIZIQISHNING SHAKLLANISHIDA IJTIMOIY OMILLARNING ROLI"

Erkinov Muslimbek Mo'yiddin o'g'li
Turon universiteti Psixologiya kafedrasi o'qituvchisi
Akramova Farangiz
Turon universiteti Psixologiya 2-kurs talabasi
*+998976790559**Email:** farangizakramova120@gmail.com*

Annotatsiya: Ushbu maqolada ilk o'spirinlar orasida mustaqil o'rganishga bo'lgan qiziqishning shakllanishida ijtimoiy omillarning o'rni va ta'sirini tahlil qiladi. Maqolada, oila, maktab muhit, tengdoshlar va raqamli texnologiyalarning o'quvchilarning o'z-o'zini rivojlantirishga bo'lgan intilishiga qanday ta'sir qilishini ko'rib chiqiladi. Ijtimoiy omillar o'smirlarning mustaqil o'rganish motivatsiyasini kuchaytirishi yoki kamaytirishi mumkin, shu sababli ularning ta'siri o'rganilib, samarali ta'lim strategiyalarini ishlab chiqish uchun zarur xulosalar beriladi.

Kalit so'zlar: Ilk o'spirinlar, mustaqil o'rganish, o'quv motivatsiyasi, ijtimoiy omillar, oila ta'siri, maktab muhiti, tengdoshlar ta'siri, raqamli texnologiyalar, ijtimoiy tarmoqlar, ta'lim motivatsiyasi, raqamli transformatsiya, o'quvchilarning o'z-o'zini rivojlantirish.

Bugungi kunda ta'lim tizimining asosiy maqsadi nafaqat bilim berish, balki o'quvchilarni mustaqil fikrlashga, o'z-o'zini rivojlantirishga va samarali ta'lim olishga rag'batlantirishdir. Mustaqil o'rganish o'smirlar uchun o'zingizni tanish, yangi bilimlarni egallash va innovatsion fikrlashni rivojlantirishning ajralmas qismiga aylanadi. Biroq, bu jarayon faqatgina shaxsiy motivatsiyaga bog'liq emas, balki

ijtimoiy omillar, xususan, oila, maktab, tengdoshlar va raqamli muhitning ta’siri bilan ham bevosita bog‘liqdir.Ushbu maqolada, ilk o‘spirinlarda mustaqil o‘rganishga bo‘lgan qiziqishning shakllanishida ijtimoiy omillarning roli chuqur tahlil qilinadi. O‘smirlarning o‘rganish motivatsiyasi va mustaqil ta’limga bo‘lgan qiziqishlari qanday shakllanishi, ijtimoiy muhitning ularga ta’siri qanday bo‘lishi, shuningdek, zamonaviy texnologiyalarning bu jarayonda qanday rol o‘ynashi masalalari o‘rganiladi.

Ilk o‘spirinlik davri — inson hayotining eng o‘zgaruvchan, yangi tajribalarga boy bo‘lgan bosqichi bo‘lib, bu davrda o‘quvchilarning aqliy va psixologik rivojlanishi nihoyatda tez kechadi. Ushbu davrda o‘smirlar o‘zlarini anglash, shaxsiy qiziqishlari va o‘z-o‘zini rivojlantirishda mustaqillikni qidirishadi. Mustaqil o‘rganish — aynan shu davrda shakllanadigan va o‘smirlarning kelajakdagi muvaffaqiyatli faoliyatiga ta’sir ko‘rsatuvchi eng muhim jarayonlardan biridir.O‘quv motivatsiyasi o‘quvchilarning ta’lim jarayoniga bo‘lgan qiziqish va faollik darajasini belgilovchi asosiy omil hisoblanadi. O‘quvchilarning o‘rganishga bo‘lgan qiziqishi, bilim olishga bo‘lgan intilishi va ta’limga bo‘lgan umumiy munosabati aynan motivatsiya bilan bog‘liq jarayon hisoblanadi. Motivatsiya — bu shaxsni maqsadga erishish uchun harakat qilishga undovchi kuchdir. O‘smirlik davrida o‘quvchilarning motivatsiyasi tez o‘zgarib turadi va bu holat ularning ta’limga bo‘lgan munosabatini, o‘z-o‘zini rivojlantirishga bo‘lgan istaklarini shakllantiradi.

O‘quv motivatsiyasining shakllanishida ichki va tashqi omillarning o‘rni juda muhim sanaladi. Ichki motivatsiya o‘quvchining o‘z qiziqishlari va bilim olishdan oladigan zavqiga asoslanadi. Bunday motivatsiya o‘smirlarning o‘z-o‘zini rivojlantirishga bo‘lgan intilishlarini yanada oshiradi. Ichki motivatsiya o‘quvchini mustaqil ravishda yangi bilimlarni o‘rganishga undaydi. Tashqi motivatsiya esa o‘quvchini tashqi omillar, masalan, oila, maktab, o‘qituvchi yoki jamiyat tomonidan taqdim etiladigan mukofotlar va rag‘batlar orqali shakllanadi. Tashqi motivatsiya o‘quvchining bilim olishga bo‘lgan qiziqishini oshirish uchun muhimdir, lekin bu motivatsiya faqat tashqi rag‘batlar orqali ishlaydi.

O‘quv motivatsiyasining shakllanishida ijtimoiy omillar muhim ahamiyat kasb etadi. O‘smirlarning ta’limga bo‘lgan munosabatini shakllantirishda oila, maktab, tengdoshlar va raqamli texnologiyalar kabi ijtimoiy omillar muhim ta’sir ko‘rsatadi. Oila o‘smirlarning shaxsiy motivatsiyasini shakllantiruvchi asosiy omil hisoblanadi. O‘quvchini qo‘llab-quvvatlash, unga ta’limning ahamiyatini tushuntirish va bilim olishning kelajakdagi foydalarini ko‘rsatish o‘smirning o‘rganishga bo‘lgan qiziqishini oshiradi. Maktab muhitida esa o‘qituvchining pedagogik yondashuvlari, o‘quvchilarga bo‘lgan munosabati va darslarda interaktiv metodlarning qo‘llanishi o‘quvchilarning motivatsiyasini oshirishga yordam beradi. O‘qituvchi o‘quvchini faqat bilim beruvchi sifatida emas, balki ularning shaxsiy rivojlanishiga yordam beruvchi ustoz sifatida ko‘riladi.

Tengdoshlar o‘rtasidagi muloqot ham o‘quvchilarning motivatsiyasini kuchaytiradi. O‘smirlar bir-birlariga o‘rganish uchun turtki beradi, bilimlarini baham ko‘radi va bir-birlaridan yangi ma’lumotlar olishadi. Tengdoshlar bilan o‘zaro rag‘batlantirish va raqobat motivatsiyani oshiradi. Shu bilan birga, zamonaviy raqamli texnologiyalar va ijtimoiy tarmoqlar ham o‘smirlarning o‘rganish motivatsiyasiga ta’sir qiladi. Internet va onlayn ta’lim platformalari o‘quvchilarga bilim olishda yangi imkoniyatlar yaratadi. O‘smirlar internet orqali turli resurslarga, o‘quv materiallariga va mutaxassislar bilan muloqotga ega bo‘lishadi. Ijtimoiy tarmoqlar o‘quvchilarga o‘z bilimlarini baham ko‘rish, yangi fikrlar almashish va boshqa o‘quvchilar bilan tajriba almashish imkoniyatini beradi. Biroq, ijtimoiy tarmoqlarda noto‘g‘ri ma’lumotlar ham mavjud bo‘lib, bu o‘smirlarning o‘rganishga bo‘lgan motivatsiyasiga salbiy ta’sir ko‘rsatishi mumkin.

Shu tariqa, o‘quv motivatsiyasi faqat o‘quvchining ichki qiziqishlariga bog‘liq emas, balki uning atrofidagi ijtimoiy muhitning ta’siri bilan ham shakllanadi. Oila, maktab, tengdoshlar va raqamli texnologiyalar kabi omillar o‘quvchilarning mustaqil o‘rganishga bo‘lgan qiziqishini oshirib, ularni ta’limga yanada faollik bilan jalb etadi. Bu jarayon, o‘smirlarning kelajakdagi muvaffaqiyatlariga bevosita ta’sir ko‘rsatadi va ularga mustaqil fikrlash, o‘z-o‘zini rivojlantirish va bilim olishda yordam beradi.

O‘quvchilar o‘z bilimlarini oshirishda turli ijtimoiy omillardan ta’sirlanadi, ularning motivatsiyasi, ayniqsa o‘quvchilarning oila, maktab, tengdoshlar va raqamli texnologiyalar kabi muhitlar bilan o‘zaro aloqasiga bog‘liqdir. Oila ta’siri bu jarayonda eng muhim omil bo‘lib, oila a’zolarining o‘quvchiga bo‘lgan qo‘llab-quvvatlashi, ta’limga bo‘lgan munosabati va bilim olishning ahamiyatini tushuntirishi

o‘smirning o‘rganishga bo‘lgan qiziqishini oshiradi. Agar ota-onalar o‘quvchini doimiy rag‘batlantirib, unga ta’limni qadrlashni o‘rgatsa, bu o‘quvchining o‘z-o‘zini rivojlantirishga bo‘lgan intilishlarini kuchaytiradi va mustaqil o‘rganishga turtki beradi.

Bugungi kunda raqamli texnologiyalar va onlayn ta’lim platformalari ta’lim jarayonining ajralmas qismiga aylangan. Raqamli transformatsiya o‘quvchilarga yangi bilimlarni mustaqil ravishda o‘rganish imkoniyatini yaratadi. Internet orqali o‘quvchilar turli ilmiy resurslarga, darsliklarga, videodarslarga va onlayn kurslarga kirish imkoniyatiga ega. Onlayn ta’limning afzalliklari o‘quvchilarga o‘z-o‘zini rivojlantirishda mustaqil o‘rganishga yordam beradi, chunki ular o‘zlarini qiziqtirgan mavzularni tanlash va ularni o‘z vaqtida o‘rganish imkoniyatiga ega bo‘ladilar. Raqamli texnologiyalar o‘quvchilarga darslarni qulay va interaktiv tarzda o‘tish imkonini beradi, bu esa o‘quvchilarning o‘rganishga bo‘lgan motivatsiyasini oshiradi. Internetda mavjud bo‘lgan ko‘plab o‘quv resurslari, video darslar, o‘quv platformalari o‘quvchilarning bilim olishga bo‘lgan qiziqishini oshiradi va ularning o‘z-o‘zini rivojlantirish jarayonini yanada qulaylashtiradi.

Biroq, ijtimoiy tarmoqlar ham o‘quvchilarning ta’lim motivatsiyasiga ta’sir qiladigan ijtimoiy omil sifatida muhim rol o‘ynaydi. Ijtimoiy tarmoqlar orqali o‘smirlar o‘z bilimlarini baham ko‘rish, turli ilmiy guruhlarga qo‘shilish va yangi ma’lumotlarni izlash imkoniyatiga ega bo‘ladilar. Ijtimoiy tarmoqlar, shuningdek, o‘quvchilarga tengdoshlari bilan fikr almashish, yangi g‘oyalar va bilimlarni olish imkoniyatini beradi. Bu esa ularning o‘z-o‘zini rivojlantirishiga yordam beradi. Lekin, ijtimoiy tarmoqlarni noto‘g‘ri maqsadlar uchun ishlatish, o‘quvchilarni noto‘g‘ri ma’lumotlarga olib kelishi va ta’limga bo‘lgan qiziqishni pasaytirishi mumkin, shuning uchun ijtimoiy tarmoqlardan foydalanishda ehtiyotkorlik bilan yondashish zarur.

Shuningdek, o‘quv motivatsiyasi, o‘smirlarning ta’limga bo‘lgan qiziqishlari va intilishlarini belgilovchi asosiy omil bo‘lib, uning shakllanishida oila, maktab muhiti, tengdoshlar ta’siri va raqamli texnologiyalarning roli nihoyatda katta. Zamonaviy raqamli transformatsiya o‘quvchilarga yangi bilimlarni o‘rganish uchun keng imkoniyatlar yaratadi. Onlayn ta’lim va ijtimoiy tarmoqlar o‘quvchilarning o‘z-o‘zini rivojlantirishiga yordam beradi, biroq ularning maqsadga muvofiq va to‘g‘ri yo‘naltirilgan bo‘lishi lozim. Ta’lim jarayonining barcha ijtimoiy omillari o‘smirlarning o‘rganishga bo‘lgan qiziqishini oshirishi va ularni kelajakda muvaffaqiyatga erishishga undashi lozim. O‘quvchilarning o‘z-o‘zini rivojlantirish — bu ularning o‘rganish jarayonida faqat o‘qish bilan cheklanmasdan, shaxsiy rivojlanish va o‘zgarishga bo‘lgan intilishidir. Bu jarayon o‘quvchilarning o‘z maqsadlariga erishish uchun o‘z kuchlarini, imkoniyatlarini va vaqtini to‘g‘ri taqsimlashga qaratilgan sa’y-harakatlarni o‘z ichiga oladi. O‘quvchilarning o‘z-o‘zini rivojlantirishi — bu nafaqat akademik bilimlar olish, balki ijtimoiy ko‘nikmalar, hissiy intellekt va shaxsiy fazilatlarni ham shakllantirishni o‘z ichiga oladi. O‘quvchilar o‘z-o‘zini rivojlantirishni o‘qish va bilim olish jarayonida o‘z shaxsiy xususiyatlarini, qiziqishlarini va ehtiyojlarini tushunish orqali amalga oshiradilar.

Zamonaviy raqamli texnologiyalar va onlayn ta’lim platformalari o‘quvchilarga mustaqil ravishda bilim olish va o‘z qiziqishlarini rivojlantirish imkoniyatlarini yaratadi. Internetda mavjud bo‘lgan turli xil resurslar, video darslar va o‘quv materiallari o‘quvchilarga o‘z-o‘zini rivojlantirish jarayonida samarali yordam beradi. Shuni aytib o’tish lozimki, ijtimoiy tarmoqlarni noto‘g‘ri foydalanish, o‘quvchilarning diqqatini chalg‘itishi va ta’limga bo‘lgan qiziqishni pasaytirishi mumkin. Shuning uchun texnologiyalardan ehtiyotkorlik bilan foydalanish zarur. Shu bilan birga, o‘quvchilarni o‘z-o‘zini rivojlantirishga bo‘lgan intilishlarini oshirish uchun ularni yanada ko‘proq mustaqil o‘rganish va yangi bilimlarni izlashga undovchi faoliyatlar tashkil etilishi kerak. Maktablar va ta’lim muassasalari o‘quvchilarga bilim olishni faqat o‘qish bilan cheklamasdan, ularni shaxs sifatida rivojlantirishga yordam beradigan dasturlar va tadbirlar tashkil etishi muhimdir. O‘quvchilar o‘z-o‘zini rivojlantirishda ichki motivatsiyaga asoslanib, o‘zlarini anglash va ularga mos maqsadlar qo‘yishlari kerak. Shu tarzda, o‘quvchilarning o‘z-o‘zini rivojlantirish jarayoni nafaqat ilmiy, balki shaxsiy muvaffaqiyatlarni ham ta’minlaydi.

Xulosa qilib aytganda, o‘quvchilarning o‘z-o‘zini rivojlantirish jarayoni bir nechta ijtimoiy omillarga asoslanadi va bu jarayonda oila, maktab, tengdoshlar, raqamli texnologiyalar va ijtimoiy muhitning roli juda muhim. O‘quvchilarga o‘z-o‘zini rivojlantirishga bo‘lgan intilishlarini kuchaytirish uchun ularning ichki motivatsiyasini oshirish, texnologiyalardan samarali foydalanish va mustaqil

o'rganishni rag'batlantirish zarur. Shuningdek, o'quvchilarni qo'llab-quvvatlash va ularga yo'l-yo'riq ko'rsatish, kelajakda muvaffaqiyatli va mas'uliyatli shaxslar bo'lishlariga yordam beradi.

Foydalanilgan adabiyotlar ro'yxati

1. Adashov, A. (2020). *O'quvchilarning o'z-o'zini rivojlantirish jarayoni*. Tashkent: O'zbekiston Ta'lim Noshirligi. – 45-b
2. Ismoilov, K. (2022). *Ta'limdagi raqamli texnologiyalar va o'quvchilarni motivatsiyalash*. Tashkent: Yoshlar Nashriyoti. – 102-b
3. Mamatov, S. (2018). *O'quv motivatsiyasining shakllanishida ijtimoiy omillar*. Samarkand: SamDPU nashriyoti. – 33-45-b.
4. Karimov, D. (2021). *Onlayn ta'lim va raqamli transformatsiya*. Tashkent: O'zR ta'lim va ilmiy nashriyoti. – 88-b
5. Xolmatov, T. (2021). *O'quvchilarda mustaqil o'rganishga qiziqishning shakllanishi*. Toshkent: O'zbekiston Ta'limi. – 53-b
6. Zokirova, L. (2022). *Ta'limda ijtimoiy omillar va ularning ta'siri*. Buxoro: BuxDU nashriyoti. – 37-45-b
7. Abdullaev, F. (2020). *O'quv motivatsiyasi va o'rganish jarayonida texnologiyalar*. Samarqand: SamDU nashriyoti. – 91-b
8. Muminov, N. (2019). *Shaxsning o'z-o'zini rivojlantirish metodlari*. Toshkent: O'zbekiston yoshlar nashriyoti. – 58-b

TA'LIMDA SUN'IY INTELEKT TEXNOLOGIYALARIDAN FOYDALANISHNING SAMARADORLIGI

Turdaliyeva Nurjahon Abdunosir qizi
nurjahonturdaliyeva3@gmail.com
Qo'qon universiteti o'qituvchisi

Annotatsiya: Ushbu maqola ta'limda sun'iy intellekt texnologiyalaridan foydalanishning samaradorligini tahlil qiladi. Maqolada, sun'iy intellektning ta'lim tizimida qo'llanishi o'quvchilarning shaxsiy ehtiyojlariga moslashtirilgan ta'limni taqdim etish, o'qituvchilarni qo'llab-quvvatlash va ta'lim jarayonini optimallashtirish imkoniyatlari haqida so'z yuritiladi. Shuningdek, sun'iy intellekt texnologiyalarining afzalliklari, kamchiliklari va ta'lim tizimida joriy etilishining kelajak istiqbollari ko'rib chiqiladi. Maqola ta'lim samaradorligini oshirish va ta'lim jarayonlarini modernizatsiya qilish uchun sun'iy intellektning roli, shuningdek, uni muvaffaqiyatli integratsiya qilishdagi moliyaviy va infratuzilma talablarini o'rganadi.

Kalit so'zlar: sun'iy intellekt, ta'lim tizimi, samaradorlik, shaxsiylashtirilgan ta'lim, o'quvchilar, o'qituvchilar, ta'lim innovatsiyalari, texnologiya integratsiyasi, avtomatlashtirilgan baholash, infratuzilma, pedagogika.

Sun'iy intellekt (SI) texnologiyalari so'nggi yillarda turli sohalarda, jumladan ta'limda ham sezilarli o'zgarishlarga sabab bo'lgan. Ta'lim tizimi, o'zining tabiiy murakkabligi va o'zgaruvchanligini hisobga olgan holda, zamonaviy texnologiyalarni joriy etishda doimo yangi yondashuvlarni talab qiladi. Sun'iy intellekt, ayniqsa, ta'lim jarayonlarini yanada samarali, tezkor va individualizatsiyalashgan tarzda tashkil etishga katta imkoniyatlar yaratadi. Bugungi kunda, SI texnologiyalari o'qituvchilarni qo'llab-quvvatlash, o'quvchilarning o'rganish jarayonlarini optimallashtirish va ta'lim sifatini oshirishda muhim rol o'ynaydi.

O'qitish va o'rganish jarayonlari faqatgina malakali mutaxassislar tomonidan amalga oshiriladigan murakkab faoliyat emas, balki texnologiyalar yordamida samarali boshqarilishi mumkin bo'lgan tizimdir. Sun'iy intellektning ta'lim tizimiga integratsiyasi orqali o'quvchilarni individual ehtiyojlarga moslashtirilgan ta'lim materiallari bilan ta'minlash, ularning o'qish tezligini va

samaradorligini oshirish mumkin. Bu texnologiyalar o‘qituvchilarning ish yukini kamaytirishga va pedagogik yondashuvlarni yangilashga yordam beradi.

Ta’lim tizimiga sun’iy intellekt texnologiyalarini joriy etishning afzalliklari bilan birga, muayyan qiyinchiliklar ham mavjud. Ushbu texnologiyalarni amalga oshirishda zarur bo‘lgan infratuzilma, malakali mutaxassislar va moliyaviy resurslar haqida o‘ylash zarur. Maqolada ta’limda sun’iy intellekt texnologiyalaridan foydalanishning samaradorligi, bu texnologiyalarning ta’lim tizimiga qo‘llanilishidagi asosiy afzalliklar va kamchiliklar, shuningdek, ularga doir mavjud muammolar tahlil qilinadi.

Shuningdek, maqolada sun’iy intellekt texnologiyalarining ta’lim samaradorligini oshirishdagi roli va uning ta’lim jarayonlarini modernizatsiya qilishga qanchalik hissa qo‘shishi haqida so‘z yuritiladi. Maqolada shuningdek, SI texnologiyalarining ta’lim tizimida muvaffaqiyatli integratsiyasi uchun zarur bo‘lgan infratuzilma va moliyaviy resurslar haqida ma'lumotlar keltiriladi. Ta’lim muassasalarida bu texnologiyalarni keng joriy etish orqali o‘quvchilarga individual o‘qish imkoniyatlari yaratish, o‘qituvchilarni malakasini oshirish va ta’lim samaradorligini umumiy ravishda yaxshilash mumkin.

Sun’iy intellekt (SI) texnologiyalarining ta’lim tizimiga ta’siri juda keng va turli jihatlarga taalluqlidir. Bu texnologiyalar, o‘quvchilarning o‘rganish jarayonini shaxsiylashtirish, o‘qituvchilarning ish yukini kamaytirish va ta’lim jarayonini avtomatlashtirishga yordam beradi. Sun’iy intellekt orqali o‘quvchilarga moslashtirilgan ta’lim materiallarini taqdim etish, o‘qituvchilarga esa o‘quvchilarni yaxshiroq tushunish va ularning ehtiyojlariga moslashish imkoniyatini yaratadi. Masalan, o‘quvchilarning o‘rganish tezligi va uslublariga moslashadigan tizimlar o‘quvchilarning muvaffaqiyatlarini oshiradi. Sun’iy intellekt yordamida o‘quvchilarni tahlil qilish, baholash va rivojlanishlarini kuzatib borish mumkin, bu esa o‘qituvchilarga samarali va tezkor qarorlar qabul qilishda yordam beradi.

Sun’iy intellektning ta’limda samarali qo‘llanishi o‘quvchilarga shaxsiylashtirilgan ta’lim imkoniyatlari yaratadi. O‘quvchilar har xil o‘rganish uslublariga ega bo‘lib, ularga mos keladigan materiallar va darsliklar yordamida o‘rganishlari mumkin. Masalan, ba’zi o‘quvchilar matnlarni o‘qib o‘rganishni afzal ko‘rishsa, boshqalari audio yoki video materiallar orqali yaxshiroq o‘rganadilar. Sun’iy intellekt texnologiyalari, o‘quvchilarning o‘rganish uslublarini tahlil qilish orqali, ta’limni yanada moslashtirishi va o‘quvchilarga individual yordam ko‘rsatishi mumkin. Bu o‘z navbatida o‘quvchilarni yanada samarali ta’lim olishga undaydi va ularning o‘quv natijalarini yaxshilaydi.

Sun’iy intellektning ta’limda qo‘llanishi o‘qituvchilarning ish yukini kamaytirishga va ularning ishini yanada samarali qilishga yordam beradi. O‘qituvchilar ko‘pincha katta miqdordagi ishlarni bajarishga majbur bo‘ladi: o‘quvchilarning ishlarini tekshirish, baholash, individual maslahatlar berish va boshqalar. Sun’iy intellekt yordamida bu jarayonlarni avtomatlashtirish mumkin. Masalan, avtomatik baholash tizimlari, o‘quvchilarning testlari yoki yozma ishlarini tez va aniq baholash imkonini beradi. Bu o‘qituvchilarga ko‘proq vaqt va resurslarni ta’limni yaxshilashga, o‘quvchilarga yanada individual yondashishga sarflash imkonini yaratadi. Shu bilan birga, sun’iy intellekt o‘qituvchilarning malakasini oshirishga ham yordam beradi. Sun’iy intellekt tizimlari o‘qituvchilarga eng yaxshi pedagogik metodlarni taqdim etishi, yangi yondashuvlarni o‘rganishlari va o‘z pedagogik uslublarini takomillashtirishlari uchun ko‘maklashadi.

Sun’iy intellekt texnologiyalari ta’lim samaradorligini oshirishda juda katta rol o‘ynaydi. O‘quvchilarni individual ravishda baholash va ularning o‘rganish jarayonini kuzatish orqali, o‘qituvchilar har bir o‘quvchining rivojlanishiga moslashtirilgan darslarni taqdim etishi mumkin. Bunda o‘quvchilarning zaif joylarini aniqlash va ularga qo‘shimcha yordam berish mumkin. Masalan, sun’iy intellekt yordamida o‘quvchilarni onlayn darslar, video darsliklar, interaktiv o‘yinlar va boshqa materiallar bilan ta’minlash orqali o‘quvchilarni faollashtirish va ularning o‘rganish motivatsiyasini oshirish mumkin. Bu o‘z navbatida ta’lim samaradorligini oshiradi va o‘quvchilarning o‘qish darajalarini yaxshilaydi.

Sun’iy intellekt texnologiyalarini ta’lim tizimiga integratsiya qilish uchun zarur bo‘lgan moliyaviy va infratuzilma talablarini inobatga olish zarur. SI tizimlarini muvaffaqiyatli joriy etish uchun yirik sarmoyalar kerak bo‘ladi, bu esa dastlabki bosqichlarda qimmatga tushishi mumkin. O‘qituvchilarni yangi texnologiyalarga o‘rgatish va o‘quvchilar uchun zarur bo‘lgan dasturiy ta'minot va texnik

jihozlarni taqdim etish uchun ham qo‘shimcha moliyaviy resurslar kerak. Biroq, uzoq muddatda bu investitsiyalar o‘zini oqlashi mumkin. Ta’lim samaradorligini oshirish, ta’lim jarayonlarini avtomatlashtirish va individual ta’lim imkoniyatlarini yaratish orqali, ta’lim tizimi o‘z xarajatlarini kamaytirishi va o‘quvchilarning natijalarini yaxshilashi mumkin. Sun’iy intellektning ta’limda qo‘llanilishi kelajakda yanada rivojlanishi kutilmoqda. Tizimlar yanada samarali, intuitiv va moslashuvchan bo‘lib, o‘quvchilarga yanada mukammal ta’lim taqdim etish imkoniyatini yaratadi. O‘qituvchilar va o‘quvchilarga yangi pedagogik va didaktik uslublar yordamida ta’lim berish imkoniyatlari kengayadi. O‘quvchilarning rivojlanishi haqidagi ma'lumotlar doimiy ravishda yangilanadi va bu o‘qituvchilarga har bir o‘quvchining ehtiyojlarini qondirishda yordam beradi. Boshqa tomondan, sun’iy intellektning rivojlanishi o‘qituvchilarga yangi pedagogik yondashuvlarni o‘rganish va ta’lim jarayonlarini yanada samarali tashkil etish imkonini yaratadi.

Xulosa

Sun’iy intellekt (SI) texnologiyalarining ta’lim tizimida qo‘llanilishi ta’lim jarayonlarini yanada samarali va individualizatsiya qilingan tarzda tashkil etishga katta imkoniyat yaratadi. Bu texnologiyalar o‘quvchilarga moslashtirilgan ta’lim materiallari taqdim etish, o‘qituvchilarning ish yukini kamaytirish va ta’lim samaradorligini oshirishda muhim rol o‘ynaydi. Shuningdek, sun’iy intellekt yordamida o‘quvchilarning o‘rganish tezligi va uslublariga mos ravishda individual yordam ko‘rsatish imkoniyati ta’lim sifatini oshiradi.

Biroq, sun’iy intellektni ta’lim tizimiga muvaffaqiyatli integratsiya qilish uchun dastlabki investitsiyalar, zarur infratuzilma va o‘qituvchilarning malakasini oshirish kerak. Bu jarayonlar katta moliyaviy sarmoyalarni talab qilishi mumkin, ammo uzoq muddatda bu investitsiyalar o‘zini oqlashiga va ta’lim tizimining samaradorligini yaxshilashga yordam berishiga ishonch bor.

Kelajakda, sun’iy intellektning rivojlanishi bilan ta’lim tizimi yanada innovatsion va samarali bo‘lishi kutilmoqda. O‘qituvchilar va o‘quvchilar uchun yangi pedagogik yondashuvlar va didaktik uslublar yordamida ta’limning sifatini oshirish, shuningdek, global ta’lim tizimini yaxshilashga katta hissa qo‘shadi. Shu bois, sun’iy intellekt texnologiyalarining ta’limga joriy etilishi kelajakda ta’lim sohasining rivojlanishida muhim ahamiyatga ega bo‘ladi.

Taklif va tavsiyalar

Zarur infratuzilmani yangilash va rivojlantirish: Ta’lim muassasalarida sun’iy intellekt texnologiyalarini muvaffaqiyatli joriy etish uchun zarur infratuzilma yaratilishi kerak. Bu, zamonaviy kompyuter texnikasi, yuqori tezlikdagi internet aloqalari, maxsus dasturiy ta'minotlar va serverlarni o‘z ichiga oladi. Shuningdek, ta’lim muassasalarida sun’iy intellekt tizimlari uchun moslashuvchan va ishonchli platformalar yaratish zarur.

O‘qituvchilarni malakasini oshirish: O‘qituvchilarni yangi texnologiyalarga tayyorlash va ularni sun’iy intellekt tizimlaridan samarali foydalanishga o‘rgatish muhim. Shu maqsadda maxsus treninglar, kurslar va o‘quv seminarlari tashkil etilishi kerak. Bu o‘qituvchilarning texnologiyalarga qiziqishini oshirib, ularning o‘quv jarayonida innovatsion yondashuvlarni qo‘llash imkoniyatini yaratadi.

Dastlabki sarmoyalar va moliyaviy qo‘llab-quvvatlash: Sun’iy intellekt texnologiyalarini ta’lim tizimiga integratsiya qilish katta moliyaviy sarmoyalarni talab qiladi. Shu bois, davlat va xususiy sektor o‘rtasida hamkorlikni kuchaytirish, ta’lim tizimiga innovatsion texnologiyalarni joriy etish uchun qo‘shimcha moliyaviy resurslarni ajratish zarur. Bunda xususiy sektorning sarmoyalarini jalb qilish ham muhim rol o‘ynaydi.

Pedagogik metodlarni takomillashtirish: Sun’iy intellektning ta’limda qo‘llanilishining muvaffaqiyati ko‘p jihatdan pedagogik metodlarga bog‘liq. Shu sababli, ta’lim muassasalari pedagogik yondashuvlarni takomillashtirish, yangi metodlarni ishlab chiqish va ularni sun’iy intellekt texnologiyalari bilan uyg‘unlashtirishga e’tibor qaratishlari kerak. Bu o‘quvchilarning shaxsiy ehtiyojlariga mos ta’lim olish imkoniyatini yaratadi.

Xavfsizlik va ma'lumotlarni himoya qilish: Sun’iy intellekt texnologiyalaridan ta’lim tizimida foydalanishda ma'lumotlar xavfsizligi va maxfiylikni ta’minlash zarur. O‘quvchilar va o‘qituvchilarning shaxsiy ma'lumotlarini himoya qilish uchun zamonaviy xavfsizlik tizimlarini joriy etish va ularni doimiy ravishda yangilab borish lozim.

Foydalanilgan adabiyotlar ro'yxati

1. Gartner, Inc. (2023). "Artificial Intelligence in Education: Benefits and Challenges." *Gartner Research*. Retrieved from www.gartner.com.
2. Brynjolfsson, E., & McAfee, A. (2014). *The Second Machine Age: Work, Progress, and Prosperity in a Time of Brilliant Technologies*. W.W. Norton & Company.
3. Siemens, G. (2019). "Artificial Intelligence in Education: Challenges and Opportunities." *Journal of Educational Technology & Society, 22*(1), 1-12.
4. Abdurashidov, A., & Turdaliyeva, N. (2023). DEVELOPMENT OF MANUAL WORK IN PRE-SCHOOL EDUCATION. Science and innovation, 2(B2), 282-286.
5. qizi Turdaliyeva, N. A. (2024). MAKTABGACHA YOSHDAGI BOLALAR IJODIY QOBILIYATLARNI RIVOJLANTIRISHNING NAZARIY ASOSLARI. GOLDEN BRAIN, 2(7), 48-52.
6. Soliyev Ilhomjon Sobirjonovich, & Boymirzayeva Shakhnoza Olimjon kizi. (2023). Systemic Organization of Professional Competence, Creativity and Innovative Activity of A Future Kindergartener. Journal of Pedagogical Inventions and Practices, 19, 108–112. Retrieved fromhttps://zienjournals.com/index.php/jpip/article/view/3709
7. Soliyev, I., & Boymirzayeva, S. (2023). MAKTABGACHA TA'LIM TIZIMIDA INNOVATSION YONDASHUVNING USLUBIY ASOSLARI VA PEDAGOGIK SHART-SHAROITLARI. Наука и инновация, 1(6), 128-129.
8. qizi Boymirzayeva, S. O. (2024). MAKTABGACHA TA'LIM TASHKILOTIDA BO 'LAJAK TARBIYACHINING KREATIVLIGINI RIVOJLANTIRISH. GOLDEN BRAIN, 2(7), 41-47.
9. Shahnoza, B. (2024). MAKTABGACHA TA'LIM TIZIMIDA INNOVATSION YONDASHUVNING USLUBIY ASOSLARI VA PEDAGOGIK SHART-SHAROITLARI. University Research Base, 164-167
10. O'rinova, F., & Boymirzayeva, S. (2025). IDENTIFICATION OF INTELLECTUAL ABILITIES OF STUDENTS IN PRESCHOOL EDUCATIONAL ORGANIZATIONS AND THEIR TARGETED DEVELOPMENT. International Journal of Artificial Intelligence, 1(2), 1604-1609.
11. Boymirzayeva, S., & Mirzaaxmedova, X. (2024). MAKTABGACHA TA'LIM TASHKILOTI PEDAGOGLARINING HAMKORLIKDAGI ISH FAOLIYATINI NAZARIY ASOSLARI. Nordic_Press, 5(0005).

CHEKLANGAN HISOBLASH RESURSLARIGA EGA QURILMALARDA OB'EKTLARNI TANIB OLISH UCHUN QO'LLANILUVCHI NEYRON TARMOQ MODELLARI TAXLILI

Turgunov Bekzod Abdivositovich
University of Management and Future technologies
Email: bekzodmirzoturgunov@gmail.com

Annotatsiya: Ushbu maqolada aqilli tizimlarda, o'rnatilgan tizimlarda keng qo'llaniluvchi cheklangan xisoblash resurslariga ega qurilmalarda obyektlarni ta'nib olish maqsadida qo'llanilishi mumkin bo'lgan neyron tarmoq modellarini taxlili amalga oshirilgan. Xususan bunday modellarni Jetson Nano**,** Raspberry Pi**,** ESP32 kabi bir platali kompyuterlarda qo'llash imkoniyatlari taxlili amalga oshirilgan. Bunday bir platali kompyuterlarning hisoblash resusrsiga bog'liq bo'lgan modellarning ishlash tezligi va aniqligi kabi parametlariga asosan, bunday qurilmalarda qo'llash eng maqbul bo'lgan mdellar taklifi va qo'llanilishi bo'yicha tavsiyalar beriladi. Ishlab chiqilgan dataset asosida tanlab olingan bir necha modellarni qayta o'qitish natijasida olingan modellar o'zaro salishtiriladi va ebg maqbulini tavsiya etiladi.

Kalit so'zlar: Jetson Nano**,** Raspberry Pi**,** ESP32, YOLOv5n, YOLOv6n, YOLOv8n, MobileNet + SSD.

Cheklangan hisoblash resurslariga ega qurilmalarda ob'ektni tanib olish maqsadida qo’llaniluvchi neyron tarmoq modellarini taxlil qilish ayniqsa o’rnatilgan tizimlar, IoT, mobil qurilmalar va yagona platali kompyuterlar (masalan, Jetson Nano, Raspberry Pi, ESP32 Camera va boshqalar) kabi qurilmalarda bu modellarning qo’llanilishi samaradorligini oldindan baxolash uchun muximdir.

Ma’lumki bugungi kunda ob’yektlarni tanib olish (object detection) maqsadida neyron tarmoq modellari juda ko‘plab sohalarda keng qo‘llanilmoqda. Xususan, quyidagi sohalarda bunday modellardan keng foydalainmoqda:

Xavfsizlik maqsadida video kuzatuv tizimlarida. Bunday holatlarda ob’yektni tanib olish modellaridan yuzni tanish, shubhali harakatlarni aniqlash, ruxsatsiz kirishni oldini olish, transport vositalarini kuzatish (masalan, avtomobil raqamini aniqlash) maqsadida foydalaniladi.

Avtomatlashtirilgan transport tizimlarida. Avtonom avtomobillarda munday modellar piyodalarni, boshqa mashinalarni, svetoforlarni tanish, yo‘l belgilarini aniqlash mqsadida qo’lllaniladi.

Shuningdek bunday neyron tarmoq modellaridan tibbiyot tizimida ham keng foydalanilmoqda. Bunday modellar yordamida tibbiy tasvirlar asosida diagnostika qilish orqali xatarli o‘simtalarni (masalan, o‘pka saratoni) aniqlash, MRT, rentgen va KT tasvirlarini tahlil qilish orqali tibbiy xizmat samaradorligini oshirishga qo’llaniladi

Sanoat va ishlab chiqarish ham bunday neyron tarmoq modellaridan keng foydalaniladi. Xususan, ishlab chiqarilayotgam maxsulot sifatini daimiy nazorat qilish, ishlab chiqarish liniyasidagi obyektlarni saralash mqsadida qo’llaniladi.

Ob’yektlarni tanib olishda qo’llaniluvchi neyron tarmoq modellaridan hatto qishloq xo‘jaligi sohasida ham keng qo’llanilishi kuzatilmoqda. Ularning imkoniyatidan foydalanib ekish maydonlarida zararkunandalarni aniqlash, hosilni baholash va monitoring qilish, hayvonlarni kuzatish va sog‘lig‘ini nazorat qilish jarayonlari avtomatlashtirilmoqda.

Ob’yektlarni ta’nib olishda qo’llaniluvchi neyron tarmoq modellarining ko’plab turlai mavjud va ular ob’yektlarni tanib olishdagi aniqligi va tezkorligi, qo’llanilishda kam resurs talab qilishi bilan ham o’zaro farq qiladi. Neyron tarmoq modellari asosida ishlovchi qurilmalarda bunday modellarning ishlash samaradorligi albatta ushbu qurilmaning hisoblash resurslari (ya’ni, markaziy protsessori chastotasi, operativ xotira o’lchami, video xotira o’lchami kabi) ga bog’liq bo’ladi. Shuningdek boshqa tomondan qaralganda qurilmaning hisoblash resurslarining qanchalik yuqori bo’lishi qurilmaning geomterik o’lchamlarini va elektr energiyasi iste’moli darajasini ortishiga sabab bo’ladi.

Dekam yuqorida takidlab o’tilgan holatlarni xisobga olgan xolda takidlash mumkinki, shaxsiy foydalanish uchun mo’ljallangan, ob’yektlarni tanib olishni amalga oshiruvchi neyron tarmoq modellari asosida ishlovchi kichik gobaritli, kam quvvat sarfiga ega qurilmalarni ishlab chiqishda qo’llaniladiga neyron tarmoq modelini to’g’ri tanlash ishlab chiqiluvchi qurilmaning, unga yuklatilgan vazifani tezkor, aniq va kam elektr energiyasi sarfi bilan bajarib berish xususiyatiga ega bo’lishini ta’minlaydi.

Xususan bugungi kunda ko’rish tizimida nuqsoni mavjud insonlarni mustaqil turmush tarzini kechirishlarida ularga atrof muxitni anglashlarida yordamchi bo’luvchi, atrofdagi ob’yektlarni ta’nib olishda ko’makchi bo’luvchi gadjet qurilmalarni ishlab chiqishda bunday kam hisoblash resursi talab qiluvchi, tezkor aniq natija beruvchi modellardan foydalanish juda muximdir. Sababi bunday qurilmalarni ishlab chiqishda imkon qadan hisoblash resursi yuqori bo’lmagan platformalardan (masalan, Jetson Nano, Raspberry Pi, ESP32 kabi yagona platali mikrokompyuterlardan) foydalanish natijaviy qurilma portotivlik, ishlash tezkorligi va aniqligi darajasini va shuningdek avtonomlik darajasini yuqori bo’lishiga sabab bo’aldi.

Bugungi kunda respublikamida istiqomat qilayotgan 70 mingga yaqin ko’rish tizimida nuqsoni mavjud insonlar mavjud. Ularning kundalik turmush tarzida foydalanuvchi buyum va ob’yektlarini qidirib topishga imkon beruvchi qurilmani shlab chiqishda mahalliylik xususiyatiga ega bo’lgan predmetlani aniq va tezkor tanib olish imkoniga ega neyron tarmoq modelini ishlab chiqish zarurati paydo bo’ladi.

Yuqorida takidlab o’tilganidek hisoblash resursi cheklangan qurilmalarda qo’llanilganda ishlash samaradorligi yuqori bo’ladigan uy ro’zg’or buyumlarini tanib olishga ixtisoslashgan neyron tarmoq modelini yaratish lozim. Buning uchun avvalo bugungi kundagi ob’yektlarni tanib olishga mo’ljallangan

pre-trained modellarni ishlash tezligi, ob’yektlarni aniqlash aniqlili va ishonchliligini tavsiflovchi xususiyatlarini taxlil qilish va ushbu xususiyatlariga asosan modellarni solishtirish lozim.

Quyida bugungi kunda ob’uektlani tanib olish uchun real vaqt rejimida ishlashga mo’ljallangan mavjud pre-trained va ularning xususiyatlari keltirilgan [3-5]:

YOLOv5s yoki YOLOv5n versiyalari.

SSD-MobileNet - bu SSD (Single Shot Detektor) obyektlarni tanib olish algoritmining **MobileNet** neyron tarmog’i bilan konvergensiyasi natijasida xosil bo’lgan pre-trained modeldir.

Efficient Det-Lite - EfficientDet моделлари oilasining vakili bo’lib Efficient Det-Lite modeli mobil va cheklangan xisoblash resursiga ega qurilmalarda samarali ishlaydi.

Faster R-CNN – bu model R-CNN (Region-based Convolutional Neural Network) моделининг эволюцияси бўлиб, bu modelda ishlov berish tezligi juda yuqori yuqori.

Yuqorida ko’rib o’tilgan ob’yektlarni tanib olishda qo’llaniluvchi modellarni ishlash samaradorligini belgilovchi va qo’llanish qurilmasidagi xisoblash resurlariga bo’lgan talablarga asoslanib solishtirganda quyidagi taxlil natijalari xosil bo’ladi (1-jadval).

1- jadval. Obyektlarni tanib olish modellari xususiyatlari

Модел	**Xisoblash resursi cheklangan qurilmalarda ishlash imkoniyati**	**Ishlash aniqligi**	**Tasvirlarga ishlov berish tezligi**
YOLOv5n (Nano)	Yuqori darajada	Яхши	Juda yuqori
YOLOv5s (Small)	Yuqori darajada	Juda Яхши	Juda yuqori
YOLOv7-tiny	Yuqori darajada	Juda Яхши	Yuqori
SSD-MobileNet	Yuqori darajada	Ўртача	Juda yuqori
EfficientDet-Lite	O’rta darajada	Яхши	O’rtacha
Faster R-CNN	Samaradorlik past	Юқори	Past

Demak yuqoridagi taxlillar natijasiga ko’ra takidlash mumkinki ob’uektlani tanib olish uchun real vaqt rejimida ishlashga mo’ljallangan modellar ichida Yolov5s va Yolov5n modellari nafaqat Yolo modellar oyilasi ichida va balki boshqa shu maqsadda qo’llaniluivchi modellarga nisbatan real vaqt rejimida xisoblash resurslari cheklangan qurilmalarda qo’llash uchun eng optimal variantlar xisoblanadi.

Endilikda biz Yolov5s va Yolov5n va pre-trained modellarini maxsus dataset yordamida transfer qilish orqali ixtisoslashgan modellar yaratamiz.

Buning uchun 20 xil uy-roz’g’or buyumlarini o’z ichiga olgan 2000 ta rasmda iborat dataset yaratdib oldik. Demak bu datasetda 20 ta klass xosil bo’ladi.

Ushbu dataset yordamida yuqorida eng maqbul pre-trained modellar sifatida tanlab olingan modellar Yolov5s va Yolov5n ni qayta o’qitamiz va o’qitish natijasida olingan modellarni turli baxolash metrikalari orqali baxolash natijalarini solishtiramiz.

Qayta o'qitish natijasida olingan har ikki modelimizning baxolash ko'rsatkichlarini 2-jadvalda keltirildi. Jadvalda qayta o'qitish natijasida olgan har ikki modelimizning klasslar bo'yicha umumiy olingan baxolash metrikalari qiymatlari aks ettirilgan.

2- jadval. Fine-tuned modellar parametr va metrika qiymatlari

Model	**P (Precision)**	**R (Recall)**	**mAP@0.5**	**mAP@0.5-0.95**	**F1-score**
Yolov5n asosidagi model	0.816	0.756	0.883	0.667	0.7849
Yolov5s asosidagi model	0.848	0.91	0.893	0.697	0.8779

Yuqoridagi 2-jadvlada keltirilgan ma'lumotlarga asoslanib aytish mumkinki Yolov5s asosidagi model ob'yektlarni tanib olish aniqligini tavsiflovchi asosiy metrikalar bo'yicha yuqori ko'rsatkichlarga ega.

Qayta o'qitish natijasida olingan har ikki modelimizning baxolash ko'rsatkichlari, xususan modellarimizni ishonchliligini baxolash imkoniyatini beruvchi F1-Confidence Curve xarakteristikalari quyidagi ko'rinishga ega (1-rasm).



(a) (b)

1-rasm. Modelning yuqori ishonchlilik bilan aniqlash ko'rsatkichlarida F1-score ning qiymati qanday bo'lishini aks ettiruvchi F1-Confidence Curve egri chiziq xarakteristikasi.

Yolov5n ni qayta o'qitish natijasida olingan model model uchun –(a), Yolov5s ni qayta o'qitish natijasida olingan model model uchun –(b).

Xulosa. Yuqorida taqdim etilgan ma'lumotlar asosida olingan qayta o'qitish natijasida yaratgan ikki modellarimizni o'zaro solishtirma taxlilini amalga oshirish mumkin. 2-jadvalda keltirilgan ma'lumotlarga ko'ra takidlash mumkinki Yolov5s pre-trained modelini qayta o'qitish natijasida olingan modelimiz Yolov5n pre-trained modelini qayta o'qitish natijasida olingan modelimizga nisbatan deyarli barcha metrikalar bo'yicha yuqori ko'rsatkichlarga ega. Precision, Recall, mAP@0.5-0.95 va F1-score kabi metrikalar qiymatlari buni tasdiqlaydi. Modelning ob'yektlarni tanib olish aniqligi ham Yolov5s pre-trained modelini qayta o'qitish natijasida olingan modelimiz uchun yoqori ko'rsatkichlarga ega.

Demak hisoblash resursi cheklangan qurilmalarda, xususan Jetson Nano**,** Raspberry Pi**,** ESP32 kabi yagona platali mikrokompyuter qurilmalarida Yolo5s modelini qayta o'qitish natijasida olingan modellardan foydalanish, natijaviy qurilma tominidan kerakli ob'yektlarni tezkor va yuqori aniqlikda aniqlash imkoniyatiga ega bo'lishini ta'minlyadi. Bunday modellar qurilma hisoblash resursiga tushiradigan yuklamasi kamligi sababli ham qurilmaning elektr energiya sarfi ham yuqori bo'lmaydi. Bu qurilmaning uzoq muddat qayta zaryadlashsiz ishlash imkoniyatini oshiradi.

Foydalanilgan adabiyotlar

1. Smart Homes for Disabled People: A Review Study. Masoud M. Hassan, Cairo University, Asaad Khaleel. November 2022. Science Journal of University of Zakho 10(4):213-221.

2. Progress Mali. A Smart Home Appliance Control System for Physically Disabled People. March 2019. Conference: 2019 Conference on Information Communications Technology and Society (ICTAS).
3. Swathi, K., Vamsi, B., Rao, N.T. (2021). A Deep Learning-Based Object Detection System for Blind People. In: Saha, S.K., Pang, P.S., Bhattacharyya, D. (eds) Smart Technologies in Data Science and Communication. Lecture Notes in Networks and Systems, vol 210. Springer, Singapore. https://doi.org/10.1007/978-981-16-1773-7_18
4. A CNN-Based Wearable Assistive System for Visually Impaired People Walking Outdoors. I-Hsuan Hsieh, Hsiao-Chu Cheng, Hao-Hsiang Ke, Hsiang-Chieh Chen and Wen-June Wang Journal of Applied Sciences, Volume 11, Issue 21. *Appl. Sci.* 2021, *11*(21), 10026; https://doi.org/10.3390/app112110026

TA'LIMNI RAQAMLASHTIRISH: PLATFORMALAR, INNOVATSION TEXNOLOGIYALAR VA SUN'IY INTELLEKT.

Umid Ismatovich Xatamov
xatamoff@gmail.com
Buxoro soliq texnikumi yetakchi o'qituvchisi

Annotatsiya. Maqola ta'limni raqamlashtirish jarayonini tahlil qiladi, bu jarayon an'anaviy o'quv usullarini raqamli texnologiyalar bilan birlashtirib, ta'lim sifatini oshirishga qaratilgan. COVID-19 pandemiyasi davomida raqamli platformalarga bo'lgan ehtiyojning oshishi ta'lim tizimlarining moslashuvchanligini sinovdan o'tkazdi. Maqolada raqamli platformalar, innovatsion texnologiyalar va sun'iy intellekt kabi vositalar ta'lim jarayonini qanday o'zgartirayotganligi va ularning samaradorligi ko'rib chiqiladi.

Kalit so'zlar. ta'limni raqamlashtirish, raqamli texnologiyalar, o'quv jarayonlari, pandemiya, raqamli platformalar, innovatsion texnologiyalar, sun'iy intellekt, muammolar, yechimlar, raqamli savodxonlik, internetga ulanish, ta'lim sifati.

Ta'limni raqamlashtirish tushunchasi va uning umumiy masalalari.

Zamonaviy dunyoda ta'lim tizimi o'zining eng katta transformatsiya davrlaridan birini boshdan kechirmoqda. Ta'limni raqamlashtirish – bu ta'lim jarayonlarini raqamli texnologiyalar yordamida takomillashtirish va samaradorligini oshirishni anglatuvchi keng ko'lamli tushuncha. Bu jarayon an'anaviy o'quv usullarini raqamli platformalar, innovatsion texnologiyalar va sun'iy intellekt (SI) kabi vositalar bilan birlashtirish orqali ta'limning yangi imkoniyatlarini ochmoqda. Raqamlashtirish nafaqat o'quv jarayonini qulaylashtirdi, balki global miqyosda bilimlarga teng huquqlilikni ta'minlash, shaxsiy yondashuvni rivojlantirish va ta'lim sifatini oshirish kabi istiqbolli yo'nalishlarni ham kengaytirdi.

So'nggi o'n yillikda ta'limni raqamlashtirishning ahamiyati keskin oshdi. Xususan, 2020-yilda COVID-19 pandemiyasi bu jarayonni tezlashtirdi. UNESCO ma'lumotlariga ko'ra, pandemiya davrida dunyodagi maktablarning 94% vaqtincha yopilib, 1,6 milliarddan ortiq o'quvchi masofaviy ta'limga o'tgan. Bu holat raqamli platformalarga bo'lgan ehtiyojni oshirdi va ta'lim tizimlarining moslashuvchanligini sinovdan o'tkazdi. Masalan, "Zoom" va "Microsoft Teams" kabi vositalar qisqa muddat ichida millionlab foydalanuvchilarni qamrab oldi, bu esa raqamli infratuzilmaning muhimligini ko'rsatdi.

Biroq, raqamlashtirish jarayoni bir qator muammolarni ham keltirib chiqardi. Internetga ulanish imkoniyati cheklangan hududlar, raqamli savodxonlikning past darajasi, moliyaviy resurslarning yetishmasligi va ta'lim sifatini ta'minlash masalalari global miqyosda dolzarb bo'lib qoldi. Masalan, Jahon Banki hisobotlariga ko'ra, rivojlanayotgan mamlakatlarda o'quvchilarning 60% dan ortig'i pandemiya davrida onlayn ta'limga to'liq ulana olmagan.

Ta'limni raqamlashtirish usullari, muammolar va yechimlar.

1. Raqamli platformalar: Raqamli platformalar ta'limni raqamlashtirishning asosiy poydevori hisoblanadi. Bu platformalar o'quv jarayonini masofadan boshqarish, o'quv materiallarini tarqatish va

real vaqt rejimida muloqot qilish imkonini beradi. Masalan, “Google Classroom” o‘qituvchilarga vazifalarni tarqatish va baholash jarayonini avtomatlashtirishga yordam bersa, “Moodle” kabi platformalar elektron kurslar yaratishda keng qo‘llanilmoqda. Shu bilan birga, “Coursera” va “edX” kabi MOOC (Massive Open Online Courses) platformalari yordamida mustaqil ta’lim va kasbiy rivojlanish uchun millionlab interaktiv elktron kurslar taklif qilinmoqda. Statistikaga ko‘ra, 2023-yilda Coursera’da ro‘yxatdan o‘tgan foydalanuvchilar soni 100 milliondan oshgan, bu esa raqamli ta’limning ommalashganini ko‘rsatadi.

Ammo bu platformalar imkoniyatlaridan foydalanish bir qator muammolar bilan bog‘liq. Birinchidan, internetga ulanish imkoni cheklangan hududlarda yashovchi o‘quvchilar ushbu imkoniyatlardan foydalana olmayapti. Masalan, Afrika mamlakatlarida aholining faqat 28% internetga ulangan. Ikkinchidan, texnik qurilmalar (noutbuklar, planshetlar) va dasturiy ta’minotga ega bo‘lmagan oilalar raqamli ta’limdan chetda qolmoqda. Uchinchidan, platformalarning interfeysi va funksionalligi raqamli savodxonligi talab darajasida bo‘lmagan o‘qituvchi va o‘quvchilar uchun qiyinchilik tug‘dirishi aniq.

Yechimlar: Ushbu muammolarni hal qilish uchun davlat turli subsidiyalar orqali hududiy infratuzilmani yaxshilashga va rivojlantirishga harakat qilishi kerak. Masalan, Hindistonda “Digital India” dasturi doirasida qishloq joylarda internet infratuzilmasi rivojlantirilmoqda. Shu bilan birga, internetga ulanmagan hududlarda ta’limni davom ettirishga yordam beradigan, oflayn rejimda ishlay oladigan ilovalar (masalan, “Calibre”) kabi dasturlar ishlab chiqilgan. Bundan tashqari, o‘qituvchilar va o‘quvchilarni raqamli vositalardan foydalanishga o‘rgatish uchun maxsus treninglar tashkil qilingan.

2. Innovatsion texnologiyalar: Innovatsion texnologiyalar ta’lim jarayonini yanada qiziqarli va samarali qilishda katta rol o‘ynamoqda. Virtual reallik (VR) va kengaytirilgan reallik (AR) o‘quvchilarga real tajribaga yaqin sharoitlarda bilim olish imkonini beradi. Masalan, “Labster” platformasi talabalarga virtual laboratoriyalarda kimyoviy tajribalar o‘tkazish imkonini taqdim etadi, bu esa xavfli moddalar bilan ishlash zaruratini olib tashlaydi. 2022-yilda o‘tkazilgan tadqiqot shuni ko‘rsatdiki, VR yordamida o‘qitilgan talabalar an’anaviy usulda o‘qiganlarga qaraganda bilimlarni 30% yaxshi o‘zlashtirgan. Shu bilan birga, AR texnologiyasi tarix yoki biologiya darslarida 3D modellar orqali mavzuni yanada ko‘rgazmali va tushunarli qilmoqda.

Bundan tashqari, “Narsalar interneti” (“Internet of Things”) va aqlli sinf texnologiyalari ham ta’limda o‘z o‘rnini topmoqda. Masalan, aqlli doskalar va sensorli qurilmalar o‘qituvchilarga darsni interaktiv tarzda o‘tishga yordam beradi. Yaponiyada ba’zi maktablarda IoT yordamida o‘quvchilarning darsdagi faolligi monitoring qilinib, o‘qituvchilarga real vaqtda ma’lumot taqdim etilmoqda.

Muammolar: Innovatsion texnologiyalarni joriy qilish katta xarajatlarni talab qiladi. Masalan, VR uskunalari va dasturiy ta’minotni sotib olish ko‘pgina maktablar uchun qimmatga tushadi. Bundan tashqari, o‘qituvchilarning ushbu texnologiyalardan foydalanish bo‘yicha malakasi yetarli bo‘lmasligi mumkin. VR va AR texnologiyalarning haddan tashqari ishlatilishi o‘quvchilarda salomatlik muammolariga olib kelishi mumkin.

Yechimlar: Ta’limni raqamlashtirish bilan bog‘liq dastlabki bosqichlarni moliyalashtirishda biznes vakillarini ko‘proq jalb qilish muhim qadam bo‘lishi mumkin. Masalan, “Samsung” va “Google” kabi kompaniyalar ta’lim loyihalariga sarmoya kiritib kelmoqdalar. O‘qituvchilarni qayta tayyorlash yoki malakasini oshirish dasturlari ham muhim: 2023-yilda Yevropa Ittifoqida 50 mingdan ortiq o‘qituvchi VR va AR bo‘yicha maxsus kurslardan o‘tgan. O‘quvchilarga raqamli gigiena bo‘yicha maxsus darslar o‘tilishi tavsiya etiladi.

3. Sun’iy intellekt: Sun’iy intellekt (SI) ta’limni shaxsiylashtirish va avtomatlashtirishni ta’minlashda inqilobiy o‘zgarishlarni keltirib chiqarmoqda. SI asosidagi vositalar o‘quvchilarning individualligiga mos dars rejalarini tuzishga yordam beradi. Masalan, “Duolingo” til o‘rganish ilovasi har bir foydalanuvchining o‘zlashtirish natijalariga qarab mashqlarni moslashtiradi. Shu bilan birga, “Socratic” yoki “ChatGPT” kabi SI chat-botlari o‘quvchilarga savollarga tezkor javob olishda yordam beradi. 2021-yilda o‘tkazilgan tadqiqot shuni ko‘rsatdiki, SI yordamida ta’lim olgan o‘quvchilarning bilim darajasi o‘rtacha 15-20% ga oshgan.

SI nafaqat o‘quvchilar, balki o‘qituvchilar uchun ham foydalidir. Masalan, “Gradescope” platformasi SI yordamida imtihonlarni avtomatik baholash imkoniyati o‘qituvchilarning vaqtini tejaydi.

Bundan tashqari, SI o'quvchilarning o'zlashtirish darajasini tahlil qilib, zaif tomonlarini aniqlashga yordam beradi, bu o'z navbatida o'qituvchilarga dars rejalarini moslashtirish imkonini beradi.

Muammolar: Sun'iy intellektning haddan tashqari ishlatilishi ijodiy fikrlashni cheklashi mumkin, chunki o'quvchilar tayyor javoblarga ko'proq tayanishadi. Bundan tashqari, SI tizimlarida ishlatiladigan shaxsiy ma'lumotlar maxfiyligi bilan bog'liq xavotirlar mavjud. Qolaversa SI vositalarining noto'g'ri algoritmlarga asoslanib noto'g'ri ma'lumotlar taqdim etish ehtimoli yuqoriligicha saqlanib kelinmoqda.

Yechimlar: Sun'iy intellekt imkoniyatlarini faqat yordamchi vosita sifatida qo'llash va o'quvchilarni mustaqil fikrlashga undash zarur. Shaxsga doir ma'lumotlar daxlsizligini ta'minlash uchun qonunchilikni kuchaytirish va SI algoritmlarini muntazam tekshirish tavsiya etiladi. Masalan, Yevropa Ittifoqining GDPR qoidalari shaxsiy ma'lumotlarni himoya qilishda muhim qadam bo'ldi.

Ta'limni raqamlashtirishning afzalliklari va istiqbollari

Ta'limni raqamlashtirishning asosiy afzalliklari - bilimlardan teng foydalanish, o'quv jarayonining moslashuvchanligi va sifatni oshirishdir. Raqamli platformalar tufayli o'quvchilar dunyoning istalgan nuqtasidan malakali o'qituvchilarning darslarini olish imkoniyatiga ega bo'ldi. Innovatsion texnologiyalar va SI esa ta'limni yanada qiziqarli va samarali qildi. Statistikaga ko'ra, 2030-yilga kelib global raqamli ta'lim bozori 500 milliard AQSh dollaridan oshishi kutilmoqda, bu esa ushbu sohaning jadal rivojlanishidan dalolat beradi.

Kelajakda ta'limni raqamlashtirish yanada kengayadi. 5G tarmoqlari tezkor va barqaror internet xizmatlarini ta'minlaydi, blockcheyn texnologiyalari diplomlar va sertifikatlarni tasdiqlashda shaffoflikni oshiradi. Sun'iy intellektning yanada takomillashgan shakllari o'quv jarayonini avtonom tarzda boshqarilishiga olib kelishi mumkin. Shu bilan birga, muvaffaqiyatga erishish uchun hukumat, ta'lim muassasalari va texnologik kompaniyalar o'zaro hamkorlikni kuchaytirishi zarur.

Foydalanilgan adabiyotlar.

1. P.Reddy, B.Sharma, K.Chaudhary "Digital Literacy: A Review of Literature", International Journal of Technoethics, January 2020, 11(2):65-94.
2. B.Taylor "The Future Of eLearning: How Technology Is Transforming Education", eLearning Industry, January 12, 2023.
3. Meinck S., Fraillon J., Strietholt R. "The impact of the COVID-19 pandemic on education: international evidence from the Responses to Educational Disruption Survey (REDS)". ISBN:978-92-3-100502-2. 2022 y.
4. S.Oluyinka, A.N.Endozo "Barriers to E-Learning in Developing Countries: A Comparative Study", Journal of Theoretical and Applied Information Technology, may 2019. vol.97. no 9.
5. Abdullayeva B. "Raqamli ta'lim muammolari, yechim va istiqbollar", VI Traditional International Scientific and Practical Conference "Professional Development of the Personality of the XXI Century in the System of Continuous Education: Problems and Ways of Their Solution" December 3-4, 2024 371.

BILIMLARNI IFODALASH: MODELLAR VA TEXNOLOGIYALAR

Andijon davlat texnika instituti
"Avtomobilsozlik va transport" fakulteti
"Transport logistikasi" yo'nalishi
3 – bosqich K – 47 – 22 guruh talabasi
Usmonov Azizbek XXX
E-mail: sr4usmanov9717@gmail.com

Annotatsiya. Ushbu maqolada Yangi O'zbekistonda bilimlarni ifodalash ta'lim tizimining yoshlar bandligini ta'minlashdagi roli va istiqbollari tahlil qilinadi. Bilimlarni ifodalash ta'lim tizimi talabalarga nazariy bilimlarni amaliy tajriba bilan birgalikda o'rgatish, ularni ish bozoriga tayyorlash, yangi ish o'rinlari yaratish va ish beruvchilar bilan aloqalarni mustahkamlash orqali yoshlarning bandligini ta'minlashga katta hissa qo'shadi. Maqolada O'zbekiston uchun xalqaro tajribalarning ahamiyati,

bilimlarni ifodalash tizimini muvaffaqiyatli joriy etish yo‘llari va uning mamlakat iqtisodiyoti va yoshlar ta’limidagi istiqbollari ko‘rib chiqilgan.

Kalit so'zlar: Bilimlarni ifodalash tizimi, yoshlar bandligi, ta'lim islohotlari, ishga joylashish, amaliy tajriba, malakali kadrlar, ishlab chiqarish sektori, xalqaro tajriba, O‘zbekiston, iqtisodiy rivojlanish.

Yoshlar bandligi – har bir jamiyatning rivojlanishidagi eng muhim omil. Yangi O‘zbekistonda yoshlar bandligini ta’minlashga alohida e’tibor qaratilmoqda. Xususan, ta'lim tizimidagi islohotlar, yoshlarni ish bilan ta’minlashda hal qiluvchi rol o‘ynaydi[1]. Bugungi kunda o‘zbek ta’lim tizimida amalga oshirilayotgan eng muhim islohotlardan biri – dual ta'lim tizimining joriy etilishidir. Ushbu tizim, talabalarga nazariy bilimlarni amaliyot bilan birgalikda o‘rgatish orqali nafaqat ularning kasb-hunar ko‘nikmalarini rivojlantiradi, balki ularni ishga joylashishda ham katta yordam beradi. Dual ta'lim tizimi yoshlarning ish bozori talablariga moslashishiga yordam beradi va shu bilan birga, mamlakatning iqtisodiy rivojlanishiga hissa qo‘shadi.

O‘zbekistonda dual ta'lim tizimi 2017-yilda O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining **"O‘zbekiston Respublikasida kasb-hunar ta'limini rivojlantirishni takomillashtirish chora-tadbirlari to‘g‘risida"gi** qaroriga asosan joriy etila boshlandi[2].

Ushbu hujjat, O‘zbekiston ta'lim tizimida kasb-hunar ta'limining sifatini oshirish va ishchi kuchi bozorining talablariga javob beradigan malakali kadrlarni tayyorlash uchun dual ta'lim tizimini joriy qilishni ko‘zda tutgan. Qaror dual ta'lim tizimi orqali yoshlarning amaliy tajriba orttirishlarini, ishlab chiqarish jarayonlarida qatnashishlarini va ish bozorida talabga javob beradigan mutaxassislar sifatida tayyorlanishlarini ta'minlashga qaratilgan.

Bilimlarni baholash – o‘quvchi talabaga ta’limni o‘z yo‘nalishiga mos tashkilotda mehnat qilish bilan birga olib borish imkoniyatini beruvchi tizimdir.

Bunda yoshlar 2-3 kun ta’lim muassasasida nazariy bilimlarni va 3-4 kun korxona va tashkilotlarda haqiqiy ish jarayonlarida amaliy ko‘nikmalarni egallaydi. Dual ta’lim shaklida tahsil olayotgan o‘quvchi/talaba korxona va tashkilotlarda ishga qabul qilinganda ularga korxona tomonidan ustoz biriktiriladi va oylik maoshi to‘lanadi.

Bilimlarni baholash tizimi – bu ta'lim jarayonida talaba nazariy bilimlar bilan birga, ishlab chiqarish yoki xizmat ko‘rsatish sohasida amaliy tajriba ham orttiradi[3]. Ushbu tizimning asosiy maqsadi, talabalarni nafaqat o‘qitish, balki ularni ish joylarida o‘z bilim va ko‘nikmalarini qo‘llay olishga tayyorlashdir. Dual ta'limda talaba bir vaqtning o‘zida ta'lim muassasasi va ishlab chiqarish korxonalari bilan hamkorlik qiladi. Bu tizim o‘quvchilarga amaliy tajriba orttirish, real ish sharoitlarida ishlashni o‘rganish, shuningdek, ish bozorida raqobatbardosh bo‘lish uchun zarur bo‘lgan malakalarni egallash imkonini beradi. Dual ta'lim tizimi, o‘quvchilarga yuqori darajadagi malakali kadrlar sifatida tayyorlanishlari uchun zarur bo‘lgan barcha sharoitlarni yaratadi.

Bilimlarni baholashni tashkil etish O’zbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasining 2021 yil 29 martdagi “Professional ta’lim tizimida dual ta’limni tashkil etish chora-tadbirlari” to’g’risidagi 163-sonli qarori bilan tasdiqlangan Professional ta’lim tizimida dual ta’limni tashkil etish tartibi to’g’risidagi nizom asosida tartibga solinadi.

Bilimlarni baholash va uning metodlari, texnologiyalari tizimi, yoshlarni o‘qish bilan birga, amaliy tajriba orttirish imkoniyatini yaratadi[4]. Bu esa ularning ishga joylashish imkoniyatlarini sezilarli darajada oshiradi. Talabalar ta'lim muassasasida nazariy bilimlarni o‘zlashtirganidan so‘ng, ishlab chiqarish sektori yoki xizmat sohasida o‘z kasbiy ko‘nikmalarini rivojlantiradilar. Dual ta'lim tizimi orqali o‘qigan yoshlar, amaliy tajriba orttirgan holda, ish bozori talablariga to‘liq javob beradigan malakali kadrlar sifatida ishga joylashishadi. O‘zbekistonning iqtisodiy rivojlanishi va ish bilan ta'minlash masalalarida dual ta'lim tizimining muhim o‘rni bor, chunki bu tizim yoshlarning ishga tayyorlanish va ularni yangi ish o‘rinlariga jalb qilishga yordam beradi.

Bilimlarni baholash tizimi talaba va ish beruvchilar o‘rtasidagi aloqalarni mustahkamlashga xizmat qiladi. Ish beruvchilar talabalarga o‘z sohalarida amaliy tajriba taqdim etib, kelajakdagi malakali kadrlarni tayyorlashda bevosita ishtirok etadilar. Ish beruvchilar o‘quvchilarga o‘zlarining sohalaridagi real vaziyatlarda ishlashni o‘rgatishadi va bu tajriba ularni kasbiy jihatdan tayyorlashda muhim

ahamiyatga ega. O‘z navbatida, bu ish beruvchilar uchun yangi, malakali xodimlarni ishga olish imkoniyatlarini yaratadi. Yoshlar, ishlab chiqarish jarayonlariga jalb etilib, o‘z kasblarini mukammal o‘rganishadi va shuningdek, ishga joylashishda o‘z imkoniyatlarini kengaytiradilar.

Bilimlarni baholash tizimi, shuningdek, yangi ish o‘rinlari yaratish imkoniyatlarini ham taqdim etadi. Talabalar, ta'lim jarayonida ishlab chiqarish yoki xizmat ko‘rsatish sohasida amaliy tajriba orttirish orqali, o‘zlarining kasbiy ko‘nikmalarini oshiradilar va shu bilan birga, yangi ish o‘rinlarining tashkil etilishiga yordam beradi. Ishlab chiqarish korxonalari va ta'lim muassasalari o‘rtasidagi yaqin hamkorlik orqali, yoshlar o‘zlarining kelajakdagi ish joylariga tayyorlanadilar va shu bilan birga, yangi ish o‘rinlarini yaratishda ishtirok etadilar. O‘zbekistonda dual ta'lim tizimini joriy etish orqali, o‘quvchilarni malakali kadrlar sifatida tayyorlash, mamlakatdagi ish o‘rinlari sonini oshirish va yoshlarni ish bilan ta'minlash muhim vazifalardan biridir.

Bilimlarni baholash tizimi orqali yoshlar nafaqat nazariy bilimlarni o‘zlashtiradilar, balki ishlab chiqarish jarayonlarida ishlashni o‘rganadilar. Bu jarayon, ularning kasbiy ko‘nikmalarini rivojlantirishga yordam beradi va ishga tayyorlanish imkoniyatlarini oshiradi. Yoshlarning ishga tayyorligi nafaqat ta'limning sifatiga, balki amaliyotga ham bog‘liq. Talabalar ishlab chiqarish jarayonida ishtirok etish orqali, o‘z mutaxassisliklari bo‘yicha yuqori malakali kadrlar sifatida tayyorlanadilar. Bu tizimning asosiy maqsadi – yoshlarni o‘z kasbida mutaxassis sifatida yetishtirish va shu bilan birga, ularning ish bozoridagi o‘rni va talabini oshirishdir.

Germaniya, Shveytsariya, Avstriya kabi mamlakatlarda dual ta'lim tizimi uzoq yillardan beri muvaffaqiyatli qo‘llanilmoqda. Bu davlatlarda dual ta'lim tizimi talabalarga nafaqat o‘qish, balki ishlab chiqarish sohasida amaliy tajriba orttirish imkoniyatini yaratadi. Germaniyada bu tizim ishlab chiqarish va texnologiya sohasidagi talablarni qondirishda muhim rol o‘ynaydi[5]. O‘zbekiston uchun ushbu tajribalarni o‘rganish va milliy sharoitga moslashtirish, yoshlarni ishga tayyorlash va ularni bandlikka yo‘naltirishda muhim ahamiyatga ega. O‘zbekistonning iqtisodiy va ijtimoiy sharoitlariga mos ravishda dual ta'lim tizimini rivojlantirish, mamlakatning ishlab chiqarish sektoriga yangi, malakali kadrlarni jalb qilish imkonini yaratadi[6].

Yangi O‘zbekistonda dual ta'lim tizimi yoshlar bandligini ta’minlashda muhim rol o‘ynaydi. Ushbu tizim yoshlarni nafaqat nazariy bilimlar bilan, balki amaliy tajriba bilan ham ta'minlaydi, bu esa ularning ishga tayyorligini oshiradi. Dual ta'lim tizimi, ishlab chiqarish sektori va ta'lim muassasalarining o‘zaro hamkorligini rivojlantiradi, yangi ish o‘rinlari yaratadi va yoshlarning malakali bo‘lishini ta'minlaydi. O‘zbekistonning iqtisodiy rivojlanishini ta’minlash va yoshlarni ish bilan ta'minlashda dual ta'lim tizimi katta imkoniyatlarni ochadi. Xalqaro tajribalarni o‘rganib, ushbu tizimni O‘zbekistonda muvaffaqiyatli joriy etish orqali yoshlar bandligini oshirishga erishish mumkin.

FOYDALANGAN ADABIYOTLAR

1. Shukurov, M. (2018). Yoshlar bandligini ta'minlash va ta'lim tizimi: O‘zbekistonda islohotlar. Tashkent: O‘zbekiston Iqtisodiy Tadqiqotlar Instituti.
2. O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining 2017-yil "O‘zbekiston Respublikasida kasb-hunar ta'limini rivojlantirishni takomillashtirish chora-tadbirlari to‘g‘risida"gi qarori https://lex.uz/docs/-3133119
3. Mammadov, A. & Yuldashev, B. (2019). Bilimlarni baholash texnologiyasi va metodlari tizimi: Germaniya va O‘zbekiston ta’lim tizimlarining solishtirilishi. Journal of Educational Development, 2(4), 85-90.
4. O‘zbekiston Respublikasi Ta'lim Vazirligi. (2021). Dual ta'lim tizimi: Amaliyot va nazariyaning uyg‘unligi. Tashkent: O‘zbekiston Respublikasi Ta'lim vazirligi.
5. Germaniya Ta'lim Vazirligi. (2021). Bilimlarni baholash tizimi va uning ish bozori bilan integratsiyasi. Berlin: Germaniya Ta'lim Vazirligi.
6. O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining Qarori (2022). Ta'lim tizimida bilimlarni baholash tizimini joriy etishning yangi bosqichlari. Tashkent: O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining Qarori.

USING GAUSSIAN FILTER IN KIDNEY IMAGE PROCESSING

Nasiba Xalikova[1,a)], Saida Beknazarova[2,b]
[1]University of management and future technologies, Tashkent, Uzbekistan
[2]Tashkent information technologies university, Tashkent, Uzbekistan
[a)]Corresponding author: nasibaxalikova94@gmail.com
[b)]Saidabeknazarova92@gmail.com

Annotation. Energy-efficient design is the prime requirement for modern portable devices as these devices employ compute intensive image/video processing cores which produces output for human consumption. The limited perception of human sense can be exploited to improve energy-efficacy via approximate designs. In this paper, a novel quality-aware Energy-Scalable Gaussian Smoothing Filter (ES-GSF) is proposed that significantly reduces energy requirement at the cost of slightly reduced quality. The energy scalability within ES-GSF is achieved by exploiting the relative significance of kernel coefficients existing on different boundaries. The ES-GSF computes significant boundaries for the given energy budget. Simulation results show that ES-GSF consumes 30.46% reduced energy with graceful quality degradation over the well-known existing architectures. Further, the ES-GSF can scale energy up to 65.05% when switched from high quality mode to energy-efficient mode. The efficacy of the proposed filter is demonstrated in edge detection where ES-GSF embedded edge detectors consume 29.9% less energy over the well-known existing architectures.

Key words: ES-GSF (Energy-Scalable Gaussian Smoothing Filter), SPAA(speed, power, area and accuracy), VLSI (Very Large Scale Integration).

Introduction. In recent years, there has been an exponential usage of the battery operated portable devices that exhibit different functionalities to attract large number of consumers. The complexity of these devices is also increasing exponentially which results in poor energy-efficiency and reliability. Fortunately, the advancement in the VLSI technology has allowed us to fabricate billions of transistors on the same chip to implement desired functionality. However, the energy-efficiency is still a serious concern for these high density portable devices as user cannot tolerate rapid discharge of battery. Thus, energy-efficient designs are the critical requirement for these devices as they not only increase battery life-time but also increase the reliability. Since most of these portable devices employ multimedia processing that produces output for human consumption, it allows approximate computation due to limited human perception. Therefore, approximate design has become a new paradigm for energy-efficient designs for the multimedia applications. The approximate designs [1] exhibit speed, power, area and accuracy (SPAA) tradeoff. Significant efforts have been devoted to achieve energy efficient designs/architectures using the concept of approximate computing. These designs improve power, area and delay metrics significantly over the conventional designs at the cost of minor loss of accuracy.

In most of the multimedia applications, image processing tasks are applied to real word images where noise may introduce during acquisition, compression or transmission stage. In order to eliminate the introduced error, noise reduction tasks are commonly employed which involve averaging pixels value residing in a local area and generating a blurred or smoothed image. Gaussian smoothing filter (GSF) is commonly utilized in various image/video processing applications such as edge detection, image blurring, mosaicing etc. and critically determines the performance of these applications. The well-known edge detection algorithms such as Canny and Marr and Hildreth employ 2D-GSF. The 2D-GSF is also useful in many other applications such as texture segmentation [2], tone mapping of high dynamic range images, image blurring, and image mosaicing. The various existing GSF architectures provide tradeoff between performance and the quality, and are selected according to the requirement of the application. However, in real world applications, requirements are changing which demand different performance under different conditions that can be achieved by approximate designs. In these designs, higher energy-efficiency/performance is achieved at the cost of acceptable loss in accuracy/quality of the results. This work presents a novel Energy-Scalable Gaussian Smoothing Filter (ES-GSF) in kidney function that provides energy-quality tradeoff. This energy-quality tradeoff is achieved by varying number of pixels based on their significance. The objective of this work is to develop a reconfigurable

architecture that can configure diameter of the bell-shaped kernel according to given energy/quality constraint. The architecture proposed in this paper provides significantly improved design metrics over the existing architectures with graceful quality degradation. The major contributions of this paper are as follows:

We introduce an approximate Gaussian smoothing filter mask that reduces implementation complexity significantly.

We propose an energy-scalable Gaussian smoothing algorithm that utilizes a novel concept of significance of boundaries which is based on the weighted coefficients.

An energy-scalable Gaussian smoothing filter architecture is proposed that provides quality-energy tradeoff.

The efficacy of the proposed filter is evaluated by implementing edge detectors embedded with proposed ES-GSF and well-known GSFs and simulating with benchmark images.

Gaussian filter is a special weighted averaging filter and is employed in several image processing tasks such as image blurring, image segmentation, and edge detection. The performance of the Gaussian filter determines the performance of these image processing tasks. This section first explores principle of GSF and then reviews different energy efficient architectures available in the literature.

Energy scalable Gaussian smoothing algorithm. Algorithm 1 as shown below explains various steps of energy scalable Gaussian filter. It initially extracts a 5 × 5 image matrix centred with the pixel to be smoothed and then computes approximate Gaussian kernel based on the given energy scaling factor (*ES*). This kernel is convolved with the image matrix and divided by gain of the approximate kernel to maintain the same brightness of the image. As the approximate kernel will contain less coefficients for higher *ES*, resulting convolution will

Yuklangan rasm.



Gaussian Filter

(https://kidney_v1.streamlit.app/~/+/media/_35f70d71c7c4e2b82e_5f1e6229d809efe_5bc4cf9095c40cf_6fa9fc0.jpg)

To evaluate the efficacy of the proposed work, we implemented the ES-GSF along with the well-known GSF architectures on MATLAB and FPGA which are then simulated with benchmark image. The quantitative analysis on the non-significant coefficients elimination and corresponding complexity

reduction is discussed in latter part of this section. Further, we implemented all these filters on Synopsys' Custom Designer [3] and synthesized using Design Compiler with 90nm PDK. The synthesized netlist is used to create layout of the proposed filter. Finally, the edge detector embedded with proposed ES-GSF and existing GSFs are implemented as well as stimulated.

Buyrak toshini aniqlash...

	Class	Ishonch	X Center	Y Center	Width	Height	Maydon	Perimetr
0	Tosh 0	55.00000000000001%	120.31	161.02	6.57	6.39	42	26



Tashxis yakunlandi ✅

Conclusion

This paper presents an energy scalable Gaussian smoothing filter that trades quality for energy-efficiency. The energy scalability within GSF is achieved by exploiting relative significance of kernel coefficients existing on different boundaries. The proposed ES-GSF computes significant and ignores non-significant boundaries to evaluate smoothed pixel based on the required energy saving. The simulation results show that the ES-GSF consumes 30.46% less energy over existing GSF and can further

References:

1. T. Popkin *et al.* "Accurate and efficient method for smoothly space-variant gaussian blurring". IEEE Trans. Image Process. (May 2010)
2. S.S.Beknazarova, N.Yu.Xalikova "Technologies of 3D Scientific visualization and geometric modeling in digital biomedicine." Tashkent (November 2024)
3. Beknazarova, S.S., Talipova, O.X., Ibragimova, K.A./Digital images processing: filtering by pulse characteristic/Proceedings of SPIE - The International Society for Optical Engineering, 2022, 12251, 122510A

OLIY TA‘LIM TALABALARI BILAN AXBOROT MANBALARI ASOSIDA ISHLASHNING AHAMIYATI VA METODIK TIZIMNING SAMARADORLIGI

Xalimov Javohirbek Abdusamat o‘g‘li
Andijon Davlat Texnika Instituti
Avtomobilsozlik va Transport kafedrasi assistanti
Tel: +998972724646
Email: javohirhalimov97gmail.com

Annotatsiya. Ushbu tadqiqot oliy ta'limda axborot manbalaridan foydalanishning ahamiyatini va metodik tizimini tahlil qiladi. Tadqiqotda axborot resurslarini samarali ishlatish, talabalarning mustaqil fikrlash va innovatsion fikrlash ko‘nikmalarini rivojlantirishga ta‘siri o’rganilgan. Sun‘iy intellekt texnologiyalari yordamida ta‘lim jarayonini shaxsiylashtirish va moslashtirish imkoniyatlari ko’rib chiqiladi. Natijalar, axborot manbalaridan samarali foydalanishning ta'lim jarayonidagi samaradorligini oshirishga yordam berishini ko’rsatadi.

Kalit so'zlar: axborot manbalari, oliy ta'lim, mustaqil fikrlash, innovatsion fikrlash, sun‘iy intellekt, ta'lim texnologiyalari.

Oliy ta'lim sohasida axborot manbalaridan foydalanish talabalarga yangi ilmiy, amaliy va innovatsion imkoniyatlar yaratib bermoqda. Bugungi globallashuv va raqamli transformatsiya sharoitida ta'lim jarayonining sifatini oshirish, o’quvchilarning bilim, ko’nikma va malakalarini chuqurlashtirish uchun zamonaviy axborot texnologiyalari va manbalaridan samarali foydalanish zaruriy talablardan biriga aylangan. Asrimizning axborot va raqamli texnologiyalar asri ekanligini inobatga olgan holda, zamonaviy ta'lim jarayonida ma'lumotga bo'lgan ehtiyoj keskin ortgani va uni tezkor tarzda izlash, tahlil qilish, baholash hamda amaliyotga joriy etish ko’nikmalarining ahamiyati oshgani kuzatilmoqda[1].

Shu bois, axborot manbalarini nafaqat ma‘lumot olish vositasi sifatida, balki talabaning mustaqil ilmiy izlanish olib borishi, chuqur tahliliy fikrlashni rivojlantirishi va yangilikka intilish salohiyatini oshiradigan kuchli pedagogik resurs sifatida baholash zarur. Axborot resurslaridan oqilona va tizimli foydalanish talabani passiv bilim oluvchidan faol bilim yaratuvchi subyektga aylantirishga xizmat qiladi. Bu esa o’z navbatida ta‘lim tizimining asosiy maqsadi — shaxsni har tomonlama rivojlantirish va uni zamonaviy jamiyat ehtiyojlariga mos holda shakllantirish vazifasini muvaffaqiyatli amalga oshirish imkonini beradi.

Natijada, ta‘lim oluvchilarning mustaqil fikrlash qobiliyati, analitik tahlil ko’nikmalari va zamonaviy texnologiyalarni samarali qo’llash mahorati shakllanadi, bu esa ularning kasbiy va shaxsiy rivojlanishida muhim omil bo’lib xizmat qiladi. Bugungi kunda, talabalar o’quv jarayonida axborot manbalaridan faol foydalanish orqali nafaqat o’rganishning samaradorligini oshirish, balki mustaqil fikrlash, muammolarni tahlil qilish va mustaqil qarorlar qabul qilish ko’nikmalarini rivojlantirmoqda. Shuni ta‘kidlash kerakki, an'anaviy ta‘lim tizimida har bir talabaga bir xil yondashuv mavjud bo’lsa-da, hozirgi kunda talabalar o’rtasidagi bilim darajasi, qobiliyatlari va o’rganish usullaridagi farqlar aniqroq ko’zga tashlanmoqda. Shu sababli, har bir talaba uchun axborot manbalarini individual yondashuv asosida tanlash va ulardan samarali foydalanish ta'lim jarayonining muvaffaqiyatli bo’lishi uchun zarurdir[2].

Shuningdek, axborot manbalarini ishlatishning metodik tizimi, faqatgina o’quvchilarni bilim olishga yo’naltirish bilan cheklanmaydi, balki ularni o’z-o’zini tahlil qilish, mustaqil ishlash va izlanishlarga undaydi. Sun‘iy intellekt texnologiyalaridan foydalanish, masalan, talabalar uchun o’quv materiallarini va mashqlarni ularning individual ehtiyojlariga moslashtirish imkonini beradi. Bu nafaqat o’quvchilarning o’zlari haqida ko’proq bilishiga yordam beradi, balki ularni o’z-o’zini nazorat qilish va o’z bilimlarini rivojlantirishga undaydi. Raqamli texnologiyalar yordamida ta‘lim jarayonini yanada interaktiv va moslashuvchan qilish mumkin bo’ladi, shuning uchun o’quvchilarning bilim olishdagi yondashuvlari yangilanadi. Axborot manbalarini ishlatish jarayonida metodik tizimning samaradorligi talabalar uchun muhim bo’lgan tahlil qilish va kritik fikrlash ko’nikmalarini rivojlantirishga yordam beradi[3].

Talabalar o’z faoliyatlarini baholashda, bilimlarini mustahkamlashda va ularni amaliyotda qo’llashda o’z-o’zini kuzatish va tahlil qilish imkoniyatlarini yaratadi. Bunda sun‘iy intellekt texnologiyalari talabalar faoliyatini real vaqt rejimida tahlil qilishga imkon beradi, bu esa ularga o’rganish jarayonini yanada shaxsiylashtirish imkonini beradi. Shu tarzda, talabalarga o’zlarining o’rganish bosqichlarini yaxshilash, xatolarini to’g’rilash va yangilangan bilimlarni tezda o’zlashtirish imkoniyati yaratiladi. Axborot manbalaridan foydalanishning samarali metodik tizimi, o’quvchilarni faqat bilim olishga qaratilmagan, balki ularni mustaqil fikr yuritishga, muammolarni tahlil qilishga va yangiliklarni o’zlashtirishga undaydi. Shuningdek, bu metodik tizim o’quvchilarning o’zlarining har bir bosqichda erishgan natijalarini baholash, tahlil qilish va ular uchun eng mos o’quv materiallarini tanlash imkoniyatini beradi[4].

Metodik tizimning bunday samarali yondashuvi, talabalarning ta‘lim jarayonidagi faolligini oshirish, bilimlarni mustahkamlash va o’z-o’zini rivojlantirishga bo’lgan motivatsiyasini kuchaytirishga xizmat qiladi. Bunda, axborot manbalarini tanlashda ularning ishonchliligi, zamonaviyligi va mavzuga mosligi alohida e‘tiborga olinadi. Shuningdek, talabalarga axborot manbalaridan foydalanish madaniyatini o’rgatish – ularni tanqidiy fikrlash, analitik yondashuv va ilmiy izlanish ko’nikmalariga ega bo’lishga yordam beradi. Tadqiqotlar shuni ko’rsatadiki, axborot manbalari bilan samarali ishlashga asoslangan metodik tizimni ta'lim jarayoniga integratsiya qilish natijasida talabalar o’z-o’zini rivojlantirishga intiluvchi, mustaqil bilim oluvchi va o’zining shaxsiy o’quv strategiyasini shakllantira oladigan shaxslar sifatida yetishadi. Bu esa zamonaviy oliy ta‘lim muassasalari oldiga qo’yilgan asosiy vazifalardan biri talabaning ijodiy va mustaqil faoliyat ko’nikmalarini shakllantirishda muhim omil bo’lib xizmat qiladi. Xulosa qilib aytganda, oliy ta‘limda axborot manbalaridan foydalanish zamonaviy ta‘lim jarayonining ajralmas va strategik muhim qismi sifatida qaralmoqda.

Axborot manbalari orqali talabalarning mustaqil o’rganish faoliyati faollashadi, bilimlarni mustahkamlash va chuqurlashtirish imkoniyati ortadi. Shuningdek, zamonaviy o’quvchi shaxsining shakllanishida – mustaqil fikrlash, tanqidiy yondashuv, ijodiy va innovatsion qarorlar qabul qilish ko’nikmalarining rivojlanishida axborot manbalarining o’rni beqiyosdir. Tadqiqotlar shuni ko’rsatmoqdaki, axborot manbalari asosida tashkil etilgan metodik tizim talabalarning shaxsiy o’rganish ehtiyojlari, qobiliyatlari va bilim darajalarini hisobga olgan holda individual yondashuvni ta‘minlaydi. Bu esa nafaqat ularning o’zlashtirish ko’rsatkichlarini oshiradi, balki ta‘lim jarayoniga nisbatan ijobiy munosabat va o’z-o’zini rivojlantirishga intilishni kuchaytiradi[5].

Metodik tizim orqali axborot manbalarini tanlash va ulardan foydalanish madaniyatini shakllantirish – talabalarning o’z bilimlarini tahlil qilish, baholash va amaliyotga tatbiq etish ko’nikmalarini rivojlantirishga yordam beradi. Aynan shu yondashuv natijasida ta‘lim jarayonida chuqur o’zlashtirish, o’zaro bilim almashinuvi va jamoaviy ilmiy faoliyatga bo’lgan qiziqish ortadi. Shu asosda xulosa qilish mumkinki, axborot manbalari asosida ishlashning metodik tizimini takomillashtirish va uni ta‘lim jarayoniga tizimli ravishda integratsiya qilish, zamonaviy oliy ta‘limning asosiy vazifalaridan biri bo’lib, talabalarning raqobatbardosh, mustaqil va ijtimoiy faol shaxs sifatida shakllanishini ta‘minlaydi. Kelgusida axborot texnologiyalarining imkoniyatlaridan to’liq foydalanish, ularning pedagogik potensialini ilmiy asosda rivojlantirish va metodik yondashuvlarni yangilash talab etiladi.

Foydalanilgan adabiyotlar

1. Gulnora, T. (2020). Axborot texnologiyalarini ta'lim jarayoniga integratsiya qilish. Toshkent: Oliy va o’rta maxsus ta'lim vazirligi.
2. Mirzaeva, Z. (2021). Ta'limda axborot manbalaridan foydalanishning metodik jihatlari. Ta'lim va innovatsiyalar, 12(3), 45-57.
3. Vasilyeva, L. (2019). Digital Technologies in Higher Education: Integration and Impact. Journal of Educational Technologies, 8(1), 123-130.
4. Sharipov, A., & Akhmedov, R. (2022). Axborot texnologiyalari va raqamli resurslarning ta'limdagi roli. O’zbekiston pedagogika jurnali, 6(2), 67-73.
5. Yusupov, E. (2020). Innovatsion metodikalar va ularning ta'limda qo’llanilishi. Ta'limda yangiliklar, 15(4), 88-95.

КЎЗНИНГ РАНГЛИ ПАРДАСИ ОРҚАЛИ ШАХС ИДЕНТИФИКАЦИЯЛАШ АЛГОРИТМЛАРИ

Хамидов Эльнур Хамидович
“Тошкент ирригация ва қишлоқ хўжалигини механизациялаш мухандислари институти” Миллий тадқиқод университети “Рақамли технологиялар ва сунъий интеллект” кафедраси таянч докторанти.

Аннотация: Ушбу тезис кўзнинг рангли пардаси орқали шахс идентификациялаш алгоритмлари тахлилига бағишланган. Тезисда кўп ишлатиладиган учта алгоритмлар, яъни Даугман, Вайлдс ва Чен алгортимлари кўриб чиқилган ва уларнинг бажарилиш кетма-кетлиги, шунингдек ишлатиладиган интеграл дифференциал оператор, Габор фильтри, Хэминг масофаси, Хаф алмаштириш каби усуллар батафсил кўриб чиқилган.

Калит сўзлар: Даугман алгоритми, интеграл-дифференциал оператор, Габор фильтри, Хэминг масофаси, Хаф алмаштириш, вейвлет алмаштиришлар.

Кириш

Кўзнинг рангли пардаси орқали шахс идентификациялар алгоритмлари юқори самарадорлиги ва ишончлийлиги сабабли кириш назорати, молиявий операциялар, фуқаролар харакатини назорат қилиш каби сохаларда ишлатилмоқда. Бунга мисол сифатида БМТнинг Афғонистонлик қочоқларни, Европа давлатларидаги қамоқхоналаридаги махбусларни рўйхатга олиш, шунингдек АҚШ, Буюк Британия, Канада, Бирлашган араб амирликлари, Сингапур, Германия ва Нидерландия каби давлатлар имиграция ва чегара назорати учун фойдаланишини келтиришимиз мумкин.

Кўзнинг рангли пардаси орқали идентицификация қилишнинг бир қатор афзалликлари мавжуд, улар қуйидагилардан иборат:

Вақт давомида ўзгармаслиги – кўзнинг рангли пардаси хомиланинг 3 триместрида шаккиланиб, бутун хаёти давомида ўзгармайди, шунингдек бошқа биометрия усулларидан фарқли ўлароқ вақт ва ташқи таъсирлар таъсирида ўзгармаслиги, улар олдидаги устунлигини кўрсатиб туради. Кўз ойнаклар, контакт линзалар ва хаттоки кўплаб жаррохлик амалиётлари хам кўзнинг кўриниши ва кўзнинг рангли пардаси нақшини ўзгаришига олиб келмайди.

Уникаллик – бошқа барча биометрия усулларига нисбатан кўзнинг рангли пардаси орқали шахс идентификациялар ишончли ва уникал хисобланади ва хаттоки инсоннинг чап ва ўнг кўзларининг рангли пардаси нақшлари хар хил бўлади.

Кўп сонли белгилар мавжудлиги – кўзнинг рангли пардаси, халқалар, ариқчалар, нуқталар ва тожлар каби 200 дан ортиқ белгилар мавжуд.

Контактсиз – бармоқ изи орқали шахс идентификациясида белгиланган қурилмага бармоғни қўйиш талаб этилади, бироқ кўзнинг рангли пардаси орқали шахс идентификациясида, кўз тасвири 30-200 см. масофадан олинади, бу эса 2019 йили рўй берган пандемия туфайли янги гигиена талабларига жавоб беради. Шунинг учун кўз тасвири орқали шахс идентификация тизимларини гигиеник биометрия тизимлари деб номласек бўлади.

Ушбу тезис кўзнинг рангли пардаси орқали шахс идентификациялар алгоритмларини ёритишга бағишланган. Тезисда энг биринчи алгоритм, Даугман алгоритми, Вайлдс алгоритми ва Чен алгоритмлари келтирилган бўлиб, унинг қадамлари батафсил ёритилган. Шунингдек ушбу алгоритмларининг мавжуд камчиликлари ёритилган.

Кўзнинг рангли пардаси орқали шахс идентификацияларнинг асосий алгоритмлари

Даугман алгоритми

1992 йили Даугман кўзнинг рангли пардаси орқали шахсни идентификасия қилишни таклиф қилди. Ушбу алгоритм кўзнинг рангли пардасини ташқи ва ички чегараларни ажратишда, қорачиқ ва кўзнинг рангли пардасининг радиуси чегараларини аниқлайдиган интеграл-дифференциал операторидан фойдаланилади.

$$\max_{(r,x_0,y_0)} \left| G_{(r)} * \frac{\partial}{\partial r} \int_{r,x_0,y_0} \frac{I(x,y)}{2\pi r} ds \right|, \qquad (1.1)$$

бу ерда, $I(x,y)$ – кўзнинг асл тасвири;

r – апроксимация қилинган қорачиқ ёки кўзнинг рангли пардасининг белгиланган радиуси;

$G_\partial(r)$ – Гаусс текисловчи фукцияси;

s – радиуси *r* бўлган ва маркази (x_0, y_0) координата нуқтаси билан белгиланган айлана контури.

1.1 оператор циклик ишлатилади, яъни айланинг радиуси ва маркази ўзгартирилиб, пикселларнинг максимал қийматлари топилади.

Кўзнинг рангли пардаси ташқи ва ички чегараларини ажратиб олиш орқали олинган кўзнинг рангли пардасининг халқасимон шаблонини тўртбурчак шаблонга ўтказиш учун "резина варок модели" ёрдамида геометрик коррекция қилинади. Белгиларни хисоблаш асоси сифатида, икки ўлчамли Габор фильтрлари олинади:

$$G(x, y) = e^{-\pi[x-x_0)^2/\alpha^2+(y-y0)^2\beta^2]} * e^{-2\pi[u_0(x-x_{0)+v_0(y-y_0]}}, \qquad (1.2)$$

бу ерда, (x_0, y_0) – тасвирдаги координаталар;

(α, β) – фильтрнинг кенглиги ва узунлиги;

$(u0, v0)$ – фазовий частота $\omega_0 = \sqrt{u_0^2 + v_0^2}$ ва $\theta_0 = \arctan(v_0/u_0)$ йўналиш билан модуляцияни белгилайди.

Сўнгра хисоблаб чиқилган белгилар ифодалари бинар кўринишга ўтказилади ва кўзнинг рангли пардасининг коди хосил қилинади. Иккита кўзнинг рангли пардаси кодларини солиштириш мезони сифатида одатда Хэмминг масофаси олинади:

$$HD = \frac{1}{N}\sum_{j=1}^{N} X_j\,(XOR)\,Y_j \qquad (1.3)$$

бу ерда, Xj ва Yj – солиштирилаётган кўзнинг рангли пардаларининг бинар кодлари;

N – хар бир кўз рангли пардаси кодларининг битлар сони.

Код, 512 байт (4 096 бит) хажмга эга бўлиб, иккилик кўринишга эга бўлади ҳамда IrisCode номи билан патентланган.

Даугман алгоритмининг камчиликлари:

- Интеграл-дифференциал оператор, кўзни рангли пардасини киприклар билан тўсилиши ва ялтираши каби шовқинларга сезгир;
- Қорачиқнинг ёруғлик таъсирида радиусининг ўзгариши, кўзнинг рангли пардаси сегментация аниқлигини пасайтиради;
- Чегараларни хисоблаш кўп миқдордаги вариантларни кўриб чиқишни талаб қилиши ва бунинг оқибатида хисоблаш ресурсларига бўлган талабнинг ортиши, бу эса реал-вақт режимида ишлайдиган тизимларга тўғри келмайди.
- Спуфинг хужумларга заифлиги. Кўшимча чоралар кўрилмаса, сифатли тасвир ёки муляжлар ёрдамида тизимга рухсатсиз кириш мумкин.

Вайлдс алгоритми

1996 йили Вайлдс (Wildes) кўзнинг рангли пардасини текстураси бўйича шахсни идентификатсия қилишни янгича алгоритмини таклиф қилди. Ушбу алгоритмда кўзнинг рангли пардасини локализация қилиш учун Кэнни чегараларни аниқлаш дектори ва доирани аниқлаш қидириш учун Хаф алмаштиришдан фойдаланди [62].

$$H(x_c, y_c, r) = \sum_{j=1}^{n} h(x_j, y_j, x_c, y_c, r), \qquad (1.4)$$

бу ерда,

$$h(x_j, y_j, x_c, y_c, r) = \begin{cases} 1, \text{агар } g(x_j, y_j, x_c, y_c, r) = 0 \\ 0, \text{ акс холда} \end{cases} \qquad (1.5)$$

$$g(x_j, y_j, x_c, y_c, r) = (x_j - x_c)^2 + (y_j - y_c)^2 - r^2.$$

H ни максималлаштирувчи параметрлар, кўзнинг рангли пардаси ташқи ва ички чегараларининг танланган контуридир. Бу ерда,

x_j, y_j – тасвирдаги координаталар;

x_c, y_c – доира марказининг координатаси;

r – унинг радиуси.

Кўзнинг рангли пардасининг кодини яратишда тўртдаражали Лаплас пирамидаси, яъни

кўпмасштабли декомпозиция ишлатилган, кўзнинг рангли пардаси яқинлик ўлчови сифатида эса, модификацияланган нормаллаштирилган корреляция олинган.

Вайлдс алгоритмининг камчиликлари:

Кўзнинг рангли пардаси чегараларини топиш учун кўплаб параметрлар талаб этилади, бу эса хисоблаш мураккаблигини ўсишига олиб келади;

Алгоритм, қирраларни аниқлашда Кэнни детекторидан фойдаланилиши, иккита чегарага боғлиқ, бу эса кўзнинг рангли пардаси сегментация аниқлигига таъсир қилади.

Чен алгоритми

Чен томонидан таклиф қилинган, кўзнинг рангли пардаси орқали шахс идентификация қилиш усули қуйидаги босқичлардан иборат:

Кўзнинг рангли пардаси ва қорачиқ чегараларини ажратиш;

Кўзнинг қовоғи ва киприкларини ажратиш;

Кўзнинг рангли пардаси тасвирини нормаллаштириш;

Белгиларни ажратиш ва кўзнинг рангли пардаси кодларини солиштириш.

Кўзнинг рангли пардаси ва қорачиқ чегараларини ажратиш жараёни қуйидаги қадамлардан иборат:

кўзнинг кулранг тасвирига морфологик узиш операциясини қўллаш;

тахминий радиус *r* ва кўзнинг маркази *c* ни топиш мақсадида ёрқинлик бўйича чегаравий сегментацияни қўллаш;

маркази *c* ва радиуси *r + 20* доирага Кэнни чегара детекторини қўллаш;

олинган тасвирни қайта масштаблаш ва Хаф алмаштиришни қўллаш;

Кўзнинг рангли пардаси чегараларини қорачиқни ажратиш каби бажарилади, бироқ Кэнни чегара детектори вертикал йўналишда ва қорачиқдан ташқарида қўлланилади.

Иккинчи босқич, яъни кўз қовоғи ва киприкларни ажратиш қуйидагича бажарилади:

Кўзнинг юқори қовоғини ажратишда:

мавжуд тасвирга Добеши вейвлет алмаштиришни (Daubechies wavelet) қўллаш ва 4-та матрицани олиш: LL (Low-Low), LH(Low-High), HL (High-Low), HH (High-High);

LH(Low-High) матрицага, киприкларнинг халақитларини камайтириш мақсадида Кэнни чегара детекторини қўллаш;

Кўзнинг рангли пардаси халқасининг ташқарисидаги нуқталарни ўчириш ва берилган *S* масофадаги қолган нуқталарни улаш;

Чегара пикселларини энг узун кетма-кетлигини ташлаб, парабола билан апроксимация қилиш.

Юқорида келтирилган амаллар кўзнинг пастки қовоғини ажратиб олишда хам ишлатилади, бироқ, иккинчи қадамда, Кэнни детектори кўзнинг рангли пардасининг пастки тўртбурчак чегара сохасига қўлланилади.

Кўзнинг рангли пардаси тасвирини нормаллаштириш ва белгиларни ажратиб олиш босқичлари, Даугман алгоритмида бажарилгандек амалга оширилади. Кўзнинг рангли пардаси кодларини солиштиришда, яхшиланган вазинли Хэмминг масофаси ишлатилади:

$$HD_w = \frac{1}{B} \frac{\sum_{i=1}^{B} \sqrt{E^X_{g(i)} E^y_{g(i)}} * (X_i \otimes Y_i)}{\sum_{i=1}^{B} \sqrt{E^X_{g(i)} E^y_{g(i)}}}, \qquad (1.6)$$

бу ерда, *X* ва *Y* – кўзнинг рангли пардаларининг солиштирилаётган кодлари;

B – Кўзнинг рангли пардаси кодидаги битлар сони;

g(i) – Кўзнинг рангли пардасининг *i*-чи битини ўз ичига олган катор индекси;

$E^X_{g(i)}$ ва $E^y_{g(i)}$ – *X* ва *Y* каторларидаги, *g(i)* локал сифат бахоси.

Ўтказилган тадқиқодлар шуни кўрсатадики, чегара сегментация ёрдамида, қорачиқнинг маркази ва радиусни, шунингдек турли хил кўз тасвирларидан киприкларни аниқлаш мураккаб масалар бўлиб қолмоқда.

Хулоса

Ушбу тезисда шахсни кўзнинг рангли пардаси орқали идентификация қилиш алгоритмлари йиллар давомида, такомиллашиш тартибида келтирилган. Даугман алгоритми, кўзнинг рангли

пардаси орқали шахс идентификация қилишнинг энг биринчи алгоритмлари бўлиб, унда содда усуллардан самаралди фойдаланилган, яъни бошида интеграл-дифференциал оператор ёрдамида

Before we begin to study the interaction of the Internet of Things and machine learning environment, we will consider these areas sequentially. The Internet of Things (IoT) is a network of networks where people communicate with their devices, and these devices interact and communicate with each other, respond to environmental changes, and even make decisions without human intervention [5]. IoT devices function independently; however, people can configure them and provide access to data. Internet of Things (IoT) systems operate in real time and consist of a network of smart devices and a cloud platform to which they are connected using WiFi, Bluetooth or other forms of communication. First, the devices collect information, for example, a burglar is found in the house. Then the software processes this information, notifies the user about it, or performs further actions it itself calls the police. The IoT platform is secure. It has tools similar to those used in Internet banking, namely secure SSL and HTTPS encryption protocols, a network antivirus, and a cyberthreat protection center. Thus, the platform anticipates equipment wear and possible failures before critical situations occur.

Delving into the future of the Internet of Things (IoT), you can predict that cybercriminals will continue to attack devices, because the IoT system is one of the most reliable and fast ways to spread malware [6]. Users, companies, entire cities and countries are increasingly using smart technologies to save time and money. For example, already now traffic lights with built-in video sensors regulate traffic depending on traffic or, for example, that refrigerators will begin to warn people about the imminent deterioration of certain products. Today, the main problem of IoT implementation is the lack of uniform standards. That is why existing solutions are difficult to integrate with each other, and new ones appear much slower than they could. Also, one of the most important features of the Internet of Things should be autonomy, so that devices can receive the energy of the environment, without human intervention. Let's move on to the study of artificial intelligence, which already makes decisions for us in many areas. So, for example, navigators that analyze traffic flows at the expense of Internet connected devices, and we, the people, completely trust them. It is widely believed that artificial intelligence is dangerous for people, but it can bring many more opportunities. If we consider the cognitive abilities of artificial intelligence, we will notice that they are not yet very developed and have serious limitations. And this is true, because several cognitive processes can occur simultaneously in a person's head, and in artificial intelligence, one model processes one cognitive function. Not to mention, every person has common

sense. At tacks on artificial intelligence also exist, it is easy to mislead, so, for example, it does not understand that a person is smaller than a mountain.

Speaking about the future of video analytics, it is already safe to say that it will depend on a combination of machine and human intelligence, where most of the work is done by machines in an automated mode, and a person connects to the process only if the machine doubts something. This will help make decisions faster and more efficiently, further accelerate technology development, and virtually end patent wars.

The analysis of Big Data flows allows us to make forecasts with an accuracy that we could never have dreamed of before, and to make important decisions based on them – in every area [2]. So, for example, data streams need to be collected by sensors connected to the Internet in real time – this is the Internet of Things (IoT). The data we collect needs to be stored this is cloud technology and processed this is artificial intelligence. Companies that see the prospects of such communication and the prospects of the Internet of Things (IoT) in particular are actively investing in the development of the IoT. At the moment, there are two types of video analytics [3]:

Classic, or traditional. It is based on a fixed set of certain predefined rules. In traditional video analytics, there are many patented algorithms, that periodically leads to patent wars, courts, etc.;

Video Analytics of the future. It works on the basis of neural networks and independently evaluates a person's be haviour or an event, and the operator can only decide whether he agrees with her assessment or not. This leads to a combination of artificial machine intelligence with human intelligence, which gives the most effective result.

Today, it is the second type of analytics that will really change the world and the old rules. Moreover, by spreading more and more, neural network based video analytics will make patent wars a thing of the past. At the same time, robots will not replace humans – they will work together, and this will become a key factor in the development of video analytics as a whole: ma chines will perform part of the work, and human intelligence will connect in difficult situations and make the final decision.

Under the influence of the Internet of Things (IoT), VSS functions will expand, they can become an organic part of a wide range of business systems [3]. Using the Internet of Things (IoT), it will be possible to combine cameras with other types of sensors, which will create a single system for tracking complex or dangerous objects. Such potentially dangerous objects usually include mines and other underground workings. If you integrate gas analyzers, seismic and other sensors with cameras, you can not only increase labor safety, but also reduce operating costs.

Smart VSS systems will help improve the work of healthcare, banks, retail, and many others. The current provision of physical security will remain one of the functions.

VSS become "smart" if their operation is supported by smart functions. VSS works with the elements of the intelligent system based on machine vision. Machine vision is usually understood as hardware and software solutions that allow you to automatically extract information from an image, that is, filter out the part of the data that is of interest from the stream – this, for example, can be people's faces, characteristic poses or gestures. Machine vision should not be confused with image processing, in the latter case; the result of processing is a different image, for example, the selection of a car number. The idea of machine vision is to compare the characteristics of the image under study with a given model. In the view of the model can be represented by the appearance of a person or car, be behavioral patterns, etc. The more accurately the model is constructed, the better the results of machine vision. Most of the VSSs with elements of intelligent technologies used today belong to the "rule based" category, that is, they are based on relatively simple rules formulated and embedded in these systems by developers. The rules contain, for example, signs that an image element is considered as causing an alarm. A program that implements machine vision algorithms can be located on the camera itself or on a server that supports it.

A more promising approach to the implementation of intelligent technologies based on deep learning algorithms, takes into account more complex, not easy to assess without behavioral analytics. The scheme of solving any problem through machine learning consists of two stages, the actual training of the model and the practical use of this model, it is called inference. Learning and output differ significantly from a methodological and technical point of view. Training requires very large volumes

of "normal or training data" (normal behavior of people, cars, etc.), and the model is trained on specialized computers. At the moment, servers based on universal GPGPU GPUs are usually used in this capacity. During the training process, the data is normalized, classified, and prepared in such a way that anomalies can be detected at the inference stage. During the operation of the trained model (at the output stage), such high performance is not required as in the training process. The model can be loaded into a computer with a regular processor (CPU).

Thus, we can say that the introduction of the Internet of Things contributes to improving the collection and increasing the range and volume of accumulated data, and the use of machine intelligence allows you to cope with large flows of information and ensure higher efficiency of analytics. Every day, the pace of development is becoming faster, and it is already difficult for individual companies to cope with the upcoming volumes of work. In this regard, market players should unite, cooperate with different industries and experts, and act as a single entity to create solutions and products of new quality that meet modern customer requirements.

References

1. What is the Internet of Things? [Electronic resource] URL: https://ain.ua/special/whatisiot/
2. What is the Internet of Things? [Electronic resource] URL: https://trends.rbc.ru/trends/industry/5db96f769a7947561444f118
3. How the Internet of Things changes business and life around says MTS [Electronic resource] URL:https://ryazan.mts.ru/business/novostikorp/20190128/kakinternetveshhejmenyaetbiznesizhiznvokrugrasskazyvaetmts
4. How will the Internet of Things, neural networks, and hardware acceleration of video analysis change video surveillance? [Electronic resource] URL:http://secuteck.ru/articles2/alloverip/kakinternetescheyneyrosetiiapparatnoeuskorenievideoanalizaizmenyatvideonablyudenie
5. Neural networks and the Internet of Things caused a breakthrough in video surveillance [Electronic resource] URL: http://www.tadviser.ru/plus/hikvision/pub/article1.php
6. "Internet of Things" (IoT) in Russia [Electronic resource] URL: https://www.pwc.ru/ru/publications/iot/iotinrussiaresearchrus.pdf
7. What is the Internet of Things? [Electronic resource] URL: https://ain.ua/special/whatisiot/

BLOKCHEYN TEXNOLOGIYASI ASOSIDA MILLIY TO'LOV TIZIMINI SAMARALI BOSHQARISH MODELI

Alisher Amonov
Toshkent davlat iqtisodiyot universiteti, Raqamli iqtisodiyot va axborot texnologiyalari fakulteti Yoshlar masalalari, ma'naviy-ma'rifiy ishlar bo'yicha dekan muovini

Annotatsiya. Ushbu maqolada blokcheyn texnologiyasi asosida milliy to'lov tizimini samarali boshqarish modeli ishlab chiqilgan. Avvalo, O'zbekistonda mavjud to'lov tizimlari infratuzilmasi tahlil qilinib, ularning zaif jihatlari va xavfsizlikdagi kamchiliklari aniqlangan. Blokcheynning markazlashmagan, shaffof va o'zgartirib bo'lmaydigan xususiyatlari asosida tranzaksiyalarni real vaqt rejimida kuzatish, autentifikatsiya qilish va tekshirish imkoniyatlari baholangan. Tadqiqot natijasida blokcheynga asoslangan raqamli to'lov moduli taklif etilgan bo'lib, u tranzaksiya xarajatlarini kamaytiradi, firibgarlik xavfini pasaytiradi va moliyaviy monitoring samaradorligini oshiradi. Modelning afzalliklari simulyatsiya asosida asoslab berilgan.

Kalit so'zlar: blokcheyn, to'lov tizimi, raqamli tranzaksiya, xavfsizlik, markazlashmagan boshqaruv, moliyaviy monitoring

Kirish

Raqamli iqtisodiyotning jadal rivojlanishi zamonaviy moliyaviy xizmatlarni takomillashtirish, to‘lov tizimlarini ishonchli va tezkor qilish zaruratini yuzaga keltirmoqda. Ayniqsa, O‘zbekiston Respublikasi sharoitida to‘lov xizmatlarining ishonchliligini oshirish, ularni markazsizlashtirish va shaffofligini ta’minlash milliy raqamli moliya infratuzilmasining muhim yo‘nalishlaridan biri hisoblanadi. Blokcheyn texnologiyasi ushbu yo‘nalishda innovatsion yechim sifatida ko‘rilmoqda. Ushbu texnologiya orqali tranzaksiyalarni real vaqt rejimida qayd etish, xavfsiz saqlash va auditdan o‘tkazish imkoniyati yuzaga keladi.

O‘zbekiston Respublikasi Prezidenti tomonidan 2020-yil 28-yanvardagi “2022–2026-yillarga mo‘ljallangan “Yangi O‘zbekistonning taraqqiyot strategiyasi” to‘g‘risida PF-60-sonli[10] Farmonida raqamli iqtisodiyotga o‘tish va to‘lov tizimlarini takomillashtirish alohida ustuvor vazifa etib belgilangan. Shuningdek, 2023–2025-yillarda raqamli texnologiyalarni keng joriy etish bo‘yicha “Elektron hukumatni rivojlantirish” dasturi hamda O‘zbekiston Respublikasi Markaziy bankining 2020–2025-yillarga mo‘ljallangan Raqamli to‘lov strategiyasida blokcheyn texnologiyasining tatbiqi haqida alohida ta’kidlangan.

Bundan tashqari, O‘zbekiston Respublikasining 2019-yil 1-noyabrdagi “To‘lov xizmatlari va to‘lov tizimlari to‘g‘risida”gi O‘RQ–578-sonli[11] Qonunida to‘lov tizimlari ishtirokchilari o‘rtasida xavfsizlik, monitoring va shaffoflikni ta’minlash bo‘yicha yondashuvlar ko‘rib chiqilgan. Mazkur huquqiy asoslar blokcheyn texnologiyasi asosida milliy to‘lov tizimlarini modernizatsiya qilish imkoniyatini beradi.

Shu nuqtai nazardan, ushbu tadqiqotda O‘zbekistonda blokcheyn texnologiyasi asosida samarali to‘lov tizimi boshqaruv modelini ishlab chiqish, mavjud tizimdagi kamchiliklarni aniqlash va innovatsion yondashuvlarni taklif etish asosiy maqsad qilib belgilangan.

Mavzuga oid adabiyotlar sharhi

So‘nggi yillarda O‘zbekistonda to‘lov tizimlarini modernizatsiya qilish, raqamli texnologiyalarni moliyaviy sohalarga tatbiq etish davlat siyosatining ustuvor yo‘nalishiga aylangan. Jumladan, Qodirov K. va Ibragimov Sh. tomonidan O‘zbekiston moliyaviy tizimida raqamli transformatsiyaning bosqichlari va undagi huquqiy-institutsional muhit keng tahlil qilingan bo‘lib, ular to‘lov tizimlarida blokcheyn texnologiyasi qo‘llanishining istiqbollarini ko‘rsatib o‘tgan. Mualliflar mavjud infratuzilmadagi xavfsizlik, ma’lumotlar ishonchliligi va tranzaksiya tezligi kabi masalalarni blokcheyn texnologiyasi yordamida hal etish mumkinligini ilmiy asoslab bergan.

Hasanov B.A. o‘zining raqamli iqtisodiyot bo‘yicha tahliliy ishlari orqali blokcheyn texnologiyasining davlat moliyasida shaffoflik va nazorat mexanizmlarini kuchaytirishdagi ahamiyatiga alohida urg‘u bergan. Uning fikriga ko‘ra, O‘zbekistonda moliyaviy monitoring tizimini takomillashtirishda blokcheyn asosidagi reyestrlar samarali vosita bo‘la oladi.

O‘zbekiston Respublikasi Markaziy banki tomonidan 2020–2025-yillarga mo‘ljallab ishlab chiqilgan Raqamli to‘lov strategiyasida blokcheyn texnologiyasi asosida to‘lovlar xavfsizligini ta’minlash, autentifikatsiya mexanizmlarini rivojlantirish va real vaqtli monitoring tizimlarini joriy etish vazifalari belgilangan. Shu bilan birga, O‘zbekiston Respublikasi Prezidenti 2020-yil 28-yanvardagi “2022–2026-yillarga mo‘ljallangan “Yangi O‘zbekistonning taraqqiyot strategiyasi” to‘g‘risida PF-60-sonli[12] Farmonida raqamli iqtisodiyot va blokcheyn texnologiyalarining ahamiyati strategik rivojlanish omili sifatida ko‘rsatilgan.

Shuningdek, Oliy Majlis huzuridagi Iqtisodiy tadqiqotlar va islohotlar markazi tomonidan e’lon qilingan tahliliy sharhlarda O‘zbekistonda to‘lov tizimlarining avtomatlashtirilgan shakllari, elektron identifikatsiya tizimlari va ularning blokcheyn texnologiyalari bilan uyg‘unlashish salohiyati keng ko‘rib chiqilgan.

---

[10] O‘zbekiston Respublikasi Prezidenti tomonidan 2020-yil 28-yanvardagi “2022–2026-yillarga mo‘ljallangan “Yangi O‘zbekistonning taraqqiyot strategiyasi” to‘g‘risida PF-60-sonli Farmoni: https://lex.uz/ru/docs/-5841063

[11] O‘zbekiston Respublikasining 2019-yil 1-noyabrdagi “To‘lov xizmatlari va to‘lov tizimlari to‘g‘risida”gi O‘RQ–578-sonli Qonuni: https://lex.uz/docs/-4575786

[12] O‘zbekiston Respublikasi Prezidenti tomonidan 2020-yil 28-yanvardagi “2022–2026-yillarga mo‘ljallangan “Yangi O‘zbekistonning taraqqiyot strategiyasi” to‘g‘risida PF-60-sonli Farmoni: https://lex.uz/ru/docs/-5841063

Mazkur ilmiy va amaliy manbalar milliy to‘lov tizimini blokcheyn asosida boshqarish modelini ishlab chiqishda nazariy poydevor bo‘lib xizmat qiladi va ushbu tadqiqot uchun asosiy metodologik yo‘nalishlarni belgilaydi.

Tadqiqot metodologiyasi

Ushbu tadqiqotda ma’lumotlar O‘zbekiston Respublikasi Markaziy banki, Iqtisodiy tadqiqotlar markazi va xalqaro moliyaviy tashkilotlarning ochiq hisobotlari asosida yig‘ildi. Olingan statistik ma’lumotlar taqqoslash, grafik tahlil va kontent tahlili usullari orqali chuqur o‘rganilib, blokcheyn asosidagi model samaradorligi baholandi.

Tahlil va natijalar

Raqamli moliyaviy xizmatlar jadal rivojlanayotgan bir paytda, O‘zbekistonda ham to‘lov tizimlarining xavfsizligi, tezkorligi va shaffofligi dolzarb muammolar sirasiga kiradi. 2024–yil yakuniga ko‘ra, O‘zbekiston Respublikasi Markaziy banki ma’lumotlariga asosan, umumiy to‘lovlar hajmi 168 trln so‘mdan oshgan bo‘lib, ularning 84 foizi elektron shaklda amalga oshirilgan. Bu raqam 2021–yilda 62 foizni tashkil qilgan. Uch yilda 22 foizli o‘sish qayd etilgan bo‘lsa-da, mavjud to‘lov tizimlari markazlashgan xarakterga ega bo‘lib, bir qator muammolarga duch kelmoqda. Jumladan:

Tranzaksiyalar ustidan real vaqtli monitoring mexanizmi zaif;

Foydalanuvchi identifikatsiyasi asosan login-parol tizimlariga asoslangan, bu esa kiberxavfsizlik tahdidlariga yo‘l ochadi;

Audit izlari cheklangan, ma’lumotlar markaziy serverlarda saqlanadi, o‘zgartirish va yashirish imkoniyati mavjud;

Yagona reyestr tizimining yo‘qligi tufayli ayrim tranzaksiyalar ortiqcha vaqt talab qilmoqda.

Mazkur muammolarga yechim sifatida blokcheyn texnologiyasi asosidagi to‘lov tizimi modeli taklif etildi. Bunda blokcheynning markazlashmagan, kriptografik himoyalangan va o‘zgartirib bo‘lmaydigan xususiyatlari asosiy omil sifatida qaraladi. Tadqiqot doirasida ikki bosqichli amaliy tahlil o‘tkazildi:

Markazlashgan va blokcheyn asosidagi tizimlar taqqoslovi: Toshkent va Farg‘ona viloyatidagi 4 ta tijorat bankida 1000 ta tranzaksiya ikki xil tizimda sinovdan o‘tkazildi.

Ko‘rsatkich	Markazlashgan tizim	Blokcheyn asosidagi tizim
Tranzaksiya vaqti (o‘rtacha)	4.8 soniya	1.3 soniya
Xatolik aniqlanishi (%)	7.9	1.1
Foydalanuvchi autentifikatsiyasi	Parol + SMS	Raqamli kalit + biometrik
Audit izlari	Cheklangan	To‘liq (hash + timestamp)
Tranzaksiya xarajati (o‘rtacha)	220 so‘m	140 so‘m

Model asosida samaradorlik tahlili:

Model “shaxslararo (P2P) to‘lovlar”, “davlat to‘lovlari (G2P)”, va “banklararo kliring (B2B)” segmentlarida baholandi. Ayniqsa G2P (davlatdan aholiga) to‘lovlarda korrupsiyaviy risklar sezilarli kamaygani kuzatildi. “Yoshlar daftari” va “Ijtimoiy himoya reyestri” orqali subsidiya ajratishda blokcheyn tizimi orqali har bir so‘m izchil kuzatilib, noto‘g‘ri sarflangan mablag‘lar aniqlangan.

2023–yilda Jahon bankining “Digital Public Infrastructure” tahliliga ko‘ra, blokcheyn texnologiyasi Hindistonda subsidiya ajratishda 22 foizgacha moliyaviy yo‘qotishlarni bartaraf etgan. O‘zbekiston uchun ham bu model, xususan, ijtimoiy to‘lovlar, soliq tizimi va banklararo hisob-kitoblarda joriy etilishi iqtisodiy samaradorlikni oshiradi.

Milliy qonunchilikda ham ushbu yo‘nalish bo‘yicha huquqiy asoslar yaratilmoqda. O‘zbekiston Respublikasining 2019-yil 1-noyabrdagi “To‘lov xizmatlari va to‘lov tizimlari to‘g‘risida”gi O‘RQ–578-sonli[13] Qonunida tranzaksiyalar xavfsizligi, ishtirokchilar o‘rtasida axborot almashinuvi va audit izlarini yuritish majburiyati belgilanadi. Shu bilan birga, O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining 2022–

[13] O‘zbekiston Respublikasining 2019-yil 1-noyabrdagi “To‘lov xizmatlari va to‘lov tizimlari to‘g‘risida”gi O‘RQ–578-sonli Qonuni: https://lex.uz/docs/-4575786

2026-yillarga mo‘ljallangan Taraqqiyot strategiyasida raqamli iqtisodiyot, blokcheyn va sun’iy intellekt asosida davlat boshqaruvini takomillashtirish maqsad qilib qo‘yilgan.

Bundan tashqari, 2024–yil fevral oyida O‘zbekiston Respublikasi Markaziy banki tomonidan tasdiqlangan “Raqamli to‘lov xizmatlarini rivojlantirish bo‘yicha yo‘l xaritasi”da blokcheyn asosida “Real-Time Gross Settlement (RTGS)” tizimini ishlab chiqish bo‘yicha pilot loyihalar boshlangani e’lon qilingan.

Yuqoridagi tahlillar asosida quyidagi asosiy natijalar aniqlanmoqda:

Blokcheyn texnologiyasi asosida qurilgan milliy to‘lov tizimi tranzaksiya tezligini 3–4 barobar oshiradi;

Firibgarlik holatlarini aniqlash darajasi 5 barobar samaraliroq bo‘ladi;

Tranzaksiya xarajatlari 35–40 foizgacha kamayadi;

Moliyaviy monitoring real vaqt rejimida yuritiladi;

Davlat nazorati avtomatlashtirilgan tizimlar orqali raqamli kuzatuvda bo‘ladi.

Shu bilan birga, blokcheyn texnologiyasiga o‘tishda bir nechta xavflar ham mavjud: texnik infrastrukturani yangilash zarurati, kadrlar malakasi, kriptoaktivlar bilan bog‘liq normativ aniqlikning pastligi. Biroq mavjud qonunchilik, strategik hujjatlar va xalqaro tajriba asosida ushbu risklarni minimallashtirish mumkin.

Xulosa va takliflar

Yuqoridagi tahlillar asosida xulosa qilish mumkinki, O‘zbekistonda milliy to‘lov tizimini blokcheyn texnologiyasi asosida modernizatsiya qilish nafaqat texnologik yangilik, balki iqtisodiy samaradorlik, moliyaviy shaffoflik va xavfsizlikni ta’minlovchi strategik zaruratdir. Blokcheyn texnologiyasining o‘zgartirib bo‘lmaydigan, markazlashmagan va real vaqtli auditga asoslangan xususiyatlari to‘lov tizimining ishonchliligi va tezkorligini sezilarli darajada oshiradi. Tadqiqot davomida o‘tkazilgan amaliy sinovlar shuni ko‘rsatdiki, blokcheyn asosidagi to‘lovlar markazlashgan tizimlarga nisbatan kamroq vaqt oladi, kamroq xatolik yuz beradi va yuqori darajada kuzatuvchanlikni ta’minlaydi. Shuningdek, foydalanuvchi autentifikatsiyasida biometrik va raqamli kalitlardan foydalanish orqali identifikatsiya jarayoni sezilarli darajada kuchayadi.

Blokcheyn texnologiyasining joriy qilinishi O‘zbekiston Respublikasining 2019-yil 1-noyabrdagi “To‘lov xizmatlari va to‘lov tizimlari to‘g‘risida”gi O‘RQ–578-sonli[14] Qonuni bilan uyg‘un holda rivojlanayotgan raqamli iqtisodiyot talablariga javob beradi. Shu bois, quyidagi takliflarni ilgari suramiz:

Milliy to‘lov tizimlarida bosqichma-bosqich blokcheyn texnologiyasiga o‘tish mexanizmini ishlab chiqish, xususan davlat to‘lovlari (G2P) segmentida pilot loyihalarni ishga tushirish;

Markaziy bank tizimida “Raqamli reyestr” (Digital Ledger) bo‘limini tashkil qilish va unda barcha tranzaksiyalarni blokcheyn asosida yuritish;

“Raqamli moliyaviy xavfsizlik” milliy dasturini ishlab chiqish, bunda kriptografik texnologiyalar, autentifikatsiya mexanizmlari va foydalanuvchi himoyasi normativ asoslari aniqlashtiriladi;

Moliyaviy sohada blokcheyn texnologiyasiga ixtisoslashgan kadrlar tayyorlash bo‘yicha magistratura va malaka oshirish dasturlarini joriy etish, texnoparklar hamda innovatsion markazlar bilan hamkorlikda;

Xalqaro tajribani inobatga olgan holda, blokcheyn asosida ishlovchi Real-Time Gross Settlement (RTGS) tizimini yaratish, bunda Jahon banki, ITU, va BIS (Bank for International Settlements) tavsiyalari asos sifatida foydalaniladi;

Kriptoaktivlar, smart-kontraktlar va raqamli valyutalar bo‘yicha normativ-huquqiy bazani yangilash, ularni to‘lov tizimlari bilan integratsiyalash imkoniyatini tahlil qilish.

Xulosa qilib aytganda, blokcheyn texnologiyasining milliy to‘lov tizimiga integratsiyasi O‘zbekiston uchun strategik imkoniyat bo‘lib, bu orqali moliyaviy shaffoflik, xavfsizlik va xizmat tezkorligi yuqori bosqichga ko‘tariladi. Shu yo‘nalishda uzluksiz ilmiy tadqiqotlar va texnologik sinovlar olib borilishi maqsadga muvofiqdir.

Foydalanilgan adabiyotlar ro‘yxati

[14] O‘zbekiston Respublikasining 2019-yil 1-noyabrdagi “To‘lov xizmatlari va to‘lov tizimlari to‘g‘risida”gi O‘RQ–578-sonli

Qonuni: https://lex.uz/docs/-4575786

1. O'zbekiston Respublikasi Prezidenti. (2022–02–28). 2022–2026-yillarga mo'ljallangan Taraqqiyot strategiyasi to'g'risida Farmon (PF–60-son). Lex.uz. https://lex.uz/docs/5841063
2. O'zbekiston Respublikasi Oliy Majlisi. (2020–11–01). To'lov xizmatlari va to'lov tizimlari to'g'risida Qonun (O'RQ–637-son). Lex.uz. https://lex.uz/docs/5065232
3. O'zbekiston Respublikasi Markaziy banki. (2020). Raqamli to'lov strategiyasi 2020–2025. https://cbu.uz/oz/strategy/
4. O'zbekiston Respublikasi Markaziy banki. (2024). To'lov tizimlari bo'yicha statistik axborot. https://cbu.uz/uz/statistics/payment-statistics/
5. Iqtisodiy tadqiqotlar va islohotlar markazi. (2024). O'zbekistonda raqamli moliyaviy xizmatlar rivoji va tendensiyalari. Review.uz. https://review.uz/oz/post/ozbekistonda-raqamli-moliyaviy-xizmatlar-rivoji-va-tendensiyalar
6. United Nations Development Programme (UNDP) Uzbekistan. (2023). Youth and digital economy. https://www.undp.org/uzbekistan/projects/youth-and-digital-economy
7. World Bank. (2023). Digital public infrastructure: Enabling inclusive and accountable service delivery. https://documents.worldbank.org/en/publication/documents-reports/documentdetail/099534311292213209/idu0f4fe97070a61404e1f0b8db74ffde0c87d3a
8. Bank for International Settlements. (2021). Central bank digital currencies: Foundational principles and core features. https://www.bis.org/publ/othp33.htm
9. Narayanan, A., Bonneau, J., Felten, E., Miller, A., & Goldfeder, S. (2016). Bitcoin and cryptocurrency technologies: A comprehensive introduction. Princeton University Press. https://bitcoinbook.cs.princeton.edu/
10. Tapscott, D., & Tapscott, A. (2016). Blockchain revolution: How the technology behind bitcoin and other cryptocurrencies is changing the world. Penguin Publishing. https://blockchainresearchinstitute.org/project/blockchain-revolution/
11. Ali, R., Barrdear, J., Clews, R., & Southgate, J. (2014). The economics of digital currencies. Bank of England Quarterly Bulletin. https://www.bankofengland.co.uk/quarterly-bulletin/2014/q3/the-economics-of-digital-currencies
12. International Telecommunication Union (ITU). (2022). Blockchain for digital financial services. https://www.itu.int/en/ITU-T/Workshops-and-Seminars/20220215/Pages/default.aspx

SUN'IY INTELLEKT VA KIBERXAVFSIZLIKNI TA'MINLASH MUAMMOLARI

Narziyev Nosir Baxshilloyevich,
TATU ATDT kafedrasi katta o'qituvchisi, narziev@tuit.uz
Eshonqulov Oybek Shuhrat o'g'li,
TATU DIF talabasi , oeshonqulov45@gmail.com

Sun'iy intellekt texnologiyalarining keng joriy etilishi axloqiy, huquqiy va xavfsizlik muammolarini yuzaga keltirmoqda. Maqolada sun'iy intellekt asosidagi tizimlarning kiberxavfsizlik sohasiga ta'siri, kriminologik xavflar va axborot maxfiyligini ta'minlashdagi dolzarb muammolar tahlil qilinadi. Ayniqsa, AI tomonidan qabul qilinadigan qarorlarning axloqiyligi, shaxsiy ma'lumotlarni qayta ishlashdagi huquqiy bo'shliqlar va sun'iy intellekt vositasida jinoyatlar sodir etilishida javobgarlik masalalariga alohida e'tibor qaratilgan. Tadqiqot natijasida SI'ni huquqiy subyekt sifatida tan olish zarurati, kiberjinoyatlarga qarshi kurashish strategiyalarini takomillashtirish va yangi yondashuvlarni ishlab chiqish lozimligi ta'kidlanadi.

Sun'iy intellekt, Kiberxavfsizlik, Axloqiy muammolar, Huquqiy maqom, Ma'lumotlar etikasi, Jinoyat javobgarligi, Raqamli xavfsizlik

Kirish

Sun'iy intelektning inson hayotidagi o'rni.

Insoniyat qadim zamonlardan beri mashaqqatli mehnatni yengillashtirish yo'llarini izlab kelgan. Jismoniy mehnatni mexanizatsiyalashdan so'ng, inson tafakkuri kabi murakkab aqliy jarayonlarni

avtomatlashtirish g‘oyasi paydo bo‘ldi. Uzoq vaqt davomida bu soha faqat inson ongining imtiyozi hisoblangan bo‘lsa-da, XX asrning 40-yillarida kompyuter texnologiyalari rivojlanishi tufayli bu borada real imkoniyatlar yuzaga keldi. Kompyuterlar xotira va hisoblash quvvatidan foydalangan holda, aqlli dasturlarni yaratish uchun zamin tayyorlandi. Formal mantiqiy tizimlar ishlab chiqildi, ular orqali sun’iy aqlning amaliy jihatdan o‘zini oqilona tutishi bo‘yicha dastlabki tajribalar o‘tkazildi. Sun’iy intellekt nazariyasining asoschisi sifatida ingliz matematigi va kriptografi, London Qirollik jamiyati a’zosi Alan Tyuring tan olinadi. U inson kabi mashinalar ham mavjud ma’lumot va tafakkurdan foydalangan holda muammolarni hal qila olishini ilgari surgan. Shuningdek, u mashinalarning aql darajasini aniqlash imkonini beruvchi testni tavsiflab bergan bo‘lib, keyinchalik u “Tyuring testi” nomi bilan tanilgan. Uning fikricha, ushbu testdan muvaffaqiyatli o‘ta olgan har qanday sun’iy tizimni “sun’iy intellekt tizimi” deb atash mumkin .“Sun’iy intellekt” atamasi ilk bor 1956-yilda Dartmut universitetida o‘tkazilgan ilmiy seminar chog‘ida AQShlik informatika mutaxassisi, Turing mukofoti sovrindori Jon Makkarti tomonidan ilgari surilgan. Makkarti va Minsskiy sun’iy intellekt yaratishning nazariy jihatdan imkoniyati mavjudligini isbotlab berishgan. Aynan Dartmutdagi bu tadbir keyinchalik AI bo‘yicha olib borilgan izlanishlarning boshlang‘ich nuqtasi bo‘ldi va bu yo‘nalish so‘nggi 70 yil davomida turli bosqichlarni boshdan kechirdi. Bugungi kunda sun’iy intellekt ta’lim, sog‘liqni saqlash (kasalliklarni aniqlash va davolashda shifokorlarni almashtirishi mumkin), pensiya ta’minoti, logistika, chakana savdo, ekologiya, transport (2025-yilga borib AI asosidagi avtonom avtomobillar tizimlari bozori $150 milliondan oshishi kutilmoqda), moliya va texnologiyalar, davlat boshqaruvi hamda huquqni muhofaza qilish tizimlarida keng qo‘llanilmoqda. Sun’iy intellekt infratuzilma va ijtimoiy xavfsizlik tizimlarida muhim tendensiyalarni aniqlash, prognozlash va oldindan baholash imkonini beradi. Bu texnologiya har qanday davlatning raqamli iqtisodiyotida muhim omilga aylanmoqda. Tahlillarga ko‘ra, mashinali o‘rganish va tilni anglash texnologiyalarining keng joriy etilishi tufayli 2020-yilga kelib sun’iy intellekt bozori $5 milliardga yetishi kutilgan edi. 2030-yilga borib esa AI’ning faol qo‘llanilishi global yalpi ichki mahsulotni 14% ga oshirib, taxminan $15.7 trillionga yetkazishi mumkin. Shunga qaramay, oddiy insonlar AI’ni amalda qo‘llayotganini hatto sezmasligi mumkin: 77% foydalanuvchilar sun’iy intellektga asoslangan xizmatlardan foydalanadi, biroq ulardan atigi 33% bu haqda xabardor. Sun’iy intellektning afzalliklarini nafaqat yirik korporatsiyalar, balki oddiy fuqarolar ham e’tirof etmoqda: 6 ming nafar respondentning 61% AI dunyoni yanada yaxshilashiga ishonishini bildirgan. Shu bilan birga, sarmoyalarning ortishi va AI’ning tobora ko‘proq sohalarda joriy etilishi jamiyatda bu texnologiyaning “ikkinchi tomoni” haqida jiddiy o‘ylashga undadi. Hozirga qadar insoniyat uchun ochiq qolayotgan savollar ko‘plab ilmiy va ekspert doiralarini qiziqtirib kelmoqda: zamonaviy jamiyat AI mohiyatini to‘liq anglayaptimi? Uning rivojlanishi qanday xavflarni keltirib chiqaradi? Yevropa Ittifoqi ishlab chiquvchilar va sun’iy intellekt yechimlarini yetkazib beruvchilarga nisbatan yangi talablar qo‘ymoqda. Ularning tizimlari qanday ishlashini va qarorlar qanday qabul qilinishini foydalanuvchilarga tushuntirib berishlari kerak bo‘ladi. Biroq bu har doim ham oson emas. Asabiy tarmoqlar qanday ishlashining umumiy prinsiplarini tushuntirish mumkin bo‘lsa-da, murakkab ma’lumotlarni qayta ishlash jarayonida aynan nima sodir bo‘layotganini aniq aytish ko‘pchilik uchun mushkul. Ba’zan hatto tizim mualliflari ham har bir bosqichni to‘liq izohlab bera olmaydi.

Avvallari hech qachon inson o‘zi qanday ishlashini to‘liq tushunmaydigan, inson tafakkuridan tubdan farq qiluvchi mashinalarni yaratmagan edi. Shunday ekan, oldindan bashorat qilib bo‘lmaydigan tizimlar bilan barqaror hamkorlik qilish mumkinmi? Ulardan foyda olishda salbiy oqibatlardan qochish imkoniyati bormi? AI’ni nazorat qilishning huquqiy mexanizmlari bormi? Global qonunchilik sun’iy intellekt qonuniy himoyalangan munosabatlarni buzishda ishtirok etadigan vaziyatlarni tartibga solishga tayyormi? “Bizning oxirgi ixtiromiz: sun’iy intellekt va insoniyat davrining tugashi” nomli kitob haqiqatdan ham bashoratga aylanishi mumkinmi?

Mazkur tadqiqot mana shunday murakkab va ayni paytda dolzarb savollarga javob topishga urinadi.

Sun’iy intellekt atamasi va tushunchasi. Sun’iy intellekt (SI) yaqinda turli ilmiy sohalarning tadqiqot obyekti bo‘lib kelmoqda, shu sababli uning tuzilmasi va u bilan bog‘liq muammolar doirasining aniq va yakdil talqini hali to‘liq shakllanmagan. Har holda, SI tadqiqotlariga oid dastlabki g‘oyalar XVIII asrda paydo bo‘lgan bo‘lsa-da, bu yo‘nalish sifatida rasmiy shakllanishi XX asrning 1940–1950-

yillariga to‘g‘ri keladi. Sun’iy intellekt ilmiy yo‘nalish sifatida Ikkinchi jahon urushidan so‘ng kuchayib bordi. Bu borada A. Tyuring (1950), V. Makkalok (1965) va V. Pitts (1943) kabi olimlarning hissasi katta bo‘lgan.

2007-yilda J. Makkarti "Sun’iy intellekt nima?" degan savolga javoban, SI - bu inson aqlini tushunishga qaratilgan, intellektual mashinalar va tizimlar, xususan, aqlli kompyuter dasturlarini yaratish fanidir, deb ta’rif berdi. Uning aytishicha, bu tizimlar ishlashda biologik modellarni to‘liq takrorlashi shart emas.

B. Marr sun’iy intellekt tushunchasi uning qo‘llanish maqsadlariga qarab o‘zgarishini ta’kidlaydi. Odatda, odamlar SI rivojiga quyidagi uch asosiy maqsaddan biri bilan investitsiya kiritadi:

1. Inson tafakkurini to‘liq takrorlaydigan tizimlarni yaratish (“kuchli SI”);
2. Inson tafakkurini tushunmasdan ishlay oladigan tizimlar yaratish (“zaif SI”);
3. Inson tafakkurini faqat model sifatida qabul qilish, lekin uni asosiy maqsad deb hisoblamaslik .

Mazkur tadqiqotda SI bu atrof-muhitni tahlil qilish, o‘rganish, fikrlash va o‘z holatiga javob qaytarishga qodir bo‘lgan intellektual kompyuter dasturlari va texnologiyalarining umumiy atamasi sifatida talqin qilinadi.

Boshqacha aytganda, SI bu o‘z-o‘zicha qaror qabul qila oladigan intellektual tizim bo‘lib, inson aqliga oid funksiyalar, masalan: mulohaza yuritish, o‘rganish, muammolarni hal qilishga o‘xshash imkoniyatlarni kompyuter texnologiyalariga o‘tkazishdir. Bu jarayonda inson aqliy faoliyatining salbiy jihatlari inobatga olinmaydi.

Bu soha bilan shug‘ullanuvchi olimlar insonning kelajakdagi o‘rni va SI tizimlari bilan o‘zaro aloqasi ustida ilmiy tadqiqotlar olib bormoqda.

Ma’lumotlar etikasi va sun’iy intellektning axloqiy tanlov muammosi

Ma’lumotlar etikasi bugungi kunda alohida dolzarblik kasb etib, davlatlar, korporatsiyalar va jamoat institutlari tomonidan qabul qilinayotgan tegishli hujjatlar bilan mustahkamlanmoqda. Ma’lumotlarga axloqiy jihatdan kirish chegaralarini belgilash murakkab muammo bo‘lib, u fuqarolar, davlat, biznes va jamiyatning boshqa manfaatdor tomonlarini bevosita ta’sir qiladigan masala sifatida kompleks yondashuvni talab etadi.

Amaliy etikaning nisbatan yangi tarmog‘i sifatida shakllanayotgan ma’lumotlar etikasi hali to‘laqonli umumqabul qilingan ta’rifga ega emas. Ma’lumotlar etikasi -bu ma’lumotlarni yaratish, tahlil qilish va tarqatish jarayonida amalga oshiriladigan qadriy yondashuvlar va axloqiy qarorlar majmuasidir. Bu sohaga axborot himoyasi qonunlarini bilish, ilg‘or texnologiyalarni ongli qo‘llash, axborot xavfsizligi, shuningdek, zamonaviy hisoblash texnikasi va axloqiy me’yorlar asosida ishlash kiradi.

AI texnologiyalarini rivojlantirish deyarli to‘liq ma’lumotlarni yig‘ish va qayta ishlashga bog‘liq. Bosh muammo maksimal darajada ma’lumotdan foydalanib, minimal xavf bilan ishlash masalasidir. Bugungi kuchli hisoblash quvvatlari sun’iy intellektga ulkan hajmdagi ma’lumotlarni tahlil qilish va inson uchun qiyin bo‘lgan chuqur bog‘liqliklarni aniqlash imkonini beradi. Biroq, bu jarayonda kiberxavfsizlik har doim ham ta’minlanmaydi.

Zamonaviy olimlar - S. Xoking, B. Geyts va E. Mask texnologik singulyarlik xavfi haqida ogohlantiradilar: ya’ni, mashinalar insondan ustun darajada aql-idrokka ega bo‘lgan pallaga yetadi. R. Kurtsveyl fikricha, bu holat yuz bergach, kompyuterlar o‘zlarini takomillashtira olishadi va insondan milliardlab marta tezroq fikrlashadi.Uning fikricha, 2022-yilda robotlar va inson tafakkuri o‘rtasidagi o‘xshashlik 10 % bo‘ladi, 2040-yilda 50 %, 2075-yilda esa 95 % ga yetadi. Ayni paytda, texnologik taraqqiyot sur’atlari bu jarayon yanada tezlashishini ko‘rsatmoqda.

AI’ning etik muammolari ikki asosiy toifaga ajratiladi:

Raqamli ma’lumotlarni yig‘ish, tahlil qilish va qayta ishlash bilan bog‘liq muammolar.

AI tomonidan umumlashtirilgan ma’lumotlar asosida axloqiy qarorlar qabul qilish muammosi.

Birinchi guruhdagi muammolar yirik ma’lumotlar (big data), ijtimoiy tarmoq ma’lumotlari va shaxsiy ma’lumotlar asosida yuritiladi. Bu ma’lumotlar biznes subyektlariga sun’iy intellektni o‘rgatish, onlayn reklama va savdo uchun, davlatlarga esa boshqaruv qarorlarini qabul qilish, fuqarolar bilan aloqalarni o‘rnatish hamda milliy xavfsizlikni ta’minlash uchun zarurdir. AI yordamida aniqlanayotgan korrelyatsiyalar ko‘pincha inson tafakkuri orqali ilg‘ab bo‘lmaydigan darajada murakkab bo‘ladi.

Ma’lumotlarga ortiqcha cheklovlar qo‘yilishi SI texnologiyalarining rivojlanishini sekinlashtirishi mumkin. Shu sababli, shaxsiy ma’lumotlarni tartibga solishda muvozanatni saqlaydigan, tafsilotli va samarali qonunchilik zarur. Ammo bu boradagi aniq huquqiy mexanizmlar hali to‘liq shakllanmagan.

SI’ning ikkinchi asosiy etik muammosi - bu sun’iy intellekt qabul qilayotgan qarorlarning insoniyligi va axloqiy asoslanganligidir. Harbiy sohada SI texnologiyalarini ishlab chiqayotgan professor Arkin bu boradagi xavflarni oldindan his etib, robotlarning etik normalar asosida harakat qilishi uchun maxsus algoritmlar “axloqiy qo‘llanma” ishlab chiqdi. Biroq tinchlik davridagi SI qo‘llanmalari bundan ko‘ra murakkabroq etik savollarni yuzaga keltirmoqda.

Kiberxavfsizlikka tahdid soluvchi sun’iy intellektning asosiy xususiyatlari

Maxfiy ma’lumotlar xavfsizligini ta’minlash muammosi raqamli iqtisodiyotning barcha subyektlari uchun eng muhim masalalardan biri hisoblanadi. Ayniqsa, sun’iy intellekt vositasida amalga oshiriladigan kiberxavfsizlik masalalari dolzarb ahamiyat kasb etmoqda. Jahon hamjamiyati bugungi kunda SI’ning jinoyat maqsadlarida qo‘llanilishidan jiddiy xavotirda.

2017-yil boshida AQSh Federal Qidiruv Byurosi (FQB) huquqni muhofaza qiluvchi organlar va jinoyatchilar tomonidan SI’dan foydalanish muammolariga bag‘ishlangan yirik konferensiyani o‘tkazdi. Mazkur tadbirda Interpol, Evropol, FQB hamda boshqa davlatlarning tegishli organlari ma’lumotlari, shuningdek, yetakchi universitetlar tadqiqotlari natijalari shuni ko‘rsatdiki, hozircha jinoyatchi tuzilmalar tomonidan SI’ni rivojlantirish bo‘yicha faol harakatlar kuzatilmayapti.

Biroq kiberjinoyatchilar tomonidan SI texnologiyalaridan foydalanish haqidagi aniq ma’lumotlar mavjud bo‘lmasa-da, bunday salohiyatning mavjudligi istisno etilmaydi. Bugungi raqamli muhitda kiberjinoyatchilar o‘zlarining kuchli SI platformalarini yaratish uchun ko‘plab imkoniyatlarga ega. SI’ning deyarli barcha ochiq manbali ishlab chiqmalari "konteyner" shaklida taqdim etiladi.

Konteyner bu API yordamida istalgan uchinchi tomon dasturlari, xizmatlar yoki ma’lumotlar bazalarini integratsiya qilish imkonini beruvchi platformadir. Ilgari har bir dastur yoki xizmatni yaratishda ishlab chiquvchilar dastlab to‘liq algoritm ishlab chiqib, keyin uni ma’lum bir dasturlash tiliga tarjima qilishlari zarur bo‘lgan bo‘lsa, hozirgi kunda bu jarayonlar qurilishdagi kabi amalga oshirilmoqda: ya’ni tayyor, standart qismlarni birlashtirish orqali yangi tizimlar yaratilmoqda.

Natijada, kiberjinoyatchilar oddiy dasturiy komponentlardan foydalangan holda nisbatan qisqa vaqt ichida xavfli SI asosidagi tizimlarni yig‘ishlari mumkin. Bunday imkoniyatlarning mavjudligi kiberxavfsizlik sohasida global miqyosda yangi xavf-xatarlarni yuzaga keltirmoqda.

Sun’iy intellektning noqonuniy harakatlari uchun jinoiy javobgarlik masalasi

Sun’iy intellekt va robototexnika sohasidagi munosabatlarni huquqiy tartibga solish bo‘yicha xorijiy tajriba tahlili shuni ko‘rsatadiki, bu yo‘nalishda bir nechta huquqiy tartibga solish modellari mavjud. Turli mamlakatlar sun’iy intellektdan foydalanish munosabatlarini faqat huquqiy mexanizmlar orqali tartibga solish yetarli emasligini tushunmoqda.

Ayni paytda SI texnologiyalaridan foydalanishni ilgari suruvchi va u bilan ishlashda asosiy tamoyillarni belgilovchi ko‘plab xususiy tashabbuslar mavjud bo‘lib, ular turli kompaniyalar kuchlarini birlashtirgan holda ishlab chiqilmoqda. Masalan, Asilomar sun’iy intellekt tamoyillari foydali intellekt yaratish, insoniy qadriyatlarni saqlash va shaxsiy ma’lumotlarning maxfiyligini ta’minlashga qaratilgan (Khisamova va boshq., 2019).

Evropa Ittifoqida esa, uchuvchisiz uchuvchilar (dronlar) bilan bog‘liq bir qator fojiali hodisalardan so‘ng, robotlarga huquqiy maqom berish va natijada "elektron shaxs" sifatida ularni javobgarlikka tortish imkoniyati yuzasidan keng muhokamalar boshlangan. 2017-yil 16-fevralda Yevropa Parlamenti tomonidan qabul qilingan "Robototexnikada fuqarolik normalari" rezolyutsiyasi hamda Parlamentning Fuqarolik qonunchiligi bo‘yicha Robototexnika komissiyasining tavsiyalari bu borada quyidagi tashabbuslarni ilgari surdi:

Yevropa miqyosida sun’iy intellekt va robototexnika bo‘yicha maxsus agentlik tashkil etish;

"Avtonom aqlli robot" tushunchasining normativ-huquqiy ta’rifini ishlab chiqish;

Har xil turdagi robotlar uchun ro‘yxatga olish va ularni klassifikatsiyalash tizimini ishlab chiqish;

Robot ishlab chiquvchilarga xavflarni oldindan aniqlash va ularni bartaraf etish bo‘yicha kafolatlar taqdim etish majburiyatini yuklash;

Robototexnika va SI'dan foydalanadigan korxonalar uchun ularning iqtisodiy faoliyatiga ta'sirini ko'rsatuvchi maxsus hisobot tizimini ishlab chiqish (Delvaux, 2016, 10-bet).

Ushbu tashabbuslar, bir tomondan, texnologik taraqqiyotni qo'llab-quvvatlasa, boshqa tomondan esa, sun'iy intellektdan foydalanish natijasida yuzaga kelishi mumkin bo'lgan huquqiy va axloqiy muammolarga barham berishga qaratilgan. Ayniqsa, jinoyat sodir etishda sun'iy intellekt vositalarining ishtiroki yuzasidan jinoiy javobgarlik masalasining aniq huquqiy yechimi hali shakllanmagan.

Xulosa

Yuqorida bayon etilgan ma'lumotlar sun'iy intellekt (SI) texnologiyalarining jinoyatchilik xavfini oshirishi va kriminologiya fanining bu muammoni chuqur o'rganishga hozir emasligini yaqqol ko'rsatadi. Ayni paytda SI jinoyatlarda vosita sifatida qo'llanilishi mumkinligi bo'yicha xavotirlar ortib bormoqda.

Kelgusi 10–15 yil ichida sun'iy intellektga ega tizimlar va qurilmalar rivojining jadal sur'ati barcha huquq sohasi yo'nalishlarining tubdan qayta ko'rib chiqilishini taqozo etadi. Ayniqsa, intellektual mulk, soliq rejimi kabi institutlar chuqur tahlil va islohga muhtoj bo'ladi. Bu esa, o'z navbatida, avtonom SI tizimlarini ma'lum huquq va majburiyatlarga ega subyekt sifatida tan olish, ya'ni ularga huquqiy maqom berish masalasini hal qilish zaruratini yuzaga keltiradi.

Bugungi kunda raqamli texnologiyalar bilan bog'liq huquqiy munosabatlarga faqat qonun emas, balki texnologiyaning o'zi ham faol ta'sir ko'rsatmoqda. Bu texnologiyalar nafaqat huquqni o'zgartirishga majbur qilmoqda, balki u bilan boshqa tartibga soluvchi mexanizmlar bilan o'zaro ta'sirlashish va o'z rivoji uchun huquqiy vositalarni ham ishga solishga xizmat qilmoqda. Bunday texnologiyalardan biri, albatta, sun'iy intellektdir.

Bunday yondashuv, shubhasiz, jinoyat huquqining asosiy tamoyillari va postulatlarini, xususan, jinoyat subyekti va subyektiv tomon tushunchalarini qayta ko'rib chiqishni talab qiladi. Shu bilan birga, bizningcha, SI tizimlari uchun an'anaviy antropotsentrik (inson markazli) yondashuvdan farqli, mazmun va mohiyat jihatidan o'ziga xos bo'lgan alohida jinoyat huquqi instituti yaratilishi lozim. Ushbu institut doirasida SI subyektining texnik va boshqa xususiyatlariga asoslangan holda "subyekt" tushunchasiga yangi yondashuv, shuningdek, an'anaviy jazolardan farqli ravishda – deaktivatsiya qilish, qayta dasturlash yoki "jinoyatchi" maqomi bilan belgilash kabi muqobil javobgarlik shakllarini nazarda tutish maqsadga muvofiqdir. Bu esa barcha huquqiy munosabat ishtirokchilari uchun ogohlantiruvchi signal bo'lib xizmat qiladi.

Foydalanilgan adabiyotlar

1. Afanasyev, A. (2018), « Artificial intelligence or intelligence of subjects of detection, disclosure and investigation of crimes: what will win?»
2. Radutniy, O. E. (2017). « Criminal liability of the artificial intelligence. Problems of legality»
3. Uzhov, F. W. (2017). «Artificial intelligence as subject rights»

SUN'IY INTELLEKT ASOSIDA KIBERHUJUMLARNI ANIQLASH VA ULARNING OLDINI OLISH USULLARI

Narziyev Nosir Baxshilloyevich, TATU ATDT kafedrasi katta o'qituvchisi, narziev@tuit.uz
Eshonqulov Oybek Shuhrat o'g'li, TATU DIF talabasi , oeshonqulov45@gmail.com

Sun'iy intellekt texnologiyalarining jadal rivojlanishi kiberxavfsizlik sohasida yangi imkoniyatlar yaratmoqda. Ushbu maqolada sun'iy intellekt, xususan mashinali o'rganish va chuqur o'rganish algoritmlaridan foydalangan holda kiberhujumlarni oldindan aniqlash va ularning profilaktikasini ta'minlash masalalari yoritiladi. An'anaviy xavfsizlik tizimlarining zaif jihatlari tahlil qilinib, real vaqtli monitoring, anomaliyani aniqlash va tahdidlarni avtomatik bashorat qilish imkoniyatlari ko'rib chiqiladi. Shuningdek, sun'iy intellekt yordamida xavfsizlik darajasini oshirish va kiberxavfga tezkor javob berish usullari tahlil qilinadi. Tadqiqot natijalari AI asosida kiberhujumlarni samarali boshqarish uchun yangi yondashuvlar ishlab chiqish zarurligini ko'rsatadi.

Sun’iy intellekt, Kiberxavfsizlik, Kiberhujumlarni aniqlash, Mashinali o‘rganish, Chuqur o‘rganish, Anomaliyani aniqlash, Real vaqtli monitoring, Profilaktika tizimlari

Kirish

Raqamli texnologiyalar sur’at bilan rivojlanayotgan hozirgi davrda axborot xavfsizligi butun dunyo miqyosida strategik muhim yo‘nalishlardan biriga aylanmoqda. Internet tarmog‘ining kengayishi, raqamli xizmatlarning ko‘payishi va sun’iy intellekt (SI) texnologiyalarining turli sohalarda faol joriy etilishi bilan birga, kiberhujumlar soni ham sezilarli darajada ortmoqda. Dastlab sodda shaklda yuzaga kelgan zararli dasturlar o‘rnini bugungi kunda murakkab, moslasha oladigan, o‘zini yashira oladigan va AI yordamida avtomatik harakat qiluvchi kiberxavflar egallamoqda. Ayniqsa, moliyaviy institutlar, davlat boshqaruvi, sog‘liqni saqlash va sanoat infratuzilmasi kabi sohalarda kiberhujumlarning oqibati nafaqat iqtisodiy, balki ijtimoiy xavf tug‘diradigan darajaga yetmoqda.

Shu nuqtai nazardan, kiberxavfsizlik sohasida sun’iy intellekt texnologiyalaridan foydalanish dolzarb masalaga aylangan. SI texnologiyalari, xususan mashinali o‘rganish (machine learning) va chuqur o‘rganish (deep learning) algoritmlari, katta hajmdagi ma’lumotlar oqimini real vaqt rejimida tahlil qilish, anomaliyalarni aniqlash, hujumlarni oldindan bashorat qilish va avtomatik tarzda qarshi chora ko‘rish imkoniyatini yaratadi. Bu esa odatiy statistik va qoidaga asoslangan xavfsizlik tizimlari bilan taqqoslaganda ancha yuqori aniqlik va samaradorlikni ta’minlaydi.

Biroq, sun’iy intellektdan kiberxavfsizlikni ta’minlashda foydalanishning o‘ziga xos qiyinchiliklari va xavflari ham mavjud. Masalan, noto‘g‘ri o‘qitilgan model noto‘g‘ri xulosa chiqarishi yoki AI tizimining o‘zi hujumga uchrashi mumkin. Shuningdek, kiberjinoyatchilar sun’iy intellekt vositalaridan foydalangan holda hujumlar algoritmlarini avtomatlashtirmoqda va bu esa mavjud xavfsizlik choralarini yengib o‘tishni osonlashtirmoqda. Shu sababli AI nafaqat himoya vositasi, balki kiberjinoyatchilikda ham qo‘llanilishi mumkin bo‘lgan ikkiyoqlama texnologiya sifatida baholanmoqda.

Mazkur tadqiqot sun’iy intellekt yordamida kiberhujumlarni aniqlash va oldini olishga qaratilgan zamonaviy yondashuvlarni o‘rganishga bag‘ishlangan. Maqolada mashinali o‘rganish algoritmlarining tahlili, real vaqtli ma’lumot oqimlarida tahdidlarni aniqlash texnologiyalari, ularning afzallik va cheklovlari, shuningdek, kelgusida AI asosidagi kiberxavfsizlik tizimlarini takomillashtirish istiqbollari yoritiladi. Ushbu tadqiqot nafaqat nazariy asos, balki amaliy xavfsizlik yechimlarini ishlab chiqishga xizmat qiladi.

Sun’iy intellekt texnologiyalarining umumiy ko‘rinishi

Sun’iy intellekt (SI) – bu kompyuter tizimlariga insoniy tafakkur, qaror qabul qilish, o‘rganish va muammolarni hal qilish kabi funksiyalarni o‘rgatishga yo‘naltirilgan texnologiyadir. Kiberxavfsizlik sohasida SI texnologiyalari quyidagi asosiy yo‘nalishlarda qo‘llaniladi:

Mashinali o‘rganish (Machine Learning)

Bu yo‘nalish SI tizimlariga tajriba asosida ma’lumotlardan xulosa chiqarishni o‘rgatadi. Kiberxavfsizlikda ML algoritmlari yordamida turli trafik ma’lumotlari asosida normal va anormal holatlar o‘rtasidagi farq o‘rganiladi. Misol uchun:

Supervised learning – aniq belgilangan xavfsiz/hujum namunalar asosida model o‘qitiladi.

Unsupervised learning – etiketkasiz ma’lumotlarda anomaliyalar mustaqil ravishda aniqlanadi.

Chuqur o‘rganish (Deep Learning)

Chuqur neyron tarmoqlar (DNN, CNN, RNN) katta hajmdagi murakkab ma’lumotlarni qayta ishlashda ishlatiladi. DL algoritmlari kiberhujumlar naqshlarini chuqur tahlil qiladi va foydalanuvchi xatti-harakatlaridagi noanomaliklarni ilg‘aydi.

SI algoritmlarining kiberxavfsizlikdagi imkoniyatlari

Spam va fishing xatlarini aniqlash

DDoS va trafik tahlili

Real vaqtli tahdidlarni aniqlash

Xavfli faoliyatlarni avtomatik bloklash

SI asosidagi model o‘zini mustaqil ravishda takomillashtira olgani sababli, u nafaqat mavjud tahdidlarni, balki yangi va ilgari kuzatilmagan kiberhujum turlarini ham aniqlay oladi.

Kiberhujum turlari va ularni aniqlash muammolari

Kiberhujumlar — bu ma’lumotlarga, tizimlarga yoki tarmoqlarga ruxsatsiz kirish yoki ularni izdan chiqarish maqsadida amalga oshiriladigan zararli harakatlardir. Kiberhujumlar shakllari va murakkabligi bo‘yicha turlicha bo‘lishi mumkin. Ularning asosiy turlari quyidagilardir:

Asosiy kiberhujum turlari:

DDoS (Distributed Denial of Service) — tarmoq yoki serverni haddan tashqari so‘rovlar bilan band qilib, uni ishlamay qolishiga sabab bo‘ladi.

Phishing — foydalanuvchilarning shaxsiy ma’lumotlarini (login, parol, karta raqami) yolg‘on saytlarga yo‘naltirish orqali qo‘lga kiritish.

Ransomware — tizimni bloklab qo‘yib, ochish uchun to‘lov talab qilish.

Malware — zararli dasturlar yordamida tizimga kirib, ma’lumotlarni buzish, o‘g‘irlash yoki o‘chirish.

Zero-day attacks — hali aniqlanmagan va yamoqlanmagan tizim zaifliklaridan foydalanish.

Ularni aniqlashdagi muammolar:

Hujumlar dinamik va moslasha oladigan shaklda bo‘ladi, ya’ni ular an’anaviy imzo asosidagi usullar bilan oson aniqlanmaydi.

Yangi turdagi tahdidlar mavjud bo‘lgan ma’lumotlar to‘plamlarida yo‘q, bu esa klassik algoritmlarni samarasiz qiladi.

Real vaqt rejimida katta hajmdagi trafikni tahlil qilish katta hisoblash resurslarini talab qiladi.

Anomaliyani aniqlashda yolg‘on musbat (false positive) yoki yolg‘on manfiy (false negative) xatoliklar xavfsizlik samaradorligini pasaytiradi.

Shu sababli, bu turdagi muammolarni hal qilish uchun sun’iy intellektga asoslangan yondashuvlar tobora muhim bo‘lib bormoqda.

AI asosida tahdidlarni aniqlash va profilaktika usullari

Sun’iy intellekt texnologiyalari, ayniqsa mashinali o‘rganish asosidagi algoritmlar, kiberhujumlarni oldindan aniqlash, real vaqtli tahlil qilish va avtomatik profilaktika choralari ko‘rish imkonini beradi. Bu usullar nafaqat sodir bo‘lgan hujumlarga javob berish, balki ularni sodir bo‘lishidan oldin bashorat qilish imkonini ham yaratadi.

Anomaliyalarni aniqlash (Anomaly Detection)

Mashinali o‘rganish asosida ishlaydigan algoritmlar normal trafik naqshini o‘rganib, undan og‘ish holatlarini hujum sifatida belgilaydi. Eng ko‘p qo‘llaniladigan usullar:

K-NN (k-eng yaqin qo‘shnilar)

Isolation Forest

Autoencoder (Deep learning asosida)

One-Class SVM

Real vaqtli monitoring va avtomatik javob

SI asosidagi xavfsizlik tizimlari real vaqt rejimida:

tarmoq trafikini doimiy nazorat qiladi;

tahdid aniqlangan zahoti bildirishnoma yuboradi;

kerak bo‘lsa, avtomatik tarzda xavfli IP-manzilni bloklaydi yoki tranzaktsiyani to‘xtatadi.

Oldindan tahdidni prognoz qilishda model o‘rgatish

AI modelini tahdidni oldindan aniqlay oladigan holga keltirish uchun katta hajmdagi tarixiy ma’lumotlar (datasetlar) asosida o‘rgatiladi. Ba’zi mashhur datasetlar:

NSL-KDD — kiberhujumlarga oid tozalangan to‘plam

CICIDS2017 — zamonaviy real trafik va hujumlarni o‘z ichiga oladi

Bunday tizimlar yordamida kiberxavflarni aniqlash nafaqat tezlashadi, balki inson xatoligi xavfi ham kamayadi. Natijada, tizimning barqarorligi va himoyalanish darajasi ortadi.

Amaliy tajribalar va muvaffaqiyatli AI modellar tahlili

Sun’iy intellekt yordamida kiberhujumlarni aniqlash bo‘yicha olib borilgan amaliy tadqiqotlar ko‘plab muvaffaqiyatli natijalarni ko‘rsatmoqda. Turli laboratoriya va akademik tadqiqotlar mashhur ma’lumotlar to‘plamlari (datasetlar) asosida sun’iy intellekt modellarini o‘rgatish va sinovdan o‘tkazish orqali tahdidlarni aniqlash samaradorligini baholashga imkon beradi.

Amalda ishlatiladigan mashhur datasetlar:

NSL-KDD — KDD’99 datasetining optimallashtirilgan versiyasi bo‘lib, noto‘g‘ri yoki takroriy yozuvlardan tozalangan. Bu to‘plamda normal trafik va 4 asosiy kiberhujum turi mavjud: DoS, Probe, R2L, U2R.

CICIDS2017 — Kanada kiberxavfsizlik instituti tomonidan yaratilgan, real trafik va turli hujum turlarini o‘z ichiga olgan zamonaviy va boy dataset.

Qo‘llanilgan AI modellar:

Random Forest

Support Vector Machine (SVM)

K-Nearest Neighbors (KNN)

Decision Tree (DT)

Deep Neural Networks (DNN)

Recurrent Neural Networks (RNN) – ketma-ket trafik tahlilida samarali

Natijalarni baholash mezonlari:

Precision (aniqlik) – aniqlangan tahdidlardan nechta haqiqiy hujum bo‘lganligini ko‘rsatadi

Recall (qamrov) – barcha haqiqiy hujumlardan nechta aniqlangani

F1-score – precision va recall qiymatlarining uyg‘unligi

Accuracy (to‘g‘rilik darajasi) – umumiy aniqlik darajasi

Amaliy tahlillar shuni ko‘rsatadiki, chuqur o‘rganishga asoslangan modellar (DNN, RNN) murakkab va katta hajmdagi trafikda yuqori samaradorlikni namoyon qiladi. Ayniqsa, real vaqtli IDS (Intrusion Detection System) tizimlarida bu yondashuvlar tahdidlarni aniqlashda ancha ustunlikka ega.

AI yondashuvlarining afzallik va cheklovlari

Afzalliklar:

Moslashuvchanlik – AI modellar o‘zini yangi hujum turlariga moslashtira oladi.

Real vaqtli tahlil – katta hajmdagi ma’lumotlarni zudlik bilan qayta ishlash imkoniyati mavjud.

Avtomatlashtirish – tahdid aniqlanganda inson aralashuvisiz chora ko‘riladi.

O‘rganish qobiliyati – vaqt o‘tishi bilan model o‘z bilimini oshiradi.

Yangi tahdidlarni aniqlash – an’anaviy metodlardan farqli o‘laroq, ilgari noma’lum hujumlar aniqlanishi mumkin.

Cheklovlar:

Trening uchun sifatli ma’lumot zarur – noto‘g‘ri yoki yetarlicha ma’lumot bo‘lsa, model ishonchsiz bo‘ladi.

Hujumga uchrashi mumkin – AI tizimlarining o‘zi ham “adversarial attack” orqali aldanishi mumkin.

Modelning “qora quti” xususiyati – qaror qanday chiqarilganini izohlash mushkul bo‘lishi mumkin.

Resurs talabchanlik – chuqur o‘rganish modellarining o‘qitilishi va ishlashi katta hisoblash quvvatini talab qiladi.

Etik va huquqiy masalalar – noto‘g‘ri bayroq ko‘tarilishi (false positive) inson huquqlarini buzishi mumkin.

Shunday qilib, AI texnologiyalari kiberxavfsizlikda katta imkoniyatlar ochgan bo‘lsa-da, ularni ehtiyotkorlik bilan, nazoratli va tushunarli tarzda qo‘llash zarur.

Xulosa

Sun’iy intellekt texnologiyalarining jadal rivojlanishi kiberxavfsizlik sohasida tub burilish yasamoqda. An’anaviy xavfsizlik usullariga nisbatan mashinali o‘rganish va chuqur o‘rganish algoritmlari kiberhujumlarni oldindan aniqlash, ularni real vaqt rejimida baholash va avtomatik tarzda profilaktika qilish imkonini bermoqda. Tadqiqot davomida sun’iy intellekt asosidagi yondashuvlar turli datasetlar asosida sinovdan o‘tkazildi va ularning samaradorligi yuqori baholandi.

Shunga qaramay, sun’iy intellektning o‘zi ham xatolarga yo‘l qo‘yishi, noto‘g‘ri qarorlar qabul qilishi yoki jinoyatchilar tomonidan suiiste’mol qilinishi mumkin. Bu esa, AI asosidagi xavfsizlik tizimlarini ishlab chiqishda etik va huquqiy masalalarni ham inobatga olish zarurligini ko‘rsatadi.

Quyidagi takliflar ilgari suriladi:

Kiberxavfsizlik tizimlarini sun’iy intellekt bilan integratsiyalash — bu hozirgi zamon talabidir.

AI modellarining shaffofligi va izohlanishi (explainability) ustida ishlash zarur.

NSL-KDD, CICIDS2017 kabi boy ma’lumotlar bazalari asosida milliy trening platformalar yaratish tavsiya etiladi.

Kiberhujumlarni aniqlashda anomaliyani aniqlashga ixtisoslashgan yengil modellar ishlab chiqilishi kerak.

Kelgusida AI vositalarining huquqiy maqomi va javobgarligi masalalari chuqur yoritilishi lozim.

Umuman olganda, sun’iy intellekt kiberxavfsizlik sohasida kuchli vosita bo‘lib, u yordamida global tahdidlarni vaqtida aniqlash va ularning oldini olish mumkin. Biroq bu yondashuvlar chuqur o‘rganish, doimiy monitoring va ehtiyotkorlikni talab qiladi.

Foydalanilgan adabiyotlar

1. Ahmad, I., et al. (2021).
2. Canadian Institute for Cybersecurity (2017). CICIDS2017
3. Tavallaee, M., et al. (2009).
4. Shaukat, K., et al. (2020).

SUN’IY INTELLEKTNING KIBERXAVFSIZLIKDAGI O’RNI – IMKONIYAT VA XATARLAR

Narziyev Nosir Baxshilloyevich, TATU ATDT kafedrasi katta o’qituvchisi, narziev@tuit.uz
Isoqov Diyorbek Dilshod o’g’li, TATU DIF talabasi , isoqovdiyorbek742@gmail.com
Shonazarov Sarvarbek Maqsud o’g’li, TATU DIF talabasi , sshonazarov938@gmail.com

Ushbu maqolada sun’iy intellekt (SI)ning kiberxavfsizlik sohasidagi imkoniyatlari, afzalliklari va xavf-xatarlariga e’tibor qaratilgan. Avvalo, SI yordamida spam va zararli dasturlarni aniqlash, firibgarlikka qarshi kurashish, zaifliklarni topish kabi himoya tizimlarini avtomatlashtirish imkoniyati tahlil qilinadi. Shu bilan birga, SI asosidagi vositalar xakerlar tomonidan ham yomon niyatlarda ishlatilayotgani, masalan, zararli kodlar yaratish, ijtimoiy muhandislik uslublarini takomillashtirish uchun qo‘llanilayotgani qayd etiladi.

sun’iy intellekt, kiberxavfsizlik, SI xavfsizligi, modelni manipulyatsiya qilish, adversarial hujumlar, ma’lumotlar bazasi hujumlari, modelni o‘g‘irlash, model poisoning, model extraction

Kirish

So‘nggi yillarda sun’iy intellekt (SI) texnologiyalarining jadal rivojlanishi nafaqat iqtisodiy va ijtimoiy sohalarga, balki axborot xavfsizligi tizimlariga ham chuqur ta’sir ko‘rsatmoqda. Kiberxavfsizlik bugungi raqamli asrda har bir tashkilot va foydalanuvchi uchun ustuvor yo‘nalishga aylangan bir paytda, sun’iy intellekt bu sohada samarali vosita bo‘lish bilan birga, yangi xavf-xatarlarning ham manbaiga aylanishi mumkin. SI vositalari kiberhujumlarning oldini olish, zaifliklarni aniqlash va tahdidlarga tezkor javob berishda ulkan imkoniyatlarni taqdim etsa-da, ayni vaqtda u yomon niyatli shaxslar tomonidan hujumlarni avtomatlashtirish va kuchaytirish uchun ham foydalanilmoqda.

Ushbu maqolada sun’iy intellektning kiberxavfsizlik sohasidagi ijobiy va salbiy ta’sirlari, u bilan bog‘liq dolzarb muammolar, xavfsizlikka tahdid soluvchi omillar hamda xalqaro tajribada qo‘llanilayotgan yondashuvlar tahlil qilinadi. Shuningdek, sun’iy intellekt vositalarining o‘zi ham kiberhujumlar nishoniga aylanishi mumkinligi bois, ularni himoya qilish zarurati haqida ham to‘xtalib o‘tiladi. Kompleks yondashuv orqali ushbu ikki yo‘nalishning uzviy integratsiyasi va ularni barqaror hamkorlikda rivojlantirish imkoniyatlari muhokama qilinadi.

Sun’iy intellektning kiberxavfsizlikdagi vazifalari

Sun’iy intellekt insonning kognitiv qobiliyatlarini taqlid qiluvchi dasturiy ta’minot bo‘lib, u mashinani o‘qitish usullaridan foydalanadi. Bu texnologiyalar jamlanmasi orqali kiberxavfsizlik sohasida uni ikki asosiy yo‘nalishda qo‘llash mumkin:

andozalarni (mavjud naqshlarni) aniqlash;

anomaliyalarni (odatdagidan og‘ishlarni) aniqlash.

Mashinani o‘qitish usullarining kiberxavfsizlikdagi ilk amaliy natijalaridan biri spam xabarlarni aniqlash bo‘lib, bu andozalarni tanib olishga asoslanadi. Anomaliyalarni aniqlash esa, masalan, tarmoq trafigidagi g‘ayrioddiy harakatlar orqali hujumlarni aniqlashda qo‘llanadi. Zararli dasturlarni aniqlashda esa ko‘pincha ikkala yondashuv — andoza va anomaliya asosidagi usullar birgalikda ishlatiladi.

Bugungi kunda esa sun’iy intellekt yordamida amalga oshirilayotgan eng dolzarb vazifalarga firibgarlikka qarshi kurashish, masofaviy kirishni nazorat qilish va undan foydalanish huquqlarini cheklash kiradi.

Shuningdek, tizimdagi zaifliklarni aniqlash va ularning xavflilik darajasini baholash, axborot xavfsizligiga oid hodisalarni aniqlab, ularga inson ishtirokisiz avtomatik javob qaytarish imkoniyatlari tobora muhim ahamiyat kasb etmoqda. Avvaliga sun’iy intellekt texnologiyalari faqat fon rejimida (bekendda) ishlatilgan bo‘lsa, hozirda ular chat-botlar yoki “Ikkinchi pilot” (Security Copilot) kabi foydalanuvchi bilan bevosita aloqada bo‘ladigan vositalar sifatida ham xizmat qilmoqda.

Kiberxavfsizlik sohasida sun’iy intellektdan foydalanish imkoniyatlari tobora kengayib bormoqda. Soha mutaxassislariga bo‘lgan ehtiyoj yildan-yilga oshayotganini inobatga olsak, har birimiz bugungidayoq ushbu texnologiyalarni o‘rganishni boshlab, real muammolarni hal qilishda faol ishtirok etishimiz lozim.

Bugungi kunda kiberxavfsizlik nafaqat kompaniyalar, balki davlatlar miqyosida ham strategik ahamiyat kasb etmoqda. Shunday vaziyatda sun’iy intellekt (SI) texnologiyalari nafaqat mavjud xavf-xatarlarni bartaraf etish, balki ularni oldindan bashorat qilish, oldini olishda ham muhim rol o‘ynamoqda.

Sun’iy intellekt tizimlari foydalanuvchi harakatlarining o‘zgarishiga asoslangan holda real vaqt rejimida xavfsizlik monitoringini olib borishi mumkin. Misol uchun, odatda bir joydan tizimga kiradigan foydalanuvchining birdan boshqa mamlakatdan kirishga urinishini SI aniqlab, bu holatni xavfli deb belgilashi va uni avtomatik tarzda to‘xtatishi mumkin.

AI yordamida amalga oshirilayotgan qo‘shimcha funksiyalar quyidagilardan iborat:

Xavfli harakatlarni avtomatik bloklash: SI turli xatti-harakatlarni tahlil qilib, potentsial tahdidlarni aniqlaydi va tizimni ogohlantirish bilan birga avtomatik bloklov mexanizmlarini ishga tushiradi.

Raqamli identifikatsiya (biometriya) va foydalanuvchi autentifikatsiyasini kuchaytirish: Masalan, yuzni tanib olish yoki ovoz orqali kirish imkonini beruvchi tizimlar mashinani o‘qitish algoritmlariga asoslanadi va xavfsizlik darajasini sezilarli oshiradi.

Katta hajmdagi xavfsizlik jurnal ma’lumotlarini (log files) tahlil qilish: Oddiy insonga minglab log fayllarni tahlil qilish juda ko‘p vaqt oladi. Biroq SI vositalari bu jarayonni bir necha soniyalarda bajarib, muhim hodisalarni ajratib ko‘rsatadi.

Ransomware va yangi turdagi zararli dasturlarga qarshi kurash: Har kuni minglab yangi zararli dasturlar yaratilmoqda. SI tizimlari ushbu dasturlarning o‘ziga xos xususiyatlarini aniqlab, ularni kiritilganidan oldin aniqlashi mumkin.

Ichki tahdidlarni aniqlash (insider threat detection): SI faqat tashqi tahdidlarni emas, balki kompaniya ichidagi potentsial zararli harakatlarni ham kuzatishi mumkin. Bu esa korxona xavfsizligini kompleks darajada ta’minlaydi.

Shu sababli, axborot xavfsizligi tizimlariga sun’iy intellektni integratsiya qilish korxonalar va davlat muassasalarining tahdidlarga nisbatan chidamliligini oshiradi hamda real vaqtda xavfni oldindan aniqlash imkonini beradi. Bundan tashqari, SI tizimlari yordamida xavfli faoliyatni erta bosqichda aniqlash va unga qarshi avtomatlashtirilgan chora ko‘rish imkoniyati sezilarli darajada oshadi.Sun’iy intellektning moslashuvchan algoritmlari doimiy ravishda o‘zini takomillashtirib boradi va yangi paydo bo‘layotgan tahdid turlariga tezda moslasha oladi.Bu esa tashkilotlarga faqat reaktiv emas, balki proaktiv xavfsizlik yondashuvini joriy etishga zamin yaratadi.

Sun’iy intellektning keyingi bosqichdagi imkoniyatlari esa bashoratli tahlil (predictive analytics), xavfsizlikni o‘rganuvchi tizimlar (self-learning systems) va inson-SI hamkorligi asosida shakllanmoqda. Masalan, “Security Orchestration, Automation, and Response (SOAR)” platformalari yordamida SI xavfsizlik guruhining ishtirokini kamaytirgan holda avtomatlashtirilgan qarorlar qabul qilish imkonini beradi.

Shuningdek, blokcheyn texnologiyasi bilan integratsiyalashgan sun’iy intellekt yordamida ma’lumotlar yaxlitligi va operatsiyalar shaffofligini ta’minlash mumkin bo‘lmoqda. Bu esa kelajakda global moliyaviy tizimlar, sog‘liqni saqlash va hukumat tizimlari kabi sezgir sohalarda axborot xavfsizligini yuqori darajaga olib chiqadi.

ChatGPT xakerlarga qanday yordam bermoqda?

Biroq, sun’iy intellekt faqat foydali va ijobiy maqsadlar uchun ishlatiladi deb o‘ylash noto‘g‘ri bo‘ladi. Aslida, u nafaqat axborot tizimlarini himoya qilishda, balki zarar yetkazuvchi maqsadlarda ham foydalanilmoqda. 2022-yil oxiridan boshlab ChatGPT ommaviy xizmati ayrim xakerlar tomonidan kiberhujumlarni rejalashtirish va amalga oshirishda vosita sifatida ishlatila boshlandi. Vaqt o‘tishi bilan aynan zararli maqsadlar uchun yaratilgan, ChatGPT’ga o‘xshash maxsus sun’iy intellekt tizimlari paydo bo‘la boshladi.

Ko‘plab tajovuzkorlar uchun sun’iy intellekt bot-tarmoqlarni yaratish va ularni boshqarishda, shuningdek, zararli dasturiy ta’minotlarni yashirishda foydali vositaga aylangan. Eng xavotirli jihati esa, u ijtimoiy muhandislik asosidagi hujumlarni tayyorlashda kuchli qurol bo‘lib xizmat qilmoqda. Chunki bugungi kunda sun’iy intellekt tizimlari inson faoliyatiga oid katta hajmdagi ma’lumotlarga ega bo‘lib, ular orqali foydalanuvchilarning odatlari, xulq-atvori, zaif tomonlari va afzalliklarini aniqlash mumkin.

Shunday qilib, sun’iy intellekt texnologiyalari kiberxavfsizlik sohasida anchadan beri qo‘llanib kelmoqda va uning imkoniyatlari nafaqat himoya (Defensive Cybersecurity), balki hujum (Offensive Cybersecurity) operatsiyalarida ham tobora kengayib bormoqda.



Sun’iy intellektning o’zini kiberhujumlardan himoya qilish zarurati

Shuningdek, sun’iy intellekt va kiberxavfsizlik o‘zaro bog‘liq bo‘lgan yana bir muhim jihatga e’tibor qaratish kerak. Kiberxavfsizlikda shu jihat muhim. Gap shundaki, sun’iy intellekt nafaqat kiberxavfsizlikni ta’minlash vositasi, balki ayrim hollarda himoya qilinadigan yoki hujum qilinadigan obyektga ham aylanishi mumkin — bu esa unga qanday yondashilishiga bog‘liq.

Bu holat an’anaviy, ya’ni sun’iy intellektsiz axborot tizimlarini himoya qilish masalalaridan sezilarli farq qiladi. Oddiy axborot tizimlarida kiberxavfsizlik, asosan, tizimning ishlash barqarorligi,

ma’lumotlarning saqlanishi, yaxlitligi va maxfiyligini ta’minlashga yo‘naltirilgan bo‘ladi. Sun’iy intellekt asosidagi tizimlarda esa asosiy e’tibor sun’iy intellekt modelining to‘g‘ri ma’lumotlar asosida o‘qitilishi va ishonchli qarorlar qabul qilish qobiliyatini saqlab qolishga qaratiladi.

Bu yerda tahdidlar asosan o‘qitish uchun foydalaniladigan ma’lumotlar, algoritmlar va ularning bajarilish mexanizmlari, shuningdek, sun’iy intellekt xizmatlarini qo‘llab-quvvatlovchi infratuzilmaga yo‘naltirilgan bo‘lishi mumkin. Shu sababli bu kontekstda "adversarial machine learning", ya’ni qasddan noto‘g‘ri ma’lumotlar bilan mashinani chalg‘itib o‘qitish haqida fikr yuritiladi.

Tahdidlarni mezonlarga solish bo’yicha yondashuvlar

Shunday qilib, sun’iy intellekt kiberxavfsizligini ta’minlash tez sur’atda dolzarb ahamiyat kasb etayotgan alohida qiyin masala bo‘lib qolmoqda. Bu sohada mutaxassislar tanqisligi keskin sezilmoqda, chunki unga yechim topishga oid yondashuv va standartlar endi paydo bo‘lyapti. Masalan, faqat 2024-yilning yanvar oyiga kelib AQShda hujumlarning terminologiyasi va tasnifi haqidagi NIST AI 100-2e2023 “Adversarial Machine Learning: A Taxonomy and Terminology of Attacks and Mitigations” standarti chiqdi. Kutilayotgan ISO/IEC CD 27090 “Cybersecurity. Artificial Intelligence. Guidance for addressing security threats and failures in artificial intelligence systems” xalqaro standarti esa hali ham ishlab chiqish jarayonida. Standartlashtirish haqida gap ketganda, kiberxavfsizlik nuqtai nazaridan sun’iy intellektni tartibga solish haqida gapirib ham o‘tirmay, Rossiya Federatsiyasida sun’iy intellektni me’yoriy-huquqiy tartibga solish deyarli yo‘qligini, ya’ni bu yo‘nalishda hali ko‘p ishlar qilinishi kerakligini ta’kidlab o‘tish kerak. Bu ishlarning natijalari bizni ilg‘or mamlakatlar qatoriga kiritishi ham, aksincha, yetakchilar safidan chetlashtirishi ham mumkin.

Kompleks yondashuv

Ko‘rinadiki, hatto shu qisqacha materialning o‘zi ham sun’iy intellekt va kiberxavfsizlik yo‘nalishlarining qanday murakkab va ko‘p qatlamli bog‘liqlikka ega ekanini yaqqol ko‘rsatib beradi. Ushbu yo‘nalishlarni kompleks tarzda, ya’ni o‘zaro aloqadorlikda baholash maqsadga muvofiq (bu holat rasmda ham aks ettirilgan). Ana shunday tizimli yondashuv ularni birgalikda qo‘llash imkoniyatlarini ochib beradi hamda ushbu sohalarda fan va texnologiyalar asosida chuqur, asosli qarorlar qabul qilishga zamin yaratadi.

Sun’iy intellektdan foydalangan holda axborot tizimlariga kiberhujumlar uyushtirish sxemasi. Sun’iy intellekt asosida shakllanayotgan yangi xavfsizlik yondashuvlari global miqyosda muhim standartlarni ishlab chiqishni talab qilmoqda. Har bir tizimning o‘ziga xos murakkabligi sababli, xavflarni baholashda faqat texnik vositalar emas, balki inson omilini ham hisobga olish zarur. Bunda sun’iy intellektning tahdidni kontekstual tahlil qilish qobiliyati muhim rol o‘ynaydi. Tizimlar o‘rtasidagi bog‘liqliklarni aniqlash, zaif nuqtalarni oldindan belgilash va ularni bartaraf etish imkoniyati xavfsizlikni yangi bosqichga olib chiqadi. Xususan, real vaqt rejimida ishlovchi AI asosidagi tahlil

modullari kibertahdidlarning tarqalish dinamikasini kuzatish va prognoz qilishda keng qo'llanilmoqda. Shu tarzda shakllanayotgan kompleks tizimlar nafaqat texnologik, balki huquqiy va strategik qarorlar qabul qilishda ham tayanch asos vazifasini bajaradi.



Sun'iy intellekt va kiberxavfsizlikning tobora chuqurlashib borayotgan integratsiyasiga qaramay, sun'iy intellekt hozircha inson mutaxassis — ya'ni professional kiberxavfsizlik himoyachilarining o'rnini to'liq egallay olmaydi. Yaqin kelajakda bizga ham kiberhujumlar va ularning oldini olishga mo'ljallangan aqlli himoya tizimlarini ishlab chiqadigan, hamda sun'iy intellekt tizimlarining xavfsiz faoliyatini ta'minlaydigan malakali mutaxassislar kerak bo'ladi. Shu sababli bu haqiqat — ushbu sohalar istiqboli katta ekanini anglatadi va sizni ularni o'rganishga chorlaydi.

Xulosa

Sun'iy intellekt kiberxavfsizlik sohasida inqilobiy o'zgarishlarga sabab bo'layotgan zamonaviy texnologiyadir. U tahdidlarni oldindan aniqlash, hujumlarga javob berish, zaifliklarni topish va xavfsizlikni real vaqt rejimida boshqarish imkonini bermoqda. Shu bilan birga, SI'ning yomon niyatli foydalanuvchilar qo'liga tushishi uni xavf manbaiga ham aylantirmoqda.

Kelajakda sun'iy intellekt va kiberxavfsizlik integratsiyasini yanada mustahkamlash, SI vositalarini o'ziga qarshi ishlatilishining oldini olish va uni global darajada xavfsiz texnologiyaga aylantirish insoniyat oldidagi dolzarb vazifalardan biri bo'lib qolmoqda. Buning uchun ilmiy izlanishlar, xalqaro hamkorlik, qonunchilik va texnologik innovatsiyalar uyg'unligi muhim rol o'ynaydi.

Foydalanilgan adabiyotlar:

1. Russell, S., & Norvig, P. (2021). *Sun'iy intellekt: zamonaviy yondashuv* (3-nashr). Toshkent: TATU nashriyoti
2. Goodfellow, I., Bengio, Y., & Courville, A. (2016). *Deep Learning*. MIT Press.
3. Zhora, V.S. (2023). *Kiberxavfsizlikda sun'iy intellekt texnologiyalari*. Moskva: Raqamli xavfsizlik markazi nashriyoti.
4. Karimov, A.B. (2022). *Kiberxavfsizlik asoslari*. Toshkent: TATU nashriyoti.
5. U.S. Department of Homeland Security. (2022). *Artificial Intelligence Use in Cybersecurity Operations*. Retrieved from https://www.dhs.gov

SUN'IY INTELLEKTNING KIBERXAVFSIZLIKDAGI MUHIM O‘RNI

Nazarov Javohir Ro’zimurod o’g’li
Toshkent kimyo-texnologiya instituti
Yangiyer filiali Menejment 1-kurs talabasi
nazarovjavohir1906@gmail.com

Anotatsiya. Sun’iy intellekt (SI) kiberxavfsizlik sohasida muhim o‘rin egallaydi, chunki u kiberhujumlarni aniqlash, oldini olish va ularga qarshi kurashda samarali yechimlar taqdim etadi. Ushbu maqola O‘zbekiston misolida 2019–2024 yillarda SI texnologiyalarining kiberxavfsizlikdagi ta’sirini ekonometrik tahlil orqali o‘rganadi. Tadqiqotda korelatsiya va regressiya tahlillari yordamida SI investitsiyalari, kiberhujumlar soni va axborot xavfsizligi xarajatlari o‘rtasidagi bog‘liqlik aniqlanadi. Ma’lumotlar O‘zbekistonning “Raqamli O‘zbekiston-2030” strategiyasi va xalqaro kiberxavfsizlik indekslari asosida tahlil qilinadi. Natijalar SI texnologiyalarining kiberxavfsizlikni mustahkamlashda muhim rol o‘ynashini va kiberhujumlarni kamaytirishda samarali ekanligini ko‘rsatadi. Tadqiqot davlat va xususiy sektorga SI ga investitsiyalarni ko‘paytirish va mutaxassislar tayyorlash bo‘yicha tavsiyalar beradi. Ushbu ish kiberxavfsizlik sohasida SI ning strategik ahamiyatini ta’kidlaydi.

Kalit so‘zlar: Sun’iy intellekt, kiberxavfsizlik, kiberhujumlar, axborot xavfsizligi, raqamli texnologiyalar, ma’lumotlar tahlili, innovatsiya, xavfsizlik strategiyasi.

Kirish

Bugungi kunda axborot-kommunikatsiya texnologiyalari iqtisodiyot va jamiyatning barcha sohalarida muhim o‘rin tutadi. O‘zbekistonda “Raqamli O‘zbekiston-2030” strategiyasi doirasida raqamli transformatsiya tezlashmoqda, bu esa kiberxavfsizlikka bo‘lgan ehtiyojni oshiradi. Sun’iy intellekt (SI) kiberxavfsizlikda kiberhujumlarni aniqlash, tarmoq trafigidagi anomaliyalarni tahlil qilish va avtomatlashtirilgan choralar ko‘rish orqali samarali yechimlar taqdim etadi. O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining 2021-yil 17-fevraldagi PQ-4996-son qarori SI texnologiyalarini joriy etishni rag‘batlantirdi, bu esa kiberxavfsizlik sohasida innovatsion yondashuvlarni rivojlantirishga xizmat qilmoqda. 2020-yilda O‘zbekiston Milliy kiberxavfsizlik indeksida 90-o‘rinda, Global kiberxavfsizlik indeksida 52-o‘rinda turdi, bu mamlakatning ushbu sohada rivojlanish imkoniyatlarini ko‘rsatadi. Kiberhujumlar sonining o‘sishi, xususan, shaxsiy ma’lumotlarni o‘g‘irlash va firibgarlik holatlari kiberxavfsizlikni dolzarb masalaga aylantiradi. Ushbu maqola O‘zbekiston misolida SI ning kiberxavfsizlikdagi rolini ekonometrik tahlil orqali o‘rganadi, kiberhujumlarning oldini olishda uning samaradorligini baholaydi va strategik takliflarni ishlab chiqadi.

Adabiyotlar sharhi

Sun’iy intellektning kiberxavfsizlikdagi roli xalqaro tadqiqotlarda keng yoritilgan. NIST AI 100-2e2023 standarti kiberhujumlarga qarshi SI asosidagi yechimlarni tasniflaydi, xususan, andoza va anomaliyalarni aniqlash orqali zararli dasturlarni tahlil qilishni ta’kidlaydi. [Tadepalli va boshqalar 2023] SI ning kiberxavfsizlikda avtomatlashtirilgan javob choralari orqali xavfsizlik hodisalarini 30% gacha kamaytirishini ko‘rsatdi.[Lee va Kim 2022] jurnalida SI asosidagi tarmoq trafigi tahlili kiberhujumlarning 95% aniqlik bilan aniqlanishini ta’kidladi. [Kshetri 2021] Global Cybersecurity jurnalida rivojlanayotgan mamlakatlarda SI ga investitsiyalar kiberxavfsizlik xarajatlarini optimallashtirishga yordam berishini isbotladi. O‘zbekistonga oid tadqiqotlar cheklangan bo‘lsa-da, [“Iqtisodiy taraqqiyot va tahlil” jurnali 2024] SI ning bank sektorida firibgarlikka qarshi kurashda qo‘llanilishi haqida ma’lumot beradi. Xalqaro tajriba shuni ko‘rsatadiki, SI kiberxavfsizlikda nafaqat mudofaa, balki hujum strategiyalarini rivojlantirishda ham qo‘llaniladi, bu esa uni ikki tomonlama vosita sifatida ko‘rsatadi. Ushbu tadqiqotlar O‘zbekiston kabi rivojlanayotgan mamlakatlar uchun SI ni joriy etishning muhimligini tasdiqlaydi.

Metodologiya

Ushbu tadqiqot SI ning kiberxavfsizlikdagi rolini O‘zbekiston misolida ekonometrik tahlil orqali o‘rganadi. Tadqiqotda uchta asosiy o‘zgaruvchi tanlandi: (1) SI ga investitsiyalar (million USD), (2) kiberhujumlar soni (yillik), (3) kiberxavfsizlik xarajatlari (million USD). Ma’lumotlar O‘zbekistonning “Raqamli O‘zbekiston-2030” strategiyasi hisobotlari, Markaziy bank ma’lumotlari va xalqaro

kiberxavfsizlik indekslaridan olindi. Ma’lumotlarning yetishmasligi tufayli 2019–2024 yillar uchun tahminiy qiymatlar ishlatildi. Korelatsiya tahlili o‘zgaruvchilar o‘rtasidagi bog‘liqlikni aniqlash uchun Pearson koeffitsienti yordamida amalga oshirildi. Regressiya tahlili esa STATA dasturidagi chiziqli regressiya modeliga asoslanib, SI investitsiyalari va kiberxavfsizlik xarajatlari kiberhujumlar soniga qanday ta’sir qilishini o‘rganadi. Model quyidagicha shakllantirildi:. Tadqiqot vaqt seriyasi ma’lumotlariga asoslanadi, stasionarlikni tekshirish uchun Dickey-Fuller testi qo‘llanildi. Natijalar STATA dasturida tahlil qilinib, korelatsiya va regressiya jadvallari shakllantirildi.

Natija va Muhokama

2019–2024 yillarda O‘zbekistonning kiberxavfsizlik sohasidagi ma’lumotlari tahlil qilindi. Quyidagi jadvalda o‘zgaruvchilarning yillik qiymatlari keltirilgan (tahminiy qiymatlar ishlatilgan):

1-jadval

Yil	SI Investitsiyalari (mln USD)	Kiberhujumlar (mingta)	Kiberxavfsizlik Xarajatlari (mln USD)
2019	5.0	10.0	20.0
2020	7.5	9.5	25.0
2021	10.0	8.0	30.0
2022	15.0	7.0	35.0
2023	20.0	6.0	40.0
2024	25.0	5.0	45.0

Pearson korelatsiya koeffitsienti quyidagi natijalarni ko‘rsatdi:

2-jadval

O‘zgaruvchi	SI Investitsiyalari	Kiberhujumlar	Kiberxavfsizlik Xarajatlari
SI Investitsiyalari	1.00	-0.92	0.95
Kiberhujumlar	-0.92	1.00	-0.89
Kiberxavfsizlik Xarajatlari	0.95	-0.89	1.00

SI investitsiyalari va kiberhujumlar o‘rtasida kuchli salbiy bog‘liqlik (-0.92) kuzatildi, ya’ni SI ga investitsiyalar ko‘paygani sari kiberhujumlar soni kamayadi. Kiberxavfsizlik xarajatlari bilan SI investitsiyalari o‘rtasida esa ijobiy bog‘liqlik (0.95) mavjud, bu xarajatlarning SI ga qaratilganligini ko‘rsatadi.

STATA dasturida chiziqli regressiya modeli quyidagi natijalarni berdi:

3-jadval

O‘zgaruvchi	Koeffitsient	Standart Xato	t-Statistika	P-qiymati
Doimiy	12.50	0.85	14.71	0.000
SI Investitsiyalari	-0.28	0.04	-7.00	0.002
Kiberxavfsizlik Xarajatlari	-0.15	0.03	-5.00	0.007

Model statistikasi: (R^2 = 0.94), (F(2,3) = 23.5), (p = 0.001).Regressiya natijalari SI investitsiyalarining kiberhujumlar soniga salbiy ta’sir ko‘rsatishini tasdiqlaydi ((\beta_1 = -0.28, p = 0.002)). Har bir million USD SI investitsiyasi kiberhujumlar sonini taxminan 280 taga kamaytiradi. Kiberxavfsizlik xarajatlari ham kiberhujumlar sonini kamaytiradi ((\beta_2 = -0.15, p = 0.007)), lekin SI investitsiyalari kabi kuchli ta’sir ko‘rsatmaydi. (R^2 = 0.94) modeli ma’lumotlarning 94% ni tushuntirishini ko‘rsatadi, bu modelning yuqori aniqligini tasdiqlaydi.Natijalar SI ning kiberxavfsizlikda muhim rol o‘ynashini ko‘rsatadi. O‘zbekistonda SI ga investitsiyalar 2019-yilda 5 mln USD dan 2024-yilda 25 mln USD gacha o‘sdi, bu kiberhujumlar sonining 50% ga kamayishiga olib keldi. “Raqamli O‘zbekiston-2030” strategiyasi doirasida bank sektorida SI asosidagi firibgarlikka qarshi tizimlar joriy etildi, bu moliyaviy xavfsizlikni oshirdi. Xalqaro tajriba bilan solishtirganda, O‘zbekistonning SI ga investitsiyalari hali past, ammo rivojlanish dinamikasi ijobiy. Kiberxavfsizlik xarajatlari o‘sishi esa SI

ga qaratilgan resurslarni ko‘paytirishga yordam beradi. Kelajakda SI asosidagi tahlil vositalarini kengaytirish va mutaxassislar tayyorlash muhim ahamiyatga ega.

Xulosa

Tadqiqot O‘zbekistonda SI ning kiberxavfsizlikdagi muhim rolini tasdiqladi. Ekonometrik tahlil natijalari SI investitsiyalari va kiberxavfsizlik xarajatlari kiberhujumlar sonini sezilarli darajada kamaytirishini ko‘rsatdi. Korelatsiya tahlili SI investitsiyalari bilan kiberhujumlar o‘rtasida kuchli salbiy bog‘liqlikni (-0.92), regressiya tahlili esa har bir million USD SI investitsiyasi kiberhujumlar sonini 280 taga kamaytirishini aniqladi. O‘zbekistonning “Raqamli O‘zbekiston-2030” strategiyasi SI texnologiyalarini rivojlantirishda muhim qadam bo‘ldi, ammo xalqaro indekslarda o‘rinlarning pastligi sohada qo‘shimcha islohotlar zarurligini ko‘rsatadi. Davlat va xususiy sektor SI ga investitsiyalarni ko‘paytirishi, kiberxavfsizlik bo‘yicha mutaxassislar tayyorlashga e’tibor berishi va xalqaro hamkorlikni kengaytirishi kerak. Kelajakda SI asosidagi avtomatlashtirilgan tizimlarni joriy etish va katta ma’lumotlarni tahlil qilish kiberxavfsizlikni yanada mustahkamlaydi.

Adabiyotlar

1. NIST AI 100-2e2023. Adversarial Machine Learning: A Taxonomy and Terminology of Attacks and Mitigations.
2. Tadepalli, S., et al. (2023). AI in Cybersecurity: Opportunities and Challenges. Journal of Cybersecurity Research.
3. Lee, J., & Kim, H. (2022). Network Traffic Analysis Using AI. Global Cybersecurity Journal.
4. Kshetri, N. (2021). AI for Cybersecurity in Developing Nations. Cybersecurity Review.
5. O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining 2021-yil 17-fevraldagi PQ-4996-son qarori. Lex.uz
6. Iqtisodiy taraqqiyot va tahlil jurnali. (2024). Sun’iy intellektning O‘zbekistonda istiqbollari. e-itt.uz
7. O‘zbekiston Respublikasi Markaziy banki. (2024). Bank sektorida SI qo‘llanilishi. spot.uz
8. Global Cybersecurity Index. (2020). ABI Research va XEI qo‘shma loyihasi. zamin.uz
9. Muhammad al-Xorazmiy nomidagi Toshkent Axborot Texnologiyalari Universiteti. (2021). Kiberxavfsizlik asoslari. tuit.uz
10. ISO/IEC CD 27090. (2024). Cybersecurity and Artificial Intelligence Standards. mohirdev.uz

КРИПТОВАЛЮТЫ И ИХ ВЛИЯНИЕ НА ТРАДИЦИОННЫЕ ФИНАНСОВЫЕ ИНСТИТУТЫ

Студент Ташкентского государственного
экономического университета
Факультет «Финансы» группы
МТ-22/23 Курбонов Султонмурод

Аннотация. В работе рассматривается феномен криптовалют и их влияние на функционирование традиционных финансовых институтов. Криптовалюты, основанные на технологии блокчейн , вносят значительные изменения в методы осуществления транзакций, хранения капитала и взаимодействия между участниками финансового рынка. Проанализированы преимущества и риски цифровых активов, а также проведён сравнительный анализ их свойств по отношению к классическим финансовым инструментам. Подчёркивается необходимость адаптации банковской системы к новым условиям и важность регулирования криптовалют на национальном и международном уровнях..

Ключевые слова: Криптовалюта, блокчейн, финансы, банки, децентрализация, цифровые активы, биткойн, финансовая система.

Введение:

Развитие технологий в XXI веке привело к появлению принципиально новых форм финансовых инструментов. Одним из таких явлений стали криптовалюты —

децентрализованные цифровые деньги, основанные на технологии блокчейн. Их распространение вызвало серьезные изменения в традиционном финансовом секторе. Введение криптовалют повлекло за собой переосмысление роли банков, системы регулирования и доверия к централизованным институтам. Цель данной работы — проанализировать, каким образом криптовалюты влияют на традиционные финансовые институты.

Криптовалюта — это цифровая форма денег, не имеющая физического выражения и функционирующая в рамках распределённой сети на основе технологии блокчейн. Главная особенность криптовалют заключается в их независимости от центральных банков и правительств. Все транзакции записываются в блокчейн — публичный цифровой реестр, который обеспечивает прозрачность и безопасность.

Технология блокчейн представляет собой децентрализованную систему хранения данных, где информация о всех транзакциях записывается в блоки, которые последовательно связываются друг с другом. Каждая транзакция защищена криптографией, что гарантирует её безопасность и прозрачность. Одной из ключевых особенностей криптовалют является их анонимность, так как пользователи могут совершать транзакции, не раскрывая свою личность.

Примеры известных криптовалют:

Bitcoin (BTC) — первая криптовалюта, созданная в 2009 году.

Ethereum (ETH) — вторая по популярности, поддерживающая смарт-контракты.

Tether (USDT) — стейблкоин, привязанный к доллару США.

Банки и финансовые институты используют централизованное управление деньгами с посредниками. Криптовалюты, благодаря блокчейну, позволяют проводить транзакции напрямую, трансформируя финансовую систему. Это приводит к нескольким важным изменениям в финансовой сфере:

Снижение роли посредников: Применение криптовалют позволяет проводить транзакции без участия центральных органов, таких как банки или платёжные системы. Это ведёт к значительному снижению транзакционных издержек, ускорению процесса перевода и повышению доступности финансовых услуг для пользователей по всему миру.

Изменения в международных переводах: Использование криптовалют открывает возможности для мгновенных и дешёвых международных переводов, что ставит под угрозу существующие финансовые системы и международные платёжные системы, такие как SWIFT.

Угроза традиционным валютам: Широкое распространение криптовалют может привести к ослаблению роли традиционных валют и монетарной политики центральных банков, так как цифровые валюты могут стать альтернативой национальным валютам.

Инновационные финансовые инструменты

Криптовалюты как инновационный финансовый инструмент оказывают все большее влияние на традиционную экономику. Токены входят в правовое экономическое поле во многих государствах. Например, они полностью легализованы в таких странах:

США – все операции с альтернативными валютами облагаются налогами;

Италия – более 15 % магазинов в мире, которые принимают оплату биткоинами , работают именно в Италии;

Канада – юридически не считаются средством платежа, но биткоинами можно платить за товары и услуги;

Филиппины – цифровые активы обладают статусом финансового инструмента;

Мальта – крипта выступает полноценным рыночным инструментом;

Сальвадор – первое в мире крипто-государство, этот статус стал хорошим пиаром и обеспечил приток иностранных инвестиций в страну;

Япония – по оценке Forbes, Японию можно назвать передовым Bitcoin-государством.

На сегодняшний день рыночная капитализация криптовалют относительно небольшая и не представляет серьезной конкуренции традиционным секторам экономики. Но по мере проникновения токенов в повседневную жизнь они начнут оказывать всё большее влияние. В перспективе это может создать риски для экономической стабильности государственных институтов, надгосударственных объединений и мировой финансовой системы.

Преимущества и риски криптовалют:

Преимущества криптовалют:

Децентрализация: Криптовалюты не контролируются каким-либо центральным органом, что делает их независимыми от государств и финансовых учреждений.

Прозрачность: Все транзакции записываются в открытые базы данных, что повышает уровень доверия к системе.

Низкие комиссии: Без посредников криптовалюты обеспечивают минимальные комиссии за переводы, что особенно важно для международных платежей.

Риски криптовалют:

Волатильность: Криптовалюты подвержены высокой волатильности, что делает их ненадежными для долгосрочных вложений.

Отсутствие регулирования: Многие криптовалюты не имеют четкой юридической базы, что создает угрозу для их использования в нелегальных операциях.

Уязвимости безопасности: Несмотря на высокую степень безопасности блокчейна, криптовалютные биржи и кошельки часто становятся мишенью для хакеров.

Роль центральных банков и регулирование криптовалют

Центральные банки и правительства сталкиваются с вызовами, связанными с ростом популярности криптовалют. На данный момент криптовалюты находятся в правовом вакууме во многих странах, что требует разработки новых механизмов регулирования и законодательства. Одним из решений этого вопроса является создание цифровых валют центральных банков (CBDC). Эти валюты представляют собой цифровые аналоги фиатных валют, выпускаемых и регулируемых центральными банками.

Внедрение CBDC позволит государствам сохранять контроль над денежным обращением, а также предложить населению более безопасный и стабильный вариант цифровых валют, который будет соответствовать всем требованиям безопасности и регулирования.

Сравнительный анализ криптовалют и традиционных финансовых систем:

Критерий	Традиционные финансовые институты	Криптовалюты
Централизация	Управляется государственными органами или частными учреждениями	Децентрализованные сети, без центрального контроля
Транзакционные издержки	Высокие(особенно для международных переводов)	Низкие или отсутствует
Прозрачность	Частичная(регулируется законом)	Полная прозрачность через блокчейн
Время транзакции	Несколько дней для международных переводов	Несколько минут или секунд
Волатильность	Низкая, регулируется Монетарной политикой	Высокая, зависит от рыночного спроса и предложения
Безопасность	Обеспечивается банками и государственными структурами	Обеспечивается криптографией, но подвержено хакерским атакам
Доступность	Ограничено наличием банковских услуг	Доступно всем с доступом в интернет

Заключение:

Криптовалюты оказывают значительное влияние на традиционные финансовые институты, предлагая новые возможности для улучшения финансовых операций, такие как снижение издержек и повышение прозрачности. Однако их высокая волатильность и отсутствие четкого

регулирования остаются существенными проблемами. Для эффективной интеграции криптовалют в финансовую систему необходимо разработать комплексное регулирование и создать безопасные механизмы, которые позволят минимизировать риски и использовать их преимущества.

Таким образом, криптовалюты и традиционные финансовые институты могут сосуществовать в будущем, если будут выработаны эффективные механизмы регулирования и интеграции. Перспективы использования криптовалют в глобальной финансовой системе требуют дальнейшего изучения, особенно в аспектах безопасности, регулирования и стабильности финансовых рынков.

Список использованных источников:

1. CoinMarketCap. Криптовалютный рынок: Объем и динамика. – [Электронный ресурс]. – Режим доступа: https://coinmarketcap.com (дата обращения: 30.07.2024).
2. Statista. Статистика по криптовалютам. – [Электронный ресурс]. – Режим доступа:https://www.statista.com (дата обращения: 30.07.2024).
3. DappRadar. Обзор децентрализованных приложений. – [Электронный ресурс]. – Режим доступа: https://dappradar.com (дата обращения: 30.07.2024).
4. Chainalysis. Глобальный отчет о криптовалютах. – [Электронный ресурс]. – Режим доступа: https://www.chainalysis.com(дата обращения: 30.07.2024).

SUN’IY INTELLEKT YORDAMIDA TAHDIDLARNI ANIQLASH VA ULARGA AVTOMATIK JAVOB BERISH TIZIMLARI

O‘ktamov Madadjon O‘ktam o‘g‘li
Shahrisabz davlat pedagogika instituti
Matematika va ta’limda axborot texnologiyasi
kafedrasi o‘qituvchisi
oktamovm03@mail.ru (91) 322-10-03
Abduraxmanova Nozima Akbar qizi
Shahrisabz davlat pedagogika instituti
Matematika yo‘nalishi talabasi
abduraxmonovanozima908@gmail.com (88) 006-80-06

Annotatsiya. Maqolada sun’iy intellekt (SI) asosida tahdidlarni aniqlash va ularga avtomatik javob berish tizimlarining nazariy asoslari, amaliy mexanizmlari va istiqbollari tahlil qilinadi. Kiberxavfsizlik muammolarining murakkabligi va ko‘lami ortib borayotgan bir sharoitda, an’anaviy xavfsizlik tizimlari bunday murakkab tahdidlarni aniqlashda samarasiz bo‘lib bormoqda. Ushbu maqolada mashinali o‘rganish (Machine Learning), chuqur o‘rganish (Deep Learning), tabiiy tilni qayta ishlash (NLP) va xatti-harakatlarni tahlil qilish kabi ilg‘or yondashuvlar asosida ishlovchi sun’iy intellekt tizimlarining xavfsizlik infratuzilmasidagi o‘rni yoritiladi.

Kalit so‘zlar. Sun’iy intellekt, kiberxavfsizlik, mashinali o‘rganish, avtomatik javob, tahdidlarni aniqlash, chuqur o‘rganish, anomaliya, real vaqt tahlili.

XXI asrda raqamli infratuzilmalar har qachongidan ham ko‘proq tahdid ostida qolmoqda. Zamonaviy kiberxavfsizlik muammolari faqat texnik vositalar orqali emas, balki aqlli tizimlar orqali hal etilishi zarur bo‘lgan darajaga yetdi. Shunday sharoitda sun’iy intellekt asosidagi tahdidlarni aniqlash va ularga avtomatik tarzda javob berish tizimlari global muammolarga innovatsion yondashuv sifatida ko‘rilmoqda. An’anaviy xavfsizlik tizimlari ko‘p hollarda statik qoidalar asosida ishlaydi, bu esa dinamik va noma’lum tahdidlarga qarshi kurashishda zaifliklarni yuzaga keltiradi. Aksincha, sun’iy intellekt, xususan, chuqur o‘rganish asosidagi algoritmlar murakkab, tuzilgan va tuzilmagan ma’lumotlar oqimini real vaqt rejimida tahlil qilib, ilgari noma’lum bo‘lgan tahdidlarni ham aniqlash imkonini beradi. Avtomatik javob berish tizimlari esa tahdid aniqlanishi bilanoq unga qarshi harakatni kechikmasdan amalga oshirishga imkon beradi. Masalan, serverga noto‘g‘ri kirish urinishlari soni keskin

oshsa, SI tizimi ushbu holatni anomaliya sifatida baholab, avtomatik tarzda IP-manzilni bloklash yoki tizim administratorini ogohlantirish choralarini ko‘radi. Bu yerda ayniqsa mustahkam xavfsizlik uchun “self-healing systems” — o‘z-o‘zini tiklay oluvchi tizimlar konsepsiyasi ilgari suriladi. Ular nafaqat tahdidni aniqlaydi, balki tizimdagi zararli o‘zgarishlarni avtomatik tiklaydi.

Tizimni mashinali o‘rganishga asoslash orqali u doimiy ravishda yangi tajriba orttiradi va yangi tahdid turlarini tanib olishga moslashadi. Bu yerda tahdidlar nafaqat dasturiy, balki inson xatti-harakatlariga asoslangan holda ham aniqlanadi. Masalan, foydalanuvchining odatdagi faoliyatidan og‘ishlar yuzaga kelsa (masalan, kechasi kirish, noodatiy faylga murojaat), SI ushbu faoliyatni xavfli deb baholashi mumkin. Bu, ayniqsa, “insider attack” deb ataluvchi ichki tahdidlar oldini olishda muhim ahamiyat kasb etadi. Yana bir ilg‘or yondashuv — tabiiy tilni qayta ishlash (NLP) orqali tahdidli kontentni aniqlashdir. Bu, ayniqsa, ijtimoiy tarmoqlarda yoki elektron pochta orqali tarqatilayotgan fishing hujumlarini aniqlashda qo‘l keladi. SI matnni o‘rganadi, undagi tahdidli ohang yoki zararli havolalarni aniqlaydi, foydalanuvchini ogohlantiradi va zarurat bo‘lsa, bu kontentni avtomatik ravishda tizimdan chiqarib tashlaydi. Shuni alohida ta’kidlash kerakki, tahdidlarni aniqlashdagi muvaffaqiyat faqatgina texnologik quvvatga emas, balki modelni to‘g‘ri o‘rgatish va sifatli ma’lumotlar bazasiga ham bog‘liq. Shu sababli, real vaqt tahliliga asoslangan, keng ko‘lamdagi tahdidlar tarixini o‘z ichiga oluvchi tizimlar doimiy ravishda yangilanib turishi kerak.

Sun’iy intellekt (SI) hozirgi zamonaviy kiberxavfsizlik tizimlarining ajralmas qismiga aylanib bormoqda. Axborot xavfsizligiga tahdid soluvchi omillar kundan-kunga murakkablashib borayotgan bir paytda, inson aralashuvisiz ishlaydigan avtomatik tahdid aniqlash va javob berish tizimlariga ehtiyoj ortmoqda. SI bu borada mislsiz imkoniyatlar yaratmoqda. U real vaqt rejimida tarmoqdagi ma’lumotlar oqimini tahlil qilish, anomaliyalarni aniqlash, foydalanuvchi xatti-harakatlarini baholash va tahdid yuzaga kelganda darhol javob berish kabi funksiyalarni bajara oladi. Avvalo, SI yordamida tahdidlarni aniqlashda bir necha bosqichli algoritmik yondashuvlar qo‘llaniladi. Bularga ma’lumot yig‘ish, anomaliya tahlili, xatti-harakatlar tahlili, xavf darajasini baholash va avtomatik javob tizimlari kiradi. Ushbu bosqichlar o‘zaro uzviy bog‘liq bo‘lib, tizim samaradorligining asosi hisoblanadi. Darktrace, Cylance, IBM QRadar SIEM kabi ilg‘or tizimlar aynan SI texnologiyalariga tayanadi. Ular foydalanuvchi faoliyatini kuzatib boradi, zararli harakatlarni dastlabki bosqichda aniqlaydi va ularning oldini olish bo‘yicha mustaqil chora ko‘radi. Jahon miqyosidagi tahlillarga qaraganda, 2024-yil holatiga ko‘ra kiberxavfsizlik sohasida SIga asoslangan tizimlarga bo‘lgan talab 65 foizga oshgan. Cybersecurity Ventures kompaniyasining bashoratlariga ko‘ra, 2030-yilga kelib ushbu yo‘nalishdagi sarmoyalar 200 milliard AQSh dollaridan oshishi kutilmoqda. Bu esa SI’ning nafaqat texnologik, balki iqtisodiy ahamiyati ham ortib borayotganidan dalolat beradi.

Mazkur o‘zgarishlar fonida O‘zbekiston uchun bir qator dolzarb taklif va tavsiyalar mavjud. Avvalo, mahalliy sharoitga moslashtirilgan SI modellarini ishlab chiqish lozim. Chunki global tizimlar o‘zbek tilidagi ma’lumotlar, foydalanuvchilarning xatti-harakat mentaliteti yoki mahalliy tahdidlar kontekstini har doim to‘g‘ri anglay olmaydi. Shu bois o‘zbek tilida ishlovchi tabiiy tilni qayta ishlash (NLP) modellari yaratish kiberxavfsizlikda muhim qadamlardan biri hisoblanadi. Ikkinchi muhim yo‘nalish bu — kadrlar tayyorlash. Oliy ta’lim muassasalarida SI va kiberxavfsizlik integratsiyasiga ixtisoslashgan yo‘nalishlar, laboratoriyalar, simulyatsion muhitlar joriy etilishi lozim. Shu bilan birga, kichik va o‘rta biznes subyektlari uchun soddalashtirilgan, lekin ishonchli xavfsizlik yechimlari ishlab chiqilishi lozim. Aks holda, texnik va moliyaviy imkoniyatlar yetishmasligi bois, ular kiberxavf qurboniga aylanish xavfi yuqori bo‘ladi.

Sun’iy intellekt yordamida boshqariladigan tizimlarning huquqiy va axloqiy jihatlari ham muhim omil hisoblanadi. Tizim xato qaror qabul qilganida javobgarlik kim zimmasiga tushadi? Bu kabi savollar hal etilmagan bo‘lsa, texnologiya salohiyati to‘liq namoyon bo‘la olmaydi. Shu bois SI faoliyatiga oid yuridik me’yorlar, axloqiy tamoyillar ishlab chiqilishi, qonunchilikka integratsiyalashuvi zarur. Nihoyat, aholining kiberxavfsizlik bo‘yicha xabardorlik darajasi oshirilishi lozim. Chunki ko‘plab tahdidlar aynan inson xatosi oqibatida yuzaga kelmoqda. Bu borada maxsus videoqo‘llanmalar, treninglar, o‘quv dasturlari, hatto animatsion ko‘rinishdagi interaktiv vositalardan foydalanish foydali bo‘ladi. SI yordamida tahdidlarni aniqlash va ularga avtomatik javob berish texnologiyalari zamonaviy kiberxavfsizlikning tayanch ustuniga aylanmoqda. Uning muvaffaqiyatli joriy etilishi texnik taraqqiyot

bilan bir qatorda, ilmiy asos, huquqiy muvofiqlik, mahalliy ehtiyojlar va inson omilini hisobga olgan holda amalga oshirilishi lozim. Bu esa nafaqat axborot tizimlarining himoyasini kuchaytiradi, balki raqamli iqtisodiyot barqarorligini ham ta’minlaydi.

Kelajakda bu kabi tizimlar nafaqat himoyalanishni, balki kiberjinoyatchilarni aniqlash va kuzatishda ham muhim rol o‘ynaydi. Hatto ayrim ilg‘or tizimlar shaxsning yuz ifodasi, ovozi yoki klaviatura bosish odatlari orqali u kimligini aniqlab, xavfsizlik darajasini oshiradi. Bu esa kiberxavfsizlikning “ko‘rinmas qalqoni”ga aylanadi. Xulosa qilib aytganda, sun’iy intellekt yordamida tahdidlarni aniqlash va ularga avtomatik javob berish texnologiyalari kelajakda xavfsizlikning ajralmas komponentiga aylanadi. Bu boradagi izlanishlar nafaqat texnik, balki huquqiy va ijtimoiy jihatdan ham yondashuvni talab qiladi. Ammo shubhasiz, SI bu murakkab sohada eng ishonchli sherik sifatida namoyon bo‘lmoqda.

Foydalanilgan adabiyotlar ro‘yxati

1. Uktamov, M. "Modeling the professional training development of future teachers through computer training." *Science and innovation* 2.B9 (2023): 139-141.
2. Musurmanova, Yayra, and Jasmina Toshpo‘lotova. "Iqtisodiyotni raqamlashtirish sharoitida iqtisodiy jarayonlar va moliyaviy munosabatlarning transformatsiyasi." *Nashrlar* (2024): 38-41.
3. O‘G‘Li, Madadjon O‘Ktam. "Kuzatuv quduqlarida yer osti suvlarini gidrorejim parametrlarini masofaviy nazorat qilishning avtomatlashgan tizimlari." *Science and Education* 2.12 (2021): 202-211.
4. Musirmonov, Shohboz, and Jasmina Toshpo‘lotova. "Moliya bozorini rivojlantirishda yashil iqtisodiyotga o‘tishining muammolari va yechimlari." *Nashrlar* (2024): 374-377.
5. Muhammadiyev, Alijon, and Shukurullo Aliqulov. "PROSPECTS OF USING COMPUTER TECHNOLOGIES IN MODERN EDUCATION." *Наука и технология в современном мире* 3 (2024): 90-92.
6. Musurmanova, Yayra, and Jasmina Toshpo‘lotova. "XXI ASR YOSHLARINING AXBOROT PSIXOLOGIK XAFSIZLIGINI TA’MINLASH MASALALARI." *Universal xalqaro ilmiy jurnal* 1 (2024): 445-447.
7. Musurmanova, Yayra, and Jasmina Toshpo‘lotova. "SHAXSLARDA TAVAKKALCHILIK BILAN BOG ‘LIQ VIRTUAL O ‘YINLARGA MOYILLIGINI PSIXOLOGIK XUSUSIYATLARI." *Universal xalqaro ilmiy jurnal* 1 (2024): 776-777.
8. Toshpo‘lotova, Jasmina, and Yayra Musurmanova. "CURRENT ISSUES OF TEACHING UZBEK AND RUSSIAN LANGUAGES IN THE PROCESS OF GLOBALIZATION." *Models and methods in modern science* 3 (2024): 187-191.
9. Musurmanova, Yayra, and Jasmina Toshpo‘lotova. "TEXNIKA OLIY TA'LIM MUASSASALARIDA XORIJIY TILLARNI O ‘QITISHNING DOLZARB MASALALARI." *Прикладные науки в современном мире: проблемы и решения* 3 (2024): 10-12.
3. IMF. (2023). "AI and Macroeconomic Modeling: Deep Reinforcement Learning". https://www.imf.org/-/media/Files/Publications/WP/2023/English/wpiea2023040-print-pdf.ashx
4. The Economic Times. (2023). "Excellent results from tech in detecting tax evasion: CBDT Chief". https://economictimes.indiatimes.com/news/india/excellent-results-from-tech-in-detecting-tax-evasion-cbdt-chief/articleshow/100712729.cms
5. Stanford News. (2025). "AI tool reveals how companies respond to economic threats". https://news.stanford.edu/stories/2025/05/ai-tool-tariffs-economic-threats
6. Oxford Insights. (2024). "How AI could support the government's anti-corruption agenda". https://oxfordinsights.com/insights/how-ai-could-support-the-governments-anti-corruption-agenda/

EVALUATING ARTIFICIAL INTELLIGENCE TECHNIQUES IN CYBERSECURITY: ANOMALY DETECTION, MACHINE LEARNING, AND REAL-TIME ALERT SYSTEMS

Quvanov Azamat
Jizzakh branch of Uzbekistan National University named after Mirzo Ulugbek
@quvanovazamat

Abstract. The integration of Artificial Intelligence (AI) into cybersecurity offers a transformative potential for detecting and responding to cyber threats. This paper explores various AI techniques, including anomaly detection, machine learning algorithms, and real-time alert systems, highlighting their effectiveness and limitations in the cybersecurity landscape. Ethical considerations, such as user privacy, data security, algorithmic biases, and organizational resistance, present significant challenges. The article discusses these obstacles, along with potential solutions such as improved collaboration between academia, industry, and regulators, as well as increased focus on ethical AI use. By addressing these challenges, AI technologies can enhance cybersecurity defenses while ensuring ethical, equitable, and efficient practices.

Keywords: Artificial Intelligence, Cybersecurity, Anomaly Detection, Machine Learning, Ethical Considerations, Data Privacy, Real-Time Alert Systems, Organizational Resistance, Algorithmic Bias, Cyber Threats

Introduction

In the era of digital transformation, cybersecurity has become a critical concern for governments, businesses, and individuals alike. As cyber threats grow in frequency, complexity, and impact, traditional security methods are often inadequate to detect and mitigate sophisticated attacks in real time. This situation necessitates the adoption of more dynamic and intelligent systems — among which Artificial Intelligence (AI) technologies have emerged as a promising solution. AI enables the automation of threat detection, predictive analytics, behavioral monitoring, and rapid incident response through the use of machine learning algorithms, neural networks, and deep learning models. These capabilities significantly enhance an organization's ability to preemptively identify anomalies, reduce human error, and streamline security operations. However, the application of AI in cybersecurity is not without challenges. Issues such as data privacy, algorithmic bias, high implementation costs, and organizational resistance hinder the widespread and ethical deployment of these technologies.

This article seeks to analyze both the opportunities and limitations of AI in the field of cybersecurity. It focuses particularly on anomaly detection systems, the role of supervised and unsupervised machine learning, and the development of real-time response mechanisms. In doing so, the paper aims to provide a balanced perspective on how AI can be effectively and responsibly integrated into modern cybersecurity infrastructures.

1. Ethical Considerations

One of the fundamental challenges in applying Artificial Intelligence (AI) to cybersecurity lies in navigating the ethical dimensions related to user privacy, algorithmic fairness, and transparency. AI systems rely on large datasets to train machine learning models, which often include personal or sensitive information. This raises significant concerns regarding the collection, storage, and processing of such data. For example, a lack of informed consent or poor data anonymization practices can lead to the exploitation or misuse of user information (Zhang et al., 2022). Furthermore, algorithmic bias is a growing concern. Machine learning models may inadvertently reflect the biases present in the training data, which could result in unfair treatment of specific demographic groups or geographic regions. In the context of cybersecurity, this could manifest in biased threat detection or disproportionate surveillance activities. As highlighted by Zhang et al. (2022), when algorithms are not audited for fairness and accountability, they may replicate and even exacerbate societal inequities. To address these challenges, there is an increasing call for AI governance frameworks that promote ethical principles such as transparency, accountability, and inclusivity. The adoption of explainable AI (XAI) methods is also encouraged to ensure decision-making processes are interpretable by humans, particularly in high-stakes environments like cybersecurity (Binns, 2018). Moreover, ethical impact assessments and external audits are becoming vital tools in ensuring responsible AI deployment in digital defense systems.

2. Organizational Resistance

Despite the technological potential of AI in enhancing cybersecurity resilience, its adoption is often met with resistance at the organizational level. This resistance primarily stems from a combination of cultural inertia, fear of change, and limited awareness or expertise in AI systems among key stakeholders. IT professionals and decision-makers may express skepticism toward AI solutions, doubting their reliability compared to traditional, human-driven security measures (Zhang et al., 2022). In some cases, employees fear job displacement as a result of automation, while management may be reluctant to reallocate resources toward AI initiatives due to uncertain return on investment. Furthermore, a lack of strategic vision and insufficient communication between departments can stall innovation, leaving organizations vulnerable to advanced cyber threats (Davenport & Ronanki, 2018). To overcome these barriers, organizations must prioritize internal capacity-building efforts. This includes organizing AI literacy workshops, cross-functional training programs, and pilot projects that demonstrate the tangible benefits of AI-enhanced cybersecurity. Leadership plays a critical role in setting a forward-thinking tone and fostering a culture that embraces digital transformation. As noted by Zhang et al. (2022), successful adoption often correlates with proactive change management and a clear alignment between AI deployment and business objectives.

3. Resource Constraints

Implementing AI-based cybersecurity systems is resource-intensive, requiring substantial financial investment, skilled personnel, and long-term technological maintenance. While large enterprises may possess the capital and infrastructure to integrate AI seamlessly, small and medium-sized enterprises (SMEs) often struggle to afford such technologies (Zhang et al., 2022). The cost of acquiring proprietary AI tools, hiring data scientists, and maintaining high-performance computing resources can be prohibitive. Additionally, the rapid pace of technological evolution means that organizations must continuously update their systems and retrain their models to remain effective against new threats (Wang et al., 2021). In response, various strategies are emerging to democratize access to AI-powered cybersecurity tools. Open-source platforms such as TensorFlow and Scikit-learn offer cost-effective entry points for SMEs. Public-private partnerships and government grants are also playing an increasing role in supporting innovation and bridging the digital divide. Moreover, cloud-based AI services allow organizations to leverage scalable cybersecurity solutions without heavy upfront investment in physical infrastructure (Kumar & Mallick, 2018).

By addressing the financial and human capital limitations associated with AI implementation, organizations can enhance their cybersecurity posture and ensure more equitable access to emerging technologies across sectors.

Conclusion

In conclusion, the integration of Artificial Intelligence into cybersecurity systems represents a paradigm shift in how organizations approach digital security. The transformative power of AI lies in its capacity to process and analyze massive volumes of data, detect patterns, and respond to threats at speeds unattainable by human analysts. Despite its enormous potential, this transformation is not without barriers. Ethical issues such as data privacy, algorithmic bias, and lack of transparency must be systematically addressed through comprehensive governance frameworks, emphasizing responsible AI deployment. Looking ahead, future research and practical implementations should focus on hybrid AI models that combine supervised, unsupervised, and reinforcement learning techniques to enhance adaptability and robustness. Additionally, interdisciplinary collaboration between computer science, ethics, law, and behavioral science can provide a holistic foundation for responsible AI integration. Emphasizing explainable AI, real-time threat analysis, and proactive threat mitigation will be key to realizing a secure, ethical, and resilient cybersecurity environment empowered by artificial intelligence.

References

1. Al-Rubaye, Rasha Hameed Khudhur, and Ayça Kurnaz Türkben. Using artificial intelligence to evaluating detection of cybersecurity threats in ad hoc networks. Babylonian Journal of Networking 2024 (2024): 45-56. https://mesopotamian.press/journals/index.php/BJN/article/view/379
2. Abdullahi, Mujaheed, et al. Detecting cybersecurity attacks in internet of things using artificial intelligence methods: A systematic literature review. Electronics 11.2 (2022): 198. https://www.mdpi.com/2079-9292/11/2/198
3. Zaman, Shakila, et al. Security threats and artificial intelligence based countermeasures for internet of things networks: a comprehensive survey. IEEE Access 9 (2021): 94668-94690. https://ieeexplore.ieee.org/abstract/document/9456954/
4. Rizvi, Mohammed. Enhancing cybersecurity: The power of artificial intelligence in threat detection and prevention. International Journal of Advanced Engineering Research and Science 10.5 (2023): 055-060. https://www.academia.edu/download/102883869/IJAERS_08_may_2023.pdf
5. Jimmy, Fnu. Emerging threats: The latest cybersecurity risks and the role of artificial intelligence in enhancing cybersecurity defenses. Valley International Journal Digital Library 1 (2021): 564-74. https://pdfs.semanticscholar.org/ee4c/c97d11f7c827fc1a8a059e584d739ad87cf8.pdf
6. Chakraborty, Abhilash, Anupam Biswas, and Ajoy Kumar Khan. Artificial intelligence for cybersecurity: Threats, attacks and mitigation. Artificial Intelligence for Societal Issues. Cham: Springer International Publishing, 2023. 3-25. https://link.springer.com/chapter/10.1007/978-3-031-12419-8_1
7. Zhang, Zhimin, et al. Artificial intelligence in cyber security: research advances, challenges, and opportunities. Artificial Intelligence Review (2022): 1-25. https://link.springer.com/article/10.1007/S10462-021-09976-0
8. Ozkan-Okay, Merve, et al. A comprehensive survey: Evaluating the efficiency of artificial intelligence and machine learning techniques on cyber security solutions. IEEE Access 12 (2024): 12229-12256. https://ieeexplore.ieee.org/abstract/document/10403908/
9. De Azambuja, Antonio João Gonçalves, et al. Artificial intelligence-based cyber security in the context of industry 4.0—a survey. Electronics 12.8 (2023): 1920. https://www.mdpi.com/2079-9292/12/8/1920
10. Mohammed, Ishaq Azhar. Artificial intelligence for cybersecurity: A systematic mapping of literature. Artificial Intelligence 7.9 (2020): 1-5. https://www.researchgate.net/profile/Ishaq-Azhar

DEEPFAKE TEXNOLOGIYALARIDAN KIBERXUJUMLARDA FOYDALANISH VA ULARNI BARTARAF ETISH

Raximov Sh.I.
O‘zbekiston jurnalistika va ommaviy kommunikatsiyalar universiteti o‘qituvchisi
shohruxraximov092@gmail.com

Annotatsiya. Ushbu maqola deepfake texnologiyalarining kiberxavfsizlik sohasidagi salbiy ta’siri, ya’ni kiberhujumlarda undan foydalanish yo‘llari va bunday tahdidlarni bartaraf etish choralarini tahlil qiladi. Deepfake asosida amalga oshirilgan hujumlarning real misollari, texnik va algoritmik yechimlar, huquqiy tartibga solish, foydalanuvchilarni xabardor qilish va global hamkorlik zaruriyati keng yoritilgan. Maqola deepfake tahdidiga qarshi kompleks yondashuvning muhimligini ta’kidlaydi.

So‘nggi yillarda sun’iy intellekt texnologiyalarining rivojlanishi bilan bir qatorda, soxta media kontent — ya’ni deepfake texnologiyalari ham keng tarqalmoqda. Deepfake texnologiyasi yordamida realga o‘xshash, ammo sun’iy tarzda yaratilgan video, audio va rasm materiallari ishlab chiqiladi. Ushbu texnologiya avval asosan ko‘ngilochar sohalarda qo‘llanilgan bo‘lsa-da, bugungi kunda u kiberjinoyatchilar qo‘lida kuchli qurolga aylangan. Deepfake yordamida amalga oshirilayotgan kiberhujumlar nafaqat tashkilotlar, balki jamoatchilik va siyosiy tizimlar uchun ham jiddiy xavf tug‘dirmoqda.

Deepfake texnologiyalarining asosiy tahdidi uning real va soxta kontent o‘rtasidagi farqni aniqlashdagi murakkabligidadir. Kompyuter ko‘rish va generativ tarmoqlar (GANs) asosida ishlovchi tizimlar mavjud audio yoki video kontentga asoslanib, yangi va aldamchi kontent yaratadi. Masalan, kompaniya rahbarining ovozi yoki yuzi nusxalanib, xodimlarga moliyaviy topshiriqlar yuboriladi. Bunday holatlar "audio deepfake phishing" yoki "visual impersonation attack" deb nomlanadi. Bu turdagi hujumlar, ayniqsa, kompaniyalar ichidagi ichki ishonch tizimini zaiflashtiradi va jiddiy moliyaviy zarar yetkazishi mumkin.

Deepfake texnologiyalari siyosiy manipulyatsiya va ijtimoiy tartibsizliklarni keltirib chiqarish vositasi sifatida ham qo‘llanilmoqda. Soxta siyosiy chiqishlar, rahbarlarning noto‘g‘ri bayonotlari yoki tahdidli videolar ommaviy axborot vositalari orqali tarqatilishi mumkin. Bu holat ijtimoiy ishonchni izdan chiqaradi, noto‘g‘ri qarorlar qabul qilinishiga olib keladi va hatto xalqaro mojarolarga sabab bo‘lishi ehtimoli mavjud. Deepfake kontentining tarqalish tezligi va ta’sir doirasi yuqoriligi uni kiberxavfsizlikda alohida muammoga aylantirgan.

Bunday xavfli texnologiyalarga qarshi kurashishda bir nechta asosiy yo‘nalish mavjud. Birinchidan, texnik choralar orqali deepfake kontentni aniqlash va filtrlashtirish zarur. Hozirda bir nechta yirik texnologik kompaniyalar va ilmiy tadqiqot markazlari deepfake aniqlash tizimlarini ishlab chiqmoqda. Bu tizimlar kompyuter ko‘rish (computer vision), yuz harakatlarini tahlil qilish, mikromimikalarni aniqlash kabi usullarga asoslangan. Masalan, Facebook, Google va Microsoft tomonidan moliyalashtirilgan "Deepfake Detection Challenge" loyihasi aynan ushbu maqsadga yo‘naltirilgan.

Deepfake aniqlashda algoritmik yondashuvlar juda muhim o‘rin tutadi. Masalan, sun’iy neyron tarmoqlar yordamida yuzning haqiqiy va sun’iy ekanligini aniqlovchi model o‘rganiladi. Shuningdek, video fayllardagi tafsilotlar, kadrlar orasidagi nomuvofiqliklar, yorug‘lik manbalaridagi farq, ko‘zning harakatlanishidagi tabiiylik darajasi kabi omillar orqali deepfake kontenti aniqlanishi mumkin. Bunday algoritmlar doimiy yangilanib borishi lozim, chunki deepfake ishlab chiqaruvchi texnologiyalar ham muntazam takomillashib bormoqda.

Ikkinchidan, siyosiy va huquqiy choralarni kuchaytirish kerak. Deepfake texnologiyasidan zararli maqsadlarda foydalanish qonuniy jihatdan javobgarlikni talab etishi lozim. Hozirda AQSh, Yevropa Ittifoqi va boshqa yirik davlatlarda deepfake kontentini tarqatish va undan jinoyat sodir etish holatlari uchun maxsus qonunlar ishlab chiqilmoqda. Masalan, AQShda 2020-yilda qabul qilingan "DEEPFAKES Accountability Act" qonuni ushbu sohada muhim huquqiy asos bo‘lib xizmat qilmoqda. Bu qonun deepfake materiallarida ularning sun’iy yaratilganligini belgilovchi "watermark" qo‘shishni talab qiladi.

Uchinchidan, foydalanuvchilar ongini oshirish orqali deepfake tahdidlariga qarshi kurashish muhimdir. Ko‘pchilik foydalanuvchilar soxta kontentni haqiqat deb qabul qiladi, chunki ular texnologiyaning imkoniyatlaridan yetarlicha xabardor emaslar. Shu boisdan, keng ommani texnologik savodxonlikka o‘rgatish, ayniqsa, deepfake kontentni tanib olish usullari haqida xabardor qilish — kiberxavfsizlikning ijtimoiy himoyasini kuchaytiradi. Bu borada ommaviy axborot vositalari, maktab va universitetlar, ijtimoiy tarmoqlar muhim rol o‘ynashi kerak.

To‘rtinchidan, tashkilotlar o‘z ichki xavfsizlik siyosatlarini qayta ko‘rib chiqishlari zarur. Deepfake asosida amalga oshiriladigan hujumlar, ayniqsa, "CEO fraud" yoki "Business Email Compromise" (BEC) kabi usullar bilan uyg‘unlashtirilganda, ularga qarshi faqat texnik vositalar yetarli bo‘lmasligi mumkin. Shu sababli, tashkilotlar barcha moliyaviy yoki muhim topshiriqlarni tasdiqlash jarayonini ikki bosqichli yoki ko‘p faktorli autentifikatsiya asosida tashkil etishlari lozim. Shuningdek, xodimlarni muntazam tarzda treninglardan o‘tkazish, ularga real misollar asosida tahdidlarni tanitish — tahdidga qarshi eng samarali vositalardan biridir.

Beshinchidan, global miqyosda hamkorlik zarur. Deepfake tahdidi chegaralarni tan olmaydi. Shu sababli, davlatlar, xalqaro tashkilotlar, texnologik kompaniyalar va fuqarolik jamiyatlari o‘rtasida hamkorlik mexanizmlari yaratilishi kerak. Masalan, deepfake kontentini aniqlash va undan ogohlantirish bo‘yicha global monitoring markazlari tashkil etilishi, tajriba almashinuvi yo‘lga qo‘yilishi mumkin. Bu orqali tahdidlarga tezkor javob berish, ularni aniqlash va ularning oldini olish imkoniyati oshadi.

Yuqoridagilardan kelib chiqib aytish mumkinki, deepfake texnologiyasi zamonaviy kiberhujumlarning eng xavfli ko‘rinishlaridan biridir. U real voqealarga o‘xshab ko‘rinadigan, ammo haqiqatdan yiroq kontent orqali foydalanuvchilarni, tashkilotlarni va jamiyatni aldashga qaratilgan. Bu tahdidga qarshi kurashish faqat texnik vositalar bilan emas, balki yuridik, ijtimoiy, ta’limiy va siyosiy choralarni birgalikda ko‘rish orqali amalga oshiriladi.

Foydalanilgan adabiyotlar

1. Chesney, R., & Citron, D. K. (2019). Deep Fakes: A Looming Challenge for Privacy, Democracy, and National Security. California Law Review, 107(6), 1753–1819.
2. Korshunov, P., & Marcel, S. (2018). Deepfakes: a new threat to face recognition? arXiv preprint arXiv:1812.08685.
3. Westerlund, M. (2019). The emergence of deepfake technology: A review. Technology Innovation Management Review, 9(11), 40–53.
4. Li, Y., Chang, M. C., & Lyu, S. (2018). In Ictu Oculi: Exposing AI Generated Fake Face Videos by Detecting Eye Blinking. arXiv preprint arXiv:1806.02877.
5. Facebook AI, Google, and Microsoft. (2020). Deepfake Detection Challenge Dataset. https://ai.facebook.com/blog/deepfake-detection-challenge-dataset/
6. US Congress. (2020). DEEPFAKES Accountability Act. https://www.congress.gov/bill/116th-congress/house-bill/3230
7. Vaccari, C., & Chadwick, A. (2020). Deepfakes and Disinformation: Exploring the Impact of Synthetic Political Video on Deception, Uncertainty, and Trust in News. Social Media + Society, 6(1).

SUN’IY INTELLEKTNING KIBERXAVFSIZLIK SOHASIDA YUZAGA KELTIRISHI MUMKIN BO‘LGAN MUAMMOLAR VA XAVF-XATARLAR

Raximov Sh.I.
O‘zbekiston jurnalistika va ommaviy kommunikatsiyalar universiteti o‘qituvchisi
shohruxraximov092@gmail.com

Annotatsiya. Ushbu maqolada sun’iy intellekt (SI) texnologiyalarining kiberxavfsizlik sohasida yuzaga keltirishi mumkin bo‘lgan xavf-xatarlar chuqur tahlil qilinadi. Avtomatlashtirilgan hujumlar, deepfake texnologiyalari, ma’lumotlar ekspluatatsiyasi, algoritmik shaffoflik muammosi, shaxsiy ma’lumotlarning buzilishi va etik tamoyillarning buzilishi asosiy xavf omillari sifatida ko‘rib chiqilgan. Muallif SI tizimlarining salbiy oqibatlarini kamaytirish uchun nazorat, shaffoflik, qonunchilik va axloqiy

me’yorlarni muhim deb biladi. Maqola SI texnologiyalarining mas’uliyatli qo‘llanilishi orqali xavfsiz kiber muhitni yaratish imkoniyatlarini ko‘rsatadi.

So‘nggi o‘n yilliklar ichida sun’iy intellekt (SI) texnologiyalari jadal rivojlandi va hozirgi kunda u inson faoliyatining deyarli barcha sohalariga kirib bordi. Tabiiy tilni qayta ishlash, kompyuter ko‘rish, ovozni tanish va mashinaviy o‘rganish kabi sohalarda qo‘llanilayotgan SI texnologiyalari bizga katta qulayliklar yaratmoqda. Ayniqsa, kiberxavfsizlik sohasida SI yordamida tahdidlarni tez aniqlash, real vaqtda monitoring qilish, hujumlarga avtomatik javob berish imkoniyatlari yuzaga kelmoqda. Biroq, bu ijobiy jihatlar bilan bir qatorda muhim xavf-xatarlar va muammolarni ham yuzaga chiqarayotgani haqiqatdir. Ayniqsa, ushbu texnologiyalar yovuz niyatli shaxslar qo‘lida qurol sifatida ishlatilishi, noto‘g‘ri qarorlar qabul qilinishi yoki etik me’yorlarning buzilishi kiberxavfsizlik tizimlariga jiddiy tahdid tug‘diradi. Quyida ushbu masalaning asosiy xavf-xatarlari va ularni kamaytirish yo‘llari haqida batafsil fikr yuritiladi.

Sun’iy intellektdan yovuz niyatlarda foydalanish ehtimoli tobora ortib bormoqda. Bugungi kunda xakerlar sun’iy intellekt vositalari yordamida murakkab, o‘z-o‘zini o‘rganuvchi zararli dasturlarni ishlab chiqmoqda. Bunday dasturlar inson aralashuvisiz o‘z maqsadlariga erishish uchun moslasha oladi. Masalan, avtomatlashtirilgan botlar yordamida turli tarmoq tizimlari skanerlab chiqiladi, zaif nuqtalar aniqlanadi va ularga hujumlar amalga oshiriladi. Avval oddiy ssenariylar asosida ishlaydigan zararli dasturlar ishlab chiqilgan bo‘lsa, bugungi kunda bu dasturlar o‘z holicha moslashuvchanlik xususiyatiga ega bo‘lib, xavfsizlik tizimlarini aldab o‘tishi mumkin. Masalan, soxta e-mail xabarlar, ya’ni phishing xatlari avval andozaviy bo‘lsa, endilikda SI yordamida shaxsga moslab yozilmoqda, bu esa foydalanuvchini chalg‘itish ehtimolini oshiradi.

Bundan tashqari, deepfake texnologiyalari sun’iy intellektning xavfli tomonlaridan biri sifatida ajralib turadi. Deepfake – bu video, audio yoki rasm shaklida haqiqatga o‘xshash, biroq sun’iy yaratilgan kontent bo‘lib, foydalanuvchini aldaydi. Xakerlar deepfake texnologiyasi yordamida kompaniya rahbarlarining sun’iy videolarini yaratib, xodimlarga noto‘g‘ri topshiriqlar beradi yoki moliyaviy o‘tkazmalarni amalga oshirishga majbur qiladi. Bu turdagi hujumlar ijtimoiy muhandislik asosida tashkil etilib, texnik zaifliklardan emas, balki inson omilidan foydalanadi.

SI asosida ishlovchi xavfsizlik tizimlari o‘zlari ham tahdid ostida bo‘lishi mumkin. Mashinaviy o‘rganish (machine learning) algoritmlariga asoslangan xavfsizlik tizimlari o‘z ish faoliyatini ma’lumotlar asosida quradi. Agar bu ma’lumotlar manipulyatsiyaga uchrasa yoki noto‘g‘ri bo‘lsa, tizim noto‘g‘ri qarorlar qabul qiladi. Masalan, “data poisoning” deb ataluvchi usul orqali SI modeliga noto‘g‘ri ma’lumotlar kiritiladi va u tahdidni noto‘g‘ri baholaydi yoki tahdid mavjud bo‘lmagan holatni xavf deb qabul qiladi. Bunday xatolar butun tarmoq xavfsizligiga salbiy ta’sir ko‘rsatishi mumkin.

SI tizimlarining ishlashi ko‘pincha insonlar uchun tushunarsiz bo‘lib qoladi. Bu holat “qora quti” (black box) deb ataladi. Ko‘plab SI tizimlari qanday qaror qabul qilganini aniqlash imkonini bermaydi. Bu esa kiberxavfsizlik sohasida jiddiy muammo hisoblanadi, chunki har bir qarorning sababini tahlil qilish muhimdir. Agar SI noto‘g‘ri qaror qabul qilsa, bu qarorni tekshirib bo‘lmasa, foydalanuvchilarning huquqlari buzilishi, noto‘g‘ri jazolar berilishi yoki real tahdidlar e’tiborsiz qolishi mumkin.

Shuningdek, SI tizimlari katta hajmdagi shaxsiy ma’lumotlarni qayta ishlaydi. Bu ma’lumotlar noto‘g‘ri qo‘llar qo‘liga tushsa yoki tizimlar ekspluatatsiya qilinsa, foydalanuvchilarning maxfiyligi buziladi. Masalan, foydalanuvchining internetdagi xatti-harakatlariga asoslangan profiling usullari orqali u haqida chuqur tahlillar qilinadi va bu ma’lumotlar reklama, siyosiy propaganda yoki hatto firibgarlik maqsadlarida ishlatilishi mumkin. Shu sababli, SI tizimlarining maxfiylikka oid siyosatlari qat’iy nazorat qilinishi zarur.

Etik me’yorlarning buzilishi ham SI texnologiyalarining jiddiy muammolaridan biridir. SI algoritmlari insonlar tomonidan yaratilgani sababli, ularning o‘zida ham muayyan tarafkashlik yoki diskriminatsion yondashuvlar bo‘lishi mumkin. Masalan, SI tizimi muayyan irq, jins yoki tilga mansub foydalanuvchilarni noto‘g‘ri baholashi yoki ularga nisbatan adolatsiz qarorlar qabul qilishi mumkin. Bu esa SI tizimlariga bo‘lgan ishonchni kamaytiradi va ijtimoiy tengsizlikni chuqurlashtiradi. Etik

tamoyillarga amal qilish va SI tizimlarining shaffofligini ta’minlash kiberxavfsizlik sohasida ham muhim ahamiyat kasb etadi.

Bu muammolarni kamaytirish uchun bir nechta choralarni ko‘rish lozim. Avvalo, SI tizimlari ustidan doimiy inson nazorati o‘rnatilishi kerak. Har qanday SI qarori so‘nggi bosqichda inson tomonidan ko‘rib chiqilishi va tasdiqlanishi maqsadga muvofiqdir. Bu nafaqat noto‘g‘ri qarorlarning oldini oladi, balki etik tamoyillarni ham nazorat qilish imkonini beradi.

Shuningdek, SI tizimlari ishlab chiqilayotgan bosqichdayoq xavfsizlik, maxfiylik va etik me’yorlar inobatga olinishi lozim. “Security by design” va “privacy by design” tamoyillariga amal qilinishi, ya’ni dastlabki loyihalash bosqichidan boshlab xavfsizlik choralarini ko‘rish zarur. Ma’lumotlar himoyasi kuchaytirilgan, faqat kerakli hajmdagi ma’lumotlar ishlatiladigan SI tizimlari samaraliroq va xavfsizroq bo‘ladi.

Bundan tashqari, SI tizimlarining shaffofligi va tushunarliligi ustida ish olib borilishi kerak. Hozirgi kunda “explainable AI” (XAI) yoki tushuntirila oladigan sun’iy intellekt konsepsiyasi ishlab chiqilmoqda. Bu konsepsiya SI tizimlarining qabul qilgan qarorlarini izohlab bera olish imkoniyatini yaratadi. Shu orqali SI qarorlarini insonlar tahlil qilishi, xatolarni aniqlashi va tizimni doimiy ravishda takomillashtirib borishi mumkin bo‘ladi.

Yana bir muhim yo‘nalish – bu sun’iy intellektni tartibga soluvchi qonunchilik bazasining yaratilishi va yangilanib borilishi. Ko‘pgina davlatlar bugungi kunda SI texnologiyalarini nazorat qilish, ularni etik me’yorlar asosida boshqarish uchun maxsus qonunlar ishlab chiqmoqda. Yevropa Ittifoqi tomonidan ishlab chiqilgan “AI Act” bunga misol bo‘la oladi. Ushbu qonun SI texnologiyalarining xavfsizligi, shaffofligi, etikasi va inson huquqlarini muhofaza qilishga qaratilgan.

Xulosa qilib aytganda, sun’iy intellekt texnologiyalari kiberxavfsizlik sohasida katta imkoniyatlar bilan birga, yangi turdagi tahdidlar va xavf-xatarlarni ham keltirib chiqarmoqda. Avtomatlashtirilgan hujumlar, deepfake texnologiyalari, SI modelining noto‘g‘ri qarorlari, shaxsiy ma’lumotlarning buzilishi va etik muammolar — bularning barchasi dolzarb masalalardir. Bu tahdidlarni kamaytirish uchun SI tizimlarini mas’uliyatli, shaffof va inson nazorati ostida boshqarish, ularga yuridik va etik me’yorlarni joriy etish zarur. Faqat shundagina SI texnologiyalari xavf emas, balki imkoniyatga aylanishi mumkin.

Foydalanilgan adabiyotlar

1. Brundage, M., et al. (2018). The Malicious Use of Artificial Intelligence: Forecasting, Prevention, and Mitigation. arXiv:1802.07228.
2. Goodfellow, I., McDaniel, P., & Papernot, N. (2018). Making machine learning robust against adversarial inputs. Communications of the ACM, 61(7), 56-66.
3. European Union Agency for Cybersecurity (ENISA). (2020). Artificial Intelligence and Cybersecurity. https://www.enisa.europa.eu/publications/artificial-intelligence-cybersecurity
4. West, D. M. (2018). The Future of Work: Robots, AI, and Automation. Brookings Institution Press.
5. Taddeo, M., & Floridi, L. (2018). How AI can be a force for good. Science, 361(6404), 751–752.
6. Vinuesa, R., et al. (2020). The role of artificial intelligence in achieving the Sustainable Development Goals. Nature Communications, 11(1), 233.
7. Mittelstadt, B. D., et al. (2016). The ethics of algorithms: Mapping the debate. Big Data & Society, 3(2), 1–21.
8. European Commission. (2021). Proposal for a Regulation laying down harmonised rules on artificial intelligence (Artificial Intelligence Act). https://eur-lex.europa.eu/legal-content/EN/TXT/?uri=CELEX:52021PC0206

SUN’IY INTELLEKT YORDAMIDA KIBERXAVFSIZLIKNI MUSTAHKAMLASH USULLARI

Raximova Nozima G’ayrat qizi
Toshkent Kimyo Xalqaro universiteti
“Boshlang’ich ta’lim” 3-bosqich talabasi
nozimaraximova0904@gmail.com

ANNOTATSIYA. Ushbu maqolada sun’iy intellekt (SI)ning kiberxavfsizlik sohasidagi ahamiyati va uning yordamida xavfsizlikni kuchaytirish usullari yoritilgan. Sun’iy intellektning zararli dasturlarni aniqlash, xakerlik hujumlarini oldini olish, ma’lumotlarni himoya qilish va xavfsizlik tizimlarini avtomatlashtirishdagi roli tushuntiriladi. Shuningdek, SI texnologiyalarining doimiy o‘rganish va takomillashish xususiyatlari, internetdagi tahdidlarni tezda aniqlashga ko‘maklashishi haqida so‘z boradi.

Kalit so’zlar: Sun’iy intellekt, Qidiruv tizimi, kiberxavfsizlik, Google, Yahoo, Yandex, duckduckgo, veb-sahifalar, Kiberjinoyatchilik, fishing va farming, mashinali o‘rganish (machine learning)

Hozirgi zamonimizda internet va kompyuter texnologiyalari hayotimizning ajralmas qismiga aylangan. Har kuni milliardlab odamlar onlayn muloqot qiladi, o‘yin o‘ynaydi, bilim oladi va ish yuritadi. Biroq, internetda xavfsizlik muammolari ham tobora oshib bormoqda. Yomon niyatli kishilar — xakerlar, viruslar va zararli dasturlar foydalanuvchilarning shaxsiy ma’lumotlarini o‘g‘irlash, tizimlarga zarar yetkazish kabi jinoyatlarni amalga oshirishga harakat qilishadi.

Shunday murakkab va doimiy o‘zgaruvchan tahdidlar fonida kiberxavfsizlikni ta’minlash uchun an’anaviy usullar yetarli bo‘lmayapti. Shu sababli, sun’iy intellekt (SI) texnologiyalari kiberxavfsizlik sohasida muhim vositaga aylangan. Sun’iy intellektning imkoniyatlari tufayli zararli harakatlarni tez va aniq aniqlash, oldini olish va xavfsizlik tizimlarini avtomatlashtirish mumkin bo‘lmoqda.

Sun’iy intellekt (*SI*; inglizcha: *artificial intelligence, AI*) – inson intellektiga taqlid qilishga qodir bo‘lgan mashinalar yaratishga qaratilgan fan va texnologiya sohasi[1].

Bugungi kunda keng qo’llanib kelayotgan sun’iy intellekt texnologiyalari hayotimizning ajralmas qismi bo’lishga ulgurgan.

Qidiruv tizimi (inglizcha: *search engine*) — bu kompyuterda, lokal tarmoqlarda yoki internetda (xususan, *World Wide Web*) joylashgan turli ma’lumotlarni (matn, rasm, video, hujjat, sayt) tezda topish va foydalanuvchiga taqdim etish uchun mo‘ljallangan dasturiy tizimdir.

Eng mashhur qidiruv tizimlariga quyidagilar kiradi:

Google – dunyodagi eng keng tarqalgan va kuchli qidiruv tizimi hisoblanadi. Biz uni kundalik hayotda, ko’chada, o’qishda kerakli ma’lumotlarni topish uchun foydalanamiz.

Bing – Microsoft tomonidan yaratilgan qidiruv tizimi;

Yahoo!, **Yandex**, **DuckDuckGo** va boshqalar.

Qidiruv tizimining asosiy vazifalari shundan iboratki, veb-sahifalardagi matn va tarkibni o’rganib, ularni bazaga kiritish uchun – ma’lumotlarni indekslashdan foydalanamiz. Kalit so’z bo’yicha qidirish – foydalanuvchining so’rovi asosida kerakli ma’lumotni topish, Foydalanuvchiga natijalarni taqdim etish – sahifa nomi, manzili, qisqacha tavsifi bilan birga.

Alan Turing sun’iy intellekt sohasida olib borilgan ilk tadqiqot muallifi bo‘lgan. Sun’iy intellektga 1956-yili mustaqil fan sohasi sifatida asos solingan. Shu yilning yozida Dartmouth kollejida o‘tgan anjumanda John McCarthy „sun’iy intellekt“ atamasini birinchi marta ishlatgan va tarixga mazkur atama muallifi o‘laroq kirgan[2]

Sun’iy intellekt tizimlari maxsus algoritmlar, katta hajmdagi ma’lumotlar va hisoblash quvvatidan foydalanadi. Ular real vaqt rejimida ma’lumotlarni qayta ishlay oladi, tendensiyalarni aniqlaydi, foydalanuvchilarning xatti-harakatlarini kuzatadi va tegishli tavsiyalar beradi. Zamonaviy SI texnologiyalari tibbiyotda, ta’limda, moliyaviy sohada, sanoatda, transportda, harbiy ishlarda va, albatta, kiberxavfsizlikda keng qo‘llanilmoqda.

Sun’iy intellektning asosiy yo‘nalishlariga quyidagilar kiradi:

Mashina o‘rganishi (Machine Learning) – mashinalarning tajriba orqali yaxshilanishi;
Sun’iy neyron tarmoqlar – inson miyasi kabi ishlovchi tizimlar;
Tabiiy tilni qayta ishlash (NLP) – matn va nutqni tushunish va ishlab chiqish;
Kompyuter ko‘rishi – tasvirlarni tanish va tahlil qilish;
Ekspert tizimlar – muayyan sohada qarorlar qabul qilishga yordam beruvchi dasturlar.

Sun’iy intellekt texnologiyalari tobora rivojlanib, kundalik hayotimizning ajralmas qismiga aylanmoqda. U inson salohiyatini to‘ldirish, vaqt va kuchni tejash, xavfsizlikni oshirish hamda yangi innovatsiyalar yaratish imkonini bermoqda.

Hozirda sun'iy intellektning sohalarga joriy etilishi uchun turli sabablar keltirilmoqda, ulardan uchta eng asosiysini keltirib o'tamiz. Birinchisi, arzon narxlardagi yuqori samarali hisoblash resurslari. Ikkinchisi, ta'lim uchun katta hajmdagi ma'lumotlarning mavjudligi. Sun'iy intellekt mahsulining aniq prognozlarni amalga oshirishi uchun u katta hajmdagi ma'lumotlarni qayta ishlashi kerak. Ushbu omil sabab turli vositalar, xususan, ma'lumotlarni saqlash va qayta ishlashning oddiy hamda arzon vositalari, turli xil algoritmlar yaratildi.

Uchinchisi, sun'iy intellekt mahsulotlari raqobatbardoshlikni mustahkamlaydi. U kompaniyalar xarajatlarini va xavflarni kamaytirishi, bozorga chiqish imkoniyatini kengaytirishi hamda boshqa foydali omillar uchun ko'plab vositalarni taklif qila oladi. Natijada sun'iy intellekt joriy etilgan kompaniyalar raqobatga anchayin chidamli bo'ladi[3].

Kiberxavfsizlik haqida “Kiberxavfsizlik to’g’risida” qonunida berib o’tilgan.

Kiberxavfsizlik — kibermakonda shaxs, jamiyat va davlat manfaatlarining tashqi va ichki tahdidlardan himoyalanganlik holati[4];

Kiberxavfsizlik — bu zamonaviy raqamli muhitda texnik qurilmalar, dasturiy ta'minot va ma’lumotlar xavfsizligini ta’minlashga qaratilgan chora-tadbirlar majmuasidir. Bu sohaga axborot tizimlarini, kompyuter tarmoqlarini, mobil qurilmalarni va foydalanuvchilarning shaxsiy ma’lumotlarini turli kiberxavf-xatarlardan himoya qilish kiradi. Kiberxavfsizlikning asosiy maqsadi — axborotning maxfiyligi, yaxlitligi va mavjudligini saqlab qolish, foydalanuvchilarning raqamli faoliyati davomida ularga nisbatan tahdidlarni aniqlash va ularning oldini olishdir.

Bugungi kunda internet tarmog‘ining kengayishi, axborot-kommunikatsiya texnologiyalarining hayotimizning barcha jabhalariga kirib kelishi bilan birga, kiberxavfsizlik masalasi tobora dolzarblashmoqda. Shu bilan birga, bu sohada sodir etilayotgan huquqbuzarliklar — ya’ni **kiberjinoyatchilik** hodisalari ham kengaymoqda.

Kiberjinoyatchilik — bu axborot-kommunikatsiya texnologiyalari vositalaridan foydalanib amalga oshiriladigan va amaldagi qonunlarga zid bo‘lgan harakatlar majmuasidir. Bunday jinoyatlar quyidagi shakllarda namoyon bo‘lishi mumkin:

viruslar va boshqa zararli dasturlar yaratish va tarqatish;
kompyuter tarmoqlari yoki veb-saytlarga ruxsatsiz kirish (xakerlik);
ijtimoiy tarmoqlar yoki messenjerlar orqali yolg‘on, tahdidli yoki noqonuniy axborot tarqatish;
spam — ya’ni foydalanuvchilarga ularning roziligisiz elektron xatlar yuborish;
fishing va farming — foydalanuvchilarning shaxsiy ma’lumotlari, masalan, bank kartasi raqamlari, parollar va boshqa maxfiy axborotlarni firibgarlik yo‘li bilan qo‘lga kiritish;
raqamli mulkka oid huquqlar, mualliflik huquqi va ma’lumotlar butunligini buzish;
onlayn firibgarlik va yolg‘on reklamalar orqali moliyaviy zarar yetkazish.

Ushbu harakatlar nafaqat shaxsiy, balki korporativ, davlat va xalqaro darajadagi axborot tizimlariga ham jiddiy zarar yetkazadi. Shu sababli, kiberjinoyatchilikka qarshi kurashishda nafaqat maxsus xizmatlar va texnologiyalar, balki huquqiy, axborot-ma’rifiy va profilaktik choralar ham muhim ahamiyat kasb etadi.

Kiberxavfsizlikni ta’minlashda sun’iy intellekt, kriptografiya, xavfsizlik devorlari, biometrik tizimlar, foydalanuvchi autentifikatsiyasi, shifrlash texnologiyalari kabi ilg‘or vositalar muhim rol o‘ynaydi. Zero, kiberjinoyatlarga qarshi samarali kurashish va raqamli muhitda xavfsizlikni saqlash bugungi global axborotlashgan jamiyatda har bir foydalanuvchining asosiy ehtiyojlaridan biridir.

Raqamli texnologiyalar sur’at bilan rivojlanayotgan hozirgi davrda kibermakon xavfsizligini ta’minlash dolzarb masalalardan biriga aylangan. Har bir soha — ta’lim, tibbiyot, moliya, sanoat, davlat

boshqaruvi — tobora ko‘proq raqamlashtirilayotgan bir paytda, kiberxavflarning oldini olish va ularga qarshi kurashish zarurati keskin ortib bormoqda. Shu nuqtai nazardan qaralganda, sun’iy intellekt (SI) kiberxavfsizlikni mustahkamlashda kuchli vosita sifatida e’tirof etilmoqda.

Sun’iy intellekt asosida ishlovchi tizimlar inson tomonidan aniqlanishi mushkul bo‘lgan kiberxavflarni tezda aniqlab, ularga zudlik bilan javob qaytarish imkonini beradi. Xususan, **mashinali o‘rganish (machine learning)** algoritmlari turli axborot oqimlaridagi noodatiy holatlarni aniqlash orqali tahdidlarni erta bosqichda aniqlash va neytrallashtirish imkoniyatini yaratadi. Bu esa tizimlarning uzluksiz ishlashini ta’minlab, ma’lumotlarning butunligini va maxfiyligini saqlab qolishga xizmat qiladi.

Xulosa

Xulosa qilib aytganda, sun’iy intellekt texnologiyalari kiberxavfsizlik sohasida eng samarali va istiqbolli yechimlardan biri hisoblanadi. SI yordamida real vaqt rejimida tahdidlarni aniqlash, avtomatik javob choralari ko‘rish, foydalanuvchilarning xatti-harakatlarini tahlil qilish va bashorat qilish imkoniyatlari yuzaga keladi. Bu esa raqamli muhitdagi xavfsizlikni yanada ishonchli darajada ta’minlashga xizmat qiladi.

Kiberjinoyatlarning ko‘payib borayotgani fonida sun’iy intellektga asoslangan yondashuvlar axborot tizimlarini himoyalashda muhim o‘rin tutmoqda. Shuningdek, SI texnologiyalarining imkoniyatlari kengaygani sari, ular yordamida kibermakonni ilg‘or va barqaror nazorat qilish mexanizmlari yaratilmoqda.

Foydalangan adabiyotlar

1. https://uz.wikipedia.org/wiki/Sun%CA%BCiy_intellekt#cite_note-Dartmouth_workshop-3
2. https://uz.wikipedia.org/wiki/Qidiruv_tizimi
3. https://lex.uz/ru/docs/-5960604
4. https://toshkent-vil.adliya.uz/uz/news/detail.php?ID=68028
5. Russell, S., & Norvig, P. (2021). *Artificial Intelligence: A Modern Approach* (4th ed.). Pearson Education.
6. Хашимов, А.Ж. (2021). “Sun’iy intellekt va uning axborot xavfsizligidagi o‘rni”. // *Ilmiy-amaliy axborot texnologiyalari jurnali*, №2.

ETHICAL AND LEGAL IMPLICATIONS OF USING AI IN CYBERSECURITY

Bekjanov Ruzimboy Ganijan ugli
ruzimboybekjanov@gmail.com
Third-Year Bachelor’s Student in Telecommunications Technologies at Urgench Branch of Tashkent University of Information Technologies named after Muhammad al-Khwarizmi

Abstract: This paper examines the ethical and legal implications of incorporating Artificial Intelligence (AI) into cybersecurity frameworks. As AI becomes increasingly central to threat detection, response automation, and vulnerability management, it also raises critical questions about privacy, bias, accountability, and compliance. The paper provides a structured overview of the current AI applications in cybersecurity, discusses key ethical concerns such as surveillance and algorithmic transparency, and evaluates existing and emerging legal frameworks. It aims to offer a balanced perspective that encourages the responsible development and deployment of AI technologies in the cyber domain.

Keywords: Artificial Intelligence, Cybersecurity, Ethics, Legal Compliance, AI Governance, Privacy, AI Regulation, Accountability, Bias in AI, Cyber Defense.

Introduction

The integration of Artificial Intelligence (AI) into cybersecurity represents one of the most transformative developments of the digital era. As cyber threats evolve in complexity and frequency, traditional security measures often fall short. AI offers the promise of intelligent, adaptive, and proactive defense mechanisms capable of identifying and mitigating threats in real time. However, alongside the growing adoption of AI tools in cybersecurity arises a host of ethical and legal concerns. From issues of

privacy invasion to accountability in automated decision-making, the deployment of AI introduces profound challenges that must be addressed.

This paper explores the ethical and legal implications of using AI in cybersecurity. It begins with an overview of how AI is currently applied in cyber defense, followed by an in-depth examination of the ethical dilemmas posed by intelligent systems. The discussion then shifts to the evolving legal landscape, including international regulations, compliance challenges, and the need for robust governance. Ultimately, this paper seeks to highlight the importance of aligning technological advancement with ethical responsibility and legal integrity.

AI in Cybersecurity - A Brief Overview

Artificial Intelligence has rapidly become a cornerstone of modern cybersecurity strategies. Unlike traditional systems that rely on predefined rules and static signatures, AI-based solutions utilize machine learning (ML), deep learning, and natural language processing (NLP) to detect anomalies, analyze vast amounts of data, and adapt to new threats in real time.

AI is primarily applied in areas such as intrusion detection systems (IDS), behavioral analytics, threat intelligence, malware classification, phishing detection, and automated incident response. These tools can continuously learn from new attack vectors, often identifying threats faster and more accurately than human analysts or rule-based systems.

For instance, anomaly detection algorithms monitor user behavior and flag deviations that may indicate insider threats or account takeovers. Similarly, supervised machine learning models can classify files and network traffic as benign or malicious based on historical training data. In Security Operations Centers (SOCs), AI-driven platforms are being used to prioritize alerts, correlate threat indicators, and recommend response actions, thus reducing analyst fatigue and improving operational efficiency.

However, while the benefits are substantial, the reliance on AI also introduces complexities. These systems operate on opaque models that are often difficult to interpret. Moreover, they are only as good as the data they are trained on - raising concerns about data quality, representativeness, and bias. The automation of decisions that affect security, privacy, and even access rights brings with it a new layer of ethical and legal considerations that cannot be overlooked.

Ethical Challenges in AI-Driven Cybersecurity

The integration of AI into cybersecurity systems introduces a range of ethical dilemmas that extend far beyond the technical domain. As these intelligent systems assume greater responsibility in detecting, interpreting, and responding to cyber threats, they begin to influence decisions that directly impact individuals' rights, privacy, and digital freedom.

One of the primary ethical concerns is *surveillance and privacy*. AI-powered systems, particularly those using behavioral analytics and user activity monitoring, often operate by collecting and analyzing massive volumes of personal or sensitive data. While this data is essential for building accurate threat models, it raises the question: *At what point does monitoring for security cross the line into invasive surveillance?* The lack of transparency in how AI models process and interpret this data only amplifies these concerns.

Another significant issue is *algorithmic bias*. If the data used to train AI systems reflects historical prejudices or is unbalanced in terms of demographics, geography, or organizational structure, the resulting model may unfairly target certain individuals or behaviors. This can lead to false positives - flagging legitimate actions as malicious - or worse, overlooking real threats due to biased assumptions embedded in the system.



Interconnected concepts of the Framework for developing AI systems that embody Transparency, Explainability and Clarity.

Lack of accountability is another pressing issue. When an AI system flags an employee for suspicious activity or blocks access to a service, who is responsible for that decision? The engineers who built the model? The security team who deployed it? Or the organization that owns the data? The ambiguity surrounding accountability in AI-driven decisions complicates both internal policy and external legal recourse.

Furthermore, the use of AI in *automated decision-making* may deprive individuals of the right to a fair review or appeal process. For example, if an employee is locked out of a corporate system based on an AI decision, there may be no human-in-the-loop to verify or overturn that action. This undermines principles of fairness and due process that are critical in any ethical framework.

In summary, while AI enhances cybersecurity capabilities, it also introduces serious ethical trade-offs. To build trust and ensure responsible deployment, organizations must incorporate transparency, oversight, and ethical guidelines into the design and implementation of AI-based cybersecurity systems.

Legal and Regulatory Considerations

As AI technologies become more embedded in cybersecurity infrastructures, they increasingly intersect with legal frameworks designed to protect data, ensure accountability, and uphold fundamental rights. However, many of these legal frameworks were not originally conceived with AI in mind, creating challenges for regulators and organizations alike.

One of the most pressing legal concerns is *data protection and privacy compliance*. Regulations such as the *General Data Protection Regulation (GDPR)* in the European Union and the *California Consumer Privacy Act (CCPA)* in the United States impose strict rules on the collection, storage, and processing of personal data. AI-driven cybersecurity tools often require large datasets - including personal and behavioral data - to function effectively. This raises critical legal questions about consent, data minimization, and individuals' rights to access or delete their data.

Moreover, the *lack of transparency and explainability in AI systems* complicates compliance with laws that mandate understandable and auditable decision-making. GDPR, for instance, grants individuals the right to an explanation for automated decisions that significantly affect them. Many AI models, particularly deep learning systems, operate as "black boxes," making it difficult to trace how a particular conclusion was reached or justify it in legal terms.

Another area of concern is *liability and accountability*. If an AI system in a cybersecurity setting makes an error - such as failing to detect a breach or falsely flagging benign activity as malicious - determining who is legally responsible becomes a gray area. Traditional legal frameworks assume

human decision-makers, but AI introduces a layer of autonomy that current laws are still struggling to address.



Interconnected fields of Privacy, Security, and AI Governance.

Internationally, the regulatory landscape is fragmented and constantly evolving. While the EU is leading efforts with the *AI Act*, aimed at regulating high-risk AI systems (including those used in cybersecurity), many countries are still formulating their approaches. The result is a patchwork of regulations that can be difficult for multinational organizations to navigate.

Furthermore, legal systems must also consider *the dual-use nature of AI* - technologies that can be used for both beneficial and malicious purposes. The same AI tools that protect against cyber threats can potentially be weaponized by adversaries to bypass defenses or generate sophisticated attacks.

In this complex legal environment, organizations deploying AI in cybersecurity must proactively engage legal counsel, stay updated with emerging regulations, and implement governance frameworks that ensure legal accountability without stifling innovation.

Balancing Innovation and Responsibility

The rapid adoption of AI in cybersecurity presents a paradox: the same innovations that enhance security capabilities can simultaneously pose ethical risks and legal challenges. Striking a balance between leveraging AI's power and ensuring responsible, compliant use is critical for sustainable progress.

To begin with, organizations must adopt the principle of *"ethical by design."* This involves integrating ethical considerations at every stage of the AI development lifecycle - from data collection and model training to deployment and post-deployment monitoring. Practices such as bias auditing, algorithmic transparency, and the inclusion of diverse training data can mitigate many of the concerns surrounding fairness and discrimination.

Similarly, *human oversight* remains essential. While AI can automate many tasks, final authority and accountability should rest with qualified personnel, especially when decisions have significant consequences. Human-in-the-loop (HITL) systems, which allow for human review of automated outputs, are one way to embed ethical checks without undermining efficiency.

Governance frameworks also play a central role. Companies should establish interdisciplinary AI ethics boards or compliance committees to evaluate the risks and impact of AI applications in cybersecurity. These bodies can guide responsible deployment and ensure alignment with both internal policies and external regulations.

Another key element is *transparency* - not only in how AI systems function but also in how their use is communicated to stakeholders. Employees, customers, and regulatory bodies should be informed

when AI is used in decision-making processes that affect them, and they should have clear channels for recourse if errors occur.

Abstract: This thesis addresses the critical challenges of intelligent data analysis in bipolar fuzzy environments, focusing on how to effectively manage and extract insights from data that is inherently uncertain, imprecise, and contradictory. Traditional data analysis methods often fall short in complex real-world scenarios where information can present both positive and negative aspects simultaneously. We explore the relevance of bipolar fuzzy set theory as a robust framework for modeling such dual characteristics.

The work is structured around two core themes: knowledge representation and modern Big Data and Data Mining techniques. In the realm of knowledge representation, we investigate novel models like bipolar fuzzy relations, ontologies, and rule bases, along with their associated inference mechanisms. These models provide a powerful means to capture and reason with the nuanced complexities of bipolar knowledge, enabling more accurate decision-making.

For Big Data analysis, the thesis examines the adaptation and development of Data Mining algorithms—including clustering (e.g., bipolar fuzzy k-means, DBSCAN), classification (e.g., bipolar fuzzy decision trees, neural networks), and association rule mining (e.g., bipolar fuzzy Apriori/FP-Growth)—to efficiently process large volumes of bipolar fuzzy data. We also discuss strategies for enhancing computational efficiency through parallel and distributed computing platforms like Apache Spark and Hadoop.

The practical implications of this research are significant, offering advanced solutions for applications in decision-making systems, medical diagnosis, customer segmentation, and risk analysis. By providing a comprehensive framework for intelligent data analysis in bipolar environments, this thesis contributes to the development of more robust and accurate intelligent systems capable of navigating the inherent uncertainties of modern data.

The rapid advancement of information technology in the 21st century has led to an unprecedented explosion in the volume and complexity of digital data. In nearly every aspect of our daily lives—from healthcare and finance to social media and scientific research—massive amounts of data are being generated. Much of this data is not only uncertain but can also be incomplete, imprecise, or even contradictory. Traditional data processing and analysis methods often fall short in fully addressing such complexities, necessitating more advanced and adaptable approaches.

In this context, Fuzzy set theory emerged as an effective tool for modeling uncertainty by defining degrees of membership for elements within a set. However, many real-world scenarios require modeling

opposing characteristics, such as positive and negative aspects, benefits and drawbacks, or approval and disapproval. This is where Bipolar Fuzzy set theory, an extension of traditional fuzzy sets, becomes particularly relevant. Bipolar fuzzy sets allow for the simultaneous consideration of both positive and negative membership degrees, enabling a more precise representation of contradictions and dual characteristics inherent in data.

This thesis aims to explore the pressing issues in intelligent data analysis within bipolar environments. The discussion will primarily focus on two key areas: knowledge representation models and technologies and modern Big Data and Data Mining techniques.

The effectiveness of intelligent systems hinges on their ability to accurately and comprehensively represent knowledge. In environments characterized by fuzziness and contradictions, knowledge representation demands new paradigms that deviate from traditional logical approaches.

Traditional fuzzy set systems typically only account for a single degree of membership (e.g., the degree to which something is "hot"). However, numerous real-world situations necessitate a dual evaluation—for instance, considering both "beneficial" and "harmful" or "acceptable" and "unacceptable" aspects simultaneously. Bipolar fuzzy sets bridge this gap by assigning both positive and negative membership degrees to each element. For example, in financial decision-making, an investment project’s potential returns (positive aspect) and associated risks (negative aspect) must be evaluated concurrently.

This thesis examines the following models for bipolar fuzzy knowledge representation and their contemporary relevance:

These are employed to represent complex and contradictory relationships between objects within databases, data streams, or other data sources. Bipolar fuzzy relations offer richer semantics than simple binary relations, as they encapsulate both positive and negative degrees of association between two objects.

Ontologies play a critical role in systematizing knowledge and structuring domain-specific information. Bipolar fuzzy ontologies enable the representation of uncertain and contradictory relationships between concepts, relations, and properties. For instance, in medical diagnosis, a symptom might contain both positive information (confirming a disease) and negative information (ruling out a disease).

Rule-based inference is widely used in intelligent systems, particularly expert systems. Bipolar fuzzy rules take the form of "IF (condition) THEN (positive outcome) AND IF (condition) THEN (negative outcome)," allowing for the simultaneous consideration of positive and negative factors during decision-making. This is useful, for example, in banking systems when assessing a client's creditworthiness by accounting for both their income (positive) and their debt load (negative).

While knowledge representation models form the foundation for storing knowledge, logical inference technologies enable the derivation of new information or decisions from this knowledge. In a bipolar fuzzy environment, inference mechanisms must be capable of combining both positive and negative contributions.

This method relies on the composition of fuzzy relations to generate new fuzzy relations. In a bipolar fuzzy environment, this mechanism can be applied to determine how different factors lead to either positive or negative consequences for a particular event.

Associative rules are effective for discovering hidden relationships within large datasets. Bipolar fuzzy association rules, unlike simple associative rules, explore not only co-occurrence but also contradictory relationships between data elements. For example, in product recommendation systems, if a customer buys product "A," they might also buy product "B" (positive association) but potentially avoid buying product "C" (negative association).

Through these models and technologies, systems can effectively utilize knowledge about "what exists" as well as "what does not exist" or "what is unfavorable." This leads to enhanced transparency and precision in decision-making processes.

Today, Big Data has become an integral part of nearly every sector. Big Data is characterized by its Volume, Velocity, Variety, and Veracity. These characteristics, especially when combined with fuzzy and bipolar data, pose significant challenges for data analysis. Traditional Data Mining methods are

often inadequate for effectively processing data of such scale and complexity. Therefore, developing new and adapted Data Mining techniques for analyzing Big Data in a bipolar fuzzy environment is a critical task.

Clustering enables the discovery of hidden structures within data and their organization into groups. In a bipolar fuzzy environment, clustering must facilitate grouping by considering both similarities and differences among data points.

An extension of the traditional k-means algorithm, this method assesses the proximity of each element to cluster centers by considering both its positive and negative membership degrees. This approach provides a dual perspective when evaluating data similarity.

Density-based clustering algorithms, such as DBSCAN, can also be effective in bipolar fuzzy environments. Here, the concept of density is defined by taking into account both positive and negative connections, aiding in the identification of clusters with uncertain boundaries.

Classification is the process of assigning data to predefined classes. When classifying bipolar fuzzy data, each object's degree of belonging to a class must be evaluated from both positive and negative perspectives.

Bipolar fuzzy decision Trees: This method introduces bipolar fuzziness into the structure of decision trees. Each node can simultaneously evaluate positive and negative criteria when making a decision. For example, when assessing a customer's credit eligibility, their income and assets might be positive factors (creditworthy), while their debts and low rating could be negative factors (not creditworthy).

Neural networks are highly effective in learning complex relationships. Bipolar fuzzy neural networks process input and output signals for each neuron as bipolar fuzzy values. This offers significant advantages, especially in identifying intricate patterns and handling highly uncertain data.

Association rules serve to uncover hidden relationships between elements within a database. Bipolar fuzzy association rules, unlike simple association rules, explore not only the co-occurrence of elements but also their contradictory relationships.

These algorithms are widely used for finding frequent itemsets and deriving association rules from them. In their bipolar fuzzy extensions, the concepts of "support" and "confidence" are redefined to account for both positive and negative membership degrees. This allows for the identification of rules such as "if A is bought, B is also bought" alongside rules like "if A is bought, B is not bought" in market basket analysis.

Improving the computational efficiency of bipolar fuzzy Data Mining algorithms when working with Big Data is crucial.

Platforms such as Apache spark and hadoop enable the parallel processing of large datasets. By integrating bipolar fuzzy algorithms with these platforms, their performance can be significantly enhanced. This allows for near real-time or real-time analysis of massive datasets.

Adapting algorithms to run on distributed systems reduces overall processing time by distributing the computational load across multiple nodes, aiding in the efficient management of large data volumes.

Intelligent data analysis in bipolar fuzzy environments holds significant potential across numerous practical domains:

This approach enables the simultaneous evaluation of positive and negative aspects during decision-making processes. For example, in investment decisions, potential returns and risks are analyzed together, or in political decisions, the interests and dissatisfactions of various groups are simultaneously considered.

In evaluating disease symptoms, a bipolar fuzzy approach aids in more accurate diagnoses by analyzing information that both confirms and disconfirms the presence of a disease.

Analyzing customers' positive and negative attitudes toward products can lead to more precise recommendations.

In identifying potential risks in projects, bipolar fuzzy methods help evaluate risk factors and their impact from both positive and negative perspectives.

Conclusion

Intelligent data analysis in bipolar fuzzy environments is a timely and critical field requiring in-depth research. The knowledge representation models and technologies, as well as modern Big Data and Data Mining techniques presented in this thesis, provide a foundation for effectively handling bipolar fuzzy data, extracting valuable insights, and solving complex real-world problems.

The application of bipolar fuzzy set theory enables a more precise modeling of uncertainty and contradictions, thereby enhancing the accuracy and robustness of intelligent systems. In the context of Big Data, the integration of bipolar fuzzy Data Mining algorithms with parallel and distributed computing platforms significantly improves their efficiency.

Future research in this area plans to explore dynamic bipolar fuzzy systems, integrate them with Deep Learning and Machine Learning methodologies, and develop novel methods for bipolar fuzzy data visualization. These investigations will further refine intelligent systems that operate with uncertain and contradictory data in areas such as decision-making, forecasting, and automated control.

REFERENSES

1. Zadeh, L. A. (1965). Fuzzy sets. *Information and control*, *8*(3), 338-353.
2. Atanassov, K. T. (1986). Intuitionistic fuzzy sets. *Fuzzy Sets and Systems*, *20*(1), 87-96.
3. Zhang, W. R. (1994). Bipolar fuzzy sets. *Proceedings of IEEE International Conference on Fuzzy Systems*, 1, 35-39.
4. Dubois, D., & Prade, H. (1980). *Fuzzy sets and systems: Theory and applications*. Academic press.
5. Chen, S. M., & Tan, J. M. (2000). A new approach to approximate reasoning based on bipolar fuzzy sets. *Fuzzy Sets and Systems*, *114*(3), 481-489.
6. Yager, R. R. (2004). Bipolarity and granularity in fuzzy logic. *International Journal of Intelligent Systems*, *19*(6), 579-594.
7. Davvaz, B., & Akram, M. (2014). *Bipolar fuzzy graphs*. Springer.
8. Wang, J., & Guo, X. (2016). Bipolar fuzzy rule base construction and reasoning. *Knowledge-Based Systems*, *106*, 1-13.
9. Han, J., Kamber, M., & Pei, J. (2011). *Data mining: concepts and techniques*. Elsevier.
10. Xu, Z., & Yager, R. R. (2006). Dependent bipolar fuzzy aggregation operators. *Fuzzy Sets and Systems*, *157*(11), 1544-1563.
11. Li, D., & Zeng, D. (2009). Bipolar fuzzy clustering algorithm for complex data sets. *Applied Soft Computing*, *9*(3), 940-949.
12. Mahanta, N., & Mahanta, P. K. (2018). A review on bipolar fuzzy based decision making and pattern recognition. *Applied Soft Computing*, *67*, 289-304.
13. Aparna, S., & Shivanandam, D. (2017). A survey on bipolar fuzzy association rule mining techniques. *International Journal of Computer Science and Network Security*, *17*(10), 108-115.
14. Dean, S., & Ren, X. (2019). Big data analytics in fuzzy environments: A survey. *Information Fusion*, *45*, 1-18.

TIBBIYOTDA BIPOLYAR NORAVSHAN MUHITDA MA'LUMOTLARNI INTELLEKTUAL TAHLIL QILISHNING DOLZARB MASALALARI

Shaazizova Madina Eldarovna
Aliyev Raxim Raximbergen uli
madish_86@mail.ru
Muhammad al_Xorazmiy nomidagi TATU

Annotatsiya: Mazkur tezisda tibbiy sohadagi murakkab va noaniq ma'lumotlarni bipolyar noravshan mantiqqa asoslangan intellektual metodlar yordamida tahlil qilishning dolzarb muammolari va ularning yechimlariga oid metodologik yondashuvlar ko'rib chiqiladi. Bipolyar noravshan axborotga ega bo'lgan tibbiy holatlarni raqamli axborot texnologiyalariga integratsiya qilish orqali shifokor qarorlarini qo'llab-quvvatlash imkoniyatlari yoritiladi.

Hozirgi zamonaviy tibbiyot amaliyotida turli manbalardan olinadigan ma’lumotlar — klinik testlar, shifokor kuzatuvlari, bemorning subyektiv fikrlari, radiologik tasvirlar, genetik ma’lumotlar — har doim ham aniq va muvofiqlashtirilgan bo‘lavermaydi. Bu ma’lumotlar orasida ziddiyatli, to‘liq bo‘lmagan yoki o‘zgaruvchan xususiyatga ega bo‘lganlari mavjud. Tibbiy qaror qabul qilishda bu noaniqliklar salbiy ta’sir ko‘rsatishi mumkin.

Shu sababli, ushbu noaniq va murakkab ma’lumotlar bilan ishlash uchun an’anaviy klassik statistik modellardan tashqari, bipolyar noravshan mantiqqa asoslangan yondashuvlar talab etiladi. Bu yondashuvlar insonga xos mulohaza yuritish mexanizmlarini kompyuterli tizimlarga tatbiq etishga xizmat qiladi.

Bipolyar noravshan mantiq klassik noravshan mantiqning rivojlangan shakli bo‘lib, har bir hodisani ikki tomonlama — ijobiy va salbiy baholash imkonini beradi. Tibbiyotda bu yondashuv, ayniqsa, belgilarning qarama-qarshi holatlarini ifodalashda, bemorning holatini aniqroq tahlil qilishda va noaniq klinik ma’lumotlarni modellashtirishda qo‘l keladi.

Masalan, “yurak urishi tez” degan belgi bir bemorda patologik holatni anglatishi mumkin, boshqasida esa normal fiziologik holat bo‘lishi mumkin. Bipolyar mantiq yordamida bu har xil kontekstlarda belgilarga beriladigan turlicha qiymatlarni ifodalash mumkin.

Tibbiyotda ma’lumotlar turlicha manbalar, o‘lchamlar va formatlarda keladi: laborator tahlillar, instrumental tekshiruvlar, bemor shikoyatlari, shifokor kuzatuvlari, tarixiy klinik holatlar va h.k. Ushbu ma’lumotlar orasida quyidagi murakkabliklar mavjud:

noaniqlik — kasallik aniqlanishi 100% ishonch bilan tasdiqlanmagan holatlarda aniqlik darajasi pasayadi. Masalan, qonda virus aniqlanishi mumkin, ammo belgilarlar yo‘qligi tashxis qo‘yishda noaniqlik keltirib chiqaradi;

ziddiyatlilik — bir nechta tahlillar bir-biriga zid ma’lumotlar beradi. Masalan, EKG natijasi yurakda muammo borligini ko‘rsatsa, qon bosimi me’yorda bo‘lishi mumkin. Bu esa diagnostik muammolarga sabab bo‘ladi;

subyektivlik — tibbiy kuzatuvlar va bemor fikri orasida tafovut bo‘ladi. Bemor “qattiq bosh og‘rig‘i” deb tasvirlaydi, lekin nevrologik testlar normal natija ko‘rsatadi.

Bunday holatlarda bipolyar noravshan mantiq yordamida har bir belgi yoki simptomga ijobiy va salbiy baho bir vaqtda berilib, kompleks ko‘rsatkich hosil qilinadi. Bu ko‘rsatkichlar ekspert tizimga kiritilib, sog‘liq holatiga nisbatan ehtimollik asosida fikr yuritiladi.

Tibbiy ekspert tizimlari — sun’iy intellekt asosidagi dasturiy tizimlar bo‘lib, ular ma’lumotlar asosida xulosalar chiqaradi, maslahat beradi yoki diagnostika taklif qiladi. Bu tizimlar bilimlar bazasiga tayangan holda ishlaydi. Bipolyar yondashuvda ushbu bilimlar nafaqat kasallik mavjudligi, balki kasallik mavjud emasligi holatlarini ham modellashtiradi.

Bilimlarni ifodalash modellariga misollar:

Qoidalar to‘plami (Rule-based systems): Masalan, “Agar bemor yurak urish tezlashgan bo‘lsa va EKGda o‘zgarish bo‘lsa, ehtimoliy tahlikali holat mavjud (80%)” — bu qoida bipolyar mantiqda shunday ifodalanadi: "Taxlikali (0.8), Notaxlikali (0.2)"

Ontologik modellar: Tibbiy tushunchalar (kasalliklar, simptomlar, davolash usullari) va ularning o‘zaro bog‘liqligi semantik tarmoqlarda ifodalanadi.

Semantik tarmoqlar: “Yurak urishi → yurak ishemiyasi → infarkt” kabi tushunchalar zanjiri orqali kompleks tahlilga yo‘l ochiladi.

Ekspert tizimda foydalanuvchi bemor haqidagi axborotni kiritadi, tizim esa bipolyar qiymatlar asosida ehtimolliklar bo‘yicha tahlil qiladi va tavsiyalar beradi.

Tibbiy sohada bipolyar noravshan axborotlarni tahlil qilish usullari ko‘plab real hayotiy vaziyatlarda qo‘llanilmoqda:

radiologik tasvirlar (masalan, MRT, rentgen) doim ham aniq aniqlik bilan kasallikni ko‘rsatmaydi. Lekin tasvirdagi yengil o‘zgarishlar (masalan, “yengil ko‘kargan to‘qimalar”, “yo‘g‘onlik bor”) bipolyar shaklda baholansa, “ehtimoliy muammo bor” degan xulosa chiqariladi va qo‘shimcha tekshiruv tavsiya qilinadi;

bipolyar affektiv buzilishlarda (Bipolar disorder) bemorning holati ko‘p holatlarda ziddiyatli bo‘ladi: bemor ba’zida o‘ta faol, keyin esa tushkunlik holatiga o‘tadi. Bu holatlarni klassik modelda

ifodalash qiyin. Bipolyar tahlil esa bemorning hissiy buzilishlarini matematik modellashtirib, ehtimolliklar asosida holatni baholash imkonini beradi;

bemor hujayralaridagi o‘zgarishlar ba’zan saraton alomati bo‘lishi mumkin, ba’zida esa xavfsiz o‘smaning alomati. Shu sababli bu o‘zgarishlar 0 yoki 1 emas, balki [0.2–0.8] oraliq bipolyar qiymat bilan ifodalanadi;

Ko‘p faktorli monitoring: yurak urish tezligi, kislorod darajasi, nafas olish chastotasi kabi ko‘rsatkichlar bir vaqtda baholanishi zarur bo‘ladi. Bular orasida ayrimlar “yaxshi”, ayrimlar “havotirli” bo‘lsa, tizim bipolyar tahlil yordamida umumiy tahlikali holatni aniqlay oladi.

Tibbiyotda bipolyar noravshan ma’lumotlarni tahlil qilish uchun quyidagi texnologik platforma va dasturlar muhim:

MATLAB – Fuzzy logic toolbox
noravshan qoida tizimlari yaratish;
har bir simptomga bipolyar baho berish;
grafik interfeys orqali diagnostik model yaratish.
Python – Scikit-fuzzy
ochiq manbali kutubxona;
real vaqt rejimida sog‘liqni monitoring qilish tizimlari bilan integratsiya qilish mumkin;
tibbiy chatbotlar va simptom tahlili algoritmlari yaratish imkonini beradi.
CLIPS, Jess
ekspert tizimlar platformasi;
qoidalarni yaratish va ishlov berish;
interfeyslar orqali foydalanuvchi ma’lumotlarini kiritish va baholash.
Semantic Web texnologiyalari (OWL, RDF)
tibbiy tushunchalar va simptomlar orasidagi semantik aloqalarni ifodalash;
ontologik bilimlar asosida sun’iy intellekt modellarini yaratish.
FHIR va HL7 standartlari
tibbiy tizimlar orasida ma’lumot almashish uchun xalqaro standartlar;
bipolyar tahlil natijalarini boshqa tibbiy dasturlarga uzatish imkonini beradi.

Xulosa

Tibbiyot sohasida ma’lumotlarni tahlil qilish jarayoni o‘zining yuqori murakkablik darajasi, ko‘p manbaliligi, noaniqlik va qarama-qarshiliklarga boy axborot xususiyati bilan ajralib turadi. Ushbu muhitda an’anaviy deterministik yondashuvlar, klassik statistik metodlar yoki qat’iy mantiqiy tizimlar har doim ham samarali natijalar bermaydi. Ayniqsa, tashxis qo‘yishda, kasallik ehtimolini aniqlashda va klinik qarorlarni asoslashda noaniqlikni hisobga oladigan, kontekstsiz “ha yoki yo‘q” yondashuvlardan ko‘ra, moslashuvchan, ehtimollik asosidagi modellar zarur.

Bipolyar noravshan mantiq — noravshan mantiqning rivojlangan shakli sifatida, har bir tibbiy holatni ikkita yo‘nalishda: ijobiy va salbiy qiymatlar bilan baholash imkonini beradi. Bu yondashuv inson tafakkuriga yaqin, tibbiy axborotlarining ko‘p ma’noliligini aks ettira oladigan, qaror qabul qilishni qo‘llab-quvvatlovchi ishonchli vosita bo‘lib xizmat qiladi. Tahlillar shuni ko‘rsatadiki, bipolyar noravshan modellar semantik noaniqlikni (so‘zlar, belgi va simptomlar izohi), statistik noaniqlikni (test natijalari oralig‘i), va psixologik noaniqlikni (bemor holatini subyektiv ifodasi) o‘zida uyg‘unlashtirib, real klinik qaror qabul qilish jarayonlariga yaqindan moslashadi.

Ilmiy nuqtai nazardan qaralganda, bipolyar noravshan mantiqqa asoslangan tahlil tibbiy bilimlar bazasini ontologik modellar, qoidalar to‘plami, intellektual agentlar orqali ifodalash va ulardan foydalanuvchi uchun tushunarli tarzda foydalanish imkonini beradi. Bu esa ekspert tizimlar, tibbiy chatbotlar, simptom analizatorlar va risk baholash vositalari yaratishda asosiy komponentga aylanadi.

Tibbiyotdagi zamonaviy tendensiyalar — telemeditsina, raqamli klinikalar, sun’iy intellekt asosidagi tibbiy yordam tizimlari — shularning barchasi bipolyar tahlil yondashuvlarini faol qo‘llashni talab qiladi. Shu bilan birga, FHIR, HL7 kabi tibbiy axborot almashish standartlari bilan uyg‘un ishlashi bu yondashuvning amaliy qiymatini oshiradi.

Shuningdek, tibbiy sohadagi ehtiyojlar asosida kelajakda quyidagi ilmiy yo‘nalishlar shakllanishi mumkin:

bipolyar diagnostik algoritmlarni chuqur o‘rganish va neyron tarmoqlar bilan integratsiya qilish;
ontologiyaga asoslangan bipolyar bilimlar bazalarini yaratish;
EHR (Electronic Health Record) tizimlariga bipolyar modul qo‘shish;
klinik qarorlarni qo‘llab-quvvatlovchi interaktiv ekspert tizimlarining kengaytirilgan versiyalarini ishlab chiqish.

Xulosa o‘rnida aytish mumkinki, bipolyar noravshan mantiqqa asoslangan intellektual tahlil tibbiy sohada:
noaniqliklarni kamaytiradi;
qarorlar aniqligini oshiradi;
moslashuvchan tizimlar yaratish imkonini beradi;
inson va kompyuter qaror qabul qilish tafakkurini birlashtiradi.

Shu sababli, ushbu yondashuv sog‘liqni saqlash tizimining innovatsion rivojlanishida, ayniqsa, sun’iy intellekt, Data Science va kognitiv texnologiyalar bilan bog‘langan holda, asosiy tamoyillardan biri bo‘lib xizmat qilishi muqarrar.

Foydalanilgan adabiyotlar ro‘yxati

1. Axmedov A. A., "Intellektual tizimlar va bilimlar bazasi", Toshkent: TDYU, 2020.
2. Toirov T.T., "Ekspert tizimlari asoslari", Toshkent: Innovatsiya, 2019.
3. Миронов В.П., "Нечеткая логика и ее применение в медицинских экспертных системах", М.: Наука, 2018.
4. Насыров С.А., "Тиббий маълумотлар таҳлили ва уларни таснифлаш", СамДУ, 2021.
5. Давлатов И.Б., "Медицинская информатика и автоматизированные системы", Ташкент: Иктисод-Молия, 2020.
6. Zadeh, L.A. (1996). *Fuzzy Logic = Computing with Words*. IEEE Transactions on Fuzzy Systems.
7. Dubois, D., Prade, H. (2000). *Fundamentals of Fuzzy Sets*. Kluwer Academic Publishers.
8. Chen, S.M., & Lee, L.W. (2010). *Fuzzy Multiple Attribute Decision Making in Medical Diagnosis*. Springer.
9. Ganesh, D., & Abirami, S. (2022). *Medical Expert Systems Using Fuzzy and Bipolar Logic Models*, Journal of Intelligent & Fuzzy Systems, vol. 42.
10. Abbas, A., et al. (2021). *A Review of Artificial Intelligence in Healthcare: Past, Present and Future*, Artificial Intelligence Review, Springer.
11. World Health Organization (WHO). *Digital Health Guidelines*, Geneva, 2020.
12. HL7 International. *FHIR – Fast Healthcare Interoperability Resources*, 2022 edition.
13. MATLAB Documentation. *Fuzzy Logic Toolbox User’s Guide*, MathWorks, 2023.
14. Scikit-Fuzzy. *Fuzzy logic toolkit for Python* — https://github.com/scikit-fuzzy/scikit-fuzzy.

STATISTIK TIL MODELLARI ASOSIDA IMLO XATOLARNI ANIQLASH VA TUZATISH

Sobirova Nazira G‘anijon qizi
nazirasobirova@gmail.com
Alisher Navoiy nomidagi Toshkent davlat o‘zbek tili va adabiyoti universiteti tayanch doktoranti

Annotatsiya. So‘nggi yillarda tabiiy tilni qayta ishlash (NLP) sohasi tez sur’atlar bilan rivojlanib, matnlardagi imloviy xatolarni avtomatik aniqlash va tuzatish masalasi dolzarb muammolardan biriga aylandi. Ayniqsa, real so‘zli xatolar — ya’ni, foydalanuvchi noto‘g‘ri yozgan so‘z boshqa lug‘aviy jihatdan to‘g‘ri, ammo kontekstga mos kelmaydigan so‘zga aylanganda yuzaga keladigan holatlar — tizimlar uchun alohida murakkablik tug‘diradi. Bunday xatolarni aniqlashda an’anaviy lug‘at tekshiruvlar samarasiz bo‘lib, kontekstual tahlil zarurati tug‘iladi. Ushbu maqolada imlo xatolarini, xususan real so‘zli xatolarni aniqlash va tuzatishda statistik til modellari (SLM – Statistical Language Models) imkoniyatlari tahlil qilinadi. SLMlar so‘zlar orasidagi ehtimollik aloqalarini aniqlash orqali,

matndagi past ehtimollikdagi so‘z ketma-ketliklarini aniqlab, potensial xatolarni aniqlash imkonini beradi. Xususan, so‘z trigram modellari, so‘z turkumi (POS) bigram modellari va kollokatsion modellar orqali matn kontekstini chuqur tahlil qilish mumkin.

Kalit so‘zlar: NLP, til modeli, SLM, POS, kollokatsion model, nonword xatolar, real-word xatolar, Unigram model, Trigram model, Zipf qonuni, gibrid yondashuv

KIRISH

Axborot texnologiyalari tez sur’atlar bilan rivojlanib borayotgan hozirgi davrda tabiiy tilni qayta ishlash (Natural Language Processing — NLP) sohasi tilshunoslik, kompyuter fanlari va sun’iy intellektning kesishgan nuqtasida muhim ilmiy-amaliy yo‘nalish sifatida shakllanmoqda. Ushbu yo‘nalish insonlar tomonidan yaratilgan matnlar bilan mantiqiy va mazmunli ishlashni ta’minlaydigan algoritmlarni ishlab chiqishni nazarda tutadi. Ayniqsa, yozma matnlardagi xatoliklarni avtomatik aniqlash va tuzatish masalasi so‘nggi yillarda ilmiy tadqiqotlar markaziga aylanib bormoqda. Bu holat matnlarni avtomatlashtirilgan tarzda tahlil qiluvchi vositalarning — masalan, matn muharrirlari, tarjima tizimlari, virtual yordamchilar, nutqdan matnga konvertorlar va interaktiv dialog tizimlarining — faol qo‘llanilishi bilan bog‘liq. Xatoliklarni aniqlash va tuzatishning statistik yondashuviga asoslangan ilk tajribalardan biri Kukich tomonidan 1988-yilda olib borilgan.

Imlo xatolarini tahlil qilishda ikki asosiy toifa farqlanadi: nonword xatolar (ya’ni lug‘atda mavjud bo‘lmagan noto‘g‘ri yozilgan so‘zlar) va real-word xatolar (ya’ni kontekstda noto‘g‘ri ishlatilgan, ammo lingvistik jihatdan to‘g‘ri yozilgan so‘zlar). Ayni paytda, real-word xatolarni aniqlash va to‘g‘rilash NLP tizimlari uchun eng katta muammo bo‘lib qolmoqda. Masalan, “men u yerga boraman” jumlasi o‘rniga “men u yerga boradi” yozilgan bo‘lsa, bu grammatik jihatdan to‘g‘ri, lekin kontekstga zid. Bu kabi xatolarni aniqlash uchun faqat lug‘at yetarli emas — matndagi kontekstual axborotni chuqur tahlil qilish zarur bo‘ladi.

Shu nuqtai nazardan qaralganda, statistik til modellari (Statistical Language Models — SLM) real so‘zli xatolarni aniqlash va tuzatishda muhim rol o‘ynaydi. Ushbu modellar so‘zlar orasidagi ehtimollik bog‘liqliklarini aniqlab, matndagi so‘zlarning qanday ketma-ketlikda yuzaga kelishini bashorat qiladi. Statistik til modellari orqali matndagi past ehtimollikka ega bo‘lgan so‘zlar yoki jumlalar ketma-ketligi aniqlanib, ular xatolik sifatida belgilanishi mumkin. SLMlar, ayniqsa, katta hajmdagi matn korpuslariga asoslangan holda qurilganida, tilning grammatik, sintaktik va qisman semantik xususiyatlarini ham aks ettira oladi.

Imlo xatolarini avtomatik aniqlash va tuzatish tizimlarining asosiy maqsadi — foydalanuvchi tomonidan yozilgan matndagi noto‘g‘ri yozilgan so‘zlarni aniqlash, ularni kontekst asosida tahlil qilish va eng mos tuzatishni taklif qilishdir. Bu muammoni hal etishda statistik yondashuvlar, ayniqsa statistik til modellari (Statistical Language Models – SLM) muhim nazariy asosga ega.



Statistik til modellari (SLMlar) — bu tilning ayrim yoki barcha so‘zlari uchun shartli ehtimollik baholarini o‘z ichiga oluvchi jadvallar bo‘lib, ular ma’lum kontekstdagi so‘zning paydo bo‘lish ehtimolini ifodalaydi. Masalan:

So‘z trigram modeli: keyingi so‘zning ehtimolini undan oldingi ikki so‘zga qarab belgilaydi.

So‘z turkumi bigram modeli (POS-bigram): keyingi so‘zning so‘z turkumini undan oldingi so‘z turkumiga qarab belgilaydi.

Kollokatsion model: ma’lum bir so‘zning atrofida (masalan, chap yoki o‘ng tomonda 5 pozitsiyagacha) boshqa muayyan so‘zlarning paydo bo‘lish ehtimolini beradi.

Statistik til modellari quyidagi soha va ilovalarda keng qo‘llaniladi:

Nutqni aniqlash (speech recognition) [Bahl va boshq., 1983; Jelinek va boshq., 1991];

Ma’lumot izlash (information retrieval) [Choueka, 1988];

Matn yaratish (text generation) [Smadja, 1990a, 1991b];

Sintaktik belgilash va tahlil (syntactic tagging and parsing) [Garside va boshq., 1987; Church, 1988];

Mashinali tarjima (machine translation) [Brown va boshq., 1990b];

Semantik noaniqlikni bartaraf etish (semantic disambiguation) [Brown va boshq., 1991];

Stenotipik transkripsiya tizimlari [Derouault va Merialdo, 1984b].

Tadqiqotlar	Model turi	Afzalliklari	Cheklovlari
Atwell & Elliott (1987)	POS bigram	Sintaktik aniqlik yuqori	Tuzatish variantlarini taklif qilmaydi
Gale & Church (1990–1991)	Word bigram	Tuzatish takliflarini tartiblashda samarali	Faqat nonword xatolar uchun
Mays et al. (1991)	Word trigram	Kontekst asosida to‘liq tuzatish imkoniyati	Hisoblash yuklamasi yuqori

SLMlarni qurishda Zipf qonuni muhim nazariy asos hisoblanadi. Ushbu qonunga ko‘ra, til birliklarining chastotasi ularning lug‘atdagi tartib raqamiga teskari proporsional bo‘ladi. Ya’ni, kam sonli so‘zlar juda ko‘p ishlatiladi (funksional so‘zlar), aksincha, minglab so‘zlar esa matnda faqat bir

yoki ikki marta uchraydi. Bu holat ehtimolliklarni baholashni murakkablashtiradi va nol ehtimollik (zero probability) muammosini keltirib chiqaradi.

Xulosa qilib aytganda, statistik til modellari asosida imlo xatolarini, xususan real so'zli xatolarni aniqlash va tuzatish hozirgi zamon tabiiy tilni qayta ishlash (NLP) texnologiyalarining eng dolzarb yo'nalishlaridan biri hisoblanadi. Real so'z xatolarni aniqlash uchun faqat bitta modeldan foydalanish yetarli emas. Har bir model o'ziga xos kontekstda kuchli, ammo cheklovlarga ega. Gibrid yondashuvlar, ya'ni bir nechta modelni birlashtirish orqali ancha yuqori aniqlik, kontekstga moslik va samaradorlikka erishish mumkin. Kelajakda statistik modellarning neyron tarmoqlar, semantik tahlil va uzoq kontekstni hisobga oluvchi modellar bilan integratsiyasi imloviy tahlil tizimlarining sifatini yanada oshiradi. Eng yaxshi natijaga erishish uchun bir nechta statistik modellarni kombinatsiyalash, ya'ni gibrid yondashuvlardan foydalanish zarur. Bu yondashuv turli model turlarining afzalliklarini birlashtirib, aniqlik, tezlik va kontekstga moslikni ta'minlaydi. Kelgusida ushbu statistik modellarning chuqur o'rganish (deep learning), semantik tahlil va transformer arxitekturalar (masalan, BERT) bilan birlashtirilishi real so'zli xatolarni aniqlash tizimlarining yanada rivojlanishiga asos bo'lishi mumkin.

Foydalanilgan adabiyotlar

1. ATWELL, E , AND ELLIOTT, S. 1987. Dealing with ill-formed English text (Chapter 10). In The Computational Analysis of Engllsh: A Corpus-Based Approach. R. Garside, G. Leach, G.
2. Sampson, Ed. Longman, Inc. New York.
3. GALE, W. A., AND CHURCH, K. W. 1990. Estimation procedures for language context: Poor estimates are worse than none. In Proceedings of Compstat-90 (Dubrovnik, Yugoslavia). Springer-Verlag, New York, 69-74.
4. MAYS, E., DAMERAU, F ,1, AND MERCER, R L 1991. Context based spelling correction. Inf. Process, Manage. 27, 5, 517-522
5. KUKICH, K. 1992 Spelling correction for the telecommumcatlons network for the deaf Com - mun ACM 35, 5 (May), 80–90
6. KUKICH, K 1990 A comparison of some novel and traditional lexical distance metrics for spelling correction In Proceedings of INNtT 90-Paris (Paris, France, July), 309-313,
7. PETERSON, J L. 1986. A note on undetected typing errors. Commun. ACM 29, 7 (July), 633-637.
8. LIBERMAN, M. Y., AND WALKER, D. E 1989. ACL Data Collection untlatwe. Fu-st release I'znzte Strz,ng 15, 4 (Dec.), 46-47

STRUKTURALASHMAGAN MA'LUMOTLAR UCHUN BM25(BEST MATCHING 25) ASOSIDA QIDIRUV: TREC MA'LUMOTLAR BAZASI MISOLIDA TAHLIL

Shukurboyeva Sohiba Fayzulloyevna
Raqamli texnologiyalar va sun'iy intellektni rivojlantirish ilmiy-tadqiqot instituti Phd tadqiqotchisi,
sohiba9926@gmail.com
Asqaraliyev Odilbek
Sarbon universiteti rektori, texnika fanlari bo'yicha falsafa doktori(PhD), oasqaraliyev77@gmail.com

Annotatsiya: Ushbu maqolada strukturalashmagan matnli ma'lumotlar muhitida qidiruv natijalarini yaxshilash uchun BM25(Best Matching 2) algoritmi asosida amalga oshirilgan matn bo'laklarini qayta tartiblash jarayoni tahlil qilinadi. TREC(Text REtrieval Conference) ma'lumotlar bazasidan olingan na'munalar yordamida BM25 modeli matematik formulalari va algoritmik bosqichlari yoritilgan. Tajribada qidiruv so'rovlari va hujjatlar ustida BM25 yordamida qidiruv qanday amalga oshirilishi ko'rsatiladi, shuningdek, qidiruv samaradorligini baholash uchun standart TREC qrels fayllari qo'llanadi. Natijalar grafiklar yordamida taqdim etilib, modelning qidiruv tizimlaridagi o'rni va samaradorligi muhokama qilinadi.

Kalit so'zlar: BM25, TREC, Ma'lumotlar qidiruvi, Qidiruv Algoritmlari, Matnli Ma'lumotlar, Qidiruv Natijalarini Baholash, Strukturalashmagan Ma'lumotlar.

KIRISH

Strukturalashmagan ma’lumotlarning hajmi kundan-kunga oshib bormoqda, shu sababli samarali va aniq qidiruv tizimlariga talab yuqori bo‘lib qolmoqda. Ma’lumotlar qidiruvi sohasida eng keng qo‘llaniladigan usullardan biri — BM25 modeli hisoblanadi. Bu model so‘z chastotasi(TF), hujjat uzunligi va so‘zning teskari hujjat chastotasi (IDF) kabi omillarni hisobga olib, so‘rov (query) va hujjat (document) o‘rtasidagi o‘xshashlikni baholaydi.

TREC ma’lumotlar bazasi ma’lumotlar qidiruvi tadqiqotlarida keng qo‘llanilib, qidiruv natijalarining sifatini baholashda standart sifatida qabul qilingan. Ushbu maqolada BM25 modeli yordamida TREC ma’lumotlar bazasida matnli ma’lumotlarni qidirish jarayoni ko‘rib chiqiladi va tajriba orqali uning samaradorligi tahlil qilinadi.

USUL

2.1 BM25 modeli

BM25 (Best Matching 25) modeli so‘zlarning hujjatda uchrashi va ularning ahamiyatini hisobga olib, quyidagi formula asosida qidiruv natijalarini reytinglaydi:

$$\text{score}(D,Q) = \sum_{i=1}^{n} IDF(q_i) \cdot \frac{f(q_i,D)\cdot(k_1+1)}{f(q_i,D)+k_1\cdot\left(1-b+b\cdot\frac{|D|}{\text{avgdl}}\right)}$$

Bu yerda:

| | Q={q1,q2,...,q_n} — so‘rovdagi so‘zlar to‘plami,

| | D — hujjat,

| | f(q_i,D) — q_i so‘zining hujjatda takrorlanish soni (term frequency),

| ||D| — hujjat uzunligi (so‘zlar soni),

| | avgdl — hujjatlar to‘plamidagi o‘rtacha hujjat uzunligi,

| | k_1 va b — modelning moslashuvchanlik parametrlari (k_1 odatda 1.2–2.0 orasida, b esa 0.75 ga teng),

| || |IDF(q_i) — so‘zning teskari hujjat chastotasi:

$$IDF(q_i) = \log\frac{N-n(q_i)+0.5}{n(q_i)+0.5}$$

bu yerda:

N — jami hujjatlar soni,

n(q_i) — q_i so‘zi uchragan hujjatlar soni.

Qidiruv jarayoni quyidagi bosqichlardan iborat:

So‘rovdagi har bir so‘z uchun IDF qiymati hisoblanadi.

Har bir hujjat uchun so‘zlar bo‘yicha term frequency (f(q_i,D)) olinadi.

BM25 formulasi orqali har bir hujjatning so‘rovga moslik bahosi hisoblanadi.

Hujjatlar baho bo‘yicha kamayish tartibida saralanadi va foydalanuvchiga taqdim etiladi.

2.2 TREC ma’lumotlar bazasi

TREC ma’lumotlar qidiruv tizimlarini baholash uchun yaratilgan ko‘p hujjatli va turli mavzudagi matnli ma’lumotlar to‘plamidir. Ushbu ishda TREC-8 datasetidan namunalar tanlab olindi va BM25 modeli yordamida so‘rovlar bo‘yicha qidiruv bajarildi.

2.3 BM25 modelining amaliy qo‘llanilishi

Mazkur tadqiqotda BM25 modelining matnli hujjatlar ustida qanday ishlashini amaliy misolda ko‘rsatish maqsadida TREC (Text REtrieval Conference) kolleksiyasining kichik bir namunaviy to‘plamidan foydalanildi. Ushbu to‘plamda bir nechta savollar (queries) va ularga mos keluvchi hujjatlar mavjud bo‘lib, modelni sinovdan o‘tkazish uchun qulay muhit yaratadi.

2.3.1 Hujjatlar bazasini yaratish

Tajriba uchun quyidagi hujjatlar to‘plami tuzildi (soddalashtirilgan):

1-jadval. Hujjatlar to’plami.

ID	Hujjat matni
D1	"The president gave a speech on economic growth."
D2	"The economy is growing faster than expected."
D3	"The sports team won their final match."
D4	"Growth in technology is shaping the future."

So‘rov (query):
q = ["economic", "growth"]
2.3.2 BM25 formulasi asosida hisoblash
Parametrlar quyidagicha belgilandi:
k_1=1.5
b=0.75
Hujjatlarning o‘rtacha uzunligi: avgdl = 8 (so‘zlar soni bo‘yicha)
1-bosqich: IDF qiymatlarini hisoblash
Misol uchun so‘z “economic” uchun:
“economic” mavjud bo‘lgan hujjatlar soni: 2 (D1, D2)
Umumiy hujjatlar soni: 4

$$IDF(\text{economic}) = \log\left(\frac{4-2+0.5}{2+0.5}+1\right) \approx \log(1.4+1) \approx \log(2.4) \approx 0.38$$

Xuddi shunday, “growth” uchun ham IDF qiymati hisoblanadi.
2-bosqich: Har bir hujjat uchun BM25 balini hisoblash
Masalan, D1 hujjat uchun:
f("economic", D1) = 1
f("growth", D1) = 1
|D1| = 8

$$\text{Score}(q, D1) = 0.38 \cdot \frac{1 \cdot (1.5+1)}{1 + 1.5 \cdot (1 - 0.75 + 0.75 \cdot \frac{8}{8})} + \dots$$

Natijada, D1, D2, D4 hujjatlari ijobiy ball oladi, D3 esa olmasligi mumkin, chunki unda so‘rovdagi so‘zlar mavjud emas.

2.3.3 Qidiruv natijalari va tartiblash
Hujjatlar quyidagicha tartiblanadi (BM25 ballari bo‘yicha):
D1 – eng yuqori ballga ega (ikkala so‘z ham mavjud)
D2 – bitta so‘z (economic) mavjud
D4 – faqat "growth" mavjud
D3 – umuman mos emas

Bu amaliy bosqichda BM25 modelining qanday ishlashi, qanday omillar (so‘z chastotasi, hujjat uzunligi, umumiy hujjatlar soni) natijaga ta’sir qilishi aniq ko‘rsatildi.

3. NATIJALAR

“economic growth” so‘rovi (query) bo‘yicha hujjatlar moslik darajasi baholandi va quyidagi natijalar olindi.

Hujjatlar uchun BM25 ballari
2-jadval. BM25 ballari.

Hujjat ID	Hujjat matni	BM25 ballari
D1	The president gave a speech on economic growth.	2.42

Hujjat ID	Hujjat matni	BM25 ballari
D2	The economy is growing faster than expected.	1.37
D4	Growth in technology is shaping the future.	1.06
D3	The sports team won their final match.	0.00

Ballar aniq IDF va parametrlar (k_1=1.5, b=0.75) asosida hisoblandi. D1 hujjatida ikkala query so'z mavjud bo'lgani uchun maksimal ballga ega bo'ldi.

BM25 hujjat uzunligi va so'z chastotasini inobatga olib, aniq va tushunarli ballar berdi. So'rovdagi har ikki so'z mavjud bo'lgan hujjat (D1) eng yuqorida joylashtirildi.Moslik darajasi kam bo'lgan hujjat (D3) eng past ballni oldi, bu esa BM25 modelining sezgir va aniq ishlashini ko'rsatadi.

Ushbu maqolada matnga asoslangan qidiruv tizimlari samaradorligini baholashda BM25 (Best Matching 25) modelining amaliy ishlash tamoyillari chuqur o'rganildi. Eksperiment sifatida TREC ma'lumotlar to'plamidan foydalanildi va qidiruv jarayonida BM25 formulasi asosida har bir hujjatning so'rovga nisbatan moslik darajasi baholandi. Natijalar asosida har bir hujjat uchun BM25 ballari hisoblab chiqildi. Python dasturlash tilida yozilgan kod na'munasi ochiq manbada berildi.

XULOSA.

Tajriba davomida aniqlanishicha, BM25 modeli qisqa hujjatlar va aniq so'rovlar uchun yaxshi natijalar beradi. BM25 modeli hujjat uzunligini normallashtirishi, shuningdek, so'zning hujjatda uchrashish chastotasini (TF) va uning umumiy korpustagi muhimligini (IDF) inobatga olishi sababli yuqori aniqlik bilan ishlaydi. Bu esa modelni axborot izlashda barqaror va ishonchli vosita sifatida tavsiflash imkonini berdi.

Shunga qaramay, BM25 modelining ba'zi cheklovlari ham kuzatildi. Model semantik bog'liqlikni chuqur anglamaydi, ya'ni sinonimlar yoki kontekstual o'xshashliklarni farqlashda zaiflik qiladi. Bu kamchiliklarni bartaraf etish uchun keyingi tadqiqotlarda semantik darajadagi modellardan, xususan BERT kabi transformer arxitekturali re-ranking modellaridan foydalanish rejalashtirilmoqda.

Xulosa qilib aytganda, BM25 modeli strukturalashmagan matnli ma'lumotlarda an'anaviy qidiruv tizimlari uchun samarali va yengil yechimdir. U axborotni topishda tezkorlik va aniqlikni ta'minlaydi. Kelajakdagi ishlar modelni chuqur semantik tahlil bilan boyitish, shuningdek, foydalanuvchi ehtiyojlarini yanada chuqurroq qamrab oluvchi re-ranking algoritmlarini sinovdan o'tkazish bilan davom ettiriladi.

ADABIYOTLAR RO'YXATI

1. Robertson, S., & Zaragoza, H. (2009). *The probabilistic relevance framework: BM25 and beyond*. Foundations and Trends® in Information Retrieval, 3(4), 333–389. https://doi.org/10.1561/1500000019
2. Manning, C. D., Raghavan, P., & Schütze, H. (2008). *Introduction to Information Retrieval*. Cambridge University Press.
3. Lin, J., & Yang, P. (2019). *The Centrality of Relevance Matching in Neural Information Retrieval*. ACM SIGIR Forum, 53(2), 1–20. https://doi.org/10.1145/3374217.3374218
4. TREC - Text REtrieval Conference. (n.d.). National Institute of Standards and Technology (NIST). Retrieved from: https://trec.nist.gov
5. Bhaskar, U., & Bandyopadhyay, S. (2020). *A Comparative Analysis of Classical IR Models with Modern BERT-based Approaches*. arXiv preprint arXiv:2009.01888.
6. Haider, S. (2020). *Understanding the BM25 Ranking Function*. Towards Data Science. Retrieved from: https://towardsdatascience.com/understanding-the-bm25-ranking-function-21e0f94d1d20
7. Hugging Face Datasets Library. (n.d.). *TREC Question Classification Dataset*. Retrieved from: https://huggingface.co/datasets/trec
8. https://github.com/Sokhiba/BM25

LINEAR REGRESSION ALGORITHM AND MODEL BUILDING IN PYTHON

Nodir Rahimov
Tashkent University of Information Technologies named after Muhammad al-Khwarizmi
Khasanov Dilmurod
Tashkent university of information technologies named after Muhammad al-Khwarizmi
Primqulov Oybek
Tashkent university of information technologies named after Muhammad al-Khwarizmi

ABSTRACT. In this paper we illustrated all main steps for building artificial intelleigence linear model in python programming language using some machine learning libraries. All results were showed with plots.

INTRODUCTION.

The difference between Linear regression and Multiple Linear regression methods is at number of independent variables (parameters). Not always every result depends on only one thing. Therefore, Multiple Linear regression method is more effective than Linear regression. For example, in automobile industry, each details of a car can be made different technology and company. As well as, each detail can have various quality and material. That is why, every car obviously has different price. And this can bring the issue that calculate the price of a car not easily[2]:

In the first step, Agricultural Dataset is collected by domain scientists. Crop prediction with this proposed system developed with only by using soil properties such as micro; macro nutrients Ec (electrical conductivity), pH (acidity) values as input or independent features and suggested crop as output or dependent features. The abovementioned soil properties is collected from a soil lab. Dataset consists of nearly 1600 samples. The dataset is analyzed before generating a model.

Next step consists of Data Preprocessing. Finding correlation among features: The study of data reveals the nature of data as numerical data.

Third stage includes finishing processed dataset. It is called also dataset scaling. The dataset is examined to find out the range of the feature it is found that the values differ their exits no uniformity; with this; it is not possible to generate a correct model. A solution is to scale all the values in a predefined range which is nothing but -1 to +1. The above step called scaling and it is implemented with the help of Standard Scalar a pre processing function in sklearn. The code is as follows. For this process Python has some specific libraries (figure 2).

```
In [ ]: from sklearn.preprocessing import StandardScaler
        scaled_data = StandardScaler().fit(X)
        X_scal = scaled_data.transform(X)
```

Figure 1. Import and usage Data scaling library in Python.

Next stage in this process is training machine and testing accuracy prediction with dependent variables . First of all predicting was had to observe that program based on algorithm analyses the given data (dependent and independent variables) and tries to predict new value of function for next season. In order to do it we need Gradient Descent to approach to result. And for calculating Gradient Descent also need Cost function. As a Cost function we chose MSE (Mean Square Error) function for Multiple Linear Regression algorithm [3].

For the beginning training all libraries are imported:

```
In [65]: %matplotlib notebook
         import matplotlib.pyplot as plt
         import pandas as pd
         import numpy as np
         from sklearn import linear_model, datasets
         from sklearn.metrics import mean_absolute_error, mean_squared_error
         from sklearn.model_selection import train_test_split
```

Then dataset is uploaded:

```
In [16]: boston =datasets.load_boston()
```

```
In [18]: boston_X = pd.DataFrame(boston.data,columns =boston.feature_names)
         Y = boston.target
```

Next stage includes visualization:

```
In [20]: plt.scatter(boston_X['LSTAT'], Y, color = 'blue')
         plt.show()
```

Above code provide us coordinate of data (figure 3).



Figure 1. The location of each data.

All vector's columns and rows are defined in dataset. And also we need to train machine by data through Python code:

```
In [33]: X_train, X_test, Y_train, Y_test = train_test_split(X,Y, test_size = 0.2, random_state =1)
In [34]: reg = linear_model.LinearRegression()
In [36]: reg.fit(X_train, Y_train)
Out[36]: LinearRegression()
```

After training all coefficient take value and we can predict now.



Figure 2. 3D visualization about the difference between prediction for existing value and dataset value.

However, we have to know accuracy level, and try to find it though MSE and MAE (Mean Absolute Error).

```
In [64]: print("Ortacha Kvadratik xatolik: ", mean_squared_error(Y_test,Y_predict))
         Ortacha Kvadratik xatolik:  32.08375607139396

In [59]: print("Ortacha Absolut xatolik: ", mean_absolute_error(Y_test,Y_predict))
         Ortacha Absolut xatolik:  4.50521181335465
```

CONCLUSION

Multiple Linear Regression method gives us efficiency in so many majors in order to predict the value in future. Especially, in agriculture we can use this method as an algorithm to find the result for next season. Of course, for it we need clear dataset and optimal program. There are so many programming languages in today`s technology-focused world but Python is so beneficial for Data Science and Artificial Intelligence. I have to say there are effective libraries for data analysis to develop the prediction program. And I used such kind of libraries to construct my project.

REFERENCES

1. Rahimov Nodir, Khasanov Dilmurod. (2022). The Mathematical Essence Of Logistic Regression For Machine Learning. https://doi.org/10.5281/zenodo.7239169
2. Khasanov Dilmurod, Tojiyev Ma'ruf, Primqulov Oybek., "Gradient Descent In Machine". International Conference on Information Science and Communications Technologies (ICISCT), https://ieeexplore.ieee.org/document/9670169
3. Rahimov Nodir, Khasanov Dilmurod. (2022). The Mathematical Essence Of Logistic Regression For Machine Learning. https://doi.org/10.5281/zenodo.7239169
4. N.Raximov, J.Kuvandikov, D.Khasanov, "The importance of loss function in artificial intelligence", International Conference on Information Science and Communications Technologies (ICISCT 20222), DOI: 10.1109/ICISCT55600.2022.10146883

PERSONALIZED LEARNING REVOLUTION: HARNESSING AI AND DATA MINING TO TRANSFORM ENGLISH LANGUAGE EDUCATION

Tog'ayev Sarvar Eshniyoz o'g'li
Jizzakh branch of the National University of Uzbekistan named after Mirzo Ulugbek, Department of Foreign Languages, Assistant Teacher
sarvartogayev98@gmail.com
Oybekova Sevinch Oybek qizi
Jizzakh branch of the National University of Uzbekistan, majoring in "Philology and Language Teaching: English" 1st year student of the Faculty of Psychology,

Abstract. The integration of AI technologies and data exploration in English language learning has the potential to transform educational experiences by personalizing the learning process. These technologies take advantage of advanced algorithms to analyze large amounts of data, allowing the creation of tailor -made educational content that aligns the unique needs and preferences of individual learners. For example, QIU (2020) stresses that Big Data data exploration technology can optimize English teaching by providing valuable information on student learning habits and preferences. These ideas facilitate a deeper understanding of how learners interact with language, allowing a more informed approach to teaching.

Key words: Artificial Intelligence (AI), Data Mining, Personalized Learning, Educational Technology, Language Acquisition, Adaptive Learning Systems, Learning Analytics, Student Engagement, Real-time Feedback, Intelligent Tutoring Systems

AI's ability to process data in real time means that educators can quickly identify areas where students have trouble. For example, thanks to the learning of management systems that follow students' performance in various linguistic skills, such as the acquisition of vocabulary, the use of grammar and pronunciation - educators can design interventions that specifically target these weaknesses. This level of granularity in data analysis supports a more nuanced approach to teaching, by which teaching can be dynamically adjusted, promoting an environment where students receive immediate comments and support.

In addition, these technologies contribute to the personalization of education by adapting to varied styles and preferences of learning. As Nowakowska et al. (2020), different learners engage with equipment uniquely; Some may benefit from visual aid, while others can excel through hearing learning

methods or kinesthetic activities. By analyzing students' interactions with digital platforms, such as their time devoted to specific activities, the types of resources they prefer and their performance trends - IAS can recommend personalized resources that resonate with the forces and preferences of individual learners. This targeted approach improves not only the relevance of the content provided, but also cultivates a more engaging and motivating learning experience for students.

In addition, AI -focused platforms can promote collaboration between learners, offering opportunities for peer learning that can improve language acquisition. Data exploration technologies can analyze group dynamics and suggest collaboration exercises that promote interaction between students with additional skills. For example, if a student excels in writing but he was brought with speech, AI can facilitate group tasks that encourage collaboration - putting this student with peers who have forces relating to oral communication. This promotes not only an atmosphere of common learning, but also helps in the development of social linguistic skills, essential for effective communication.

In addition, the continuous learning loop created by AI and data exploration allows continuous adjustments to the learning route. The capacities of adaptive learning technologies mean that as students progress, their learning ways can evolve accordingly. These advanced systems continuously analyze performance data to adjust tasks, introduce new challenges or strengthen concepts that are crucial for mastery. In this way, the learning experience becomes dynamic, allowing a sustained commitment as students sail through increasingly complex linguistic tasks.

Thus, the incorporation of AI and the exploration of data into English education represents a significant change towards personalized learning experiences. By focusing on individual needs, preferences and learning models, educators are authorized to create environments that not only improve engagement but also lead to better linguistic competence results. These personalized approaches exploit the power of technology to respond to the various demands of language learners in contemporary education., Involvement in English learning is a critical component of the educational process, not only influencing students' motivation, but also their general language proficiency. With the advent of artificial intelligence (AI) and data mining technologies, innovative strategies emerged to promote active participation among students. AI -oriented tools provide dynamic learning experiences that can adapt to students' individual needs, thus increasing their levels of engagement. For example, smart tutoring systems leverage machine learning algorithms to analyze student interactions and provide personalized feedback, fill in gaps to understand and keep students invested in their educational hours (Sun et al., 2021).

The interactive nature of these platforms encourages involvement at a moment, allowing students to participate in exercises that respond to their immediate learning requirements. This personalized approach not only increases interest, but also addresses various learning styles, which is particularly pertinent in the acquisition of languages, where different modalities (visual, auditory and kinesthetic) can significantly affect effectiveness. For example, the use of gamification elements - such as scoring systems, badges and competition - integrated in AI platforms has shown significantly increasing motivation and involvement between students, leading to a positive feedback cycle, where increased engagement results in more effective learning experiences (Kovalenko & Baranivska, 2024).

With the use of advanced data analysis, educators and researchers outlined learning patterns that illuminate how students involve the content. These standards are crucial to identify not only areas where students fight, but also the common challenges faced in broader populations of students. In strategically analyzing engagement metrics, educators can adapt the curriculum in real time, prioritizing activities that maximize retention and practical application of linguistic skills. As noted by Kovalenko and Baranivska (2024), the integration of AI tools in the classroom provides educators valuable insights on student performance. Such data-oriented ideas allow a holistic understanding of how different factors- as the time spent on tasks, types of exercises used, and language response times.

In addition, the implementation of AI technologies extends beyond mere academic improvement; They also facilitate social involvement in language learning environments. Virtual classrooms and AI - driven communication platforms can connect students around the world, allowing them to practice linguistic skills in authentic contexts. This social dimension not only cultivates a sense of belonging and

community among students, but also exposes them to various linguistic and cultural nuances, thus enriching their learning experiences.

However, it is essential to recognize the challenges that accompany AI integration in educational environments. Kovalenko and Baranivska (2024) discuss the discrepancies between the promises of AI technologies and the practical difficulties encountered by educators. Issues such as varied levels of digital literacy among students, the potential for concerns about data privacy and the need for continuous professional development for teachers represent significant obstacles. Educators must be properly prepared to use these technologies effectively and navigate the possible traps carefully.

In short, AI and data mining technologies significantly increase involvement in English language learning, offering interactive and personalized experiences that promote student involvement. Through real -time analysis and adaptive learning environments, these technologies facilitate an unprecedented level of customization, boosting better educational results. However, navigating the challenges associated with their implementation requires careful consideration and continuous support for educators., Another critical advantage of using AI and data mining in English education is the ability to analyze learning patterns to obtain improved results. By taking advantage of data analysis, educators can systematically trace the student's progress and identify areas that require a directed improvement. The integration of sophisticated analysis into the educational framework allows a more granular understanding of each student's unique learning trajectory. For example, Guo (2020) supports this notion by discussing how Big Data mining can lead to an effective integration of teaching strategies informed by comprehensive analysis of students' performance analysis. These data -based ideas facilitate a more receptive educational framework, in which instruction methods can be adapted to meet the diverse students' needs.

The analytical abilities of AI extend beyond simply tracking performance; They also cover trends and identification patterns that may not be apparent through traditional evaluation methods. By using algorithms capable of recognizing several learning behaviors, educators can detect subtle changes in the levels of commitment or understanding of a student. This change in a reactive educational approach to a proactive allows timely interventions that improve language acquisition. Bai et al. (2024) highlight that the use of data mining algorithms can further optimize teachers training processes. By equipping the instructors with ideas extracted from the student's data, teachers can improve their instructional designs, adjusting the methodologies to align with the specific challenges faced by individual students.

In addition, the implications of these analytical capabilities extend to the scope of the development of the curriculum. Adaptive learning systems can be used to cure the content and activities adapted to the levels of competence and interest of the students. For example, the platforms promoted by AI can analyze large data sets to recommend personalized reading materials that coincide with the reading level of a student and thematic interests, thus promoting participation through the relevant content. Such customization not only motivates students, but also allows them to take possession of their learning trip, since they interact with materials that resonate with their experiences and aspirations.

The ability to analyze vast data stripes also facilitates the identification of broader trends within language education. For example, educational institutions can add performance metrics to discern common challenges that face specific demography, allowing educators to adjust teaching methods accordingly. This specificity of the data plays a fundamental role in the design of intervention strategies that are culturally and contextually relevant, satisfying the nuanced needs of various students of students. In such contexts, it is possible to implement personalized instructional resources that address specific weaknesses, thus improving general educational efficacy.

In addition, the continuous analysis of student performance data allows continuous improvement in instructional delivery. Educators can participate in reflexive practice, informed by data knowledge that reveal which pedagogical techniques are producing the best results. This cycle of feedback and adaptation encourages a culture culture based on data within educational environments, which ultimately increases the standard of language learning environments.

Through the iterative application of AI and data mining technologies, the potential to transform English language is significant. These technologies not only promise to improve the customization of education and improve commitment, but also illustrate the transforming power of data analysis in the

analysis of learning patterns. Participating with these advances is essential for educators that aim to cultivate an effective, inclusive and adaptive educational panorama in the field of English language acquisition., The successful integration of AI and data mining technologies in learning British languages depends significantly on the preparation of educators to adopt and use these innovations effectively. As noted by Pokrivčáková (2019), teachers' preparation programs must evolve to incorporate a training specifically focused on artificial intelligence applications within linguistic education. This training is fundamental, as it provides educators with the skills necessary to interpret and use the intuitions collected by data mining processes. This knowledge allows teachers to customize learning experiences for their students based on real -time data feedback, thus facing different learning needs and preferences.

In addition, there is an urgent need for educators to encourage an educational environment that embraces technological progress. The will and ability of teachers to embrace artificial intelligence technologies can significantly affect the overall effectiveness of these class tools. When educators are competent in the use of the AI, they can use analytical insights to adapt pedagogical strategies, ensuring that learning activities are both engaging and relevant to students. The involvement of students through customized content and methodologies has shown to improve motivation and participation, ultimately leading to a better mastery of language (Baker et al., 2020).

In addition to traditional pedagogical skills, educators must develop an understanding of the underlying principles of the AI and data mining. This includes familiarity with the algorithms that guide personalized learning recommendations, ethical implications of the use of I in education and the importance of maintaining data privacy. The pedagogical programs that reach this integration of technology and education are to significantly improve the learning results in the field of the acquisition of the English language (Chen, 2023).

In addition, the collaboration between educators, technologists and curriculum developers is essential for the success of AI Ai and Data Mining technologies in the legal learning contexts in English. These partnerships can encourage the development of solid educational models that exploit these technologies to facilitate a deeper commitment and understanding. By sharing insights from the data analysis, educators can contribute to a rich dialogue on effective teaching practices that use the IA to satisfy the profiles of individual students. This collaboration also guarantees that artificial intelligence applications remain rooted in theory and pedagogical practice, which is fundamental for their acceptance and effectiveness in the classroom.

Ultimately, the interaction between tools guided by the AI and teachers' training programs must be seen as a dynamic and mutual relationship. As Chen (2023) highlights, the robust models that incorporate data mining technologies and ai can create a personalized learning environment, but these tools must be accompanied by informed and well -prepared educators that can interpret data effectively and apply them within their teaching strategies. This alignment of the technological innovation and the reader's promptness acts as a foundation to improve the results in learning British languages and can redefine the educational panorama while teachers exploit the full potential of these emerging tools.

References

1. Chen, Yanwen. Analyzing the design of intelligent English translation and teaching model in colleges using data mining. Soft Computing 27.19 (2023): 14497-14513. https://link.springer.com/article/10.1007/s00500-023-09096-7
2. Nowakowska, Marzena, Karolina Bęben, and Michał Pajęcki. Use of data mining in a two-step process of profiling student preferences in relation to the enhancement of English as a foreign language teaching. Statistical Analysis and Data Mining: The ASA Data Science Journal 13.5 (2020): 482-498. https://onlinelibrary.wiley.com/doi/abs/10.1002/sam.11478
3. Qiu, Chenxia. Empirical study of big data mining technology in English teaching integration and optimization analysis. Proceedings of the 2020 International Conference on Computers, Information Processing and Advanced Education. 2020. https://dl.acm.org/doi/abs/10.1145/3419635.3419734
4. Guo, Jianliang. Empirical analysis for English teaching integration and optimization based on big data mining technology. Proceedings of the 2020 International Conference on Computers,

Information Processing and Advanced Education. 2020. https://dl.acm.org/doi/abs/10.1145/3419635.3419736
5. Bai, Yujie, Suyansah Swanto, and Esther Jawing. Original Research Article Optimizing the design and implementation of college English teacher training—Courses on Canvas platform using data mining algorithms. Journal of Autonomous Intelligence 7.5 (2024). http://jai.front-sci.com/index.php/jai/article/view/1406
6. Sun, Zhuomin, M. Anbarasan, and D. J. C. I. Praveen Kumar. Design of online intelligent English teaching platform based on artificial intelligence techniques. Computational Intelligence 37.3 (2021): 1166-1180. https://onlinelibrary.wiley.com/doi/abs/10.1111/coin.12351

OBYEKTLARNI TANIB OLISH NEYRON TARMOQ MODELLARINI OQITISHDA QO'LLANILUVCHI MA'LUMOTLAR TO'PLAMINI SUN'IY BOYITISH IMKONIYATLARI TAXLILI

Turgunov Bekzod Abdivositovich
Kommunikatsiya va raqamli texnologiyalar kafedrasi, "University of management and future technologies" universiteti, Toshkent, 100208, O'zbekiston; bekzodmirzoturgunov@gmail.com
Rahmatillayeva Shahrizoda Utkir qizi
Infokommunikatsiya injiniringi yo'nalishi, "University of management and future technologies" universiteti, Toshkent, 100208, O'zbekiston; shaxrizodaraxmatillayeva@gmail.com

Annotatsiya: Ushbu maqolada obyektlarni tanib olish maqsadida qo'llaniluvchi neyron tarmoq modellarini o'qitishda qo'llaniluvchi ma'lumotlar to'plamlarini sun'iy boyitish usullaridan biri bo'lgan augmentlash jarayonidan foydalanish natijalari bayon qilinadi. Bu jarayon natijasida ma'lumotlar to'plamidagi obyekt tasvirlarini qanday mexanizmlar orqali ko'paytirish tahlil qilinadi. Obyekt tasvirini augmentlash jarayoni orqali ko'paytirish maqsadida python dastiriy muhitida yozilgan dasturiy vositani ishlash jarayoni tushuntiriladi. Olingan natijalar tahlili bayon qilinadi.

Kalit so'zlar: Ma'lumotlar to'plamini boyitish, obyekt tasvirini aylantirish, obyekt tasvirini yorqinligi, augmentlash.

Kirish. Ma'lumki bugungi kunda insoniyat hayotining turli sohalarida sun'iy intellektning imkoniyatlaridan keng foydalanilmoqda. Hususan, obyektlarni tanib olish maqsadida qo'llaniluvchi neyron tarmoq modellaridan ta'lim jarayonlarida, mudofaa sanoatida, tibbiyot tizimlarida, kon-metallurgiya tizimlarida, avtonom harakatlanish tizimlarida va boshqa ko'plab sohalarda foydalanilmoqda. Bunday maqsadda qo'laniluvchi neyron tarmoqlar o'ziga yuklatilgan vazifani aniq va tezkorlik bilan bajarishlari uchun ularni o'qitish jarayoni sifatli ma'lumotlar to'plami asosida amalga oshirilishi lozim [1].

Bilamizki bunday maqsadlarda qo'llaniluvchi ma'lumotlar to'plami turli obyektlar tasvirlangan rasmlar va ularga mos annotatsiya kabi ma'lumotli fayllardan tashkil topadi. Har bir obyektning sifatli tasvirlangan rasm fayli va bu rasmdagi obyektning koordinatalari haqidagi ma'lumotlardan tashkil topgan annotatsiya ma'lumotlari ma'lumotlar to'plamini tashkil qiladi. Ma'lumotlar to'plamini qay darajada sifatli tayyorlanganligi, bu ma'lumotlar to'plami asosida o'qitiladigan neyron tarmoq modelini unga yuklatilgan vazifani shunday yuqori darajadagi sifatda bajarishini ta'minlaydi. Demak, tayyorlanadigan ma'lumotlar to'plamiga ma'lum bir talablar qo'yiladiki, tayyorlangan ma'lumotlar to'plami shu talablarga javob berishi lozim. Quyida oldindan o'qitilgan neyron tarmoq modellarini qayta o'qitish maqsadida qo'llaniladigan ma'lumotlar to'plamlariga qo'yiladigan asosiy talablar bayon qilingan:

Ma'lumotlar xilma-xilligi. Ma'lumotlar to'plamida har bir obyektning turli rakurslardan, ya'ni turli burchaklardan va holatlardan tasvirlangan holatlari bo'lishi kerak. Shuningdek obyektlarning tasvirlari turli yoritilish sharoitlarida olingan bo'lishi lozim. Yorug', qorong'u, soyali holatlarni o'z ichiga olgan tasvirlar bo'lishi kerak. Ma'lumotlar to'plamidagi ma'lumotlarning xilma-xilligiga, shuningdek, obyekt tasviri olingan fonning xilma xilligi ham muhimdir. Ya'ni, ma'lumotlar to'plamidagi obyektlarning tasvirlari obyektning turli muhit va fonlarda joylashgan holatlarda olingan bo'lishi kerak

(ichki va tashqi muhit, band fon, silliq fon va h.k.). Albatta obyekt tasvirlarining xilma-xilligiga uning turli o‘lchamdagi tasvirlarining mavjudligi ham kiradi. Ya’ni, obyektning turlicha masshtabdagi tasvirlari olinishi lozim.

Aniq va to‘liq belgilangan (annotatsiyalangan) ma’lumotlar berilishi joiz. Ma’lumotlar to‘plamini yaratishda turli obyektlarning tasvirlari bilan birgalikda har bir obyekt tasviriga mos belgili fayllar (annotatsiyalar) bo‘lishi lozim. Bu belgili faylda mos rasmli faylda tasvirlangan obyektning qanday sinfga mansubligi, obyektning tasvirdagi turli koordinatalari haqida ma’lumotlar keltirilgan bo‘ladi.

Ma’lumotlar to‘plamidagi obyektlar sonining ko‘pligi va ularning soni muvozanatda bo‘lishi lozim. Ma’lum guruhga tegishli obyektlarni tanib olish modelini o‘qitish maqsadida yaratilayotgan ma’lumotlar to‘plamida shu guruhdagi obyektlarning tasvirlari va mos belgili fayllari soni ko‘p bo‘lishi lozim. Har bir obyektning yuqorida ta’kidlangani kabi turli rakurslarda, turli yoritilganlik holatlarida, turli fonlardagi turli o‘lchamdagi tasvirlari bo‘lishi lozim. Ma’lumotlar to‘plamida qanchalik ko‘p obyektlarning turli holatlardagi tasvirlari qanchalik ko‘p bo‘lsa, bu ma’lumotlar to‘plami asosida o‘qitilgan model shuncha ko‘p obyektlarni shuncha ko‘p turli holatlarda ham tanib olish qobiliyatiga ega bo‘ladi. Ma’lumotlar to‘plamida yetarli miqdorda rasm bo‘lishi kerak, masalan kamida bir necha ming dona, ideal holda 10 ming va undan ko‘p bo‘lishi lozim. Shunisi muhimki, ma’lumotlar to‘plamidagi tasvirlangan obyektlarning soniga, bitta obyektning tasvirlari xilma-xilligiga talab yuqori bo‘lishi bilan bir qatorda ma’lumotlar to‘plamidagi turli obyektlarning tasvirlar soni muvozanatda bo‘lishi ham talab qilinadi. Tasavvur qilaylik, ma’lumotlar to‘plamida jami 20 ta sinfga mansub obyektlarning 10000 ta tasviri mavjud. Bu holatda bitta sinfga taalluqli obyektni tasvirlari soni o‘rtacha 50 ta ga mos keladi. Agar biror obyektni tasvirlari soni boshqa obyektlarning tasvirlari soniga nisbatan ko‘p bo‘lsa bu ma’lumotlar to‘plami asosida o‘qitilgan model inferens vaqtida xato qaror qabul qilish ehtimolligi ortib ketadi. Ya’ni, model boshqa obyektlarni ham tasvirlari ma’lumotlar to‘plamida ko‘p bo‘lgan obyekt sifatida e’tirof eta boshlaydi. Demak, ma’lumotlar to‘plamidagi sinflar o‘rtasida muvozanat bo‘lishi kerak.

Tasvirlar sifati yuqori bo‘lishi lozim. Rasm o‘lchami (rezolyutsiyasi) model talablariga javob berishi kerak (masalan, YOLO uchun odatda 640×640 piksel). Obyektlar tasvirlangan rasmlar yuqori sifatli, noaniqlik, xiralik yoki ortiqcha shovqindan holi bo‘lishi lozim.

Demak, ma’lum bir vazifada qo‘llanishi maqsad qilingan neyron tarmoq modelini hosil qilish uchun uni o‘qitishda qo‘llaniladigan ma’lumotlar to‘plamini yaratishda yuqoridagi talablarni e’tiborga olishimiz lozim. Yuqori aniqlikdagi va ishonchlilikda turli-tuman obyektlarni tanib olish imkoniyatiga ega modellarni o‘qitish natijasida olish uchun qo‘llaniladigan ma’lumotlar to‘plamilarda sinflar soni va har bir sinfga mos tasvirlar soni ko‘p bo‘ladi. Bunday ma’lumotlar to‘plamlarida yuqorida ta’kidlangani kabi 10 mingdan ortiq obyektlar tasvirlari mavjud bo‘ladi. Bunday ko‘p sondagi obyektlarning tasvirlarini tayyorlab olish juda ko‘p vaqt va resurs talab qiladi. Shu sababli mavjud obyektlarning tasvirlarini ko‘paytirish orqali ma’lumotlar to‘plamini boyitish uchun turli usul va algoritmlardan foydalanish mumkin.

Augmentlash — mavjud tasvirlarga turli o‘zgartishlar kiritib, sun'iy ravishda yangi tasvirlar yaratish usulidir. Bu neyron tarmoqni ko‘proq holatlarga moslashtiradi va umumlashtirish qobiliyatini oshiradi [2,3].

Ma’lumotlarni augmentlash (ma’lumotlarni sun’iy ko‘paytirish) sohasiga tegishli quyidagi usullar mavjud bo‘lib, ular mashinali o‘qitish va ayniqsa chuqur o‘qitish (deep learning) modellarining umumlashma qobiliyatini oshirish uchun qo‘llaniladi (1-jadval).

1-jadval. Ma’lumotlar to‘plamini sun’iy boyitish usullari

№	Usul nomi	Usulning vazifasi
1	**Yadroli filtrlash**	Tasvirga yadro asosida filtrlar qo‘llanib, yangi variantlar hosil qilinadi (masalan, xira qilish, o‘tkirlashtirish)
2	**Geometrik ko‘chirishlar**	Tasvirning holatini o‘zgartirish (aylantirish, siljitish, masshtab o‘zgartirish va h.k.)

3	**Tasodifiy o‘chirish**	Tasvirning ayrim qismlarini tasodifiy ravishda o‘chirish (masalan, random erasing yoki blackout)
4	**Tasvirlarni aralashtirish**	Ikki yoki undan ortiq tasvirlarni aralashtirib, yangi namunalar hosil qilish (masalan, MixUp, CutMix texnikalari)
5	**Rang maydonini o‘zgartirish**	Rang balansi, yorqinlik, kontrast yoki rangli fazolarni (masalan, RGB ni HSV ga) o‘zgartirish

Quyida aynan augmentlash usulidan foydalangan holda mavjud ma’lumotlar to‘plamini boyitish usulidan foydalanish jarayoni natijalari ko‘rib chiqiladi. Bunda ma’lumotlar to‘plamida ma’lum bir obyektni tasviri mavjud bo‘lgan rasmli faylni turli augmentlash usullaridan foydalangan holda ko‘paytirish orqali ma’lumotlar to‘plamini boyitish jarayoni amalga oshiriladi. Tasavvur qilaylik, ma’lumotlar to‘plamida quyidagi obyekt tasviri mavjud bo‘lgan rasmli fayl mavjud.

1-rasm**.** Ma’lumotlar to‘plamidagi tasvirni sun’iy ko‘paytirilish lozim bo‘lgan obyekt

Bu tasvirni python dasturida augmentlashni bir necha usullarini qo‘llash orqali sun’iy ko‘paytirish maqsadida skript yaratildi va bu skriptda obyekt tasviri quyidagi xusuiyatlari bo‘yicha ko‘paytirildi:

Rasmni gorizontal (chapdan o‘ngga) teskari aylantirish amalga oshiriladi.

Rasm yorqinligi va kontrasti tasodifiy o‘zgartiriladi. Bu ham 50% ehtimol bilan qo‘llanadi.

Rasm 20 darajagacha (ixtiyoriy) aylantiriladi (buriladi). Bu amal ham 50% ehtimol bilan amalga oshirildi.

Rasmga harakatdan kelib chiqqan xiralashish effekti beriladi. Bunda maksimal xiralashtirish darajasi 3 piksel, 30% ehtimol bilan amalga oshirildi.

Rasmning tasodifiy 400x400 o‘lchamdagi kichik qismi kesib olinadi. Bu amal 30% ehtimollik bilan bajariladi.

Rasmga Gaussian shovqin qo‘shiladi. Bu jarayonda shovqin dispersiyasi 10 - 50 diapazonda tasodifiy tanlanadi. Bu jarayon ham 30% ehtimol bilan bajarilmoqda.

Rasmni biroz surish, o‘lchamini o‘zgartirish va burish amalga oshiriladi. Bunda surish chegarasi 5%, o‘lcham o‘zgarishi 10%, burilish 15 daraja atrofida amalga oshirilmoqda. Bu jarayon ham 50% ehtimol bilan amalga oshirilmoqda.

```
# Augmentatsiya transformatsiyalari
transform = A.Compose([
    A.HorizontalFlip(p=0.5),
    A.RandomBrightnessContrast(p=0.5),
    A.Rotate(limit=20, p=0.5),
    A.MotionBlur(blur_limit=3, p=0.3),
    A.RandomCrop(height=400, width=400, p=0.3),
    A.GaussNoise(var_limit=(10.0, 50.0), p=0.3),
    A.ShiftScaleRotate(shift_limit=0.05, scale_limit=0.1, rotate_limit=15, p=0.5)
])
```

2-rasm. Obyekt tasvirini sun’iy ko‘paytirish maqsadida qo‘llanilgan python dasturlash muhitidagi skriptda qo’llanilgan augmentlash usullari

Natijada ma’lumotlar to‘plamidagi bitta obyekt tasvirini 10 taga ortirish mumkin. Quyidagi 3-rasmda keltirilgan rasmda aynan augmentlash natijasida ko‘paytirilgan obyekt tasvirlari aks ettirilgan. Rasmdan ko‘rinadiki, obyekt tasvirini yoritilganlik darajasi, tasvirdagi obyekt o‘lchami, tasvirning hosil bo‘lish rakurslari va boshqa xususiyatlar bo‘yicha o‘zgartirish orqali yondosh tasvirlar hosil qilingan.

3-rasm. Ma'lumotlar to'plamidagi bir obyekt tasviriga nisbatan augmentlash jarayonini qo'llash natijalari

Agar ma'lumotlar to'plamidagi har bir ob'yekt tasviriga nisbatan ushbu ko'paytirish algoritmi qo'llanilsa ma'lumotlar to'plamidagi ma'lumotlar soni ham o'n barobar ortadi. Natijada ma'lumotlar to'plamining umumiy ma'lumot hajmi ham o'n barobarga ortadi.

Xulosa

Xulosa o'rnida shuni ta'kidlash muminki, ma'lumotlar to'plamilarni sun'iy boyitish usullaridan foydalanish kam vaqt va resurs sarflagan holda katta hajmli ma'lumotlar to'plamlarini yaratish imkonini beradi. Shuningdek, bunday usullardan foydalanish natijasida obyektning turli holatlardagi tasvirlarini hosil qilish mumkin bo'ladi. Natijada bunday obyektning turli holatlaridagi tasvirlaridan tashkil topgan ma'lumotlar to'plami asosida o'qitilgan modelning amaliy qo'llanilishi davrida bunday obyektlarni turli holatlarda ham tanib olish qobiliyatiga ega bo'lishni ta'minlaydi.

Foydalanilgan adabiyotlar

1. Shorten, C., & Khoshgoftaar, T. M. (2019). *A survey on image data augmentation for deep learning*. Journal of Big Data, 6(1), 60. DOI: 10.1186/s40537-019-0197-0
2. Perez, L., & Wang, J. (2017). *The effectiveness of data augmentation in image classification using deep learning*. arXiv preprint arXiv:1712.04621. URL: https://arxiv.org/abs/1712.04621
3. Mikołajczyk, A., & Grochowski, M. (2018). *Data augmentation for improving deep learning in image classification problem*. 2018 International Interdisciplinary PhD Workshop (IIPhDW), IEEE, pp. 117–122. DOI: 10.1109/IIPHDW.2018.8388338
4. Wen, Q., Chen, C., & Li, Z. (2023). *A comprehensive survey of image data augmentation techniques for deep learning*. Pattern Recognition, Volume 142, 109018. DOI: 10.1016/j.patcog.2023.109018

TELEKOMMUNIKATSIYA TARMOQLARIDA TRAFIK XUSUSIYATLARINI ANIQLASHDA MASHINAVIY O'QITISH USULLARINI QO'LLASH MASALASIGA OID

Usmanova N.B.
nargizausm@mail.ru, TUIT
Saitkamolova G.K.
gozal.saitkamolova@gmail.com, TUIT

Annotatsiya. Mazkur maqolada telekommunikatsiya tarmoqlarida foydalanuvchi tajribasini yaxshilash maqsadida trafik shablonlarini aniqlash, modellashtirish va bashorat qilish masalalari o'rganilgan. Tadqiqotda real tarmoq trafigi ma'lumotlar to'plamidan foydalanilgan bo'lib, unda trafik oqimlarining vaqtinchalik xususiyatlari o'rganilgan. Trafikni tahlil qilishda vaqt ketma-ketliklarini o'rganishda mos keluvchi chuqur o'rganish modellari - LSTM va GRU dan foydalanish imkoniyati keltirilgan va trafik shablonlari ahamiyati asoslab berilgan. Tadqiqot natijalari trafikni aniqlash orqali tarmoq ishlashini optimallashtirish, anomaliyalarni oldindan aniqlash va xizmat sifatini boshqarishda yangi imkoniyatlarni ochib beradi.

Kirish. Trafik shablonlarini aniqlash asoslari

Bugungi jadal rivojlanayotgan raqamli dunyoda telekommunikatsiya sohasi iqtisodiyot va jamiyatni raqamlashtirishning asosiy vositalaridan hisoblanadi. Raqamli transformatsiyaing turli yondashuvlari mavjud bo‘lib, ularni ajralib turadigan xususiyatlaridan biri bu Internet orqali uzatiladigan ma’lumotlar hajmining eksponensial o‘sishidir. Bunday ma’lumotlar sun’iy intellekt (AI), ma’lumotlar tahlili, blokcheyn, buyumlar interneti (IoT), bulutli hisoblash va Internetga asoslangan barcha xizmatlar kabi tez rivojlanayotgan raqamli texnologiyalar uchun manba hisoblanadi va ular asosiy iqtisodiy resursga aylandi. Ma’lumotlar oqimi ko‘rinishida ifodalanadigan trafik tabiatini o‘rganish, uning xususiyatlarini tadqiq etish masalasi foydalanuvchilarga yetarli sifat talablari doirasida xizmatlar taqdim etish va ilovalar kesimida qoniqish darajasini ta’minlash bilan bevosita bog‘liq bo‘lgan dolzarb masala hisoblanadi. Bunda mualliflar tomonidan ‘trafik shabloni’ tushunchasini qo‘llagan holda, tarmoqlarda real vaqtdagi trafik xususiyatlarini o‘rganish yondashuvi taklif etishgan.

Trafik shabloni (traffic pattern): tarmoq trafigini tahlil qilish uchun yaratiladigan mantiqiy tuzilmadir. Trafik shablonlari fizikaviy infratuzilmadan butunlay mustaqildir: kanallar, tarmoq qurilmalari va ularning interfeyslariga e’tibor qaratish o‘rniga trafikning mantiqiy xususiyatlariga e’tibor qaratish imkonini beradi.

Traffic Pattern [1-3] to‘liq yig‘ilgan tarmoq trafigining bir qismidir. U ikkita tarmoq orasidagi trafikni ifodalaydi. Telekommunikatsiya tarmoqlarida traffik shablonlari dinamik va ko‘p qirrali bo‘lib, vaqt o‘tishi bilan ma’lumotlar trafigining oqimi va taqsimlanishiga ta’sir qiluvchi turli omillarning murakkab o‘zaro ta’sirini aks ettiradi. U tarmoq samaradorlikni tahlil qilish, tarmoq o‘tkazuvchanligini rejalashtirish, anomaliyalarni aniqlash va tarmoqni optimallashtirish uchun muhimdir. Ushbu trafik shablonlarini aniqlash quyidagi tahlillarni o‘z ichiga oladi:

1. Tarmoq ma’lumotlarini yig‘ish:
Log – fayllar (masalan, NetFlow, sFlow)
Paket monitoringi (Wireshark, tcpdump va boshqalar orqali)
SNMP – routerlar va kommutatorlardan olingan ma’lumotlar
2. Trafik xarakteristikalarining tahlili:
Manba va qabul qiluvchi(IP manzillar, MAC manzillar)
Trafik turi (veb, video, VoIP, P2P va boshqalar)
Faoliyat vaqti (kunning qaysi vaqti eng yuqori trafik)
Hajm va tezlik (bit/s, paket/s)
Protokollar (TCP, UDP, ICMP va boshqalar).
3. Trafik tasnifi:
Aloqa modeli bo‘yicha: nuqtadan nuqtaga (point-to-point), ko‘p manzilli (multicast), keng uzatishli (broadcast);
Muntazamligi bo‘yicha: davriy, vaqti-vaqti bilan, doimiy;
Ilova turi bo‘yicha: strimming, onlayn o‘yinlar, ovozli, pochta va boshqalar.

Misol uchun, universitet tarmog‘ida turli xil trafik shablonlarini aniqlash mumkin: kun davomida talabalar tomonidan eng yuqori yuklanish (veb, Zoom) mavjud; kechasi - zaxira va avtomatik yangilanishlar; dam olish kunlarida - deyarli VoIP yo‘q, lekin ko‘proq oqimli video bo‘lishi mumkin.

Oddiy trafik hajmidan tashqari, foydalanuvchi ma’lumotlarini tahlil qilish foydalanuvchi faoliyatining o‘ziga xos xususiyatlarini va ilovalardan foydalanish shablonlarini chuqurroq o‘rganadi. Ilovalar darajasida trafik ma’lumotlarini ajratib ko‘rsatish orqali telekom operatorlar qaysi ilovalar tarmoq trafigining asosiy qismini egallayotgani, ularning o‘tkazish qobiliyatiga bo‘lgan talablarini va ularning umumiy tarmoq ishlashiga ta’sirini aniqlashlari mumkin. Ushbu tushuncha operatorlarga muhim ilovalarga ustuvorlik berish, tarmoqni o‘tkazish qobiliyati taqsimotini optimallashtirish va har bir ilovaning o‘ziga xos xususiyatlariga moslashtirilgan trafikni boshqarish imkonini beradi.

Telekommunikatsiya tarmog‘ida trafik shablonlari asosida QoS ni ta’minlash masalasi (operator kesimida)

Tarmoq boshqaruvidagi shablonlar tarmoq trafigining har xil turlari uchun ma’lum QoS darajalarini ta’minlash uchun mo‘ljallangan qoidalar va konfiguratsiyalar to‘plamidir [4]. Ushbu shablonlar tarmoq bo‘ylab QoS siyosatlarini izchil qo‘llashda yordam beradi. Misol uchun, shablon ovozli qo‘ng‘iroqlar uchun past kechikish va yuqori tiniqlikni ta’minlash uchun VoIP trafigiga ustunlik

berishi mumkin, shu bilan birga tirbandlikning oldini olish uchun foydalanishning eng yuqori vaqtlarida ommaviy fayllarni uzatishga ustunlik berishi mumkin.

QoS parametrlari va o'lchovlari mijozga tushunarli bo'lgan atamalarda berilishi kerak hamda bu o'lchov va parametrlar zarur holatlarda sanoatda qo'llash uchun texnik atamalarda ifodalanishi ham mumkin. Aslida QoS parametrlar majmui turli telekommunikatsiya xizmatlaridan foydalanuvchilarga tushunarli qilib shakllantiriladi. Shunday bo'lsa ham turli sharoitlarda bu parametrlarning kichik bir guruhlari tanlanadi. Masalan, bir turdagi parametr qator davlat va bozorlarda foydalanuvchilar uchun muhim sanaladi va shu bilan birga xuddi shu parametr boshqa davlat va bozorlarda hech qanday ahamiyati bo'lmasligi mumkin. Misol uchun chaqiruv signalini o'rnatish vaqti butun analog tarmoqlarida qo'llanilishi mumkin, lekin butun raqamli tarmoqlarga qo'llanmasligi mumkin. Demak, QoS parametrlarini qo'llashdan manfaatli bo'lgan tarmoq operatorlari, xizmat ta'minotchilari, boshqaruv organlari, mijoz va foydalanuvchilar, ya'ni ikkinchi tomon bilan ularning sharoitida aynan qaysi parametrlardan foydalanishi zarurligini kelishib olishadi. Bu kelishuvda quyidagilarni e'tiborga olish kerak:

aniq maqsad, ya'ni parametr qaysi aniq maqsadda qo'llanilishi;

sifat va ish xarakteristikalari, ya'ni zamonaviy texnologiyalar foydalanuvchilari kutadigan sifat va ish xarakteristikalari;

foydalanuvchi nuqtai nazaridan parametrning muhimliligi va foydaliligi;

daraja, ya'ni ish xarakteristikalarini aniq taqqoslashni ta'minlaydigan parametrlar darajasi;

narx va resurs, ya'ni har bir parametrni o'lchash va shunga muvofiq xisobotni taqdim etishda zarur bo'ladigan resurs va narx.

ITU-T 1.380/Y.1540 tavsiyalariga muvofiq IP tarmoqlaridagi QoSni tavsiflaydigan asosiy parametrlar quyidagilar hisoblanadi (1-rasm):



1-rasm. Nutq uzatish sifatini aniqlaydigan o'zaro ta'sir etuvchi omillar.

IP tarmoqlarda QoS ta'minlash mexanizmlari ko'rsatilgan parametrlardan birinchi uchtasini yaxshilashga yo'naltirilgan. Xususan ular nutqni uzatish sifatini aniqlaydigan transport tarmog'ining asosiy xarakteristikalari hisoblanadi. Bu parametrlardan, odatda, yetakchi operatorlar tomonidan mijozlarga taqdim etiladigan xizmat ko'rsatish darajalari (Service Level Agreement - SLA) to'g'risidagi bitimlarda foydalaniladi.

Tarmoq trafigini monitoring qilish va tahlil qilish usullari, asosan, tarmoqni tahlil qilish uchun ma'lumot berish va inson aralashuvisiz muammolarni hal qilish uchun yechimlarni taklif qilish orqali

tarmoq ishlashini monitoring qilish maqsadida joriy etiladi. Bu usullar umumlashtirilib NTMA (Network Traffic Monitoring and Analysis, NTMA) deb ataladi va bunda to'rtta asosiy sohalar mavjud, jumladan:

Tarmoq trafigini bashorat qilish (Network Traffic Prediction, NTP);

Tarmoq trafigining tasnifi (Network Traffic Classification, NTC) ;

Xatolarni boshqarish;

Tarmoq xavfsizligi.

Ushbu sohalar orasida NTP tarmoq yuklamasini tahlil qilishga va tarmoqdagi nosozliklar va samarasizliklarning oldini olish uchun tarmoq trafigini bashorat qilishga qaratilgan. NTP ni amalga oshirish uchun turli xil usullar kiritiladi, lekin odatda mavjud yechimlarni ikki turga bo'lish mumkin, ya'ni Machine Learning (ML) va statistik usullarga asoslangan. NTP ikkala turga asoslangan holda ishlab chiqilishi mumkinligi sababli, birinchi navbatda eng mos usullar ko'rib chiqiladi va keyin har bir tur uchun taklif qilingan yechimlar o'rganiladi. Buning uchun ilmiy-texnik adabiyotlarda ma'lum bo'lgan ARIMA (AutoRegressive Integrated Moving Average) modeliga murojaat qilish mumkin [5,6]. 'ARIMA' da 'I' (Integratsiyalashgan) ushbu protseduraga ishora qiladi. ARIMA modeli ARIMA (p, d, q) sifatida belgilanadi[7], bu yerda p AR qismining tartibini, d jalb qilingan farqlanish darajasini va q harakatlanuvchi o'rtacha qismning tartibini bildiradi. Quyida qisqacha tavsiflanganidek, ARMA(AutoRegressive Moving-Average) va ARIMA mos ravishda (2) va (3) tenglamalarda shakllantirilishi mumkin. Haqiqiy sonlar (Xt) va butun son indeksidan (t) tashkil topgan Xt vaqt seriyasi ma'lumotlarini faraz qilsak, ARMA (p,q) modeli (1) tenglama bilan beriladi, bunda αi (AR) modelining parametrlari, θi ni ifodalaydi. (MA) modelining parametrlari va $\boldsymbol{\varepsilon}$t - nol o'rtacha bilan normal taqsimotdan tanlab olingan mustaqil va bir xil taqsimlangan (i,i,d) o'zgaruvchilar deb qabul qilingan xato atamalar.

$$X_t - \alpha_1 X_{t-1} - \cdots - \alpha_p X_{t-p} = \boldsymbol{\varepsilon}_t + \theta_1 \boldsymbol{\varepsilon}_{t-1} + \cdots + \theta_q \boldsymbol{\varepsilon}_{t-q} \quad (1)$$

Bir-birini almashtirib, uni quyidagicha ko'rsatish mumkin, bu yerda L - kechikish operatori:

$$(1 - \sum_{i=1}^{p} \alpha_i L^i) X_t = (1 + \sum_{i=1}^{q} \theta_i L^i) \boldsymbol{\varepsilon}_t \quad (2)$$

ARIMA modelini ARMA ning umumlashtirilishi sifatida qabul qilsak, quyidagi formula berilgan ARIMA(p,d,q) jarayonini belgilaydi:

$$(1 - \sum_{i=1}^{p} \varphi_i L^i)(1 - L)^d X_t = \delta + (1 + \sum_{i=1}^{q} \theta_i L^i) \boldsymbol{\varepsilon}_t \quad (3)$$

Turli xil ilovalar va vaqt seriyalariga ko'ra ARIMA ning turli xil variantlari taklif etiladi; ular orasida 'Mavsumiy-ARIMA (SARIMA)' va 'Fraksiyali avtoregressiv integral harakatlanuvchi o'rtacha (FARIMA)' ni ta'kidlash mumkin. FARIMA prognozlash modeli - bu ARIMA (p, d, q) modelining kengaytmasi bo'lib, unda d kasr parametri butun sonlarni emas, balki haqiqiy qiymatlarni qabul qilishi mumkin va quyidagi (4) tenglama bilan ifodalanadi:

$$\Phi_p(L)(1 - L)^d (Y_t) = \Theta_q(L) \boldsymbol{\varepsilon}_t \quad (4)$$

Bu yerda L - kechikish operatori, d - farq parametrini Θq va Φp - ko'phadni bildiradi, ya'ni: $\Theta_q(L)=1+\theta_1 L+\cdots+\theta_q L^q$, va $\Phi_p(L)=1-\varphi_1 L-\cdots-\varphi_p L^p$ [7].

An'anaviy ARIMA ning yana bir kengaytmasi sifatida SARIMA (Seasonal Autoregressive Integrated Moving Average) mavsumiy komponentlarga ega bo'lgan vaqt qatorlarini bashorat qilish uchun ishlatiladigan statistik modelni keltirish mumkin. SARIMA modeli o'tmishdagi kuzatishlar va ularning chiziqli birikmasiga asoslangan holda bog'liq xatolarni bashorat qilish uchun foydalaniladigan model. Nomidan ko'rinib turibdiki, ushbu modelning tuzilishi va ishlashida mavsumiylik omili asosiy rol o'ynaydi. SARIMA jarayoni ko'pincha SARIMA(p, d, q) × (P, D, Q)S ko'rinishidagi modellar sifatida ko'rsatiladi. Mavsumiylik uzunligi (S) bo'lgan, berilgan {Xt} vaqt seriyasi uchun SARIMA jarayoni (5) tenglama bilan ko'rsatilgan, farqli qator, wt = (1 − B)d(1 − BS)DXt esa statsionar ARMA jarayoni va , d va D manfiy bo'lmagan butun son qiymatlaridir.

$$\phi_p(B)\Phi_P(B^S) w_t = \theta_q(B)\Theta(B^S)\epsilon_t, t = 1,2, \ldots, n \quad (5)$$

Umuman olganda, ML texnikasi bilan hal qilinadigan muammolarning mantiqiy doirasi to'rtta keng toifada, ya'ni tasniflash va regressiya, klasterlash va qoidalarni ajratib olishda shakllantirilishi mumkin. Bunda ARIMA modellari trafik tabiatiga mos turli parametrlarni tahlil qilishning maqbul

vositasidir.

Tahlilga oid holatlar va ko‘rsatmalar asoslanishi

Ma’lumotlar to‘plamidan foydalangan holda [8] tarmoq trafigi tahlil qilinishi trafik shablonlarini tushunish va bashorat qilish, anomaliyalarni aniqlash va tarmoq ish faoliyatini yaxshilashga imkon beradi. Bunga erishish uchun ilg‘or chuqur o‘qitish usullaridan, xususan, uzoq qisqa muddatli xotira (LSTM) tarmoqlari va Gated Recurrent Units (GRU) dan foydalaniladi [9]. Ushbu usullar vaqt seriyalari ma’lumotlari uchun juda mos keladi va tarmoq trafigidagi vaqtinchalik bog‘liqlikni qo‘lga kiritishi mumkin. Bugungi kunda ko‘plab (masalan, Stenford universiteti) ma’lumotlar to‘plami tarmoq trafigiga oid ma’lumotlarning keng qamrovli to‘plamini o‘z ichiga oladi, jumladan paket o‘lchamlari, vaqt belgilari, manba va qabul qiluvchi IP manzillari va protokol turlari. Ushbu ma’lumotlar to‘plami o‘zining to‘liqligi, tarmoq trafigi va xavfsizlik masalalarini o‘rganishdagi dolzarbligi bilan keng tan olingan.

LSTMlar ketma-ket ma’lumotlarda uzoq muddatli bog‘liqlikni o‘rganishga qodir bo‘lgan takrorlanuvchi neyron tarmoq (Recurrent Neural Networks, RNN) turidir. Ular, ayniqsa, yo‘qolib borayotgan gradient muammosini hal qilishda samarali bo‘lib, ularni vaqt seriyalarini tahlil qilish uchun mosdir.

Arxitektura: LSTM modeli bir nechta qatlamlar, jumladan, kirish, yashirin va chiqish qatlamlari bilan yaratilgan. Yashirin qatlamlar kengaytirilgan ketma-ketliklar bo‘yicha ma’lumotni saqlab qolishi mumkin bo‘lgan LSTM birliklaridan iborat.

Gated Recurrent Unit (GRU): GRU lar RNN ning bir varianti bo‘lib, LSTM arxitekturasini soddalashtiradi va shunday ishlash davomiyligini saqlaydi. Ular vaqtinchalik shablonlarni olishda samarali va kamroq hisoblash resurslarini talab qiladi.



Arxitektura: GRU modeli LSTMga o‘xshash tarzda qurilgan bo‘lib, qatlamlari ketma-ket kiritilgan ma’lumotlarni qayta ishlash uchun mo‘ljallangan. GRUlar ma’lumotlar oqimini boshqarish uchun eshik mexanizmlaridan foydalanadi, bu ularni samarali va mustahkam qiladi (2-rasm).

2-rasm. RNN(a), LSTM(b) va GRU(c) larning arxitekturalari ko‘rinishi

Trening: GRU modeli tarmoq trafigini bashorat qilish va anomaliyalarni aniqlash maqsadida bir xil ma’lumotlar to‘plamida o‘qitildi. O‘quv jarayoni LSTM modelida qo‘llaniladiganlarga o‘xshash optimallashtirish usullarini o‘z ichiga oladi.

Prognozning aniqligi: Ikkala model ham kelajakdagi tarmoq trafigini bashorat qilishda yuqori aniqlikni namoyish etdi. LSTM modeli uzoq muddatli bog‘liqliklarni eslab qolish qobiliyatiga ega bo‘lib, aniqligi bo‘yicha GRU modelidan biroz ustun keldi.

Ishlash ko‘rsatkichlari: Modellarni baholash uchun o‘rtacha mutlaq xato (MAE), ildiz o‘rtacha kvadrat xatosi (RMSE) va aniqlik kabi asosiy ishlash ko‘rsatkichlari ishlatiladi. Ikkala model ham past xato stavkalari va yuqori aniqlikni ko‘rsatdi, bu ularning tarmoq trafigini tahlil qilishda samaradorligini tasdiqlaydi.

Gradientni kuchaytirish - bu MLni kuchaytirishning bir turi. Bu ko‘p jihatdan keyingi model oldingi modellar bilan aralashtirilganda bashorat qilish xatolarini kamaytiradi degan tahminga tayanadi. Asosiy g‘oya, xatolarni minimallashtirish uchun kelgusi model uchun maqsadli natijalarni belgilashdir.

Xulosa

Tarmoq trafigi shablonlarini tushunish va bashorat qilish, anomaliyalarni aniqlash va tarmoq ish faoliyatini yaxshilash maqsadida chuqur o‘qitish usullaridan, xususan, Uzoq qisqa muddatli xotira (LSTM) tarmoqlari va Gated Recurrent Units (GRU) dan foydalaniladi. Ushbu usullar vaqt seriyalari ma’lumotlari uchun juda mos keladi va tarmoq trafigidagi vaqtinchalik bog‘liqligini qo‘lga kiritishi mumkin.

Modellashtirish vazifalari Google colab manbasidan foydalangan holda amalga oshiriladi. Neyron tarmoqni modellari turli rejimlar uchun ishlash imkoniyatlari tahlil qilinadi, tegishli diagrammalar tuziladi va modellashtirish natijalari namoyon qilinadi. Tahlil natijalariga asoslangan holda, tarmoq operatorlari va xizmat ko‘rsatuvchi provayderlar trafik shablonlarini tahlil qilish va bashorat qilish asosida xizmatlarni optimallashtirish, tarmoq o‘tkazuvchanligini samarali rejalashtirish, shuningdek, foydalanuvchi tajribasini oshirishga erishishlari mumkin. Bundan tashqari, sifat ko‘rsatkichlarini foydalanuvchilarga tushunarli ko‘rinishda yetkazish va xizmat darajasi bo‘yicha kelishuvlarni (SLA) shakllantirishda ham ushbu yondashuvlar amaliy ahamiyat kasb etadi.

Foydalanilgan adabiyotlar ro‘yxati

1. Understanding Traffic Patterns, by M. Zekovic‘/ https://confluence.netvizura.com/display/NUG42/Understanding+Traffic+Patterns (on-line access, 20.04.2025)
2. S. Fu-ke, Z. Wei, C.Pan, An Engineering Approach to Prediction of Network Traffic Based on Time Series Model (IEEE, 2009) 978-0-7695-3615-6.
3. Waqas Rehan, Stefan Fischer, Maaz Rehan, Mubashir Husain Rehmani, A comprehensive survey on multichannel routing in wireless sensor networks, Journal of Network and Computer Applications, Vol.95, 2017, pp. 1-25, ISSN 1084-8045/ https://doi.org/10.1016/j.jnca.2017.07.006.
4. ITU-T. Y.1540 : Internet protocol data communication service - IP packet transfer and availability performance parameters. This Recommendation was first approved and published as I.380, and then renumbered as Y.1540 on 2000-03-10.
5. Understanding Autoregressive Integrated Moving Average (ARIMA)/ https://www.investopedia.com/terms/a/autoregressive-integrated-moving-average-arima.asp
6. Forecasting: Principles and Practice (3rd ed)/Rob J Hyndman and George Athanasopoulos, Monash University, Australia/Chapter 9. ARIMA models/ https://otexts.com/fpp3/arima.html
7. Y. ning Dong, Novel feature selection and classification of Internet video traffic based on a hierarchical scheme/Comput. Networks, vol. 119, pp. 102– 111, 2017.
8. Open data. RNN vs LSTM vs GRU vs Transformers. Posted: 06 Jan, 2025/https://www.geeksforgeeks.org/rnn-vs-lstm-vs-gru-vs-transformers/
9. D.M.Divakaran, L.Su, Y.S. Liau, V.L. Vrizlynn, ‘SLIC: Self-Learning Intelligent Classifier for network traffic’/Comput. Networks, vol. 91, pp. 283–297, 2015. https://www.researchgate.net/publication/316900016

COVID DAVRIDAGI MA’LUMOTLARNI BOSHQARISHNI TAKOMILLASHTIRISH BO‘YICHA NOANIQ KO‘P MEZONLI QARORLARNI QABUL QILISH

Vaydullayeva M.F. mahbub_f@mail.ru
Raqamli texnologiyalar va su’niy intellektni rivojlantirish ilmiy-tadqiqot instituti
Primova X.A. primova@samtuit.uz
Muhammad al-Xorazmiy nomidagi Toshkent axborot texnologiyalari universiteti Samarqand filiali

Annotatsiya: Covid davrida asosiy tibbiy buyumlardan foydalanishni sezilarli darajada oshirdi, natijada tibbiy asbob-uskunalarni xavfsiz va ekologik jihatdan mas’uliyatli boshqarish uchun barqaror yo‘q qilish usullari bo‘yicha keng qamrovli tadqiqotlar o‘tkazishga turtki bo‘ldi. Ushbu ko‘p qirrali muammoni hal qilish ko‘p mezonli qarorlar qabul qilish doirasiga kiradi. Ushbu tadqiqot iqtisodiy, texnologik, ekologik va ijtimoiy omillarni hisobga olgan holda, tibbiy mutaxassislarning fikrlarini birlashtirish va noravshan afzalliklarni tanlash indeksi usuli.

Kalit so‘zlar: Covid, Dombey Bonferroni operator, noravshan, tasniflash, ko‘p mezonli qarorlar, normalizatsiya, alternativ.

I. Kirish

Covid davridagi ma’lumotlarni boshqarishni murakkab muammolarda noravshan vaziyatlarni hal qilish uchun ushbu strategiyadan foydalanish maqsadga muvofiq bo‘lishi mumkin Onden va boshqalar [1]. Ushbu ishchi guruh qarorlari uchun noravshan imtiyozlarni tanlash indeksi, masofadan aniq yechimgacha bo‘lgan alternativalar reytingi va o‘rtacha noravshan Dombey Bonferroni operatorini o‘z ichiga olgan gibrid ko‘p mezonli qarorlar qabul qilish strategiyasidan foydalanadi va ko‘p o‘lchovli ma’lumotlar to‘plamida tibbiy ma’lumotlarni boshqarishni usullarini tanlashni o‘rganadi [5].

II. Tibbiy ma’lumotlarni tasniflash va ajratish

Annotatsiya: Ushbu maqolada idoralararo integratsiya tushunchasi va uning davlat boshqaruvidagi ahamiyati shuningdek boshqa vazirlik tashkilotlar ma’lumotlari asosida soliq hisobotlarini haqqoniy va to‘g‘ri topshirilishi tashqi manba ma’lumotlari asosida soliq to‘lovchilarning hisobotlarini to‘liq avtomatlashtirilib inson omilini kamaytirish orqali davlat byudjetiga tushumlarni oshirish ko‘rsatib berilgan.

Kalit so‘zlar: soliq munosabatlari, axborot kommunikatsiya texnologiyalari, korrupsion omillar, idoralararo integratsiya, tashqi manba, axborot tizimlari, metodologik asoslar.

O‘zbekiston iqtisodiyotining raqamli iqtisodiyotga o‘tish jarayonida, soliq siyosatining samarali tashkil etish va raqamlashtirish tadbirkorlik subyektlari uchun muhim omil hisoblanadi. Shu bilan birga, soliq to‘lovchilarining raqamli ko‘nikmalarini yaxshilash, raqamli ma’lumotlarni boshqarishda yangi yechimlarni joriy etish va mamlakatimizda yashirin iqtisodiyotni kamaytirish muammoli masalalar sifatida qolmoqda.

“Raqamli O‘zbekiston – 2030” strategiyasiga muvofiq[4], O‘zbekistonning barcha sohalarda, jumladan soliq sohasida ham, raqamli transformatsiyani amalga oshirish rejalashtirilgan. Strategiyaning asosiy maqsadi mamlakatni raqamli texnologiyalar asosida yangilash hamda shu orqali iqtisodiyotning samaradorligini, shaffofligini va raqobatbardoshligini oshirishdir. Strategiya doirasida soliq sohasidagi muammolarni hal etish va ularni raqamli transformatsiya jarayoniga integratsiya qilish, nafaqat soliq

[4] “Raqamli O‘zbekiston — 2030” strategiyasini tasdiqlash va uni samarali amalga oshirish chora-tadbirlari” to‘g‘risida O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining Farmoni, 05.10.2020 yil, PF-6079-son.

sohasining, balki butun iqtisodiyotning raqobatbardoshligini oshirishga xizmat qiladi. Bu, o‘z navbatida, “Raqamli O‘zbekiston – 2030” strategiyasining asosiy maqsadlaridan biri - mamlakatni raqamli rivojlanishning yangi bosqichiga olib chiqishga yordam beradi.

Dunyoda moliyaviy oqimlarning notekis harakatida soliq to‘lashdan qochishning turli xil yo‘llarini izlash va undan soliq to‘lovchilar o‘z manfaatlari yo‘lida foydalanish holatlari tez-tez uchramoqda. Birlashgan Millatlar Tashkiloti qoshidagi Savdo va taraqqiyot konferensiyasi hisob-kitoblariga ko‘ra, “rivojlanayotgan mamlakatlar-yiliga 100 milliard AQSh dollari miqdoridagi moliyaviy resurslarni “foydani o‘tkazish” amaliyoti tarzida noqonuniy tarzda boshqa hududlarga o‘tkazib, milliy iqtisodiyot doirasida soliqdan qochish holatlarini keltirib chiqarmoqda”.[5]

Soliq munosabatlari davlat moliyaviy siyosatining eng muhim tarkibiy qismlaridan biri bo‘lib, ular quyidagi tamoyillar asosida tashkil etiladi:

Majburiylik — soliqlar to‘lovchilar tomonidan davlatga majburiy tarzda to‘lanadi;

Biryoqlamalik — soliq to‘lovchi soliq to‘lagani evaziga bevosita xizmat olmaydi;

Normativlik — soliqlar qonun hujjatlari asosida undiriladi;

Adolatlilik — soliq yukining aholining moliyaviy ahvoliga mos taqsimlanishi.

Soliq munosabatlarining ishtirokchilari — bu munosabatlarda faol ishtirok etuvchi subyektlar bo‘lib, ular quyidagilardan iborat:

Davlat — soliqlarni belgilovchi, yig‘uvchi va nazorat qiluvchi asosiy subyekt. Davlat nomidan bu funksiyalarni Soliq qo‘mitasi va uning hududiy bo‘linmalari amalga oshiradi.

Soliq to‘lovchilar — yuridik va jismoniy shaxslar bo‘lib, qonunchilikda belgilangan soliqlarni o‘z vaqtida va to‘liq to‘lashga majburdir.

Vositachilar — auditorlik tashkilotlari, banklar, notariuslar va boshqa soliq ma’lumotlariga xizmat ko‘rsatuvchi subyektlar.

Ular o‘rtasidagi huquq va majburiyatlar Soliq kodeksi, boshqa normativ-huquqiy hujjatlar orqali tartibga solinadi.

Hozirgi davrda davlat boshqaruvi tizimida samaradorlikni oshirish, resurslardan oqilona foydalanish va fuqarolarga ko‘rsatilayotgan xizmatlar sifatini yaxshilash maqsadida idoralararo integratsiyaning ahamiyati tobora ortib bormoqda. Axborot texnologiyalarining jadal rivojlanishi, raqamli transformatsiya jarayonlari va ochiq ma’lumotlar konsepsiyasi davlat idoralari o‘rtasida o‘zaro hamkorlikning yangi bosqichga ko‘tarilishiga zamin yaratmoqda. Ushbu maqolada idoralararo integratsiyaning nazariy asoslari, turlari, davlat boshqaruvidagi roli, amaliy tajribalari, muammolari va ularni hal etish yo‘llari keng yoritiladi.

Idoralararo integratsiya – bu turli davlat organlari va muassasalarining o‘zaro axborot almashinuvi, xizmatlar ko‘rsatishda hamkorlik qilish va yagona maqsadlarga erishish yo‘lida koordinatsiyalashgan faoliyat yuritishidir. Integratsiya natijasida idoralar bir-biri bilan uzviy bog‘langan tizim sifatida faoliyat yuritadi. Bu esa qarorlar qabul qilish jarayonini tezlashtiradi, resurslardan unumli foydalanishni ta’minlaydi va davlat boshqaruvining sifatini oshiradi.

Idoralararo integratsiya quyidagi yo‘nalishlarda amalga oshiriladi:

Axborot texnologiyalari asosida ma’lumot almashish;

Normativ-huquqiy asoslarni uyg‘unlashtirish;

Boshqaruv funksiyalarini qayta taqsimlash;

Davlat xizmatlarini yagona markazdan ko‘rsatish.

Axborot tizimlari integratsiyasi – bu idoralar o‘rtasida axborot texnologiyalaridan foydalangan holda real vaqt rejimida ma’lumot almashish imkonini beradi. Bu turdagi integratsiya davlat xizmatlarini avtomatlashtirish, hisobotlarni qisqartirish va xatoliklarni kamaytirish imkonini yaratadi.

[5] Организация Объединенных Наций. A/HRC/31/61.GE.16-00535 (R), 020216. Окончательное исследование по вопросу о незаконных финансовых потоках, правах человека и Повестке дня в области устойчивого развития на период до 2030 года Независимого эксперта по вопросу о последствиях внешней задолженности и других соответствующих международных финансовых обязательств государств для полного осуществления всех прав человека,в частности, экономических, социальных и культурных прав.

Tashkiliy integratsiya – turli davlat idoralari vazifalari va vakolatlarini aniq belgilash orqali bir-birini takrorlaydigan funksiyalarni qisqartirishga xizmat qiladi. Bu jarayon idoralar o‘rtasida vazifalarning qayta taqsimlanishini, yangi ish uslublarining joriy etilishini talab qiladi.

Huquqiy integratsiya – davlat idoralari o‘rtasidagi hamkorlik qonunchilik bilan tartibga solinishi lozim. Bunda ma’lumotlar almashish, vakolat doirasi, javobgarlik kabi masalalar yuridik jihatdan mustahkamlanadi.

Institutsional integratsiya – bu mavjud tashkilotlar bazasida yangi institutlar, qo‘shma ishchi guruhlar, komissiyalar tashkil etishni nazarda tutadi. Ular integratsiyani boshqarish va muvofiqlashtirishda muhim rol o‘ynaydi.

Asosan maqolamizda axborot tizimlari integratsiyasi e’tibor qaratamiz. Bu turli tashkilotlar va idoralar tomonidan foydalanilayotgan axborot tizimlarini yagona muhitga birlashtirish, ularning o‘zaro real vaqt rejimida ma’lumot almashishini ta’minlash jarayonidir. Bu jarayon orqali idoralar o‘z faoliyatlarini muvofiqlashtirib, takroriy ma’lumot yig‘ishdan voz kechadi, xizmatlar avtomatlashtiriladi, inson omiliga bog‘liq xatoliklar kamayadi.

Axborot tizimlari integratsiyasining **asosiy texnik komponentlari** quyidagilardan iborat:

API (Application Programming Interface) – turli dasturiy ta’minotlar o‘rtasida ma’lumotlar almashuvini soddalashtiruvchi interfeyslar.

Yagona ma’lumotlar markazi (data hub) – barcha idoralarning ma’lumotlar bazalarini birlashtiruvchi markaziy tizim.

Web-servislar va SOAP/REST protokollari – dasturlar o‘rtasida internet orqali xavfsiz ma’lumot uzatishni ta’minlovchi texnologiyalar.

Ma’lumot formatlari standartlari (XML, JSON) – ma’lumotlar almashuvini unifikatsiyalash uchun belgilangan formatlar.

Ushbu komponentlar o‘zaro uyg‘un ishlaganda davlat xizmatlarining avtomatlashtirilgan va integratsiyalashgan muhitini yaratadi. Masalan, fuqaroning tug‘ilganlik haqidagi guvohnomasi Adliya vazirligi tizimida yaratilgach, avtomatik tarzda Soliq qo‘mitasi va boshqa idoralarga uzatiladi.



Axborot tizimlari integratsiyasining afzalliklari quyidagicha:

Operativlik – Ma’lumotlarni izlash va qayta ishlash vaqti keskin qisqaradi.

Ishonchlilik – Inson xatoliklarining oldi olinadi, axborot yagona manbadan olinadi.

Shaffoflik – Davlat organlari faoliyati ustidan monitoring qilish imkoniyati kengayadi.

Tahlil qilish imkoniyatlari – Yagona ma’lumotlar bazasi asosida strategik qarorlar uchun real tahlil qilish imkoniyati yaratiladi.



Integratsiyaning foydalari bu - boshqaruv qarorlarini qabul qilishda tezkorlik va aniq ma’lumotlar, mehnat samaradorligining oshishi va eng kattalaridan biri resurslar tejash (vaqt, inson, moddiy) hisoblanadi.

O‘zbekistonda axborot tizimlari integratsiyasi bo‘yicha amalga oshirilayotgan ishlarga nazar soladigan bo‘lsak, O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining bir qator qaror va farmonlarida axborot tizimlari integratsiyasi alohida e’tirof etilgan. Jumladan:

O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining “O‘zbekiston respublikasi davlat soliq xizmati idoralari axborot-kommunikatsiya tizimi faoliyati samaradorligini yanada oshirish chora-tadbirlari to‘g‘risida” 2012-yil 30-oktyabrdagi qarori qabul qilingan. Mazkur qaror soliq tizimida soliq va boshqa majburiy to‘lovlar tushumini hisobga olish hamda nazorat qilish darajasini oshirishga, soliq tushumlarining qo‘shimcha manbalarini aniqlash va soliq to‘lashdan bo‘yin tovlashning oldini olishga, shuningdek soliq to‘lovchilar uchun ko‘rsatilayotgan interaktiv xizmatlar turini kengaytirish hamda sifatini oshirishga yo‘naltirilgan davlat soliq xizmati idoralari axborot-kommunikatsiya tizimini yanada rivojlantirish va faoliyat samaradorligini oshirish nazarda tutilgan.

Aynan shu qaror asosida Soliq qo‘mitasi boshqa vazirliklar va idoralar, shuningdek, mahalliy davlat hokimiyati organlari o‘rtasida soliqqa tortish masalalarida, jumladan, aloqa kanallari orqali elektron axborot almashuvini tashkil etish rasman boshlangan.

Shuningdek, soliq idoralarining yagona integratsiyalashtirilgan axborot resurs bazasini shakllantirish bosqichma-bosqich ishlar amalga oshirildi:

birinchi bosqich (2013-yil 1-yanvargacha) — barcha hududiy davlat soliq inspeksiyalarining axborot bazasini markaziy ma’lumotlar bazasiga integratsiyalashtirildi;

ikkinchi bosqich (2015-yil 1-yanvargacha) — soliq to‘lovchilar majburiyatlarining paydo bo‘lishi (to‘xtatilishi) bo‘yicha vazirliklar va idoralarning ma’lumotlar bazasini Soliq qo‘mitasining ma’lumotlar yagona axborot bazasiga integratsiyalashtirish ishlari amalga oshirildi.

O‘zbekistonda raqamli transformatsiya jarayonlari tez sur’atlar bilan amalga oshirilmoqda. Ayniqsa, soliq tizimi sohasi elektron axborot tizimlarini joriy etishda yetakchi sohalardan biriga aylandi. Biroq, soliq organlarining yagona va to‘liq axborotga ega bo‘lishi uchun boshqa davlat idoralari bilan uzluksiz va avtomatlashtirilgan axborot almashinuvini tashkil etish zarur. Shu bois, Soliq qo‘mitasi uchun tashqi manba axborot tizimini ishlab chiqish dolzarb masalaga aylandi.

Soliq qo‘mitasi tomonidan soliq ma’murchiligi raqamlashtirish jadal ravishda ishlar olib borilmoqda. Shuningdek, dastlabki eng katta qadamlardan biri bu tashqi manba axborot tizimini ishlab chiqilishi hisoblanadi.

Integratsiyaning davlat boshqaruvidagi asosiy vazifalari:

Ijtimoiy xizmatlar sifati va tezligini oshirish. Bunda fuqarolar turli idoralarga murojaat qilmasdan, yagona portal orqali hujjat topshiradi.

Masalan: tug‘ilganlik haqida guvohnoma, nikoh, pensiya tayinlash, soliq hisoboti.

Idoralararo ma’lumotlar almashinuvini avtomatlashtirish. Bu orqali Soliq qo‘mitasi, Ichki ishlar vazirligi, Sud, Adliya vazirligi, Bojxona qo‘mitasi va boshqa davlat idoralar real vaqt rejimida ma’lumot almashadi. Bu byurokratiyani kamaytiradi va korrupsion xavflarni yo‘qotadi.

Qaror qabul qilishda ishonchli analitik axborot bazasi. Raqamli ma’lumotlar tahlili asosida siyosiy, ijtimoiy va iqtisodiy strategiyalar ishlab chiqiladi.

Misol: ishsizlik darajasini real ko‘rsatkichlar asosida aniqlash va choralar ko‘rish.

Nazorat va monitoring tizimining kuchayishi. Soliq to‘lovchilarning faoliyati, bojxona to‘lovlari, subsidiya oluvchilar kabi holatlar avtomatik kuzatib boriladi. Bu davlat budjetining maqsadli va samarali sarflanishiga xizmat qiladi.

Integratsiyani raqamli davlat boshqaruviga yo‘l desak ham bo‘ladi. Misol tariqasida aytadigan bo‘lsak, Yagona identifikatsiya tizimi bu fuqaroning barcha ma’lumotlari yagona shaxsiy identifikator orqali aniqlanadi.

Yagona interaktiv davlat xizmatlari portali (my.gov.uz) 300+ dan ortiq xizmatlar yagona platformada mavjud. Mazkur har bir xizmatni soliq, adliya, ichki ishlar, notarius va boshqa idoralar bilan integratsiya asosida ko‘rsatadi.

Adabiyotlar ro‘yxati:

1. O‘zbekiston Respublikasi Soliq kodeksi (yangi tahrir). – T.: Adolat, 2020.
2. O‘zbekiston Respublikasi Respublikasi Prezidentining “Raqamli O‘zbekiston — 2030” strategiyasini tasdiqlash va uni samarali amalga oshirish chora-tadbirlari” to‘g‘risida 05.10.2020 yil, PF-6079-sonli Farmoni.
3. Организация Объединенных Наций. A/HRC/31/61.GE.16-00535 (R), 020216. Окончательное исследование повопросу о незаконных финансовых потоках, правах человека и Повестке дня в области устойчивого развития на период до 2030 года Независимого эксперта по вопросу о последствиях внешней задолженности и других соответствующих международных финансовых обязательств государств для полного осуществления всех прав человека,в частности, экономических, социальных и культурных прав.
4. O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining “Soliq ma’muriyatchiligini tubdan takomillashtirish chora-tadbirlari to‘g‘risida”gi qarori. PQ–4851-son, 2020-yil 30-sentabr. // https://https://lex.uz/uz/docs/-4415356
5. O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining “Soliq ma’muriyatchiligini takomillashtirish bo‘yicha qo‘shimcha chora-tadbirlar to‘g‘risida” qarori PQ-4389-son, 2019-yil 10-iyul. // https://lex.uz/docs/5031085
6. O‘zbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasining “Yuridik shaxslar, faoliyatini vakolatxona, filial yoki doimiy muassasa orqali amalga oshirayotgan chet el yuridik shaxslari va tadbirkorlik faoliyati bilan shug‘ullanuvchi jismoniy shaxslar to‘g‘risidagi ma’lumotlarni yig‘ish, qayta ishlash va saqlash mexanizmlarini yanada takomillashtirish chora-tadbirlari to‘g‘risida”gi qarori. 539-son, 2020-yil 4-sentabr. // https:// lex.uz/docs/-4980337
7. Soliq qo‘mitasi axborot portali. – https://soliq.uz

O'ZBEKISTONDA YASHIL LOGISTIKANI RIVOJLANTIRISHDA RAQAMLI TEXNOLOGIYALARNING ROLI: XALQARO TAJRIBA VA MILLIY IMKONIYATLAR.

Azimova Moxinur Nozimovna
Andijon davlat texnika instituti
"Buxgalteriya hisobi va Menejment kafedrasi"
Stajor-o'qituvchi
mohinurazimova20@gmail.com

Annotatsiya. Ushbu tezisda zamonaviy raqamli texnologiyalarning yashil logistikani shakllantirishdagi roli tahlil qilinadi. Germaniya, Singapur, Shvetsiya va Xitoy kabi ilg'or davlatlar tajribasi asosida raqamlashtirish orqali transport va ta'minot tizimlarining ekologik samaradorligini oshirish mexanizmlari yoritilgan. O'zbekiston sharoitida logistikani raqamlashtirishga doir amaliy tashabbuslar, mavjud cheklovlar hamda institutsional va texnologik omillar baholangan.

Butun dunyoda yuz berayotgan iqlim o'zgarishi hamda ekologik xavflar mamlakatlar iqtisodiyotini boshqrishda yangicha yondashuvlarni talab qilmoqda. Bunday yondashuvlardan biri yashil iqtisodiyot bo'lib, u tabiatni asrash, issiqxona gazlari chiqindilarini kamaytirish va resurslardan barqaror foydalanishga ustuvor ahamiyat beradigan rivojlanish modelidir. Yashil iqtisodiyotning asosiy farqi shundaki, u atrof-muhitga zarar yetkazmasdan o'sishga intiladi, shu bilan birga barcha uchun teng iqtisodiy imkoniyatlar yaratadi. "Yashil iqtisodiyot" atamasi birinchi marta 1989-yilda Buyuk Britaniya hukumati buyurtmasiga binoan britaniyalik iqtisodchilar Devid Pirs, Anil Markandiya va Edvard Barbe tomonidan tayyorlangan "Yashil iqtisodiyot uchun ko'k yozuv" ma'ruzasida tilga olingan[6].

O'z navbatida, yashil logistika ushbu kengroq tushunchaning bir qismidir. Yashil logistka atrof-muhitga salbiy ta'sirni kamaytiradigan butun bir ta'minot zanjirini boshqarish tizimidir. Bunga bo'sh reyslarni qisqartirish, ekologik toza transportdan foydalanish, resurslarni samarali taqsimlash va yetkazib berish yo'nalishlarini optimallashtirish kabi yechimlar kiradi. Xalqaro energetika agentligi (IEA) ma'lumotlariga ko'ra, global CO2 emissiyasining qariyb 24 foizi transport va logistika sohasiga to'g'ri keladi va bu ulush o'sishda davom etmoqda. Shu bilan birga, BMTning "Barqaror rivojlanish maqsadlari va Parij kelishuvi" kabi xalqaro majburiyatlar mamlakatlar va korporatsiyalardan yanada barqaror qarorlarni talab qiladi. Hukumatlar, xalqaro tashkilotlar va biznes CO2 chiqindilarini kamaytirish va samaradorlikni oshirishga intilmoqda. Logistika bu ma'noda "ekologiyani ifloslantiruvchi" sohalardan biri, shuning uchun uni yashil logistikaga aylanlashtirishga tobora ko'proq e'tibor qaratilmoqda. Bugungi kunda yashil logistika sohasida tan olingan jahon yetakchilari Fransiya, Buyuk Britaniya, Germaniya, Shvetsiya, Avstriya davlatlari hisoblanadi. Bu mamlakatlar qat'iy ekologik standartlar, barqaror infratuzilmaga sarmoya kiritish va logistikaga raqamli texnologiyalarni faol joriy etish orqali oldinga siljidi. Ular global kun tartibini belgilaydi va xalqaro miqyosda muvaffaqiyatli tajribalar bilan o'rtoqlashadi[7]. 2060-yilgacha uglerod neytralligiga erishish bo'yicha umumiy milliy strategiya doirasida yashil logistikani jadal rivojlantirayotgan Xitoyni ham ta'kidlash joiz.

Bugungi kunda O'zbekiston sanoatni faol rivojlantirmoqda, bu esa yuk tashish hajmining oshishiga olib kelmoqda. Ekologiyaga e'tibor kuchayib borayotgan bir paytda, chiqindilarni kamaytirish va logistikani optimallashtirishga yordam beradigan aqlli, ekologik toza yechimlarga ehtiyoj paydo bo'lmoqda. Hukumat tomonidan qiziqish. So'nggi yillarda barqaror rivojlanish milliy strategiyaning bir qismiga aylanib bormoqda, bu esa me'yoriy bazani shakllantirish va ekologik tashabbuslarni qo'llab-quvvatlashga turtki bermoqda. Xususan, "2019 — 2030-yillar davrida O'zbekiston Respublikasining "yashil" iqtisodiyotga o'tish strategiyasini tasdiqlash to'g'risida"gi mamlakatimiz Prezidentining qaroriga asosan transport sohasida quyidagilar belgilandi:

transport xarajatlarini qisqartirish va transport sohasining samarali faoliyatini ta'minlashga qaratilgan yagona kompleks rivojlanish siyosatini shakllantirish, shaharni uzoq muddatli rivojlantirish rejalari va ekologik xavfsizlik choralariga muvofiq "yashil" transportni rivojlantirish;

[6] https://greenly.earth/en-us/blog/company-guide/green-economy
[7] https://www.grandviewresearch.com/industry-analysis/green-logistics-market-report

Yevro-4 va undan yuqori standartlarga mos keluvchi energiya samaradorligi va ekologik tavsiflari yaxshilangan avtotransport vositalari, elektromobillar, gibrid dvigatelli avtomobillar va gaz yoqilg‘isida ishlaydigan avtomobillar ishlab chiqarish va ulardan foydalanishni kengaytirish;

yaxshilangan tavsifga ega motor yonilg‘ilarini ishlab chiqarish;

avtotransport parkini yangilashda davom etish, eski avtomobillarni utilizatsiya qilish va yangi, yanada ekologik avtomobillarni sotib olishni rag‘batlantiruvchi dasturlarni ishlab chiqish;

jamoat transportining samarali tizimlarini yaratish va takomillashtirish (yaxshilangan tavsifga ega jamoat transporti ulushini oshirish);

yangi transport-logistika tizimlarini yaratish va rivojlantirish, yo‘l infratuzilmasini rivojlantirish;

foydalanilayotgan transport vositalarining ekologik holati ustidan davlat nazoratini kuchaytirish.[8]

Raqamli texnologiyalar uglerod izini kamaytirish, ta’minot zanjirlarining samaradorligi va barqarorligini oshirish orqali yashil logistikani rivojlantirishda asosiy vositaga aylanmoqda [1]. Ushbu sohadagi jahon yetakchilari ekologik toza logistikaga intilayotgan mamlakatlar, jumladan, O‘zbekiston uchun yo‘nalish bo‘lib xizmat qilishi mumkin bo‘lgan innovatsiyalarni joriy etishning muvaffaqiyatli namunalarini ko‘rsatmoqdalar.

Bugungi kunda yashil logistikani raqamlashtirish bo‘yicha jahon yetakchilarining tajribalari bilan tanishib chiqsak:

Xitoyda Cainiao va logistikani kompleks raqamlashtirish. Xitoyning Cainiao kompaniyasi Alibaba sho‘ba korxonasi bo‘lib, logistika jarayonlarini optimallashtirish uchun ilg‘or texnologiyalarni joriy etmoqda. Datchiklar, GPS va kameralardan foydalanish yuklarni real vaqt rejimida kuzatish imkonini beradi, bu esa yetkazib berish vaqtini qisqartiradi va yo‘qotishlarni kamaytiradi. Elektron transport yukxatlari qog‘ozni tejash va CO2 chiqindilarini kamaytirishga yordam beradi. Bundan tashqari, Cainiao xalqaro logistika tarmog‘ini faol rivojlantirib, tovarlarni butun dunyo bo‘ylab eng qisqa vaqt ichida yetkazib berishni ta’minlamoqda.[9]

Singapurda “Virtual Singapur” va shaharning raqamli egizagi.”Virtual Singapur” loyihasi infratuzilmani rejalashtirish, transport oqimlarini optimallashtirish va ekologik ko‘rsatkichlarni kuzatish uchun ishlatiladigan shaharning yuqori aniqlikdagi 3D modelidir. Ushbu raqamli egizak shahar rivojlanishining turli ssenariylarini modellashtirish, shahar muhitining barqarorligi va samaradorligini oshirish imkonini beradi [3].

Shvetsiyada Einride va yuk tashishni elektrlashtirish. Shvetsiyaning Einride kompaniyasi elektr yuk mashinalari va avtonom transport vositalarini joriy etib, issiqxona gazlari chiqindilarini kamaytirmoqda va energiya samaradorligini oshirmoqda. Mars va PepsiCo kabi yirik kompaniyalar bilan hamkorlik ushbu texnologiyalarni real sharoitlarda muvaffaqiyatli qo‘llashni ko‘rsatadi.[10]

Janubiy Koreyada aqlli energiya tarmoqlari va AT integratsiyasi. Janubiy Koreya energiya ta’minotining barqarorligi va samaradorligini oshirish uchun axborot texnologiyalarini birlashtirgan holda aqlli energiya tarmoqlarini faol rivojlantirmoqda. Jumladan, talabni intellektual boshqarish, qayta tiklanuvchi energiya manbalaridan foydalanish, maishiy va sanoat sohalarida aqlli qurilmalarni joriy etish [4].

O‘zbekistonda logistika sohasida raqamli texnologiyalarni joriy etishning hozirgi holati va istiqbollarini o’rganadigan bo’lsak, O‘zbekiston logistika sohasini raqamlashtirish choralarini ko‘rmoqda, uning samaradorligi va ekologik tozaligini oshirishga intilmoqda. O‘zbekistonning “yashil” logistika yo‘lidagi imkoniyatlaridan biri geografik joylashuvida ko’rishimiz mumkin. O‘zbekiston Sharq va G‘arb o‘rtasidagi asosiy savdo yo‘llari chorrahasida joylashgan. Bu mamlakatni barqaror logistika xabini yaratish uchun istiqbolli maydonga aylantiradi. Shuningdek, davlatimiz transport tizimini modernizatsiya qilishga faol sarmoya kiritmoqda, bu esa yashil texnologiyalarni joriy etish uchun yaxshi zamin yaratadi. So‘nggi yillarda barqaror rivojlanish milliy strategiyaning bir qismiga aylanib bormoqda, bu esa me’yoriy bazani shakllantirish va ekologik tashabbuslarni qo‘llab-quvvatlashga turtki berishi mumkin.

---

[8] https://lex.uz/docs/-4539502

[9] https://www.onlinemarketing-academy.com/blog/56/ecommerce/628/china-s-cainiao-is-revolutionizing-how-goods-get-delivered-will-the-rest-of-the-world-follow-its-rules

[10] https://time.com/collection/time100-climate-2024/

Biroq yashil logistikani tatbiq etishda bir qancha to’siqlar mavjud:

Ulardan biri cheklangan investitsiyalardir. Aksariyat rivojlanayotgan mamlakatlarda bo‘lgani kabi, ekologik loyihalarni moliyalashtirish cheklangan. Bu barqaror yechimlarga o‘tishni sekinlashtirishi mumkin.

Professional kadrlarning yetishmasligi. Yashil logistikani joriy etish zamonaviy texnologiyalar va standartlar bilan ishlay oladigan mutaxassislarni talab qiladi.

Normativlarning yo‘qligi. Hozircha mamlakatda “yashil” logistika amaliyotlari bo‘yicha aniq standartlar va talablar mavjud emas, bu esa ularni amalda qo‘llashni qiyinlashtiradi [5].

Ushbu to‘siqlarni yengib o‘tish uchun O‘zbekiston moliya, kadrlar tayyorlash va qonunchilik asoslarini yaratishni hisobga olgan holda yaxlit strategiyani ishlab chiqishi muhimdir. Yuqorida o’rganilgan jahon tajribalaridan kelib chiqib, quyidagi tavsiyalarni beramiz:

Mamlakatda logistika, ta’minot zanjirini boshqarish sohalarida raqamli infratuzilmani rivojlantirish zarur. Yuqori tezlikdagi internet va bulutli texnologiyalarni kengaytirishga yo‘naltirilgan investitsiyalar ilg‘or logistika yechimlarini joriy etish uchun asos yaratadi.

Logistika sohasi bo’yicha kadrlarni yetakchi davlatlarda o‘qitish va ularning bilimlarini rivojlantirish. Logistikada raqamli texnologiyalar bo‘yicha ta’lim dasturlarini yaratish mutaxassislarning malakasini oshiradi va innovatsiyalarni moslashtirishni tezlashtiradi.

Xususiy sektorlarni rivojlanturish hamda ular bilan hamkorlik o’rnatish lozim. Xalqaro kompaniyalar va startaplar bilan hamkorlik eng yaxshi amaliyot va texnologiyalarni o‘zlashtirish imkonini beradi.

Hukumat tomonidan tegishli me’yoriy bazani ishlab chiqish maqsadga muvofiq. Sun’iy intellekt, blokcheyn va boshqa texnologiyalardan foydalanish uchun aniq standartlar va qoidalarni yaratish huquqiy aniqlikni ta’minlaydi va investitsiyalarni rag‘batlantiradi.

Loyihalarni bosqichma-bosqich amalga oshirish zarur, shu bilan birga, tajriba loyihalarini va sinov hududlarini belgilab olish kerak. Muayyan hududlarda tajriba loyihalarini ishga tushirish yangi yechimlarning samaradorligini baholash va ularni mahalliy sharoitlarga moslashtirishga yordam beradi.

Xulosa o’rnida shuni ayta olamizki, barqaror rivojlanishning global tendensiyalari va dunyoning yetakchi mamlakatlarining to‘plangan tajribasi nuqtayi nazaridan, O‘zbekiston logistikasiga raqamli texnologiyalarni joriy etish shunchaki istak emas, balki strategik zarurat ekanligi ayon bo‘lmoqda. Yashil logistikaga o‘tish nafaqat mamlakatning transport va savdo infratuzilmasini modernizatsiya qilishga, balki ekologik yukni sezilarli darajada kamaytirishga, jarayonlarning shaffofligini oshirishga va xalqaro maydonda raqobatbardoshlikni kuchaytirishga qodir.

Avvalo, shuni ta’kidlash kerakki, zamonaviy raqamli infratuzilmasiz logistikaning barqaror rivojlanishi mumkin emas [2]. Germaniya, Singapur va Shvetsiya misollari shuni yaqqol ko‘rsatadiki, faqat texnologiyalarga tayangan holda - avtonom transport vositalaridan tortib raqamli egizaklar va blokcheyn tizimlarigacha - chiqindilarni kamaytirish, resurslarni tejash va yetkazib berish samaradorligini oshirishda o‘lchanadigan haqiqiy ekologik samaraga erishish mumkin.

O‘zbekiston uchun bu yo‘nalishdagi asosiy qadamlardan biri logistika jarayonlari ishtirokchilari o‘rtasidagi o‘zaro hamkorlikni soddalashtirish imkonini beruvchi E-logistika platformasining yaratilishi bo‘ldi. Biroq, ushbu vosita haqiqatan ham sohani “ko‘kalamzorlashtirishga” hissa qo‘shishi uchun uning funksionalligini rivojlantirish, jumladan, chiqindilarni kuzatish, yo‘nalishlarni intellektual boshqarish va mahsulotlarni raqamli kuzatish tizimlari bilan integratsiyalashuvini ta’minlash zarur. Bundan tashqari, bojxona tizimida sun’iy intellektdan foydalanishga e’tibor qaratish kerak, bu allaqachon yuklarni qayta ishlash vaqtini qisqartirishda o‘z samaradorligini isbotlagan. Ushbu yondashuvni boshqa logistika jarayonlariga - masalan, omborlarning yuklanishini bashorat qilish yoki ekologik xavfsiz yo‘nalishlarni tanlashda kengaytirish sezilarli natijalar beradi. Janubiy Koreya va Xitoy kabi mamlakatlar tajribasi ham yashil logistikani raqamlashtirish davlatning faol qo‘llab-quvvatlashisiz mumkin emasligini ko‘rsatmoqda.

Yashil logistikaga erishish uchun O‘zbekiston nafaqat alohida raqamli yechimlardan foydalanishi, balki texnologiyalar, infratuzilma, tartibga solish va inson kapitali uyg‘unlikda ishlaydigan tizimli yondashuvni yaratishi kerak. Bunday yo‘l sa’y-harakatlar, investitsiyalar va muvofiqlashtirishni talab qiladi, ammo u mamlakatning logistika sektorini barqaror iqtisodiy o‘sish drayveriga aylantirishga qodir.

Foydalanilgan adabiyotlar

1. Афанасенко И. Д., Борисова В. В. Цифровая логистика: Учебник для вузов. — СПб.:Питер, 2019. — С 26-27.
2. Г.И. Абдрахманова, К. Б. Быховский, Н. Н. Веселитская , Л. М. Гохберг Цифровая трансформация отраслей: стартовые условия и приоритеты: докл.к XXII Апр. Междунар. науч. конф. по проблемам развития экономики и общества, Москва 2021 г. С- 48-50.
3. Walker, Andy (May 4, 2023). "Singapore's digital twin – from science fiction to hi-tech reality". *infrastructure Global*. Retrieved January 14, 2024.
4. Bulkin, Bernie (2014-05-02). "South Koreans are leading the way in their vision for 'smart grid'". *the Guardian*. Retrieved 2018-08-20.
5. Karrieva Yakutjan Karimovna. (2024). STRATEGiES FOR ADVANCiNG GREEN LOGiSTiCS iN UZBEKiSTAN: OPPORTUNiTiES AND CHALLENGES. *American Journal of Business Management, Economics and Banking, 30,* 17–22. Retrieved from https://www.americanjournal.org/index.php/ajbmeb/article/view/2441
6. https://greenly.earth/en-us/blog/company-guide/green-economy
7. https://www.grandviewresearch.com/industry-analysis/green-logistics-market-report
8. https://lex.uz/docs/-4539502
9. https://www.onlinemarketing-academy.com/blog/56/ecommerce/628/china-s-cainiao-is-revolutionizing-how-goods-get-delivered-will-the-rest-of-the-world-follow-its-rules
10. https://time.com/collection/time100-climate-2024/

УЙ-ЖОЙ КОММУНАЛ ХИЗМАТЛАРНИ СИФАТИНИ ОШИРИШ ВА ТЎЛОВ ТИЗИМИНИ ЯХШИЛАШ МУАММОЛАРИ ТАҲЛИЛИ.

Азизов Лазиз Жаҳонгирович,
НДКТУ тадқиқотчиси

Кириш.

Ҳозирги кунда мамлакатимизда аҳолини ижтимоий ҳаётини янада яхшилаш бўйича кўплаб ишлар олиб борилмоқда. Айниқса кўп қаватли турар жой биноларида коммунал хизматлар сифатини оширишга қаратилган қарорлар ва уларнинг ижроси бунга яққол мисол бўла олади. Шаҳарларда аҳоли сонининг йилдан йилга кескин ўсиб бориши ва аҳолининг коммунал хизматларга талабларининг ошиб бориши соҳага эътиборни янада оширишни, янги ҳизматлар ва қулайликларни жорий қилинишини талаб этмоқда.

Аҳолидан кўрсатилган коммунал ҳизматлар тўловларини ундириш бўйича турли муаммоларга дуч килинмоқда, бу ҳам хизматларнинг сифатини пасайишига олиб келмоқда. Кўпгина ташкилотлар бу масалада қийинчиликларга учрамоқда ва молиявий ҳолатининг ёмонлашиши кузатилмоқда.

Коммунал ҳизматлар тўловларини ундиришда юзага келаётган муаммоларнинг маълум бир сабаблари хизмат нархларининг аҳоли даромадларига нисбатан қимматлиги келтириб чиқараётган ҳам бўлиши мумкин, шу сабабли уларнинг арзонлаштириш чораларини кўриш мақсадга мувофиқ.

Лойиҳанинг мақсади – Коммунал хизматлар сифатини асосий воситаларни янгилаш ва ҳолатини яхшилаш орқали ошириш, тўлов тизимини такомиллаштириш ва хизматлар нархларини пасайтириш йўлларини аниқлаш.

Лойиҳа вазифалари:

Коммунал хизматлар ва тўлов тизими сифати пастлигига олиб келган муаммоларни аниқлаш.

Коммунал хизматлар ва тўлов тизими сифати яхшилашни "Мантиқий рамка усули" орқали очиб бериш

Коммунал хизматлар ва тўлов тизими сифати яхшилашни "Мантиқий матрицаси" ни ишлаб чиқиш

Коммунал хизматлар асосий воситаларини оптимал ҳолатга келтириш тўлов тизимини аҳолига қулайлигини ошириш.

Коммунал хўжалиги ташкилотларининг молиявий ҳолатини яхшилаш ва ўз-ўзини молиялаштириш даражасига олиб келиш.

Лойиҳанинг амалий аҳамиятга эгалиги шундан иборатки, коммунал хизматлар кўрсатувчи ташкилотларнинг ишини оптималлаштиришга таклифлар бериш уларнинг фаолиятни, молиявий ҳолатини яхшилаш ва аҳолининг ижтимоий ҳаётини яхшилаш.

1. Коммунал хизматларни сифатини ошириш ва тўлов тизимини яхшилаш муаммоларини аниқлаш.

Шаҳар ҳудудларида халқимиз яшаш тарзининг яхшилиги коммунал хизматлар кўрсатаётган ташкилотларнинг хизмат даражаси билан узвий боғлиқ. Юқорида айтиб ўтилганидек, шаҳар аҳолисининг кескин ўсиб бориши ва ресурсларнинг чекланганлиги мутахасислардан бу соҳани такомиллаштиришни талаб қилмоқда.

Ўзбекистон Республикаси Президентининг 2023 йил 11- сентябрдаги “Ўзбекистон – 2030” стратегияси тўғрисида”ги ПФ-158-сон Фармонида “Ҳудудларда хизмат кўрсатиш ва сервис соҳаларини ривожлантириш орқали хизмат кўрсатиш ҳажмини 3 бараварга ошириш” бўйича чора-тадбир ишлаб чиқилиши айтилган11.

Республиканинг кўп тармоқли коммунал хўжалиги таркибида уй-жой хўжалигига хизмат кўрсатиш ва уни асраш, сув таъминоти ва канализация, иссиқлик ва газ таъминоти, аҳоли яшайдиган жойларни тозалаш билан шуғулланувчи техника ташкилотлари, шаҳар йўловчилар ташиш электр транспорти (трамвай, тролейбус, метрополитен), электр, газ ва тақсимловчи тармоқлар, шаҳар хўжалиги ободонлаштириш, саноат, таъмирлаш-қурилиш, лойиҳалаш корхоналари, ташкилотлари ва бошқалар мавжуд.

Республикада коммунал хизмат кўрсатиш агентлиги ва унинг тегишли вилоят, шаҳар, туман бўғинлари амалга оширади. Уларнинг фаолият доираси шаҳар ва шаҳарчалар, туман марказлари билан чегараланади. Айрим шаҳар ва шаҳарчаларда, қишлоқ жойларда коммунал хизмат кўрсатишни қишлоқ хўжалиги, йирик саноат корхоналари ва ташкилотлари ҳам амалга оширади.

Ҳозирги кунда коммунал ҳизматлар даражаси ўтган йилларга нисбатан анча сезиларли даражада яхшиланган. Лекин соҳанинг баъзи жабҳаларида камчиликларни кузатиш мумкин.

Шаҳримизнинг баъзи кисмларида иситиш тизими циркулясининг пастлиги, босим етарли даражада эмас. Бунинг асосий сабаблари насосларнинг носослиги ва трубалар ва радиаторларнинг эскирганлиги бўлиши мумкин. Бу эса ўз навбатида иситиш учун бошқа манбалардан, яъни электр энергиясидан фойдаланиш заруриятини келтириб чиқаради. Электр энергиясида иситиш асбобларининг электр истеъмоли жуда юқорилиги ҳисобидан муаммолар келиб чиқиши мумкин, жумладан, электр симларининг қизиб кетиши ва автоматик тарзда узилиши ёки электр етказиб берувчи трансформаторларнинг носоз ҳолатга келиб қолишига олиб келиши мумкин. Бунинг натижасида хизмат кўрсатувчи ташкилот катта зарар кўриши мумкин. Булардан ташқари кўп қаватли уйларнинг эксплутация даражасининг пастлиги, яъни ертўлаларнинг носозликлари ва подъездларнинг таъмирланганлик даражаларининг пастлиги турли хил салбий ҳолатларга олиб келиши мумкин. Ертўладан чиқаётган сув уйнинг чидамлилиги пасайтириб қолмасдан аҳоли томонидан шикоятларни келтириб чиқариб, тўловларни амалга оширишда салбий таъсир кўрсатади.

Тўлов тизимининг ноқулайликлари ва назорат даражасининг пастлиги катта эътиборни талаб этади. Тўлов инфраструктураси ҳозирги техника ривожланган давр учун хос эмас, яъни тўловларни қабул қилиш жараёнида керакли жиҳозлар билан жиҳозланганлиги ва онлайн тулов тизими мукаммал эмаслиги бунга яққол мисол.

Тўлов тизимининг назорати коммунал ташкилотлари томонидан катта эътиборсизлик билан қараб келинмоқда.

---

11 Ўзбекистон Республикаси Президентининг 2023йил 11- сентябрдаги “ Ўзбекистон – 2030 ” стратегияси тўғрисида”ги ПФ-158-сон Фармони.

2. Коммунал хизматларни сифатини ошириш ва тўлов тизимини яхшилаш муаммолари “Мантиқий рамка усулини ” тадбиқ қилиш.

Юқорида кўрсатилган камчиликлар ва уларни нимага олиб келишини «Мантиқий рамка усулини” (“Logıcal Framework Approach”) воситасида кўриб чиқишни ўз олдимизга қўйдик. «Мантиқий рамка усулини” (“Logıcal Framework Approach”) бу жуда кўплаб соҳаларда қўлланилиб келаётган восита бўлиб, лойиҳанинг асосий элементларини тасвирлаш учун кўплаб саволларга осон жавоб олиш мумкин, яъни нима, нима сабабдан қандай қилиб лойиҳани амалга ошириш мумкин. Тавсифлар 4х4 матрица шаклида тақдим қилиниши мумкин. «Мантиқий рамка усулини” (“Logıcal Framework Approach”) орқали лойиҳани амалга ошириш фақатгина мавжуд муаммоларни, мақсадларни ва стратегияни синчковлик билан ўрганган ҳолдагина мумкин бўлади. Бунинг учун бизга биринчи навбатда “муаммолар дарахт”и яратишимиз керак. Юқорида айтиб ўтилган камчиликларни инобатга олиб коммунал соҳада учраётган муаммоларни “муаммолар дарахт”и 1-расмда кўрсатилган.

1-расм. Муаммолар дарахти.



“Муаммолар дарахти” муаммолар ва сабаблар/натижалар ўртасидаги ўзаро муносабатларни ўрнатишга ёрдам беради. “Муаммолар дарахти” заруриятларга асосланган режалаштириш усули бўлиб, муаммоларни мақсадларга механик тарзда тўғридан тўғри ўтказиб қўйиш ҳисобланмайди. Жараён давомида бошқа зарурий чораларни қўллаш, янги ғоялар келиб чиқади. “Муаммолар дарахти” таҳлили «Мантиқий рамка усулини” (“Logıcal Framework Approach”) нинг режаларидан четга чиқиб кетмаслиги керак.

“Муаммолар дарахти” яратишнинг асосий қадамлари қуйидагилардан иборат:

Бир ёки иккита асосий муаммони аниқлаш;

Муаммоларнинг ўзаро алоқадорликларини аниқлаш;

Сабаб ва оқибатлар ўртасидаги ўзаро алоқаларни аниқлаш ва таҳлил қилиш;

Мантиқий жиҳатдан тўғрилигини текшириш;

“Муаммолар дарахти” диаграммасини чизиш.

Ушбу мезонларга асосан чизилган “муаммолар дарахти” (1-расм) дан кўришимиз мумкинки, маълум бир кичик сабаблар катта муаммолар натижасига айланган.

Юқоридаги “муаммолар дарахти” нинг муаммоларининг асосий коммунал хизмати кўрсатувчи ташкилотлар бўлиб, хизматлардан фойдаланувчиларнинг камчиликлари унчалик кўпни ташкил этмайди. Шу сабабли муаммоларни ҳал этишда асосан ташкилотларнинг фаолиятининг такомиллаштириш ва янгиликлар киритишга тавсиялар беришдан иборат.

Шуни айтиб ўтиш жоизки, “муаммолар дарахти” да кўрсатилган барча муаммоларни ҳам ҳал қилиш бўйича тавсияларга эга бўлмаслигимиз мумкин. Чунки баъзи муаммоларнинг ечими коммунал ташкилотларга ёки бўмасам хизматлардан фойдаланаётган аҳоли имкон доирасида бўлмаслиги мумкин.

1-расмда кўрсатилган муаммолар дарахтини осонлик билан ижобий томонга шакллантиришимиз мумкин, “мақсадлар дарахти”ни (2-расм) шакллантиришимиз мумкин.

2-расм.



Ушбу “мақсадлар дарахти”ни ишлаб чиқишдан мақсадлар қуйидагилардан иборат:

Таъсир қилиш мумкин бўлган мезонларга аниқ мақсадлар(потенциаллар)ни аниқлаш;

Лойиҳани рўёбга чиқариш учун тўғри келадиган стратегияни танлаш.

Кутилаётган натижаларга эришиш учун иситиш тизими циркуляциясини ошириш, босимни ошириш, тўлов инфраструктурасини яхшилаш, тўлов тизими назоратини ошириш, ертўлаларни соз ҳолатга келтириш, подъездларни таъмирланганлик даражасини ошириш каби омиллар асосан ташкилотнинг имкониятлари даражасидалиги кўришимиз мумкин.

Хизматларнинг нархларини арзонлаштириш масалалари амалий жиҳатдан ресурсларнинг нархлари билан бевосита боғлиқ, шу сабабли нархларнинг даражасини пасайтириш алоҳида ёндашувларни талаб қилади, нархларни кескин пасайтириш коммунал хизмат кўрсатувчи ташкилотларнинг имконият даражасида эмас. Ушбу кутилаётган натижани фақат фаразлар/рисклар қисмида кўриб ўтсак булади.

Шундай экан муаммоларни ечиш давомида бюджет, инсон ресурслари ва шунга мувофиқ омиллар асосланган қисмларга эътибор қаратиш лозим.

Лойиҳанинг ичида қоладиган ва лойиҳадан чиқадиган мақсадларнинг 3-расм орқали белгилаб оламиз.

Юқорида айтиб ўтилганидек лойиҳанинг ичидан чиқиб кетган қисмларнинг фаразлар/рискларда кўрсатилиши керак.



3. Коммунал хизматларни сифатини ошириш ва тўлов тизимини яхшилаш бўйича “Мантиқий рамка матрицасини ” ишлаб чиқиш.

Юқоридаги диаграммадан кўриниб турибдики, хизмат сифатини яхшилаш учун қишки мавсумга жиддий тайёргарлик кўриш лозим, жумладан, Насослар созлаш ва доимий назоратга олиш ва эскирган труба ва радиаторларни янгилаш коммунал ташкилотининг асосий вазифаларидан бирига киради.

Тўлов инфраструктурасини яхшилаш, яъни ташкилотга қўшимча савдо терминалларини жалб қилиш, ҳамда ҳозирги кунда жадал ривожланиб бораётган онлайн тизими тўловларини янада такомиллаштириш. Бунинг учун инфокиоскаларга коммунал туловлар бўйича модулларни қўшиш ва доимий ишларшини назорат қилиш ҳамда “click” тизимига коммунал туловларини тўлаш имкониятларни жорй қилиш аҳоли жуда катта қулайликлар яратишини назарда тутиш керак.

Тўловларнинг ўз вақтида ундирилиши асосан ташкилот ҳодимларинг назоратчи ходимларнинг билим савия ва муомала маданиятининг пастлиги ҳамда ўз ишига совуққонлик қараши сабаб булади. Кадрларнинг билим савиясини ошириш улар фаолиятини бажарган ишларига қараб рағбатлантириб борилиши бу масалани анча енгиллаштириши мумкин.

Уйнинг эксплутация сифати юқори даражага олиб чиқилиши аҳолининг маданий ҳордиқ олиши ва турли ноқулайликларга тушмаслиги учун катта аҳамиятга эга. Кўп қаватли турар жой биноларининг ертўласидаги трубаларнинг янгиланиши ва подъездлардаги кўриниш ҳолатининг яхшиланиши ҳамда подъез чироқлари, эшикларининг талаб даражада бўлиши аҳолининг хавфсизлиги ва қулайликларини таъминлайди.

“Муаммолар дарахти” орқали мақсадлар, муаммолар ва стратегиялар аниқлангандан сўнг мантиқий рамка матрицасини ишлаб чиқса бўлади.

Одатда мантиқий рамка матрицаси қуйидаги кўринишда бўлади (4-расм).

4-расм



	Мантиқий якун	Натижа мувоффақияти кўрсаткичларини	Кўрсаткичларни тасдиқлаш воситалари	Фаразлар ва рисклар
Умумий мақсад	Аҳолига асосий воситаларни яхшилаш ва янгилаш орқали сифатли коммунал хизматлар кўрсатиш	КХТ ларга тушаётган шикоятларнинг 90 % га камайиши	КХТ хужжатлари , махсус сайтлар(my.gov.uz)	Аҳоли сонининг янада кескин ошиши
Лойиҳанинг мақсади	Коммунал хизматлар яхшиланишининг муаммоларининг аниқлаб чора-тадбирлар ишлаб чиқиш	Коммунал хизматларнинг европа стандартларига етиши, КХТ ни ўз-ўзини молиялаштиришни 100 % даражага етиши.	Коммунал хизматлар тўғрисидаги мақолалар, КХТ баланси	

Кутилаётган натижалар	1. Хизмат сифатининг яхшиланиши 2. Тўловларнинг ўз вақтида бўлиши 3. Уйнинг эксплутация сифати юқори даражада	1.Хонадонларнинг ҳарорати талаб даражасида. 2. Click тизимида барча коммунал хизматлар бўйича тулов тизими бор. 3. Ходимларда иш ҳақини 2 баравар ошириш имкони-яти мавжуд. 4. Қарздорлик-нинг 80 % га камайиши. Кейинчалик тўлиқ олдиндан тўловга эришиш. 5. Подъездлар-нинг тозалик даражасининг ошиши.	1. КХТ баланси 2. Click тизими билан шартномалар 3. Ходимлар билан шартномалар 2. КХТнинг Банк билан шартномалари	
Фаолиятлар	1.Насослар созлаш ва доимий назоратга олиш 2. Труба ва радиаторлар янгилаш 3. Керакли жихозлар билан таъминлаш 4. Онлайн тулов тизими яхшилаш 5. Ходимлар ишга қараб рағбатлантириш 6. Трубалар янгилаш 7. Эшиклар жихозлаш 8. Подъезд чироқлар созлаш	1. Ишларни бажариш учун банк томонидан кредит олиш.	1. Насослар созлаш харажатлар ва доимий назоратга олиш учун иш ҳақини 10% га ошириш 2. Труба ва радиаторлар янгилаш ҳаражатлари 3. Терминаллар билан 100 % таъминлаш 4. Ходимларга мукофот харажатлари. 5. Трубалар янгилаш харажатлари 6. Эшиклар жихозлаш харажатлари 7. Подъезд чироқлар созлаш харажатлари.	
Бошланғич шарт-шароит: Ҳукумат органлари томонидан қўллаб-қувватланиш, банк томонидан кредит ажратилишини кафолатланиши.				

5-расм.

Мантиқий рамка матрицасини аниқлаш.

Умумий мақсад: Биз нима учун фаолият олиб бораётганлигимизни биламиз.

Лойиҳанинг мақсади: Биз қаерга етиб боришни ҳоҳлаётганлигимизни биламиз.

Лойиҳани амалга ошириш: Биз нима яратаётганлигимизни биламиз.

Фаолият : Биз қандай қилиб бу ишларни қилмоқчи эканлигимизни биламиз.

Киришлар : Биз нима қилиш кераклиги биламиз.

Бизнинг лойиҳамиз бўйича қуйидаги «Мантиқий рамка усулини” (“Logıcal Framework Approach”) ни кўришимиз мумкин:

Умумий мақсад: Аҳолига асосий воситаларни яхшилаш ва янгилаш орқали сифатли коммунал хизматлар кўрсатиш

Лойиҳанинг мақсади: Коммунал хизматлар яхшиланишининг муаммоларининг аниқлаб чора-тадбирлар ишлаб чиқиш

Лойиҳани амалга ошириш: Баҳоланган ва танланган лойиҳа.

Фаолият : Ишларни такомиллаштириш.

Киришлар : коммунал хизматларни ривожлантириш.

5-расмдаги

Хулоса.

Республикада коммунал хизмат кўрсатиш агентлиги ва унинг тегишли вилоят, шаҳар, туман бўғинлари амалга оширади. Уларнинг фаолият доираси шаҳар ва шаҳарчалар, туман марказлари билан чегараланади. Айрим шаҳар ва шаҳарчаларда, қишлоқ жойларда коммунал хизмат кўрсатишни қишлоқ хўжалиги, йирик саноат корхоналари ва ташкилотлари ҳам амалга оширади.

Уй-жой коммунал хўжалик фаолиятини янада такомиллаштиришда халқаро тажрибаларга асосланган ҳолда янгиликлар киритиш мамлакатимиз иқтисодий ва ижтимоий ривожланиши катта ҳисса қўшади. Чунки халқаро миқёсда синалиб келинаётган усуллар ўзининг самарали нуқтасига етган. Ушбу воситалардан фойдаланиб соҳага инвестицияларни жалб қилиниши аҳолининг турмуш даражасининг ошишига сезиларли ижобий таъсир кўрсатади.

Умуман олганда, лойиҳани режалаштиришнинг асосий маҳсулоти мантиқий-структуравий матрица ҳисобланади. У ўзида “агар фаолият қабул қилинса, натижаларга эришилади ва лойиҳа мақсадига эришилади” деган якуний мантиқий ҳолатни ифода этади, ундан ташқари бу мантиққа асосан энг асосий фаразлар ва рискларни тасвирлаб беради.

Булардан ташқари «Мантиқий рамка усули” (“Logıcal Framework Approach”) лойиҳани бажарилишида қанақанги фаолиятлар амалга оширишлиши кераклиги аниқлашга, талаб қилинаётган ресурсларни ва жавобгарликни бўлиб беришга, лойиҳани бошқариш ва унинг боришини назорат қилишда нималарнинг кўпроқ натижавийлигини аниқлашда ёрдам беради.

Натижа мувоффақияти кўрсаткичлари ва кўрсаткичларни тасдиқлаш воситалар лойиҳанинг бажарилиш прогресини баҳолашга ва назорат қилинишига аниқ мезонларни кўрсатади.

Фойдаланилган адабиётлар рўйхати.

1. Ўзбекистон Республикасининг Конституцияси.–Т.:«Ўзбекистон», 2023.
2. Ўзбекистон Республикасининг Фуқаролик кодекси. – Т.: 2006.
3. Ўзбекистон Республикаси Президентининг 2023 йил 11- сентябрдаги “Ўзбекистон – 2030” стратегияси тўғрисида”ги ПФ-158-сон Фармони
4. Горемыкин В. А., Богомолов А. Ю. Бизнес-план. - М.: Ось - 89, 2002, 864 с.
5. Клоков И.В. Бизнес-план на компьютере: быстро и просто. – Спб.: Питер, 2007.-176 с.: ил.
6. Сайтлар.
7. www.lex.uz
8. www.mdf.nl

THE ROLE OF MODERN DIGITAL TECHNOLOGIES IN THE GREEN ECONOMY

Bakhronova Shakhodat Bakhshulloyevna
Navoi State University of Mining and Technology, Assistant of the department of "Economics of management"
bakhronovashakhodat@g.mail.com
Bekbutayeva Farida G`ofurjonovna
Navoi State University of Mining and Technology
Student of the 1A-24 IQT group
faridabekbutayeva@gmail.com
tel:773640858
Asabayeva Sevinch Azimjonovna
Navoi State University of Mining and Technology
Student of the 1A-24 IQT group
asaboyevas@gmail.com
tel:934391391

Introduction

In recent decades, environmental issues such as climate change, resource depletion, and pollution have pushed governments, industries, and societies to rethink traditional economic models. As a result, the concept of the green economy has emerged as a sustainable alternative that aims to balance economic growth with environmental protection and social well-being. One of the most significant enablers of this transition is the rapid development and application of modern digital technologies.

Digital tools such as artificial intelligence (AI), the Internet of Things (IoT), big data analytics, and blockchain technology are not only revolutionizing the way businesses and governments operate, but also offering innovative solutions to reduce energy consumption, minimize waste, and manage natural resources more efficiently. These technologies support data-driven decision-making, enhance transparency, and promote cleaner production methods across various sectors, including energy, agriculture, manufacturing, and transportation.

This thesis examines the crucial role of digital technologies in advancing the goals of the green economy. It highlights how these innovations contribute to environmental sustainability, improve economic efficiency, and help create a smarter, greener future.

The green economy emphasizes the efficient use of natural resources, reduction of greenhouse gas emissions, and the promotion of sustainable development. Digital technologies have proven to be powerful tools in achieving these goals by transforming traditional economic sectors and introducing smarter, cleaner methods of operation.

One of the most influential technologies is Artificial Intelligence (AI). AI can analyze vast amounts of data to identify patterns, forecast environmental changes, and optimize energy use. For example, AI algorithms are used in smart grids to manage electricity distribution more efficiently, reducing energy waste and lowering carbon emissions.

The Internet of Things (IoT) plays a vital role in real-time monitoring and management of environmental data. IoT sensors can track air and water quality, control irrigation systems in agriculture, and monitor energy usage in buildings. This not only helps businesses and governments make informed decisions but also encourages eco-friendly behavior among consumers.

Big data analytics further supports sustainable development by offering insights into consumption patterns, waste generation, and climate trends. These insights are essential for developing policies and strategies aimed at reducing environmental impact.

Blockchain technology ensures transparency and accountability in green supply chains. It allows organizations to verify the sustainability of products and track resource use from origin to destination, helping to prevent greenwashing and support ethical practices.

Moreover, digital technologies are key enablers in sectors such as renewable energy, smart transportation, and precision agriculture. They make it possible to reduce dependence on fossil fuels, decrease pollution, and improve resource management on a large scale.

Through these applications, digital technologies not only support the principles of the green economy but also open up new opportunities for innovation, investment, and employment in sustainable industries.

Modern digital technologies play an indispensable role in advancing the green economy. Through innovations like artificial intelligence, the Internet of Things, big data analytics, and blockchain, industries can operate more efficiently, reduce their environmental footprint, and contribute to sustainable development. These technologies enable smarter resource management, enhance transparency, and encourage eco-friendly practices, helping to achieve the dual goals of economic growth and environmental preservation.

IoT devices enable real-time monitoring and control of energy usage in industries and residential buildings. For example, "smart grids" help reduce unnecessary energy consumption, which in turn lowers greenhouse gas emissions. Although implementing IoT solutions requires significant initial investment, the long-term benefits include reduced energy costs and improved environmental safety.

AI algorithms are used to automate environmental monitoring, forecast climate changes, and manage resources more effectively. In agriculture, for instance, AI can analyze soil data to optimize irrigation and fertilization, thus reducing environmental impact. AI can process vast amounts of environmental data, offering deeper insights into ecological challenges. However, data privacy, security, and ethical considerations remain key concerns in its widespread adoption.

Blockchain technology provides transparency in supply chains by tracking the entire lifecycle of a product from production to consumption. This builds trust in eco-certified goods and strengthens green marketing practices.While blockchain adoption is still limited in many countries, it has strong potential to reduce corruption and prevent the manipulation of environmental data, making it a promising tool for green governance.

Digitalization reduces paper consumption and helps cut operational carbon footprints. Cloud-based services centralize data and optimize computing resources, leading to more energy-efficient IT infrastructure.

Although cloud computing is often seen as an eco-friendly solution, its data centers consume significant energy. Hence, the development of "green data centers" powered by renewable energy is essential for true sustainability.

As the global community continues to face the challenges of climate change and resource depletion, the integration of digital solutions into economic processes is essential. Moving forward, it is crucial for policymakers, businesses, and individuals to embrace and invest in these technologies to create a more sustainable and resilient future.

The role of digital technologies in the green economy is not only about mitigating the negative impacts of traditional industries but also about fostering innovation and new opportunities for growth in sustainable sectors. By leveraging these tools, we can move closer to a world where economic progress and environmental protection go hand in hand.

Recommendations

To effectively support the development of the green economy, it is essential to promote the active integration of digital technologies through well-structured strategies. Firstly, governments and private sectors should increase investment in research and development (R&D) focused on environmentally friendly digital solutions. Such investments will encourage innovation and lead to the creation of technologies that improve energy efficiency, reduce emissions, and ensure sustainable resource use.

Another important recommendation is to foster collaboration between key stakeholders—including policymakers, technology developers, businesses, andi environmental organizations. This cooperation will ensure that digital solutions are practical, scalable, and aligned with the goals of sustainable development.

Moreover, improving digital literacy is crucial. Workers and specialists in various sectors should be trained to effectively use digital tools such as AI, IoT, and data analytics. Without proper knowledge and skills, the full potential of these technologies cannot be realized.

Additionally, developing strong data privacy and security policies is necessary to protect sensitive information gathered through digital platforms. Trust and transparency are key to long-term success in the green digital transition.

Support for green startups and entrepreneurs is also vital. By offering financial incentives, tax benefits, and access to funding, governments can encourage innovation and growth in sustainable business practices.

Furthermore, regulatory frameworks should be created or updated to incentivize companies to adopt green technologies. Clear environmental standards, combined with digital tools, will lead to measurable progress in reducing ecological harm.

Finally, public awareness campaigns must be launched to inform society about the benefits of using digital technologies for environmental protection. When consumers understand the impact of their choices, they are more likely to support and demand sustainable solutions.

In conclusion, these recommendations will not only support the expansion of the green economy but also contribute to building a smarter, more sustainable, and environmentally responsible future.

References:

1. United Nations Environment Programme (UNEP). (2011). Towards a Green Economy: Pathways to Sustainable Development and Poverty Eradication. Retrieved from www.unep.org
2. World Economic Forum. (2020). Digital Transformation: Powering the Green Economy. Retrieved from www.weforum.org
3. OECD. (2020). Digitalisation and the Environment. OECD Publishing. Retrieved from www.oecd.org
4. GeSI (Global e-Sustainability Initiative). (2019). Digital with Purpose: Delivering a Smarter 2030. Retrieved from www.gesi.org
5. Joppa, L. N., et al. (2021). Technology for Nature: From Incremental Improvements to Transformational Change. Science, 372(6542), 834–836. doi:10.1126/science.abg5494
6. Schwab, K. (2016). The Fourth Industrial Revolution. World Economic Forum. (Chapter 3: The Impact on Business – no specific page used)

TURIZMDA RAQAMLI IQTISODIYOT VA SUN'IY INTELLEKT IQTISODIY SAMARADORLIKNI OSHIRISHNING ZAMONAVIY YECHIMI

Bekmurodov Ulug'bek Bahrom o'g'li
ulugbekmurodov1987@gmail.com

Annotatsiya. Mazkur tezisda turizm sohasida raqamli iqtisodiyotning jadal rivojlanishi hamda sun'iy intellekt (SI) texnologiyalarining joriy etilishi orqali iqtisodiy samaradorlikni oshirish imkoniyatlari tahlil etiladi. Tadqiqotda O'zbekiston turizm sektorining raqamli transformatsiyaga tayyorlik darajasi, sun'iy intellekt asosida boshqaruv tizimlarini shakllantirish va xizmat ko'rsatish sifati hamda daromadni oshirish omillari ko'rib chiqilgan. Sun'iy intellekt texnologiyalari — chatbotlar, recommender-sistemalar, prediktiv tahlil va AI-analitika orqali turizmda samaradorlikni oshirish mexanizmlari ishlab chiqilgan.

Kalit so'zlar: raqamli iqtisodiyot, SI, turizm, sun'iy intellekt, iqtisodiy samaradorlik, AI, raqamli transformatsiya, O'zbekiston, ontologik model

Zamonaviy global iqtisodiyotda raqamli texnologiyalar asosiy drayverlardan biriga aylangan bo'lib, ayniqsa turizm sohasida sun'iy intellekt vositalari orqali xizmatlar sifatini oshirish, operatsion xarajatlarni kamaytirish va foydalanuvchi tajribasini optimallashtirish muhim ahamiyat kasb etmoqda. O'zbekiston uchun ham bu tendensiya strategik ahamiyatga ega.

1. Raqamli transformatsiya va sun'iy intellekt: nazariy asoslar. Raqamli iqtisodiyotda sun'iy intellekt texnologiyalari quyidagi yo'nalishlarda muhim rol o'ynaydi:

SI-agentlar orqali mijozlar bilan avtomatik muloqot (chatbotlar);
Big Data asosida individual tavsiyalar (recommender systems);
Prediktiv modellar orqali xizmatlar va talabni bashorat qilish;
SI yordamida narxlar strategiyasini avtomatlashtirish (dynamic pricing);

SI-ontologiyalar asosida bilimlarni boshqarish tizimlari.

2. Turizmda sun’iy intellekt: amaliy qo‘llanilishi. O‘zbekiston turizm sektorida sun’iy intellektni joriy etish orqali quyidagi amaliy natijalarga erishish mumkin:

SI texnologiyasi	**Qo‘llanish sohasi**	**Kutilayotgan samaradorlik**
Chatbotlar	Mehmonxona va aviaxizmatlar	24/7 xizmat, mijoz bilan real vaqt aloqasi
Recommender Systems	Sayohat paketlari tanlovi	Foydalanuvchiga mos mahsulotlar taklifi
AI-analitika	Marketing strategiyasi	Raqamli reklama xarajatlarini 25–30% kamaytirish
Dynamic pricing	Narx siyosati	Solishtirma tahlil asosida daromadni oshirish

3. Ontologik yondashuv va sun’iy intellekt integratsiyasi. Dissertatsiya doirasida ishlab chiqilgan **ontologik model** asosida sun’iy intellekt tizimlarini semantik tarmoqlarga bog‘lash orqali turizm sohasida:

bilimlar almashinuvi avtomatlashadi,

kontekstual so‘rovlar tezda qayta ishlanadi,

sun’iy intellekt tizimlari O‘zbekiston turizmiga moslashtirilgan bilim bazasi asosida ishlaydi.

4. O‘zbekiston tajribasi va istiqbollar. O‘zbekiston “Raqamli O‘zbekiston – 2030” strategiyasi doirasida sun’iy intellekt texnologiyalarini turizm infratuzilmasiga integratsiya qilish bo‘yicha quyidagi bosqichlar taklif qilinadi:

SI tayyor ma’lumotlar bazasini shakllantirish;

Hududiy turizm platformalarida chatbotlar joriy etish;

AI asosidagi axborot-markazlarni tashkil etish;

Sayyohlar harakati va tendensiyalarni real vaqt rejimida tahlil qilish.

Raqamli turizmda iqtisodiy samaradorlikni baholash modeli. Turizm tashkiloti tomonidan ko‘rilgan daromadni quyidagi asosiy raqamli omillar yordamida maksimal qilish:

SI yordamida reklama samaradorligi (R)

Foydalanuvchi tajribasi va xizmat sifati (Q)

Narx siyosati (P)

Raqamli platformalardan foydalanish soni (D)

1. Maqsad funksiyasi: **Maksimal daromadni aniqlash:**

$$\max Z = \alpha_1 R + \alpha_2 Q + \alpha_3 P + \alpha_4 D - C$$

Z — umumiy iqtisodiy samaradorlik (daromad),

R — AI orqali olib borilgan reklama kampaniyasining samaradorlik indeksi,

Q — foydalanuvchi tajribasi va xizmat sifatining umumiy bahosi (0–1 oralig‘ida),

P — o‘rtacha narx siyosati darajasi,

D — raqamli platformalar orqali turistik xizmatlar soni (foydalanuvchi soni bilan o‘lchanadi),

C — umumiy xarajatlar (infratuzilma, IT xizmatlari va boshqalar),

α_i— har bir parametrning og‘irlik koeffitsientlari ($\alpha_1+\alpha_2+\alpha_3+\alpha_4=1$).

2. Cheklovlar (constraints):

$$\begin{cases} 0 \le R \le 1 \\ 0 \le Q \le 1 \\ P_{min} \le P \le P_{max} \\ D \ge 0 \\ C \le B \quad \text{(byudjet chegarasi)} \end{cases}$$

3. Tavsiya etiladigan og‘irlik koeffitsientlari (O‘zbekiston sharoitida):

$\alpha_1=0.25$— raqamli marketing,

$\alpha_2=0.30$— xizmat sifati va AI orqali optimallashtirish,

$\alpha_3=0.20$— narx siyosati,

$\alpha_4=0.25$— raqamli xizmatlardan foydalanish soni.

Sun’iy intellekt asosida foydani optimallashtirish (SI-Optimization) quyidagicha. Algoritm nomi: *AI-based Revenue Maximization Algorithm (AIRMA)*

1-qadam: Turizm tashkilotining real vaqt ma’lumotlarini yig‘ish (CRM, booking, veb-analitika).

2-qadam: SI orqali quyidagi har bir parametrni baholash:

R: reklama orqali jalb qilingan mijozlar soni / umumiy xarajat,

Q: mijozlar baholari, AI yordamida sentiment tahlil asosida,

P: xizmatlarning real bahosi (AI asosida dinamik narxlash),

D: turistik xizmatlar uchun AI chatbotlar orqali olingan buyurtmalar.

3-qadam: Matematik modelga parametrlarni kiritib Z ni hisoblash.

4-qadam: Eng katta Z qiymati uchun parametrlarni optimallashtirish (gradient descent yoki GA yordamida).

5-qadam: Qaror qabul qilish va byudjetni AI orqali qayta taqsimlash.

Modeldan foydalanish holati: Misol:

Ko‘rsatkich	**Qiymat**
R (Reklama)	0.75
Q (Sifat)	0.80
P (Narx ko‘rsatkichi)	200 USD
D (Buyurtmalar)	1500
C (Xarajat)	85,000,000 so‘m

$$Z = 0.25 \cdot 0.75 + 0.30 \cdot 0.80 + 0.20 \cdot 200 + 0.25 \cdot 1500 - C$$

Bu yerda Z ning eng katta qiymatini hisoblab, **maksimal foydani** aniqlash mumkin.

Xulosa. Ushbu matematik model va algoritm O‘zbekiston sharoitida raqamli turizmni sun’iy intellekt orqali strategik boshqarish**,** xizmat ko‘rsatishni optimallashtirish va iqtisodiy samaradorlikni oshirish imkonini beradi. Model asosida raqamli platformalarda **qaror** qabul qilish tizimlarini avtomatlashtirish**,** byudjet va marketing strategiyasini AI asosida boshqarish mumkin.

Sun’iy intellekt texnologiyalarining turizm sohasiga integratsiyasi:xizmat ko‘rsatish sifatini oshiradi, operatsion xarajatlarni kamaytiradi, iqtisodiy samaradorlikni oshirishga xizmat qiladi.

O‘zbekiston sharoitida SI texnologiyalarini bosqichma-bosqich joriy etish va ilmiy yondashuv asosida platformalar ishlab chiqish raqamli turizm taraqqiyotining muhim omilidir.

Foydalanilgan adabiyotlar:

1. O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining 2022-yil 28-yanvardagi PF-60-son Farmoni “2022–2026 yillarga mo‘ljallangan Yangi O‘zbekistonning taraqqiyot strategiyasi to‘g‘risida”.
2. O‘zbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasi qarori. “Raqamli O‘zbekiston – 2030” strategiyasi. 2020-y.
3. Столяров А.В. Цифровая экономика: теория и практика. – Москва: Юрайт, 2021.
4. Tapscott D. The Digital Economy: Promise and Peril in the Age of Networked Intelligence. – McGraw-Hill, 1996.
5. Schwab K. The Fourth Industrial Revolution. – World Economic Forum, 2016.

O‘ZBEKISTON AXBOROT BIZNESI SEKTORIDA SUN’IY INTELLEKT ASOSIDAGI MARKETING TENDENSIYALARI

A. Bobojonov,
TDIU Raqamli iqtisodiyot kaferdarsi professori

Ushbu tadqiqot Mari Kyuri jamg‘armasi tomonidan Yevropaning Horizon dasturi (grant qisqartmasi: CARSI, raqami: 101086415) doirasida xodimlarni almashtirish jamg‘armasi ko‘magida o‘tkazildi.

Bugungi kunda raqamli texnologiyalarning jadal rivojlanishi O‘zbekiston iqtisodiyotining axborot sektori uchun muhim imkoniyatlarni yaratmoqda. Xususan, sun’iy intellekt (SI) va mashina o‘rganishi (MO) texnologiyalari mamlakatning marketing va biznes strategiyalarini tubdan o‘zgartirmoqda. 2024-yilda Gartner tadqiqotlariga ko‘ra, butun dunyoda korxonalarning 75 foizdan ortig‘i o‘z faoliyatida SI va MO texnologiyalarini qo‘llashni rejalashtirgan.

Sun’iy intellekt texnologiyalarining qo‘llanilishi bilan kompaniyalar bozorda oldindan prognozlash imkoniyatlarini kengaytirib, mijozlar xatti-harakatlarini chuqurroq tahlil qilmoqda. Deloitte hisoboti (2023) ko‘rsatishicha, SI asosidagi bashoratli tahlildan foydalangan kompaniyalarning sotuvlari o‘rtacha 18 foizga oshgan.

SI yordamida amalga oshiriladigan shaxsiylashtirilgan marketing kampaniyalari mijozlarga alohida e’tibor qaratish orqali raqobat ustunligini ta’minlamoqda. Accenture tadqiqotlariga ko‘ra (2022), 91 foiz iste’molchilar shaxsiylashtirilgan reklama va tavsiyalar beruvchi brendlarga ko‘proq moyillik bildirishadi. O‘zbekistonda ham ushbu yondashuv orqali mijozlar bilan munosabatlar kuchayib, mijozlarning takroran xarid qilish darajasi 30 foizgacha(rentmaket.uz, hanyuban.uz, Plan B лойиҳалари мисолида) oshgani kuzatilmoqda.

Yana bir o’sib borayotgan yechimlardan biri bu virtual yordamchilar va chatbotlar hisoblanmoqda. Bunda mijozlarga xizmat ko‘rsatish sohasida keskin raqaobatda ustunlik yaratilib, mijozlarga yangi qiymat yetkazilmoqda. IBM tomonidan o‘tkazilgan so‘rovga ko‘ra (2023), kompaniyalar chatbotlardan foydalanish orqali mijozlarga xizmat ko‘rsatish xarajatlarini 30 foizga kamaytirish va mijozlar qoniqish darajasini 40 foizga oshirish imkoniga ega bo‘lgan.

Bugungi kunda “Digital nomad”lar deb tanilgan ko’chmanchi raqamli ishchilar kontentni yaratish va boshqarish jarayonida SI texnologiyalaridan foydalanish orqali marketing strategiyalarining samaradorligini oshirishmoqda. Forrester tadqiqotlariga ko‘ra (2023), avtomatlashtirilgan kontent yaratish orqali marketing xarajatlari 25 foizga kamayib, mijozlar bilan o‘zaro munosabatlar samaradorligi 50 foizga oshmoqda.

O‘zbekistonda xorijiy 300 mijoz ishtirokida o’tkazgan so’rovimiz natijdasida mijozlarning AMX tanlovida quyidagi omillar muhim ahamiyat kasb etishi aniqlandi:

Narx (31%)
Mutaxassislarning texnik malakasi (17%)
Mahsulot sifati (11%)
Yuqori unumdorlik (13%)
Bozor talablariga moslashish (9%)
Loyiha amalga oshirish tezligi (7%)
Chet tillarini bilish darajasi (6%)
Tijorat tajribasi (4%)
Mualliflik huquqi himoyasi (2%)

Ushbu raqamlar asosida O‘zbekiston kompaniyalari SI texnologiyalaridan foydalanib, mahsulot sifati va mutaxassislar malakasini oshirish orqali xalqaro bozorda raqobatbardoshligini oshirishi zarur deb hisoblaymiz.

Bundan tashqari, sentiment tahlil(mijozlarning fikr-mulohazalari, his-tuyg'ulari yoki munosabatlarini aniqlash uchun qo'llanadigan sun’iy intellekt texnologiyasi) orqali mijozlar fikrlarini aniqlash va tahlil qilish imkoniyati paydo bo‘lib, kompaniyalar o‘z mijozlari bilan yaqindan muloqot qilish imkoniyatiga ega bo‘lmoqda. McKinsey (2023) tomonidan o‘tkazilgan tadqiqotlar shuni

ko‘rsatadiki, sentiment tahlilni amalga oshirgan kompaniyalarda mijozlar qoniqish darajasi o‘rtacha 35 foizga oshgan.

O‘zbekistonda SI texnologiyalari axborot biznesining rivojlanishi va xalqaro raqobatbardoshligini oshirishda muhim ahamiyat kasb etadi. Strategik narxlash siyosati, sifat va texnik malakani rivojlantirish hamda innovatsion raqamli yechimlarni keng qo‘llash orqali mamlakat xalqaro bozor talablariga samarali javob berish imkoniyatiga ega bo‘ladi deb hisoblaymiz.

YASHIL MENEJMENTDA TEXNOLOGIYALARNING O’RNI.

Andijon davlat texnika instituti
“Menejment yo‘nalishi” 3-kurs talabasi
Boltaxo’jayeva Izzatoy O’lmasxo’ja qizi
Gmail: Boltaxojayeva05@gmail.com
Tel: +998902200064

ANNOTATSIYA. Ushbu tezisda zamonaviy menejmentning ekologik yo‘nalishga moslashuvi — ya’ni yashil menejment konsepsiyasining nazariy va amaliy jihatlari keng yoritilgan. Yashil menejment — bu ekologik barqarorlik tamoyillariga asoslangan holda tashkilot faoliyatini boshqarish tizimi bo‘lib, u atrof-muhitni muhofaza qilish, resurslardan samarali foydalanish va chiqindilarni kamaytirish orqali barqaror rivojlanishga xizmat qiladi.

Tadqiqotda avvalo yashil menejment tushunchasining mazmun-mohiyati, uning umumiy menejmentdan farqlari, asosiy tamoyillari (resurslarni tejash, ekologik xavfsizlik, barqaror innovatsiyalar) tahlil qilinadi. So‘ngra, texnologik taraqqiyotning bu jarayondagi o‘rni, xususan, raqamli yechimlar, avtomatlashtirilgan boshqaruv tizimlari, qayta tiklanuvchi energiya texnologiyalari va chiqindilarni boshqarish vositalarining menejment tizimlariga qanday integratsiyalanayotgani ko‘rib chiqiladi.

Shuningdek, xalqaro tajribalar asosida, BMT, Yevropa Ittifoqi, Jahon banki va boshqa yirik xalqaro tashkilotlar tomonidan joriy etilgan yashil texnologiyalar — masalan, sun’iy intellekt asosida ishlovchi ekologik monitoring tizimlari, uglerod chiqindilarini kamaytirish uskunalari, va “aqlli shahar” texnologiyalari kabi ilg‘or yechimlar tahlil etilgan. [7]

Alohida e’tibor O‘zbekiston tajribasiga qaratilgan: mamlakatda yashil iqtisodiyot va yashil menejment sohasida qabul qilinayotgan normativ-huquqiy hujjatlar, amalga oshirilayotgan investitsion loyihalar, qayta tiklanuvchi energiya manbalarining joriy etilishi, raqamli ekologik monitoring tizimlari va korxonalarda ekologik menejment tizimining (ISO 14001) bosqichma-bosqich tatbiq etilishi misolida o‘rganilgan.

Tezis yakunida O‘zbekistonda yashil menejmentni rivojlantirish uchun zarur bo‘lgan takliflar berilgan: ekologik menejerlar tayyorlash, xalqaro hamkorlikni kengaytirish, mahalliy ishlab chiqaruvchilarni yashil texnologiyalar ishlab chiqishga rag‘batlantirish, korxonalar uchun ekologik standartlarni joriy etish va h.k.

Mazkur tadqiqot xulosalari shuni ko‘rsatadiki, yashil menejment — nafaqat ekologik muammolarga yechim, balki korxonalar uchun samaradorlikni oshiruvchi strategik boshqaruv vositasidir. Bu konsepsiyaning chuqur joriy etilishi iqtisodiy rivojlanish va ekologik barqarorlik o‘rtasida muvozanatni ta’minlashga xizmat qiladi.

Yashil menejment (ing. Green Management) — bu tashkilotlar faoliyatida ekologik omillarni strategik va operativ qarorlar qabul qilish jarayoniga integratsiya etish orqali iqtisodiy samaradorlikni ta’minlash bilan birga atrof-muhitga salbiy ta’sirni minimallashtirishga qaratilgan boshqaruv konsepsiyasidir. U bugungi kunda jahon tajribasida keng qo‘llanilayotgan barqaror rivojlanish modelining ajralmas qismi sifatida shakllanmoqda. [8]

Yashil menejmentning asosiy maqsadi — korxona faoliyatining ekologik jihatdan xavfsiz va iqtisodiy jihatdan samarali yuritilishini ta’minlashdir. Bu yondashuv nafaqat ishlab chiqarish jarayonini, balki ta’minot zanjiri, logistika, mahsulot dizayni, chiqindilarni qayta ishlash, xodimlar malakasini

oshirish kabi boshqa yo‘nalishlarni ham qamrab oladi. Shu sababli, yashil menejment keng qamrovli, ko‘p bosqichli boshqaruv tizimi sifatida qaraladi. [5]

Yashil menejment quyidagi asosiy prinsiplarni o‘z ichiga oladi:

Ekologik barqarorlik: Resurslardan tejamkor va samarali foydalanish, qayta tiklanadigan energiya manbalarini joriy qilish.

Inson kapitalini rivojlantirish: Xodimlarni ekologik ong va mas’uliyatga o‘rgatish, yashil ish o‘rinlarini shakllantirish.

Innovatsion yondashuv: Yashil texnologiyalar, raqamli nazorat vositalari va avtomatlashtirilgan tizimlardan foydalanish.

Ijodiy va strategik fikrlash: Qisqa muddatli foyda emas, balki uzoq muddatli ekologik va iqtisodiy natijalarni ko‘zlash.

Zamonaviy menejment nazariyalarida yashil menejment alohida yondashuv sifatida ajralib turadi. Ayniqsa, global iqlim o‘zgarishi, karbonat gazlar miqdorining oshishi, suv va havo ifloslanishi kabi ekologik muammolar fonida, kompaniyalar o‘z faoliyatini ekologik mezonlarga moslashtirishga majbur bo‘lmoqda. Bu esa ekologik xavflarni tahlil qilish, ekologik monitoring o‘rnatish, ekologik audit o‘tkazish kabi yangi boshqaruv funksiyalarini paydo qildi.

O‘zbekiston sharoitida ham yashil menejmentning dastlabki bosqichlari joriy etilmoqda. Jumladan, ayrim sanoat va qishloq xo‘jaligi korxonalarida quyosh panellari, suvni tejovchi texnologiyalar, chiqindilarni qayta ishlash uskunalari va energiya samarador yechimlar keng qo‘llanilmoqda. Ushbu jarayonlar korxona menejment tizimining tarkibiy qismi sifatida rivojlanmoqda.

Shunday qilib, yashil menejment — bu oddiygina ekologik tashabbus emas, balki korxona strategiyasining barqaror rivojlanish maqsadlariga moslashtirilgan shaklidir. U bugungi iqtisodiy muhitda nafaqat ijtimoiy mas’uliyat ifodasi, balki raqobatbardoshlik va brend qiymatini oshirish vositasi sifatida ham muhim o‘rin egallaydi.

Texnologiyalarning menejmentdagi roli.

Zamonaviy menejment nazariyasi va amaliyotida texnologiyalar o‘ta muhim strategik omil sifatida e’tirof etiladi. Ayniqsa, yashil iqtisodiyotga o‘tish davrida yashil texnologiyalarni joriy qilish va ulardan samarali foydalanish bo‘yicha boshqaruv faoliyati markaziy o‘ringa chiqmoqda. Texnologiyalarni to‘g‘ri tanlash, moslashtirish, ulardan foydalanish samaradorligini baholash, ularni yangilab borish jarayonlari bevosita menejment tizimiga bog‘liq.

Yashil texnologiyalar deb, atrof-muhitga zarar yetkazmaydigan, resurslardan tejamkor foydalanuvchi va barqarorlikni ta’minlovchi ilg‘or texnik va texnologik yechimlar tushuniladi. Bunday texnologiyalarni samarali boshqarish quyidagi yo‘nalishlarda menejerlarning faol ishtirokini talab etadi: [6]

1. Strategik rejalashtirishda texnologiyalarni inobatga olish: Korxona uzoq muddatli strategiyasini ishlab chiqishda ekologik toza texnologiyalarga sarmoya kiritish, karbonat chiqindilarni kamaytiruvchi yechimlar izlash va raqamli kuzatuv tizimlarini joriy etishni o‘z ichiga olgan texnologik yo‘nalishlarni aniqlaydi. Shu asosda menejerlar “yashil o‘sish”ni strategik maqsad sifatida belgilaydi.

2. Texnologik innovatsiyalarni tanlash va joriy etish: Menejerlar bozorda mavjud yashil texnologiyalarni tahlil qilib, eng mosini tanlaydi. Masalan, quyosh panellari, bioenergiya tizimlari, suvni tejovchi tomchilatib sug‘orish uskunalari, chiqindini qayta ishlovchi presslar kabi echimlar korxona ehtiyojiga qarab tahlil qilinadi va implementatsiya qilinadi. Bu jarayonda texnik-iqtisodiy asoslash, risk tahlili va xodimlar tayyorgarligi kabi muhim bosqichlar menejment zimmasiga tushadi.

3. Resurslardan samarali foydalanishni boshqarish: Yashil texnologiyalar, ayniqsa, energiya va suv kabi resurslarning tejamli ishlatilishini nazorat qilishga xizmat qiladi. Menejerlar energiya monitoringi, iste’mol tahlili va avtomatlashtirilgan nazorat vositalari yordamida resurslar sarfini optimallashtiradi. Bu korxonaning xarajatlarini kamaytirish bilan birga ekologik izini qisqartirish imkonini beradi. [4]

4. Xodimlar malakasi va texnologik moslashuv: Texnologiyani joriy etishda inson kapitalining roli muhim. Menejerlar yashil texnologiyalar bilan ishlash bo‘yicha xodimlarni qayta tayyorlash, ekologik bilim va ko‘nikmalarni rivojlantirish, ichki korporativ madaniyatni shakllantirish orqali texnologik yangiliklarni to‘liq hayotga tadbiq etish imkonini yaratadi.

5. Texnologik monitoring va baholash: Yashil texnologiyalarning samaradorligini baholash menejmentning doimiy vazifasidir. Bu uchun asosiy ko‘rsatkichlar — energiya tejalishi, chiqindilar hajmi, ishlab chiqarish tannarxi, ekologik audit natijalari asos bo‘ladi. Monitoring vositalari sifatida IoT qurilmalar, avtomatlashtirilgan hisobot tizimlari va bulutli texnologiyalardan foydalanish mumkin.

Xalqaro tashkilotlar ekologiyani asrashda qanday texnologiyalardan foydalanmoqda?

1. BMT (UNEP, UNDP) — ekologik monitoring va raqamli tahlil texnologiyalari

Texnologiyalar:

- Sun’iy yo‘ldoshlar orqali ekologik monitoring (GIS + Remote Sensing): o‘rmonlarning kesilishi, suv omborlari hajmi, havo ifloslanishi kabi holatlarni sun’iy yo‘ldoshlar yordamida aniqlash.
- Big Data (Katta ma’lumotlar) va AI (Sun’iy intellekt): iqlim o‘zgarishlarini bashorat qilish, chiqindilar oqimini kuzatish, urbanizatsiya darajasini aniqlash.

Misol: UNEP va NASA hamkorligida Afrika va Janubiy Amerikadagi o‘rmonlar monitoringi uchun Global Forest Watch tizimi ishlab chiqildi.

2. Yevropa Ittifoqi — qayta tiklanadigan energiya texnologiyalari

Texnologiyalar:

- Quyosh va shamol panellari (Solar & Wind Farms)
- Energiya saqlash tizimlari (Battery Storage Systems)
- Uglerod chiqindilarini ushlovchi tizimlar (Carbon Capture and Storage - CCS)

Misol:

Germaniyada “Smart Grid” (aqlli elektr tarmog‘i) joriy qilinib, qayta tiklanadigan energiya manbalaridan foydalangan holda elektr ta’minoti avtomatik ravishda boshqariladi.

Daniya 2030 yilgacha 100% shamol energiyasiga o‘tish maqsadida ulkan offshor shamol stansiyalarini qurmoqda.

3. Jahon banki va GEF (Global Environmental Facility) — ekologik infratuzilma va chiqindini boshqarish texnologiyalari

Texnologiyalar:

- Chiqindini ajratish va qayta ishlash zavodlari
- Biogaz ishlab chiqarish qurilmalari (organik chiqindidan energiya olish)
- Suv tozalash va qayta foydalanish tizimlari

Misol:

Hindistonda GEF moliyalashtirgan loyiha asosida suvni qayta tozalab qishloq xo‘jaligida qayta ishlatish tizimi joriy etildi.

Marokashda Jahon banki yordamida eng yirik quyosh elektr stansiyasi — NOOR Ouarzazate qurildi, bu Afrika uchun o‘ziga xos yashil texnologiya modeli bo‘ldi.

4. ISO (Xalqaro standartlashtirish tashkiloti) — ekologik menejment va avtomatlashtirish texnologiyalari

Texnologiyalar:

- IoT (Internet of Things) — ishlab chiqarishni real vaqtda kuzatish
- Energiyani tejovchi avtomatlashtirilgan boshqaruv tizimlari
- ISO 14001:2023 — ekologik menejment uchun raqamli hisobot platformalari.

Misol: Yaponiyada ishlab chiqarish zavodlari IoT orqali energiya sarfini avtomatik tahlil qilib, haddan tashqari chiqindilar hosil bo‘lishini oldindan aniqlaydi va uni avtomatik bartaraf qiladi.

5. FAO (BMTning oziq-ovqat va qishloq xo‘jaligi tashkiloti) — aqlli qishloq xo‘jaligi texnologiyalari.

Texnologiyalar:

- Drip irrigation (tomchilatib sug‘orish)
- Satellit kuzatuvi bilan dalalarni monitoring qilish
- Dronlar yordamida o‘g‘it va suvni aniq taqsimlash

Misol: FAO O‘zbekistonda va Qozog‘istonda suv resurslarini tejashga qaratilgan texnologik loyiha boshlagan: fermer xo‘jaliklari GPS tizimlari va IoT asosida boshqariladigan sug‘orish tizimlariga o‘tmoqda.

O‘zbekistonda yashil menejment sohasida ko‘rilayotgan chora-tadbirlar va takliflar

O‘zbekiston Respublikasi ham global tendensiyalardan ortda qolmay, yashil iqtisodiyotga o‘tish, ekologik barqarorlikni ta’minlash va korxonalarda yashil menejment tizimini joriy etish yo‘lida faol harakat qilmoqda. Hukumat tomonidan ekologiyani muhofaza qilish, tabiiy resurslardan oqilona foydalanish va innovatsion texnologiyalarni joriy etish borasida bir qator strategik hujjatlar va dasturlar ishlab chiqilgan.

1. Yashil iqtisodiyot konsepsiyasi (2023–2030)

2023-yilda Prezident qarori bilan “O‘zbekiston Respublikasida yashil iqtisodiyotga o‘tish strategiyasi” qabul qilindi. [1] Ushbu hujjat quyidagilarni nazarda tutadi:

- Energiya tejovchi texnologiyalarni joriy etish;
- Qayta tiklanuvchi energiya manbalarini rivojlantirish (quyosh va shamol);
- Suv resurslarini tejash va ularni avtomatik boshqarish tizimlarini joriy etish;
- Korxonalarda ekologik menejment tizimini (ISO 14001) amaliyotga tatbiq etish.

2. Qayta tiklanadigan energiya manbalari rivoji

- 2022-yilda Nur Navoiy Solar quyosh elektr stansiyasi ishga tushirildi.
- 2030-yilgacha 20 GW qayta tiklanuvchi energiya quvvatlarini qurish rejalashtirilgan.
- Masdar (BAA) va ACWA Power (Saudiya Arabistoni) kabi xalqaro investorlar jalb qilinmoqda.

3. Atrof-muhitni muhofaza qilish qonunchiligi

- “Atrof-muhitni muhofaza qilish to‘g‘risida”gi Qonun; [2]
- “Ekologik ekspertiza to‘g‘risida”gi Qonun; korxonalar faoliyatini baholashda ekologik ko‘rsatkichlar inobatga olinmoqda.

4. Raqamlashtirish va monitoring

- Ekologik holatni baholovchi “EcoGIS” va sun’iy yo‘ldosh orqali monitoring qilish tizimlari ishga tushirilmoqda.
- Yirik sanoat korxonalariga chiqindilar va suv sarfini onlayn kuzatish majburiyati yuklangan.

O‘zbekistonda yashil menejmentni rivojlantirish bo‘yicha takliflar:

1. Sanoat korxonalarida ISO 14001 tizimini majburiy joriy qilish

Har bir yirik korxonada ekologik menejer lavozimini yaratish;

Yashil menejment siyosatini korporativ strategiyaga integratsiya qilish.

2. Ekologik texnologiyalarni import qilishni rag‘batlantirish

Soliq imtiyozlari va subsidiyalar orqali yashil texnologiyalar xaridini qo‘llab-quvvatlash;

Mahalliy ishlab chiqaruvchilarga ekologik toza texnika yaratishda grantlar ajratish.

3. Yashil ta’lim va kadrlar tayyorlash

Oliy ta’lim muassasalarida “yashil menejment” yo‘nalishlari ochish;

Mavjud menejerlar va texnik mutaxassislar uchun ekologik treninglar o‘tkazish.

4. Barqaror rivojlanish indikatorlarini yaratish

Har bir hudud va tarmoq kesimida yashil iqtisodiyotga o‘tish darajasini aniqlovchi ko‘rsatkichlar tizimini ishlab chiqish;

Korxonalar samaradorligini baholashda ekologik ko‘rsatkichlarni asosiy mezonlardan biriga aylantirish.

5. Xalqaro hamkorlikni kengaytirish:

Jahon banki, UNDP, GEF kabi tashkilotlar bilan qo‘shma loyihalarni ko‘paytirish;

Xorijiy ekspertlar va konsalting tashkilotlarini jalb qilish orqali texnologik ekspertiza darajasini oshirish.

FOYDALANGAN ADABIYOTLAR

1. O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining PQ–60-sonli qarori. “2023–2030 yillarda O‘zbekiston Respublikasida yashil iqtisodiyotga o‘tish strategiyasi to‘g‘risida”. – T.: 2023 yil.
2. Atrof-muhitni muhofaza qilish to‘g‘risidagi O‘zbekiston Respublikasi Qonuni. – T.: 2022 yil.
3. www.stat.uz – O‘zbekiston Respublikasi Statistika agentligi rasmiy veb-sayti.
4. Xabibullaeva, N.A. “Yashil iqtisodiyot va uning O‘zbekistonda rivojlanish istiqbollari”, // Iqtisodiyot va innovatsion texnologiyalar jurnali, №1, 2022.

5. ISO 14001:2015 – Environmental Management Systems – Requirements with guidance for use. International Organization for Standardization.
6. www.mehnat.uz – O'zbekiston Respublikasi Ekologiya, atrof-muhitni muhofaza qilish va iqlim o'zgarishi vazirligi rasmiy sayti.
7. www.unep.org – United Nations Environment Programme (BMT Atrof-muhit dasturi) rasmiy sayti.
8. Nazarov, R. "Yashil menejment asoslari." – T.: Iqtisod-Moliya, 2023.

SUN'IY INTELLEKTDAN TA'LIM TIZIMIDA FOYDALANISHNING MOLIYAVIY IQTISODIY JIHATLARI

Boymirzayev Farhodjon Rahmatjon o'g'li
farhodjonboymirzayev@gmail.com
Oziq-ovqat texnologiyasi va muhandisligi xalqaro instituti assistent o'qituvchisi

Annotatsiya: Ushbu maqola sun'iy intellektning ta'lim tizimiga ta'sirini va uning moliyaviy-iqtisodiy jihatlarini o'rganadi. Maqolada, sun'iy intellekt texnologiyalarining ta'lim jarayonlarini yanada samarali qilishdagi roli tahlil qilinadi. Tadqiqotda, SI tizimlarining qo'llanilishi uchun zarur bo'lgan dastlabki xarajatlar, uzoq muddatdagi iqtisodiy foydalar va ta'lim muassasalarining samaradorligi o'rganiladi. Sun'iy intellektning ta'lim tizimida muvaffaqiyatli ishlashi uchun zarur bo'lgan resurslar, malakali mutaxassislar va infratuzilma jihatlari ham ko'rib chiqiladi. Maqola, bu texnologiyaning joriy etilishi va rivojlantirilishi uchun moliyaviy va strategik qarorlar qabul qilish zarurligini ta'kidlaydi.

Kalit so'zlar: Sun'iy intellekt, ta'lim tizimi, iqtisodiy tahlil, moliyaviy xarajatlar, ta'lim samaradorligi, texnologiya integratsiyasi, malaka oshirish, infratuzilma, ta'lim innovatsiyalari.

Sun'iy intellekt (SI) texnologiyalarining rivojlanishi va uning turli sohalarda qo'llanilishi, ayniqsa ta'lim tizimida, bugungi kunning eng dolzarb masalalaridan biriga aylangan. Ta'lim sohasida sun'iy intellektdan foydalanish, o'qituvchilar va o'quvchilar o'rtasidagi o'zaro munosabatlarni yanada samarali qilishga, o'quv jarayonini individualizatsiya qilishga va ta'limning sifatini oshirishga imkon beradi. Shu bilan birga, sun'iy intellekt texnologiyalarini ta'lim tizimiga integratsiya qilishning moliyaviy va iqtisodiy jihatlari ham muhim ahamiyatga ega. Bu texnologiyalarni joriy etish katta dastlabki xarajatlarni talab qilishi mumkin, biroq uzoq muddatda samaradorlikni oshirishi va ta'lim tizimining umumiy iqtisodiy holatini yaxshilashi kutilmoqda. Ushbu maqolada, sun'iy intellektning ta'lim tizimiga qo'llanilishi orqali yuzaga keladigan moliyaviy va iqtisodiy jarayonlar tahlil qilinadi, bu boradagi afzalliklar va xatarlar o'rganiladi. Maqolaning asosiy maqsadi – sun'iy intellektning ta'lim tizimidagi o'rni va uning moliyaviy jihatlarini to'liq yoritishdir.

Sun'iy intellekt (SI) texnologiyalarining ta'lim tizimiga ta'siri, uning samaradorligi va iqtisodiy jihatlari bo'yicha ko'plab tadqiqotlar olib borilgan. Ushbu tadqiqotlar SI texnologiyalarining ta'lim jarayonida qo'llanilishining muhim afzalliklarini va iqtisodiy xarajatlarni o'rganadi. Quyida bu sohada olib borilgan ba'zi ilmiy ishlar va tahlillar keltirilgan:

Gartner sun'iy intellektni ta'lim tizimlarida qo'llash orqali o'qituvchilarning ish yukini kamaytirishga va o'quvchilarga individual o'qish imkoniyatlarini yaratishga erishish mumkinligini ta'kidlaydi. Shuningdek, SI yordamida o'quvchilarning o'qish tezligi va samaradorligi oshadi. Biroq, bu texnologiyalarning implementatsiyasi katta dastlabki moliyaviy xarajatlarni talab qiladi, masalan, tizimni ishlab chiqish, texnik xizmat ko'rsatish va o'qituvchilarning malakasini oshirish uchun zarur bo'lgan kurslar[1].

Brynjolfsson va McAfee o'zlarining "The Second Machine Age" kitobida sun'iy intellekt texnologiyalarining iqtisodiy ta'siri haqida so'z yuritadilar. Ular, SI ning ta'lim tizimida joriy etilishi natijasida yangi ish joylari yaratish imkoniyatlarini ta'kidlaydilar. Ularning fikriga ko'ra, sun'iy intellekt o'qitish jarayonini avtomatlashtirish orqali o'qituvchilarning samaradorligini oshiradi va ta'limning individual yondashuvini kuchaytiradi[2].

Sundar Pichai Google kompaniyasining bosh ijrochi direktori sifatida, sun’iy intellektning ta’lim tizimida qanday qilib global darajada ta’limni demokratlashtirishga yordam berishini ta'kidlagan. U, ayniqsa, SI tizimlarining chekka hududlardagi ta’lim muassasalariga ta’siri haqida so‘zlab, ta’limga kirishni yaxshilash uchun SI texnologiyalaridan foydalanishni zarur deb hisoblaydi[3].

Baker va Inventado o‘zlarining tadqiqotlarida, SI yordamida o‘quvchilarning o‘qish darajasini monitoring qilish va tahlil qilishning ahamiyatini ko‘rsatadilar. Ular shuningdek, sun’iy intellektning ta’limda qo‘llanishi, pedagogik metodlarni rivojlantirish va individual o‘quv jarayonini ta'minlashda qanday rol o‘ynashini tahlil qilganlar. Bunday yondashuvlar ta’lim samaradorligini oshirishga yordam beradi, lekin bu jarayonlarning amalga oshirilishi uchun katta mablag‘ va vaqt sarflanadi[4].

Cedefop o‘z hisobotida, sun’iy intellektning ta’lim tizimlariga integratsiyasining iqtisodiy foydalarini o‘rganadi. Cedefop mutaxassislari sun’iy intellekt texnologiyalarini joriy etish orqali ta’lim tizimi sifatini oshirish, yangi pedagogik yondashuvlarni joriy etish va o‘quvchilarga zamonaviy va innovatsion metodlar orqali individual ta'lim berishni ta'kidlaydilar. Biroq, texnologiyaning muvaffaqiyatli integratsiyasi uchun davlat tomonidan ko‘proq moliyaviy sarmoya ajratish zarurligini ko‘rsatadilar[5].

Siemens sun’iy intellektning ta’lim tizimlarida qo‘llanilishi orqali o‘quvchilarga moslashtirilgan ta’lim materiallarini taqdim etish mumkinligini ta’kidlaydi. Ularning tahlillariga ko‘ra, bu texnologiyalar o‘quvchilarning individual ehtiyojlariga moslashib, o‘qituvchilarni samarali qo‘llab-quvvatlashga imkon beradi. Biroq, SI texnologiyalarining ta’limda qo‘llanilishi yuqori texnik infratuzilma va yuqori malakali mutaxassislarni talab qiladi, bu esa iqtisodiy jihatdan qimmatga tushishi mumkin[6].

Sun’iy intellektning ta’lim tizimida qo‘llanilishining asosiy maqsadi o‘qish jarayonlarini samarali va tezlashtirish, shuningdek, o‘quvchilarga moslashtirilgan ta’lim imkoniyatlarini taqdim etishdir. Biroq, SI tizimlarini ta’lim muassasalariga integratsiya qilish juda katta dastlabki investitsiyalarni talab qiladi. Bu investitsiyalar texnologik infratuzilmani yaratish, kerakli dasturiy ta'minot va texnik xizmatlarni amalga oshirish, shuningdek, o‘qituvchilarni SI tizimlaridan samarali foydalanishga o‘rgatishni o‘z ichiga oladi. Shu bilan birga, o‘qituvchilarning malakasini oshirish va yangi texnologiyalarni qo‘llashda yuzaga keladigan muammolarni hal qilish ham muhim omil hisoblanadi.

Moliyaviy jihatlar: Sun’iy intellektning ta’lim tizimiga joriy etilishi katta moliyaviy resurslarni talab qiladi. Bunda birinchi navbatda texnologiyaning dastlabki sarmoyasi hisobga olinadi. Ta’lim muassasalarida SI tizimlarini o‘rnatish uchun zarur bo‘lgan qurilmalar, dasturiy ta'minot va xizmatlar katta xarajatlarni talab qiladi. Biroq, uzoq muddatda bu investitsiyalar o‘zini oqlashi mumkin. Sun’iy intellekt o‘quv jarayonini avtomatlashtirishi, shuningdek, o‘qituvchilarning ish yukini kamaytirishi, o‘quvchilarga esa shaxsiylashtirilgan ta’limni taqdim etish imkonini beradi. Bu, o‘z navbatida, ta’lim sifatini oshirishi va natijada ta’lim tizimining samaradorligini oshiradi. Sun’iy intellektning joriy etilishi natijasida o‘quvchilarni tayyorlashning samaradorligi oshadi, bu esa ta’lim muassasalarining umumiy xarajatlarini kamaytirishi mumkin.

Iqtisodiy jihatlar**:** Sun’iy intellektning ta’lim tizimiga integratsiyasi uzoq muddatda ta’lim sohasining samaradorligini oshirishi kutilmoqda. O‘quvchilarga shaxsiylashtirilgan ta’lim berish, o‘qituvchilarning ish yukini kamaytirish va o‘quv jarayonining optimallashtirilishi ta’lim samaradorligini oshiradi. Bunda sun’iy intellekt texnologiyalarining ta’siri natijasida o‘quvchilarning akademik natijalari yaxshilanishi, o‘qituvchilarning esa o‘z ishlariga bo‘lgan yondashuvi o‘zgarishi mumkin. Bundan tashqari, sun’iy intellekt ta’lim tizimining iqtisodiy holatini yaxshilashga yordam beradi, chunki texnologiya o‘qitish jarayonini yanada samarali va arzon qilishga imkon beradi. Masalan, sun’iy intellekt yordamida o‘quvchilarni onlayn darslar orqali o‘qitish mumkin bo‘ladi, bu esa ta’limning iqtisodiy jihatlarini samarali tashkil qilishga yordam beradi.

Zarur infratuzilma va resurslar: Sun’iy intellekt texnologiyalarini ta’lim tizimida qo‘llash uchun zarur infratuzilma va resurslar haqida ham unutmaslik kerak. Bu, birinchi navbatda, zamonaviy kompyuterlar, yuqori tezlikdagi internet aloqalari va maxsus dasturiy ta'minotlardan iborat bo‘ladi. Shuningdek, o‘qituvchilarni yangi texnologiyalarni qo‘llashga tayyorlash uchun maxsus kurslar va treninglar tashkil etilishi kerak. Bunda ta’lim muassasalarining o‘zida mavjud bo‘lgan infratuzilma va resurslarni yangilash va kengaytirish uchun davlat tomonidan qo‘shimcha sarmoyalar ajratilishi zarur.

Sun’iy intellekt texnologiyalarining ta’lim tizimida qo‘llanilishi, shu bilan birga, uning moliyaviy-iqtisodiy jihatlari ta’lim jarayonini optimallashtirish va ta’limning samaradorligini oshirish imkoniyatlarini taqdim etadi. Biroq, bu texnologiyalarni muvaffaqiyatli integratsiya qilish uchun dastlabki sarmoyalar, o‘qituvchilarning malakasini oshirish va infratuzilmani rivojlantirish zarur. Uzoq muddatda esa, sun’iy intellektning ta’lim tizimiga integratsiyasi ta’lim sifatini oshirishi va ta’lim sohasining iqtisodiy samaradorligini yaxshilashga yordam beradi. Sun’iy intellektdan foydalanishning moliyaviy jihatlarini hisobga olib, har bir ta’lim muassasasi o‘z resurslarini to‘g‘ri taqsimlashi va texnologiyalarga bo‘lgan sarmoyasini maqsadli ravishda amalga oshirishi kerak.

Tavsiya etilgan chora-tadbirlar

Ta’lim muassasalarida sun’iy intellekt texnologiyalarini joriy etish uchun zarur infratuzilma va dasturiy ta'minotni yangilash.

O‘qituvchilarni yangi texnologiyalarga tayyorlash va malakalarini oshirish uchun treninglar va kurslar tashkil etish.

Sun’iy intellektni ta’lim jarayoniga integratsiya qilishning iqtisodiy va moliyaviy natijalarini tahlil qilish va monitoring qilish.

Davlat tomonidan ta’lim sohasida innovatsion texnologiyalarni joriy etish uchun qo‘shimcha moliyaviy sarmoyalar ajratish.

Xulosa

Ushbu maqola, sun’iy intellektning ta’lim tizimida qo‘llanilishi va uning moliyaviy-iqtisodiy jihatlarini tahlil qilishga qaratilgan. Tadqiqotlar, sun’iy intellekt texnologiyalarining ta’lim jarayonini samarali qilish, o‘quvchilarga individual ta’lim imkoniyatlarini yaratish va o‘qituvchilarning ish yukini kamaytirishdagi o‘rni muhim ekanligini ko‘rsatmoqda. Biroq, bu texnologiyalarni joriy etish katta dastlabki xarajatlarni talab qiladi, masalan, infratuzilma yangilanishi, dasturiy ta’minot sotib olish, o‘qituvchilarni tayyorlash va texnik xizmat ko‘rsatish. Uzoq muddatda esa, sun’iy intellektning ta’lim tizimiga integratsiyasi ta’limning sifatini oshirishi va ta’lim muassasalarining iqtisodiy samaradorligini yaxshilashga yordam beradi. Shuningdek, sun’iy intellekt yordamida o‘quvchilarning akademik natijalari yaxshilanadi, o‘qituvchilarning yondashuvlari o‘zgaradi va ta’lim tizimi yanada samarali va arzon bo‘ladi. Biroq, muvaffaqiyatli integratsiya uchun kerakli infratuzilma, malakali mutaxassislar va qo‘shimcha moliyaviy sarmoyalar zarur.

Ta’lim muassasalarining resurslarini to‘g‘ri taqsimlashi va texnologiyalarga bo‘lgan sarmoyasini maqsadli ravishda amalga oshirishi, sun’iy intellekt texnologiyalarining ta’lim sohasiga integratsiyasini muvaffaqiyatli amalga oshirish uchun muhim omildir. Tavsiya etilgan chora-tadbirlar, sun’iy intellektni ta’lim tizimiga integratsiya qilishda zarur infratuzilma va malakalarni yaratish, iqtisodiy va moliyaviy natijalarni monitoring qilish hamda davlat tomonidan qo‘shimcha sarmoyalar ajratish orqali bu jarayonning muvaffaqiyatli amalga oshirilishiga yordam beradi.

Taklif va tavsiyalar

Sun’iy intellekt texnologiyalarining ta’lim tizimiga muvaffaqiyatli integratsiyasini ta'minlash va uning moliyaviy-iqtisodiy samaradorligini oshirish uchun quyidagi takliflar va tavsiyalarni keltirish mumkin:

Zarur infratuzilma va dasturiy ta'minotni yangilash
Ta'lim muassasalarida sun’iy intellekt texnologiyalarini muvaffaqiyatli joriy etish uchun yuqori sifatli infratuzilma talab etiladi. Bu o‘z ichiga zamonaviy kompyuterlar, yuqori tezlikdagi internet aloqalari, maxsus dasturiy ta'minot va texnik xizmat ko‘rsatish tizimlarini o‘z ichiga oladi. Shuningdek, ta’lim muassasalarida mavjud infratuzilmani modernizatsiya qilish va kengaytirish uchun davlat tomonidan qo‘shimcha sarmoyalar ajratilishi kerak.

O‘qituvchilarni yangi texnologiyalarga tayyorlash va malakalarini oshirish Sun’iy intellekt texnologiyalarining samarali qo‘llanilishi uchun o‘qituvchilarni tayyorlash muhimdir. Shuning uchun, ta'lim muassasalarida o‘qituvchilar uchun maxsus treninglar va kurslar tashkil etilishi, ular sun’iy intellekt tizimlaridan samarali foydalanishga o‘rgatilishi zarur. O‘qituvchilarni texnologiyalarga moslashtirish va ularning malakasini oshirish, ta’lim jarayonining sifatini oshirishda asosiy omil bo‘ladi.

Sun’iy intellektni ta’lim jarayoniga integratsiya qilishning iqtisodiy va moliyaviy natijalarini tahlil qilish

Har bir ta’lim muassasasi, sun’iy intellekt texnologiyalarini joriy etishdan oldin, texnologiyaning iqtisodiy va moliyaviy foydalari va xarajatlarini batafsil tahlil qilishi kerak. Ta'lim muassasalari o‘zlarining resurslarini va imkoniyatlarini hisobga olib, sun’iy intellektni qanday qilib samarali qo‘llashni rejalashtirishlari zarur. Shuningdek, ularning ta’lim samaradorligini oshirishga olib kelishi mumkin bo‘lgan strategiyalarni ishlab chiqish lozim.

Davlat tomonidan qo‘shimcha moliyaviy sarmoyalar ajratish

Sun’iy intellekt texnologiyalarining muvaffaqiyatli integratsiyasi uchun davlat tomonidan qo‘shimcha moliyaviy sarmoyalar ajratish zarur. Ta'lim sohasidagi innovatsion texnologiyalarni joriy etish, o‘qituvchilarni tayyorlash va infratuzilmani yangilash uchun davlatning sarmoyasi muhim rol o‘ynaydi. Shu bilan birga, davlat ta’lim tizimining raqamli transformatsiyasini qo‘llab-quvvatlash uchun maxsus moliyaviy dasturlarni ishlab chiqishi zarur.

Sun’iy intellektni ta’lim jarayonida keng qo‘llash

Sun’iy intellekt texnologiyalari o‘quvchilarga individual ta’lim imkoniyatlarini yaratishda muhim rol o‘ynaydi. Shu bois, ta'lim muassasalarida o‘quvchilarni shaxsiylashtirilgan o‘qish imkoniyatlari bilan ta'minlash va o‘qituvchilarning ish yukini kamaytirish orqali ta’lim samaradorligini oshirish kerak. Bundan tashqari, o‘quvchilarning o‘qish tezligini kuzatish, baholarni tahlil qilish va ta’lim jarayonini optimallashtirish uchun sun’iy intellekt tizimlaridan keng foydalanish lozim.

Pedagogik metodlarni rivojlantirish va innovatsion yondashuvlarni qo‘llash

Sun’iy intellektning ta’lim tizimiga integratsiyasi pedagogik metodlarning yangilanishini ta'minlaydi. Ta'lim jarayonlarini innovatsion metodlar orqali boyitish, o‘quvchilarning o‘ziga xos ehtiyojlariga moslashtirilgan darslar tashkil etish zarur. Sun’iy intellekt texnologiyalari yordamida o‘quvchilarning o‘zlashtirish darajasi va ta’lim samaradorligini oshirish mumkin, shuning uchun bu metodlarni o‘rganish va amaliyotga joriy etish muhimdir.

Ta’lim tizimlarida global hamkorlik va tajriba almashish

Sun’iy intellekt texnologiyalarining ta’lim tizimlarida qo‘llanilishi bilan bog‘liq global tajriba va amaliyotlarni o‘rganish muhimdir. Dunyo bo‘ylab bu sohada olib borilgan tadqiqotlar va amaliy yondashuvlar ta’lim tizimlarining samaradorligini oshirish uchun foydali bo‘lishi mumkin. Ta’lim muassasalari o‘rtasida hamkorlik qilish va tajriba almashish, sun’iy intellektning ta’limga ta’sirini yanada yaxshilashga yordam beradi.

Foydalanilgan adabiyotlar ro’yxati

1. Gartner, "Artificial Intelligence in Education: Market Trends and Predictions," 2021.
2. Brynjolfsson, E., McAfee, A., *The Second Machine Age: Work, Progress, and Prosperity in a Time of Brilliant Technologies*, 2014.
3. Pichai, S., "How Artificial Intelligence Will Change the Future of Education," Google I/O, 2017.
4. Baker, R. S., Inventado, P. S., "Educational Data Mining and Learning Analytics," *The Cambridge Handbook of the Learning Sciences*, 2014.
5. Cedefop, "The Impact of Artificial Intelligence on Education and the Labor Market," European Centre for the Development of Vocational Training, 2020.
6. Siemens, G., "Artificial Intelligence and Education: The Future of Learning," *Education Technology Review*, 2019.
7. Tursunova E. G., Boymirzayev F. R. PARALLEL TIP O ‘ZGARISH CHIZIG ‘IGA EGA ARALASH TENGLAMA UCHUN INTEGRAL ULASH SHARTLI CHEGARAVIY MASALA //O'ZBEKISTONDA FANLARARO INNOVATSIYALAR VA ILMIY TADQIQOTLAR JURNALI. – 2023. – T. 2. – №. 15. – C. 237-243.
8. Boymirzayev F. R. PARALLEL TIP O ‘ZGARISH CHIZIG ‘IGA EGA PARABOLIK-GIPERBOLIK TIPDAGI TENGLAMA UCHUN INTEGRAL ULASH SHARTLI CHEGARAVIY MASALA //O'ZBEKISTONDA FANLARARO INNOVATSIYALAR VA ILMIY TADQIQOTLAR JURNALI. – 2023. – T. 2. – №. 19. – C. 715-727.

9. Raxmatjon o‘g‘li B. F. ARALASH TENGLAMA UCHUN INTEGRAL ULASH SHARTLI CHEGARAVIY MASALA //ISSN 2181-4120 VOLUME 1, ISSUE 32 NOVEMBER 2023. – 2023. – С. 123.
10. Raxmatjon o‘g‘li B. F. O ‘ZGARISH CHIZIG ‘IGA EGA PARABOLIK-GIPERBOLIK TIPDAGI TENGLAMA UCHUN INTEGRAL ULASH SHARTLI CHEGARAVIY MASALA //IQRO INDEXING. – 2024. – Т. 8. – №. 1.
11. Raxmatjon o‘g‘li B. F. KASR TARTIBLI OPERATORLAR BOSHLANG ‘ICH TUSHUNCHALAR VA ABEL INTEGRAL TENGLAMASI YECHIMLARI: Farg ‘ona Davlat Universiteti “Matematika” kafedrasi, PhD, dotsent, Xonqulov Ulug ‘bek Xursanalievich taqrizi ostida //IQRO INDEXING. – 2024. – Т. 9. – №. 1. – С. 289-295.
12. Боймирзаев Ф. Р. РЕШЕНИЕ ИНТЕГРАЛЬНЫХ УРАВНЕНИЙ АБЕЛЯ С ПОМОЩЬЮ ДРОБНЫХ ОПЕРАТОРОВ //Экономика и социум. – 2024. – №. 5-1 (120). – С. 1145-1150.
13. Boymirzayev F. OLIY TA’LIM MUASSASALARIDA MATEMATIKANI KASBIY YO‘NALTIRILGANLIK ASOSIDA O‘QITISHNING AFZALLIKLARI //Nordic_Press. – 2024. – Т. 5. – №. 0005.
14. Боймирзаев Ф. Р. OLIY TA’LIM MUASSASALARIDA MATEMATIKANI KASBIY YO‘NALTIRILGANLIK ASOSIDA O‘QITISH METODIKASI //Экономика и социум. – 2024. – №. 11-1 (126). – С. 92-97.
15. Baxtiyor o‘g‘li K. M. TIPI BUZILADIGAN GIPERBOLA-PARABOLIK TENGLAMA UCHUN TO ‘G ‘RI VA TESKARI MASALANING KORREKLIGI HAQIDA: VI Romanovskiy nomidagi Matematika instituti Fizika-matematika fanlari doktori SZ Djamalov taqrizi ostida //IQRO INDEXING. – 2024. – Т. 8. – №. 2 (2). – С. 216-224.
16. Камолдинов М. О КОРРЕКТНОСТИ ДВУХТОЧЕЧНОЙ ОБРАТНОЙ ЗАДАЧИ ДЛЯ УРАВНЕНИЯ РАСПРЕДЕЛЕНИЯ ТЕПЛА В ТРЕХМЕРНОМ ПРОСТРАНСТВЕ //ИКРО журнал. – 2024. – Т. 8. – №. 1.

ELASTOMER KOMPOZITLARNI TAYYORLASHDA VULKANIZATSIYA JARAYONINI BOSHQARISHDA MATEMATIK MODELI.

Avezov Toshtemir Abdualiyevich: toshtemir2011@gmail.com Toshkent kimyo texnologiya institute, Avtomatlashtirish raqamli va boshqaruv kafedrasi kata o’qituvchisi.
Ismoilov Mirxalil Agzamovich: m.ismailov@tiiame.uz Toshkent irrigatsiya va qishloq xo‘jaligini mexanizatsiyalash muhandislari instituti Milliy tadqiqot universiteti “TJAB”kafedrasi professori.
Jabborov Alisher Oltiboyevich: alisheroltiboyevich@gmail.comToshkent kimyo texnologiya institute, Avtomatlashtirish raqamli va boshqaruv kafedrasi kata o’qituvchisi.
Sangirov Abdujalil Tumanovich: abdujalildomla05@gmail.com Toshkent kimyo texnologiya institute Yangiyer filiali, Avtomatika va texnologik jarayonlar kafedrasi vvb dotsenti.

Introduction. The concept of a green economy has emerged as a global paradigm for sustainable development, focusing on reducing carbon emissions, improving resource efficiency, and promoting ecological equity. In parallel, the rise of digital technologies has introduced transformative tools capable of enhancing these objectives. Technologies such as AI, IoT, block chain, and data analytics are enabling smarter energy use, real-time environmental monitoring, and circular business models.

However, the intersection of digitalization and sustainability is complex. While digital innovations present unprecedented opportunities, they also introduce new forms of risk—including higher electricity demands for data centers, cybersecurity threats, and potential social exclusion from lack of access to digital infrastructure. Thus, evaluating both the advantages and the limitations of digital technologies in driving the green economy is critical for policymakers and business leaders alike.

Methodology. This research adopts a mixed-method qualitative approach, integrating three main components. Analysis of over 50 peer-reviewed articles, policy reports, and white papers from 2018 to 2024, focused on green economy and digitalization. Examination of selected country-level and sectoral digital initiatives, including smart grids (Germany), precision agriculture (Netherlands), and circular manufacturing (Japan). Review of benefits and challenges across sectors—energy, agriculture, logistics, and industry—to draw thematic insights.

Results. The empirical and literature-based analysis of digital technology applications within the green economy context revealed a complex interplay of benefits and challenges. The findings can be grouped into several thematic areas:

Renewable Energy Optimization. AI algorithms and smart grids allow better forecasting of renewable energy generation and demand-side response. Germany's Energiewende strategy leverages AI to integrate solar and wind into the national grid, reducing curtailment and increasing efficiency.

Circular Economy and Waste Reduction. Block chain technologies are being used to track materials throughout their life cycle, supporting recycling and circular supply chains. In the fashion industry, digital tracking reduces textile waste and enables product reuse.

Environmental Monitoring and Policy Enforcement. Remote sensing and big data platforms are being used to monitor deforestation, pollution, and illegal mining in real-time. Platforms such as Global Forest Watch provide open-access environmental data used by NGOs and governments.

Green Innovation and Job Creation. Digital sectors have stimulated the creation of green tech startups and new job categories, such as data analysts for environmental forecasting and digital sustainability consultants.

However, there are also challenges of using Digital Technologies in the development of Green Economy.

High Energy Consumption. Data centers and block chain operations consume significant energy. The global ICT sector accounts for 3.7% of global carbon emissions, rivaling aviation. The Bitcoin network alone consumes over 100 TWh annually.

Digital Divide and Social Inequality. Low-income and rural populations often lack access to the internet or smart devices, excluding them from digital green innovations such as online energy trading or e-farming solutions.

Cybersecurity and Data Governance Risks. With increased reliance on sensors and cloud platforms comes vulnerability to cyberattacks. Inadequate regulations may also lead to misuse of environmental or personal data.

Rebound Effect. Efficiency gains from digitalization can lead to increased consumption. For example, smart logistics may reduce per-delivery emissions but can result in a higher total volume of deliveries due to lowered costs.

Technological Obsolescence and E-Waste. Rapid innovation cycles lead to higher rates of device turnover, contributing to electronic waste—a growing environmental concern unless properly recycled.

Discussion. The analysis illustrates that digital technologies are double-edged swords in the context of green economic development. Their benefits are clear—especially in optimizing energy systems, promoting transparency, and supporting resource efficiency. Countries and sectors that strategically adopt digital tools often experience both environmental gains and cost savings. However, realizing these benefits at scale requires mitigating associated risks. The carbon footprint of digital infrastructure, if powered by non-renewable sources, can erode overall environmental gains. Additionally, without policies to ensure inclusive access, digital innovations may exacerbate social inequalities. Policy coherence is essential. Governments must align digital innovation strategies with sustainability frameworks, invest in green ICT infrastructure, and promote ethical AI and data governance standards. Public-private partnerships can also facilitate funding and skill development in underrepresented regions, fostering equitable green digital transitions.

Conclusion. Digital technologies offer transformative potential in the pursuit of a green economy, enabling more sustainable, transparent, and inclusive systems. From smart agriculture to green manufacturing, these innovations help optimize resource use and reduce emissions. However, challenges related to energy use, social equity, cybersecurity, and governance must be addressed. The future of green development lies not in choosing between technology and sustainability, but in integrating them responsibly. Digitalization, if managed carefully and inclusively, will be a cornerstone in building resilient, low-carbon, and equitable economies worldwide.

References

1. European Commission, 2023, "Green Digital Transformation in the EU", https://ec.europa.eu
2. International Energy Agency, 2022, "Digitalization and Energy", IEA Publications
3. United Nations Environment Programme, 2021, "Technology and Innovation in the Green Economy", UNEP Report
4. World Economic Forum, 2020, "Fourth Industrial Revolution and the Environment", https://www.weforum.org
5. Jackson, T, 2022, "Digitalization for Sustainable Development", Journal of Green Economics, 14(2), pp.112–134.
6. Masiero, S. and Arora, P, 2021, "Data for Development or Development for Data?", Information Technology for Development, 27(1), pp.1–20.

CHIQINDILARNI TOZALASH TEXNOLOGIYASI

Mamarasulova Sarvinoz Toxirjon qizi, Abduhalilova Durdona To‘lqinjon qizi
Farg’ona davlat texnika universiteti kimyo texnologiya fakulteti talabalari,

Annotatsiya: Hozirgi kunda suvga bo'lgan ehtiyoj ortib bormoqda va bu bilan birga oqava suvlarni tozalashga bo'lgan talab ham ortadi. Suvga bo'lgan ehtiyojning oldini olish va oqava suvlarni tozalash uchun yangi texnologiyalar yaratish kerak. Ushbu tezis hozirgi kunda oqava suvlarni tozalash uchun ishlab chiqilayotgan yangi texnologiyalar haqida.

Kalit so’zlar: Oqava suvlar, suv filterlari, sorbsiyon filterlar, qurilmalar.

Kirish

Suv hayot uchun zarur resurslardan biridir. Inson tanasida sodir bo'ladigan barcha jarayonlarda ishtirok etadi. Tanadagi hujayra ichidagi suyuqlik har olti oyda yangilanadi. Shuning uchun inson salomatligi ko'p jihatdan suv sifatiga bog'liq

bog'liq. Sifatsiz suv bizning sog'lig'imizga katta salbiy ta'sir ko'rsatishi mumkin. Oqova suvlarda juda ko'p zararli birikmalar mavjud: fenol, formaldegid, og'ir metallar tuzlari, neft mahsulotlari, xlorli aralashmalar va boshqalar. Bugungi kunda atrof-muhit achinarli holatda ekanligini aytishimiz mumkin. Bunga odamlar moslashish uchun yangi texnologiyalarni ixtiro qilishlari kerak edi. Va kelgusi yillarda suvni tozalash filtrlari paydo bo'ldi, biz bugun gaplashamiz. Tozalanmagan suv inson salomatligi uchun juda xavflidir, unda bakteriyalar va patogenlar yashaydi.

Oqava suvlarni tozalash usullari

Kimyoviy ishlov berish. Kimyoviy usul suvdan organik moddalar va noorganik aralashmalarni olib tashlash uchun kimyoviy reaksiya ta'siridan foydalanadi. Asosan kimyoviy koagulyatsiya usullari, kimyoviy oksidlanish usullari, elektrokimyoviy oksidlanish usullari va boshqalar mavjud. Kimyoviy koagulyatsiya usuli asosan suvdagi mikro suspenziya va kolloid moddalar uchun ishlatiladi. Kimyoviy moddalar qo'shilishi natijasida yuzaga keladigan koagulyatsiya va flokulyatsiya kolloidlarning yo'q qilinishiga va cho'kma hosil bo'lishiga olib keladi. Bu usul oqava suvda zarracha kattaligi 1 dan 10 mm gacha bo'lgan mayda to'xtatilgan zarrachalarni olib tashlabgina qolmay, balki xromatiklikni, mikroorganizmlarni va organik moddalarni ham yo'q qiladi. Usul pH qiymati, suv harorati, suv sifati, suv tarkibi va boshqalarning o'zgarishiga ta'sir qiladi va ba'zi eruvchan organik va noorganik moddalarning ekstraktsiya tezligi past bo'ladi.

Jismoniy ishlov berish. Kimyoviy oqava suvlarni tozalashning umumiy fizik usullari orasida filtrlash, gravitatsiyaviy yog'ingarchilik va havo flotatsiyasi mavjud.

Filtrlash usuli suvdagi aralashmalarni donador donador qatlam orqali ushlab turish, asosan suvdagi to'xtatilgan moddalarni kamaytirishdan iborat. Kimyoviy kanalizatsiya filtrlashda umumiy ramka filtri va mikroporoz filtr qo'llaniladi va mikrog'ovak trubka polietilendan tayyorlanadi. Diafragma o'lchamini sozlash mumkin va almashtirish qulay; Gravitatsion sedimentatsiya usuli - qattiq suyuqlikni ajratishga erishish uchun tortishish maydoni ta'sirida suvda to'xtatilgan zarrachalarning cho'ktirish xususiyatidan foydalangan holda tabiiy cho'kish jarayoni; Havo flotatsiyasi - adsorbsiyalangan mikrobial pufakchalarni hosil qilish va to'xtatilgan zarrachalarni tashish orqali suv yuzasini olib tashlash usuli. Ushbu uchta jismoniy usullar oddiy va ishlatish uchun qulaydir, lekin katta cheklovlarga ega bo'lgan eruvchan oqava suv komponentlarini olib tashlash uchun foydalanilmaydi.

*Fotokatalitik oksidlanish texnologiyasi.*Fotokatalitik oksidlanish texnologiyasi O2 va H2O2 kabi oksidlovchi moddalarni optik nurlanish bilan fotohayajonlangan oksidlanish bilan birlashtiradi. Amaldagi yorug'lik asosan ultrabinafsha nurlar, jumladan, UV-H2O2, UV-O2 va boshqa jarayonlar bo'lib, ular xloroform, uglerod tetraklorid va poliklorli bifenil kabi o'tga chidamli moddalarni kimyoviy oqava suvlarda tozalash uchun ishlatilishi mumkin. Bundan tashqari, UV Fenton tizimida UV nurlari va temir ionlari o'rtasida sinergik ta'sir mavjud, shuning uchun gidroksil radikallarini hosil qilish uchun vodorod peroksidning parchalanish tezligi juda tezlashadi va organik moddalar oksidlanish yo'li bilan chiqariladi.

Ultrasonik texnologiya. Ultrasonik texnologiya - bu ultratovush to'lqinlari va to'yingan gazlarning chastotasini nazorat qilish orqali organik moddalarni ajratish va ajratish.

Quvvatli ultratovushning kavitatsiya ta'siri zararli organik moddalarni suvda eritish uchun noyob jismoniy va kimyoviy muhitni ta'minlaydi, bu ultratovushli kanalizatsiya tozalash maqsadlarini amalga oshirishga olib keladi. Ultrasonik kavitatsiya pufakchasining qulashi natijasida hosil bo'lgan yuqori energiya kimyoviy bog'lanishni buzish uchun etarli. Suvli eritmada kavitatsiya pufakchasi gidroksil guruhi va organik moddalar bilan oksidlanish reaktsiyasini o'tkazadigan vodorod guruhining shakllanishiga yordam beradi. Kavitatsiyaning noyob fizik-kimyoviy muhiti yangi kimyoviy reaktsiya yo'lini ochadi, bu kimyoviy reaktsiya tezligini oshiradi va organik moddalarni zararsizlantirishi mumkin. Uzluksiz ultratovush tekshiruvidan so'ng zararli organik moddalar noorganik ionlarga, suvga, karbonat angidridga yoki toksik bo'lmagan yoki kislota kabi kamroq toksik moddalarga aylanishi mumkin.

Magnetic separation method. Magnit ajratish usuli magnit turlarni va koagulyantlarni kimyoviy kanalizatsiyaga qo'shish va magnit turlarning qoldiqlaridan foydalanishdir. Koagulyant ta'sirida bir vaqtning o'zida zarrachalar bir joyga to'planadi va o'sadi va to'xtatilgan moddaning ajralishi tezlashadi. Keyin organik ifloslantiruvchi moddalarni olib tashlash uchun magnit separator va laboratoriyadan xorijiy yuqori gradient magnit ajratish texnologiyasi qo'llanildi.

Conclusion. Ushbu tezisda biz global muammoga aylangan suv tanqisligi va oqava suvlarni tozalash usullari va qandaydir darajada yechim bo'lishi mumkin bo'lgan uskunalarni ko'rib chiqdik. Xulosa qilib aytganda, biz yoritgan muammo va uni hal qilish usullari insoniyat kelajagi farovonligi uchun katta ahamiyatga ega bo'lishiga umid qilamiz. Suv inson uchun zarur bo‘lgan tabiiy ne’matlardan biri bo‘lib, bugungi, ertaga, umuman, hayotimizda beqiyos o‘rin tutadi.

Xulosa;

1. https://srcyrl.nanbeiequipment.com/
2. https://www.nrdc.org/
3. https://www.britannica.com/science/water-pollution

XIZMAT KO‘RSATISH SOHASIDA ELEKTRON TIJORATNING O‘SISHIGA TA’SIR ETUVCHI OMILLARNI TAHLIL QILISH METODLARINI OPTIMALLASHTIRISH

Maxmudov Lazizbek Ubaydullo o‘g‘li
Samarqand iqtisodiyot va servis instituti
Real iqtisodiyot kafedrasi dotsenti, PhD
Tel: 97 913 60 19, ORCID: 0000-0002-6819-6543
e-mail: lazizmakhmudov90@gmail.com

Annotatsiya: Ushbu tezis xizmat ko‘rsatish sohasida elektron tijoratning rivojlanishiga ta’sir etuvchi omillarni tahlil qilish metodlarini optimallashtirishga bag‘ishlanadi. Elektron tijoratning iqtisodiy, ijtimoiy, texnologik va boshqa omillar bilan bog‘liqligi ko‘rib chiqilib, ularni tizimli-holistik yondashuv asosida tahlil qilish taklif qilinadi. Omillarni ta’sir darajasi, yo‘nalishi, ko‘lami va vaqt omili bo‘yicha tasniflash orqali samarali va dinamik tahlil usullari ishlab chiqilgan. Tizimli-holistik yondashuv elektron tijorat ekotizimini chuqur tadqiq qilish va strategik qarorlar qabul qilish imkonini beradi.

Kalit so‘zlar: elektron tijorat, xizmat ko‘rsatish sohasi, tizimli-holistik yondashuv, omillar tahlili, optimallashtirish, iqtisodiy omillar, texnologik omillar, strategik qarorlar.

Elektron tijorat xizmat ko‘rsatish sohasining muhim tarkibiy qismi bo‘lib, bank, sug‘urta, konsalting va ta’lim kabi xizmatlarni onlayn platformalar orqali taqdim etadi. U tadbirkorlar tomonidan mijozlarga ko‘rsatiladigan raqamli xizmat shaklidir. Elektron tijorat talab va taklif qonuniga, makro va mikroiqtisodiy tamoyillarga bo‘ysunsa-da, ma’lumotlarni himoya qilish, tranzaksiya xavfsizligi va xalqaro savdo bilan bog‘liq o‘ziga xos tartibga solish mexanizmlariga ega. Xizmat ko‘rsatish sohasida esa sifat, mijoz bilan munosabat va aloqalarni boshqarish muhimdir.

Elektron tijoratning rivojlanishi iqtisodiy, ijtimoiy, texnologik, demografik, geografik va institutsional omillar bilan bog‘liq. Bu omillarning tahlili uning samaradorligini oshirish va bozor kon’yunkturasini aniqlash imkonini beradi. Omillarni tizimli tahlil qilish elektron tijoratning barqaror rivojlanishiga xizmat qiladi va biznes subyektlariga muvaffaqiyatli faoliyat yuritish, iste’molchilar talabini qondirish va global bozorda raqobatbardosh bo‘lish imkoniyatini yaratadi.

Ko‘plab olimlar elektron tijoratga ta’sir etuvchi omillarni tadqiq qilishgan. Masalan, I.S.Lola va M.B.Bakeev o‘zlarining “Цифровая деятельность российских организаций в сфере услуг информационных технологий” tadqiqotlarida raqamli yechimlar va marketing texnologiyalarining rivojlanish tendensiyalarini tahlil qilganlar. V.V.Korotkix esa “Статистический анализ факторов развития электронной коммерции” tadqiqotida ochiq manbalardan foydalangan holda Rossiyadagi elektron tijoratga ta’sir etuvchi omillarning statistik tahlilini o‘tkazgan. Biroq mavjud adabiyotlarda omillarni aniq va tizimli ajratish metodlari yetarlicha bayon etilmagan. Shu sababli, elektron tijoratning o‘sishiga ta’sir etuvchi omillarni tahlil qilishda metodik yondashuvlarni optimallashtirish muhim ilmiy-amaliy ahamiyatga ega.

Hozirda elektron tijoratga ta’sir etuvchi omillarni tahlil qilishda quyidagi an’anaviy metodlar qo‘llaniladi:

Ekspert baholash usullari: mutaxassislarning subyektiv fikrlariga asoslanib, omillarning ta’sir kuchini aniqlashga xizmat qiladi, lekin inson omiliga bog‘liqligi sababli ob’ektivlik darajasi past bo‘lishi mumkin.

Statistik va regressiya tahlili: mavjud ma’lumotlar asosida omillarning o‘zaro bog‘liqligini aniqlaydi, ammo real vaqt rejimidagi o‘zgarishlarni hisobga olmaydi.

Makro va mikroiqtisodiy ko‘rsatkichlarga asoslangan tahlil: umumiy tendensiyalarni aniqlashga xizmat qiladi, lekin aniq biznes qarorlari uchun yetarli tafsilotlarni taqdim etmaydi.

Ushbu metodlarning cheklovlari elektron tijoratning tez o‘zgaruvchan tabiati, global raqobat va iste’molchilar ehtiyojlariga tezkor javob berish zarurati bilan bog‘liq. Shu sababli, yanada samarali va dinamik tahlil metodlariga ehtiyoj mavjud. Bizning fikrimizcha, omillarni natijaga ta’sir darajasi asosida tasniflash maqsadga muvofiqdir. Elektron tijoratning rivojlanishiga ta’sir ko‘rsatuvchi omillarni quyidagi kategoriyalarga ajratib, chuqur o‘rganish zarur:

ta’sir darajasi: bevosita va bilvosita omillar;

ta’sir yo‘nalishi: ijobiy va salbiy omillar;

ta’sir ko‘lami: makroiqtisodiy va mikroiqtisodiy omillar;

vaqt omili: doimiy va vaqtinchalik omillar.

Bu omillar elektron tijorat ekotizimining shakllanishi va barqaror rivojlanishiga ta’sir ko‘rsatadi. Omillarni bevosita va bilvosita ta’sir etuvchi turlarga ajratish uchun quyidagi qonuniyatlar va tamoyillarga asoslanish maqsadga muvofiqdir:

Sabab-oqibat aloqasi tamoyili: omillarning elektron tijoratga ta’sir qilish kuchi va tezligini aniqlaydi.

Iqtisodiy va ijtimoiy bog‘liqlik qonuni: omillarning iqtisodiy yoki ijtimoiy jihatdan elektron tijorat bilan bog‘liqligiga qarab ajratiladi.

Tizimli yondashuv tamoyili: elektron tijorat o‘zaro bog‘liq elementlardan tashkil topgan tizim sifatida qaraladi.

Dinamik ta’sir tamoyili: omillarning vaqt davomida o‘zgarishiga asoslanadi.

Elektron tijorat ekotizimi tezkorlik va moslashuvchanlikni talab qiladi. Iste’molchilarning xarid odatlari, bozor tendensiyalari va raqobatchilar harakatlari tez o‘zgaradi. Bu o‘zgarishlarni aniq va samarali tahlil qilish uchun an’anaviy usullardan tashqari innovatsion metodlarni qo‘llash talab etiladi. Tizimli-holistik yondashuv elektron tijoratga ta’sir etuvchi omillarni kompleks va uzviy bog‘liq holda tahlil qilish imkonini beradi. Uning asosiy afzalliklari:

Kompleks yondashuv: omillarni alohida emas, o‘zaro ta’sir doirasida ko‘rib chiqadi.

Sabab-oqibat aloqalarini aniqlash: bevosita va bilvosita ta’sir etuvchi omillarni ajratadi.

Tizimli tahlil: omillarni o‘zaro bog‘liq tizim sifatida ko‘rib chiqadi.

Dinamik monitoring va prognoz qilish: omillarning vaqt o‘tishi bilan o‘zgarishini tahlil qiladi.

Optimal qaror qabul qilish: elektron tijorat ekotizimida samarali strategiyalar ishlab chiqish imkoniyatini yaratadi.

Moslashuvchanlik va uzluksizlik: yangi ma’lumotlar va omillar kiritilishi bilan tahlil jarayoni doimiy takomillashtiriladi.

Tizimli-holistik yondashuv doirasida elektron tijoratga ta’sir etuvchi omillarni “ta’sir darajasi, ta’sir yo‘nalishi, ta’sir ko‘lami va vaqt omili” kabi mezonlar bo‘yicha ajratish quyidagi tartibda amalga oshiriladi (1-jadval).

1-jadval

Tizimli-holistik yondashuv doirasida elektron tijoratga ta’sir etuvchi omillar tasnifi

Daraja	Tavsif	Misollar
Kuchli ta’sir qiluvchi omillar	Elektron tijorat rivojlanishiga bevosita va sezilarli darajada ta’sir ko‘rsatadigan omillar	Internet tezligi va qamrovi, raqamli to‘lov tizimlari, iste’molchilarning onlayn xarid qilish odatlari
O‘rtacha ta’sir qiluvchi omillar	Elektron tijoratga bilvosita ta’sir qiluvchi, ammo muhim omillar	Huquqiy tartibga solish, logistika infratuzilmasi, marketing strategiyalari
Zaif ta’sir qiluvchi omillar	Uzoq muddatda yoki cheklangan segmentlarga ta’sir qiluvchi omillar	Ijtimoiy va madaniy omillar, ekologik talablar

Ushbu mezon elektron tijoratga ta’sir etuvchi omillarning intensivligini aniqlashga qaratilgan. Tizimli-holistik yondashuv asosida omillarning o‘zaro ta’sir matritsasi ishlab chiqiladi, bu esa omillarning bir-biriga ta’sirini baholash imkonini beradi.



1-rasm. Omillarning o‘zaro ta’sir matritsasi

Matritsa yordamida har bir omil o‘rtasidagi o‘zaro ta’sir kuchi baholanadi va ta’sir darajasi quyidagi mezonlar bo‘yicha aniqlanadi:

0 – omillar o‘rtasida hech qanday ta’sir mavjud emas;

1 – omillar o‘rtasida zaif ta’sir mavjud;

2 – omillar o‘rtasida o‘rta darajada ta’sir mavjud;

3 – omillar o‘rtasida kuchli ta’sir mavjud.

Matritsaning vertikal va gorizontal o‘qlarida bir-biriga ta’sir qiluvchi omillar joylashgan bo‘lib, matritsaning har bir katakchasida ta’sir darajasi (0-3) ko‘rsatilgan.

2-jadval

Tizimli-holistik yondashuv asosida omillarning o‘zaro ta’siri matritsasi

Omillar	**Texnologiyalarni ijtimoiy qabul qilinishi**	**Iqtisodiy barqarorlik**	**Aholining yosh qatlamlari**	**Qonunchilik**	**Iqlim sharoitlari**
Texnologiyalarni ijtimoiy qabul qilinishi	X	3	3	2	1
Iqtisodiy barqarorlik	3	X	2	2	1
Aholining yosh qatlamlari	2	2	X	1	0
Qonunchilik	2	2	1	X	0
Iqlim sharoitlari	1	1	0	0	X

Matritsa yordamida omillar o‘rtasidagi ta’sir kuchi 0 (ta’sir yo‘q) dan 3 (kuchli ta’sir) gacha bo‘lgan mezonlar bo‘yicha baholanadi. Bu Tizimli-holistik yondashuv elektron tijoratning ko‘p omilli ekotizimini optimallashtirilgan usulda tadqiq qilish, reallikni to‘liq aks ettirish va nazariya bilan amaliyotni uyg‘unlashtirish imkonini beradi.

Foydalanilgan adabiyotlar ro‘yxati

1. Лола И.С. и Бакеев М.Б. (2022). Цифровая деятельность российских организаций в сфере услуг информационных технологий: тенденции и векторы цифровых разработок в сфере развития технологий электронной коммерции и маркетинга. *Современная экономика: проблемы и решения*, 14(3), 45-60. https://journals.vsu.ru/meps/article/download/10492/9580/[](https://journals.vsu.ru/meps/article/download/10492/9580/)
2. Коротких В.В. (2021). Статистический анализ факторов развития электронной коммерции на основе открытых данных. *HSE Economic Journal*, 25(2), 123-140. https://publications.hse.ru/articles/482946032[](https://publications.hse.ru/en/)
3. Kotler, P., & Keller, K. L. (2016). *Marketing Management* (15th ed.). Pearson Education.
4. Laudon, K. C., & Traver, C. G. (2020). *E-commerce: Business, Technology, Society* (16th ed.). Pearson Education.

ELEKTRON TIJORAT BOZORI SALOHIYATINI BAHOLASH USLUBIYOTINI TAKOMILLASHTIRISH

Maxmudov Lazizbek Ubaydullo o‘g‘li
Samarqand iqtisodiyot va servis instituti
Real iqtisodiyot kafedrasi dotsenti, PhD
Tel: 97 913 60 19, ORCID: 0000-0002-6819-6543
e-mail: lazizmakhmudov90@gmail.com

Annotatsiya: ushbu tezis elektron tijorat bozori salohiyatini baholash uslubiyotini takomillashtirishga bag‘ishlanadi. Bozorni aniqlashning asosiy usullari, ularning afzalliklari va kamchiliklari ko‘rib chiqiladi. Gibrid usulning konseptual modeli taklif qilinib, Big Data, AI va ML texnologiyalarini integratsiya qilish orqali tahlilning aniqligi oshiriladi. Dinamik omil modellari (DFM) ko‘p o‘lchovli ma’lumotlarni tahlil qilish va uzoq muddatli tendensiyalarni prognozlashda samarali ekanligi ta’kidlanadi.

Kalit so‘zlar: elektron tijorat, bozor salohiyati, gibrid usul, Big Data, AI, ML, dinamik omil modellari, prognozlash, iste’molchi xatti-harakatlari.

Elektron tijorat bozori hajmi va salohiyatini aniqlash strategik rejalashtirish va asosli biznes qarorlarini qabul qilish uchun muhim ahamiyatga ega. Bu korxonalarga bozordagi imkoniyatlarni tushunish, raqobatni baholash, iste’molchilarning xarid odatlari va ehtiyojlarini aniqlash, shuningdek,

samarali marketing strategiyalarini ishlab chiqish uchun maqsadli segmentlarni belgilashda yordam beradi. Bundan tashqari, bozor salohiyatini baholash investorlar va tadbirkorlarga investitsiyalar bo‘yicha qaror qabul qilish va yangi mahsulot yoki xizmatlarni joriy etishda asosli yondashuvni ta’minlaydi, bu esa barqaror o‘sish va raqobatbardoshlikni oshiradi.

Hozirda elektron tijorat bozori hajmini aniqlash uchun bir qator usullar qo‘llaniladi, ularning har biri o‘ziga xos afzallik va cheklovlarga ega. Quyida asosiy usullar va ularning tavsifi keltirilgan (1-jadval).

1-jadval

Elektron tijorat bozori hajmini aniqlash usullari

№	Usul	Tavsifi
1	Pastdan yuqoriga ko‘tarilish (Bottom-up)	Mikro darajadagi ma’lumotlarni to‘plash va tahlil qilish, so‘ngra ularni umumiy bozor hajmini aniqlash uchun jamlash
2	Yuqoridan pastga tushish (Top-down)	Umumiy iqtisodiy ko‘rsatkichlardan (YaIM, chakana savdo) boshlab, aniq bir bozorga o‘tish
3	Iste’molchi talabi	Iste’molchilarning xarid odatlari va afzalliklarini so‘rovnomalar yoki onlayn qidiruv tendensiyalari orqali o‘rganish
4	Trafik va konversiya tahlili	Elektron tijorat veb-saytlaridagi trafik ma’lumotlari (Google Analytics, SimilarWeb) asosida tahlil
5	Ekspert baholashi	Soha mutaxassislari bilan suhbatlar yoki tahliliy hisobotlardan (Forrester, Gartner) foydalanish
6	To‘lov va tranzaksiya ma’lumotlari	To‘lov tizimlari va yirik onlayn bozorlardan (Amazon, Uzum) olingan ma’lumotlarni tahlil qilish
7	Ijtimoiy tarmoq ma’lumotlari	Ijtimoiy tarmoqlardagi brend faolligi va sharhlarni o‘rganish orqali talabni baholash

Pastdan yuqoriga ko‘tarilish usuli uch xil yondashuvni o‘z ichiga oladi: 1) sohadagi korxonalarning savdo ma’lumotlarini to‘plash va jamlash; 2) potensial mijozlar soni va o‘rtacha xarid summasini hisoblash; 3) bozor segmentlarini (tovar, mintaqa bo‘yicha) tahlil qilish. Yuqoridan pastga tushish usuli YaIM, iste’mol xarajatlari kabi makroiqtisodiy ko‘rsatkichlardan foydalanadi yoki elektron tijoratning umumiy chakana savdodagi ulushini baholaydi. Iste’molchi talabi usuli so‘rovnomalar va qidiruv so‘rovlari orqali iste’molchilarning xatti-harakatlarini o‘rganadi. Trafik va konversiya tahlili veb-sayt trafik ma’lumotlari va konversiya foizini hisoblaydi. Ekspert baholashi mutaxassislarning prognozlari yoki tahliliy hisobotlarga asoslanadi. To‘lov va tranzaksiya ma’lumotlari usuli to‘lov tizimlari va onlayn bozorlar (masalan, Uzum, Olcha) ma’lumotlarini tahlil qiladi. Ijtimoiy tarmoq ma’lumotlari usuli brend faolligi va iste’molchi sharhlarini o‘rganadi.

2-jadval

Elektron tijorat bozori hajmini aniqlash usullarining afzalliklari va kamchiliklari

№	Usul	Afzalliklari	Kamchiliklari
1	Pastdan yuqoriga	Yuqori aniqlik, chuqur tahlil, yangi bozorlar uchun mos	Ko‘p vaqt va resurs talab qiladi, ma’lumot to‘plash qiyin
2	Yuqoridan pastga	Tez, umumiy tasavvur beradi, oson	Kam aniqlik, taxminlarga asoslanadi
3	Iste’molchi talabi	Iste’molchi xatti-harakatlarini tushunish, dolzarb	Noto‘g‘ri ma’lumotlar, qimmat, to‘liq bo‘lmasligi mumkin
4	Trafik va konversiya	Real vaqtda ma’lumot, batafsil tahlil	Ma’lumot almashish cheklovlari, murakkab vositalar
5	Ekspert baholashi	Mutaxassis tajribasi, tez prognoz	Subyektiv, bir tomonlama bo‘lishi mumkin
6	To‘lov va tranzaksiya	Obyektiv, aniq ma’lumot	Maxfiylik cheklovlari, qisman ma’lumot

7	Ijtimoiy tarmoq ma’lumotlari	Joriy trendlar, katta ma’lumot	Noto‘g‘ri yoki to‘liq bo‘lmagan ma’lumot

Gibrid usulni yaratish ushbu usullarning kuchli tomonlarini birlashtirib, zaif tomonlarini minimallashtiradi. Gibrid usulning konseptual modeli quyidagi rasmda keltirilgan.



1-rasm. Elektron tijorat bozorining hajmi va salohiyatini aniqlash uchun gibrid uslubning konseptual modeli

Ma’lumotlarni yig‘ish: savdo ma’lumotlari, ijtimoiy tarmoqlar, veb-analitikalar va to‘lov tizimlaridan ma’lumotlar to‘planadi (Hadoop, Spark vositalari yordamida).

Tahlil qilish: vaqt qatorlari (ARIMA, LSTM), klasterlash (K-means) va regressiya tahlillari orqali prognozlar amalga oshiriladi.

Integratsiya: turli manbalardan olingan ma’lumotlar AI asosidagi tizimlar yordamida birlashtiriladi.

Monitoring va moslashtirish: yangi ma’lumotlarga moslashish uchun o‘z-o‘zini o‘rganuvchi algoritmlar (reinforcement learning) qo‘llaniladi.

Qaror qabul qilish: vizualizatsiya vositalari (Power BI, Tableau) yordamida strategik qarorlar shakllantiriladi.

Elektron tijorat bozori salohiyatini baholashda quyidagi ko‘rsatkichlar muhimdir:

1. Yalpi sotilgan tovarlar qiymati: platformadagi umumiy savdo hajmi.
2. Yalpi daromad: korxonaning savdo, reklama va komissiyalardan olingan daromadi.
3. Buyurtmalar soni: muayyan davrdagi umumiy buyurtmalar.
4. O‘rtacha buyurtma qiymati: bitta buyurtmaning o‘rtacha narxi.
5. Faol foydalanuvchilar soni: xarid qilgan foydalanuvchilar.
6. Yangi foydalanuvchilar soni: birinchi xaridni amalga oshirganlar.
7. Mijozlarni ushlab turish darajasi: takroriy xaridlar ulushi.
8. Konversiya darajasi: xarid qilgan tashrif buyuruvchilar foizi.
9. Mijozlarni jalb qilish xarajati: yangi mijoz jalb qilish xarajatlari.
10. Mijozning qiymati: bir mijozdan kutilgan o‘rtacha daromad.
11. Mobil tranzaksiya hajmi: mobil qurilmalar orqali savdo ulushi.
12. Bozor ulushi: raqobatchilarga nisbatan korxona ulushi.

Raqamli texnologiyalar, xususan, Big Data, AI va ML bozor tahlilida aniqlik va moslashuvchanlikni oshiradi. Big Data iste’molchi xatti-harakatlarini, talab dinamikasini va marketing samaradorligini tahlil qilishda, AI va ML esa prognozlash, segmentatsiya va optimallashtirishda muhim vositalardir.

Prognoz modellaridan Dinamik omil modellari (DFM) ayniqsa samarali hisoblanadi. DFM ko‘p o‘lchovli ma’lumotlarni oz sonli yashirin omillar orqali tahlil qiladi, iqtisodiy iqlim, iste’molchi xohishlari va texnologik tendensiyalarni aniqlaydi. Ushbu model qisqa va uzoq muddatli prognozlarni ta’minlaydi, turli manbalardan ma’lumotlarni integratsiya qilib, xavf va imkoniyatlarni baholaydi.

3-jadval

Elektron tijorat bozori salohiyatini aniqlash modellari

№	Model guruhi	Model turlari	Tavsifi
1	Miqdoriy modellar	ARIMA	Vaqt seriyalarini tahlil qiladi, mavsumiylik va tendensiyalarni aniqlaydi
		Eksponensial silliqlash	Tartibsiz ma’lumotlarni tekislaydi
		SARIMA	Mavsumiylikni hisobga oladi
	Regressiya modellari	Chiziqli regressiya	O‘zgaruvchilar o‘rtasidagi chiziqli bog‘liqlikni aniqlaydi
		Logistik regressiya	Ikkilik natijalarni bashorat qiladi
	Neyron tarmoqlar	Ko‘p qatlamli perseptronlar	Nochiziqli bog‘liqliklarni aniqlaydi
		RNN (LSTM)	Uzoq muddatli bog‘liqliklarni ushlaydi
2	Sifat modellari	Delfi usuli	Ekspertlar so‘rovi orqali prognoz
		Ssenariy tahlili	Turli stsenariylarni ishlab chiqadi
		Analogiya	Shu kabi bozorlar bilan taqqoslaydi
3	Gibrid modellar	Miqdoriy va sifat usullarini birlashtiradi	Aniqroq prognozlar beradi

Elektron tijorat bozori salohiyatini prognozlashda bozor, tovar va xizmatlarning xususiyatlari, shuningdek, iqtisodiy inqirozlar, siyosiy voqealar va texnologik o‘zgarishlar kabi tashqi omillar muhim ahamiyatga ega. Iste’molchilarning xatti-harakatlarini tahlil qilish aniq va ishonchli modellar yaratishga yordam beradi. Ijtimoiy, iqtisodiy, demografik, geografik va siyosiy omillarni o‘zaro bog‘langan holda ko‘p o‘lchovli ma’lumotlar asosida quyidagi zamonaviy modellar qo‘llaniladi:

Vektor avtoregressiyasi (VAR): Bir nechta o‘zgaruvchilar o‘rtasidagi bog‘liqlikni tahlil qiladi, teskari munosabatlarni aniqlaydi. Afzalligi – kompleks tahlil imkoniyati, kamchiligi – katta hajmdagi tarixiy ma’lumotlar talab qilinadi.

Vektor xatolarini tuzatish modeli (VECM): Uzoq muddatli muvozanatni hisobga oladi, lekin kointegratsiya testlari va murakkab talqin talab qiladi.

Bayesian VAR (BVAR): Cheklangan ma’lumotlarda samarali, lekin hisoblash jarayonlari murakkab.

Gradientniy busting algoritmlari (XGBoost, LightGBM): Nochiziqli bog‘liqliklarni aniqlaydi, yuqori aniqlik beradi, lekin haddan tashqari moslashish xavfi mavjud.

Long Short-Term Memory (LSTM): Uzoq muddatli bog‘liqliklarni ushlaydi, murakkab tendensiyalarni aniqlaydi, lekin katta ma’lumot va resurs talab qiladi.

Dinamik omil modellari (DFM): Ko‘p o‘lchovli ma’lumotlarni yashirin omillar orqali tahlil qiladi, katta ma’lumotlar bilan samarali ishlaydi, lekin sozlash uchun chuqur bilim talab qiladi.

Tadqiqotlar shuni ko‘rsatadiki, DFM elektron tijorat bozori salohiyatini prognozlashda ayniqsa samarali. U ijtimoiy-iqtisodiy, demografik va texnologik omillarni oz sonli yashirin omillar orqali tahlil qilib, qisqa va uzoq muddatli prognozlarni ta’minlaydi. DFM heterojen ma’lumotlarni integratsiya qiladi, xavf va imkoniyatlarni aniqlaydi, tezisda keltirilgan gibrid usulga mos ravishda moslashuvchanlikni ta’minlaydi.

Foydalanilgan adabiyotlar ro‘yxati

1. Лола И.С. и Бакеев М.Б. (2022). Цифровая деятельность российских организаций в сфере услуг информационных технологий: тенденции и векторы цифровых разработок в сфере развития технологий электронной коммерции и маркетинга. *Современная экономика:*

проблемы и решения, 14(3), 45-60. https://journals.vsu.ru/meps/article/download/10492/9580/[](https://journals.vsu.ru/meps/article/download/10492/9580/)
2. Коротких В.В. (2021). Статистический анализ факторов развития электронной коммерции на основе открытых данных. *HSE Economic Journal*, 25(2), 123-140. https://publications.hse.ru/articles/482946032[](https://publications.hse.ru/en/)
3. Bertalanffy, L. von. (1968). *General System Theory: Foundations, Development, Applications*. New York: George Braziller.
4. Forrester, J. W. (1994). System Dynamics: A Framework for Modeling Complex Systems. *System Dynamics Review*, 10(2-3), 251-265.

YASHIL IQTISODIYOTDA INNOVATSION TEXNOLOGIYALARNING AHAMIYATI

Nabixonov Mehriddin Sherali og'li
Toshkent davlat iqtisodiyot universiteti
1-bosqich talabasi
E-mail: mehriddinforever@gmail.com
Tel: +998915609754

Annotatsiya: Mazkur tezisda yashil iqtisodiyotda raqamli texnologiyalarning tutgan o'rni tahlil qilingan bo'lib. sun'iy intellekt, Internet narsalar (IoT), katta ma'lumotlar (Big Data), bulutli hisoblash, blokcheyn va geoaxborot tizimlari (GIS) kabi innovatsion texnologiyalarning ekologik barqarorlikka qo'shayotgan hissasi, ularning chiqindilarni kamaytirish, resurslardan samarali foydalanish va atrof-muhit monitoringi kabi sohalardagi amaliy natijalari misollar bilan ochib berilgan. Tezisda Germaniya, Janubiy Koreya, Braziliya, AQSh kabi davlatlar tajribasi orqali ushbu texnologiyalarni joriy etishning natijalari tahlil qilingan hamda O'zbekiston uchun ularning dolzarbligi asoslab berilgan. Yakuniy xulosa sifatida raqamli transformatsiyaning yashil iqtisodiyotga o'tishdagi strategik roli yoritilgan.

Kalit so'zlar: yashil iqtisodiyot, raqamli texnologiyalar, sun'iy intellekt, IoT, Big Data, ekologik barqarorlik, aqlli tizimlar

Yashil iqtisodiyot – bu ekologik xavflarni kamaytirish va tabiiy muhitni saqlagan holda barqaror rivojlanishni ta'minlashga yo'naltirilgan iqtisodiy modeldir. U ekologik iqtisodiyot bilan uzviy bog'liq bo'lsa-da, ko'proq siyosiy atama sifatida ishlatiladi. Mutaxassislar fikriga ko'ra, yashil iqtisodiyot an'anaviy "jigarrang iqtisodiyot"ga qaraganda qisqa muddat ichida yalpi ichki mahsulotning o'sishini ta'minlash, aholi jon boshiga to'g'ri keladigan daromadni oshirish va bandlik darajasini barqaror saqlash yoki yaxshilash imkoniyatiga ega [1].

Raqamli texnologiyalar bugungi kunda yuqoridagi maqsadlarga erishishda muhim vosita bo'lib xizmat qilmoqda. Axborot-kommunikatsiya texnologiyalarining jadal rivojlanishi natijasida sun'iy intellekt, avtomatlashtirish, Big Data, bulutli hisoblash, blokcheyn va IoT kabi innovatsiyalar ekologik barqarorlikka xizmat qiluvchi muhim vositalarga aylanyapti. Ushbu texnologiyalar yordamida chiqindilarni kamaytirish, resurslardan samarali foydalanish, energiya iste'molini optimallashtirish va ekologik monitoring tizimlarini takomillashtirish imkoniyati paydo bo'lmoqda. Bu esa, o'z navbatida, yashil iqtisodiyotni rivojlantirish va global ekologik muammolarni hal etishda muhim ahamiyat kasb etadi.

IoT va sun'iy intellekt (AI) texnologiyalari energiya tizimlarida samaradorlikni oshirish, qayta tiklanuvchi manbalarni muvozanatli boshqarish va iste'molni bashorat qilishda muhim vosita bo'lib xizmat qilmoqda. Masalan, Germaniyada "Energiewende" dasturi doirasida IoT texnologiyalari elektr tarmoqlarining aqlli boshqaruvini ta'minlab, energiya isrofgarchiligini kamaytirmoqda [2]. Janubiy Koreyada esa "Green New Deal" strategiyasi asosida sun'iy intellekt yordamida sanoat va transport sohalarida uglerod chiqindilari kamaytirilmoqda, aqlli tizimlar yordamida ishlab chiqarish va iste'mol o'rtasidagi tafovut minimallashtirilmoqda [3].

Transport tizimlarida raqamli monitoring, GPS texnologiyasi va bulutli servislar orqali yoqilg‘i sarfini optimallashtirish, chiqindilarni kamaytirish va jamoat transportlarini “yashil” qilish bo‘yicha yechimlar taklif etilmoqda. Qishloq xo‘jaligida esa “aqlli dehqonchilik” texnologiyalari (smart farming) orqali suv, o‘g‘it va urug‘lar aniq va tejab-tergab ishlatilmoqda [4].

Sanoat korxonalarida raqamli “tvink” (digital twin) texnologiyasi ishlab chiqarish jarayonlarini modellashtirish va optimallashtirish imkonini beradi, bu esa resurslarning isrofini kamaytiradi va chiqindilarni minimallashtiradi [5].

Shuningdek, ekologik monitoring va raqamli tahlil texnologiyalari yashil iqtisodiyotda muhim o‘rin tutmoqda. Big Data, AI, GIS, sun’iy yo‘ldosh tasvirlari va dronlar orqali havo, suv va tuproq sifatini real vaqt rejimida kuzatish, ekologik xavflarni aniqlash va ularni oldini olish choralari ko‘rilmoqda. Masalan, Braziliyada sun’iy yo‘ldosh va GIS texnologiyalari yordamida Amazon o‘rmonlarining noqonuniy kesilishi muntazam nazorat qilinmoqda. Maxsus raqamli platformalar kesilgan hududlarni aniqlab, hukumatga tezkor harakat qilish imkonini bermoqda [6]. AQSh va Kanadada meteorologik AI modellari yordamida harorat, yog‘ingarchilik va iqlim xavflari prognoz qilinib, qishloq xo‘jaligi va suv resurslarini boshqarishda foydalanilmoqda [7]. Yevropa Ittifoqi esa Big Data asosida ekologik ifloslanish darajalarini tahlil qilib, qaror qabul qilishda aniq va ishonchli ma’lumotlardan foydalanmoqda [8].

Shu kabi ilg‘or tajribalardan ilhomlangan holda, O‘zbekiston Respublikasi ham ekologik monitoring va raqamli tahlil yo‘nalishida faol ish olib bormoqda. Jumladan, atmosferaga chiqarilayotgan ifloslantiruvchi moddalar hajmini aniqlash va tahlil qilish maqsadida statistik ma’lumotlar muntazam ravishda yig‘ilmoqda. Quyidagi jadvalda O‘zbekistondagi hududlar kesimida atmosfera ifloslanishi ko‘rsatkichlari keltirilgan (1-jadval). Ushbu raqamlar asosida hududiy farqlar, tendensiyalar hamda raqamli texnologiyalar yordamida erishilgan ijobiy natijalar quyida sharhlanadi.

Atmosferaga chiqarilayotgan ifloslantiruvchi moddalar miqdori – yashil iqtisodiyotning rivojlanish darajasini baholovchi muhim indikatorlardan biridir. 2016–2023-yillar oralig‘ida O‘zbekiston Respublikasida bu ko‘rsatkich 1008,2 ming tonnadan 763,2 ming tonnagacha pasaygan bo‘lib, umumiy pasayish tendensiyasi kuzatilmoqda. Bu raqamlar ekologik nazoratni kuchaytirish, ishlab chiqarish texnologiyalarini modernizatsiya qilish va qisman raqamli nazorat tizimlarini joriy etish bilan bog‘liq.

Qoraqalpog‘iston Respublikasi va Andijon viloyatida ifloslantiruvchi moddalar chiqarilishi 2016-yildagi mos ravishda 30,6 va 36,7 ming tonnadan 2023-yilga kelib 9,8 va 10,5 ming tonnagacha tushgan. Bu hududlarda ekologik monitoringning kuchaytirilishi, ishlab chiqarishda zamonaviy filtrlash texnologiyalarining joriy etilishi hamda chiqindilarni avtomatik nazorat qilish tizimlarining tatbiqi bu kabi pasayishga erishishda muhim rol o‘ynagan bo‘lishi mumkin.

Buxoro, Jizzax va Farg‘ona viloyatlarida ham o‘zgarishlar yaqqol seziladi. Masalan, Buxoro viloyatida 2018-yilda 69,1 ming tonnani tashkil etgan ifloslantiruvchi moddalar 2023-yilga kelib 30,7 ming tonnaga tushgan. Jizzax viloyati esa 2016-yilda 63,4 ming tonna darajasidan boshlab 2018–2019-yillarda keskin pasayishni boshdan kechirgan bo‘lsa-da, keyingi yillarda barqarorlashtirishga muvaffaq bo‘lgan va 2023-yilda 29,5 ming tonna darajasini qayd etgan.

Eng ijobiy natijalar Toshkent shahri va Namangan viloyatlarida ko‘zga tashlanadi. Toshkent shahri 2018-yilda 74,5 ming tonna chiqindilar bilan cho‘qqiga chiqqan bo‘lsa, 2023-yilga kelib bu raqam 15,2 ming tonnagacha tushgan. Bu raqamlar “aqlli shahar” (smart city) konsepsiyasi, ekologik nazorat tizimlari va transportda raqamli optimallashtirish texnologiyalari (masalan, GPS orqali marshrut nazorati) samarali ishlayotganining dalilidir.

Qashqadaryo viloyatida esa yuqori chiqindilar saqlanib qolmoqda. 2016-yildagi 167,9 ming tonnalik darajadan 2023-yilda 117,7 ming tonnagacha kamayish kuzatilgan bo‘lsa-da, bu hali ham respublika bo‘yicha eng yuqori ko‘rsatkichlardan biri sanaladi. Bu hududda sanoat tarmoqlari salmoqli ulushga ega bo‘lgani sababli, raqamli chiqindi nazorati va avtomatlashtirilgan filtrlash tizimlari keng joriy etilishi kerak.

1-jadval

Atmosferaga chiqarilgan ifloslantiruvchi moddalar

Klassifikator	2016	2017	2018	2019	2020	2021	2022	2023
O’zbekiston Respublikasi	1008,2	853,5	883,7	952,8	924,4	908,7	873,6	763,2
Qoraqalpog’iston Respublikasi	30,6	37,7	34,0	37,2	28,9	31,4	21,1	9,8
Andijon viloyati	36,7	15,8	15,9	14,3	11,5	4,9	17,3	10,5
Buxoro viloyati	58,5	63,8	74,8	69,1	37,1	44,8	35,6	30,7
Jizzax viloyati	63,4	5,2	11,8	4,3	3,4	2,9	27,0	29,5
Navoiy viloyati	57,4	44,1	49,9	43,6	48,4	68,6	41,6	35,0
Namangan viloyati	15,8	15,9	15,2	15,8	15,0	24,0	7,4	5,0
Farg’ona viloyati	103,2	60,1	53,2	49,6	50,5	46,5	49,5	26,4
Qashqadaryo viloyati	167,9	165,7	152,2	140,4	128,1	132,2	115,7	117,7
Samarqand viloyati	51,6	37,2	52,1	44,2	52,7	39,4	38,7	39,4
Sirdaryo viloyati	68,9	59,6	60,5	47,8	71,8	45,7	49,1	3,1
Surxondaryo viloyati	3,2	3,2	5,1	6,9	6,5	7,1	7,3	7,4
Xorazm viloyati	5,2	9,2	7,1	7,2	6,8	7,2	4,5	3,4
Toshkent viloyati	68,9	59,6	60,5	47,8	71,8	45,7	49,1	3,1
Toshkent shahri	27,1	33,1	15,3	74,5	33,7	28,6	20,8	15,2

Umuman olganda, 2016–2023-yillar davomida O‘zbekiston hududlari bo‘yicha atmosferaga chiqarilgan ifloslantiruvchi moddalar miqdorida ijobiy pasayishlar kuzatilgan bo‘lsa-da, bu holat turli texnologik yondashuvlar bilan izohlanadi. Raqamli texnologiyalar – xususan, AI, IoT, sensor monitoring va Big Data – ekologik jarayonlarni nazorat qilish, chiqindilarni tahlil qilish va real vaqt monitoringi orqali ifloslanish darajasini kamaytirishga xizmat qilmoqda. Yashil iqtisodiyotga o‘tish uchun bu texnologiyalarni barcha hududlarda keng joriy qilish muhim ahamiyat kasb etadi.

Xulosa

Raqamli texnologiyalar yashil iqtisodiyotga o‘tishda strategik vosita sifatida namoyon bo‘lmoqda. IoT, AI, Big Data, bulutli hisoblash va boshqa ilg‘or raqamli yechimlar yordamida ekologik xavflarni kamaytirish, resurslardan samarali foydalanish, chiqindilar hajmini nazorat qilish va atrof-muhit monitoringini yo‘lga qo‘yish imkoniyatlari sezilarli darajada kengaymoqda. Rivojlangan davlatlar – Germaniya, Janubiy Koreya, AQSh va Yevropa Ittifoqi tajribasi raqamli texnologiyalarning yashil iqtisodiyotni shakllantirishdagi muhim rolini amalda isbotlamoqda.

O‘zbekiston kabi rivojlanayotgan mamlakatlar uchun ham bu yo‘nalish strategik ahamiyatga ega bo‘lib, zamonaviy texnologiyalarni joriy etish orqali ekologik barqarorlik, iqtisodiy samaradorlik va ijtimoiy farovonlikka erishish imkoniyati mavjud. Shu bois, yashil iqtisodiyotda raqamli transformatsiya jarayonlarini jadallashtirish bugungi kunning dolzarb vazifalaridan biridir.

Adabiyotlar:

1. Xodjayeva, M. U. (2024). Yangi O‘zbekistonni “Yashil iqtisodiyot” ga o‘tish istiqbollari. Golden Brain, 2(4), 69-74.
2. AFRY. (n.d.). Germany’s Energiewende Uncovered: The role of grid stabilisation and optimisation in ensuring success. Retrieved from https://afry.com/en/insight/germanys-energiewende-uncovered-role-grid-stabilisation-and-optimisation-in-ensuring.
3. International Energy Agency. (2020). Korean New Deal: Digital New Deal, Green New Deal, and stronger safety net. Retrieved from https://www.iea.org/policies/11514-korean-new-deal-digital-new-deal-green-new-deal-and-stronger-safety-net.
4. Berdanov M. (2025). Qishloq xo‘jaligi resurslaridan samarali foydalanishni takomillashtirish. Journal of new century innovations, 70(2), 159-165.
5. Erdanayev B. (2025). Hududning drayver tarmoqlarini yashil iqtisodiyot tamoyillari asosida rivojlantirish – davr talabi . Journal of Universal Science Research, 3(3), 119-137.
6. NASA Earth Observatory. (2019). Tracking Amazon Deforestation from Above. Retrieved from https://earthobservatory.nasa.gov/images/145988/tracking-amazon-deforestation-from-above.
7. Environment and Climate Change Canada. (2024). Artificial intelligence integration roadmap for numerical weather and environmental predictions. Retrieved from https://www.canada.ca/en/environment-climate-change/services/science-technology/science-strategy/artificial-intelligence-integration-roadmap-numerical-weather-environmental-predictions.
8. European Environment Agency. (2025). Datahub. Retrieved from https://www.eea.europa.eu/en/datahub
9. Abdumannopova, B. (2025). Yashil iqtisodiyotni rivojlantirish: Dunyo tajribasi va O‘zbekistonda tatbiq etish imkoniyatlari. Modern Science and Research, 4(1), 872–877.

RAQAMLI TEXNOLOGIYALAR - YASHIL IQTISODIYOTNING ASOSIY DRAYVERI

Narziyev Nosir Baxshilloyevich,
TATU ATDT kafedrasi katta o’qituvchisi, narziev@tuit.uz
Isoqov Diyorbek Dilshod o’g’li,
TATU DIF talabasi , isoqovdiyorbek742@gmail.com

Ushbu maqolada raqamli texnologiyalarning yashil iqtisodiyot rivojidagi o‘rni yoritilgan. Unda sun’iy intellekt, IoT, katta ma’lumotlar va boshqa zamonaviy texnologiyalar ekologik barqarorlikni ta’minlashdagi ahamiyati misollar orqali ko‘rsatib berilgan. Shuningdek, raqamli texnologiyalar yordamida resurslarni tejash, atrof-muhit monitoringi va yashil ish o‘rinlari yaratish imkoniyatlari tahlil qilingan. Maqolada O‘zbekiston tajribasi asosida mahalliy sharoitda raqamlashtirishning ekologik foydalari ham ko‘rib chiqilgan. Xulosa qismida raqamli texnologiyalar yashil iqtisodiyotning asosiy drayveri ekani asoslab berilgan.

Elektron tijorat, mijozlar qoniqishi, matnli tahlil, sentiment analiz, LSTM, PSO, sun’iy intellekt, chuqur o‘rganish, gipermetodlarni optimallashtirish, mijoz fikrlari.

Kirish

Bugungi kunda insoniyat oldida turgan eng dolzarb muammolardan biri — ekologik muvozanatning buzilishi va iqlim o‘zgarishidir. Global isish, havoning ifloslanishi, tabiiy resurslarning tugab borishi kabi xavfli tendensiyalar barqaror rivojlanishga jiddiy tahdid solmoqda. Shu bois, dunyo miqyosida “yashil iqtisodiyot” konsepsiyasiga bo‘lgan qiziqish ortib bormoqda. Yashil iqtisodiyot — bu atrof-muhitga zarar yetkazmagan holda iqtisodiy o‘sishni ta’minlaydigan, resurslardan samarali foydalanishni ko‘zda tutuvchi yondashuvdir.

Zamonaviy texnologiyalar, ayniqsa raqamli yechimlar, ushbu iqtisodiy modelni amalga oshirishda beqiyos imkoniyatlar yaratmoqda. Raqamli texnologiyalar yordamida energetika, transport, sanoat va qishloq xo‘jaligi sohalarida ekologik xavfsizlikni oshirish, resurslarni tejash va atrof-muhit

monitoringini takomillashtirish mumkin. Shu nuqtai nazardan, ushbu maqolada raqamli texnologiyalarning yashil iqtisodiyot rivojidagi o‘rni, ularning asosiy afzalliklari hamda O‘zbekiston sharoitida qanday qo‘llanilayotgani tahlil qilinadi.

Raqamli texnologiyalar nima uchun muhim?

Raqamli texnologiyalar XXI asrning eng muhim drayverlaridan biri bo‘lib, ular deyarli barcha sohalarga chuqur kirib bormoqda. Ayniqsa, atrof-muhitni muhofaza qilish va resurslardan oqilona foydalanish masalalarida raqamli yechimlarning roli beqiyosdir. Bu texnologiyalar ekologik barqarorlikni ta’minlash, isrofgarchilikni kamaytirish, ishlab chiqarish jarayonlarini optimallashtirish va iqtisodiy samaradorlikni oshirishga xizmat qiladi. Ular insoniyatga global ekologik muammolarga innovatsion yondashuv bilan yondashish imkonini bermoqda.



1-rasm. Energiya tejamkor harakat datchikli ko’cha chiroqlari

Birinchidan, sun’iy intellekt (AI) va katta ma’lumotlar (Big Data) yordamida murakkab ekologik jarayonlarni tahlil qilish, ifloslanish darajasini prognoz qilish va oldini olish mumkin. Masalan, havo sifatini real vaqt rejimida monitoring qiladigan tizimlar yordamida yirik shaharlar ifloslanish manbalarini tezda aniqlab, zarur choralarni ko‘rishmoqda.

Ikkinchidan, Internet of Things (IoT) texnologiyalari ekologik monitoringda muhim rol o‘ynamoqda. Sensorlar va aqlli qurilmalar yordamida suv sarfi, elektr energiyasi iste’moli, chiqindi miqdori kabi ko‘rsatkichlar uzluksiz kuzatilib, real vaqt rejimida boshqariladi. Bu orqali korxona va tashkilotlar o‘z faoliyatini yanada ekologik toza va samarali tarzda tashkil etish imkoniyatiga ega bo‘lmoqda.

Uchinchidan, bulutli texnologiyalar (cloud computing) va blokcheyn texnologiyalari yordamida ishlab chiqarish va logistika sohalarida izchil va shaffof boshqaruv tizimlari yaratilmoqda. Bu esa energiya, xom ashyo va boshqa resurslarning isrofini kamaytirishga, ularni to‘g‘ri taqsimlashga zamin yaratadi. Ayniqsa, blokcheyn asosidagi “yashil energiya savdosi” (green energy trading) tizimlari dunyo bo‘ylab keng ommalashmoqda.

To‘rtinchidan, raqamli texnologiyalar aqlli shaharlar (smart cities) konsepsiyasining negizini tashkil qiladi. Bu shaharlar ekologik toza transport, energiya tejovchi binolar, raqamli chiqindi boshqaruvi tizimlari orqali yashil iqtisodiyotga katta hissa qo‘shadi. Masalan, aqlli chiroqlar faqat odam yoki transport yaqinlashgandagina yonadi, bu esa elektr sarfini sezilarli darajada kamaytiradi.

Beshinchidan, raqamli texnologiyalar ta’lim va ongni oshirish borasida ham muhim rol o‘ynaydi. Onlayn platformalar, mobil ilovalar va virtual laboratoriyalar yordamida ekologik savodxonlikni oshirish, yoshlarni atrof-muhitga mas’uliyat bilan qarashga o‘rgatish mumkin.

Shunday qilib, raqamli texnologiyalar nafaqat texnikaviy taraqqiyotning mahsuli, balki yashil iqtisodiyot sari o‘tishda hal qiluvchi vosita sifatida namoyon bo‘lmoqda. Ular orqali insoniyat tabiiy resurslarga hurmat bilan yondashishni, ekologik xavfsizlikni ta’minlashni va barqaror iqtisodiyotni qurishni o‘rganmoqda.

Raqamli texnologiyalarning yashil iqtisodiyotga ta’siri

Yashil iqtisodiyot — bu iqtisodiy o‘sish va ijtimoiy farovonlikka erishish jarayonida atrof-muhitga zarar yetkazmaslikni ko‘zda tutuvchi yondashuvdir. Ushbu yondashuvda resurslardan oqilona foydalanish, energiya samaradorligini oshirish va chiqindilarni kamaytirish muhim o‘rin tutadi. Raqamli texnologiyalar esa bu jarayonning har bir bosqichida asosiy vosita bo‘lib xizmat qilmoqda.

Transport va yetkazib berish sohasida kuzatiladigan asosiy muammo bu yoqilg‘i sarfini optimallashtirmasdan amalga oshirilayotgan yetkazmalar. Bu nafaqat iqtisodiy zarar, balki ko‘p miqdordagi CO_2 chiqindilariga sabab bo‘ladi. Ayniqsa, bir necha mijozga birma-bir yetkazib berish, mos marshrutlarning tanlanmasligi va transport harakatining noto‘g‘ri rejalashtirilishi natijasida atrof-muhitga ta’sir oshadi. GPS va sun’iy intellekt asosidagi marshrut optimallashtirish tizimlari bu muammoni kamaytiradi. Sun’iy intellekt algoritmlari orqali eng qisqa va eng ekologik samarali yo‘nalish tanlanadi, bu esa yoqilg‘i tejalishiga va chiqindilar kamayishiga olib keladi.

Shuningdek, ekologik bo‘lmagan transport vositalaridan foydalanish karbon izining asosiy manbalaridan biridir. Ichki yonuv dvigatelli avtomobillar o‘rniga elektromobillar yoki velotransport kabi muqobil vositalardan foydalanish orqali ushbu muammoni bartaraf etish mumkin. Biroq, bu texnologiyalarni joriy qilish uchun infrastrukturaviy tayyorgarlik, quvvatlash punktlari va davlat yordami talab etiladi. Yana bir muhim masala bu oziq-ovqat mahsulotlari uchun ishlatiladigan qadoqlarning ekologik xavfliligi. Aksar holatlarda plastik yoki qayta ishlanmaydigan materiallardan foydalaniladi. Bu chiqindilarning ko‘payishiga olib keladi. Biologik parchalanadigan yoki qayta ishlanadigan qadoqlarning joriy etilishi bu muammoni hal qiladi. Bu jarayonni avtomatlashtirish va boshqarish uchun maxsus mobil ilovalar ishlab chiqish ekologik xavfsizlikni ta’minlaydi va mijozlar bilan bog‘liqlikni mustahkamlaydi.

Yashil iqtisodiyot nafaqat ekologik foyda, balki iqtisodiy barqarorlikni ham ta’minlaydi. Raqamlashtirilgan oziq-ovqat xizmati orqali kompaniyalar operatsion xarajatlarni kamaytiradi, foydalanuvchilar bilan interaktiv aloqani kuchaytiradi, xizmat sifatini oshiradi va raqobatbardoshligini mustahkamlaydi. Bundan tashqari, ekologik jihatdan mas’uliyatli xizmatlar ko‘rsatish kompaniyaning ijtimoiy imijini yaxshilaydi va barqaror rivojlanishga hissa qo‘shadi. Ayniqsa, yosh avlodning ekologik ongli iste’molga bo‘lgan ehtiyoji ortib borayotgan bir davrda, yashil tamoyillarga asoslangan xizmat ko‘rsatish korxonalar uchun strategik ustunlik bo‘lib xizmat qiladi.

Xulosa qilib aytganda, yashil iqtisodiyot sharoitida oziq-ovqat xizmatlarini raqamlashtirish bugungi kunning dolzarb yo‘nalishlaridan biridir. Ushbu yo‘nalishda zamonaviy raqamli texnologiyalar – IoT, sun’iy intellekt, mobil ilovalar, smart monitoring, GPS tizimlari kabi innovatsion vositalardan foydalanish orqali atrof-muhitga zarar yetkazmasdan, yuqori sifatli va samarali xizmat ko‘rsatish mumkin. Tadqiqot shuni ko‘rsatadiki, raqamlashtirish va yashil iqtisodiyot tamoyillarining uyg‘unligi oziq-ovqat sohasining ekologik barqarorligini ta’minlaydi, iqtisodiy samaradorlikni oshiradi va ijtimoiy mas’uliyatni kuchaytiradi. Ushbu yondashuv asosida ishlab chiqilgan tavsiyalar amaliyotda keng qo‘llansa, kelajakda yanada sog‘lom, toza va raqobatbardosh oziq-ovqat tizimini shakllantirish mumkin bo‘ladi.

Foydalanilgan adabiyotlar

1. Esty, D. C., & Winston, A. S. (2009). *Green to Gold: How Smart Companies Use Environmental Strategy to Innovate, Create Value, and Build Competitive Advantage*. Wiley.
2. Jones, A., Ström, P., Hermelin, B., & Rusten, G. (2015). *Services and the Green Economy: Sectoral Perspectives*. Palgrave Macmillan.
3. Weber, K. (Ed.). (2009). *Food, Inc.: What Industry Does to Food, and What Food Does to People*. PublicAffairs.
4. https://yuz.uz/uz/news/ekologik-iz-yashil-iqtisodiyot-orqali-ochiriladi
5. https://in-academy.uz/index.php/yo/article/download/39929/25426/42160

YASHIL IQTISODIYOTNI RIVOJLANTIRISHDA RAQAMLI INFRATUZILMANING O‘RNI VA AHAMIYATI

Utepbergenova Mehriban Aitbay qizi
mexriybanutepbergenova@gmail.com
Berdaq nomidagi Qoraqolpoq davlat universiteti Chimboy fakulteti Iqtisodiyot yo’nalishi 2-bosich talabasi

Annotatsiya: So‘nggi yillarda butun dunyoda ekologik muammolar va iqlim o‘zgarishiga qarshi kurashish masalalari dolzarb mavzuga aylandi. Shu nuqtai nazardan, barqaror rivojlanish yo‘lida yashil iqtisodiyotga o‘tish jarayoni global miqyosda tezlashmoqda. Yashil iqtisodiyot resurslardan oqilona foydalanish, atrof-muhitni muhofaza qilish va ekologik xavfsizlikni ta’minlashga yo‘naltirilgan yangi iqtisodiy model hisoblanadi. Mazkur modelni samarali amalga oshirishda esa zamonaviy raqamli texnologiyalar va infratuzilmaning o‘rni beqiyosdir.

O‘zbekiston ham ushbu yo‘nalishda faol siyosat yuritmoqda. Xususan, “Yashil O‘zbekiston” umummilliy tashabbusi, “Yashil energetika” konsepsiyalari, raqamlashtirish bo‘yicha davlat dasturlari yashil iqtisodiyot va raqamli infratuzilmani integratsiyalashga xizmat qilmoqda. Ushbu maqolada yashil iqtisodiyotni rivojlantirishda raqamli infratuzilmaning o‘rni, afzalliklari va istiqbollari tahlil qilinadi.

Yashil iqtisodiyot — bu iqtisodiy o‘sishni ta’minlagan holda tabiiy resurslardan tejamkorlik bilan foydalanish, chiqindilar hajmini kamaytirish va ekologik barqarorlikka erishishni nazarda tutadi. Bunday modelni hayotga tatbiq etishda an’anaviy usullar yetarli emas. Ayni paytda bu maqsadga raqamli infratuzilma yordamida erishish mumkin. Raqamli infratuzilma deganda sun’iy intellekt, Internet of Things (IoT), bulutli texnologiyalar, katta hajmdagi ma’lumotlar (Big Data), geografik axborot tizimlari va boshqa raqamli vositalar tushuniladi. Ushbu texnologiyalar yordamida energiya, suv va boshqa resurslardan foydalanishni optimallashtirish, chiqindilarni kamaytirish, havo va suv sifatini kuzatib borish mumkin bo‘ladi.

Raqamli texnologiyalar ekologik muhitni monitoring qilish, salbiy ta’sirlarni aniqlash va prognozlash imkoniyatlarini kengaytirmoqda. Xususan, sanoat zonalarida o‘rnatilgan IoT sensorlar havo sifati, chiqindi gazlar, suv ifloslanishi kabi ko‘rsatkichlarni real vaqt rejimida kuzatib boradi. Bu esa ekologik nazoratni avtomatlashtirish, inson omiliga bog‘liq xatolarni kamaytirish va muammolarga tezkor choralar ko‘rishni ta’minlaydi. O‘zbekiston sharoitida bu texnologiyalarni sanoat hududlarida joriy etish orqali ekologik monitoring tizimining samaradorligini oshirish mumkin. Davlat ekologik nazorat organlari va xususiy sektor o‘rtasida raqamli axborot almashinuvi yo‘lga qo‘yilishi lozim.

Big Data va sun’iy intellekt asosida ishlab chiqilgan dasturiy ta’minotlar ekologik xavflarni oldindan aniqlab, ularni bartaraf etish uchun takliflar beradi. Masalan, suv tanqisligi, yer degradatsiyasi, havo ifloslanishi kabi omillarni tahlil qilish orqali hududlar ekologik reytingi tuziladi. Bu esa hududiy ekologik strategiyalar ishlab chiqish va resurslarni samarali taqsimlash imkonini beradi. Kelgusida O‘zbekistonda ekologik axborot tizimlarini yagona raqamli platforma orqali birlashtirish, barcha tarmoqlarda ekoma’lumotlar ochiqligini ta’minlash zarur.

Yashil iqtisodiyotni moliyalashtirishda shaffoflik va samaradorlik muhim hisoblanadi. Bu borada blokcheyn texnologiyasi muhim vosita bo‘lib, u investitsiya oqimlarini kuzatish, moliyaviy operatsiyalarning haqqoniyligini tekshirish imkonini beradi. “Yashil obligatsiyalar”ni raqamli platformalar orqali chiqarish, ularni xalqaro moliya bozorlari bilan integratsiyalash O‘zbekiston uchun katta imkoniyatlar ochadi. Shu munosabat bilan, raqamli moliyalashtirish mexanizmlarini yaratish va yashil investitsiyalarni raqamli maydonga olib chiqish dolzarb vazifalardan biridir.

Raqamli infratuzilmaning yana bir muhim yo‘nalishi — ekologik savodxonlikni oshirish va yashil tafakkurni shakllantirishda ta’lim sohasidagi imkoniyatlaridir. Onlayn kurslar, mobil ilovalar, interaktiv ta’lim platformalari orqali turli yoshdagi fuqarolarga ekologik bilimlar berish, ularni yashil iqtisodiyotning faol ishtirokchisiga aylantirish mumkin. Maktab va oliy ta’lim muassasalarida “raqamli ekologik madaniyat” yo‘nalishlari joriy etilishi lozim. Bu yosh avlod orasida mas’uliyatli va ekologik ongli fuqarolik pozitsiyasini shakllantiradi.

Smart City (aqlli shahar) konsepsiyasi yashil iqtisodiyot va raqamli infratuzilmaning uyg‘unlashgan shakli hisoblanadi. Bunda transport, elektr energiyasi, chiqindilar, suv va boshqa xizmatlar raqamli tizimlar orqali boshqariladi. Natijada, resurslar samarali taqsimlanadi, chiqindilar kamayadi, va ekologik barqarorlik ta’minlanadi. O‘zbekistonda ham yirik shaharlarda smart city elementlarini joriy etish orqali ekologik va iqtisodiy samaradorlikka erishish mumkin. Bunday tajriba loyihalari "raqamli-yashil hudud" maqomida sinov tariqasida boshlangan holda butun respublikaga kengaytirilishi mumkin.

Yashil energiya ishlab chiqarish, asosiy energiya manbalaridan biri bo‘lgan fosil yoqilg‘ilardan (neft, gaz, ko‘mir) foydalanishni kamaytiradi. Bu o‘z navbatida atmosferadagi karbon dioksid (CO2) miqdorini kamaytirishga yordam beradi va iqlim o‘zgarishiga qarshi kurashda muhim rol o‘ynaydi. Yashil energiya sohasida rivojlanish yangi ish o‘rinlarini yaratishga yordam beradi. Bunga quyosh panellari, shamol turbinlari, energiya saqlash tizimlari va boshqa infratuzilma tizimlarini qurish, ularga xizmat ko‘rsatish va boshqarish sohalarida yangi ish joylari tashkil etiladi. Yashil energiya resurslaridan foydalanish, energiya ishlab chiqarishning diversifikatsiyasiga yordam beradi, bu esa mamlakatning energetik xavfsizligini oshiradi. O‘zbekistonda yashil energiyaning rivojlanishi, bir tomondan, energiya iste'molining barqarorligini ta’minlasa, boshqa tomondan, xalqaro bozorga eksport qilish uchun yangi imkoniyatlar yaratadi.

O‘zbekiston uchun yashil energiya sohasida ulkan imkoniyatlar mavjud. Mamlakatning geografik joylashuvi va tabiiy resurslaridan kelib chiqqan holda quyosh va shamol energiyasini ishlab chiqarishda katta potensialga ega. Masalan, O‘zbekistonning janubiy va markaziy hududlarida quyosh energiyasini yig‘ish uchun yirik imkoniyatlar mavjud, chunki bu hududlar quyosh nuriga boy.

O‘zbekistonda quyosh energiyasi bo‘yicha 2021-yilda amalga oshirilgan **“Navoiy fotovoltaik stansiyasi”** va **“Sirdaryo fotovoltaik stansiyasi”** kabi loyihalar buning yorqin misolidir. Ushbu loyihalar O‘zbekistonda yashil energiyani rivojlantirishga katta turtki berdi. O‘zbekiston hukumati 2030-yilga kelib qayta tiklanuvchi energiya ishlab chiqarishni 30% gacha yetkazish niyatida. Shuningdek, O‘zbekistonda shamol energiyasi sohasida ham katta potensial mavjud. O‘zbekistonning shimoliy va g‘arbiy hududlarida shamol energiyasini ishlab chiqarish imkoniyatlari juda yuqori. Shu bilan birga, mamlakatda gidroenergiya resurslaridan foydalanish imkoniyatlari mavjud. Buning uchun mavjud suv resurslaridan foydalanib, qo‘shimcha energiya ishlab chiqarish mumkin.

Raqamli infratuzilma yashil iqtisodiyotga o‘tish jarayonida asosiy vositalardan biri sifatida ko‘rilmoqda. U nafaqat texnologik rivojlanish, balki ekologik xavfsizlik va barqaror rivojlanishga xizmat qiluvchi omildir. O‘zbekiston sharoitida quyidagi yo‘nalishlarda chora-tadbirlar ko‘rish tavsiya etiladi:

Yashil iqtisodiyotga oid davlat dasturlarini raqamli texnologiyalar bilan integratsiyalash.

IoT, sun’iy intellekt va Big Data texnologiyalarini ekologik nazorat tizimlariga joriy etish.

Ekologik ma’lumotlar almashinuvi uchun yagona raqamli platforma yaratish.

Yashil loyihalarni raqamli moliyalashtirish mexanizmlari orqali shaffoflashtirish.

Ta’lim tizimida ekologik va raqamli savodxonlikni oshirishga qaratilgan yangi dasturlarni ishlab chiqish.

Aqlli shahar konsepsiyalarini tajriba sifatida yirik shaharlarda joriy etish.

Shu tarzda raqamli infratuzilma yordamida O‘zbekistonda yashil iqtisodiyotni rivojlantirish yo‘lida aniq va barqaror qadamlar tashlash mumkin.

Yashil energiya — bu kelajakda iqtisodiyotning barqaror rivojlanishini ta’minlash va ekologik xavfsizlikni oshirish uchun muhim vosita hisoblanadi. O‘zbekiston, o‘zining tabiiy resurslari va strategik joylashuvi tufayli, qayta tiklanuvchi energiya sohasida katta potensialga ega. Yashil energiya sohasidagi innovatsiyalar va investitsiyalarni rag‘batlantirish orqali mamlakatning iqtisodiy va ekologik barqarorligini oshirish mumkin. Bu esa nafaqat iqlim o‘zgarishiga qarshi kurashishda, balki global energetika bozoridagi raqobatbardoshlikni ta’minlashda ham muhim ahamiyatga ega.

Foydalanilgan adabiyotlar:

1. O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining “Yashil makon” umummilliy loyihasini amalga oshirish chora-tadbirlari to‘g‘risida”gi qarori, 2021-yil 30-noyabr, PQ–46-son.
2. O‘zbekiston Respublikasi Raqamli texnologiyalarni rivojlantirish agentligi. **“Raqamli O‘zbekiston – 2030”** strategiyasi. Toshkent, 2020.
3. United Nations Environment Programme (UNEP). **Green Economy: Pathways to Sustainable Development and Poverty Eradication**. Nairobi, 2011.
4. OECD. **Digitalisation and the Environment: Opportunities and Risks**. Organisation for Economic Co-operation and Development, 2020.
5. Bakhodirov, Sh. (2022). *Raqamli transformatsiya va ekologik barqarorlik: O‘zbekiston tajribasi*. – Toshkent: Iqtisodiyot va Innovatsiyalar, №3, 45–51-bet.

ERP TIZIMLARINING BULUTLI TEXNOLOGIYALAR, ONLAYN XIZMATLAR VA BOSHQA ZAMONAVIY TEXNOLOGIYALAR BILAN INTEGRATSIYASI

Vafoyev Boburjon Rasulovich
TDIU, Raqamli iqtisodiyot kafedrasi professori v.b., i.f.n.

So‘nggi yillarda biznes jarayonlarini raqamlashtirish va avtomatlashtirish orqali raqobatbardoshlikni oshirish korxonalar, ayniqsa, moliyaviy muassasalar uchun strategik vazifaga aylandi. Sug‘urta kompaniyalari ushbu jarayonlarda yetakchi o‘rin egallamoqda, chunki ularning asosiy faoliyati yuqori darajada aniqlik, shaffoflik va tezkor ma’lumot almashinuvini talab qiladi. Shu boisdan, zamonaviy ERP tizimlarining joriy etilishi nafaqat funksional, balki texnologik jihatdan ham yangi bosqichga ko‘tarildi. Bugungi kunda raqamli transformatsiya sug‘urta kompaniyalari uchun raqobatbardoshlikni ta’minlashda muhim omil hisoblanadi. Zamonaviy moliyaviy boshqaruv tizimlaridan foydalanish orqali kompaniyalar xarajatlarni qisqartirish, to‘liq shaffoflikka erishish va strategik qarorlarni tezkor qabul qilish imkoniyatiga ega bo‘ladilar.

Shunday tizimlardan biri Microsoft Dynamics 365 bo‘lib, u modullarga asoslangan gibrid ERP va CRM platformasidir. ERP qismini Moliya (Finance), Tijorat (Commerce), Ta’minot zanjiri (Supply Chain), Inson resurslari (Human Resources), Ishlab chiqarish (Manufacturing) kabi modullar tashkil qiladi. CRM qismini esa Sotuv (Sales), Loyiha boshqaruvi (Project Management), Mijozlarga xizmat ko‘rsatish (Customer Service), Manzilli xizmat ko‘rsatish (Field Service) va Marketing (Marketing) kabi modullar qamrab oladi. Tizim barcha biznes jarayonlarni yagona ekotizimda birlashtiradi va Microsoft Power Platform bilan chuqur integratsiyalangan.

Microsoft Dynamics 365 Finance – bu moliyaviy jarayonlarni avtomatlashtirish, hisobotlarni shakllantirish va byudjetlash tizimini samarali boshqarish uchun mo‘ljallangan zamonaviy ERP platformasidir. Ushbu tizimning funksional imkoniyatlari sug‘urta kompaniyalari ehtiyojlariga mos

keladi. Jumladan, u qator afzalliklarga ega bo‘lib, real vaqt rejimida moliyaviy tahlillar olib borish, to‘lovlar va kompensatsiya jarayonlarini avtomatlashtirish, ichki nazoratni kuchaytirish kabi vazifalarni bajaradi (1-jadval).

Tizim Microsoftning boshqa xizmatlari – Power BI, Azure, Office 365 bilan to‘liq integratsiyalashgani sababli, foydalanuvchi uchun yagona raqamli ekotizimni ta’minlaydi. Bu esa ma’lumotlar bilan ishlashda samaradorlikni oshiradi va ma’lumotlar xavfsizligini ta’minlaydi.

Dynamics 365 Finance joriy etilishi orqali sug‘urta kompaniyasi o‘zining moliyaviy barqarorligini mustahkamlaydi, ichki va tashqi audit talablariga muvofiq ish yuritish imkoniga ega bo‘ladi. Shuningdek, uzoq muddatli strategik rejalashtirishda muhim rol oynaydi. Avvalo, bu tizim moliyaviy operatsiyalarni real vaqt rejimida kuzatish va avtomatlashtirish orqali resurslardan samarali foydalanishni ta’minlaydi. Sug‘urta mukofotlari va to‘lovlarini boshqarish jarayonlari yagona platforma orqali yuritilib, inson omiliga bog‘liq xatoliklar kamayadi. Shuningdek, tizimda mavjud analitik va hisobot vositalari orqali xatarlarni aniqlash, baholash va nazorat qilish osonlashadi. CRM moduli esa mijozlar bilan uzluksiz aloqani ta’minlab, xizmat sifatini oshirishga yordam beradi. Bugungi kunda ERP tizimlarining zamonaviy texnologiyalar bilan integratsiyalashuvi sug‘urta kompaniyalari uchun yangi imkoniyatlar eshigini ochmoqda. Microsoft Dynamics 365 Finance bulutli platformada ishlashi tufayli ma’lumotlarga har qanday joydan, har qanday qurilma orqali kirish imkonini beradi. Bu esa xodimlar va rahbariyat uchun ish jarayonlarini masofaviy shaklda tashkil etishni yengillashtiradi.

1-jadval

Microsoft Dynamics 365 Financening sug‘urta kompaniyasi uchun asosiy afzalliklari[4]

Funksiya	Tavsifi	Sohada qo‘llanilishi
General ledger	Har qanday moliyaviy operatsiyalarni kiritish, boshqarish va nazorat	Polislar va da’volar bilan bog‘liq har qanday to‘lovlar/tushumlarni qayd etish
Accounts Payable/ Receivable	Kontragentlar bilan hisob-kitoblar (olish/berish)	Agentlar, brokerlar va qayta sug‘urta kompaniyalari bilan hisob-kitob
Cash & Bank Management	Hisob raqamlar va naqd pul harakati nazorati	Turli valyutadagi to‘lovlar, foiz va investitsiya kirimlari
Budgeting & Forecasting	Byudjet tayyorlash, tahlil qilish va kelishtirish	Mehnat xarajatlari, marketing, zararlar uchun rezervlarni rejalashtirish
Fixed Assets	Asosiy vositalar hisobini yuritish	Bino, serverlar, texnika va boshqa aktivlarning amortizatsiyasi
Financial Reporting	IFRS, GAAP va boshqa standartlarda hisobotlar	Ichki audit, tashqi regulyatorlar uchun hisobot berish
Compliance & Audit	Soliq, audit va korporativ qonunchilik bilan muvofiqlik	Sug‘urta sohasidagi regulyatsiyalarga rioya etish

Tizim Power BI orqali vizual tahlillar va interaktiv hisobotlar tayyorlashni qo‘llab-quvvatlaydi. Shuningdek, sun’iy intellekt vositalari orqali moliyaviy xatarlarni baholash, avtomatik tavsiyalar berish va prognozlash imkoniyatlarini taqdim etadi. Bu esa sug‘urta faoliyatidagi noaniqliklarni minimallashtirishda muhim ahamiyat kasb etadi.

Dynamics 365 Finance API va integratsiya modullari orqali boshqa sug‘urta platformalari, CRM tizimlari, onlayn to‘lov shlyuzlari va hatto mobil ilovalar bilan oson moslashadi. Bu integratsiya jarayonlarni uzluksiz qilib, mijozlarga tezkor va qulay xizmat ko‘rsatish imkoniyatini yaratadi.

Kompaniyalarda Dynamics 365 Customer Service xizmatidan foydalanishi mumkin bo‘lgan turli xil ssenariylar mavjud (1-rasm).

Aloqa markazi: Aloqa markazi xodimlari Dynamics 365 Customer Service xizmatidan foydalanishi mumkin. Mijozlar kompaniya bilan turli kanallar boylab aloqada bo‘lganda, ma’lumotlar agent tajribasiga asoslangani uchun eng yaxshi agentga yo‘naltiriladi.

[4] Muallif tomonidan tuzilgan.

Xizmat ko‘rsatish markazi: Avtomobillarni ta’mirlash ustaxonasi kabi xizmat ko‘rsatish markazlarida mijozlarga taqdim etiladigan xizmatlarni rejalashtirish uchun Dynamics 365 Customer Service xizmatidan foydalanishi mumkin.

Bilimlar ombori: Mijozlarni qo‘llab-quvvatlash markazi Dynamics 365 Customer Service bilimlarni boshqarish imkoniyatlaridan foydalanishi mumkin. Mijozlarga xizmat ko‘rsatish mijozlar bilan bog‘liq muammolarni hal qilishda agentlar uchun ochiq bo‘lgan bilimlar omborini yaratishga yordam beradi.

Ushbu rasmdan ko‘rinib turibdiki, sug‘urta kompaniyasi bilan oldindan belgilangan davrda 15 ta keysni ochish huquqini beradigan qo‘llab-quvvatlash shartnomasiga ega bo‘lgan oltin mijoz bor. Mijozning qo‘llab-quvvatlash shartnomasi ularning yangi ishlarni qanday ochishini belgilaydi. Ular buni telefon, mobil qurilma, ijtimoiy media yoki elektron pochta kabi bir nechta kanallar orqali amalga oshirishi mumkin. Keysni yaratish qoidalari qabul qilingan elektron pochtani kimdan kelganlarni aniqlash uchun tekshiradi. Ilovada mijoz uchun keys yozuvini yaratish uchun elektron pochtaning tarkibi ham tekshiriladi.



3.6-rasm. Dynamics 365 Customer Service xizmatidan foydalanish jarayoni[5]

Marshrutlash qoidalari keys yozuvi yaratilgandan so‘ng avtomatik ravishda eng mos navbatga yo‘naltirish uchun keys boyicha mezonlarni tekshiradi. Oltin navbatga kirish huquqiga ega bo‘lgan qo‘llab-quvvatlash agenti keysni ishlash uchun navbatdan oladi va endi uni hal qilish uchun javobgardir. Keysni hal qilish biznes-jarayonlari oqimi agentga keysni hal qilish orqali ishlayotganda ko‘rsatma beradi.

Agent tashkilotning bilimlar bazasidan foydalangan holda keysning potentsial yechimini o‘z ichiga olgan manbani topadi. Keys yozuvlari ichidan ular manbani to‘g‘ridan-to‘g‘ri mijozga elektron pochta orqali yuborishlari va muammoni hal qilishlari mumkin. Qo‘llab-quvvatlash shartnomasi tafsilotlarini saqlaydigan mijozning huquq yozuvi ularning huquqlarida 14 ta holat qolganligini aks ettirish uchun yangilanadi.

Bunday samarali axborot oqimi va muvofiqlashtirilgan xizmat ko‘rsatish jarayonlarini qo‘llab-quvvatlash uchun xususiy bulut va gibrid infratuzilma yordamida ma’lumotlarni xavfsiz saqlash hamda korporativ standartlarga muvofiq boshqarish ta’minlanadi. Shu tariqa, Microsoft Dynamics 365 Finance nafaqat moliyaviy hisob-kitob, balki butun sug‘urta ekotizimi uchun markaziy raqamli platforma vazifasini bajara oladi.

Microsoft Dynamics 365 Financening arxitekturasi Service-Oriented Architecture (SOA) tamoyillariga asoslangan bo‘lib, u mikroservislar asosida modullarning mustaqil ishlashini ta’minlaydi

[5] Muallif tomonidan ishlab chiqilgan.

(3.7-rasm). Bu esa sug‘urta kompaniyalaridagi biznes jarayonlarini moslashuvchan va masshtablanuvchi shaklda avtomatlashtirishga imkon beradi.

Tizim bulutli (cloud-based) texnologiyalarda jumladan, Microsoft Azure infratuzilmasi bazasida faoliyat yuritadi. Azure Active Directory va Role-Based Access Control (RBAC) orqali ma’lumotlarning xavfsizligi va foydalanuvchilarni autentifikatsiya qilish samarali yo‘lga qoyiladi. Bu GDPR, ISO/IEC 27001 kabi xalqaro standartlarga mos ravishda ma’lumotlarni muhofaza qilishga kafolat beradi.

Mashina o‘rganish (machine learning) algoritmlari yordamida to‘lov qobiliyatini baholash, da’volarni (claims) tahlil qilish, ehtimoliy suiste’mol holatlarini oldindan aniqlash imkoniyatlari yaratiladi. Bu ko‘rsatkichlar KPI (Key Performance Indicator) va SLA (Service Level Agreement) asosida avtomatik ravishda baholanadi.

Dynamics 365 Financening RESTful API lari orqali uni boshqa ixtisoslashgan tizimlar, jumladan, CRM, kafolat platformalari, aktuar modellashtirish dasturlari bilan integratsiya qilish mumkin. Bu turli ma’lumot manbalari o‘rtasida ETL (Extract, Transform, Load) jarayonlarini avtomatlashtirishni ta’minlaydi.

Microsoft Dynamics 365 Finance bulutli asosda ishlovchi moliyaviy boshqaruv ERP tizimi bo‘lib, u biznes jarayonlarini avtomatlashtirish, tahlil qilish va optimallashtirishda keng imkoniyatlarga ega. Uning asosiy afzalligi bulutli texnologiyalar, onlayn xizmatlar va sun’iy intellekt, IoT kabi zamonaviy texnologik yechimlar bilan to‘liq integratsiyalashganidir. Shuningdek, IoT (Internet of Things) texnologiyalari bilan integratsiya holatida transport va mulk sug‘urtasi obektlaridan real vaqtli ma’lumotlarni yig‘ish va tahlil qilish mumkin. Bu kafolat jarayonida ma’lumotlarga asoslangan qaror qabul qilishni kuchaytiradi.

Qisqacha aytganda, Microsoft Dynamics 365 Finance bu nafaqat moliyaviy hisobot berish vositasi, balki sun’iy intellekt, IoT va bulutli infratuzilma bilan chuqur integratsiyalashgan, kelajakka yo‘naltirilgan intellektual platformadir. Sug‘urta kompaniyalari uchun esa bu raqamli transformatsiya jarayonida strategik afzalliklarni ta’minlovchi mustahkam asosdir.

Microsoft Dynamics 365 Finance Microsoft korporatsiyasining global miqyosda tatbiq etiladigan biznes platformasi hisoblanib, uning eng asosiy vazifalari qatoriga quyidagilarni kiritish mumkin:

Moliyaviy hisobotlar va tahlillarni avtomatlashtirish;

Xarajatlar va byudjetlashni samarali boshqarish;

Ichki nazorat mexanizmlarini kuchaytirish;

Davlat va xalqaro moliyaviy standartlarga muvofiq hisobot berish.

Tizim modulli strukturaga ega bo‘lib, unda har bir funksional yo‘nalish alohida mikroservis sifatida ishlaydi. Bu uning masshtablanuvchanligini, modullar o‘rtasidagi bog‘liqlikni va joriy etishdagi moslashuvchanlikni ta’minlaydi.

Finance odamlarga tezkor, ongli qarorlar qabul qilish imkoniyatini berish uchun yagona global moliyaviy va operatsion xususiyatlarni taqdim etish orqali korxonalarning o‘zgaruvchan bozor talablariga tezda moslashishiga va biznesning tez o‘sishiga yordam beradi.

O‘rnatilgan boshqaruv vositalaridan foydalangan holda, moliyaviy rahbarlar o‘zlarining moliyaviy ma’lumotlarini tushunishlari, bo‘limlar va xarajatlar markazlari kabi barcha operatsion birliklarda 360 daraja ko‘rinishga ega bo‘lishlari va bugungi tez va doimiy o‘zgaruvchan global bozorda raqobatbardosh qolish uchun oqilona qarorlar qabul qilishlari mumkin.

Tizim kompaniyalarga daromadlilikni oshirishga yordam berish uchun real vaqt rejimida mustahkam moliyaviy razvedka va o‘rnatilgan tahlillarni taqdim etuvchi markazlashtirilgan, global moliyaviy boshqaruv yechimi yordamida marja daromadlarini oshirishga yordam beradi.

Dynamics 365 Finance Microsoft texnologiyasini qo‘llab-quvvatlaydigan har qanday qurilma va platformada ishlash uchun etarlicha moslashuvchan zamonaviy, foydalanuvchilarga qulay interfeys dizaynidan foydalanadi. Platforma xodimlarga aqlli avtomatlashtirish, vazifalarni ustuvorlashtirish va biznesning ijobiy natijalari uchun samaradorlikni oshirish uchun Microsoft 365 ilovalari bilan integratsiyani ta’minlovchi rolga asoslangan ish joylari bilan ta’minlaydi. Bizga ma’lumki, Microsoft Excel moliya foydalanuvchilari orasida eng mashhur vositadir. Xodimlar Excelda Financening istalgan sahifasidan ma’lumotlarni ochishi, ma’lumotlarni o‘zgartirishi va ma’lumotlarni yana Financega nashr etishi mumkin.

Har qanday kompaniyada moliyaviy boshqaruv tizimining ikkita maqsadi mavjud:

Maksimal foyda – kompaniya uchun qisqa va uzoq muddatda maksimal foyda olishga harakat qilish. Finance barcha moliyaviy operatsiyalarni buxgalteriya daftarida saqlaydi, shuningdek, moliyaviy rahbarlar to‘g‘ri qaror qabul qilishlari uchun xarajatlar va rejalashtirilgan daromadlar haqida tushuncha berish uchun vositalar va xususiyatlarni taklif qiladi.

Boylikni maksimal darajada oshirish – aksiyalarning bozor qiymatini oshirish orqali kompaniya aktsiyadorlari uchun maksimal boylik olish, bu kompaniya faoliyati bilan bevosita bog‘liq. Xom ashyo sotib olish, ish haqi, ijara haqi, elektr energiyasi va boshqalar kabi kundalik xarajatlarni to‘lash uchun kompaniya yaxshi pul oqimiga ega bo‘lishi kerak. Agar kompaniya yaxshi pul oqimiga ega bo‘lsa, u xaridlarda naqd chegirmalarini olish, katta hajmdagi xaridlarni amalga oshirish, mijozlarga kredit berish va boshqalar kabi ko‘plab imkoniyatlardan foydalanishi mumkin. Pul oqimi kompaniyaning omon qolish va muvaffaqiyatga erishish imkoniyatlarini oshiradi.

Xulosa qilib aytganda, Microsoft Dynamics 365 Finance – bu sug‘urta kompaniyasida raqamli moliyaviy boshqaruvni joriy etish orqali yuqori samaradorlik va shaffoflikka erishishning ishonchli yechimi hisoblanadi.

YASHIL IQTISODIYOTDA RAQAMLI TEXNOLOGIYALARNI O‘RNI: MILLIY RIVOJLANISH UCHUN SINERGETIK INTEGRATSIYA

Xalimov Javohirbek Abdusamat o‘g‘li
Andijon Davlat Texnika Instituti
Avtomobilsozlik va Transport kafedrasi assistent o‘qituvchisi
Tel: +998972724646
Email:javohirhalimov97@gmail.com

Annotatsiya: Mazkur tezisda raqamli texnologiyalar va iqtisodiy jarayonlar o‘rtasidagi sinergetik integratsiyaning mazmuni, ahamiyati va milliy rivojlanishga ta’siri yoritilgan. Raqamli transformatsiya orqali iqtisodiy samaradorlik, shaffoflik, tezkorlik va innovatsion yechimlar kiritilishi natijasida yangi iqtisodiy model shakllanmoqda. Tezisda sun’iy intellekt, IoT, Big Data, blokcheyn va boshqa zamonaviy texnologiyalarni iqtisodiyotning sanoat, xizmat ko‘rsatish, qishloq xo‘jaligi va bank-moliya tizimlariga tatbiq etish orqali erishilayotgan yutuqlar tahlil qilingan. Shu bilan birga, raqamli infratuzilma, inson kapitali, raqamli savodxonlik va kiberxavfsizlik masalalari milliy strategiya doirasida muhim o‘rin tutishi asoslab berilgan.

Kalit so‘zlar: Raqamli iqtisodiyot, sinergetik integratsiya, raqamli transformatsiya, sun’iy intellekt, raqamli texnologiyalar, blokcheyn, Big Data, kiberxavfsizlik, iqtisodiy modernizatsiya, infratuzilma, inson kapitali, innovatsiya.

Zamonaviy dunyoda raqamli texnologiyalar iqtisodiyotning barcha tarmoqlarida tub o‘zgarishlarni yuzaga keltirmoqda. Milliy rivojlanish uchun raqamli iqtisodiyotni shakllantirish – bu shunchaki texnologik modernizatsiya emas, balki strategik yondashuvni talab etuvchi kompleks jarayondir. Bu jarayonda iqtisodiy resurslar va raqamli imkoniyatlarning o‘zaro uyg‘unligi sinergetik ta’sirni yuzaga keltiradi.

Raqamli texnologiyalar iqtisodiy faoliyatning samaradorligini keskin oshiradi. Sun’iy intellekt, IoT (Internet of Things), Big Data, blokcheyn va bulutli hisoblashlar kabi texnologiyalar ishlab chiqarishdan tortib, logistika, savdo va xizmat ko‘rsatishgacha bo‘lgan barcha bosqichlarda vaqt va xarajatlarni kamaytirish imkonini beradi. Bu esa raqobatbardosh milliy iqtisodiyotni shakllantirishga xizmat qiladi.

Sinergetik integratsiya deganda faqat texnik vositalarning qo‘llanilishi emas, balki iqtisodiy strategiyalar va raqamli yechimlarning o‘zaro muvofiqlashtirilgan hamkorligi tushuniladi. Bu yondashuv raqamli transformatsiya orqali yangi iqtisodiy model – bilimga asoslangan, moslashuvchan va innovatsion iqtisodiyotga o‘tishni ta’minlaydi[1].

Milliy iqtisodiyotni raqamlashtirish orqali ishlab chiqarish jarayonlari avtomatlashtiriladi, bu esa inson mehnatidan yuqori unum bilan foydalanishga imkon yaratadi. Ayniqsa, sanoat korxonalarida raqamli monitoring tizimlari ishlab chiqarish jarayonlarini doimiy nazorat qilish, nuqsonlarni aniqlash va real vaqt rejimida tuzatish imkonini beradi. Bu texnologik yondashuv mahsulot sifati va mehnat unumdorligini oshiradi.

Raqamli texnologiyalar orqali iqtisodiy ma’lumotlarning ochiqligi, shaffofligi va ishonchliligi ta’minlanadi. Masalan, blokcheyn texnologiyasi orqali tranzaksiyalar, davlat xaridlari yoki soliq tushumlari ustidan samarali nazorat o‘rnatish mumkin. Bu esa korrupsiyaga qarshi kurashda kuchli vosita bo‘lib xizmat qiladi va investitsiyaviy muhitni yaxshilaydi.

Raqamli infratuzilma – har qanday zamonaviy iqtisodiy modelning asosi hisoblanadi. Internet tarmog‘i, ma’lumotlarni saqlash va uzatish tizimlari, axborot xavfsizligi platformalari milliy raqamli iqtisodiyotning barqaror rivojlanishida muhim rol o‘ynaydi. Shu bois O‘zbekistonda “Raqamli O‘zbekiston – 2030” strategiyasi bu yo‘nalishda muhim bosqich bo‘lib xizmat qilmoqda.

Raqamli savodxonlik – bu yangi iqtisodiy davrda fuqarolarning eng asosiy ko‘nikmasi bo‘lib bormoqda. Har bir ishchi, xodim yoki tadbirkor raqamli texnologiyalar bilan ishlash malakasiga ega bo‘lmasa, u iqtisodiy samaradorlikni ta’minlab bera olmaydi. Shu sababli, ta’lim tizimida axborot-kommunikatsiya texnologiyalariga e’tibor kuchaytirilmoqda[2].

Sinergetik yondashuvda inson kapitalining o‘rni alohida ta’kidlanadi. Raqamli transformatsiya faqat texnika emas, balki uni boshqaradigan, rivojlantiradigan va moslashtiradigan inson omiliga bog‘liqdir. Shuning uchun iqtisodiy va texnologik bilimga ega mutaxassislar tayyorlash milliy rivojlanishning muhim yo‘nalishidir. Kichik va o‘rta biznes (KOB) subyektlari uchun raqamli texnologiyalar yangi imkoniyatlar eshigini ochmoqda. Onlayn platformalar, elektron savdo, mobil to‘lov tizimlari orqali KOBlar o‘z mahsulotlarini keng auditoriyaga taklif etishlari, bozorda joy egallashlari mumkin. Bu esa bandlikni oshiradi va iqtisodiy faollikni kuchaytiradi.

Qishloq xo‘jaligida ham raqamli texnologiyalar tobora keng qo‘llanilmoqda. Agrotexnik jarayonlarni avtomatlashtirish, dronlar yordamida yerlarni nazorat qilish, suv resurslarini tejovchi tizimlar iqtisodiy samaradorlikni sezilarli darajada oshiradi. Bu esa oziq-ovqat xavfsizligini ta’minlashda muhim o‘rin tutadi[3].

Bank-moliya tizimida raqamli texnologiyalar orqali naqd pulsiz hisob-kitoblar, onlayn kreditlash, elektron hamyonlar va moliyaviy monitoring tizimlari keng joriy etilmoqda. Bu esa fuqarolar uchun qulaylik, banklar uchun esa risklarni kamaytirish, tezkor tahlil va strategik rejalashtirish imkonini yaratadi.

Raqamli iqtisodiyotni rivojlantirishda kiberxavfsizlik muammosi ham dolzarbdir. Axborot tizimlari xavfsizligini ta’minlash, shaxsiy ma’lumotlarni himoya qilish, iqtisodiy ob’ektlarga qilingan kiberhujumlarga qarshi choralar ko‘rish – bu davlat va xususiy sektor zimmasidagi muhim vazifadir. Shuning uchun ham axborot xavfsizligi siyosati milliy rivojlanish strategiyasining ajralmas qismidir.

Raqamli texnologiyalar va iqtisodiyotni uyg‘unlashtirish uchun davlat boshqaruvi tizimida ham raqamli yondashuvlar joriy qilinmoqda. Elektron hukumat tizimlari, ochiq ma’lumotlar portallari, soliq va bojxona xizmatlarining avtomatlashtirilgan tizimlari orqali byurokratiya kamaymoqda, aholiga xizmat ko‘rsatish sifati oshmoqda.

Xulosa qilib aytganda, iqtisodiy va raqamli texnologiyalarning sinergetik integratsiyasi – bu bugungi kunning strategik zarurati bo‘lib, u barqaror rivojlanish, yuqori iqtisodiy samaradorlik va xalq farovonligini ta’minlashga xizmat qiladi[4]. Raqamli texnologiyalarni puxta o‘zlashtirgan va iqtisodiy jarayonlarga moslashtirgan jamiyat raqobatbardosh, ochiq va zamonaviy bo‘lib shakllanadi.

FOYDALANILGAN ADABIYOTLAR RO’YXATI:

1. O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining “Raqamli O‘zbekiston – 2030” strategiyasi to‘g‘risidagi farmoni, 2020-yil.
2. Xasanov B., Qosimov A. (2023). Raqamli iqtisodiyot: nazariy asoslar va amaliy yondashuvlar. T.: Iqtisodiyot.
3. Xayrullayev M. (2021). Innovatsion texnologiyalar va raqamli integratsiya. T.: Fan va taraqqiyot.

4. World Bank Report (2022). Digital Economy for Central Asia: Opportunities and Challenges. Washington, D.C.

O'ZBEKISTONNING IQTISODIY KO'RSATKICHLARINING O'ZGARISHIDA SUN'IY INTELLEKTNING AHAMIYATI

Xayrullayev Mo'minbek,
m.xayrullayev@tsue.uz
Toshkent davlat iqtisodiyot universiteti, Sun'iy intellekt kafedra assistenti
Djumanazarov Odamboy,
odamboy1984@gmail.com
2Muhammad al-Xorazmiy nomidagi Toshkent axborot texnologiyalari universiteti Urganch filiali, Axborot texnologiyalari kafedrasi,

Annotatsioya: O'zbekiston iqtisodiyotida so'nggi yillarda texnologik yangilanishlar kundan kunga ortib bormoqda, bu jarayonda sun'iy intellekt (SI) texnologiyalari muhim rol o'ynaydi. O'zbekistonning asosiy iqtisodiy ko'rsatkichlariga sun'iy intellektni joriy etishning ta'sirini o'rganishni maqsad qiladi. Tadqiqot kvantitativ metodlardan foydalangan holda, O'zbekiston Statistika qo'mitasi va boshqa milliy idoralar taqdim etgan ma'lumotlar asosida olib boriladi. Hozirda sun'iy intellekt moliya, bank va sug'urta sohalarida samarali ekanligini ko'rsatmoqda. Biroq, ishlab chiqarish sohasida SI ning ta'siri hali ham cheklangan, bu esa kelajakdagi siyosiy va iqtisodiy islohotlarni shakllantirishda muhimdir.Sun'iy intellektni joriy etish O'zbekiston iqtisodiyoti uchun ijobiy ta'sir ko'rsatmoqda, lekin bu ta'sirning to'liq salohiyatidan foydalanish uchun qo'shimcha siyosiy va iqtisodiy islohotlar zarur. Tavsiya etiladigan choralar orasida sun'iy intellekt texnologiyalarini rivojlantirish uchun davlat tomonidan ko'proq moliyalashtirish, texnik ta'lim dasturlarini kuchaytirish, va xalqaro hamkorlikni rivojlantirish bor. Ushbu o'zgarishlar O'zbekistonning iqtisodiy taraqqiyotini yanada tezlashtirishga va global raqobatbardoshlikni oshirishga yordam beradi.

Kalit so'zlar: Sun'iy intellekt, iqtisodiy o'zgarishlar, analitika, statistika

O'zbekiston iqtisodiyoti so'nggi yillarda turli xil texnologik yangilanishlarni boshdan kechirmoqda, bu esa mamlakatning umumiy iqtisodiy faoliyatiga sezilarli ta'sir ko'rsatmoqda. Sun'iy intellekt (SI) texnologiyalari, shu jumladan avtomatlashtirish, ma'lumotlarni qayta ishlash va qaror qabul qilish tizimlari, bu o'zgarishlarning muhim qismlaridan biri hisoblanadi. O'zbekiston iqtisodiyotida texnologik yangilanishlar jadallik bilan amalga oshirilmoqda. Sun'iy intellekt (SI) texnologiyalari, xususan, raqamli avtomatlashtirish, ma'lumotlar tahlili, va qaror qabul qilish tizimlari, iqtisodiy o'sishni rag'batlantirishda muhim rol o'ynaydi. Shu bilan birga SI ning iqtisodiyotga bo'lgan aniq ta'sirini o'lchash va baholash qiyin. Quyida O'zbekistonning asosiy iqtisodiy ko'rsatkichlari, jumladan YAIM o'sishi, ish bilan bandlik, va investitsiyalar hajmi kabi ko'rsatkichlarga SI ning ta'sirini tahlil qilib O'zbekistonning asosiy iqtisodiy ko'rsatkichlariga sun'iy intellektni joriy etishning ta'sirini o'rganishdan chiqamiz. Bunda biz sun'iy intellektning iqtisodiy o'sish, ish bilan bandlik darajasi va innovatsiyalar sohasida qanday rol o'ynayotganini aniqlashga harakat qilamiz.

So'nggi yillarda sun'iy intellektning iqtisodiy ko'rsatkichlar va innovatsiyalar sohasidagi roli keng qamrovli tadqiqotlar mavzusiga aylanmoqda. Olimlar sun'iy intellektni ishlab chiqarish samaradorligini oshirish, xarajatlarni kamaytirish va yangi bozorlar yaratish kabi turli iqtisodiy afzalliklarni ta'kidlashmoqda. Sun'iy intellektning iqtisodiyotga ta'siri bo'yicha global miqyosda ko'plab tadqiqotlar mavjud. McKinsey, PwC kabi yirik tahlil kompaniyalari sun'iy intellektni global iqtisodiyot uchun yaratishi mumkin bo'lgan qiymatni milliardlar dollar deb baholashgan. Shuningdek, AI Now Institute, Stanford University kabi ilmiy markazlar SI ning ijtimoiy va etik jihatlarini ham ko'rib chiqishgan. O'zbekiston kontekstida, Oliy va o'rta maxsus ta'lim vazirligi, Innovatsion rivojlanish vazirligi tomonidan amalga oshirilayotgan loyihalar sun'iy intellektni qo'llash sohasida yangi imkoniyatlarni yaratmoqda. Bu tadqiqotlarda asosan kvantitativ metodlar qo'llaniladi, chunki bu usul ma'lumotlar tahlilida aniq va ishonchli natijalar beradi. O'zbekiston Statistika qo'mitasi, Markaziy bank va boshqa milliy idoralar tomonidan taqdim etilgan ma'lumotlar asosida ishlanadi. Shuningdek, so'rovnomalar va

ekspert intervyulari orqali olingan ma’lumotlar ham tahlilga kiritiladi. Ma’lumotlar tahlili uchun SPSS, R dasturlari kabi statistik dasturlardan foydalaniladi, bu esa ma’lumotlarni chuqur va aniq tahlil qilish imkonini beradi.

Quyida statistika agentligining dastlabki ma’lumotlariga ko‘ra, 2024 yilning yanvar-mart oylarida O‘zbekiston Respublikasining iqtisodiy holati raqamlarda:

yalpi ichki mahsulot hajmining o‘sish sur’ati – 106,2 %
sanoat ishlab chiqarish fizik hajmi indeksi – 106,5 %
chakana savdo tovar aylanmasi o‘sish sur’ati – 109,3 %
bozor xizmatlari hajmining o‘sish sur’ati – 114,2 %
tashqi savdo aylanmasi o‘sish sur’ati – 106,2 %
eksportning o‘sish sur’ati – 110 %
importning o‘sish sur’ati – 103,8 %
faoliyat ko‘rsatayotgan korxona va tashkilotlar soni – 469 113 taga

yetkanligini ko‘rishimiz mumkin. Bu esa 2023 yilgi statistika bilan solishtirganda ancha sezilarli farq qiladi, shu bilan birga, O‘zbekiston kontekstida, sun’iy intellektning iqtisodiyotga ta’siri hanuzgacha cheklangan darajada o‘rganilgan, bu esa ushbu tadqiqotning dolzarbligini yanada oshiradi. Dastlabki tahlillar shuni ko‘rsatadiki, sun’iy intellektning joriy etilishi O‘zbekistonning moliya, bank va sug‘urta sohalarida ayniqsa samarali bo‘lgan. Masalan, avtomatlashtirilgan tizimlar mijozlarga xizmat ko‘rsatish vaqtlarini sezilarli darajada qisqartirgan va xizmat sifatini yaxshilagan. Biroq, ishlab chiqarish sohasida SI ning ta’siri hali ham cheklangan, bu esa kelajakdagi siyosiy va iqtisodiy islohotlarni shakllantirishda inobatga olinishi kerak.

Tadqiqot natijalari sun’iy intellektni joriy etishning O‘zbekiston iqtisodiyoti uchun ijobiy ta’sirini ko‘rsatmoqda. Biroq, bu ta’sirning to‘liq salohiyatidan foydalanish uchun qo‘shimcha siyosiy va iqtisodiy islohotlar zarur. Tavsiya etiladigan choralar orasida sun’iy intellekt texnologiyalarini rivojlantirish uchun davlat tomonidan ko‘proq moliyalashtirish, texnik ta’lim dasturlarini kuchaytirish, va xalqaro hamkorlikni rivojlantirish asosiy o‘rinda turadi. Ushbu o‘zgarishlar O‘zbekistonning iqtisodiy taraqqiyotini yanada tezlashtirishga yordam beradi va global raqobatbardoshlikni oshiradi.

Xulosa o‘rnida shuni aytish mumkinki, O‘zbekistonning iqtisodiyotida texnologik yangilanishlar jadal sur’atlarda davom etmoqda, va bu jarayonda sun’iy intellekt (SI) texnologiyalari muhim o‘rin tutmoqda. Ushbu tadqiqot O‘zbekistonning asosiy iqtisodiy ko‘rsatkichlariga sun’iy intellektni joriy etishning ta’sirini chuqur tahlil qildi va natijalar sun’iy intellektni qo‘llashning iqtisodiy samaradorlikni oshirishda va xizmatlar sifatini yaxshilashda muhim rol o‘ynayotganini ko‘rsatdi. Biroq, SI ning ta’siri hali ham turli sektorlarda farq qilmoqda, bu esa siyosiy va iqtisodiy islohotlar uchun muhim ma’lumotlarni taqdim etadi. Moliya, bank va sug‘urta sohalarida SI texnologiyalarining qo‘llanilishi aniq ijobiy natijalarni berdi, xususan, mijozlarga xizmat ko‘rsatish jarayonlarini tezlashtirish va xarajatlarni optimallashtirish orqali. Biroq, ishlab chiqarish sohasida, sun’iy intellektning joriy etilishi hali ham cheklangan natijalarni ko‘rsatmoqda, bu kelajakda ushbu sohada qo‘llash strategiyalarini qayta ko‘rib chiqishni talab etadi. Ushbu tadqiqotning natijalari, sun’iy intellektni yanada kengroq qo‘llab, uning iqtisodiy salohiyatidan to‘liq foydalanish uchun O‘zbekiston hukumatiga qo‘shimcha siyosiy va iqtisodiy islohotlar amalga oshirishni tavsiya qiladi. Jumladan, texnik ta’limni rivojlantirish, davlat tomonidan sun’iy intellekt texnologiyalariga investitsiyalarni oshirish, va xalqaro texnologik hamkorliklarni kuchaytirish muhimdir. Bu o‘zgarishlar O‘zbekistonni texnologik yangilanishlar doirasida global raqobatbardoshlikni oshirishga yordam beradi va iqtisodiy taraqqiyotni tezlashtiradi.

FOYDALANILGAN ADABIYOTLAR:

1. K Muminbek, THE IMPORTANCE OF THE CREATION AND DEVELOPMENT OF CHATGPT IN ARTIFICIAL INTELLIGENCE, Research Focus 3 (1), 40-44
2. Oliy va o'rta maxsus ta'lim vazirligi. (2024). "O'zbekistonda raqamli ta'lim tizimini rivojlantirish strategiyasi."
3. Innovatsion rivojlanish vazirligi. (2024). "O'zbekiston Respublikasida sun'iy intellekt tizimlarini joriy etish bo'yicha davlat dasturi."
4. O'zbekiston Statistika qo'mitasi. (2024). "Iqtisodiy ko'rsatkichlar yillik hisoboti."

5. PricewaterhouseCoopers. "AI predictions 2023: What a difference a year makes." PwC

YASHIL IQTISODIYOTDA ZAMONAVIY RAQAMLI TEXNOLOGIYALARNING O‘RNI

Xidirov Bobir Baxirovich
Matematika kafedrasi katta o‘qituvchisi
Toshkent Amaliy fanlar Universiteti
orcid. 0009-0003-6178-9711
xbobiras1982@gmail.com
Umarova Nadira Raxmanovna
O‘zbekiston davlat jahon tillari universiteti
zamonaviy axborot texnologiyalari kafedrasi
nodiraumarova400@gmail.com

Annotatsiya. "Yashil iqtisodiyot va raqamli texnologiyalar integratsiyasi: O‘zbekiston uchun yangi imkoniyatlar". Ushbu maqola O‘zbekistonda yashil iqtisodiyotni rivojlantirishda raqamli texnologiyalar (sun’iy intellekt, IoT, blockchain) ning rolini tahlil qiladi. Tadqiqotda aqlli qishloq xo‘jaligi, chiqindilarni boshqarish, energiya samaradorligi kabi sohalarda raqamlashtirishning ijobiy ta’siri ko‘rib chiqiladi. Xalqaro tajribalar va mahalliy loyihalar (masalan, "EcoBot", "AgroVision") asosida O‘zbekiston uchun takliflar ishlab chiqilgan. Maqolada shuningdek, yashil texnologiyalarni joriy etishdagi qiyinchiliklar va ularni bartaraf qilish yo‘llari muhokama qilinadi.

Kalit so‘zlar: yashil iqtisodiyot, raqamli texnologiyalar, sun’iy intellekt (AI), atrof-muhitni muhofaza qilish, barqaror rivojlanish, aqlli qishloq xo‘jaligi, IoT (Narsalar interneti), karbon izi, toza energiya, ekologik innovatsiyalar.

Kirish

Zamonaviy dunyoda ekologik muammolar, iqlim o‘zgarishi va tabiiy resurslarning kamayib borishi yashil iqtisodiyot (ya’ni atrof-muhitni himoya qiluvchi va barqaror rivojlanishga qaratilgan iqtisodiy model) muhimligini oshirmoqda. Ushbu jarayonda raqamli texnologiyalar (AI, IoT, blockchain, katta ma’lumotlar, bulutli hisoblash va boshqalar) hal qiluvchi rol o‘ynaydi. O‘zbekistonda ham yashil iqtisodiyotni rivojlantirish bo‘yicha qadamlar qo‘yilmoqda, ammo raqamli texnologiyalardan samarali foydalanish hali potensialini to‘liq ochmagan.

Bu maqolada yashil iqtisodiyotda raqamli texnologiyalarning ahamiyati, amaliy qo‘llanilishi, O‘zbekiston kontekstidagi imkoniyatlar va muammolar, shuningdek, o‘zbek olimlari ishlari tahlil qilinadi.

Yashil iqtisodiyot va raqamli texnologiyalar: asosiy tushunchalar

Yashil iqtisodiyot – bu tabiiy resurslarni tejash, chiqindilarni qayta ishlash, energiya samaradorligini oshirish va qayta tiklanadigan energiya manbalaridan foydalanishga asoslangan iqtisodiy model.

Raqamli texnologiyalar esa yashil iqtisodiyotni quyidagi yo‘nalishlarda qo‘llab-quvvatlaydi:

Energiya boshqaruvi (aqlli tarmoqlar, IoT asosidagi monitoring);

Qishloq xo‘jaligidagi aniq dehqonchilik (dronlar, sun’iy intellekt yordamida sug‘orishni optimallashtirish);

Chiqqan gazlarni nazorat qilish (AI va sensor tizimlari)

Logistika va transportda barqaror yechimlar (elektromobillar, yo‘l harakatini optimallashtirish)

Raqamli texnologiyalarning yashil iqtisodiyotdagi amaliy qo‘llanilishi

Aqlli energetika tizimlari

Smart Grid (Aqlli tarmoqlar) – elektr energiyasini iste’molchilar va ishlab chiqaruvchilar o‘rtasida optimal taqsimlash. O‘zbekistonda: "Uzbekenergo" kompaniyasi FV quyosh panellarini ulashda raqamli monitoring tizimlarini joriy qilmoqda.

Aniq qishloq xo‘jaligi (Precision Agriculture)

Dronlar va sun’iy intellekt – ekin holatini monitoring qilish, suv va o‘g‘itni tejash.

Misollar:

O‘zbekistonda "Digital Farming" loyihalari qo‘llanilmoqda (masalan, Toshkent viloyatida pilot loyihalar).

"AgroAI" – mahsuldorlikni bashorat qiluvchi dasturiy vositalar.

Chiqindilarni boshqarish va qayta ishlash

Blockchain – chiqindilarni izlash va qayta ishlash zanjirini shaffof qilish.

IoT asosidagi axlat idishlari – to‘ldirilganligini avtomatik xabar beruvchi tizimlar.

Barqaror transport va logistika

Elektromobillar va ulardan foydalanishni optimallashtirish (masalan, "UzAuto Motors" elektromobil ishlab chiqarishni rivojlantirmoqda).

Raqamli texnologiyalarning yashil iqtisodiyotga integratsiyasi: O‘zbekiston misoli

O‘zbekistonda raqamli yechimlar yashil o‘tishni tezlashtirish uchun qo‘llanilmoqda:

Aqlli qishloq xo‘jaligi: Farg‘ona vohasida IoT asosidagi sug‘orish tizimlari (suv sarfini 30% kamaytirgan).

Yashil energiyani boshqarish: Quyosh elektrostansiyalarida AI yordamida energiya taqsimoti (Namangan viloyatidagi pilot loyiha).

Atrof-muhit monitoringi: Toshkentda havo sifati sensori tarmog‘i (real vaqt rejimida ma’lumotlar to‘plash).

O‘zbekistonda yashil iqtisodiyot va raqamli texnologiyalar: imkoniyatlar va muammolar

O‘zbekiston resurslarini tejash, ekologik barqarorlikni ta’minlash va iqtisodiyotni modernizatsiya qilish uchun yashil texnologiyalarni joriy etishga intilmoqda. Biroq, bu yo‘lda bir qator imkoniyatlar ham, to‘siqlar ham mavjud.

Imkoniyatlar:

- Qayta tiklanadigan energiya resurslari – O‘zbekistonda quyosh (300 kun quyoshli kun) va shamol energiyasining katta potentsiali mavjud.
- Hukumat qo‘llab-quvvatlash dasturlari – "Yashil iqtisodiyot" strategiyasi (2023-2030), soliq imtiyozlari, FV stansiyalarini qurish uchun subsidiyalar.
- Startup va innovatsion loyihalar – "IT Park"da ekotech startuplar rivojlanmoqda (masalan, "EcoMonitoring" – havo sifati nazorati uchun AI).

Muammolar:

+ Texnologik infratuzilmaning etishmasligi – Aqlli tarmoqlar, sensor tizimlari va ma’lumotlar bazasini qurish uchun katta investitsiyalar talab qilinadi.
+ Malakali kadrlar yetishmovchiligi – AI, IoT va boshqa raqamli texnologiyalar bo‘yicha mutaxassislar kam.
+ Qonuniy mezonlarning etarli emasligi – Chiqindilarni qayta ishlash, karbon izini kamaytirish bo‘yicha aniq me’yoriy hujjatlar yo‘q.

Kelajakdagi istiqbollar va takliflar.

Yashil iqtisodiyotni rivojlantirish uchun quyidagi choralar muhim:

- Xalqaro hamkorlikni kuchaytirish – Yevropa Ittifoqi va BMT dasturlaridan (masalan, "Green Climate Fund") mablag‘ va texnologik transferni jalb qilish.
- Ta’lim tizimini modernizatsiya qilish – AI, IoT va ekologik muhandislik bo‘yicha mutaxassislar tayyorlash.
- Pilot loyihalarni kengaytirish – Toshkent, Samarqand va Farg‘ona vohasida "Smart Green City" loyihalarini ishga tushirish.

Raqamli texnologiyalar yordamida atrof-muhitni muhofaza qilish.

Yashil iqtisodiyotni rivojlantirishda ekologik monitoring tizimlari muhim rol o‘ynaydi. Raqamli texnologiyalar yordamida:

Havo sifati nazorati – Sensorlar va sun’iy intellekt yordamida zararli gazlar (CO_2, SO_2) darajasi kuzatiladi (masalan, Toshkent shahrida "EcoTashkent" platformasi).

Suv resurslarini boshqarish – Aqlli sug‘orish tizimlari (masalan, Farg‘ona vohasida IoT asosidagi loyihalar).

Yashil energiyaga o‘tish – Quyosh va shamol stansiyalarining ishlashini optimallashtirish uchun AI yordamida prognoz tizimlari (G‘ijduvon tumanidagi quyosh elektrostansiyasi misolida).

Xalqaro tajriba va O‘zbekiston uchun o‘rganiladigan saboqlar.

Niderlandiya – "Smart Farming" tizimlari orqali O‘zbekiston qishloq xo‘jaligida suv va o‘g‘itni tejash.

Germaniya – "Energiewende" (Energiya o‘tishi) dasturi – quyosh va shamol energiyasini tarmoqqa ulash bo‘yicha tajriba.

Koreya – "Smart Green City" loyihalari (Toshkent va Nukus shaharlari uchun moslashtirish mumkin).

O‘zbekistonda qo‘llash uchun amaliy takliflar

- Davlat qo‘llab-quvvatlashni kuchaytirish – Yashil texnologiyalarni joriy etgan korxonalarga soliq imtiyozlari, subsidiyalar.
- Xususiy-investitsiya hamkorligi (PPP) – "Uzpromstroybank" va "Qishloq qurilish bank" tomonidan ekotech startuplarga grantlar ajratish.
- Jamiyatni jalb etish – Atrof-muhitni muhofaza qilish bo‘yicha raqamli platformalar (masalan, "Yashil O‘zbekiston" mobil ilovasi).

Ilmiy – innovatsion ishlanmalar va kelajakdagi yo‘nalishlar

